

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIV VA O‘RTA MAXSUS TA‘LIM VAZIRLIGI
TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI**

**B.T. SALIMOV, M.T. ASQAROVA, I.A. YAKUBOV,
M.S. YUSUPOV, G‘.T. YULDASHEV, H.A. HAKIMOV**

MIKROIQTISODIYOT. MAKROIQTISODIYOT

Darslik

TOSHKENT – 2019

B.T. Salimov, M.T. Asqarova, I.A. Yakubov, M.S. Yusupov, G.T. Yuldashev, H.A. Hakimov. Mikroiqtisodiyot. Makroiqtisodiyot. Darslik. – T.: “Iqtisodiyot”, 2019, - 446 b.

Mazkur darslikda resurslar taqchilligi sharoitida mikro va makrodarajada cheksiz ehtiyojlarni optimal qondirish masalalari o‘zaro uyg‘unlashgan holda yoritilgan. Iqtisodiy tanlov va muqobil xarajatlarning mikroiqtisodiy jihatlari, ishlab chiqarish imkoniyatlaridan samarali foydalanish, firmalar mahsulotiga talab va taklifning bozor muvozanatiga erishish holatlari ko‘rib chiqilgan. Mikro darajada maksimal va minimal narxlarning bozor muvozanatiga ta’siri, makrodarajada yalpi talab va yalpi taklifning muvozanatiga ta’sir etuvchi omillar atroflicha o‘rganilgan. Xususan, mikro darajada iste’molchilarning bozordagi xatti-harakatiga ta’sir etuvchi omillar bilan bog‘liq nazariy va amaliy masalalarga keng o‘rin berilgan. Firmalarning mukammal raqobatlashgan, monopol raqobatlashgan, oligopolistik va sof monopoliya bozorlaridagi xatti-harakati, narxlarni belgilash, xarajatlarni minimallashtirish bilan bog‘liq masalalar chuqur tahlil qilingan.

Makrodarajada esa makroiqtisodiy muvozanatning turli modellari, makroiqtisodiy siyosatning fiskal va monetar yo‘nalishlari, yalpi ishlab chiqarishning doimiy o‘shishini, inflatsiya, ishsizlikning past darajasini ta’minlash, iqtisodiy o‘shish, tashqi savdo siyosati, to‘lov balansi mutanosibligi va valyuta kursini barqarorligi hamda muvozanatini bir butun holda davlat tomonidan tartibga solish mexanizmini ishlab chiqish kabi muhim masalalar o‘rin olgan.

Darslik oliy o‘quv yurtlari bakalavriat ta’lim bosichining 230000 - “Iqtisod” ta’lim sohasi talabalariga mo‘ljallangan. Darslikdan oliy va o‘rta maxsus o‘quv yurtlarining professor-o‘qituvchilari, amaliyotchi mutaxassislar, doktorantlar va tayanch doktorantlar hamda mustaqil izlanuvchilar ham foydalanishlari mumkin.

Darslik Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti Kengashining 2019- yil 30-maydagi 11-sonli qarori bilan nashrga tavsiya etilgan.

Taqrizchilar:

N.M. Maxmudov – i.f.d., professor;

A.A. Abduvaliyev – i.f.n.

© “Iqtisodiyot” nashriyoti, 2019

MUNDARIJA

Kirish	11
1-bob. “MIKROIQTISODIYOT” FANNING MAZMUNI, PREDMETI VA O‘RGANISH USULLARI	
1.1. Fanning predmeti va vazifalari	12
1.2. Fanni o‘rganish usullari.....	14
1.3. O‘zgaruvchan miqdorlarni o‘lchash, taqqoslash va grafiklar yordamida tahlil etish.....	17
Qisqa xulosalar.....	20
Nazorat va muhokama uchun savollar.....	21
2-bob. IQTISODIY BAZIS TUSHUNCHALAR	
2.1. Iqtisodiy ehtiyoj, ne‘mat va resurs tushunchalari	22
2.2. Iqtisodiyotning bosh muammosi: ehtiyojlarning cheksizligi va resurslarning cheklanganligi.....	24
2.3. Iqtisodiy tanlov va muqobil xarajatlar.....	26
2.4. Ishlab chiqarish imkoniyatlari va mahsulotning optimal tarkibi.....	27
2.5. Resurslar va ne‘matlarni taqsimlashning bozor mexanizmi. Iqtisodiy doiraviy aylanish modeli.....	30
Qisqa xulosalar.....	33
Nazorat va muhokama uchun savollar.....	34
3-bob. TALAB VA TAKLIF TAHLILI ASOSLARI	
3.1. Talab va unga ta’sir ko‘rsatuvchi omillar tahlili.....	35
3.2. Taklif va unga ta’sir ko‘rsatuvchi omillar tahlili.....	39
3.3. Talab va taklif funksiyalari.....	43
Qisqa xulosalar.....	46
Nazorat va muhokama uchun savollar.....	47
4-bob. BOZOR MUVOZANATI, MAKSIMAL VA MINIMAL NARXLAR	
4.1. Bozor muvozanati va muvozanatli narx.....	48
4.2. Talab va taklifdagi o‘zgarishlarning bozor muvozanatiga ta’siri.....	49
4.3. Maksimal va minimal narxlarning o‘rnatilishi va bozor muvozanatiga ta’siri.....	57
4.4. Iste‘molchi va ishlab chiqaruvchi yutug‘i.....	59
Qisqa xulosalar.....	60
Nazorat va muhokama uchun savollar.....	61
5-bob. TALAB VA TAKLIF ELASTIKLIGI	
5.1. Talab va taklif elastikligi.....	62
5.2. Bozor sharoiti o‘zgarishlarining oqibatlarini baholash va prognoz qilish...	69
5.3. Talabning narx bo‘yicha elastikligi yordamida daromadlarni tahlil qilish..	71
5.4. Soliq yukini iste‘molchi va ishlab chiqaruvchi o‘rtasida taqsimlanishini tovar elastikligiga ko‘ra tahlili.....	75
Qisqa xulosalar.....	79

Nazorat va muhokama uchun savollar.....	80
6-bob. ISTE'MOLCHI TANLOVI NAZARIYASI	
6.1. Iste'molchi tanlovi va naflilik tushunchasi.....	81
6.2. Iste'molchi talabining alohida xususiyatlari.....	85
6.3. Iste'molchining afzal ko'rishi qoidalari.....	86
6.4. Byudjet cheklanganligi va iste'molchining muvozanatlilik sharti.....	90
Qisqa xulosalar.....	95
Nazorat va muhokama uchun savollar.....	96
7-bob. DAROMAD SAMARASI VA ALMASHTIRISH SAMARASI	
7.1. "Daromad – iste'mol" chizig'i va uning tahlili.....	97
7.2. "Narx – iste'mol" chizig'i va uning tahlili.....	98
7.3. Daromad va almashtirish samarasi.....	100
7.4. Yakka va bozor talabi	102
Qisqa xulosalar.....	104
Nazorat va muhokama uchun savollar.....	104
8- bob. BOZOR VA TAVAKKALCHILIK	
8.1. Noaniqlik sharoitida tanlov.....	105
8.2. Tavakkalchilikka bo'lgan munosabat.....	108
8.3. Tavakkalchilikni (yo'qotishlarni) pasaytirish.....	111
Qisqa xulosalar.....	116
Nazorat va muhokama uchun savollar.....	117
9-bob. FIRMA VA UNING TASHKILY-IQTISODIY ASOSLARI	
9.1. Firma tushunchasi va uning turkumlanishi.....	118
9.2. Xususiy mulk egaligidagi firmalar.....	123
9.3. Hamkorlikka asoslangan firmalar.....	126
9.4. Korporativ mulkka asoslangan firmalar.....	128
Qisqa xulosalar.....	130
Nazorat va muhokama uchun savollar.....	131
10-bob. ISHLAB CHIQRISH NAZARIYASI	
10.1. Ishlab chiqarish va ishlab chiqarish funksiyasi.....	132
10.2. Izokvanta va ishlab chiqarish omillarini chekli texnologik almashtirish normasi.....	133
10.3. Izokosta va ishlab chiqarish xarajatlarini minimalashtiruvchi omillar sarfini aniqlash.....	144
10.4. Masshtab samarasi.....	148
Qisqa xulosalar.....	150
Nazorat va muhokama uchun savollar.....	150
11-bob. ISHLAB CHIQRISH XARAJATLARI	
11.1. Firmalarning qisqa va uzoq muddatli oraliqdagi faoliyati.....	151
11.2. Firmalarda xarajatlar tushunchasi va ularning turkumlanishi.....	151
11.3. O'zgarmas, o'zgaruvchan, o'rtacha va chekli xarajatlar.....	154
11.4. Ishlab chiqarish, davr, moliyaviy xarajatlar va favqulodda zararlar.....	158
Qisqa xulosalar.....	160

Nazorat va muhokama uchun savollar.....	160
12-bob. MUKAMMAL RAQOBATLASHGAN BOZORDA, QISQA MUDDATLI ORALIQDA FIRMA FOYDASINI MAKSIMAL-LASHTIRISH VA UNING TAKLIFI	
12.1. Qisqa muddatli oraliqda raqobatlashuvchi firma daromadlari va ularni hisoblash	162
12.2. Qisqa muddatli oraliqda ishlab chiqarish hajmini aniqlash va foydani maksimallashtirish.....	164
12.3. Raqobatlashuvchi firmaning muvozanat holati.....	166
12.4. Raqobatlashgan firmaning qisqa muddatli oraliqdagi taklifi	170
Qisqa xulosalar.....	172
Nazorat va muhokama uchun savollar.....	173
13-bob. RAQOBATLASHUVCHI FIRMA VA TARMOQNING UZOQ MUDDATLI ORALIQDAGI MUVOZANATI VA TARMOQ TAKLIFI	
13.1. Uzoq muddatli oraliqda ishlab chiqarish hajmini tanlash.....	174
13.2. Tarmoqning muvozanat holati va tarmoq taklifi.....	177
13.3. Tarmoqning uzoq muddatli oraliqdagi umumiy taklifi.....	181
Qisqa xulosalar.....	184
Nazorat va muhokama uchun savollar.....	185
14-bob. RAQOBAT VA YAKKAHOKIMLIK	
14.1. Raqobatlashmagan bozorlar va ularning xususiyatlari	186
14.2. Sof monopoliya va bozor hokimiyati.....	187
14.3. Monopol sharoitda narx belgilash va monopol hokimiyat ko‘rsatkichi....	192
14.4. Monopol hokimiyat va jamiyat farovonligi.....	195
14.5. Monopol narxga soliqlarning ta’siri.....	196
Qisqa xulosalar.....	198
Nazorat va muhokama uchun savollar.....	199
15-bob. BOZOR HOKIMIYATI SHAROITIDA NARX BELGILASH TAMOYILLARI	
15.1. Monopoliyaga qarshi qonunchilik	200
15.2. Monopol hokimiyat sharoitida narx belgilashda iste’molchi ortiqchaligini egallash	202
15.3. Narxlar diversifikatsiyasi	203
Qisqa xulosalar.....	211
Nazorat va muhokama uchun savollar.....	212
16-bob. MEHNAT BOZORI VA KORXONALARDA MEHNAT RESURSLARIDAN FOYDALANISH	
16.1. Raqobatlashgan mehnat bozori.....	213
16.2. Mehnat qilish va dam olish o‘rtasidagi bog‘liqlik.....	216
16.3. Mehnat bozorida monopsoniya bo‘lgan hol.....	221
16.4. Minimal ish haqi.....	222
16.5. Monopolistik mehnat bozori.....	223

16.6. Ish haqi stavkalari differentsiasiyasi (tabaqalashuvi).....	224
Qisqa xulosalar.....	226
Nazorat va muhokama uchun savollar.....	227
17-bob. KAPITAL QO‘YILMALAR VA KAPITAL BOZORI	
17.1. Kapital bozori va kapital qo‘yilmalar.....	228
17.2. Uzoq muddatli oraliqdagi investitsiya.....	232
17.3. Investitsiyani hisoblashdagi diskontlangan qiymat.....	235
17.4. Yer bozori.....	239
Qisqa xulosalar.....	244
Nazorat va muhokama uchun savollar.....	245
18-bob. KORXONALAR FAOLIYATINI DAVLAT TOMONIDAN TARTIBGA SOLISH	
18.1. Iste’molchi va ishlab chiqaruvchi ortiqchaligi.....	246
18.2. Iste’molchi va ishlab chiqaruvchi ortiqchaligidan foydalanish.....	248
18.3. Soliqni uzoq va qisqa muddatli ta’siri.....	255
18.4. Raqobatlashgan bozor samaradorligi.....	257
Qisqa xulosalar.....	259
Nazorat va muhokama uchun savollar.....	260
19-bob. MAKROIQTISODIYOTGA KIRISH	
19.1. “Makroiqtisodiyot” fanining shakllanishi tarixi, predmeti va obykti	261
19.2. Makroiqtisodiyot fanining tadqiqot usullari.....	263
19.3. “Resurslar – tovarlar va xizmatlar” hamda “daromadlar – xarajatlar”ning doiraviy oqimi modeli.....	266
19.4. O‘zbekiston iqtisodiyotini barqaror rivojlantirishda makroiqtisodiy dasturlarni ishlab chiqish va amalga oshirish yondashuvlaridan foydalanish.....	269
Qisqa xulosalar.....	270
Nazorat va muhokama uchun savollar.....	271
20-bob. ASOSIY MAKROIQTISODIY KO‘RSATKICHLAR VA ULARNI HISOBLASH	
20.1. Milliy iqtisodiyotni tahlil qilishda qo‘llaniladigan asosiy ko‘rsatkichlar.....	272
20.2. Yalpi ichki mahsulot tushunchasi va uni hisoblashning asosiy shartlari	273
20.3. Yalpi ichki mahsulotni hisoblash usullari	274
20.4. Milliy hisobchilik tizimidagi boshqa ko‘rsatkichlar va ular o‘rtasidagi nisbat.....	279
20.5. Nominal va real yalpi ichki mahsulot.....	281

20.6. Asosiy makroiqtisodiy ayniyatlar.....	283
Qisqa xulosalar.....	284
Nazorat va muhokama uchun savollar.....	285
21-bob. IQTISODIY TEBRANISHLAR. ISHSIZLIK	
21.1. Iqtisodiy davrlar va iqtisodiy tebranishlarning sabablari.....	286
21.2. Ishsizlik tushunchasi va ishsizlik darajasining o'lchanishi.....	289
21.3. Ishsizlikning iqtisodiy oqibatlar. A. Ouken qonuni.....	290
Qisqa xulosalar.....	292
Nazorat va muhokama uchun savollar.....	292
22-bob. INFLATSIYA VA INFLATSIYAGA QARSHI SIYOSAT	
22.1. Inflatsiyaning mohiyati va hisoblanish usullari.	293
22.2. Inflatsiyaning turlari. Talab va taklif inflatsiyasi.	294
22.3. Inflatsiya va ishsizlik o'rtasidagi bog'liklik. Fillips egri chizig'i	296
Qisqa xulosalar.....	298
Nazorat va muhokama uchun savollar.....	298
23-bob. YALPI TALAB-YALPI TAKLIF MODEL	
23.1. Yalpi talab-yalpi taklif modeliga umumiy tavsif. Yalpii talab tushunchasi va grafigi	300
23.2. Yalpi talabning baho va bahodan boshqa omillari.....	301
23.3. Yalpi taklif grafigi va omillari.....	303
23.4. AD-AS modelida makroiqtisodiy muvozanat.....	305
Qisqa xulosalar.....	308
Nazorat va muhokama uchun savollar.....	309
24-bob. ISTE'MOL, JAMG'ARISH VA INVESTITSIYA	
24.1. Iste'mol va jamg'arish, ularning grafiklari va funksiyalari.....	310
24.2. Iste'mol va jamg'arishga o'rtacha hamda chegaralangan moyillik.....	313
24.3. Investitsiyalarning mohiyati, grafigi va funksiyasi.	314
24.4. Investitsiyalar dinamikasini belgilovchi foiz stavkasidan boshqa omillar. Akselerator modeli.....	316
Qisqa xulosalar.....	317
Nazorat va muhokama uchun savollar.....	317
25-bob. KEYNSNING TOVARLAR VA XIZMATLAR BOZORIDA MAKROIQTISODIY MUVOZANAT MODEL	
25.1. Keynsning makroiqtisodiy muvozanat nazariyasi asoslari.....	318
25.2. Haqiqiy va rejalashtirilgan xarajatlar.	320
25.3. «Keyns xochi». Ishlab chiqarish hajmining muvozanat darajasiga erishish mexanizmi.....	321
25.4. Avtonom xarajatlar multiplikatori.....	322

25.5. Retsession va inflatsion uzilish.....	323
Qisqa xulosalar.....	325
Nazorat va muhokama uchun savollar.....	326
26-bob. PUL BOZORIDA MUVOZANAT	
26.1. Pul tushunchasi va uning funksiyalari. Pul agregatlari.....	327
26.2. Pulga talabning klassik nazariyasi.....	328
26.3. Pulga talabning keynscha nazariyasi.....	328
26.4. Pul taklifi. Bank multiplikatori.....	330
26.5. Pul taklifining kengaytirilgan modeli pul multiplikatori.....	331
26.6. Pul bozorida muvozanat.....	332
Qisqa xulosalar.....	334
Nazorat va muhokama uchun savollar.....	334
27- bob. DAVLAT BUDJETI, SOLIQLAR VA DAVLAT QARZI	
27.1. Davlat budjetining mohiyati va funksiyalari.....	335
27.2. Davlat budjeti xarajatlari.....	336
27.3. Soliqlarning turlari va funksiyalari.....	338
27.4. Davlat budjetining soliqlarga ko‘ra tarkibi.Soliq yuki.....	343
Qisqa xulosalar.....	347
Nazorat va muhokama uchun savollar.....	347
28- bob. BUDJET-SOLIQ SIYOSATI	
28.1. Budjet-soliq siyosatining mohiyati va usullari.	348
28.2. Davlat xarajatlari, soliq va balanslashgan budjet multiplikatorlari...	348
28.3. Diskret va nodiskret fiskal siyosat. Budjet taqchilligi va ortiqchaligi	352
Qisqa xulosalar.....	357
Nazorat va muhokama uchun savollar.....	357
29-bob. PUL-KREDIT SIYOSATI	
29.1. Banklar va ularning bozor iqtisodiyotidagi vazifalari.....	259
29.2. Pul-kredit siyosatining maqsadlari, vositalari va ko‘rinishlari. Depozitlarni majburiy zahiralash normasi.	360
29.3. Ochiq bozordagi operatsiyalar va hisob stavkasi.....	363
Qisqa xulosalar.....	367
Nazorat va muhokama uchun savollar.....	367
30- bob. IS-LM MODELINING SHAKLLANISI VA TATBIQI	
30.1. IS - LM modelining mohiyati va AD-AS modeli bilan bog‘liqligi.	368
30.2. Modelning asosiy tenglamalari.....	368
30.3. IS - egri chizig‘i va uning tenglamasi.....	369
30.4. LM - egri chizig‘i va uning tenglamasi	370

30.5. IS-LM modelida makroiqtisodiy muvozanat	372
Qisqa xulosalar.....	374
Nazorat va muhokama uchun savollar.....	374
31-bob. IQTISODIY O‘SISHNING UMUMIY TAVSIFI VA NEOKEYSNSCHA MODELLARI	
31.1. Iqtisodiy o‘shish tushunchasi va o‘lchanishi.	375
31.2. Iqtisodiy o‘shishga omillari va tiplari.....	376
31.3. Iqtisodiy o‘shishning E.Domar modeli.....	378
31.4. Iqtisodiy o‘shishning R.Xarrod modeli.....	379
Qisqa xulosalar.....	380
Nazorat va muhokama uchun savollar.....	381
32-bob. IQTISODIY O‘SISHNING NEOKLASSIK MODELLARI	
32.1. R.Solouning neoklassik modeli asoslari.....	382
32.2. R.Solou modelida kapitalning chiqib ketishi aholi soni o‘shishing barqaror muvozanati va iqtisodiy o‘shishga ta’siri.....	385
32.3. Texnologik taraqqiyotning iqtisodiy o‘shishga ta’siri. Felpsning «oltin qoidasi».....	388
32.4. Iqtisodiy o‘shishning J.Mid va A. Lyuis modellari.....	391
Qisqa xulosalar.....	394
Nazorat va muhokama uchun savollar.....	395
33-bob . XALQARO SAVDO NAZARIYASI	
33.1. Xalqaro savdoning zaruriyati va uning asosiy ko‘rinishlari.....	396
33.2. A.Smitning mutlaq ustunlik nazariyasi.	397
33.3. Rikardoning nisbiy ustunlik nazariyasi.....	397
33.4. Xeksher – Olinning neoklassik konsepsiyasi.....	400
33.5. Xalqaro savdoning zamonaviy nazariyalari	401
Qisqa xulosalar.....	402
Nazorat va muhokama uchun savollar.....	403
34-bob. TASHQI SAVDO SIYOSATI	
34.1. Tashqi savdo siyosatining mohiyati va vositalari.....	404
34.2. Importga ta’riflar. Importga tariflar kiritilishining iqtisodiy oqibatlarini.....	405
34.3. Ishlab chiqaruvchilarga subsidiyalari va importni kvotalar orqali tartibga solish.	408
34.4. Eksport subsidiyalari. Eksport bojlari va eksportni ixtiyoriy cheklash.....	411
Qisqa xulosalar.....	412
Nazorat va muhokama uchun savollar.....	412

35- bob. TO‘LOV BALANSI

35.1. To‘lov balansi tushunchasi va uning tuzilishi.....	414
35.2. Joriy operatsiyalar hisobi balansi.....	415
35.3. Kapital harakati hisobi balansi.....	416
35.4. To‘lov balansining tarkibiy qismlari o‘rtasidagi bog‘liqliklar.....	417
35.5. To‘lov balansini makroiqtisodiy tartibga solish vositalari va usullari.....	419
Qisqa xulosalar.....	422
Nazorat va muhokama uchun savollar.....	422

36- bob. VALUTA KURSI

36.1. Valuta va jahon valuta tizimi tushunchasi.....	423
36.2. Valuta bozorini davlat tomonidan tartibga solish usullari.....	425
36.3. Valuta kursi va uni belgilovchi omillar.....	427
36.4. Xarid qobilyati pariteti.....	430
36.5. Makroiqtisodiy siyosatning nominal va real valuta kurslariga ta’siri.....	431
Qisqa xulosalar.....	433
Nazorat va muhokama uchun savollar.....	434

IZOHLI LUG‘AT.....	435
FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI.....	443

KIRISH

Iqtisodiyotning barqaror o‘shish sur‘atlarini ta‘minlash, investitsiya va ishbilarmonlik muhitini yaxshilash, jahon iqtisodiyotiga integratsiya, iqtisodiy faollikni oshirish, davlatning bozorga aralashuvi, narxning shakllanishi, qaror qabul qilish, raqobatbardoshlikka erishish bir tomondan makroiqtisodiy siyosatning samaradorligiga bog‘liq bo‘lsa, ikkinchi tomondan mikroiqtisodiy tahlil natijalariga tayanadi.

Ma‘lumki respublikaning to‘la bandligi, yalpi ishlab chiqarishning davomiy o‘shishini, inflatsiya va ishsizlik darajalari, davlat byudjeti taqchilligini me‘yorlarini, to‘lov balansi barqarorligini ta‘minlash kabilarni bir butun holda davlat tomonidan tartibga solish mexanizmlarini ishlab chiqish bir tomondan makroiqtisodiy siyosat samaradorligidan dalolat bersa, ikkinchi tomondan aholining real daromadlarini o‘stirishning ham muhim shartidir.

Bugungi kunda iste‘molchilar talabining o‘zgarishi, narxning shakllanishi, foydani maksimallashtirish, talab va taklif elastikligi kabi tushunchalarni tizimli tahlil etishda muhim ahamiyat kasb etimoqda. Raqobatbardoshlikka erishish va dunyo bozoriga chiqish ko‘p jihatdan tarkibiy siljishlarni amalga oshirish, diversifikatsiyani chuqurlashtirish bilan bog‘liq.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017- yil 7- fevraldagi PF-4947-sonli Farmoni bilan tasdiqdangan “2017-2021- yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha Harakatlar strategiyasi”da ishlab chiqarishni modernizatsiyalash va texnik-texnologik yangilash, ishlab chiqarishga innovatsion texnologiyalarni qo‘llash, mahsulot ishlab chiqarish turlarini diversifikatsiyalash, chuqur tarkibiy o‘zgarishlarni amalga oshirish hamda tarmoqlarning raqobatbardoshligini mustahkamlash borasida izchil chora-tadbirlarni amalga oshirish to‘g‘ridan-to‘g‘ri yoki bilvosita mikro va makroiqtisodiy darajadagi masalalarni hal qilish bilan bog‘liq.

Ushbu fan bozor iqtisodiyotining amal qilish mexanizmini, turli mulkchilikka asoslangan firmalarning bozor sharoitidagi harakatini, cheklangan ishlab chiqarish resurslarini optimal taqsimlash va ulardan samarali foydalanish, inflatsiya va ishsizlikning past darajalarini ta‘minlash, davlat byudjeti taqchilligini me‘yorlari, to‘lov balansining barqarorligiga erishish yo‘llarini talabalarga o‘rgatishda qo‘l keladi. Shuningdek, “Mikroiqtisodiyot. Makroiqtisodiyot” fani fundamental fanlardan biri bo‘lib, boshqa iqtisodiy fanlarni chuqur o‘rganishga asos bo‘lib xizmat qiladi.

1-bob. “MIKROIQTISODIYOT” FANINING MAZMUNI, PREDMETI VA O‘RGANISH USULLARI

1.1. Fanning predmeti va vazifalari

Insoniyat tabiatdan biologik, ijtimoiy va boshqa ehtiyojlar qurshovida yaratilgan. Biz farovon hayot kechirishimiz uchun turli ne‘matlarga, ya’ni oziq-ovqatlar, kiyim-kechaklar, tovarlar va xizmatlarga ehtiyoj sezamiz. Ayrim ne‘matlarni tabiat insoniyatga iste‘molga tayyor holatda in‘om etgan bo‘lsa (masalan, suv, yovvoyi mevalar va hayvonlar), ayrimlarini takror ishlab chiqarish zarur bo‘ladi.

Iqtisodiy ne‘matlarni ishlab chiqarish uchun ma‘lum miqdordagi iqtisodiy resurslardan: yer, ishchi kuchi, tadbirkorlik qobiliyati, boshqaruv malakasi, kapital, xomashyo va materiallardan foydalanishni talab etadi. Agar jamiyatdagi iqtisodiy resurslar miqdori cheklanmagan bo‘lganida, har bir inson o‘zi istagan hamma narsaga ega bo‘lishi mumkin bo‘lardi. Ammo, insoniyatning moddiy ehtiyojlari xayol va orzular ummoni singari cheksiz bo‘lgan bir sharoitda, bu ehtiyojlarni qondirish vositalari bo‘lgan iqtisodiy resurslar miqdori o‘ta cheklangan. Bu shuni anglatadiki, jamiyatdagi mavjud barcha iqtisodiy resurslarning ishlab chiqarish imkoniyatlari jamiyat a‘zolarining ehtiyojlarini to‘liq qondirish uchun yetarli emas. Bunday holat jamiyat a‘zolarining o‘z ehtiyojlarini to‘liq qondirishga bo‘lgan imkoniyatlarini doimo va muqarrar ravishda cheklab turadi.

Har qanday jamiyat iqtisodiy resurslar cheklangan sharoitda o‘zining ehtiyojlarini maksimal qondirishga intilarkan, kundalik hayotda quyidagi uchta asosiy vazifalar echimini topishga urinadi:

1. **Nimani ishlab chiqarish**, ya’ni qaysi turdagi tovarlar va xizmatlardan qancha miqdorda ishlab chiqarish talab etiladi?

2. **Qanday qilib ishlab chiqarish**, ya’ni tovarlar va xizmatlar qanday texnologiyalardan foydalanib, qaysi yo‘l bilan ishlab chiqarilishi lozim?


3. **Kim uchun ishlab chiqarish**, ya’ni tovarlar va xizmatlarning iste‘molchilari kimlar?

Nimani, qanday qilib va kim uchun ishlab chiqarish masalasi jamiyat oldida turgan eng asosiy iqtisodiy muammolardan sanaladi. Shundan kelib chiqqan holda iqtisodiyot faniga quyidagicha ta’rif berish mumkin. **Iqtisodiyot** – bu jamiyat a‘zolarining cheksiz ehtiyojlarini to‘laroq qondirish maqsadida cheklangan va noyob resurslaridan foydalanib, nimani, qanday qilib va kim uchun ishlab chiqarish muammosini echish yo‘llarini o‘rgatadigan fandır. Boshqacha qilib aytganda iqtisodiyot insoniyatning moddiy ehtiyojlarini maksimal darajada qondirishga erishish yo‘lida cheklangan resurslardan samarali foydalanish masalalarini tadqiq etadigan fandır.

Kundalik hayotimizda har birimiz o‘zimizning cheklangan vaqtimizdan samarali foydalanish, oylik maoshimizni oziq-ovqat, kiyim-kechak yoki maishiy texnikalar sotib olish uchun to‘g‘ri taqsimlash kabi o‘nlab masalalar xususida qaror qabul qilishimizga to‘g‘ri keladi. Xuddi shuningdek, tovarlar va xizmatlarni ishlab chiqarish bilan shug‘ullanuvchi firmalar ham sarmoyani qaysi sohaga tikish, xom

ashyo va asbob-uskunalarni qancha miqdorda va qaerdan xarid etish, qanday texnika va texnologiyalardan foydalanish, resurslarni sarfini qanday tejash, mahsulotni xaridorgir qilib tayyorlash, to'g'ri narx siyosatini yuritish kabi ko'plab masalalar yuzasidan optimal qarorlar qabul qilishga harakat qiladilar.

Yuqorida keltirilgan ma'lumotlar asosida shunday xulosaga kelish mumkinki, jamiyatning induvidial a'zosi, firma va kompaniyalar yoki umumdavlat darajasidagi ko'plab masalalar yuzasidan to'g'ri qarorlar qabul qilish uchun, iqtisodiy jarayonlarni o'rganishi va bu sohada kerakli bilim va ko'nikmalarga ega bo'lish talab etiladi. Iqtisodiy jarayonlarni o'rganish va tahlil qilish **mikro** va **makro** darajada amalga oshiriladi (1.1-rasm).



1.1-rasm. Iqtisodiy jarayonlarni mikro va makro darajada o'rganish¹


Makroiqtisodiy tahlil iqtisodiyotni bir butun tizim sifatida, yoki uning tarkibiga kiruvchi yirik bo'linmalari, davlat, uy xo'jaligi va xususiy sektor darajasida o'rganishni nazarda tutadi. Shuning uchun ham makroiqtisodiy tadqiqotlar yalpi ichki mahsulot, ishsizlik va bandlik, inflatsiya va narxlarning umumiy darajasi, iqtisodiy o'sish, xalqaro savdo va to'lov balansi kabi umumiy masalalarni qamrab oladi.

Mikroiqtisodiy tahlil aniq iqtisodiy sub'ektlar faoliyati bilan bog'liq va ularning bozordagi xatti-harakatini o'rganadi. Bu yerda iqtisodiyotning alohida tarmoqlari, bozorlar, firmalar va iste'molchilar xususida fikr yuritiladi. Tahlil ob'ekti sifatida aniq bir mahsulotni ishlab chiqarish hajmi va narxi, ishlab chiqarish xarajatlari va mahsulot tannarxi, firma daromadi va foydasi, iste'molchilarning bozordagi xatti-harakati va tanlovi, turli bozorlarda narxlarning shakllanishi va foydani maksimallashtirish shartlari kabi masalalar yuzaga chiqadi. Odatda mikroiqtisodiy tahlil orqali quyidagiga o'xshash savollarga javob topishga harakat qilinadi: Mahsulot narxining o'zgarishi bozordagi talab va taklif hajmiga qanday

¹ Тарануха Ю.В. Микроэкономика (в структурно-логических схемах).– М.: Дело и сервис, 2002. – стр. 5 asosida tayyorlangan.

ta'sir ko'rsatadi? Minimal ish haqi stavkasining yoki xomashyo va resurslar narxining oshishi mahsulot ishlab chiqarish tannarxiga qanday ta'sir ko'rsatadi? Firma foydasini maksimallashtirish shartlari nimalardan iborat?

“Mikroiqtisodiyot” resurslar cheklangan sharoitda cheksiz ehtiyojlarni maksimal qondirish yo'lida aniq individual sub'ektlarning iqtisodiy xatti-harakatlari va qarorlar qabul qilish jarayonini o'rganish bilan shug'ullanadi (1.2-rasm).



1.2-rasm. “Mikroiqtisodiyot” fani predmetining shakllanishi²

Individual iqtisodiy sub'ektlar deganda firmalar, uy xo'jaliklari, tarmoqlar va bozorlarni tushunamiz. “Mikroiqtisodiyot” fanining asosiy maqsadi bozor munosabatlari sharoitida iqtisodiyotda amal qiladigan qonuniyatlarni, resurslar taqchilligi sharoitida jamiyat ehtiyojini maksimal qondirish yo'llari to'g'risida iqtisodiy bilimlarni va ularni amalda tadbiiq etish yo'llarini o'rgatishdan iborat.

1.2. Fanni o'rganish usullari

Iqtisodchilar faoliyatining mazmuni nimadan iborat? Ular nima maqsadni ko'zlab ish olib borishadi va qanday usullardan foydalanishadi?

Iqtisodchilar iqtisodiy muammolar yechimini topishni maqsad qilib qo'yar ekanlar, iqtisodiy siyosatni ishlab chiqishga yordam beruvchi tamoyillarni shakllantiradilar. Mantiqiy to'g'ri xulosalar chiqarish va qarorlar qabul qilish har bir nazariya va modelni, iqtisodiy qonunlarni shu sohaning o'ziga xos xususiyatlarini hisobga olgan holda qo'llashni taqozo qiladi. “Mikroiqtisodiyot” fani ham bundan mustasno emas.

Iqtisodiy fanlarda qo'llanilgan ilk usul formal mantiq bo'lib, u fanga Aristotel tomonidan kiritilgan. **Formal mantiq** – bu g'oyani uning tarkibiy qismlari va

² Ю.В. Тарануха. Микроэкономика (в структурно-логических схемах).– М.: Дело и сервис, 2002. – стр. 8 asosida tayyorlangan.

shaklidan kelib chiqib o'rganishdir. Uning eng sodda kategoriyasi **tushunchadir**. **Tushuncha** predmet to'g'risidagi fikrni izohlaydi.

Fikrlash – bu biror g'oyani tasdiqlash yoki inkor etishni anglatuvchi jarayon. Uning asosida xulosa shakllantiriladi. **Xulosa** – bu fikrlash usuli bo'lib, uning vositasida birlamchi bilimlardan yakuniy bilimlar olinadi.


Ko'p hollarda iqtisodiy tadqiqot o'rganilayotgan ob'ektga tegishli biror muammoni yechimini topishga qaratilgan bo'ladi. **Muammo** – ilmiy anglab yetish jarayonida shakllantirilgan masala yoki ular yig'indisidir.

Iqtisodchilar avvalo ma'lum iqtisodiy muammoga taalluqli dalillarni aniqlash va to'plashdan ish boshlaydilar. Bu jarayonni ba'zan **tavsiflovchi** yoki **emperik iqtisodiy fan** deb atashadi. Iqtisodiy tadqiqot ayrim dalillardan nazariyaga qarab harakat qilganda **induksiya** usulini, aksincha nazariyadan ayrim dalillarga qarab harakat qilganda esa **deduksiya** usulini ifoda qiladi.

Dalillarni tahlil qilish orqali iqtisodiy tamoyillar yoki nazariya yaratiladi. Bu jarayon **iqtisodiy nazariya** yoki **tahlil** deb nomlanadi.

Tahlil (analiz) usulida jarayonlar mayda bo'laklarga, alohida-alohida dalillarga ajratib o'rganilsa, **sintez** usulida ayrim dalillarni birlashtirish, o'zaro bog'liqlikda o'rganish orqali umumlashtiriladi va yakuniy xulosa chiqariladi.

Iqtisodiy jarayonlar va voqelikni o'rganishda **pozitiv** va **normativ** usullar farq qiladi (1.3-rasm).



1.3-rasm. Pozitiv va normativ tahlil mezonlari³

³ Ю.В. Тарануха. Микроэкономика (в структурно-логических схемах).– М.: Дело и сервис, 2002. – стр. 11 asosida tayyorlangan.

Pozitiv yoki **diskriptiv tahlil** iqtisodiy faoliyatning ob'ektiv holatini yoki iqtisodiy xatti-harakatlarning ilmiy talqinini ifodalaydi. U sub'ektiv baholovchi mushohadalardan yiroq bo'lib, tanlab olingan va nazariya darajasiga yetgan faktlar bilan ish ko'radi. Masalan, muayyan tovarga nisbatan aksiz solig'ini joriy etilishi uning narxini oshishiga yoki qulay ob-havo sharoiti qishloq xo'jaligi mahsulotlaridan mo'l hosilni ta'minlab, ularning narxlari va fermerlar daromadlari pasayib ketishiga olib kelishini prognoz qilish pozitiv tahlilga xos.

Normativ tahlil esa sub'ektiv yoki alohida shaxslarning baho beruvchi mushohadalariga tayangan holda iqtisodiy xatti-harakatlar retseptini taklif etadi. Ya'ni u iqtisodiyot qanday faoliyat ko'rsatishi kerakligini yoki muayyan bir nazariya va tajribalarga tayangan holda qanday chora-tadbirlarni qo'llash maqsadga muvofiqligini ifodalaydi.

Dalillarni keng qamrovli tahlil etish uchun iqtisodiy tadqiqotning turli usullaridan foydalaniladi. Ularning ichida eng ko'p statistik, hisob-analitik, iqtisodiy-matematik, tajriba usullaridan foydalaniladi.

Statistik, ya'ni dinamik qatorlar, o'rtacha sonlar, guruhlashtirish, analitik, korelyatsion, dispersion va regression tahlil usullari orqali firmalarda sodir bo'ladigan miqdor o'zgarishlari qanday qilib sifat o'zgarishlariga olib kelishi, ayrim omillar va dalillar o'rtasida qanday aloqa va bog'lanishlar borligi anqlanadi.

Hisob-analitik usullardan biron loyihani ishlab chiqishda yoki firmalarning istiqbolli rivojlanishi bilan bog'liq prognozlarni ishlab chiqishda keng foydalaniladi.

Tajriba usuli normativ asosda belgilangan me'yoriy tadbirni yoki biron-bir nazariyani keng miqyosda qo'llashdan oldin kichik doirada sinab ko'rishdir. Agar bu sinov natijalari amalda o'zini oqlasa, xuddi shu sharoit bo'lgan joylarda ularni keng qo'llashga tavsiya etiladi. Chunki amaliyot - haqiqat mezonidir.

Iqtisodchilar hayotning moddiy tomonlarini o'lchash va tavsivlash bilan shug'ullanadilar, ammo ularning asosiy maqsadi iqtisodiyotning qanday amal qilishini tushunish hisoblanadi. Real iqtisodiy hayot juda murakkab bo'lib, unda millionlab jarayonlar amalga oshiriladi va tahlilda ularning barchasini qamrab olish mumkin emas. Shu tufayli iqtisodchilar tahlil qilish imkoni bo'lgan soddalashtirilgan modellar orqali murakkab jarayonlar hamda real holatlarda qo'llash mumkin bo'lgan umumiy qoidalarni ishlab chiqishga harakat qiladilar.

Model deganda reallikni soddalashtirilgan holda aks ettirish tushuniladi. Modelning ahamiyati o'rganilayotgan iqtisodiy reallikning eng muhim xususiyatlariga e'tiborni jamlab, ishga aloqador bo'lmagan yoki ahamiyatsiz detallarni tahlildan chetlashtirilishidadir. Bunda asosiy e'tibor tizimdagi asosiy elementlar va ular o'rtasidagi o'zaro bog'liqlikka qaratiladi.

Iqtisodiy model – iqtisodiy jarayon yoki hodisalarning formallashtirilgan tasnifi bo'lib, uning tarkibi tadqiqot maqsadidan kelib chiquvchi ob'ektiv yoki sub'ektiv xususiyatlarga bog'liq holda shakllantiriladi.

Modelga tayyor holda kiritiladigan, avvaldan ma'lum miqdoriy qiymatliklar **ekzogen**, model doirasida qo'yilgan vazifani echish jarayonida olinadigan miqdoriy qiymatliklar esa **endogen omillar** deb ataladi. Modelning real iqtisodiy voqeliklar bilan aloqasi ikki xil xususiyatga ega: bir tomondan u real voqelikning aksi, uni shartli qayta hosil qilishdir; ikkinchi tomondan esa qo'yilgan maqsaddan kelib chiqib

real voqelikni o'zgartirishga, yaqin, o'rta va uzoq muddatda kutiladigan o'zgarishlar natijalarini prognoz qilishga xizmat qiladi.

Modellar turli maqsadlar va vazifalarning yechimini topishga xizmat qiladi. Ularni umumlashtirish darajasiga ko'ra - abstrakt-nazariy va aniq iqtisodiy, qamrab olish sohasiga ko'ra - mikro va makroiqtisodiy, vaqt oralig'iga ko'ra - statik va dinamik, omillar soniga ko'ra - bir va ko'p omilli, modelga kiritilgan omillar o'zaro ta'siriga ko'ra - chiziqli va chiziqsiz turlarga ajratish mumkin.

1.3. O'zgaruvchan miqdorlarni o'lchash, taqqoslash va grafiklar yordamida tahlil etish

Zamonaviy iqtisodiy nazariyaning aniqroq bo'lishi u o'rganilayotgan iqtisodiy jarayonlarning miqdoriy tomonlarini tadqiq etish matematik instrumentlardan kengroq foydalanishni taqozo qiladi. Hozirgi vaqtda iqtisodchilar iqtisodiy jarayonlarni o'rganishda model tushunchasidan keng foydalanmoqdalar.

Model deganda, iqtisodiy jarayonning chizmasi, loyihasi yoki matematik formulalar bilan ifodalanishi tushuniladi. Amaliyotda kengroq ishlatiladigan modellardan biri iqtisodiy-matematik model hisoblanadi. Iqtisodiy matematik modellar iqtisodiy jarayonlarning miqdoriy jihatlarini funksiya, tenglama yoki tengsizliklar orqali ifodalaydi.

Mikroiqtisodiy tahlilda qo'llaniladigan modellar, ularga kiritilgan natijaviy va o'zgaruvchan omillar o'rtasidagi bog'liqlikni ifodalash uchun matematik funksiyalar (tengliklar yoki tengsizliklar) yoki grafiklardan foydalaniladi.

Funksiya - bu matematik tushuncha bo'lib, bog'liq o'zgaruvchi bilan erkin o'zgaruvchilar o'rtasidagi miqdoriy bog'liqlikni ifodalaydi. Biz ko'pincha qandaydir bir o'zgaruvchini ikkinchi bir o'zgaruvchi ta'siriga bog'liq holda o'zgarishini ko'rsatmoqchi bo'lamiz. Ammo bizga mazkur ikki o'zgaruvchilar o'rtasidagi aniq algebraik bog'liqlik ayon emas. Bunday holda biz ular o'rtasidagi o'zaro bog'liqlikni $y = f(x)$ funksiya orqali ifoda etamiz.

Iqtisodchilar funksiyadagi o'zgaruvchilardan qaysi biri "sabab" va qaysi biri "natija" ekanligini aniqlashga urinishadi. Boshqacha aytganda, o'zgaruvchilarning qaysisi "erkin" va qaysisi unga "bog'liq" holda o'zgarishini aniqlash zarur. Odatda erkin o'zgaruvchi - "sabab", bog'liq o'zgaruvchi esa - "natija"ni ifodalaydi. Agar funksiya bitta bog'liq o'zgaruvchi bilan, bitta erkin o'zgaruvchi o'rtasidagi bog'liqlikni ifodalasa, unga bir o'zgaruvchili funksiya deyiladi va u $y=f(x)$ ko'rinishida yoziladi. $y=f(x)$ funksiyada x erkin o'zgaruvchi, y esa bog'liq o'zgaruvchi vazifasini o'taydi. Ya'ni x qiymati mustaqil, y qiymati esa x qiymatiga bog'liq holda o'zgaradi.

Faraz qilaylik, biz bug'doy narxining o'zgarishi unga bo'lgan talab miqdoriga qanday ta'sir ko'rsatishini ifodalamoqchimiz. Bunda natijaviy omilga (talab miqdoriga) faqat bitta o'zgaruvchi, ya'ni narx ta'sir ko'rsatyapti. Uni ifodalash uchun bir omilli matematik funksiyadan, ya'ni $y = f(x)$ dan foydalanib, bug'doy narxi va unga mos talab miqdori o'zgarishi o'rtasidagi bog'liqlikni $Q_d = f(P)$ model orqali

ifodalaymiz. Bu erda P – bug‘doy narxini, Q_d - narx o‘zgarishi ta’sirida bug‘doyga talab miqdorini va f - ular o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqlikni ifoda etadi.


Ba’zan y qiymatining o‘zgarishiga bitta emas, bir nechta omillar ta’sir ko‘rsatishi mumkin. Bunda holda ko‘p omilli funksiyadan foydalanib, ular o‘rtasidagi o‘zar bog‘liqlikni $y = f(x_1, x_2, x_3, \dots, x_n)$ ko‘rinishida ifodalaymiz. Yuqorida keltirgan misolimizdagi bug‘doyga bo‘lgan talabga bug‘doy narxidan tashqari boshqa omillar (masalan, iste’molchilar daromadi (R) va soni (N)) ham ta’sir ko‘rsatsa, ular o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqlikni ko‘p omilli funksiya orqali quyidagicha ifodalaymiz:

$$Q_d = f(R, R, N)$$

O‘zgaruvchilar orasidagi bog‘liqlikni chiziqli yoki chiziqsiz funksiyalar (tenglama yoki tengsizliklar) orqali ham ifodalash mumkin. Chiziqli funksiyaga misol sifatida $y = ax - b$ tenglikni keltirish mumkin. Bu erda a va b lar konstanta. Bug‘doyga talab va bug‘doy narxi o‘rtasidagi bog‘liqlikni $Q_D = a - bP$ chiziqli tenglama orqali tasvirlash mumkin.

Iqtisodiy modelning eng sodda ko‘rinishlaridan biri – grafik hisoblanadi.

Grafik – bu ikki yoki undan ortiq o‘zgaruvchilar yoki berilgan miqdorlar o‘rtasidagi bog‘liqlikni ifoda etuvchi tasvirdir. Masalan, bug‘doyning narxi va unga talab o‘rtasidagi bog‘liqlikni quyidagi grafik orqali ifodalash mumkin (1.4-rasm).




1.4-rasm. Bug‘doy narxi va unga talab o‘rtasidagi bog‘liqlik

Matematikada erkin o‘zgaruvchi qiymatlari grafikning gorizonttal o‘qiga (absissa o‘qiga), bog‘liq o‘zgaruvchi qiymatlari esa vertikal o‘qqa (ordinata o‘qiga) joylashtiriladi. Ammo iqtisodchilar erkin o‘zgaruvchi qiymatlarini grafikning vertikal o‘qiga, bog‘liq o‘zgaruvchi qiymatlarini esa gorizonttal o‘qqa joylashtirishadi. Misolimizdagi bug‘doyning birlamchi (P_1) va o‘zgargan (P_2) narxlarini (erkin o‘zgaruvchi) vertikal, bu narxlarga mos keluvchi talabning boshlang‘ich (Q_1) va o‘zgargan (Q_2) miqdorini (bog‘liq o‘zgaruvchi) gorizonttal o‘qqa joylashtiramiz. Shu tariqa narx o‘zgarishlariga mos holda talab hajmidagi o‘zgarishlarni A va B nuqtalar bilan belgilaymiz hamda shu nuqtalarni birlashtirib talab chizig‘ini hosil qilamiz.

O‘zgaruvchilar o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqlik to‘g‘ri (musbat) yoki teskari (manfiy) bo‘lishi mumkin. 1.4-rasmda keltirilgan bug‘doyga talab hajmi bug‘doy narxiga teskari mutanosiblikda o‘zgarmoqda va bu holatda talab chizig‘i pastga qarab

yoʻnalgan chiziqdan iborat boʻladi. Agar har ikkala oʻzgaruvchi qiymatlari, masalan bugʻdoy narxi va bugʻdoy taklifi hajmi bir xil tomonga oʻzgarsa (oshsa yoki kamaysa) ular oʻrtasida toʻgʻri bogʻliqlik yuzaga keladi va bunda taklif chizigʻi yuqoriga qarab yoʻnalgan oʻsuvchi chiziqdan iborat boʻladi (1.5-rasm).



1.5-rasm. Bugʻdoy narxi va taklifi oʻrtasidagi bogʻliklik

Grafikdagi chiziqlar ularning yotiqligiga qarab turli xususiyatga ega. Ikki nuqtadan oʻtuvchi toʻgʻri chiziqning yotiqligi vertikal oʻqdagi oʻzgarishning (oshish yoki kamayishning) gorizontall oʻqdagi oʻzgarishga nisbati orqali aniqlanadi.

Yotiqlik = vertikal oʻzgarish / gorizontall oʻzgarish


Ammo iqtisodchilar erkin va bogʻliq oʻzgaruvchilar qiymatlarini grafikda teskari joylashtirishlarini eʼtiborga olsak, toʻgʻri chiziq yotiqligi quyidagicha koʻrinishga ega boʻladi:

Yotiqlik = gorizontall oʻzgarish / vertikal oʻzgarish

Bizning misolimizdagi (1.5-rasm) bugʻdoy taklifi toʻgʻri chizigʻining yotiqligi gorizontall oʻqda joylashgan bugʻdoy taklifi hajmidagi oʻzgarish (oshish yoki kamayish) hamda vertikal oʻqda joylashgan bugʻdoy narxidagi oʻzgarish nisbati bilan

ifodalanadi: $Yotiqlik_s = \frac{Q_2 - Q_1}{P_2 - P_1} = \frac{\Delta Q}{\Delta P}$

Bunda har ikkala oʻzgaruvchi bir tomonga oʻzgarayotgani sababli taklif chizigʻining yotiqligi musbat ishoraga ega. Agar oʻzgaruvchilar oʻrtasidagi bogʻliqlik 1.4-rasmdagi singari teskari boʻlsa, toʻgʻri chiziq manfiy yotiqlikka ega boʻladi. Grafikdagi toʻgʻri chiziq holatini uning yotiqligidan tashqari chiziqning ordinata va absissa oʻqlarini kesib oʻtish nuqtalari ham belgilab beradi (1.6-rasm).



1.6-rasm. Bugʻdoy narxi va unga talab hajmi oʻrtasidagi teskari bogʻliklikni grafikdagi ifodasi

Keltirilgan grafikdan (1.6-rasm) ko‘rinib turibdiki, bug‘doyga bo‘lgan talab chizig‘i narx 3000 so‘m/kg bo‘lganda ordinata o‘qini kesib o‘tgan, ya‘ni bu narxda talab hajmi nolga tenglashadi. Qandaydir sababga ko‘ra bug‘doy tekinga tarqatilganda, ya‘ni uning narxi nolga teng bo‘lganda bozorda maksimal talab 7500 kg ni tashkil etib, talab chizig‘i aynan shu nuqtada absissa o‘qini kesib o‘tardi. Bug‘doyga talab chizig‘ining yotqlik koeffitsiyenti $-2,5$ ga teng.

$$Yotqlik_D = \frac{3000 - 2500}{1800 - 2000} = -\frac{500}{200} = -2,5$$

Talab chizig‘ining yotqlik koeffitsiyenti hamda chiziqning koordinata o‘qlarini kesib o‘tish nuqtalarini bilgan holda biz bug‘doyga talab chizig‘ini quyidagi tenglama ko‘rinishida tasvirlashimiz mumkin: $Q_D = a - bP \Rightarrow Q_D = 7500 - 2,5P$

Bu erda: Q_D – bog‘liq o‘zgaruvchi talab hajmi; a – gorizontal o‘qni kesib o‘tuvchi nuqta yoki narx nolga teng bo‘lganda maksimal talab hajmi; b – talab chizig‘ining yotqligi yoki maksimal talabning maksimal narxga nisbati; P – erkin o‘zgaruvchi narx.

Keltirilgan misollarda talab chizig‘i faqat ikki nuqtadan o‘tganligi uchun to‘g‘ri chiziq ko‘rinishida. Agar narxning o‘zgarishi va unga mos keluvchi talab hajmining o‘zgarishi ikkitadan ortiq nuqtadan o‘tsa hamda ularning o‘zgarish nisbatlari bir xil bo‘lmasa talab chizig‘i egri chiziq ko‘rinishiga ega bo‘ladi.

Ba‘zan grafikda vaqt oralig‘idagi miqdoriy yoki qiymat o‘zgarishlari dinamikasi (trendi) ifodalanadi va bunda vaqt qatorlari gorizontal o‘q bo‘ylab joylashtiriladi.

Qisqa xulosalar

Iqtisodiy jarayonlarni o‘rganish va tahlil qilish **mikro** va **makro** darajada amalga oshiriladi. “Mikroiqtisodiyot” resurslar cheklangan sharoitda cheksiz ehtiyojlarni maksimal qondirish yo‘lida aniq induvidual sub’ektlarning iqtisodiy xatti-harakatlari va qarorlar qabul qilish jarayonini o‘rganish bilan shug‘ullanadi. Induvidual iqtisodiy sub’ektlar deganda firmalar, uy xo‘jaliklari, tarmoqlar va bozorlarni tushunamiz.

Iqtisodchilar avvalo ma‘lum iqtisodiy muammoga taalluqli dalillarni aniqlash va to‘plashdan ish boshlaydilar. Bu jarayonni ba‘zan **tavsiflovchi** yoki **emperik iqtisodiy fan** deb atashadi. Iqtisodiy tadqiqot ayrim dalillardan nazariyaga qarab harakat qilganda **induksiya** usulini, aksincha nazariyadan ayrim dalillarga qarab harakat qilganda esa **deduksiya** usulini ifoda qiladi.

Tahlil (analiz) usulida jarayonlar mayda bo‘laklarga, alohida-alohida dalillarga ajratib o‘rganilsa, **sintez** usulida ayrim dalillarni birlashtirish, o‘zaro bog‘liqlikda o‘rganish orqali umumlashtiriladi va yakuniy xulosa chiqariladi.

Pozitiv yoki **diskriptiv tahlil** iqtisodiy faoliyatning ob’ektiv holatini yoki iqtisodiy xatti-harakatlarning ilmiy talqinini ifodalaydi. U sub’ektiv baholovchi mushohadalardan yiroq bo‘lib, tanlab olingan va nazariya darajasiga etgan faktlar bilan ish ko‘radi. **Normativ tahlil** esa sub’ektiv yoki alohida shaxslarning baho

beruvchi mushohadalariga tayangan holda iqtisodiy xatti-harakatlar rezeptini taklif etadi.

Iqtisodiy model – iqtisodiy jarayon yoki hodisalarning formallashtirilgan tasnifi bo‘lib, uning tarkibi tadqiqot maqsadidan kelib chiquvchi ob‘ektiv yoki sub‘ektiv xususiyatlarga bog‘liq holda shakllantiriladi.

Nazorat va muhokama uchun savollar

1. Iqtisodiyot oldida turgan muammolarning qaysi birlari mikro darajada o‘rganiladi?
2. Iqtisodiyotning bosh muammosi deganda nimani tushunasiz?
3. Har qanday jamiyat resurslar cheklangan sharoitda qanday markaziy 3 ta savolga javob topishga urinadi?
4. Mikroiqtisodiy tahlilning makroiqtisodiy tahlildan asosiy farqi nimada?
5. “Mikroiqtisodiyot” fanining predmeti nimadan iborat?
6. “Mikroiqtisodiyot” fanini o‘rganish usullari nimalardan iborat?
7. Tavsiflovchi yoki emperik iqtisodiy fan deganda nima nazarda tutiladi?
8. Pozitiv va normativ tahlil nima bilan farq qiladi?
9. Induksiya va deduksiya, analiz va sintez usullarining mohiyati nimada?
10. Iqtisodiy model deganda nimani tushunasiz va u qanday vazifalarni yechishda qo‘llaniladi?

2-bob. IQTISODIY BAZIS TUSHUNCHALAR

2.1. Iqtisodiy ehtiyoj, ne'mat va resurs tushunchalari

Insoniyat tabiatdan biologik, iqtisodiy, ijtimoiy, siyosiy, ma'naviy va boshqa xarakterdagi turli-tuman ehtiyojlar qurshovida yaratilgan. Bu ehtiyojlar ichida iqtisodiy, ya'ni moddiy ehtiyojlar muhim o'rin tutadi. **Moddiy ehtiyojlar** - shaxs, firmalar va jamiyatning faoliyati uchun zarur bo'lgan ehtiyojlarni aks ettiradi.

Iste'molchilarning ehtiyojlari turli-tuman bo'lib, ularning ro'yxati juda keng va balki son-sanoqsizdir. Bu ehtiyojlarni qondirish uchun zarur bo'ladigan tovarlar va xizmatlarni shartli ravishda ikkiga, ya'ni **birlamchi ehtiyojlarni qondiruvchi** va **hasham predmetlariga** bo'lish mumkin. Ba'zan ayrim iste'molchilar uchun birlamchi sanalgan buyumlar ikkinchi bir iste'molchilar uchun hasham va dabdaba buyumi bo'lishi ham mumkin.

Xuddi insonlarniki singari firmalar va davlat tashkilotlarining ham ehtiyojlari mavjud. Masalan, firmalar faoliyat ko'rsatishi uchun binolar, inshootlar, mashina va uskunalar, xomashyo hamda ishchi kuchiga ehtiyoj sezadi. Davlat esa mamlakat fuqarolarining jamoaviy manfaatlarini ifodalab kasalxonalar, maktablar, teatrlar, yo'llar, harbiy qurol-aslahalar va boshqa ijtimoiy ne'matlarga ehtiyoj sezadi.

Ayrim ehtiyojlar - masalan, oziq-ovqat, kiyim-kechak, uy-joy insonlarning biologik ehtiyojlari tufayli, ayrimlari ularning mentaliteti, ya'ni yashash manzili, turmush tarzi, madaniyati, ijtimoiy statusi, urf-odatlar va qadriyatlar ta'sirida, ayrimlari esa texnik taraqqiyot va global rivojlanish ta'sirida vujudga keladi.

Biz moddiy ehtiyojlarimizni qondirish va farovon hayot kechirishimiz uchun oziq-ovqatlarga, kiyim-kechaklarga, turli xil tovarlar va xizmatlarga ehtiyoj sezamiz. Iqtisodiy ehtiyojlarni qondirish vositalari **iqtisodiy ne'matlar** deb ataladi. Ayrim ne'matlarni tabiat insoniyatga iste'molga tayyor holatda in'om etgan bo'lsa (masalan, suv, yovvoyi mevalar va hayvonlar), ayrimlarini ishlab chiqarish zarur bo'ladi.

Ba'zan bir xil ehtiyojni turli xil ne'matlar orqali qondirish mumkin. Masalan, go'sht mahsulotiga bo'lgan ehtiyojimizni mol go'shti, qo'y go'shti yoki parranda go'shti orqali qondirish mumkin. Bir xil ehtiyojni qondiruvchi turli ne'matlar **o'rinbosar ne'matlar** deb ataladi.

Ba'zan iqtisodiy ehtiyojlarni birgalikda qondiradigan ne'matlar guruhi ham mavjud bo'ladi. Masalan, avtomobilga bo'lgan ehtiyoj o'z navbatida benzin va garajlarga ehtiyojni yuzaga keltiradi. Ularni **to'ldiruvchi ne'matlar** deb ataymiz.

Bizning ehtiyojlarimizni qondirish uchun talab etiladigan aksariyat iqtisodiy ne'matlarni ishlab chiqarish zarur bo'ladi. Buning uchun esa ma'lum miqdordagi **iqtisodiy resurslar**, ya'ni yer, ishchi kuchi, tadbirkorlik qobiliyati, boshqaruv malakasi, kapital, xomashyo va materiallar, axborot talab etiladi.

"Iqtisodiy resurslar" deganda nimani tushunamiz? Iqtisodiy resurslar – tovarlar ishlab chiqarish, xizmatlar ko'rsatish va ishlar bajarish jarayonida foydalaniladigan barcha tabiiy, mehnat hamda inson tomonidan yaratilgan vositalarni o'z ichiga oladi. Iqtisodiy resurslarga yer, kapital, ishchi kuchi, xomashyo va materiallar kabi vositalar kiradi. Ularni olti kategoriyaga ajratish mumkin (2.1-rasm):



2.1-rasm. Iqtisodiy resurslarning turkumlanishi

1. **Yer** – insonga tabiat tomonidan tuhfa etilgan barcha tabiiy resurslarni, ya’ni iqtisodiyot tarmoqlarida foydalaniladigan yer resurslari, yer osti qazilma boyliklari, o’rmonlar va suv resurslarini o‘z ichiga oladi.

2. **Kapital** yoki “**investitsion resurslar**” ishlab chiqarish jarayonida foydalaniladigan barcha asosiy vositalarni, ya’ni fabrika va zavod binolari, turli inshootlar, qurilmalar, mashinalar va asbob-uskunalar, traktorlar, transport vositalari, kompyuter va axborot-kommunikatsiya vositalarini ifodalaydi. Bu vositalarni ishlab chiqarish va jamg‘arish jarayonini “investitsiyalash” deb ataymiz.

Ba’zan iqtisodchilar asosiy vositalar sotib olishga sarflanadigan pul mablag‘larini ham “kapital” deb atashadi. Ammo pul mablag‘lari o‘zicha hech qanday tovar ishlab chiqarmasligini e’tiborga olsak, ularni ishlab chiqarish resursi deb emas, balki “moliyaviy kapital” deb atash to‘g‘riroq bo‘ladi.

3. **Xomashyo va materiallar** – ishlab chiqarish jarayonida “asosiy kapital” singari uzoq muddat emas, balki qisqa muddatda, ya’ni bir ishlab chiqarish bosqichida qatnashadi hamda o‘zining qiymatini yaratilayotgan tovarga to‘liq ko‘chirib, uning tarkibiy qismiga aylanadi.

4. **Ishchi kuchi** – tovarlar ishlab chiqarish va xizmatlar ko‘rsatishda foydalaniladigan insonlarning barcha aqliy va jismoniy qobiliyatlarini (tadbirkorlik qobiliyati alohida kategoriyaga ajratiladi) aks ettiradi. Ishchilar, injenerlar, quruvchilar, iqtisodchilar, buxgalterlar va boshqa mutaxassislar tomonidan bajaradigan ishlar “ishchi kuchi” yoki “mehnat resursi” tushunchasini o‘z ichiga qamrab oladi.

5. **Tadbirkorlik qobiliyati** – mehnat resurslarining alohida xususiyatga ega kategoriyasi bo‘lib, uning mohiyati quyidagi funksiyalarida o‘z ifodasini topadi:

- tadbirkor ishlab chiqarish jarayonida yer, kapital, xomashyo, ishchi kuchi va boshqa barcha resurslarni birlashtiradi va o‘ziga xos “katalizator” vazifasini o‘taydi;

- tadbirkor biznesni yuritish jarayonida firma faoliyatining asosiy strategiyasi hamda muvaffaqiyatini ta’minlab beruvchi eng asosiy qarorlarni qabul qilish bilan bog‘liq qiyin vazifalarni zimmasiga oladi;

- tadbirkor ishlab chiqarishga innovatsion texnologiyalar, yangi mahsulot turlari va biznesni tashkil etishning ilg‘or usullarini joriy etishga harakat qiluvchi tashabbuskor shaxs hisoblanadi;


- tadbirkor biznes yuritish bilan bog'liq katta tavakkalchilikni (riskni) o'z zimmasiga oladi. Bozor iqtisodiyotida tadbirkorga foyda olish kafolatlanmagan, ya'ni u yilni zarar bilan yakunlashi ham mumkin. Shu tufayli tadbirkor nafaqat o'z kapitalini, balki sarflagan vaqti, mehnati va sha'nini ham tavakkalchilik ostiga tikib harakat qiladi.

6. **Axborot va nomoddiy aktivlar** keyingi yillarda resurs sifatida katta ahamiyat kasb etmoqda. Ayniqsa axborot va kommunikasiyalar asrida biznes uchun axborotning muhimligi shubhasiz.

Iqtisodiy ehtiyojlarni qondirish maqsadida resurslardan foydalanib moddiy ne'matlar ishlab chiqarish jarayonini **iqtisodiy tizim** deb ataymiz.

2.2. Iqtisodiyotning bosh muammosi: ehtiyojlarning cheksizligi va resurslarning cheklanganligi

Jamiyatning butun iqtisodiy tizimi asosan **ikkita fundamental muammo** ustiga qurilgan bo'lib, uni iqtisodchilar iqtisodiyotning bosh muammosi deb ataydilar (2.2-rasm):



2.2-rasm. Iqtisodiyotning bosh muammosi⁴

1. Jamiyat va uning a'zolari bo'lmish individual shaxslar, korxonalar va tashkilotlarning **moddiy ehtiyojlari cheksiz**.

2. Moddiy ehtiyojlarni qondirish vositalari, ya'ni tovarlar va xizmatlarni ishlab chiqarish uchun zarur bo'ladigan **iqtisodiy resurslar cheklangan** yoki **taqchil (noyob)**.

Agar e'tibor bilan nazar solsak, iste'molchilar, firmalar va davlatning (jamiyatning) moddiy ehtiyojlari cheksiz ekanligiga amin bo'lamiz. Chunki bu ehtiyojlar nafaqat son-sanoqsiz, balki vaqt o'tishi bilan to'xtovsiz yangilanib, ko'payib borayotgani ma'lum bo'ladi. Insonlarning turmush tarzi, urf-odatlar, didi va modalar o'zgarishi, ilmiy-texnik taraqqiyot natijasida ayrim tovarlar va xizmatlar iste'moldan chiqib ketib, ularning o'rniga yangilari kirib keladi. Yangi tovarlar va

⁴ Ю.В. Тарануха. Микроэкономика (в структурно-логических схемах).– М.: Дело и сервис, 2002. – стр. 6 asosida tayyorlangan.

xizmatlar turlarining paydo bo'lishi bizning ehtiyojlarimiz chegaralarini tinimsiz kengaytirib boradi. Iqtisodiy faoliyatning bosh maqsadi esa jamiyatning turli-tuman, cheksiz va kengayib borayotgan ehtiyojlarini imkoniyat darajasida maksimal qondirishga erishishdir.

Endi ikkinchi fundamental muammo – cheksiz ehtiyojlarni qondirish uchun iqtisodiy resurslarning cheklanganligi masalasini ko'rib chiqamiz. Agar jamiyatdagi iqtisodiy resurslar miqdori cheklanmagan bo'lganida, har bir inson o'zi istagan hamma narsaga ega bo'lishi mumkin bo'lardi. Ammo, insoniyatning moddiy ehtiyojlari xayol va orzular ummoni singari cheksiz bo'lgan bir sharoitda, bu ehtiyojlarni qondirish vositalari bo'lgan iqtisodiy resurslar miqdori jamiyatda cheklangandir. Bu shuni anglatadiki, jamiyatdagi mavjud iqtisodiy resurslarning ishlab chiqarish imkoniyatlari jamiyat a'zolarining ehtiyojlarini qondirish uchun yetarli emas.

Dehqonchilik va chorvachilik uchun zarur yer maydonlari, sanoat uchun yer osti qazilma boyliklari, kapital va xomashyo resurslari, yuqori malakali ishchi kuchi va mutaxassislar, katta kapitalga ega tadbirkorlar va banklar, hamma-hammasi o'ta cheklangan. Bunday holat jamiyat a'zolarining o'z ehtiyojlarini to'liq qondirishga bo'lgan imkoniyatlarini doimo va muqarrar ravishda cheklab turadi. Mana shuning uchun ham absolyut moddiy farovonlik va to'kin-sochinlikka ega jamiyat qurish haqidagi urinishlar amalga oshmaydigan haqiqat sanaladi.

Jamiyat a'zolarining moddiy ehtiyojlari cheksiz va resurslarimiz cheklangan ekan, hech qachon cheksiz ehtiyojlarimizni to'liq qondirish mumkin emas. Shunday ekan, iqtisodchilar jamiyat ixtiyorida mavjud cheklangan (taqchil) resurslardan optimal foydalangan holda **cheksiz ehtiyojlarni maksimal darajada qondirish** ustida bosh qotirishlariga to'g'ri keladi. Buning uchun mavjud **resurslardan oqilona va samarali foydalanish** yo'llarini izlab topish zarur bo'ladi.

Iqtisodchilar **“samaradorlik”** tushunchasiga qanday ta'rif beradilar. Samaradorlik tushunchasi texnik yoki texnologik sohalarida ham qo'llanilib, biror-bir harakat yoki bajarilgan ishning natijasini baholashda foydalaniladi. **“Iqtisodiy samaradorlik”** tushunchasi **“xarajatlar (sarflar) – natija (mahsulot)”** nisbatini ifodalaydi. Aniqroq qilib aytganda, ishlab chiqarishga sarflangan resurslar birligiga nisbatan olingan mahsulot, foyda ko'rsatkichlari iqtisodiy samaradorlik darajasini belgilab beradi.

Jamiyat o'zining cheklangan resurslaridan samarali foydalanish evaziga maksimal darajada tovarlar va xizmatlar ishlab chiqarishga intiladi. Bunga erishish uchun **to'la bandlik** va **to'liq ishlab chiqarish hajmiga** erishish lozim bo'ladi.

To'la bandlik deganda ishlab chiqarishga yaroqli barcha resurslardan foydalanish imkoniyatiga aytiladi. Iqtisodiyot mehnat qilish yoshidagi ishga yaroqli barcha ishchilarni ish bilan ta'minlashi zarur. Haydaladigan yerlar, fabrika va zavodlar, asbob-uskunalar bekor turib qolmasligi, barcha asosiy va aylanma kapital ishlab chiqarishga jalb qilinishi maqsadga muvofiq.

Ishlab chiqarishning to'liq hajmi deganda resurslarni optimal taqsimlash va ulardan samarali foydalanish evaziga maksimal darajada mahsulot ishlab chiqarish tushuniladi. Ishlab chiqarishga sarflangan har bir resurs birligi jamiyat uchun maksimal qaytimni ta'minlashi zarur.


2.3. Iqtisodiy tanlov va muqobil xarajatlar

Kundalik hayotimizda har birimiz cheklangan vaqtimizdan samarali foydalanish, daromadimizni oziq-ovqat, kiyim-kechak yoki maishiy texnikalar sotib olishga to'g'ri taqsimlash kabi o'nlab masalalar xususida qaror qabul qilishimizga to'g'ri keladi.

Xuddi shuningdek, firmalar ham sarmoyani qaysi sohaga tikish, xomashyo va asbob-uskunalarni qancha miqdorda va qaerdan xarid etish, qanday texnika va texnologiyalardan foydalanish, resurslarni sarfini qanday tejash, mahsulotni xaridorbop qilib tayyorlash, to'g'ri narx siyosatini yuritish kabi ko'plab masalalar yuzasidan optimal qarorlar qabul qilishga harakat qiladilar. Bu muammolarni yechish uchun beshta fundamental iqtisodiy savolga javob berishi lozim (2.3-rasm):

1. Nimani, ya'ni iste'molchilar talabidan kelib chiqib qanday tovar va xizmatlarni ishlab chiqarish kerak?
2. Bu tovar va xizmatlar qancha miqdorda ishlab chiqarilishi kerak?
3. Qanday qilib, ya'ni tovar va xizmatlarni qaysi usulda va qanday texnologiyalardan foydalanib ishlab chiqarish maqsadga muvofiq?
4. Kim uchun ishlab chiqarish kerak, ishlab chiqariladigan tovar va xizmatlarning iste'molchilari kimlar bo'ladi?
5. Iqtisodiy tizim yuz berayotgan o'zgarishlarga moslasha oladimi?

Yuqoridagi savollardan ikkitasi, ya'ni nima ishlab chiqarish kerak? va qanday ishlab chiqarish kerak? degan savollar - resurslardan mahsulot ishlab chiqarishda foydalaniladigan va ishlab chiqariladigan mahsulot tarkibining juda ko'p alternativ variantlari mavjudligini taqozo qiladi. Bu esa firmalar oldida iqtisodiy tanlov muammosini qo'yadi (2.3-rasm).



2.3-rasm. Iqtisodiyotning bosh muammosi va iqtisodiy tanlov⁵

⁵ Тарануха Ю.В. Микроэкономика (в структурно-логических схемах).– М.: Дело и сервис, 2002. – стр. 7 asosida ta'yorlangan.

Iqtisodiy tanlov tovarlar va xizmatlar ishlab chiqarishda cheklangan resurslardan foydalanishning muqobil variantlari ichidan cheksiz ehtiyojlarni maksimal qondirishga imkon beruvchi eng optimal variantni tanlashni anglatadi. Iqtisodiy tanlov firmalarni belgilangan maqsadga erishish uchun xo‘jalik yuritishning ratsional usullarini tanlashga, eng kam xarajatlar evaziga maksimal hajmda mahsulot ishlab chiqarish va maksimal foyda olishga undaydi.

Iqtisodiyotda har bir sub’ekt maksimallikka intiladi: iste’molchi – o‘z ehtiyojlarini maksimal qondirishga, firma – foydani maksimalashtirishga, davlat esa – jamiyat a’zolarining farovonligi yuksaltirishga harakat qiladi.

Ishlab chiqarish imkoniyatlarining cheklanganligi, ishlab chiqarish variantlaridan bittasi yoki bir nechtasini tanlab, qolganlaridan voz kechishni taqozo qiladi. Bir turdagi mahsulotni ishlab chiqarish ikkinchi biridan voz kechishni anglatadi. Optimal iqtisodiy tanlovga erishish uchun nafaqat bo‘lg‘usi xarajatlar, balki foydalanilmagan ishlab chiqarish imkoniyatlari ham e’tiborga olinishi lozim. Boshqa variantlardan voz kechish natijasida, biz ulardan olinishi mumkin bo‘lgan foydadan ham voz kechamiz, ya’ni bu boy berilgan imkoniyatlar bo‘lib, **muqobil (alternativ) xarajatlarni** tashkil etadi.

Muqobil xarajatlar - iqtisodiy tanlovda resurslardan samarali foydalanish bilan bog‘liq eng yaxshi alternativ variantdan voz kechish natijasida boy berilgan imkoniyatlarni (olinadigan foydani) aks ettiruvchi xarajatlardir.

Muqobil xarajatlar yordamida noyob resurslardan foydalanish yo‘nalishlari bo‘yicha eng yaxshi (optimal) taqsimlash masalasi, ya’ni muayyan variantda resurslarni sarflashdan olinadigan foyda va xarajatlarni boshqa variantlar bo‘yicha olinadigan foyda va xarajatlar bilan solishtirish orqali yechiladi (ya’ni muqobil xarajatlarni bir-biri bilan solishtirish orqali).

Masalan, Toshkentdan Samarqandga avtobusda borishni xohlagan yo‘lovchi biletni 30 minut turib, kassadan 25000 so‘mga olishi mumkin, yoki 30000 so‘mga navbatsiz xizmat ko‘rsatuvchi firma orqali olishi mumkin deylik. Agar yo‘lovchining 30 minut vaqtining alternativ xarajati 30000 so‘mdan kam bo‘lsa (u o‘zining 30 minut vaqtini 30000 so‘mdan kam baholasa), u biletni navbatda turib sotib oladi, agar alternativ xarajati 30000 so‘mdan yuqori bo‘lsa (u o‘zining 30 minut vaqtini 30000 so‘mdan yuqori baholasa), u holda yo‘lovchi biletni xizmat ko‘rsatuvchi firma orqali sotib oladi. Agarda yo‘lovchi vaqtining alternativ xarajati 30000 so‘mga teng bo‘lsa, u ikkala variantdan xohlaganini tanlashi mumkin. Haqiqatdan ham vaqtini yuqori baholaydigan va yuqori daromad oluvchilar ko‘pincha navbat kutishni xohlamaydilar.

2.4. Ishlab chiqarish imkoniyatlari va mahsulotning optimal tarkibi

Har bir jamiyat, firma yoki tadbirkor cheklangan iqtisodiy resurslarga ega va bu holat ularning ishlab chiqarish imkoniyatlarini doimiy ravishda cheklab turadi. **Ishlab chiqarish imkoniyatlari** jamiyat yoki firmaning muayyan texnologik rivojlanish bosqichida mavjud resurslardan to‘liq va samarali foydalanib maksimal hajmda tovarlar va xizmatlar ishlab chiqarish imkoniyatlarini aks ettiradi.

Resrslarning cheklanganligi mahsulot ishlab chiqarish hajmini ham cheklab turadi. Shunday ekan jamiyat va firmalar mavjud resurs zaxiralarini qanday tovarlar

va xizmatlar ishlab chiqarishga yo‘naltirish xususida tanlov qilishga majbur bo‘ladi. Tahlilni soddalashtirish uchun firma faqat ikki xil mahsulot, masalan televizor va muzlatkich ishlab chiqaradi deb faraz qilaylik. Firma 100 mln. dollar kapitalga ega. Tabiiyki firma resurslar cheklanganligi sharoitida bir vaqtning o‘zida har ikkala mahsulot ishlab chiqarish hajmini ham oshirishga erisha olmaydi. Firma oldida ishlab chiqarish hajmi xususida qaror qabul qilishning 5 xil varianti mavjud deylik (2.1-jadval).


2.1-jadval

Firmaning ishlab chiqarish imkoniyatlari jadvali

Mahsulot turlari	1	2	3	4	5
Televizor	100 000	75 000	50 000	25 000	0
Muzlatkich	0	18 000	28 000	34 000	40 000

Manba: shartli raqamlar

Mazkur ma‘lumotlarni grafik ko‘rinishida tasvirlasak firmaning **ishlab chiqarish imkoniyatlari chizig‘i** hosil bo‘ladi (2.4-rasm).




2.4-rasm. Firmaning ishlab chiqarish imkoniyatlari chizig‘i

Rasmda keltirilgan ma‘lumotlardan ko‘rinib turibdiki, birinchi variantda firma barcha resurslarini televizor, beshinchi variantda esa muzlatkich ishlab chiqarishga yo‘naltirishi mumkin. Bunda ikkinchi xil mahsulot ishlab chiqarish hajmi nolga teng bo‘ladi. Birinchi variantda beshinchi variantga borgan sari televizor ishlab chiqarish hajmi qisqarib, muzlatkich ishlab chiqarish hajmi oshib boradi. Firma cheklangan

resurslaridan kelib chiqqan holda televizor yoki muzlatkich ishlab chiqarishning besh xil varianti ichidan bittasini tanlashga majbur. Masalan, ikkinchi variantda 75 000 televizor va 18 000 muzlatkich ishlab chiqarish imkoni bo'lsa, to'rtinchi variantda 25 000 televizor va 34 000 muzlatkich ishlab chiqarish mumkin.

Firmaning ishlab chiqarish imkoniyatlari chizig'i ustidagi har bir nuqta (A , B , C , D va E) firmaning mavjud resurslari doirasida maksimal ishlab chiqarishi mumkin bo'lgan mahsulot hajmini ko'rsatadi. Agar ishlab chiqarish hajmi F nuqta ustida bo'lsa, demak firma mavjud ishlab chiqarish imkoniyatlaridan to'liq foydalanmayapti yoki resurslardan samarasiz foydalanyapti. Ishlab chiqarish imkoniyatlari chizig'idan tashqari yotgan K nuqta firmaning hozirgi resurs salohiyati darajasidan tashqarida yotganligi bois unga erishish imkoni yo'q. Ammo kelgusida firmaning resurs salohiyati oshganda unga erishish mumkin bo'ladi.

Biz yuqorida firmaning resurslari hajmi va texnologiyalar darajasi o'zgarmas bo'lgan holatda ishlab chiqarish imkoniyatlari chizig'ini qaradik. Resurslar taklifining oshishi, texnik taraqqiyot ta'sirida texnologiyalarning takomillashuvi firma va jamiyatning ishlab chiqarish imkoniyatlarini oshiradi. Uzoq muddatli oraliqda firma resurs salohiyatining oshishi ishlab chiqarish imkoniyatlari chizig'ida o'zgarish bo'lishiga olib keladi. Firma resurs salohiyatining oshishi mahsulot ishlab chiqarish hajmini ham oshishiga olib kelish tufayli ishlab chiqarish imkoniyatlari chizig'i parallel o'ngga (2.4-a-rasm) yoki bir tomonlama sirilishi mumkin (2.4-b-rasm).



2.5-rasm. Ishlab chiqarish imkoniyatlari chizig'idagi o'zgarishlar

Agar firma to'liq bandlik va to'liq ishlab chiqarish darajasida faoliyat ko'rsatsa, u ishlab chiqarish variantlaridan qaysi birini tanlashi maqsadga muvofiq? Bu savolga aniq bir javob berish mushkul, chunki jamiyat yoki firmaning rivojlanish darajasi, undagi qadriyatlar va turmush tarzi, ishlab chiqarishni tashkil etish shakllari va usullari, texnologiyalarning rivojlanishi darajasi hamda talabdan kelib chiqib, har bir firma bu savolga o'zicha javob topishga harakat qiladi. Nima bo'lganda ham bu savolga javob topishda optimallik va samaradorlik shartlaridan kelib chiqish kerak.

2.5. Resurslar va ne'matlarni taqsimlashning bozor mexanizmi. Iqtisodiy doiraviy aylanish modeli

Bozor – bu xaridorlar va sotuvchilar o‘zaro munosabatga kirishadigan mexanizm bo‘lib, unda kelishuvlar orqali resurslar, tovarlar va xizmatlar bilan ayriboshlash amalga oshiriladi.

Bozor - bu birinchidan, sotuvchilar va xaridorlarni uchrashadigan joyi, ular o‘rtasida kelishilgan narx bo‘yicha tovar almashuvi sodir bo‘ladi. Bozorda sotishni amalga oshirish uchun ma‘lum xarajatlar qilinadi va bu xarajatlar bozor to‘g‘risida axborot olish, shartnomalar tuzish, uchrashuvlar o‘tkazish, sotib olinadigan tovar yoki xizmatning miqdoriy va sifat xarakteristikalarini aniqlash va boshqa turdagi xarajatlar bilan bog‘liq. Bunday xarajatlar transaksion xarajatlar bo‘lgani uchun ham, bozorni transaksiyalar majmuasi deb ham qarash mumkin. Bozorning o‘ziga xos xususiyati shundan iboratki, u daromadlarni samarali faoliyat ko‘rsatayotgan sub‘ektlar, ya‘ni zamonaviy texnologiyadan, cheklangan resurslardan samarali foydalanayotgan xo‘jalik sub‘ektlari hisobiga qayta taqsimlaydi.

Bozorlar o‘zining hududiy masshtabiga ko‘ra mahalliy, milliy va xalqaro bozorlarga bo‘linadi. Oldi-sotdi ob‘ekti bo‘lib resurslar (ishchi kuchi, kapital, xomashyo, yer, tadbirkorlik qobiliyati, axborot), iste‘mol tovarlari va xizmatlar hisoblanadi. Bozordagi narxlar oldi-sotdi jarayonida yoki undan oldin shakllanishi mumkin.

Bozorning samarali faoliyat ko‘rsatishi transaksion xarajatlar bilan bog‘liq. Transaksion xarajatlar - bu o‘zaro tovar ayriboshlash sohasidagi xarajatlardir. Bu tushuncha birinchi bo‘lib R. Kouz tomonidan kiritilgan (1937 y). Transaksion xarajatlar o‘z ichiga quyidagi xarajatlarni oladi: axborot olish, o‘zaro kelishuv va uchrashuvlar o‘tkazish bilan bog‘liq xarajatlar, tovarlar xususiyatlarini aniqlash bilan bog‘liq xarajatlar, mulk huquqini himoya qilish va boshqalar.

Bozor iqtisodiyotida har bir individ o‘z shaxsiy manfaatini ko‘zlab harakat qiladi. Bunda firmalar va resurs egalari bo‘lgan uy xo‘jaliklari eng kam xarajat evaziga o‘zlarining daromadlarini (foydasini) maksimallashtirishga urinsa, iste‘molchilar tovarlar va xizmatlarga sarflagan har bir so‘m xarajati bilan olinadigan naflilikni maksimallashtirishga intiladi.

Bozor iqtisodiyotining tarafdorlari bu mexanizmni resurslarni taqsimlash, ishlab chiqarish barqarorligini va aholi bandligini hamda iqtisodiy o‘sishni ta‘minlashning eng samarali vositasi deb baholaydi. Shu tufayli bozor faoliyatiga davlatning har qanday aralashuvi uning samaradorligiga putur etkazadi degan fikrni ilgari surishadi. Ammo, buyuk iqtisodchi Adam Smitning fikricha bozorning har bir ishtirokchisi o‘z shaxsiy manfaatlarini qondirish yo‘lida tinmay harakat qilib, o‘zi bilmagan holda jamiyat va davlat manfaatlariga xizmat qiladi (go‘yo “ko‘rinmas qo‘l” orqali).

Erkin bozor iqtisodiyotida: ishlab chiqarish va iste‘mol xususidagi barcha qarorlar firma va uy xo‘jaliklari tomonidan qabul qilinadi; bozor resurslarni narx mexanizmi orqali tarmoqlar va firmalar o‘rtasida taqsimlaydi; resurslar, tovarlar va xizmatlar narxlari bozor tomonidan talab va taklif nisbati asosida o‘rnatiladi.

Bozor iqtisodiyoti quyidagi tamoyillar va institutlarga asoslanadi:

1. Xususiy mulkchilik.
2. Tadbirkorlik va tanlov erkinligi.
3. Shaxsiy manfaatlar - iqtisodiy xatti-harakatning bosh omili.
4. Raqobatni rag'batlantirish va monopolistik faoliyatni cheklash.
5. Narxlar bozorni tartibga soluvchi asosiy mexanizm.
6. Iqtisodiyotga davlat aralashuvining minimal darajagacha cheklanganligi.

Bozor iqtisodiyoti sharoitida individual tanlov, shaxsiy manfaatni qondirishga urinish, ratsional (oqilona) xatti-harakat, foyda olishga intilish va moslashuvchanlik (hamkorlik) iqtisodiy mushohada mafkurasi negizini tashkil etadi.

Har qanday iqtisodiy tizimda bozorlar narx orqali resurslarni taqsimlashda markaziy va hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi. Bozor tizimida noyob ne'matlar muammosi quyidagi ikkita tamoyillar asosida yechiladi:

- optimallashtirish tamoyili – har bir faoliyat va resurslardan foydalanishdan maksimal foyda olish;
- muqobil xarajatlar tamoyili – noyob resurslardan foydalanish variantlarining barchasidan olinadigan foyda va xarajatlarni solishtirish orqali.


Iqtisodiy sub'ektlar ratsional harakat qilish tamoyiliga ko'ra o'z maqsadlariga erishishi uchun xo'jalik faoliyatida faol qatnashadilar, buning asosiy mohiyati shundan iboratki, iqtisodiy sub'ektlar berilgan resurslardan foydalanishdan olinadigan natijalarni maksimallashtiradi yoki ma'lum natijalarni olish uchun xarajatlarni minimallashtiradi.

Mikroiqtisodiyot iqtisodiy sub'ektlarni ikkiga bo'lib qaraydi - iste'molchilar (uy xo'jaliklari) va ishlab chiqaruvchilar (firmalar). Iste'molchining maqsadi - mumkin darajada o'zining ehtiyojlarini maksimal darajada qondirish bo'lsa, ishlab chiqaruvchilarning maqsadi – foydani maksimallashtirish yoki xarajatlarni minimallashtirishdan iboratdir.

Jamiyatda vujudga keladigan yana bir muammo - bu iste'molchilar va ishlab chiqaruvchilar faoliyatini muvofiqlashtirishdir:

- 1) ishlab chiqaruvchilar faoliyatini (kim qaysi mahsulotdan qancha ishlab chiqaradi) muvofiqlashtirish;
- 2) iste'molchilar faoliyatini (kim, qaysi mahsulotdan, qancha iste'mol qiladi) muvofiqlashtirish;
- 3) ishlab chiqarish va iste'mol qilish bo'yicha qabul qilingan qarorlarni muvofiqlashtirish.

Bu muammo ishlab chiqarish omillari (resurslar), iste'mol tovarlari va xizmatlar oqimining doiraviy aylanish modeli orqali tahlil qilinadi (2.6-rasm). Modeldan foydalanishning afzalligi shundan iboratki, u muammoning ikkinchi darajali tomonlarini e'tiborga olmaydi. Modelda ikki turdagi o'zgaruvchilar ishlatiladi: ekzogen va endogen. Ekzogen o'zgaruvchilar tashqi o'zgaruvchilar bo'lib, ular oldindan beriladi va modelga kiritiladi. Endogen o'zgaruvchilar model ichida, hisob-kitoblar asosida shakllanadi.



2.6-rasm. Iqtisodiy doiraviy aylanish modeli

Iqtisodiy doiraviy aylanish modelida iqtisodiyot ikki sektorga bo'linadi: uy xo'jaliklari va firmalar. Uy xo'jaliklari o'z resurslarini (ishchi kuchi, kapital, xomashyo, yer va boshqa) firmalarga sotib daromad oladilar hamda bu daromadlarini firmalardan tovarlar va xizmatlar olishga ishlatadilar. Firmalar o'zlarining tovar va xizmatlarini sotib, undan tushgan daromadni uy xo'jaliklaridan resurslar sotib olishga ishlatadilar.

Ko'rinib turibdiki, xaqiqatdan ham nima iste'mol qilish kerak, nima ishlab chiqarish kerak degan masalani uy xo'jaliklari hal qiladi. Uy xo'jaliklarining bunday qarori, firmalarning ishlab chiqarish rejalarini tuzish uchun asos bo'lishi kerak. Firmalar, o'z navbatida, noyob resurslardan foydalanish qarorlarini bir-biri bilan muvofiqlashtirishi lozim. Nihoyat, uy xo'jaliklari iste'mol qilish uchun rejalashtirgan ne'matlarni olishlari kerak, ya'ni ular iste'mol qilish bo'yicha qarorlarini bir-biri bilan moslashtirishi kerak bo'ladi.

Bozor tizimida muvofiqlashtirish masalalarini ikkita bozor hal qiladi: ishlab chiqarish resurslari bozori va iste'mol ne'matlari bozori.

Talab va taklif modeli tadbirkorlar sektori bilan uy xo'jaliklari sektori o'rtasidagi o'zaro munosabatlarni tushuntirishga xizmat qiladi. Agar bu ikki sektor tovarlar bozorida oldi-sotdi bo'yicha o'zaro munosabatda bo'lsa, talab va taklif modeli tovar narxini va sotiladigan tovar hajmini aniqlaydi. Agar ular resurslar bozorida oldi-sotdi bo'yicha o'zaro munosabatda bo'lsalar model sotiladigan resurslar narxini va miqdorini aniqlaydi.

Har bir bozor o'zining ikkita qaror qabul qiluvchi sub'ektiga ega: sotuvchilar va xaridorlar. Bozorda qabul qilinadigan qarorlarning muvofiqligi har bir ne'matning muvozanat narxi va muvozanat miqdori bilan ta'minlanadi. Narx talab va taklif munosabatlari natijasi sifatida, uy xo'jaliklari va firmalar tomonidan qabul

qilinadigan qarorlarni muvofiqlashtirish uchun muhim axborot bo'lib hisoblanadi. Bunday axborot bir vaqtning o'zida jamiyatdagi noyob ne'matlarni taqsimlash muammosini yechish uchun muhim ahamiyat kasb etadi. Masalan, non narxining oshishi – xaridorlar uchun nonni iste'mol qilishni cheklash to'g'risida signal bo'lsa, firmalar uchun nonni ishlab chiqarishni oshirish va non bozoridagi muvozanatni tiklash to'g'risida muhim axborot bo'lib xizmat qiladi.

Narxlar noyob resurslarni ratsional taqsimlashni ta'minlaydi, ne'matlarni ratsional iste'mol qilishga, xarajatlarni kamaytirishga undaydi. Narx yer, kapital va resurslar egalarining daromadini aniqlaydi. Bozor tizimida muvofiqlashtirish masalasini bozor hal qiladi. Muvofiqlashtirish masalasi bilan bog'liq xarajatlarga transaktsion xarajatlar deyiladi.

Bozor muvofiqlashtirishdan tashqari ishlab chiqaruvchilar va iste'molchilar qarorlarini vaqt bo'yicha tartiblashtiradi. Bu kelajakdagi ne'matlar bozorining (fyuchers) vujudga kelishi bilan bog'liqdir. Kelajakdagi ne'matlarning oldi-sotdisi, ularning narxlari to'g'risida tasavvurga ega bo'lishga, ularning kelajakda nisbatan noyoblighi to'g'risida axborot beradi. Iste'molchilar va ishlab chiqaruvchilar bunday narx axborotlariga ko'ra, o'zlarining joriy xo'jalik rejalarini qayta ko'rib chiqadilar va o'zlarining iqtisodiy harakatlarini tartibga soladilar.

Qisqa xulosalar

Bizning ehtiyojlarimizni qondirish uchun talab etiladigan aksariyat iqtisodiy ne'matlarni ishlab chiqarish zarur bo'ladi. Buning uchun esa ma'lum miqdordagi **iqtisodiy resurslar**, ya'ni yer, ishchi kuchi, tadbirkorlik qobiliyati, boshqaruv malakasi, kapital, xomashyo va materiallar, axborot talab etiladi.

Jamiyatning butun iqtisodiy tizimi asosan **ikkita fundamental muammo** ustiga qurilgan bo'lib, uni iqtisodchilar iqtisodiyotning bosh muammosi deb ataydilar: jamiyat va uning a'zolari bo'lmish individual shaxslar, firmalar va tashkilotlarning **moddiy ehtiyojlari cheksiz**; moddiy ehtiyojlarni qondirish vositalari, ya'ni tovarlar va xizmatlarni ishlab chiqarish uchun zarur bo'ladigan **iqtisodiy resurslar cheklangan** yoki **taqchil (noyob)**. Bunday holat jamiyat a'zolarining o'z ehtiyojlarini to'liq qondirishga bo'lgan imkoniyatlarini doimo va muqarrar ravishda cheklab turadi.

Jamiyat a'zolarining moddiy ehtiyojlari cheksiz va resurslarimiz cheklangan ekan, hech qachon cheksiz ehtiyojlarimizni to'liq qondirish mumkin emas. Shunday ekan, iqtisodchilar jamiyat ixtiyorida mavjud cheklangan (taqchil) resurslardan optimal foydalangan holda **cheksiz ehtiyojlarni maksimal darajada qondirish** ustida bosh qotirishlariga to'g'ri keladi. Buning uchun mavjud **resurslardan oqilona va samarali foydalanish** yo'llarini izlab topish zarur bo'ladi.

Iqtisodiy tanlov tovarlar va xizmatlar ishlab chiqarishda cheklangan resurslardan foydalanishning muqobil variantlari ichidan cheksiz ehtiyojlarni maksimal qondirishga imkon beruvchi eng optimal variantni tanlashni anglatadi. Iqtisodiy tanlov firmalarni belgilangan maqsadga erishish uchun xo'jalik yuritishning ratsional usullarini tanlashga, eng kam xarajatlar evaziga maksimal hajmda mahsulot ishlab chiqarish va maksimal foyda olishga undaydi.

Mikroiqtisodiyot iqtisodiy sub`ektlarni ikkiga bo'lib qaraydi - iste'molchilar (uy xo'jaliklari) va ishlab chiqaruvchilar (firmalar). Iste'molchining maqsadi - mumkin darajada o'zining ehtiyojlarini maksimal darajada qondirish bo'lsa, ishlab chiqaruvchilarning maqsadi - foydani yoki boshqa bir faoliyat ko'rsatkichlarini maksimallashtirishdan yoki minimallashtirishdan iboratdir.

Iqtisodiy doiraviy aylanish modelida iqtisodiyot ikki sektorga bo'linadi: uy xo'jaliklari va firmalar. Uy xo'jaliklari o'z resurslarini (ishchi kuchi, kapital, xomashyo, yer va boshqa) firmalarga sotib daromad oladilar hamda bu daromadlarini firmalardan tovarlar va xizmatlar olishga ishlatadilar. Firmalar o'zlarining tovar va xizmatlarini sotib, undan tushgan daromadni uy xo'jaliklaridan resurslar sotib olishga ishlatadilar.

Nazorat va muhokama uchun savollar

1. Ehtiyoj va ne'mat tushunchalari nimani anglatadi?
2. Iqtisodiy resurslarga nimalar kiradi?
3. Iqtisodiyotning markaziy va bosh muammosi nimadan iborat?
4. Iqtisodiy tanlov va muqobil xarajatlar deganda nima tushuniladi?
5. Ishlab chiqarish imkoniyatlari chizig'i nimani ifodalaydi?
6. Har qanday jamiyat javob berishi lozim bo'lgan beshta fundamental iqtisodiy savol nimalarni nazarda tutadi?
7. Resurslar cheklangan sharoitda ularni optimal taqsimlash masalasi qanday echiladi?
8. Resurslar, tovarlar va xizmatlar oqimining doiraviy aylanish modeli nima?

3-bob. TALAB VA TAKLIF TAHLILI ASOSLARI

3.1. Talab va unga ta'sir ko'rsatuvchi omillar tahlili

Talab va taklifni iqtisodiy jihatdan tahlil qilish bir qator muammolarni hal qilishda universal vosita bo'lib xizmat qiladi. Bunday muammolarga quyidagilarni kiritish mumkin:

- narxlar, istemolchilar didi, daromadi, soni va boshqa omillarning istemol va mahsulot ishlab chiqarish hajmi hamda bozor konyunkturasiga ta'sirini baholash;
- narxlar vositasida bozorni tartibga solish bo'yicha davlat tomonidan ko'riladigan chora-tadbirlar oqibatlarini prognozlash;
- mehnat bozorini tartibga solish va minimal ish haqi darajasini belgilash;
- soliqlar, dotatsiyalar, subsidiyalar, importga qo'yiladigan boj to'lovlarning tovar ishlab chiqaruvchilarga ta'sirini baholash va boshqalar.

Talab - ma'lum vaqt oralig'ida, turli narxlar darajasida iste'molchilarning ma'lum miqdordagi tovarlar va xizmatlarni xarid qilishga bo'lgan "xohishi" va "imkoniyatlari"ni aks ettiruvchi iqtisodiy kategoriyadir. Shuni unutmash kerakki, birgina iste'molchilarning "xohishi" asosida bozorda talabni shakllantirib bo'lmaydi, talab yuzaga kelishi uchun "xohish" "imkoniyat" bilan mustahkamlangan bo'lishi lozim. "Imkoniyatlar" shuni anglatadiki, xaridorlar bozorda talab qilingan miqdordagi tovarlar haqiqatdan ham mavjud bo'lganda, ular uchun haq to'lashga qurlari yetarli va tayyordirlar.

Talab iste'molchining turli narxlarga mos keluvchi muqobil imkoniyatlarni aks ettirib, uni jadval ko'rinishlarida quyidagicha tasvirlash mumkin (3.1-jadval).

3.1-jadval

Oilaning shakarga bo'lgan oylik talabi

Shakar narxi (P), so'm/kg	4500	5000	5500
Oylik talab hajmi, kg	8	7	6

Manba: shartli raqamlar asosida tuzilgan.

Yuqorida keltirilgan jadvaldan ma'lumki, bir kg shakarning narxi 4500 so'm bo'lganda iste'molchining oyiga 8 kg, 5000 so'mda 7 kg va 5500 so'mda 6 kg shakar xarid qilishga xohishi va qurbi yetadi. Bundan ko'rinib turibdiki, narxlar talabning shakllanishida hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi. Ammo talab hajmi va haqiqatda xarid qilingan tovarlar hajmi o'rtasida farq mavjudligini e'tiborga olish lozim. Talab hajmi faqat xaridorlarning bozordagi xatti-harakatini ifodalaydi, haqiqatda xarid qilinadigan tovarlar hajmi esa – xaridorlar va sotuvchilar tomonidan birgalikda aniqlanadi.

Kuzatishlarning ko'rsatishicha, boshqa omillar o'zgarmaganda, narxlarning oshishi talab hajmini qisqarishiga va aksincha narxlarning pasayishi talab hajmini oshishiga olib keladi. Tovarning narxi bilan unga bo'lgan talab miqdori o'rtasida teskari bog'liqlik mavjud bo'lib, iqtisodchilar uni **talab qonuni** deb atashadi. Talab qonuning mohiyatini quyidagi sabablar bilan izohlash mumkin:


1. Iste'molchilar uchun narxlar o'ziga xos signal vazifasini o'taydi. Qimmat narxlar iste'molchilarning ne'matlarni xarid etishga bo'lgan xohishini pasaytirsa, arzon narxlar tovarni xarid qilishga moyil bo'lgan xaridorlar sonini ko'paytiradi. "Chegirmalar orqali sotuvlar" firmalarning talab qonuniga qanchalik amal qilishining yaqqol ifodasidir. Odatda firmalar tovar zaxiralari ortib ketganda "talab qonuni"ga amal qilib, narxlarni pasaytirish orqali sotuvni rag'batlantirishga va shu yo'l bilan tovar zaxiralarini qisqartirishga harakat qiladi.

2. Aksariyat ne'matlarning qo'shimcha birligini xarid qilishdan olinadigan qoniqish, ya'ni chekli naflilik darajasi pasayib boradi. Iste'molchilar "chekli naflilikning kamayib borish qonuni" ta'sirida qo'shimcha mahsulotlar birligini faqatgina ularning narxlari arzonlashgan taqdirda xarid qilishga moyil bo'ladi.

3. Talab qonunining iqtisodiy mazmunini daromad va almashtirish samaralari orqali ham izohlash mumkin. "Daromad samarasi"ga ko'ra, iste'molchilar arzon narxlarda boshqa ne'matlardan voz kechmagan holda ko'proq ne'matlar xarid qilish imkoniyatiga ega bo'ladi. Boshqacha ta'riflaganda, narxlarning arzonlashuvi iste'molchilar pul daromadlarining xarid qobiliyatini oshiradi va ular muayyan mahsulot turidan oldingiga qaraganda ko'proq xarid qilishga muvaffaq bo'ladi. Narxlarning qimmatlashuvi esa bunga teskari natija keltiradi. Boshqa tomondan iste'molchilar narxi qimmatlashgan ne'matlarni narxi arzon ne'matlar bilan almashtirishga moyil bo'lib, bu "almashtirish samarasi" ta'sirida yuz beradi.

Yuqorida keltirilganlar shundan darak beradiki, iste'molchilar narxi qimmat ne'matlarga qaraganda arzon ne'matlarni ko'proq xarid qilishga moyil bo'ladi.

Talab orqali bozor mexanizmini o'rganishda uning grafisini tahlil qilish muhimdir. Ordinata o'qi bo'ylab bir birlik mahsulot narxini va absissa o'qi bo'ylab berilgan vaqt oralig'ida talab qilingan mahsulot miqdorini belgilaymiz. Talab chizig'i (*Demand curve*) pastga qarab yo'nalgan yotiq chiziq bo'lib, belgilangan narxlar darajasida iste'molchilarning qancha miqdorda mahsulot sotib olishi mumkinligini ko'rsatadi (3.1-rasm).




3.1-rasm. Talab chizig'i

Talab chizig'ining pastga qarab yo'nalgan yotiq chiziqliqi, iste'molchilarning narxlar qancha arzon bo'lsa, shuncha ko'p mahsulot sotib olishga xohishi borligini anglatadi.

Talabga tovarning o'z narxi ta'sir ko'rsatganda, talab egri chizig'i surilmasdan, chiziq bo'ylab bir nuqtadan ikkinchi nuqtaga ko'chish yuz beradi va biz buni **talab**

miqdorining o'zgarishi deb ataymiz (3.2-rasm).




3.2-rasm. Talab miqdorining o'zgarishi

Yuqorida keltirilgan 3.2-rasmdan ko'rinib turibdiki, narx P_1 ga teng bo'lganda iste'molchining Q_1 miqdordagi mahsulotni sotib olishga talabi bo'lsa, narx P_2 ga oshganda talab hajmi qisqarib, Q_2 ga teng bo'ladi. Bunda talab egri chizig'i bo'ylab A nuqtadan B nuqtaga ko'chish yuz beradi.

Talabga tovarning o'z narxidan tashqari quyidagi boshqa omillar ham ta'sir ko'rsatadi va ular talab determinantlari deb ataladi:

1. Iste'molchilarning daromadi.
2. O'rinbosar va to'ldiruvchi tovarlar narxlari.
3. Iste'molchilarning didi.
4. Bozordagi iste'molchilar soni.
5. Kelgusidagi o'zgarishlarga nisbatan iste'molchilarning kutishlari.


Talabga narxdan tashqari yuqorida keltirilgan boshqa omillar ta'sir ko'rsatganda talab egri chizig'i o'ngga yoki chapga suriladi. Bunday o'zgarishni **talabning o'zgarishi** deb ataymiz. Masalan, tovarning narxi (P) o'zgarmaganda **iste'molchi daromadining oshishi** unga oldingiga (Q_1) nisbatan ko'proq miqdorda (Q_2) tovar xarid etish imkonini beradi va talab chizig'i parallel o'ngga (D dan D' holatiga) suriladi (3.3-rasm).



3.3-rasm. Talabning o'zgarishi

Aksincha, tovarning narxi o'zgarmagan holatda iste'molchining daromadi pasaysa, iste'molchining talabi kamayadi va talab chizig'i parallel chapga suriladi (D dan D' holatiga).

Ikkinchi tomondan, iste'molchining real daromadi oshsa, u Q_2 miqdordagi tovarni yuqoriroq narxda, masalan, P_2 narxda ham sotib olishi mumkin. Bu holatda ham talab chizig'i o'ngga suriladi (3.4-rasm).



3.4-rasm. Narx va talabning o'zgarishi

Iste'molchilar daromadi o'zgarishining talabga ta'siri tovarlar kategoriyasiga qarab turlichadir:

1. Iste'molchining daromadi oshganda oliy va normal kategoriyali tovarlarga talab oshadi va past kategoriyali tovarlarga talab pasayadi.

2. Iste'molchining daromadi pasayganda past kategoriyali tovarlarga talab oshadi va aksincha oliy hamda normal kategoriyali tovarlarga talab pasayadi.

Demak daromad o'zgarishi bilan oliy hamda normal kategoriyali tovarlarga talab o'zgarishi o'rtasida to'g'ri, past kategoriyali tovarlarga talab o'zgarishi o'rtasida esa teskari bog'liqlik mavjud ekan.

Talabga **o'rinbosar** va **to'ldiruvchi tovarlar narxlari** ham kuchli ta'sir ko'rsatadi. Asosiy tovarga bo'lgan talab o'zgarishi bilan o'rinbosar tovar narxi o'zgarishi o'rtasida to'g'ri bog'liqlik mavjud. Masalan, asosiy tovar sifatida mol go'shtini, o'rinbosar tovar sifatida qo'y go'shtini olaylik. Agar o'rinbosar tovar bo'lgan qo'y go'shtining narxi oshsa, asosiy tovar bo'lgan mol go'shtiga talab oshadi yoki aksincha qo'y go'shtining narxi pasaysa, mol go'shtiga talab ham pasayadi.

Asosiy tovarga bo'lgan talab o'zgarishi bilan to'ldiruvchi tovar narxi o'zgarishi o'rtasida teskari bog'liqlik mavjud. Masalan, asosiy tovar sifatida avtomashina, to'ldiruvchi tovar sifatida yoqilg'ini olaylik. Agar avtomashinaning narxi oshsa, to'ldiruvchi tovar bo'lgan yoqilg'iga talab ham qisman kamayadi yoki aksincha avtomashina narxi pasaysa, yoqilg'iga talab oshadi.

Bir-birining o'rnini bosadigan tovarlardan birining narxini oshishi yoki to'ldiruvchi tovarlardan birining narxini kamayishi ham talab chizig'ini o'ngga yoki chapga surilishiga olib keladi.

Vaqt oraliq'ida **iste'molchilar dididagi**, moda va turmush tarzidagi o'zgarishlar ayrim tovarlar va xizmatlarga bo'lgan talabni oshiradi, ayrimlariga talabni esa kamaytiradi yoki butunlay yo'qolb ketishiga olib keladi.

Iste'molchilar soni muayyan bir bozor yoki hududda talabning shakllanishida muhim o'rin tutadi. Shu tufayli biznesmenlar aholi gavjum va ko'p bo'lgan joylarda o'z biznesini yuritishga harakat qiladilar. Aholi juda kam bo'lgan sahro yoki chekka hududlarda talab miqdori o'ta cheklangan.

Narxlar darajasi, inflyasiya, soliq stavkalari, eng kam ish haqi miqdori yoki mavsumiylik kabi **kelgusidagi o'zgarishlarni kutish** talabning o'zgarishiga kuchli ta'sir ko'rsatadi. Masalan, kelgusi oyning boshidan benzin narxining oshishi ehtimoli iste'molchilarning benzininga talabini keskin oshiradi.

3.2. Taklif va unga ta'sir ko'rsatuvchi omillar tahlili

Taklif ma'lum vaqt oraliq'ida, turli narxlar darajasida ishlab chiqaruvchilarning (sotuvchilarning) ma'lum miqdordagi tovarlar va xizmatlarni sotishga bo'lgan xohishi va imkoniyatlarini aks ettiradi.

Taklif hajmi va haqiqatda sotilgan tovarlar hajmi o'rtasida farq mavjud. Taklif hajmi sotuvchilarning bozordagi xatti-harakatini ifodalasa, haqiqatda sotiladigan tovarlar hajmini xaridor va sotuvchilar birgalikda aniqlaydi.

Narxlar taklifning shakllanishida hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi. Narx va taklif o'rtasidagi bog'liqlikni quyidagi jadvalda aks ettirish mumkin (3.2-jadval).

3.2-jadval

Do'konning bir oylik shakar taklifi

Shakarning narxi (P), so'm/kg	4500	5000	5500
Taklif hajmi, tonna	4	7	10


Manba: shartli raqamlar asosida tuzilgan.

Yuqorida keltirilgan jadvaldan ma'lumki, bir kg shakarning narxi 4500 so'm bo'lganda sotuvchi 4 tonna, 5000 so'mda 7 tonna va 5500 so'mda 10 tonna shakarni sotishga xohishi va imkoniyati mavjud. Bundan ko'rinib turibdiki, tovarning narxi bilan taklif miqdori o'rtasida to'g'ri bog'liqlik mavjud. Narx oshsa, taklif miqdori ham oshadi yoki aksincha narx pasaysa, taklif miqdori ham qisqaradi. Tovarning narxi bilan taklif miqdori o'rtasida to'g'ri bog'liqlikni **taklif qonuni** deb ataymiz.

Taklif qonuninig mohiyatini quyidagicha izohlash mumkin. Narx tovar ishlab chiqaruvchilar (sotuvchilar) uchun mahsulot birligiga nisbatan olinadigan daromadni (pul tushumini) anglatadi va narxlarning oshishi sotuvchilarning daromadlarini oshiradi. Shu tufayli qimmat narxlar sotuvchilarni taklif hajmini oshirishga rag'batlantirsa, arzon narxlar taklif hajmini qisqartirishga signal bo'ladi.

Ba'zan bozor to'yinib, tovar zaxiralari ortib ketganda, sotuvchilar narxlarni pasaytirish orqali sotish hajmini oshirish va ortiqcha zaxiralarni qisqartirishga harakat qilishadi.


Taklifni o'rganishda uning grafigini tahlil qilish muhimdir. Ordinata o'qi bo'ylab bir birlik mahsulot narxini va absissa o'qi bo'ylab berilgan vaqt oralig'ida taklif qilingan mahsulot miqdorini belgilaymiz. Taklif chizig'i muayyan narxlarda sotuvchilarning qancha miqdorda mahsulotni sotishga bo'lgan xohishi va imkoniyatlarini aks ettiradi (3.5-rasm).



3.5-rasm. Taklif chizig'i

Taklif chizig'i yuqoriga qarab yo'nalgan o'suvchi chiziq. Taklif chizig'ining yuqoriga yo'nalganligi, sotuvchilarning narxlar qancha qimmat bo'lsa, shuncha ko'p mahsulot sotishga xohishi va imkoniyati borligini anglatadi. Yuqori narxlar sotuvchilarga nafaqat ko'proq miqdordagi tovarlar sotishga balki, ularning daromadlarini yuksaltirishga ham imkon yaratadi.

Tovarning o'z narxi taklifga ta'sir ko'rsatganda, taklif egri chizig'i o'ngga yoki chapga surilmasdan, chiziq bo'ylab bir nuqtadan ikkinchi nuqtaga, ya'ni *A* nuqtadan *B* nuqtaga ko'chish yuz beradi (3.6-rasm). Buni **taklif miqdorini o'zgarishi** deb ataymiz.




3.6-rasm. Taklif miqdorining o'zgarishi

Taklifga tovarning o'z narxidan tashqari boshqa omillar ham ta'sir ko'rsatadi. Jumladan:

1. Resurslarning narxlari.
2. Texnologiyalar.

3. Soliqlar, dotatsiyalar va subsidiyalar.
4. Boshqa tovarlarning narxlari.
5. Bozordagi sotuvchilar soni.
6. Kelgusidagi o'zgarishlarni kutishlar.

1. **Resurslarning narxlari.** Taklif bilan ishlab chiqarish xarajatlari o'rtasida bevosita bog'liqlik mavjud. Firmaning mahsulot ishlab chiqarish imkoniyatlari ishlab chiqarish xarajatlari bilan o'lchanadi. Resurslar narxining oshishi ishlab chiqarish xarajatlarini ham oshirib, taklif hajmini qisqartiradi va taklif egri chizig'ini chapga surilishiga sabab bo'ladi yoki aksincha. Masalan, ishlab chiqaruvchining qancha miqdorda mahsulot sotishi uning narxidan tashqari ishlab chiqarish xarajatlariga (ish haqi, xomashyo narxi) ham bog'liqdir. Shu sababli biz taklif egri chizig'ining, ish haqi stavkasi, ishlab chiqarish xarajatlari o'zgarganda qanday o'zgarishini qarab chiqamiz (3.7-rasm).



3.7-rasm. Resurslar narxi o'zgarishi tasirida taklifning o'zgarishi

Taklif chizig'idagi (S) o'zgarishni tahlil qilishdan boshlaymiz. 3.7-rasmdan ko'rinib turibdiki, narx P_1 bo'lganda, ishlab chiqariladigan va sotiladigan mahsulot miqdori Q_1 ga teng. Endi xomashyo narxi pasaydi deb faraz qilaylik. Bu taklifga qanday ta'sir qilishi mumkin?

Xomashyo narxining pasayishi, mahsulotni ishlab chiqarish xarajatini kamayishiga olib keladi. Xarajatning kamayishi esa ishlab chiqarish samaradorligini oshirib, ko'proq foyda olish imkoniyatini yaratadi. Bu o'z navbatida ishlab chiqarishni rivojlantirishni rag'batlantiradi va ilgari foyda ko'rmagan firmalar uchun bozorga o'z tovarlari bilan kirib kelish imkonini yaratadi. Demak, resurslar narxining arzonlashuvi tovarning narxi o'zgarmagan taqdirda bozordagi mahsulot taklifini ilgaridagiga nisbatan oshiradi va natijada taklif egri chizig'i o'ngga suriladi. Bunda P_1 narxga Q_1 emas Q_2 hajmdagi mahsulot miqdori to'g'ri keladi. Bu holatda mahsulot ishlab chiqarish hajmining oshishi tovarning narxiga bog'liq emas. Shu sababli taklif egri chizig'i (S) o'ngga (S' holatga) suriladi (3.7-rasm).

Agar xomashyo (resurslar) narxi qimmatlashsa, ishlab chiqarish xarajatlari oshib ketib, mahsulot hajmi qisqaradi va bu holatda taklif chizigi chapga (S dan S' holatiga) suriladi. Taklif egri chizig'ining narxga bog'liq bo'lmagan o'zgarishiga, yani o'ngga yoki chapga surilishiga **taklif o'zgarishi** deyiladi.

2. **Texnologiyalar.** Fan-texnika taraqqiyoyi ta'sirida texnologiyalarning takomillashuvi mahsulot ishlab chiqarish samaradorligini oshiradi, ya'ni kamroq sarf-xarajat evaziga ko'proq mahsulot ishlab chiqarish mumkin bo'ladi. Bu taklif hajmini oshiradi va taklif chizig'ini o'ngga surilishiga olib keladi. Masalan, avtomobilni robotlar yordamida konveyer usulida yig'ishni joriy etilishi avtomobil ishlab chiqarish hajmi va taklifini keskin oshishiga olib keldi. Yoki tomchilatib sug'orish va boshqa ilg'or agrotexnologiyalarni qo'llanishi natijasida keyingi yillarda ekinlar hosildorligi va qishloq xo'jaligi mahsulotlari taklifi sezilarli darajada oshdi. Aksincha, eski texnologiyalarni qo'llanishi taklif hajmini qisqarishiga olib keladi.

3. **Soliqlar, subsidiyalar va dotatsiyalar.** Firmalar uchun aksariyat soliqlar ishlab chiqarish xarajatlari sifatida qaraladi. Soliq stavkalarini oshirilishi ishlab chiqarish xarajatlarini ham oshiradi va taklifni qisqartiradi (taklif chizig'i chapga suriladi) yoki aksincha soliq stavkalarining pasaytirilishi ishlab chiqarish xarajatlarini kamaytirib, taklifni oshiradi (taklif chizig'i o'ngga suriladi).

Davlat tomonidan biror mahsulotni ishlab chiqarishga **subsidiya (dotatsiya)** ajratilsa, ishlab chiqarish xarajatlari kamayib, taklif oshadi va taklif chizig'i o'ngga suriladi. Masalan, unumdorligi past va o'gir iqlim sharoitidagi yerlarda qishloq xo'jaligi mahsulotlari yetishtiruvchi fermer xo'jaliklariga davlat byudjetidan subsidiyalar ajratilishi ishlab chiqarish hajmini oshishiga ijobiy tasir ko'rsatadi.

4. **Boshqa tovarlar narxi.** Boshqa tovarlar narxining o'zgarishi ham taklif chizig'ini o'zgarishiga olib kelishi mumkin. Masalan, maishiy texnikalar ishlab chiqaruvchi firma kir yuvish mashinalariga talab oshib, ularning narxi qimmatlashishi oqibatida muzlatkichlar ishlab chiqarishni qisqartirib, kir yuvish mashinalari taklifini oshirishi mumkin. Bu holat kir yuvish mashinalari taklifi chizig'ini o'ngga, muzlatgich taklifi chizig'ini esa chapga surilishiga sabab bo'ladi.

5. **Kelgusidagi o'zgarishlarni kutishlar.** Biror bir mahsulot narxining kelgusida o'zgarishini kutish sotuvchilarning hozirgi vaqtdagi xohishiga o'z ta'sirini o'tkazishi mumkin. Masalan, avtomobillarga yoqilg'i quyish shaxobchalari kelgusida benzin narxining oshishini kutib, benzin taklifini vaqtincha cheklab turishi mumkin. Shuningdek kelgusida narxlarning oshishi ehtimoli tovar ishlab chiqaruvchilarni mahsulot hajmini oshirishga rag'batlantiradi.

6. **Sotuvchilar soni.** Bozorga sotish uchun mahsulot olib chiquvchi sotuvchilar soni qancha ko'p bo'lsa, bozor taklifi shuncha ko'p, aksincha tarmoqdagi sotuvchilar soni qancha kam bo'lsa, bozor taklifi shuncha kam bo'ladi. Tarmoqqa yangi firmalarning oqib kirishi taklif chizig'ini o'ngga, tarmoqdan firmalarning chiqib ketishi esa taklif chizig'ini chapga surilishiga olib keladi.

Taklifga tovarning o'z narxidan tashqari yuqorida keltirilgan **boshqa omillar ta'sir ko'rsatganda**, taklif egri chizig'i o'ngga yoki chapga suriladi (3.7-rasm). Bunday o'zgarishlarni **taklifning o'zgarishi** deb ataymiz.

3.3. Talab va taklif funksiyalari

Talab va taklifni funksiya orqali ham ifodalash mumkin. Agar talabga bitta o'zgaruvchi omil (masalan tovarning narxi) ta'sir ko'rsatsa ular o'rtasidagi bog'liqlikni bir omilli talab funksiyasi orqali ifodalash mumkin. Bir omilli (o'zgaruvchili) funksiyaga misol sifatida narxga bog'liq talab funksiyasini keltirish mumkin: $Q_d = f(P)$

Bu yerda: Q_d - talab miqdori; P - bir birlik mahsulot narxi.

Bir o'zgaruvchili chiziqli talab funksiyasi quyidagicha yoziladi: $Q_d = a - b \cdot P$

Bu yerda: $Q_d \geq 0$ va $P \geq 0$, a va b parametrlar statistik ma'lumotlar asosida hisoblanadi.

Chiziqli talab funksiyasi narx P bo'lganda, iste'molchi qancha miqdorda mahsulot sotib olishi mumkinligini ko'rsatadi. Masalan, dokonda o'quvchi daftari narxi va daftarga bo'lgan oylik talab quyidagicha bolsin (3.3-jadval).

3.3-jadval

O'quvchining daftarga bo'lgan yakka talabi


Bir birlik daftar narxi (P), so'm	1000	2000	3000
Talab miqdori (Q_d), dona	1800	1600	1400

Manba: shartli raqamlar

Bu jadvaldagi talab (Q_d) bilan narx (P) o'rtasida teskari bog'liqlik mavjud. Negaki, narx (argument) oshishi bilan talab miqdori (funksiya qiymati) kamayib bormoqda. Jadvaldagi talab bilan narx o'rtasidagi bog'liqlik analitik, ya'ni funksiya shaklida berilganda quyidagicha yoziladi: $Q_d = 2000 - 0,2 \cdot P$


Ushbu funksiyalardagi talab (Q_d) va narxdan (P) biriga, uning jadvaldagi qiymatlarini qo'ysak, mos holda ikkinchisining qiymatini aniqlaymiz.

Chiziqli talab funksiyasining grafigi quyidagi tartibda aniqlanadi. Narx $P = 0$ bo'lganda talab $Q_d = a$, narx $P = \frac{a}{b}$ bo'lganda talab $Q_d = 0$ ga teng bo'ladi. Olingan qiymatlar grafikda ifodalanib, talab chizig'ini chizamiz (3.8-rasm).



3.8-rasm. Chiziqli talab grafigi

Talab funksiyasi chiziqli bo'lgani uchun narx (P) noldan $\frac{a}{b}$ gacha o'zgarganda, talabning Q_d qiymati AB to'g'ri chizig'i ustida yotadi. Endi 3.3-jadvalda keltirilgan talab funksiyasi grafigini chizamiz (3.9-rasm).



2.8-rasm. Daftarga bo'lgan chiziqli talab grafigi

$P=0$ bo'lganda, maksimal talab miqdori $Q_d=2000$ ga teng (grafikda u B nuqta bilan belgilangan). Daftarni narxi $P=10000$ so'mga teng bo'lganda, talab miqdori $Q_d=0$ ga teng bo'ladi (grafikda bu A nuqta). A nuqta bilan B nuqtani tutashtiruvchi to'g'ri chiziq berilgan funksiya uchun talab chizig'ini hosil qiladi.

Ko'p omilli (o'zgaruvchili) talab funksiyasi talab miqdorini unga ta'sir qiluvchi bir necha omillar bo'yicha aniqlaydi. Misol tariqasida non bozori modelini qanday aniqlanishini qaraymiz. Faraz qilaylik nonga bo'lgan talab nonning narxi (P_n) va iste'molchining daromadiga (R) bog'liq bo'lsin. Bu bog'liqlik quyidagicha ifodalanadi: $Q_d = f(P_n, R)$ (1).

Bu holda ko'p o'zgaruvchili talab funksiyasi ikki o'zgaruvchiga, non narxi (P_n) va iste'molchi daromadiga (R) bog'liq.

Misol. Nonga bo'lgan ikki omilli talab funksiyasi berilgan:

$$Q_d = 800 - 20P_n + 2R$$

Bu funksiya orqali berilgan non narxi va iste'molchi daromadida nonga talab qancha ekanligini aniqlash mumkin. Agar non narxi (P_n) 1500 so'm, daromad 15500 so'm bo'lsa, nonga talab 200 taga teng bo'ladi.

$$Q_d = 800 - 20 \cdot 1500 + 2 \cdot 15500 = 200$$

Agar iste'molchi daromadi o'zgarmas bo'lib, $R=15500$ so'mga teng bo'lsa, u holda bir omilli nonga talab funksiyasini olamiz:

$$Q_d = 30200 - 20 \cdot P_n$$

yoki non narxi (P_n) 1500 so'm bo'lib, o'zgarmas bo'lsa, biz daromadga bog'liq nonga talab funksiyasini quyidagicha yozamiz.

$$Q_d = 31200 - 2 \cdot R.$$

Talabga narxdan tashqari ta'sir qiluvchi barcha omillarni hisobga oladigan bo'lsak, ko'p omilli (o'zgaruvchili) talab funksiyasi quyidagicha yoziladi:

$$Q_d = f(P, R, T, W, P_s, P_c, N, O)$$

Bu yerda: Q_d - talab; R - iste'molchilar daromadi; T - iste'molchilar didi; W - kelgusidagi o'zgarishlarni kutishlar; P_s - o'rinbosar tovarlar narxi; P_c - bir-birini to'ldiruvchi tovarlar narxi; N - xaridorlar soni; O - boshqa omillar.

Shunday qilib, ko'p omilli talab funksiyasi yordamida, talab miqdorining unga ta'sir qiluvchi omillar (yoki bir qator omillar ta'siri o'zgarmas bo'lganda qolgan omillar) ta'siri bo'yicha o'zgarish qonuniyatlarini tahlil qilish mumkin.

Xuddi talabdagi singari taklif va unga ta'sir ko'rsatuvchi omillar o'rtasidagi bog'liqlikni funksiya orqali ifodalash mumkin. Taklif funksiyasi bir birlik tovar narxi P bo'lganda sotuvchilar maksimal darajada qancha miqdorda tovar taklif qilishi mumkinligini ko'rsatadi.

Taklifga faqat bitta omil, masalan tovarning narxi ta'sir ko'rsatganda bir o'zgaruvchili taklif funksiyasi quyidagi ko'rinishda yoziladi: $Q_s = f(P)$

bu yerda Q_s - tovar taklifi miqdori; P - bir birlik tovar narxi.

Bir o'zgaruvchili taklif funksiyasini chiziqli tenglama ko'rinishida ham yozish mumkin: $Q_s = a + b \cdot P$

Bu yerda: $Q_s \geq 0$ va $P \geq 0$, a va b parametrlar statistik ma'lumotlar asosida hisoblanadi.

Chiziqli taklif funksiyasi narx P bo'lganda, sotuvchi maksimal miqdorda qancha mahsulot sotishi mumkinligini ko'rsatadi. Masalan, qalam narxi va sotuvchining shu narxlarda qalam taklifi quyidagicha bolsin (3.4-jadval).

3.4-jadval

Qalam narxi va taklifi o'rtasidagi bog'liqlik

Bir birlik qalam narxi (P), so'm	500	1000	1500
Taklif miqdori (Q_d), dona	450	600	750

Manba: shartli raqamlar


Yuqoridagi 3.4-jadvalda keltirilgan ma'lumotlardan ma'lumki bir birlik qalam narxi (P) 500 so'm bo'lganda qalam taklifi 450, 1000 so'm bo'lganda 600 va 1500 so'm bo'lganda 750 donani tashkil etgan. Bu jadvalda taklif (Q_s) bilan narx (P) o'rtasida to'g'ri bog'liqlik mavjud. Chunki, narx oshishi bilan taklif miqdori ham oshib bormoqda. Jadvalda keltirilgan ma'lumotlardan foydalanib taklif va narx o'rtasidagi bog'liqlikni funksiya orqali ifodalaganda u quyidagicha yoziladi:

$$Q_d = 300 + 0,3P$$

Hosil qilingan chiziqli funksiya P va Q_s lardan birining tegishli qiymatini o'rniga qo'yish orqali ikkinchisining qiymatini aniqlash mumkin bo'ladi.

Bu taklif funksiyasi tovar narxiga bog'liq bo'lib, u musbat va o'suvchidir, ya'ni narxning (argument) oshishi taklifning (funksiyaning) oshishiga olib keladi.

Endi 3.4-jadvaldagi ma'lumotlarni grafikning tegishli o'qlariga joylashtirib, taklif funksiyasi grafigini hosil qilamiz (2.9-rasm).



2.9-rasm. Qalam narxi va taklifi o'rtasidagi bog'liklik

Taklifga tovarning o'z narxdan tashqari boshqa omillar ta'sirini tahlil qilish uchun ko'p omilli (o'zgaruvchili) taklif funksiyasidan foydalaniladi va u quyidagi ko'rinishda bo'ladi:

$$Q^S = f(P, Tech, P_R, Tax, D, S, N, W)$$

Bu yerda: Q_s - taklif miqdori; P - tovar narxi; $Tech$ - texnologiyalar; P_R - resurslar narxi; Tax - soliq stavkalari; D - dotatsiya miqdori; S - subsidiya miqdori; N - sotuvchilar (ishlab chiqaruvchilar) soni; W - kelgusidagi o'zgarishlarni kutishlar.

Qisqa xulosalar

Talab - ma'lum vaqt oralig'ida, turli narxlar darajasida iste'molchilarning ma'lum miqdordagi tovarlar va xizmatlarni xarid qilishga bo'lgan "xohishi" va "imkoniyatlari"ni aks ettiruvchi iqtisodiy kategoriyadir.

Boshqa omillar o'zgarimaganida, narxlarning oshishi talab hajmini qisqarishiga va aksincha narxlarning pasayishi talab hajmini oshishiga olib keladi. Tovarning narxi bilan talab miqdori o'rtasida teskari bog'liqlik **talab qonu** deb ataladi.

Talabga tovarning o'z narxi ta'sir ko'rsatganda, talab egri chizig'i surilmasdan, chiziq bo'ylab bir nuqtadan ikkinchi nuqtaga ko'chish yuz beradi va biz buni **talab miqdorining o'zgarishi** deymiz.

Talabga narxdan tashqari boshqa omillar (iste'molchilar daromadi va didi, o'rinbosar va to'ldiruvchi tovarlar narxlari, iste'molchilar soni, kelgusidagi o'zgarishlarni kutishlar) ta'sir ko'rsatganda talab egri chizig'i o'ngga yoki chapga suriladi. Bunday o'zgarish **talabning o'zgarishini** anglatadi.

Taklif ma'lum vaqt oralig'ida, turli narxlar darajasida ishlab chiqaruvchilarning (sotuvchilarning) ma'lum miqdordagi tovarlar va xizmatlarni sotishga bo'lgan xohishi va imkoniyatlarini aks ettiradi.

Narx oshsa, taklif miqdori ham oshadi yoki aksincha narx pasaysa, taklif miqdori ham qisqaradi. Tovarning narxi bilan taklif miqdori o'rtasida to'g'ri bog'liqlikni **taklif qonuni** deb ataymiz.

Tovarning o'z narxi ta'sirida taklif egri chizig'i surilmasdan, chiziq bo'ylab bir nuqtadan ikkinchi nuqtaga ko'chish yuz beradi. Buni **taklif miqdorini o'zgarishi** deb ataymiz.

Taklifga tovarning o'z narxidan tashqari boshqa omillar (resurslar narxlari, texnologiyalar, soliqlar, dotatsiyalar va subsidiyalar, boshqa tovarlarning narxlari, sotuvchilar soni, kelgusidagi o'zgarishlarni kutishlar) ham ta'sir ko'rsatadi. Ular ta'sirida taklif egri chizig'ining o'ngga yoki chapga surilishiga **taklif o'zgarishi** deyiladi.

Talab va taklifni funksiya orqali ham ifodalash mumkin. Agar talab va taklifga bitta o'zgaruvchi omil (masalan tovarning narxi) ta'sir ko'rsatsa ular o'rtasidagi bog'liqlikni bir omilli funksiyasi orqali ifodalash mumkin. Ko'p omilli (o'zgaruvchili) talab va taklif funksiyalari ular miqdorini ta'sir qiluvchi bir necha omillar bo'yicha aniqlaydi.

Nazorat va muhokama uchun savollar

1. Talab iqtisodiy kategoriya sifatida nimani anglatadi?
2. Ne'matning narxi va talab o'rtasida qanday bog'liqlik mavjud?
3. Talab qonuni nima va uning asosida nimalar yotadi?
4. Talab chizig'i qanday hosil qilinadi va nimani ifodalaydi?
5. Talabga qanday omillar ta'sir ko'rsatadi?
6. Talab miqdorining va talabning o'zgarishi o'rtasida qanday farq mavjud?
7. Talabning bir va ko'p omilli hamda chiziqli funksiyalari nimani ifoda etadi?
8. Taklif iqtisodiy kategoriya sifatida nimani anglatadi?
9. Ne'matning narxi va taklif o'rtasida qanday bog'liqlik mavjud?
10. Taklif qonuni nima va uning asosida nimalar yotadi?
11. Taklif chizig'i qanday hosil qilinadi va nimani ifodalaydi?
12. Taklifga qanday omillar ta'sir ko'rsatadi?
13. Taklif miqdorining va taklifning o'zgarishi o'rtasida qanday farq mavjud?
14. Taklifning bir va ko'p omilli hamda chiziqli funksiyalari nimani ifoda etadi?

4-bob. BOZOR MUVOZANATI, MAKSIMAL VA MINIMAL NARXLAR

4.1. Bozor muvozanati va muvozanatli narx

Har qanday bozorda narx, xarid va sotuvlar hajmi talab va taklifning o'zaro munosabati orqali o'rnatiladi. Buni 4.1-jadval orqali ko'rib chiqamiz.

4.1-jadval

Guruchga bo'lgan talab va taklif parametrlari

Narx, so'm/kg	Talab hajmi (Q_d), tonna	Taklif hajmi (Q_s), tonna	Farqi, tonna	Narxdagi o'zgarish
3200	210	190	20	oshadi
3400	200	200	-	muvozanatda
3600	190	210	20	pasayadi

Manba: shartli raqamlar

Yuqoridagi 4.1-jadvalda keltirilgan ma'lumotlar shuni ko'rsatadiki, arzon narxlarda talab hajmi taklif hajmidan ortiq bo'ladi. Masalan, bir kg guruchning narxi 3200 so'm bo'lganda talab hajmi 210, taklif hajmi esa 190 tonnaga teng. Bu narxda iste'molchilar sotuvchilar taklif qilganidan ko'proq guruch sotib olishni xohlashadi. Talab hajmining taklif hajmidan oshishi (20 tonnaga) guruchga bo'lgan ortiqcha talabning vujudga kelishiga sabab bo'ladi. Agar narx bir kg uchun 3200 so'm darajasida qat'iy ushlab turilganda, bozorda **guruch tanqisligi** vujudga kelgan bo'lardi. Iste'molchilar o'zlari xohlagan miqdordagi guruchni xarid qilish imkoniyatiga ega bo'lmasdilar.


Qimmat narxlarda, aksincha, talab hajmi taklif hajmidan kam bo'ladi. Xususan, bizning misolimizda bir kg guruchning narxi 3600 so'm bo'lganda talab hajmi 190, taklif hajmi esa 210 tonnaga teng. Sotuvchilar ko'p hajmdagi guruchni sotishni istaydilar, ammo xaridorlar qimmat narxda kamroq guruch xarid qilishga moyil. Agar bozorda taklif hajmi talab hajmidan oshib ketsa, tovarning ortiqcha taklifi vujudga keladi, ya'ni narx 3600 so'm darajasida ushlab turilganda, bozorda **ortiqcha guruch taklifi** (20 tonnaga) kuzatilgan va sotuvchilar ixtiyorlaridagi barcha guruchni sotish uchun xaridor topa olmagan bo'lardi.

Guruchning narxi 3400 so'm/kg bo'lgandagina talab hajmi (200 tonna) taklif hajmiga (200 tonna) teng. Bu narxda guruch tanqisligi ham, ortiqcha taklif ham kuzatilmaydi. Bozor muvozanat holatiga erishadi.

Umuman olganda muvozanat - bu tizimning shunday holatiki, agar unga birorta tashqi kuch ta'sir ko'rsatmasa, u o'zining holatini saqlab qoladi. Talab va taklif modelida talab chizig'i (D) bilan taklif chizig'i (S) kesishgan nuqta (E nuqta) bozor muvozanatini bildiradi. Demak, **bozor muvozanati** talab hajmi bilan taklif hajmining tengligini ta'minlaydigan narx darajasi va tovar miqdori bilan aniqlanadi. Talab va taklif qonuniga tayanib shuni ta'kidlash mumkinki, berilgan vaqt oralig'ida

bozor muvozanat holatida bo'lsa, u holda bu vaqt davomida tovar narxi yoki tovar miqdorini o'zgartirishga hech narsa sabab bo'lmaydi.

Keltirilgan ma'lumotlar (4.1-jadval) asosida bozor muvozanati grafigini hosil qilamiz (4.1-rasm).



4.1-rasm. Bozor muvozanati va undan chetlanishlar

Talab va taklifni grafik (4.1-rasm) yordamida tahlil etish quyidagi xulosalarni chiqarishga yordam beradi. Muvozanatli narxdan (3400 so'm/kg.) **yuqori bo'lgan** har qanday narxda ortiqcha taklif hajmi sotuvchilarning turib qolgan tovarni tezroq sotish uchun raqobatlashishiga va natijada narxlarning pasayishiga olib keladi. Narxlarning pasayishi iste'molchilarni ko'proq mahsulot xarid qilishga rag'batlantiradi va bozordagi ortiqcha guruch miqdorining yo'qolishiga olib keladi. Bu holat toki talab va taklif hajmi tenglashib, bozorda muvozanat o'rnatilgunga qadar davom etadi. Muvozanatli narxdan **quyi bo'lgan** har qanday narxda taqchil bo'lgan tovarni qo'lga kiritish uchun iste'molchilar o'rtasidagi raqobat kurashi narxning ko'tarilishiga olib keladi. Narxning ko'tarilishi ishlab chiqaruvchilarni taklif hajmini oshirishga rag'batlantiradi. Natijada bozordagi taqchilik yo'qolib, bozor yana qaytadan muvozanat holatiga intiladi.

Muvozanatli narx – bu shunday narxki, bunda talab hajmi har doim taklif hajmiga teng va bu hajm muvozanatli hajm deb ataladi.

Muvozanat nuqtasida $P_e = P_d = P_s$

Bu yerda: P_e – muvozanatli narx; P_d – talab narxi; P_s – taklif narxi.


Muvozanatli narxda $Q_e = Q_s = Q_d$

Bu yerda: Q_e – muvozanatli hajm; Q_s – taklif hajmi; Q_d – talab hajmi.

2. Talab va taklifdagi o'zgarishlarning bozor muvozanatiga ta'siri


Oldingi mavzuda ta'kidlaganimizdek, talab va taklif tovarning o'z narxi yoki boshqa omillar ta'sirida o'zgarishi mumkin. Dastlab taklif hajmini o'zgarmas (const.) deb qabul qilgan holda talabdagi o'zgarishlarning bozor muvozanatiga ta'sirini ko'rib

chiqamiz. Faraz qilaylik, talab hajmi oshdi. Bu bozor narxi hamda muvozanatiga qanday ta'sir ko'rsatadi? Taklif o'zgarmagan holatda talabning oshishi, tovar narxi va talab hajmining oshishiga olib keladi. Bunda talab chizig'i (D) o'ngga va yuqoriga surilib (D' holatiga), talab va taklif chiziqlarining yangi kesishish muvozanat nuqtasi dastlabki holatidan (E nuqtadan) yuqorida (E' nuqtada) joylashadi (4.2-rasm).



4.2-rasm. Talab oshishining bozor muvozanatiga ta'siri


Endi taklifni o'zgarimas deb qabul qilganda, talab kamayishining bozor muvozanatiga ta'sirini ko'rib chiqamiz. Talabning kamayishi narxning pasayishiga va talab hajmining qisqarishiga olib keladi. Bunda talab chizig'i (D) chapga va pastga surililadi (D'' holatiga), talab va taklif chiziqlarining yangi kesishish muvozanat nuqtasi dastlabki holatidan (E nuqtadan) pastda (E' nuqtada) joylashadi (4.3-rasm).



4.3-rasm. Talab qisqarishining bozor muvozanatiga ta'siri


Talab o'zgarmagan holatda, taklifdagi o'zgarishlarning bozor muvozanatiga ta'sirini ko'rib chiqamiz. Faraz qilaylik taklif oshdi. Bu bozor muvozanatiga va muvozanatli narxga qanday ta'sir ko'rsatadi?

Talab o'zgarmaganda taklifning oshishi bozordagi tovar hajmini ko'paytiradi va narxni pasayishiga olib keladi. Bunda taklif chizig'i (S) o'ngga va pastga surilib (S' holatiga), talab va taklif chiziqlarining yangi kesishish muvozanat nuqtasi dastlabki holatidan (E nuqtadan) pastda (E' nuqtada) joylashadi (4.4-rasm).



4.4-rasm. Taklif oshishining bozor muvozanatiga ta'siri

Boshqa omillar o'zgarmagan holatda taklifning qisqarishi bozordagi narx va taklif hajmining oshishiga olib keladi. Bunday holatda taklif chizig'i (S) chapga va yuqoriga surilib (S' holatiga), talab va taklif chiziqlarining yangi kesishish muvozanat nuqtasi dastlabki holatidan (E nuqtadan) yuqorida (E' nuqtada) joylashadi (4.5-rasm).




4.5-rasm. Taklif qisqarishining bozor muvozanatiga ta'siri

Biz shu paytgacha talab yoki taklifdan birini o'zgarimas deb qabul qilib, ikkinchi biridagi o'zgarishlarning bozor muvozanatiga ta'sirini ko'rib chiqdik. Agar talab va taklif bir vaqtning o'zida o'zgarsa bozor muvozanatiga qanday ta'sir ko'rsatishi mumkin?

Faraz qilaylik, talab ham taklif ham oshmoqda. Bu holatda talabning oshishi talab chizig'ini o'ngga va yuqoriga surib, narxni qimmatlashishiga sabab bo'lsa, taklifning oshishi taklif chizig'ini o'ngga va pastga surib, bozordagi mahsulot hajmini ko'paytiradi va narxni arzonlashishiga olib keladi. Mazkur o'zgarishlarning bozor muvozanatiga ta'siri ulardan qaysi birining ko'proq oshishiga bo'g'liq. Agar talab taklifga nisbatan ko'proq oshsa, narx ko'tarilib, muvozanat holati (E nuqta) dastlabki holatdan yuqoriroqda o'rnatiladi. Aksincha, taklif talabdan ko'proq oshsa, narx pasayib, muvozanat holati (E nuqta) dastlabki holatdan pastroqda o'rnatiladi.

Agar talab taklif bir xil nisbatda oshsa, muvozanatli hajm oshadi (Q_e dan Q'_e gacha), muvozanat narx (P_e) esa o'zgarmasdan qoladi va talab va taklif chiziqlari o'ngroqda (E' nuqtada) yangi muvozanat holatiga erishadi (4.6-rasm).




4.6-rasm. Talab va taklifni bir vaqtda oshishining bozor muvozanatiga ta'siri

Endi yuqoridagiga mutlaqo teskari bolgan, ya'ni talab va taklifni bir vaqtning o'zida qisqarishi bilan bog'liq holatini ko'rib chiqamiz. Ushbu holatda talabning qisqarishi talab chizig'ini chapga va pastga surib, narxni tushishiga olib kelsa, taklifning qisqarishi taklif chizig'ini chapga va yuqoriga surib, bozordagi mahsulot hajmini kamaytiriradi hamda buning oqibatida narxni oshishiga sabab bo'ladi. Mazkur o'zgarishlarning bozor muvozanatiga ta'siri ham ulardan qaysi birining ko'proq qisqarishiga bo'g'liq. Agar talab taklifga nisbatan ko'proq qisqarsa, narx ko'tarilib, muvozanat holati (E nuqta) dastlabki holatdan yuqoriroqda o'rnatiladi. Aksincha, taklif talabdan ko'proq qisqarsa, narx pasayib, muvozanat holati (E nuqta) dastlabki holatdan pastroqda o'rnatiladi.

Agar talab taklif bir xil nisbatda qisqarsa, muvozanatli hajm qisqaradi (Q_e dan Q'_e gacha), muvozanat narx (P_e) esa o'zgarmasdan qoladi va talab va taklif chiziqlari chaproqda (E' nuqtada) yangi muvozanat holatiga erishadi (4.7-rasm).


Talab va taklifni teskari yo'nalishda o'zgarishlarining ikkita holatini ajratib ko'rsatish mumkin. Faraz qilaylik, taklif oshib, talab qisqarmoqda. Bu holatda narx pasayishi bilan bog'liq ikkita samara qo'shilib ketadi.



4.7-rasm. Talab va taklifni bir vaqtda qisqarishining bozor muvozanatiga ta'siri

Taklifning oshishi taklif chizig'ini o'ngga surib, bozordagi mahsulot hajmini oshishiga va narxni arzonlashishiga olib kelsa, talabning qisqarishi ham talab chizig'ini chapga surib, mahsulot narxining pasayishiga ta'sir ko'rsatadi. Ammo bu yerda muvozanatli hajm miqdori ulardan qaysi biri ko'proq oshishi yoki qisqarishiga bog'liq. Agar taklif ko'proq oshib, talab kamroq qisqarsa muvozanatli hajm dastlabki holatga nisbatan oshadi. Aksincha, talab ko'proq qisqarib, taklif kamroq oshsa, muvozanatli hajm dastlabkiga nisbatan qisqaradi.


Taklifning oshishi va talabning qisqarishi bir xil nisbatda yuz berganda, talab va taklif chiziqlari oldingi muvozanat holatidan ancha pastda kesishib yangi muvozanatga erishadi. Bunda narx tushadi (P_e dan P' holatiga), ammo muvozanatli hajm (Q_e) o'zgarmasdan qoladi (4.8-rasm).



4.8-rasm. Talab qisqarishi va taklif oshishining bozor muvozanatiga ta'siri

Ikkinchi kutiladigan holat – bu talab oshib, taklif qisqaradigan vaziyat. Bunda narx ko‘tarilishi bilan bog‘liq ikkita samarani kuzatish mumkin: talabning oshishi narxning ko‘tarilishiga olib kelsa, taklifning qisqarishi ham tovar tanqisligini vujudga keltirib, narxni oshiradi. Ammo bu yerda ham muvozanatli hajm miqdori ulardan qaysi biri ko‘proq oshishi yoki qisqarishiga bog‘liq. Agar talab ko‘proq oshib, taklif kamroq qisqarsa muvozanatli hajm dastlabki holatga nisbatan oshadi. Aksincha, talab kamroq oshib, taklif ko‘proq qisqarsa, muvozanatli hajm dastlabkiga nisbatan qisqaradi.

Talabning oshishi va taklifning qisqarishi bir xil nisbatda yuz berganda, talab va taklif chiziqlari oldingi muvozanat holatidan ancha yuqorida kesishib yangi muvozanatga erishadi. Bunda narx oshadi (P_e dan P_e holatiga), ammo muvozanatli hajm (Q_e) o‘zgarmasdan qoladi (4.9-rasm).



4.9-rasm. Talab oshishi va taklif qisqarishining bozor muvozanatiga ta'siri

Yuqorida keltirilgan bozor modellari statik bo‘lib, ular ma’lum vaqt oralig‘ida mazmunga ega (masalan, u bir oy yoki bir yilga teng bo‘lishi mumkin). Bunday bozor modelida o‘zgaruvchilar vaqtga bog‘liq emas.

Modelda talab, taklif va narxlarning bog‘liqliklarini vaqt o‘zgarishi bilan bog‘lasak, model dinamik modelga aylanadi. Faraz qilaylik, ma’lum vaqt oralig‘ida (masalan, bu oraliq bir oy bo‘lsin) bir birlik tovarning bozor narxi $P(t)$ bo‘lsin (ya’ni, tovar narxi bir oy ichida o‘zgarmaydi). Tovarining bozor narxi $P(t)$ muvozanat narxga teng bo‘lishi ham, teng bo‘lmasligi ham mumkin.

Agar biz T vaqt oralig‘ini qarasaq, u holda $t = 1, 2, \dots, T$ qiymatlarni qabul qiladi. $P(1), P(2), \dots, P(T)$ - narx traektoriyasini yoki dinamik model traektoriyasini beradi.

Bitta mahsulot uchun bozorning dinamik modelini qaraymiz.

Modelda talab chizig‘ini D va taklif chizig‘i S vaqt o‘zgarishi bilan o‘zgarmaydi deb faraz qilaylik. Talab funksiyasi $Q^D(t)$ va taklif funksiyasi $Q^S(t)$ narx $P(t)$ ga bog‘liq. Bu yerda $P(t)$ t - oraliqdagi narx, $P(t-1)$ - oldingi $P(t-1)$ - oraliqdagi narx. Talab funksiyasi: $Q^D(t) = a_0 - a_1 \cdot P(t)$

Bu yerda: a_0, a_1 - o'zgarmas parametrlar.

Taklif funksiyasi: $Q^S(t) = b_0 + b_1 \cdot P(t-1)$

Bu yerda: b_0, b_1 - o'zgarmas parametrlar.

Muvozanat narx quyidagi qaytariladigan bosqichlar bo'yicha aniqlanadi:

1. Talab va taklif chiziqlari grafigi chiziladi (gorizontal o'q bo'yicha narx P qo'yiladi, vertikal o'q bo'yicha taklif va talab qilingan mahsulot miqdori Q);

2. Boshlang'ich vaqt oralig'i $t = 1$ bo'yicha taklif miqdori $Q^S(t)$, boshlang'ich narx $P(1)$ ga ko'ra aniqlanadi, (boshlang'ich narx $P(1)$) oldindan sotuvchi tomonidan beriladi;

3. $t = 2$ oraliq uchun narx $P(2)$ muvozanatlik shartidan aniqlanadi.

$$Q^D(2) = Q^S(2)$$

$$a_0 - a_1 \cdot P(2) = b_0 + b_1 \cdot P(1)$$

Narx $P(1)$ ma'lum bo'lgani uchun, yuqoridagi tenglikdan $P(2)$ aniqlanadi; $t = 2$ uchun $P(2)$ aniqlanganidan keyin yuqoridagi ikkinchi va uchinchi bosqichlar takrorlanib, $P(3)$ aniqlanadi va hokazo. Hisob-kitoblarni to'xtash sharti $P(t) = P(t-1)$ bo'lib, bu shart barjarilsa, muvozanat narx $P_e = P(t) = P(t-1)$ ko'rinishida aniqlanadi.

Taqribiy baholash: Agar $\lim_{p \rightarrow \infty} |P(t) - P(t-1)| < \varepsilon$ bo'lsa, $P(t) = P_e$ deb qarash mumkin.

Misol. Quyidagi talab funksiyasi berilgan bo'lsin: $Q^D(t) = 41 - 10 \cdot P(t)$

Taklif funksiyasi: $Q^S(t) = 2 + 3 \cdot P(t-1)$

$t = 2$ uchun boshlang'ich narx $P(1) = 5$ bo'lsin va bu narxda taklif miqdorini aniqlaymiz: $Q^S(2) = 2 + 3 \cdot 5 = 17$.

Muvozanatlik shartiga ko'ra ni aniqlaymiz.

$$Q^D(2) = Q^S(2) \text{ dan } 41 - 10 \cdot P(2) = 17, P(2) = \frac{24}{10} = 2,4$$

Endi $t = 3$ hol uchun taklif miqdorini aniqlaymiz:

$$Q^S(3) = 2 + 3 \cdot P(2) = 2 + 3 \cdot 2,4 = 9,2$$

Muvozanatlik shartidan $P(3)$ ni aniqlaymiz:

$$Q^S(3) = Q^D(3) \text{ yoki } 41 - 10 \cdot P(3) = 9,2$$

$$P(3) = 3,18$$

$t = 4$ uchun taklif miqdori aniqlanadi;

$$Q^S(4) = 2 + 3 \cdot 3,18 = 11,54$$

Muvozanatlik shartidan $P(4)$ ni aniqlaymiz.

$$41 - 10 \cdot P(4) = 11,54, P(4) = 2,946.$$

Keyingi hisob-kitoblarda $P(5) = 3,0162$ va $P(6) = 2,9954$, $P(6) - P(5) = 0,0208$.

Agar aniqlik darajasini 0,1 deb olsak, $0,0208 < 0,1$ bo'lgani uchun muvozanat narx sifatida biz 0,1 aniqlik bilan $P(6) = 2,9954$ ni qabul qilishimiz mumkin.

Muvozanat narxni to'g'ridan-to'g'ri muvozanatlik sharti bo'yicha aniqlash ham mumkin:


$$P(t) = P(t-1) = P \text{ deb } Q^D(t) = Q^S(t) \text{ yoki } 41 - 10 \cdot P = 2 + 3 \cdot P, P = \frac{39}{13} = 3.$$

Muvozanat narx $P_e = 3$ ga teng, muvozanat tovar miqdori $Q_e = Q^D = Q^S = 11$.

Umuman olganda bozorning dinamik modelida bozor narxi $P(t)$ ning o'zgarishi 3 xil variantga olib kelishi mumkin:


1. Vaqt o'tishi bilan bozor narxi $P(t)$ ning muvozanat narxdan chetlanishi kamayib boradi;
2. Bozor narxi muvozanat narxdan uzoqlashib boradi;
3. Bozor narxi muvozanat narx atrofida tebranib turadi va bozor muvozanatiga hech vaqt erishilmaydi.

Agar taklif chizig'i (S) talab chizig'iga (D) nisbat tikroq bo'lsa $\beta > \alpha$, birinchi hol yuz beradi (4.10-rasm):



4.10-rasm. $\beta > |\alpha|$ bo'lgan holat

Agar taklif chizig'i (S) talab chizig'i (D) ga nisbatan yotiqroq bo'lsa, ikkinchi variant yuz beradi (4.11-rasm).



4.11-rasm. $\beta < |\alpha|$ bo'lgan hol.

Uchinchi variantda taklif va talab chiziqlari yotiqligi bir xil bo'ladi.

To'g'ri chiziqli talab va taklif funksiyalari:

$$D = a - A \cdot P(t) \quad S = b + B \cdot P(t-1)$$

uchun $t \rightarrow \infty$ da $P(t) = P(t-1)$ bo'ladi, ya'ni muvozanat narxga bozor narxi yaqinlashadi agar quyidagi shart bajarilsa, ya'ni $\left| \frac{\alpha}{\beta} \right| < 1$ bo'lsa.


Bozorning dinamik modelida narxlar trayektoriyasi $P(1), P(2), \dots$ o'rgimchak uyasi to'riga o'xshagani uchun ham bu model "to'rsimon model" deb nom olgan.

To'rsimon model sifatida birja bozorini (masalan, qimmatli qog'ozlar bozori, yoki valyuta bozorini) qarash mumkin.

4.3. Maksimal va minimal narxlarning o'rnatilishi va bozor muvozanatiga ta'siri

Talab va taklif mexanizmlari ba'zan iste'molchilar, ba'zan esa ishlab chiqaruvchilar manfaatlariga ziyon etkazadigan adolatsiz narxlarning shakllanishiga sabab bo'lishi mumkin. Bunday holatda davlat qonunchilik orqali narxlarning yuqori va quyi chegaralarini o'rnatishi orqali bozorga ta'sir o'tkazishi mumkin.

Narxlarning yuqori chegarasi – bu qonuniy asosda muvozanatli narxdan pastda o'rnatilgan **maksimal narx** bo'lib, u sotuvchilarga tovarni sotish uchun so'ralanadigan narxlarning eng yuqori chegarasini (P_{max}) belgilab qo'yadi (4.12-rasm).




4.12-rasm. Maksimal narxlarning kiritilishi oqibatlarini

Maksimal narxlar iste'molchilarni birinchi darajali zaruriy tovarlar va xizmatlar bilan minimal darajada ta'minlashga imkon yaratadi. Agar narxlar bozordagi talab va taklif nisbati asosida erkin o'rnatilganda, ayrim toifadagi kam daromadli iste'molchilar bu tovarlar va xizmatlarni xarid etish imkoniyatiga ega bo'lmasdi. Bunga misol tariqasida jamoat transporti (metro va avtobus) chiptasi narxining davlat tomonidan chegaralab turilishini misol qilib keltirish mumkin.

Maksimal narxlarning kiritilishi talab hajmini Q_e dan Q^d_1 gacha oshirsa, taklif hajmini Q_e dan Q^s_1 gacha qisqartiradi. Natijada bozorda $Q^d_1 - Q^s_1$ hajmiga teng

taqchilik yuzaga kelishi mumkin. Agar davlat sotuvchilarga tovarni maksimal narxdan (P_{max}) yuqori narxda sotishga ruxsat bermasa, taklif Q^s_1 miqdor bilan chegaralangani uchun, norasmiy bozor (xufiyona bozor) vujudga kelishiga, bu esa narxlarni yana oshib ketishiga va dastlabki muvozanat holatiga intilishga olib keladi. Buning oldini olish uchun davlat o‘zining bufer zaxirasidan bozorga $Q^d_1 - Q^s_1$ hajmda mahsulot chiqarib, talab va taklifni tenglashtiradi yoki iste‘molni me‘yorlashi (kartochka orqali) talab qilinadi (4.12-rasm).

Narxlarning quyi chegarasi (minimal narx) – bu davlat tomonidan muvozanat narxdan yuqorida o‘rnatiladigan narx (P_{min}) bo‘lib, odatda bozor muvozanati holatida vujudga kelgan narx ishlab chiqaruvchilar yoki sotuvchilarning ayrim guruhlariga yetarli daromad olishga imkon bermaydigan holatlarda qo‘llaniladi (4.13-rasm).



4.13-rasm. Minimal narxlarning kiritilishi oqibatlarini


Minimal ish haqi darajasini qonunchilik bilan belgilanishi, qishloq xo‘jaligi mahsulotlari narxlarining quyi darajasini belgilanishi - davlat tomonidan **minimal narxlar** o‘rnatilishining yaqqol namunasidir.

Minimal narxning o‘rnatilishi, bozorda $Q^s_1 - Q^d_1$ hajmiga teng **ortiqcha taklif** yuzaga kelishiga sabab bo‘ladi yoki mahsulotlar sotilmasdan omborlarda to‘planib qolishiga olib keladi. Bu vaziyat 4.13-rasmda keltirilgan. Agar davlat sotuvchilarga tovarni minimal narxdan (P_{min}) past narxda sotishga ruxsat bermasa, talab Q^d_1 miqdor bilan chegaralangani uchun, norasmiy bozor (xufiyona bozor) vujudga kelishiga, bu esa narxlarni yana tushib ketishiga va dastlabki muvozanat holatiga intilishga olib keladi. Buning oldini olish uchun davlat $Q^s_1 - Q^d_1$ hajmdagi ortiqcha mahsulotni P_{min} narxda bufer zaxirasiga sotib olish orqali talab va taklifni tenglashtiradi (4.13-rasm).

Shunday qilib, talab va taklif modeli orqali bozor narxlarini o‘zgartirishning oqibatlarini chuqur tahlil qilish mumkin.


4.4. Iste'molchi va ishlab chiqaruvchi yutug'i

Muvozanatli narxdan ayrim toifadagi iste'molchilar va ishlab chiqaruvchilar manfaat ko'radi. Muvozanatli narx odatda iste'molchilarning tovar uchun maksimal taklif qilishi mumkin bo'lgan narxdan quyida joylashganligi sababli, ular bundan ma'lum bir miqdorda yutuqqa ega bo'ladilar va bu yutuq P_mEP_e shtrixlangan yuzaga teng bo'ladi (4.14-rasm).



4.14-rasm. Iste'molchi yutug'i

Ishlab chiqarish samaradorligi yuqori bo'lgan ayrim firmalar mahsulot tannarxi boshqa firmalarga nisbatan arzonga tushganligidan tovarlarini minimal narxda (P_m) sotishga ham rozi bo'lsada, bozorda real shakllangan muvozanatli narx (P_e) bo'yicha sotganligidan ma'lum yutuqqa erishadilar. Chunki muvozanatli narx (P_e) ular taklif qilishi mumkin bo'lgan minimal narxdan (P_m) yuqorida joylashgan va ular bundan P_eEP_m yuzaga teng ishlab chiqaruvchi yutug'iga ega bo'ladilar (4.15-rasm).



4.15-rasm. Ishlab chiqaruvchi yutug'i

Agar ishlab chiqaruvchilar (sotuvchilar) daromadi P_eEQ_e0 yuzaga teng ($TR=P_e \times Q_e$) bo'lsa, mahsulotni ishlab chiqarish xarajatlari P_mEQ_e0 yuzaga teng va ular o'rtasidagi farq **ishlab chiqaruvchi yutug'i zonasini** tashkil etadi.

Agar "**iste'molchi yutug'i**" xarid qobiliyati nisbatan past bo'lgan ayrim toifadagi iste'molchilarning real daromadlarini oshishiga olib kelsa, "**ishlab chiqaruvchi yutug'i**" resurs tejamkor ilg'or texnologiyalar va zamonaviy boshqaruv usullarini qo'llayotgan firmalarga foydani oshirish imkonini beradi.

Qisqa xulosalar

Umumiy holatda muvozanat - bu tizimning shunday holatiki, agar unga birorta tashqi kuch ta'sir ko'rsatmasa, u o'zining holatini saqlab qoladi. Talab va taklif modelida talab chizig'i (D) bilan taklif chizig'i (S) kesishgan nuqta (E nuqta) bozor muvozanatini bildiradi. Demak, **bozor muvozanati** talab hajmi bilan taklif hajmining tengligini ta'minlaydigan narx darajasi va tovar miqdori bilan aniqlanadi.

Muvozanatli narx – bu shunday narxki, bunda talab hajmi har doim taklif hajmiga teng va bu hajm muvozanatli hajm deb ataladi.

Muvozanatli narxdan **yuqori bo'lgan** har qanday narxda ortiqcha taklif hajmi sotuvchilarning turib qolgan tovarni tezroq sotish uchun raqobatlashishiga va natijada narxlarning pasayishiga olib keladi. Muvozanatli narxdan **quyi bo'lgan** har qanday narxda taqchil bo'lgan tovarni qo'lga kiritish uchun iste'molchilar o'rtasidagi raqobat kurashi narxning ko'tarilishiga olib keladi. Muvozanat nuqta muvozanat narxni va muvozanat mahsulot miqdorini bildiradi. Bu nuqtada tovar tanqisligi ham, ortiqcha tovar ham bo'lmaydi.

Narxlarning yuqori chegarasi – bu qonuniy asosda muvozanatli narxdan pastda o'rnatilgan **maksimal narx** bo'lib, u sotuvchilarga tovarni sotish uchun so'ralanadigan narxlarning eng yuqori chegarasini (P_{max}) belgilab qo'yadi.

Narxlarning quyi chegarasi (minimal narx) – bu davlat tomonidan muvozanat narxdan yuqorida o'rnatiladigan narx (P_{min}) bo'lib, odatda bozor muvozanati holatida vujudga kelgan narx ishlab chiqaruvchilar yoki sotuvchilarning ayrim guruhlariga yetarli daromad olishga imkon bermaydigan holatlarda qo'llaniladi.

Muvozanatli narx odatda iste'molchilarning tovar uchun maksimal taklif qilishi mumkin bo'lgan narxdan quyida joylashganligi sababli, ular bundan ma'lum bir miqdorda yutuqqa ega bo'ladilar va biz uni "**iste'molchi yutug'i**" deb ataymiz.

Ishlab chiqarish samaradorligi yuqori bo'lgan ayrim firmalar mahsulot tannarxi boshqa firmalarga nisbatan arzonga tushganligidan tovarlarini minimal narxda (P_m) sotishga ham rozi bo'lsada, bozorda real shakllangan muvozanatli narx (P_e) bo'yicha sotganligidan ma'lum yutuqqa erishadilar biz uni "**ishlab chiqaruvchi yutug'i**" deb ataymiz.

Agar "**iste'molchi yutug'i**" xarid qobiliyati nisbatan past bo'lgan ayrim toifadagi iste'molchilarning real daromadlarini oshishiga olib kelsa, "**ishlab chiqaruvchi yutug'i**" resurs tejamkor ilg'or texnologiyalar va zamonaviy boshqaruv usullarini qo'llayotgan firmalarga foydani oshirish imkonini beradi.

Nazorat va muhokama uchun savollar

1. Bozor muvozanati deb nimaga aytiladi va u nimani ifodalaydi?
2. Qanday holatlarda bozor muvozanati buzilib, taqchilik yoki ortiqcha taklif yuzaga keladi?
3. Agar bozorda shakllangan real narxlar muvozanatli narxdan yuqorida yoki quyida joylashgan bo'lsa qanday oqibatlar keltirib chiqaradi?
4. Bozor muvozanatiga qanday omillar ta'sir ko'rsatadi?
5. Talab va taklifdagi o'zgarishlar bozor muvozanatiga qanday ta'sir ko'rsatadi?
6. Bozorning dinamik modelida "to'rsimon model" qanday izohlanadi?
7. Minimal va maksimal narxlar deb qanday narxlarga aytiladi?
8. Minimal va maksimal narxlarni o'rnatishdan maqsad nima va ular qanday oqibatlar keltirib chiqaradi?
9. "Iste'molchi yutug'i" va "islab chiqaruvchi yutug'i" nima va ular qanday holatlarda yuzaga keladi?

5-bob. TALAB VA TAKLIF ELASTIKLIGI

5.1. Talab va taklif elastikligi

Ma'lumki tovarga bo'lgan talab, uning narxiga, iste'molchi daromadiga va boshqa omillarga bog'liq. Xuddi shuningdek, taklif ham tovar narxi, ishlab chiqarish xarajatlari va boshqa omillarga bog'liq.

Masalan, limonning narxi oshsa, unga talab kamayadi. Lekin biz narx o'zgarishi ta'sirida limonga talab yoki taklifni miqdoriy jihatdan o'zgarishini aniqlamoqchimiz. Aytaylik, limon narxi 15 %ga oshsa, unga talab qanchaga qisqaradi? Narx 20 %ga pasaysach? Yoki daromad 10 %ga oshganda talab qanchaga o'zgaradi? Bunday savolga javob berish uchun, **elastiklik tushunchasi**dan foydalanamiz. Shunday qilib narx yoki daromad singari omillar o'zgarishiga bozorning iqtisodiy agentlari (iste'molchi va ishlab chiqaruvchilar) qanday munosabat bildirishlarini o'rganishda **elastiklik tushunchasi** muhim ahamiyat kasb etadi.

Elastiklik - bir o'zgaruvchining boshqa bir o'zgaruvchi ta'siri ostida o'zgarishini o'lchaydigan o'lchov. Aniqroq qilib aytganda, biror o'zgaruvchining bir foizga o'zgarishi natijasida boshqa bir o'zgaruvchining ma'lum foiz miqdoriga o'zgarishini ko'rsatadigan ko'rsatkichdir. Bunga eng yaqqol misol sifatida narxga bog'liq talab elastikligini keltirish mumkin. Bu elastiklik tovar narxining bir foizga o'zgarishi, unga talabni necha foizga o'zgartirishini ko'rsatadi.

Bu ko'rsatkichni to'liqroq ko'rib chiqamiz. Narxga bog'liq talab elastikligini quyidagicha yozamiz:

$$E_p^D = \frac{(\Delta Q\%)}{(\Delta P\%)}, \quad (1)$$

bu yerda $\Delta Q\%$ - Q ning foiz bo'yicha o'zgarishi; $\Delta P\%$ - P ning foiz o'zgarishi.

Shuni ta'kidlash joizki, foiz o'zgarishi, o'zgaruvchining absolyut o'zgarishi emas, balki uning oldingi darajasiga nisbatan o'zgarishidir, ya'ni:

$$\Delta Q\% = \frac{\Delta Q}{Q} \cdot 100\%; \quad \Delta P\% = \frac{\Delta P}{P} \cdot 100\% .$$

$$\text{Demak, } E_p = \frac{\frac{\Delta Q}{Q} \cdot 100\%}{\frac{\Delta P}{P} \cdot 100\%} = \frac{P}{Q} \cdot \frac{\Delta Q}{\Delta P} . \quad (2)$$

Agar talab uzluksiz funksiya sifatida, ya'ni $Q^D = f(P)$ ko'rinishida berilgan bo'lsa, uning elastiklik koeffitsienti quyidagi formula bo'yicha aniqlanadi:

$$E_p = \frac{\Delta Q}{\Delta P} \cdot \frac{P}{Q} = f'(P) \cdot \frac{P}{Q} .$$

Narxga bog‘liq talab elastikligi manfiydir, ya’ni $E_p < 0$. Tovar narxi oshganda unga talab kamayadi. Shuning uchun $\frac{\Delta Q}{\Delta P} < 0$. (2) tenglamadan kelib chiqadiki, narxga bog‘liq talab elastikligi narxning tovar miqdoriga nisbatining $\left(\frac{P}{Q}\right)$ tovar birligi o‘zgarishining narxdagi o‘zgarishga nisbatiga $\left(\frac{\Delta Q}{\Delta P}\right)$ ko‘paytirishdan hosil bo‘ladigan miqdorga teng. Lekin, talab egri chizig‘i bo‘ylab yurganda $\frac{\Delta Q}{\Delta P}$ o‘zgarishi yoki o‘zgarmasligi mumkin, narx va tovar miqdori esa har doim o‘zgarib boradi. Demak, narxga bog‘liq talab elastikligi talab chizig‘ining alohida nuqtasida o‘lchanadi va egri chiziq bo‘yicha surilganda, u o‘zgarib boradi.

Real statistik ma’lumotlarga ko‘ra **nuqtaviy** va **yoysimon** elastiklik koeffitsientlarini quyidagicha aniqlash mumkin.

Talabning narxga bog‘liq **nuqtaviy elastiklik** koeffitsiyentini hisoblash formulasi:

$$E_p^D = \frac{Q_2^D - Q_1^D}{Q_1^D} \bigg/ \frac{P_2 - P_1}{P_1}$$

Bu yerda Q_1^D va P_1 talabning va tovar narxining boshlang‘ich qiymatlari, Q_2^D va P_2 - talabning va tovar narxining o‘zgargan qiymatlari.

Taklifning narxga bog‘liq **nuqtaviy elastiklik** koeffitsiyentini hisoblash formulasi:

$$E_p^S = \frac{Q_2^S - Q_1^S}{Q_1^S} \bigg/ \frac{P_2 - P_1}{P_1}$$

Bu yerda Q_1^S va P_1 talabning va tovar narxining boshlang‘ich qiymatlari, Q_2^S va P_2 - talabning va tovar narxining o‘zgargan qiymatlari.

Talabning narxga bog‘liq yoysimon elastiklik koeffitsiyentini hisoblash formulasi:

$$E_p^D = \frac{\left(\frac{Q_2^D - Q_1^D}{(Q_1^D + Q_2^D)/2}\right)}{\left(\frac{P_2 - P_1}{(P_1 + P_2)/2}\right)}$$

Taklifning narxga bog‘liq yoysimon elastiklik koeffitsiyentini hisoblash formulasi:

$$E_p^S = \frac{\left(\frac{Q_2^S - Q_1^S}{(Q_1^S + Q_2^S)/2}\right)}{\left(\frac{P_2 - P_1}{(P_1 + P_2)/2}\right)}$$

Yoysimon elastiklik hisoblanganda, Q va P larning bazis ko'rsatkichlari sifatida, ularni boshlang'ich va o'zgarigan qiymatlarining o'rtachasi olinadi.

Misol. Limonga bo'lgan talab 100 dona bo'lganda, bir birlik limon narxi 2100 so'm, talab 200 dona bo'lganda 1800 so'm bo'lsin. Yoysimon elastiklik koeffitsienti orqali hisoblaymiz.

$$Q_1^D = 100; \quad P_1 = 2100; \quad Q_2^D = 200; \quad P_2 = 1800.$$

$$E_D = \frac{\left(\frac{(200-100)}{(100+200)/2} \right)}{\left(\frac{(1800-2100)}{(2100+1800)/2} \right)} = -\frac{100/150}{300/1950} \approx -4,33. \quad \text{Demak, limon}$$

narxi bir foizga tushganda, unga talab 4,33 foizga o'sadi.

Talab qonuniga asosan iste'molchilar narx arzonlashuvi ta'sirida ko'proq tovar xarid qilishga moyil bo'ladilar. Ammo, iste'molchilar talabining narx o'zgarishiga munosabati tovarning xususiyatiga ko'ra turlicha bo'lishi mumkin. Ayrim tovarlar narxining o'zgarishiga nisbatan iste'molchilarning sezuvchanligi yuqori bo'ladi va narxdagi ozgina o'zgarishlar ta'sirida tovarga bo'lgan talab miqdori sezilarli darajada o'zgaradi. Odatda qimmatbaho buyumlar narxiga nisbatan iste'molchilar talabining sezuvchanligi yuqori bo'ladi. Masalan, yengil avtomobillar narxining oshishi unga bo'lgan talabning sezilarli qisqarishiga olib keladi. Bunday tovarlarga bo'lgan **elastik talab** deyiladi.

Ikkinchi tur tovarlar narxining o'zgarishi ularga bo'lgan talab miqdoriga sezilarli ta'sir ko'rsatmaydi. Ko'pincha kundalik ehtiyoj va zarurat buyumlari narxiga nisbatan iste'molchilar talabining sezuvchanligi past bo'ladi. Masalan, oziq-ovqat, dori-darmon, gugurt kabi tovarlar narxining o'zgarishi ularga bo'lgan talab miqdoriga sezilarli ta'sir ko'rsatmaydi. Bunday tovarlarga bo'lgan talab **noelastik talab** deb ataladi.

Elastiklik koeffitsienti qiymatiga qarab talabni elastik, noelastik va birlik elastiklikka ega bo'lgan talablarga ajratish mumkin.


Agar talabning narx bo'yicha elastiklik koeffitsienti $|E_D| > 1$ bo'lsa, talab elastik deyiladi.

Agar talabning narx bo'yicha elastiklik koeffitsienti $|E_D| < 1$ bo'lsa, talab noelastik deyiladi.

Agar talabning narx bo'yicha elastiklik koeffitsienti $|E_D| = 1$ bo'lsa, talab birlik elastiklikka ega deyiladi.

Misol tariqasida chiziqli talab funksiyasini qaraylik: $Q = a - b \cdot P$.

Bu chiziqli funksiya uchun $\frac{\Delta Q}{\Delta P} = -b$ bo'lib, u o'zgarmasdir. Lekin bu chiziq o'zgarmas elastiklik koeffitsientiga ega emas. 5.1-rasmdan ko'rinib turibdiki, agar biz chiziq bo'yicha pastga qarab yursak $\frac{P}{Q}$ miqdor kamayib boradi, natijada elastiklik miqdori ham kamayadi.



5.1-rasm. Talab chizig‘i bo‘ylab elastiklikning o‘zgarishi

Chiziqli talab funksiyasining elastiklik koeffitsiyenti quyidagiga teng:

$$E_p = -b \cdot \frac{P}{Q}$$


Talab chizig‘i narx o‘qi bilan kesishganda $Q \rightarrow 0$ va $E_p = -\infty$ bo‘ladi,

$Q = \frac{a}{2}$; $P = \frac{a}{2b}$ da $E_p = -b \cdot \left(\frac{\left(\frac{a}{2b} \right)}{\left(\frac{a}{2} \right)} \right) = -1$. Talab chizig‘i tovar miqdori o‘qi


bilan kesishganda $P = 0$ va $E_p = 0$.

$\frac{\Delta Q}{\Delta P}$ - chiziqning tangens burchak yotiqqligini beradi. Shu sababli, talab chizig‘i qancha tik bo‘lsa, talab elastikligi shuncha kichik bo‘ladi.

Quyidagi 5.2 va 5.3-rasmlarda elastiklikning o‘ziga xos alohida ko‘rinishlari keltirilgan.



5.2-rasm. Absolyut elastik talab chizig‘i




5.3-rasm. Absolyut noelastik talab chizig‘i

5.2-rasmda elastikligi cheksiz, ya‘ni absolyut elastik bo‘lgan talab chizig‘i keltirilgan. Bu holda yagona narx P^* bo‘lib, iste‘molchilar shu narxda mahsulot sotib

olishadi. Narxni har qanday kichik oshishi, talabni nolga tushiradi va narxning P^* darajadan har qanday kamayishi, talabni cheksiz oshib ketishiga olib keladi.

5.3-rasmdagi talab chizig'i mutlaq noelastik. Iste'molchilar narxdan qat'iy nazar belgilangan Q^* miqdorda tovar sotib olishadi.

Biz shu paytgacha talab va taklif elastikligiga faqat tovarning o'z narxidagi o'zgarishlar ta'sirini ko'rib chiqdik. Ammo elastiklikka tovarning o'z narxidan tashqari yana quyidagi omillar ham ta'sir ko'rsatadi (5.4-rasm):



5.4-rasm. Talab elastikligiga turli omillarning ta'siri⁶

1. O'rinbosar tovarlar mavjudligi. Tovarni o'rinbosarlari qancha ko'p bo'lsa, uning elastikligi shuncha yuqori bo'ladi. Chunki narx o'zgarganda iste'molchilar qimmat tovarlarni arzon bo'lgan o'rinbosar tovarlar bilan almashtirishga moyil bo'ladi. Natijada asosiy tovar narxi qimmatlashsa unga talab qisqarib, o'rinbosar tovarga talab oshadi va aksincha o'rinbosar tovar narxi qimmatlashsa asosiy tovarga talab oshadi.

2. Tovarning iste'molchi daromadidagi salmog'i qancha yuqori bo'lsa, talab elastikligi ham shunga ko'ra yuqori va aksincha salmog'i qancha past bo'lsa, elastikligi ham shunga yarasha past bo'ladi.

Iste'molchining daromadi oshgan sari yuqori kategoriyali tovarlarga talab elastikligi pasayadi va past kategoriyali tovarlarga talab elastikligi oshadi. Daromad pasayganda esa past kategoriyali tovarlarga talab elastikligi pasayadi va yuqori kategoriyali tovarlarga talab elastikligi oshadi.

⁶ Тарануха Ю.В. Микроэкономика (в структурно-логических схемах).– М.: Дело и сервис, 2002. – стр. 36 asosida tuzilgan.

3. Tovarning kategoriyasi. Tovarning hasham predmeti (talab elastikligi yuqori) yoki birlamchi ehtiyoj predmeti (talab elastikligi past) ekanligiga qarab o'zgaradi. Masalan AQSHda o'tkazilgan tadqiqotga ko'ra nonga talab elastikligi koeffitsienti 0,15, elektr energiyasiga 0,13, kiyik-kechak va poyafzalga 0,2, avtomobilga 1,87 va chinni buyumlariga 1,54 ga teng bo'lgan⁷.

4. Tovar zaxirasi. Tovar zaxirasi qancha ko'p bo'lsa, unga talab elastikligi shuncha yuqori bo'ladi, zaxirasi kam bo'lgan taqchil tovarlarga talab elastikligi uncha yuqori emas.

5. Iste'molchilarning kutishlari. Qisqa va uzoq muddatlar uchun aynan bir tovarga talab elastikligi turlicha bo'ladi. Masalan, qisqa muddatli oraliqda muayyan tovarning narxi oshgan taqdirda ham iste'mol hajmini birdan qisqartirish qiyin. Ammo uzoq muddatli davrda narx oshishi tendensiyasi saqlanib qolsa bu tovarga talab qisqaradi.

Misol. Talabning daromadga ko'ra chiziqli funksiyasi berilgan bo'lsin:

$$Q^D = -30 + 3R,$$

daromad $R=120$ bo'lganda, talabning daromadga bog'liq elastiklik koeffitsientini aniqlang.

Chiziqli funksiyaning elastiklik koeffitsientini aniqlash formulasiga ko'ra yozamiz: $E_D = \frac{dQ^D}{dR} \cdot \frac{P}{Q^D} = 3 \cdot \frac{120}{330} = 1,1$.

Demak, daromad bir foizga oshganda, talab miqdori 1,1% ga oshadi.

Misol. Talabning chiziqli funksiyasi $Q^D = 28 - 3P$ ko'rinishga ega. Talab miqdori $Q^D = 16$ bo'lganda, talab elastikligi koeffitsienti nechaga tengligini quyidagi tartibda aniqlaymiz, taklif $Q^D = 16$ bo'lganda, narx darajasini aniqlaymiz, $16 = 28 - 3 \cdot P$, bundan $P = 4$.

Endi chiziqli funksiyaning elastiklik koeffitsientini aniqlash formulasiga ko'ra $E_D = \frac{dQ^D}{dP} \cdot \frac{P}{Q^D} = -3 \cdot \frac{4}{16} = -0,75$. Demak, narx bir foizga oshsa, talab miqdori 0,75 foizga kamayadi.

Talab elastikligi narxdan tashqari, daromadga ham bog'liq. Ko'pgina tovarlarga talab, iste'molchilar daromadi oshganda oshadi. Daromad bo'yicha elastiklik, bu daromadni **R (Revenue)** bir foizga o'zgarishi talab miqdorini (**Q**) necha foizga o'zgarishini bildiradi:

$$E_R^D = \frac{\Delta Q/Q}{\Delta R/R} = \frac{TR}{Q} \cdot \frac{\Delta Q}{\Delta R}. \quad (3)$$

⁷ Нуриев Р.М. Курс микроэкономики: учебник/ 2-е изд. – М.: Норма, 2007. – с. 100.

Tovarlar daromadga bog'liq talab elastikligiga ko'ra quyidagilarga bo'linadi: normal tovarlar, agar $E_R > 0$ bo'lsa; yuqori kategoriyali tovarlar, agar $E_R > 1$ bo'lsa; quyi kategoriyali tovarlar, agar $E_R < 1$ bo'lsa.

Kesishgan talab elastikligi. Bitta tovarga bo'lgan talabga boshqa bir tovarning narxi ta'sir ko'rsatadi. Masalan, pivo bilan vino ma'lum ma'noda bir birini o'rnini bosadi, agar vinoning narxi oshsa pivoga bo'lgan talab oshadi. Bunday bog'liqlikdagi talab o'zgarishiga narxga bog'liq kesishgan talab elastikligi deyiladi. Kesishgan talab elastikligi - bu boshqa tovarlar narxi bir foizga o'zgariganda, tovarga talabning necha foizga o'zgarishini bildiradi:

$$E_{Q_1/Q_2} = \frac{\Delta Q_1 / Q_1}{\Delta P_2 / P_2} = \frac{P_2}{Q_1} \cdot \frac{\Delta Q_1}{\Delta P_2}. \quad (4)$$

Bu yerda Q_1 - birinchi tovar miqdori;

P_2 - ikkinchi tovar narxi.

Pivoga bo'lgan talabning (Q_b) vino narxi (P_v) bo'yicha kesishgan elastikligi

$$E_{Q_b/P_v} \text{ quyidagicha: } E_{Q_b/P_v} = \frac{\Delta Q_b / Q_b}{\Delta P_v / P_v} = \frac{P_v}{Q_b} \cdot \frac{\Delta Q_b}{\Delta P_v}$$

Vino narxi oshganda pivoga talab oshadi, demak pivoning talab chizig'i o'ngga suriladi. Yuqorida keltirilgan misolda pivo bilan vino o'zaro bir-birini o'rnini bosadigan tovarlar bo'lgani uchun, narx bo'yicha kesishgan elastiklik musbatdir, ya'ni bittasining narxini oshishi ikkinchisiga talabni oshiradi. Lekin, har doim ham shunday bo'lavermaydi. ba'zi

Ba'zi bir tovarlar, **to'ldiruvchi** tovarlar hisoblanadi va ular birgalikda ishlatiladi, shu sababli birortasining narxini oshishi, ikkinchi tovar iste'molini kamaytiradi. Bunga misol tariqasida benzin bilan avtomobil motori yog'ini olish mumkin. Agar benzin narxi oshsa, benzin iste'moli kamayadi, nima uchun deganda, avtomobil haydovchilar mashinada kamroq yura boshlaydi. Ammo motor moyiga ham talab kamayadi (motor moyiga talab egri chizig'i chap tomonga suriladi). Shunday qilib, motor moyining benzina nisbatan elastikligi manfiydir.

Talab chizig'i holatini o'zgartiruvchi determinantlar quyidagilar: iste'molchining didi va afzal ko'rishi; bozordagi iste'molchilar soni; iste'molchilar daromadi; bir-birini o'rnini bosuvchi, to'ldiruvchi tovarlar; kelajakda bo'ladigan narx va daromadlardagi o'zgarishlarga nisbatan iste'molchilarning kutishlari.


Taklif chizig'i holatini surilishiga olib keladigan determinantlar quyidagilar: resurslar narxi; ishlab chiqarish texnologiyasi; soliqlar, subsidiya va dotatsiyalar; boshqa tovarlar narxi; narx o'zgarishlarini kutish; bozordagi

sotuvchilar soni. Taklif elastikligini ishlab chiqarishga ta'sir qiluvchi omillar bo'yicha qaralishi mumkin: foiz stavkasi; ish haqi; xom ashyo, yarimfabrikatlar narxi.

5.2. Bozor sharoiti o'zgarishlarining oqibatlarini baholash va prognoz qilish

Bu yerda taklif va talab chiziqlari yordamida qanday qilib elastiklikka oid hisob-kitoblar amalga oshirilishini qarab chiqamiz. Buning uchun bozor ma'lumotlariga muvofiq talab va taklifning chiziqli grafiklarini qarab chiqishimiz kerak (biz hozir statistik usullar orqali quriladigan chiziqli regressiya tenglamalarni hisoblashni qaramaymiz.) Faraz qilaylik, biror tovar uchun ikkita miqdor berilgan bo'lsin: tovar narxi va uning miqdori. Bu ko'rsatkichlar bozorda muhim ko'rsatkichlar hisoblanadi (ular o'rtacha ko'rsatkichlar bo'lib, bozordagi muvozanatlik holatida aniqlangan, yoki bozordagi shart-sharoitlar turg'unlashgan davrdagi ko'rsatkichlar bo'lsin). Bu ko'rsatkichlarni muvozanat ko'rsatkichlari deb qaraymiz va quyidagicha belgilaymiz: muvozanat narx P_e , muvozanat tovar miqdori Q_e . Berilgan tovarning muvozanat nuqta yoki uning atrofidagi narx bo'yicha taklif va talab elastikligini mos ravishda E_S va E_D harflari bilan belgilaymiz.

Bu ko'rsatkichlarning, ya'ni P_e, Q_e, E_S va E_D son miqdori, faraz qilaylik, statistik hisob-kitoblar orqali aniqlangan va ular asoslangan bo'lsin. Berilgan ma'lumotlar asosida talab va taklif chiziqlarini chizamiz. Talab va taklif chiziqlari yordamida, talab va taklif miqdorining, narxning o'zgarishini, berilgan tovar miqdorining boshqa tovar narxiga nisbatan o'zgarishini va boshqa ko'rsatkichlarni hisoblash mumkin. Talab va taklifning grafigini chizamiz (5.4-rasm).



5.4-rasm. Talab va taklifning eksperimental yo'l bilan chizilgan grafigi

Talab va taklif tenglamalari quyidagicha yoziladi:

$$\text{Talab: } Q^D = b_0 - b_1 \cdot P \quad (5)$$

$$\text{Taklif: } Q^S = a_0 + a_1 \cdot P \quad (6)$$

Asosiy muammo berilgan tenglamalardagi o'zgarishlar a_0, a_1, b_0, b_1 qiymatlarini aniqlashdan iborat. Bu o'zgarishlar qiymatlarini tanlash ikki bosqichda amalga oshiriladi.

Birinchi bosqich. Talab va taklifning narx bo'yicha elastikligini eslaymiz:

$E = \frac{P}{Q} \cdot \frac{\Delta Q}{\Delta P}$, bu yerda $\frac{\Delta Q}{\Delta P}$ - narxning bir birlik o'zgarishiga to'g'ri keladigan talab

yoki taklifning miqdoriy o'zgarishi. Chiziqli bog'lanishlarda $\frac{\Delta Q}{\Delta P}$ nisbat o'zgarishlar miqdori bo'ladi. (5) va (6) tenglamalardan ko'rinib turibdiki, taklif uchun bu nisbat $\frac{\Delta Q}{\Delta P} = a_1$, talab uchun esa $\frac{\Delta Q}{\Delta P} = -b_1$. Endi bu qiymatlarni, ya'ni $\frac{\Delta Q}{\Delta P}$ ni elastiklik formulasiga qo'yamiz:

$$\text{Taklif: } E_P^S = a_1 \cdot \left(\frac{P_e}{Q_e} \right) \quad (7) \quad \text{Talab: } E_P^D = -b_1 \cdot \left(\frac{P_e}{Q_e} \right) \quad (8)$$

Bu yerda P_e va Q_e lar muvozanat narx va muvozanat tovar miqdori bo'lib, ular berilgan. Biz E_S, E_D, P_e, Q_e ko'rsatkichlarning qiymatlariga ega bo'lganimiz uchun, ularni (7) va (8) tenglamalarga qo'yishimiz mumkin. Demak, biz shu yo'l bilan a_1 va b_1 larning qiymatlarini hisoblaymiz.

Ikkinchi bosqich. Endi a_1 va b_1 larning qiymatlarini va P_e va Q_e larni (5) va (6) tenglamalarga qo'yib a_0 va b_0 larning qiymatini topamiz:

$$a_0 = Q_e - a_1 \cdot P_e; \quad b_0 = Q_e + b_1 \cdot P_e.$$

Misol. Apelsinning narx bo'yicha talab va taklif elastikligi koeffitsientlari E_P^D va E_P^S berilgan. Apelsinning bozordagi ko'rsatkichlari quyidagicha:

$$Q_e = 7500 \text{ kg/yil}, \quad P_e = 6000 \text{ so'm/kg}, \quad E_P^S = 1,6; \quad E_P^D = -0,8$$

Birinchi bosqich. Berilganlarni (7) tenglamaga qo'yib a_1 ni topamiz.

$$1,6 = a_1 \cdot \left(\frac{6000}{7500} \right), \text{ bundan } a_1 = 2.$$

Ikkinchi bosqich. a_1 ning qiymatini P_e va Q_e larning qiymati bilan birga (5) tenglamaga qo'yib, a_0 ni aniqlaymiz:

$$7500 = a_0 + 2 \cdot 6000 = a_0 + 12000,$$

bundan, $a_0 = 7500 - 12000 = -4500$. Biz aniqlangan a_0 va a_1 larning qiymatini taklif tenglamasiga qo'yib, taklifning aniq tenglamasini topamiz:

$$\text{Taklif: } Q_s = -4500 + 2P.$$

Xuddi shu yo'l bilan talab tenglamasini aniqlaymiz:

$$-0,8 = -b_1 \cdot \left(\frac{6000}{7500} \right), \text{ bundan } b_1 = 1. \quad b_1, P_e, Q_e \text{ larning qiymatlarini (6)}$$

tenglamaga qo'yamiz va b_0 ni aniqlaymiz:

$$7500 = b_0 - 1 \cdot 6000 = b_0 - 6000, \text{ yoki } b_0 = 7500 + 6000 = 13500.$$

Shunday qilib, talab chizig'i quyidagi ko'rinishda bo'ladi: $Q_D = 13500 - P$.

Xatoga yo'l qo'yilmaganligini tekshirish uchun talab bilan taklifni tenglashtirib, muvozanat narxni aniqlaymiz:


$Q_S = Q_D, -4500 + 2P = 13500 - P, 3 \cdot P = 18000, P = 6000$. Demak 6000 so'm muvozanat narx.

5.3. Talabning narx bo'yicha elastikligi yordamida daromadlarni tahlil qilish

Tahlilni chiziqli talab funksiyasi orqali ko'rib chiqamiz. Umumiy holdagi talab chiziqli funksiyasi berilgan bo'lsin: $Q^D = a - b \cdot P$. Elastiklikning ta'rifiga ko'ra:

$$E_p = Q'_p \cdot \frac{P}{Q} = -b \cdot \frac{P}{a - b \cdot P} = -\frac{P}{\frac{a}{b} - P} = -\frac{LG}{AF} = -\frac{LC}{AL}.$$

Talabning narx bo'yicha elastikligi va daromad o'rtasidagi bog'liqlikni ifodalovchi grafik chizamiz (5.5-rasm).



5.5-rasm. Talabning narx bo'yicha elastikligi va daromad o'rtasidagi bog'liqlik

L nuqta talab chizig‘i bo‘yicha A nuqtadan C nuqtaga harakat qilganda, talab elastikligi kamayadi. U har doim manfiy, absolyut qiymati bo‘yicha LC kesmaning AL kesmaga nisbatiga teng va AC chiziqning o‘rtasida birga teng. 3.5-rasmning pastki qismida daromadning narxga bog‘liqligi ko‘rsatilgan: $TR = Q \cdot P(Q)$.

Bu funksiya kvadratik funksiya bo‘lib, u o‘zining maksimumiga $[0C]$ kesmaning o‘rtasida erishadi: $Q^D = a - b \cdot P$ funksiyadan P ni topsak, $P = \frac{a - Q^D}{b}$ bo‘ladi va P ni $TR = Q \cdot P(Q)$ formulaga qo‘yamiz. Natijada ishlab chiqarish hajmi Q dan bog‘liq daromad funksiyasini olamiz: $TR = Q \cdot \frac{a - Q^D}{b} = \frac{Q \cdot a}{b} - \frac{Q^2}{b}$.

Bu funksiyaning kritik nuqtasini topamiz, ya‘ni daromadni maksimal qiladigan Q ni topamiz (buning uchun daromad funksiyasidan Q bo‘yicha hosila olib nolga tenglashtirib, Q ga nisbatan yechib, daromadni maksimallashtiradigan Q_e ni topamiz): $\frac{\Delta TR}{\Delta Q} = \frac{a}{b} - 2Q \cdot \frac{1}{b} = 0$, yoki $Q_e = \frac{a}{2}$ da daromad maksimal qiymatga erishishga ishonch hosil qilamiz.

Haqiqatdan ham 5.5-rasmda, talab AB oraliqda elastik ($E_D > 0$) va bu oraliqda talab miqdorining oshishi va narxning kamayishi daromadni oshib borishiga, talab elastik bo‘lmagan BC oraliqda daromad miqdorining kamayib borishiga olib keladi.

Narx o‘zgarishiga mos talab elastikligining daromadga ta‘siri 5.1-jadvalda keltirilgan.


5.1-jadval

Talab elastikligining narx va daromadga ta‘siri


Elastiklik koeffitsienti miqdori	Talabning narx o‘zgarishiga munosabati	Mohiyati	Daromadga ta‘siri	
			narxning oshishi	narxning pasayishi
Birdan katta ($Ed > 1$)	“Elastik” yoki “nisbatan elastik”	Talab miqdorining o‘zgarishi narx o‘zgarishidan yuqori	Daromadni kamaytiradi	Daromadni oshiradi
Birga teng ($Ed = 1$)	Barqaror	Talab miqdorining o‘zgarishi narx o‘zgarishiga teng	Daromad o‘zgarmaydi	Daromad o‘zgarmaydi
Birdan kichkina ($Ed < 1$)	“Noelastik” yoki “nisbatan noelastik”	Narxdagi o‘zgarishga nisbatan talab miqdorining o‘zgarishi yuqori	Daromadni oshiradi	Daromadni kamaytiradi

Manba: mualliflar ishlanmasi

Mahsulotga talab elastik bo'lganda (5.6-a-rasm), narxni P_1 dan P_2 ga oshirish natijasida olinadigan A yuzaga teng qo'shimcha daromadga (+TR) nisbatan, talabning Q_1 dan Q_2 ga qisqarishi natijasida ko'riladigan B yuzaga teng zarar (-TR) ko'pligidan sotuvchining yalpi daromadi qisqaradi. Mahsulotga talab noelastik bo'lganda esa (5.6-b-rasm) narxni P_1 dan P_2 ga oshirish natijasida olinadigan A yuzaga teng qo'shimcha daromad (+TR), talabning Q_1 dan Q_2 ga qisqarishi natijasida ko'riladigan B yuzaga teng zarardan (-TR) ko'pligidan yalpi daromad oshadi.




a) elastik talab




b) noelastik talab

5.6-rasm. Talab chizig'i elastik (a) va noelastik (b) holatda narxni oshirishning sotuvchi daromadiga ta'siri

Endi yuqoridagi holatga mutlaqo teskari bo'lgan holat, ya'ni talab elastikligiga qarab narxni pasaytirishning sotuvchi daromadiga ta'sirini qaraymiz (5.7-rasm).



a) elastik talab



b) noelastik talab

5.7-rasm. Talab chizig'i elastik (a) va noelastik (b) holatda narxni tushirishning sotuvchi daromadiga ta'siri

Mahsulotga talab elastik bo'lganda (5.7-a-rasm), narxni P_1 dan P_2 ga tushirish natijasida ko'riladigan A yuzaga teng zararga ($-TR$) nisbatan, talabning Q_1 dan Q_2 ga oshishi natijasida olinadigan B yuzaga teng qo'shimcha daromad ($+TR$) ko'pligidan sotuvchining yalpi daromadi oshadi.

Mahsulotga talab noelastik bo'lganda esa (5.7-b-rasm) narxni P_1 dan P_2 ga tushirish natijasida ko'riladigan A yuzaga teng zarar ($-TR$), talabning Q_1 dan Q_2 ga oshishi natijasida olinadigan B yuzaga teng qo'shimcha daromadga ($+TR$) nisbatan ko'pligidan sotuvchining yalpi daromadi qisqaradi. Masalan, yil yaxshi kelib, fermerlar yuqori hosil olganda, narx pasayib ketishidan ularning daromadi kamayib ketadi. Chunki, qishloq xo'jaligi mahsulotlariga bo'lgan talab elastikligi ancha past.

Talab elastikligining bu xususiyatlarini bilish sotuvchilarga narxni o'zgartirish orqali daromadlarni oshirish imkoniyatini beradi. Bunda daromadning o'zgarishi narxning o'zgarishiga teskari bo'lganligidan, sotuvchilar talab elastikligi yuqori bo'lgan mahsulotlarning narxini pasaytirish orqaligina sotuvlar hajmini va daromadini oshirishlari mumkin.

Talab noelastik bo'lgan holatda esa, narxni oshirish talab hajmini keskin qisqarishga olib kelmaydi. Chunki, ko'pincha iste'molchilar uchun birlamchi ehtiyoj sanaladigan ne'matlarga talab noelastik hisoblanadi. Bunday sharoitda sotuvchilar daromadni oshirish uchun narxni ko'tarishlari mumkin.

Ko'pchilik mamlakatlarda davlat talab elastikligi past (noelastik) bo'lgan tovar va xizmatlar narxini cheklab turadi. Aks holda elastiklik qonuniyatlaridan unumli foydalanib, sotuvchilar daromadlarini oshirish maqsadida noelastik talabga ega tovarlar narxini oshirib yuborishlari mumkin.

Misol. Faraz qilaylik, bug'doyga bo'lgan talab funksiyasi quyidagi ko'rinishda berilgan bo'lsin: $Q_D = 4000 - 250 \cdot P$,

Bu yerda P - bir pud bug'doy narxi; Q_D - talab hajmi, mln. pud.

Sotuvchi daromadini maksimallashtiruvchi bug'doy hajmi (Q) aniqlansin.

Yechish: Masalani yechish uchun teskari talab funksiyasini aniqlaymiz:

$$P = 16 - Q \frac{1}{250}.$$

Sotuvchining daromad funksiyasini tuzamiz:

$$TR = P \cdot Q = \left(16 - Q \frac{1}{250} \right) \cdot Q = 16Q - \frac{Q^2}{250}.$$

Daromad funksiyasidan Q bo'yicha hosila olib, natijani nolga tenglashtirib yechamiz: $\frac{\Delta TR}{\Delta Q} = 16 - \frac{2Q}{250} = 0$. $Q_e = 4000 : 2 = 2000$ mln. pud.

Demak, sotuvchi daromadini maksimallashtiruvchi sotiladigan bug'doy hajmi $Q_e = 2000$ mln. pudga teng ekan. Bir pud bug'doy narxi: $P = 16 - 8 = 8$ pul birligiga teng. Umumiy daromad $TR = 2000 \cdot 8 = 16000$ pul birligi.

Faraz qilaylik, sotuvchi sotiladigan bug‘doy hajmini 250 mln. pudga oshirdi. Uning daromadi qanday bo‘lishini hisoblaymiz. Sotiladigan bug‘doy hajmi 2250 mln. pud. U holda bir pud bug‘doy narxi $P = 16 - \frac{2250}{250} = 7$ pul birligiga teng.

Umumiy daromad $TR = 2250 \cdot 7 = 15750$ pul birligiga teng.

Ko‘rinib turibdiki, sotuvchi sotiladigan bug‘doy hajmini optimal hajmdan oshirsa, uning daromadi maksimal daromaddan past bo‘ladi.


Xuddiy shunday, sotuvchi optimal hajmdan kamroq hajmda bug‘doy sotsa ham, uning umumiy daromadi kamayadi.

5.4. Soliq yukini iste‘molchi va ishlab chiqaruvchi o‘rtasida taqsimlanishini tovar elastikligiga ko‘ra tahlili

Elastiklik nazariyasi firmalar va davlatning iqtisodiy siyosatini belgilashda muhim qurol bo‘lib hisoblanadi. Ma‘lumki, talab va taklif chiziqlarining yotiqqligi, ularning elastiklik koeffitsiyentlari miqdorining qzgarishiga ko‘ra o‘zgaradi. Talab va taklifning elastik yoki elastik bo‘lmasligi soliq yukining iste‘molchi va ishlab chiqaruvchilar o‘rtasida qanday taqsimlanishini, ya‘ni soliqning qancha qismini iste‘molchi va qancha qismini ishlab chiqaruvchi to‘lashini aniqlab beradi.


Faraz qilaylik, davlat bir birlik tovarga t miqdorda (o‘zgarmas) soliq belgilasin. Bu o‘z navbatida taklif chizig‘ini S holatdan yuqoriga S' –holatga siljitadi (5.8-rasm).

Umumiy soliq iste‘molchi va ishlab chiqaruvchi o‘rtasida taqsimlanib, o‘z ichiga soliq yuki ortiqchaligini oladi. Ushbu soliq yuki ortiqchaligi “o‘lik yuk” bo‘lib, jamiyat uchun sof yo‘qotish hisoblanadi.



5.8-рasm. Солиқ юкининг тақсимланиши


Talab elastikligi qancha yuqori bo'lsa ($E_D > 1$), uning chizig'i shuncha yotiq bo'ladi va soliqning katta qismi ishlab chiqaruvchilar zimmasiga tushadi (5.9-rasm).



5.9-rasm. Talab elastik bo'lganda soliq yukining taqsimlanishi


Yuqoridagi 5.9-rasmdan ko'rinib turibdiki, ishlab chiqaruvchi to'laydigan soliqni ko'rsatuvchi P_2MBP_0 to'rtburchak yuzasi iste'molchi to'laydigan soliqni ifodalovchi $P_0BE_1P_1$ to'rtburchak yuzadan katta. Chunki, talab elastikligi yuqori bo'lganda ($E_D > 1$) soliq kiritilishi tufayli narx oshganda, iste'molchilar bunga talabni qisqartirish bilan javob qaytaradilar. Buning natijasida sotuvchilar daromadi sezilarli darajada pasayib kertishi mumkin. Shu sababli sotuvchilar soliq yukining katta qismini o'z zimmalariga olish orqali talab qisqarishini kamaytirishga urinadilar.

Talab qancha noelastik bo'lsa ($E_D < 1$) uning chizig'i shuncha tik bo'lib boradi va soliqning ko'p qismini to'lash iste'molchilar zimmasiga tushadi (5.10-rasm).




5.10-rasm. Taklif elastik bo'lmaganda soliqning taqsimlanishi

Bu yerda, $P_0BE_1P_1$ to'rtburchak yuzi P_2MBP_0 to'rtburchak yuzidan katta. Talab noelastik bo'lganda iste'molchilar birlamchi zaruriy ehtiyoj bo'lgan tovarlarga narx oshishiga qaramay talabini qisqartira olmaydi yoki juda kam miqdorda qisqartiradi. Soliqning taqsimlanishini taklif chizig'iga nisbatan qaraganimizda buning teskarisini ko'ramiz. Taklif elastik bo'lganda, soliqning katta qismini to'lash iste'molchilar zimmasiga tushadi (5.11-rasm).



5.11-rasm. Taklif elastik bo'lganda soliqni taqsimlanishi

Agar taklif noelastik bo'lsa, soliq yukining katta qismi ishlab chiqaruvchilar zimmasiga tushadi (5.12-rasm).



5.12-rasm. Taklif elastik bo'lmaganda soliqni taqsimlanishi

Misol. Biror A tovarga bo'lgan taklif elastikligi 0,6 ga, bir birlik mahsulotning narxi 8 dollarga teng. Taklif xajmi 12000 birlik bo'lsin. Taklif bilan narx o'rtasida bog'liqlik chiziqli bo'lganda:

a) Taklif funksiyasi aniqlansin;

b) Faraz qilaylik, A tovarga talab funksiyasi quyidagicha bo'lsin:

$$Q_d = 30600 - 7600P$$

Bu yerda, Q_d - tovar miqdori, dona; P - tovar narxi, dollar.

Taklif xajmi 20% ga oshganda yangi muvozanat narx va ishlab chiqarish xajmi aniqlansin.

Yechish. Taklif funksiyasining umumiy ko'rinishi $Q_s = a + bP$

Taklif funksiyasi uchun taklif elastikligi formulasidan foydalanib quyidagini yozamiz: $E_D = 0,6$, $P_e = 8$ va $Q_e = 12000$

$$E_p^S = b \cdot \frac{P}{Q} \text{ dan foydalanib quyidagini yozamiz: } 0,6 = b \cdot \frac{8}{12000} \text{ bundan esa } b$$

= 900. Endi aniqlangan va berilgan qiymatlarni taklifning umumiy funksiyasiga qo'yib a ning qiymatini aniqlaymiz:

$$12000 = a + 900 \times 8 \text{ doll.}$$

bundan $a = 4800$.

Demak, taklif funksiyasi quyidagi ko'rinishga ega:

$$Q_s = 4800 + 900P.$$

b) Taklif hajmini 20 foizga oshganda

$$Q'_s = 1,2 \cdot Q_s = 1,2 \cdot (4800 + 900 \cdot P) = 5760 + 1080 \cdot P.$$

$Q_d = Q'_s$ muvozanat shartidan

$$30600 - 7600P = 5760 + 1080P$$

$$P \approx 2,86, \quad Q \approx 7376.$$

Misol. Shahar avtobus transporti chiptalarining muvozanat narxi 1dollar. Bir kunlik yo'lovchilar soni 21600 kishi. Qisqa muddatli oraliqda talabning narx bo'yicha elastikligi $E_p^S = -0,5$. Taklifning narx bo'yicha elastikligi $E_p^S = 1,0$.

a) Qisqa muddatli oraliqda avtobus chiptalariga bo'lgan talab va taklif funksiyalari aniqlansin.

b) Faraz qilaylik, benzin narxi oshishi munosabati bilan ko'pchilik yo'lovchilar shaxsiy engil avtobillaridan foydalanmay qo'yishdi. Natijada avtobus chiptalariga talab 20 foizga oshdi. Chiptalarning yangi muvozanat narxi aniqlansin.

v) Shahar ma'muriyati chiptalarga bo'lgan narxni oshirishni man qildi. Ushbu qaror yo'lovchilarga ko'rsatiladigan xizmatga qanday ta'sir qiladi?

Misol. Biror A tovarga bo'lgan talab va taklif funksiyalari quyidagi tenglamalar orqali berilgan bo'lsin.

$$Q_d = 600 - 100 \cdot P \quad Q_s = 150 + 50 \cdot P.$$

a) A tovar bozoridagi muvozanat ko'rsatkichlar aniqlansin.

b) Davlat ushbu sotiladigan A tovarning har bir donasi uchun 1,5 so'm soliq belgiladi. Ushbu tovarni sotuvchi va xaridorlarning qanchadan yo'qotishlari aniqlansin.

Echish. Bozorni muvozanat ko'rsatkichlarini $Q_d=Q_s$ dan foydalanib aniqlaymiz.

$$600 - 100P = 150 + 50P; \quad P_e = 3, \quad Q_e = 300.$$

Talab va taklif chiziqlarini grafikda ifodalaymiz.

Soliq har bir sotilgan tovarga qo'yilgani uchun, taklif funksiyasi auyidagicha o'zgaradi, taklif chizig'i chapga yuqoriga S' holatga suriladi.

$$Q'_s = 150 + 50(P - 1,5) = 75 + 50P.$$

Yangi muvozanat nuqtani $Q_D = Q'_S$ tenglik orqali aniqlaymiz:

$$P_E = 3,5, \quad Q_E = 250.$$

Endi P_2 ning qiymatini aniqlaymiz: $250 = Q_S = 150 + 50P$, $P_2 = 2$.

Qisqa xulosalar

Elastiklik - bir o'zgaruvchining boshqa bir o'zgaruvchi ta'siri ostida o'zgarishini o'lchaydigan o'lchov. Aniqroq qilib aytganda, biror o'zgaruvchining bir foizga o'zgarishi natijasida boshqa bir o'zgaruvchining ma'lum foiz miqdoriga o'zgarishini ko'rsatadigan ko'rsatkichdir. Bunga eng yaqqol misol sifatida narxga bog'liq talab elastikligini keltirish mumkin. Bu elastiklik tovar narxining bir foizga o'zgarishi, unga talabni necha foizga o'zgartirishini ko'rsatadi.

Talab qonuniga asosan iste'molchilar narx arzonlashuvi ta'sirida ko'proq tovar xarid qilishga moyil bo'ladilar. Ammo, iste'molchilar talabining narx o'zgarishiga munosabati tovarning xususiyatiga ko'ra turlicha bo'lishi mumkin. Ayrim tovarlar narxining o'zgarishiga nisbatan iste'molchilarning sezuvchanligi yuqori bo'ladi va narxdagi ozgina o'zgarishlar ta'sirida tovarga bo'lgan talab miqdori sezilarli darajada o'zgaradi. Odatda qimmatbaho buyumlar narxiga nisbatan iste'molchilar talabining sezuvchanligi yuqori bo'ladi. Masalan, yengil avtomobillar narxining oshishi unga bo'lgan talabning sezilarli qisqarishiga olib keladi. Bunday tovarlarga bo'lgan elastik talab deyiladi.

Ikkinchi tur tovarlar narxining o'zgarishi ularga bo'lgan talab miqdoriga sezilarli ta'sir ko'rsatmaydi. Ko'pincha kundalik ehtiyoj va zarurat buyumlari narxiga nisbatan iste'molchilar talabining sezuvchanligi past bo'ladi. Masalan, oziq-ovqat, dori-darmon, gugurt kabi tovarlar narxining o'zgarishi ularga bo'lgan talab miqdoriga sezilarli ta'sir ko'rsatmaydi. Bunday tovarlarga bo'lgan talab **noelastik talab** deb ataladi.

Elastiklik koeffitsienti qiymatiga qarab talabni elastik, noelastik va birlik elastiklikka ega bo'lgan talablarga ajratish mumkin.

Talab elastikligi narxdan tashqari, daromadga ham bog'liq. Ko'pgina tovarlarga talab, iste'molchilar daromadi oshganda oshadi. Daromad bo'yicha elastiklik, bu daromadni R (*Revenue*) bir foizga o'zgarishi talab miqdorini (Q) necha foizga o'zgarishini bildiradi.

Bitta tovarga bo'lgan talabga boshqa bir tovarning narxi ta'sir ko'rsatadi. Bunday bog'liqlikdagi talab o'zgarishiga narxga bog'liq kesishgan talab elastikligi

deyiladi. Kesishgan talab elastikligi - bu boshqa tovarlar narxi bir foizga o'zgariganda, tovarga talabning necha foizga o'zgarishini bildiradi.

Nazorat va muhokama uchun savollar

1. Elastiklik nimani ifodalaydi?
2. Talab va taklifning narx bo'yicha elastikligi qanday mazmunga ega?
3. Talabning elastik, noelastik va birlik elastikka teng bo'lish shartlarini ko'rsatib bering.
4. Yoysimon va nuqtaviy elastiklik qanday hisoblanadi?
5. Daromadga bog'liq va kesishgan talab elastikligi deb nimaga aytiladi?
6. Absolyut elastic va absolyut noelastik deganda nimani tushunasiz?
7. Kundalik extiyoj va qimmatbaho hasham mollariga talab elastikligi qanday?
8. Talab elastikligi yordamida sotuvchi daromadini qanday maksimallashtirish mumkin?
9. Talab va taklif elastik bo'lganda soliq yukining katta qismi kimning zimmasiga tushadi, noelastik bo'lgandachi?


6-bob. ISTE'MOLCHI TANLOVI NAZARIYASI

6.1. Iste'molchi tanlovi va naflilik tushunchasi

Bozor talabining shakllanishi asosida shaxsiy (individual) talab yotadi, ya'ni alohida iste'molchining talabi, har bir shaxs o'zining fiziologik ehtiyojlarini qondirish uchun qandaydir mahsulotdan, qanchadir sotib olishi kerak, sotib olish uchun ma'lum miqdorda mablag'i bo'lishi kerak. Iste'molchining mablag'i cheklangan. Iste'molchi har doim tanlov oldida turadi va tanlov chog'ida quyidagi uchta savolga javob izlaydi:

1. Nimani xarid qilish?
2. Xarid qilinadigan ne'matning narxi qancha?
3. Ne'matni harid qilish uchun mablag' yetarlimi?

Birinchi savolga javob berish uchun ne'matning iste'molchi uchun naflilik darajasini aniqlash, ikkinchi savolga javob berish uchun - ne'matning narxini va uchinchi savolga javob berish uchun iste'molchining daromadini o'rganish lozim bo'ladi. Mana shu uchta element - naflilik, narx va daromad - iste'molchi tanlovining asosini tashkil etadi (6.1-rasm).




6.1-rasm. Iste'molchi tanlovning asosiy elementlari

Iste'mol nazariyasi ma'lum bir aksiomalarga asoslanadi va ular 6.2-rasmda keltirilgan.

Iste'molchi qaror qabul qilishda, mavjud imkoniyat doirasida maksimal darajada o'z ehtiyojini qondirishga, turmush farovonligi darajasini oshirishga harakat qiladi. Ushbu ehtiyojni qondirish darajasi **naflilik** (utility) deyiladi.

Ne'matning nafliligi - ne'matning insonning bir yoki bir nechta ehtiyojini qondira olish xususiyatidir. Iste'mol nazariyasida ne'mat - bu iste'molchining ehtiyojini qondira oladigan har qanday iste'mol ob'ektidir. Ko'p hollarda ne'matlar yakka tartibda emas, balki majmua tartibda yoki "iste'mol savati" bilan iste'mol qilinadi. Iste'mol nazariyasida: iste'molchilar ma'lum didga, xohishga ega va ular bu xohish va didlarini qanoatlantirishda byudjetlari (daromadlari) bilan chegaralangan; ular ne'matlar majmualaridan, maksimal naf keltiradigan majmuani tanlashga harakat qiladi; iste'molchilar tomonidan sotib olinadigan ne'mat narxi uning miqdoridan bog'liq emas; iste'molchilar ne'matlar nafligini to'liq biladi va maksimal naf beruvchi ne'matlar majmuasini tanlaydi, deb faraz qilinadi.




6.2-rasm. Iste'molchi tanlovning asosiy postulatları

Naflilik funksiyasi. Avstriya iqtisodchilar maktabi namoyondalari K.Menger, E.Bem-Baverk, F.Vizerlar birinchilar qatorida talab bilan narx, tovar zaxirasi va uning miqdori o'rtasidagi bog'liqlikni aniqlashga o'ringanlar. Aniqlanishicha, cheklangan resurslar sharoitida ularning hajmi narxiga ta'sir qiluvchi

muhim omillardan biri hisoblanadi. Ular ketma-ket iste'mol qilinadigan biror ne'matdan olinadigan nafning iste'molchi uchun kamayish xususiyati mavjudligi to'g'risidagi qonuniyatni aniqlashgan. Masalan, chanqagan inson bir stakan mineral suvni zo'r qoniqish bilan ichadi, ikkinchi stakan suv birinchi stakan suvga nisbatan kamroq, uchinchi esa - ikkinchisiga nisbatan kamroq naf beradi. Bu holat toki oxirgi stakan suv beradigan naf nolga teng bo'lguncha davom etadi. Bunda umumiy naf (total utility) ortib boradi, lekin har bir keyingi stakan suvdan olinadigan qo'shimcha, ya'ni chekli naf (marginal utility) kamayib boradi.

Iste'molchi harakatini aniqroq tahlil qilish uchun **naflilik funksiyasidan** foydalanamiz. Naflilik funksiyasi - iste'molchining iste'mol qiladigan ne'matlar hajmi bilan, uning ushbu ne'matlarni iste'mol qilish natijasida oladigan naflilik darajasini ifodalaydi: $TU = f(x_1, x_2, \dots, x_n)$, bu yerda TU - umumiy naflilik darajasi; $x_1, x_2, \dots, x_n - 1, 2, \dots, n$ - ne'matlar hajmi.

Naflilik nazariyasi ilgari surilgan davrda ko'pchilik iqtisodchilar ne'matlar narxini shakllanishi asosida ularning nafliligi yotadi degan fikrda bo'lishgan. Unga ko'ra ne'matning iste'molchi uchun nafliligi qancha yuqori bo'lsa, narxi shuncha qimmat va aksincha nafliligi qancha past bo'lsa, narxi ham shuncha arzon bo'ladi. Ammo naflilik nazariyasi tanqidchilari XVIII asrdayoq bu g'oyaga qarshi "**suv va olmos paradoksi**"ni ilgari surishgan. Unga ko'ra, barcha uchun hayoriy zaruriyat sanalgan suv - eng maksimal, hayot kechirish uchun unchalik zarur bo'lmagan olmos esa - minimal naflilikka ega. Shunga mos suvning narxi maksimal darajada qimmat va aksincha olmosning narxi minimal darajada arzon bo'lishi kerak. Ammo amaliyotda buning aksini ko'rish mumkin. Bundan kelib chiqadiki, ne'matlar narxi bilan naflilik o'rtasida bog'liqlik mavjud emas. Bu savolga to'g'ri javob keyinchalik naflilikning ikki darajasi, ya'ni **umumiy** va **chekli naflilik** farqlangan hamda narx bilan ne'matning zaxirasi o'rtasidagi bog'liqlik aniqlangandan so'ng topildi. Hamma gap shundaki, suv zaxiralari tabiatda mo'l, olmos esa juda kam uchraydigan noyob va taqchil resurs sanaladi. Shunga mos suvning narxi arzon, olmosniki esa esa qimmat. Buni quyidagi rasmdan ham ko'rish mumkin (6.3-rasm).



a) suv
6.3-rasm. Suv va olmos paradoksi

Ne'matlarning narxi ularning tabiatdagi yoki iste'molchi ixtiyoridagi zaxirasiga bog'liq. Ne'matlarning zaxirasi qancha ko'p bo'lsa, qo'shimcha birlik ne'mat qiymati shuncha past bo'ladi va ularning narxi shuncha arzon bo'ladi. Aksincha, ularning zaxirasi qancha kam bo'lsa, qo'shimcha birlik ne'mat qiymati shuncha yuqori va narxi shuncha qimmat bo'ladi. Demak, ne'matning narxi uning umumiy nafliligi bilan emas, balki chekli nafliligi bilan belgilanadi. Shunday ekan, ne'matlar narxi ularning chekli nafliligiga to'g'ri, zaxirasiga esa teskari proporsional bo'ladi.


Umumiy naflilik biror ne'matdan ketma-ketlikda iste'mol qilib borilganda ulardan olingan jami naflilik yig'indisini ifodalaydi va u o'sib borish xususiyatiga ega. Shu bilan birga iste'mol to'yingan sharoitda umumiy naflilik o'zining maksimal qiymatiga erishadi.

Chekli naflilik ne'matdan qo'shimcha bir birlik iste'mol qilish natijasida olinadigan qo'shimcha naf miqdorini ifodaladi. Chekli naflilik - bu naflilik funksiyasidan biror ne'mat o'zgaruvchisi bo'yicha olingan xususiy hosilaga teng:

$$MU_i = \frac{\Delta TU}{\Delta X_i}.$$

Bu yerda: MU_i - i -ne'mat bo'yicha chekli naflilik darajasi; ΔTU - umumiy naflilik darajasining o'sgan qismi; ΔX_i - i -ne'matni iste'mol qilish miqdorining o'sgan qismi.

Umumiy va chekli naflilikning o'zgarishi 6.4-rasmda keltirilgan.



6.4-rasm. Umumiy naflilik va chekli naflilikning o'zgarishi

6.4-rasmdan ko'rinib turibdiki, iste'mol qilinadigan ne'mat miqdorining (Q) oshib borishi bilan umumiy naflilik (TU) ham oshib boradi (a-rasm). Bunda chekli

naflilik (MU) kamayib boradi (b -rasm). Umumiy naflilik Q^* nuqtada maksimal darajaga erishganda, chekli naflilik (MU) nolga teng bo'ladi.


Odatda, biror ne'matni iste'mol qilish oshganda (boshqa ne'matlar iste'moli hajmi o'zgarmaganda), umumiy naflilik darajasi oshadi. Demak chekli naflilik musbat $MU > 0$. Shu bilan birga, biror ne'matdan qo'shimcha bir birlik iste'mol qilganda (boshqa ne'matlar iste'moli hajmi o'zgarmaganda), qo'shimcha iste'mol qilingan birlik oldingisiga nisbatan kamroq naf beradi va uning bu xususiyatiga **chekli naflilikning kamayish qonuni** deyiladi. Matematik tilda bu naflilik funksiyasining ikkinchi tartibli hosilasi noldan kichik degani:

$$(MU)' = \frac{\partial^2 U}{\partial X^2} < 0$$

Talabni aniqlashning asosida chekli nafligining kamayish qonuni yotadi. Shu sababli ishlab chiqaruvchilar mahsulot sotish hajmini ko'paytirishlari uchun qo'shimcha sotiladigan mahsulotlar narxiga chegirma berishlari kerak bo'ladi.

6.2. Iste'molchi talabining alohida xususiyatlari

Ratsional iste'molchiga xos tanlovning umumiy qoidalari bilan birga ayrim iste'molchilarning didi va afzal ko'rishlari ta'sirida shakllanadigan alohida tanlov xususiyatlari ham mavjud. Ayrim iqtisodiy adabiyotlarda iste'molchi talabi funksional va nofunktional guruhlarga ajratiladi (6.5-rasm).



6.5-rasm. X. Leybensteyn bo'yicha iste'molchi talabining turkumlanishi⁸

Funktional talab iqtisodiy ne'matning o'ziga (tovar yoki xizmat turiga) xos bo'lgan iste'mol xususiyatlari ta'sirida shakllanadi.

⁸ Нуриев Р.М. Курс микроэкономики: учебник/ 2-е изд. – М.: Норма, 2012. – с. 125. asosida tuzilgan.

Nofunksional talab iqtisodiy ne'matga xos bo'lmagan iste'mol xususiyatlari ta'sirida shakllanadi. Unga **ijtimoiy, spekulyativ** va **noratsional omillarni** kiritish mumkin.

Ijtimoiy omillar iste'molchilarning ne'matga bo'lgan munosabati bilan uzviy bog'liqlikka ega. Ayrim iste'molchilar ko'pchilikka taqlid qilishni yoqtiradi va ko'pchilik nimani xarid qilsa, o'shani olishni ma'qul ko'radi. Ikkinchi turdagi iste'molchilar boshqalardan ajralib turishni xohlashadi va nihoyat yana bir toifasi yuqori darajadagi turmush farovonligi ta'sirida obru-e'tibor talab namoyishkorona iste'molni xush ko'radi. Shundan kelib chiqib amerikalik iqtisodchi X. Leybensteyn ijtimoiy omillar ta'sirida shakllanadigan talabni uch toifaga ajratgan:

1. **Ko'pchilikka ergashish samarasida** iste'molchi atrofdagilar va modadan ortda qolmaslikka tirishib, ko'pchilik nimani ma'qul ko'rsa shuni xarid qilishga moyil bo'ladi. Bunda uning xaridga oid hatti-harakati boshqalarning fikriga bevosita bog'liq bo'lib qoladi. Ko'pchilikka ergashish samarasi deganda iste'molchining umum qabul qilingan normalar ta'sirida ko'pchilik xarid qiladigan ne'matlarga talabini oshishi bilan bog'liq samara tushuniladi. Bunda talab elastikligi yuqori va talab chizig'i yotiq bo'ladi.

2. **Snob samarasida** iste'molchining atrofdagilardan ajralib turishga ishtiyoqi baland boladi. Bu yerda ham uning tanlovi atrofdagilar hatti-harakatiga bog'liq, ammo bu teskari bog'liqlik. Snob samarasi boshqa insonlar shu ne'matni iste'mol qilishi ta'sirida talabda yuz beradigan teskari o'zgarishni ifodalaydi. Ya'ni, agar atrofdagilar shu ne'matga talab hajmini oshirsa, snob uni qisqartiradi yoki umuman iste'moldan voz kechadi. Snob samarasida talab elastikligi past bo'ladi.

3. **Veblen samarasi** (T. Veblen nomidan olingan) obru-e'tibor ketidan quvib unutilmas taassurot qoldirish maqsadini ko'zlovchi namoyishkorona iste'molni nazarda tutadi. Bunda tovarning narxi ikki qismdan: real narx va obru keltiruvchi narxdan tashkil topadi. Veblen samarasi tovarning narxi qimmatligi tufayli iste'molchi talabining oshishi bilan bog'liq samarani aks ettiradi. Snob va Veblen samaralarining asosiy farqi shundaki, agar snob samarasida muayyan tovarga talab boshqalarning shu tovarni iste'mol qilish hajmiga bo'g'liq holda o'zgarsa, Veblen samarasida talab tovar narxining qimmat yoki arzonligiga qarab o'zgaradi.

Ne'matga xos xususiyatlardan xoli bo'lgan nofunksional talabga yana spekulyativ va noratsional talablar kiradi.


Spekulyativ talab inflyatsion kutishlar yuqori bo'lgan jamiyatlarda, kelgusida narxlarning oshib ketish xavfi joriy davrda qo'shimcha talab va iste'mol hajmini yuzaga keltirishi bilan izohlanadi.

Noratsional talab esa oldindan rejalashtirilmagan, lahzalik xohish, kayfiyatning o'zgarishi kabi omillar ta'sirida to'satdan paydo bo'ladi va u iste'molchining odatdagi turmush tarziga mos kelmaydi.

6.3. Iste'molchining afzal ko'rishi qoidalari


Iste'molchining eng yaxshi iste'mol ne'matlar majmuini tanlashini, ne'matlar turi ikkita bo'lgan hol uchun qaraymiz. Umuman olganda bu tahlilni keskin darajada cheklamaydi. Haqiqatdan ham iste'molchi tanlovini berilgan ne'mat bilan boshqa

qolgan barcha ne'matlar o'rtasida qarasak ham bo'ladi. Ikkita ne'mat uchun naflilik funksiyasi quyidagi ko'rinishga ega (6.6-rasm).




6.6-rasm. Ikki o'zgaruvchili naflilik funksiyasi grafigi

Yuqoridagi rasmda keltirilgan naflilik funksiyasining $TU = f(X_1, X_2)$ grafigida funksiyaning TU_1 va TU_2 qiymatlariga to'g'ri keluvchi chiziqlar keltirilgan. Masalan, ABC chizig'i naflilik funksiyasining TU_1 qiymatiga mos keladi va shu ABC chiziqning har bir nuqtasiga mos keluvchi X_1 va X_2 ne'matlar miqdori kombinatsiyalari bir xil darajadagi naflilik TU_1 ni ta'minlaydi. Grafikdagi ABC chiziqning $X_1 O X_2$ tekislikdagi proeksiyasi $A_1 B_1 C_1$ egri chiziq naflilik funksiyasining TU_1 qiymatiga to'g'ri keluvchi befarqlik egri chizig'i deyiladi. Naflilik funksiyasining TU_1 va TU_2 qiymatlariga mos keluvchi befarqlik chiziqlari quyidagi ko'rinishga ega (6.7-rasm).




6.7-rasm. Befarqlik egri chiziqlari

Befarqlik egri chizig'i - bu iste'molchi uchun bir xil naf beruvchi ne'matlar kombinatsiyalarini ifodalaydi (6.8-rasm). Faraz qilaylik, X_1 - gamburger, X_2 - fanta ichimligi.



6.8-rasm. Gamburger va fanta ichimligi uchun befarqlik egri chizig'i


6.8-rasmdagi grafikda bitta gamburger bilan uchta fanta ichimligi (A nuqta) beradigan naf, 2 ta gamburger bilan 2 ta fanta ichimligi (B nuqta) beradigan nafga teng. Demak, befarqlik egri chizig'i bir xil naf beradigan gamburger va fanta ichimliklari kombinatsiyalarini ifodalovchi nuqtalardan iborat. Befarqlik egri chiziqlari majmuasi **befarqlik egri chiziqlari kartasini** hosil qiladi (6.9-rasm).



6.9-rasm. Befarqlik egri chiziqlari kartasi

Befarqlik egri chiziqlari bir-biri bilan kesishmaydi. Befarqlik egri chiziqlari qanchalik o'ngda va tepada joylashgan bo'lsa, unga to'g'ri keladigan naflilik shuncha yuqori bo'ladi: Masalan, 6.9-rasmdagi befarqlik egri chiziqlari joylashuviga ko'ra $TU_3 > TU_2 > TU_1$ deb yozish mumkin.


Ne'matlarning bir-birini o'rnini bosishi zonasi. Ne'matlarning bir-birini o'rnini bosish zonasi deb - bir ne'matni ikkinchi ne'mat bilan samarali almashtirish mumkin bo'lgan oraliqqa aytiladi (6.10-rasm).



6.10-rasm. Ne'matlarni bir-biri bilan almashtirish zonası

Rasmdagi ON ga teng bo'lgan X_1 ne'matning miqdori iste'molchi uchun shunday zaruriy minimal miqdor hisoblanadiki, u ushbu miqdordagi ne'matning o'rniga X_2 ne'matdan qancha ko'p taklif qilinmasin voz kecha olmaydi. Xuddi shunday OF miqdorga teng bo'lgan X_2 ne'matning miqdori ham iste'molchi uchun zaruriy minimal miqdor hisoblanadi. X_1 va X_2 ne'matlarning o'zaro almashish sohasi bo'lib VW oraliq hisoblanadi. Bu oraliqda, bu ikki ne'matning bir-biri bilan almashtirish mazmunga ega.

Chekli almashtirish normasi. Befarqlik egri chizig'ining pastga tomon yotiqqligi X_2 ne'matni X_1 ne'mat bilan chekli almashtirish normasini ifodalaydi. Chekli almashtirish normasi odatda MRS_{X_1, X_2} bilan belgilanadi va uning miqdori gorizonttal o'q bo'yicha ifodalangan X_1 ne'matning bir birligi uchun, vertikal o'q bo'yicha ifodalangan X_2 ne'matning qancha miqdoridan voz kechish mumkinligini ko'rsatadi (6.11-rasm).



6.11-rasm. Ne'matlarni chekli almashtirish normasi

Befarqlik egri chizig'i koordinata boshiga nisbatan botiq bo'lgani uchun, MRS_{X_1, X_2} bir ne'mat bilan boshqa ne'matni almashtirish oshib borgan sari kamayib

boradi. 6.11-rasmda X_2 o'qi bo'yicha ajratilgan ΔX_2 ni X_1 o'qi bo'yicha ajratilgan ΔX_1 ga nisbatan chekli almashtirish normasini beradi:

$$MRS_{X_1, X_2} = \frac{-\Delta X_2}{\Delta X_1};$$

Bu yerda: MRS_{X_1, X_2} - X_1 bilan X_2 ni chekli almashtirish normasi.

MRS_{X_1, X_2} befarqlik egri chizig'ining har qanday nuqtasida, shu nuqtadan o'tgan chiziqning tangens burchagi yotiqqligining absolyut qiymatiga teng. Befarqlik egri chizig'ining tangens burchagi yotiqqligi manfiy bo'lgani uchun MRS_{X_1, X_2} manfiy bo'ladi. Lekin, MRS musbat bo'lib, u burchak yotiqqligining absolyut qiymati bo'yicha olinadi. Agar funksiya uzluksiz bo'lsa, $MRS_{X_1, X_2} = -\frac{dX_2}{dX_1} = \operatorname{tg} \alpha$

Masalan, $\Delta X_1 = 1$ kitobga va $\Delta X_2 = 3$ ta bananga teng bo'lsa, $MRS_{X_1, X_2} = -3$ bo'ladi va iste'molchi bitta kitob uchun uchta bananni berishga tayyor. Ko'rsatish mumkinki, bu yerda 3 ta banandan olinadigan naf bitta kitobdan olinadigan nafga teng.

Boshqa tomondan naflilik funksiyasi $TU(X_1, X_2)$ dan to'liq differensial olsak:

$$\Delta \delta = \frac{\partial U}{\partial X_1} \cdot \Delta X_1 + \frac{\partial U}{\partial X_2} \cdot \Delta X_2.$$

ΔX_1 va ΔX_2 larni shunday tanlash mumkinki, natijada $\Delta \delta = 0$ bo'ladi. U holda quyidagini yozishimiz mumkin:

$$MRS_{X_1, X_2} = \frac{MU_{X_1}}{MU_{X_2}} = -\frac{\Delta X_2}{\Delta X_1},$$


Bu yerda $MU_{X_1} = \frac{\partial U}{\partial X_1}$ va $MU_{X_2} = \frac{\partial U}{\partial X_2}$.

Demak, ikkinchi ne'matni birinchi ne'mat bilan befarqlik egri chizig'ining har bir nuqtasidagi chekli almashtirish normasi MRS , ne'matlarning shu nuqtadagi chekli nafliliklari nisbatiga teng.

6.4. Byudjet cheklanganligi va iste'molchining muvozanatlilik sharti


Byudjet chizig'i. Befarqlik egri chiziqlari bir ne'mat bilan ikkinchi ne'matni almashtirish mumkinligini ko'rsatadi, xolos. Lekin, ular iste'molchi uchun qaysi tovarlar majmuasi nafliroq ekanligini ko'rsata olmaydi. Bunday masalani byudjet chizig'i yordamida yechish mumkin. **Byudjet chizig'i** tovarlar narxiga va iste'molchining daromadiga asoslanadi va u mavjud pul mablag'lari chegarasida iste'mol uchun qanday tovarlar majmuasini xarid qilish mumkinligini ko'rsatadi.

Iste'molchi tanlovida uning afzal ko'rishi befarqlik egri chizig'i orqali ifodalansa, daromadi va ne'matlar narxidagi o'zgarishlarga munosabatini byudjet chizig'i vositasida aks ettirish mumkin (6.12-rasm).



6.12-rasm. Iste'molchi tanlovini befarqlik egri chizig' va cheklangan byudjet chizig'i orqali ifodalanishi⁹

Byudjet chegarasini ikkita ne'mat misolida ko'radigan bo'lsak, agar iste'molchi daromadi R bo'lsa, X_1 va X_2 lar birinchi va ikkinchi ne'matlar miqdori, P_1 va P_2 lar mos ravishda, birinchi va ikkinchi ne'matlarning narxlari bo'lsa, byudjet chegarasi berilgan daromad R hamda P_1 va P_2 narxlarda iste'molchi tomonidan sotib olinishi mumkin bo'lgan, birinchi va ikkinchi ne'matlarning barcha kombinatsiyalarini ifodalaydi. Byudjet chegarasini quyidagicha yozish mumkin: $P_1X_1 + P_2X_2 \leq R$ va bu tengsizlik tovarlarga sarflanadigan xarajatlar yig'indisi, iste'molchi daromadidan oshmasligini bildiradi. X_1 va X_2 larning manfiy bo'lmaslik ($X_1 \geq 0$ va $X_2 \geq 0$) shartini kiritsak, u holda biz iste'molchining tovarlarni sotib olishi mumkin bo'lgan sohasini (6.13-rasmda shtrixlangan yuza) aniqlagan bo'lamiz:



6.13-rasm. Iste'molchining tanlov sohasi

⁹ Тарануха Ю.В. Микроэкономика (в структурно-логических схемах).– М.: Дело и сервис, 2002. – стр. 49 asosida tuzilgan.

Byudjet chegarasi tenglamasi $P_1X_1 + P_2X_2 = R$ grafikda **AB** chizig'ini beradi, bu chiziqqa **byudjet chizig'i** deyiladi. Byudjet chizig'i quyidagi tartibda aniqlanadi va tenglamasini quyidagicha yozamiz:

$$X_2 = \frac{R}{P_2} - \frac{P_1}{P_2} \cdot X_1.$$

Bu yerda: $\frac{P_1}{P_2}$ - byudjet chizig'ining burchak koeffitsiyenti, u byudjet

chizig'ining X_1 o'qiga nisbatan yotiqqligini ifodalovchi kattalik (grafikda $tg\alpha = -\frac{P_1}{P_2}$).

Byudjet chegarasi tenglamasida $X_1 = 0$ bo'lganda, $X_2 = \frac{R}{P_2}$ bo'ladi va bunda barcha daromad X_2 ne'matga sarflanadi (grafikda A nuqta bo'lib, uning koordinatalari $\left(X_1 = 0; X_2 = \frac{R}{P_2}\right)$ va u $\frac{R}{P_2}$ miqdorda sotib olinadi). Endi $X_2 = 0$ desak, $X_1 = \frac{R}{P_1}$,

bu holda barcha daromad X_1 ne'matni sotib olishga sarflanadi va u $\frac{R}{P_1}$ miqdorda sotib olinadi (grafikda B nuqta). Demak, byudjet chizig'i koordinatalar o'qini $X_1 = \frac{R}{P_1}$ va $X_2 = \frac{R}{P_2}$ nuqtalarda kesib o'tadi.

Byudjet chizig'idagi nuqtalarda daromad to'liq sarflanadi. Shtrixlangan sohadagi nuqtalarda (masalan, C nuqtada) daromad to'liq sarflanmaydi. Agar tanlov nuqtasi byudjet chizig'idan o'ng tomonda yotsa (D nuqta) daromad ushbu nuqtaga to'g'ri keladigan ne'matlar kombinatsiyasini sotib olishga etmaydi.

Byudjet chizig'ining manfiy yotiqqligi, absolyut qiymati bo'yicha tovarlar


nisbati $\frac{P_1}{P_2}$ ga teng (bu kattalik $tg\alpha$ bo'lib, $tg\alpha = -\frac{R/P_2}{R/P_1}$ yoki $tg\alpha = -\frac{P_1}{P_2}$).

Byudjet chizig'i tenglamasidan $\frac{\Delta X_2}{\Delta X_1} = -\frac{P_1}{P_2} = tg\alpha$ ekanligini ko'ramiz. $\frac{P_1}{P_2}$

kattalik iste'molchining X_1 tovardan qo'shimcha bir birlik (ΔX_1) sotib olishi uchun qancha X_2 tovardan (ΔX_2) voz kechish mumkinligini ko'rsatadi.

Iste'molchining tanlovi masalasi ikkita ne'mat uchun quyidagicha qo'yiladi. Iste'molchining daromadi (R) berilgan, sotib olish mumkin bo'lgan ne'matlar narxi mos ravishda P_1 va P_2 deylik. U holda iste'molchi o'zining daromadi R ga ko'ra birinchi va ikkinchi ne'matlardan shunday X_1 va X_2 miqdorda sotib olinsinki, natijada ulardan oladigan umumiy naf maksimal bo'lsin (naflilik funksiyasi maksimal qiymatga erishsin): $TU = f(X_1, X_2) \rightarrow \max$, quyidagi shart bajarilsin: $P_1X_1 + P_2X_2 \leq R$, $X_1 \geq 0$ va $X_2 \geq 0$.

Iste'molchining tanlov masalasini echilishini grafikda ko'rib chiqamiz (6.14-rasm).



6.14-rasm. Iste'molchining muvozanat holati

Grafikdagi shtrixlangan uchburchak iste'molchining tanlov sohasi, ya'ni iste'mol majmualari (X_1, X_2) to'plami. TU_1 , TU_2 va TU_3 lar befarqlik egri chiziqlari, ya'ni naflilik darajalari chiziqlari.

Ma'lumki, ular quyidagi shartni qanoatlantiradi: $TU_1 < TU_2 < TU_3$. Tanlov sohasi bilan faqat TU_1 va TU_2 befarqlik egri chiziqlari kesishadi. TU_1 befarqlik egri chizig'i bo'yicha tanlov sohasidan olingan har qanday nuqta (masalan, A nuqta) naflilik funksiyasini maksimal qiymatini bermaydi.

(X_1^0, X_2^0) nuqtada byudjet chizig'i $P_1X_1 + P_2X_2 = R$ va TU_2 befarqlik egri chizig'i bir-biriga urinib o'tadi, natijada tanlov sohasi bilan kesishadigan byudjet chiziqlaridan eng yuqorisi aniqlanadi. Shunday qilib, iste'molning optimal (muvozanat) nuqtasida befarqlik egri chizig'i byudjet chizig'iga urinib o'tadi va shu sababli $MRS_{X_1, X_2} = \frac{P_1}{P_2}$, (A)


Bu tenglik shuni ko'rsatadiki, befarqlik egri chizig'i yotiqqligi (MRS) byudjet chizig'i yotiqqligi P_1/P_2 ga teng. Yuqorida, boshqa tomondan birinchi ne'mat bilan ikkinchi ne'matni befarqlik egri chizig'ining har bir nuqtasidagi chekli almashtirish normasi, ne'matlarning shu nuqtadagi chekli nafliliklari nisbatiga teng ekanligini aniqlagan edik:

$$MRS_{X_1, X_2} = \frac{MU_{X_1}}{MU_{X_2}}, \quad (B)$$

(A) va (B) formulalardan iste'molchining muvozanatlik sharti quyidagicha yozilishi mumkin:

$$MRS_{X_1, X_2} = \frac{MU_{X_1}}{MU_{X_2}} = \frac{P_1}{P_2} \quad \text{yoki} \quad \frac{MU_{X_1}}{P_1} = \frac{MU_{X_2}}{P_2}, \quad (C)$$

Muvozanatlik shartiga ko‘ra, ne‘matlar narxi, ularning chekli nafligiga to‘g‘ri proporsional (6.15-rasm).



6.15. Iste‘molchining muvozanatga erishish holati¹⁰

Demak, ne‘matning chekli nafligi qancha yuqori bo‘lsa, uning narxi shuncha yuqori bo‘ladi. Oxirgi munosabatdan foydalanib, N ne‘mat uchun iste‘molchining muvozanatlik shartini quyidagicha yozish mumkin:

$$\frac{MU_{X_i}}{P_i} = \frac{MU_{X_j}}{P_j}, \quad i = \overline{1, N}; \quad j = \overline{1, N}.$$

Shunday qilib, iste‘molchining muvozanat nuqtasida iste‘mol qilinadigan ne‘matlarning chekli naflari nisbati, shu ne‘matlar narxlarining nisbatiga teng. Bu muvozanatlik sharti ixtiyoriy miqdorda ne‘matlar qatnashgan iste‘molchining tanlovi masalasi uchun o‘rinlidir.

Muvozanatlik shartiga ko‘ra, iste‘molchi daromadini shunday taqsimlaydiki, natijada tovarlarning har biriga sarflangan oxirgi pul birligi (oxirgi so‘m, oxirgi dollar, oxirgi rubl) bir xil chekli naf keltirsin. Agar shunday bo‘lmasa, iste‘molchi kamroq chekli naf beradigan oxirgi so‘mini, ko‘proq chekli naf beradigan ne‘matga qayta taqsimlashi mumkin bo‘ladi.

Ikkita ne‘mat bo‘lganda, iste‘molchi o‘z nafligini maksimallashtiradi, qachonki quyidagi ikki shart bajarilsa. Birinchi shartga ko‘ra, bu ne‘matlar uchun MRS ,

¹⁰ Тарануха Ю.В. Микроэкономика (в структурно-логических схемах).– М.: Дело и сервис, 2002. – стр. 50 asosida tuzillangan.

ularning narxlari nisbatiga teng bo'lsa, ya'ni muvozanatlik sharti (S) bajarilsa. Ikkinchi shart - iste'molchining daromadi to'liq sarflansa ($P_1X_1 + P_2X_2 = R$ tenglik bajarilsa). Agar MRS har doim narxlar nisbatidan yuqori yoki pastda bo'lsa, u holda iste'molchi o'z nafligini faqat bitta tovar sotib olish bilan maksimallashtiradi.

Yuqoridagi shartlarga asoslangan holda iste'molchining tanlovi masalasining echilishi, talab funksiyasini oshkora ko'rinishda olishga imkon yaratadi. Ikkita ne'mat uchun quyidagi iste'molchi tanlovi masalasini qarab chiqamiz.

Naflilik funksiyasi:

$$TU(X_1, X_2) = X_1 \cdot X_2 \rightarrow \max, \quad P_1X_1 + P_2X_2 = R, \quad X_1 \geq 0, \quad X_2 \geq 0.$$

Optimallik shartidan

$$\frac{\partial U}{\partial X_1} = MU_1 = X_2; \quad \frac{\partial U}{\partial X_2} = MU_2 = X_1; \quad \frac{X_2}{X_1} = \frac{P_1}{P_2}.$$

Bu munosabatdan ne'matlarga sarflanadigan mablag'lar teng bo'lishi kerak:

$$X_2 \cdot P_2 = X_1 \cdot P_1, \quad X_2 = \frac{P_1}{P_2} \cdot X_1,$$

Bu munosabatni byudjet chizig'i tenglamasiga qo'yib $P_1X_1 + P_2 \cdot \frac{P_1}{P_2} \cdot X_1 = R$

birinchi ne'mat uchun talab funksiyasini aniqlaymiz: $X_1 = \frac{R}{2 \cdot P_1}$ va ikkinchi

ne'mat talab funksiyasi aniqlanadi: $X_2 = \frac{R}{2 \cdot P_2}$.

Qisqa xulosalar

Naflilik, narx va daromad - iste'molchi tanlovining asosini tashkil etadi.

Ne'matning naflligi - ne'matning insonning bir yoki bir nechta ehtiyojini qondira olish xususiyatidir. **Umumiy naflilik** biror ne'matdan ketma-ketlikda iste'mol qilib borilganda ulardan olingan jami naflilik yig'indisini ifodalaydi va u o'sib borish xususiyatiga ega. Shu bilan birga iste'mol to'yingan sharoitda umumiy naflilik o'zining maksimal qiymatiga erishadi. **Chekli naflilik** ne'matdan qo'shimcha bir birlik iste'mol qilish natijasida olinadigan qo'shimcha naf miqdorini ifodaladi.

Biror ne'matdan qo'shimcha bir birlik iste'mol qilganda (boshqa ne'matlar iste'moli hajmi o'zgarmaganda), qo'shimcha iste'mol qilingan birlik oldingisiga nisbatan kamroq naf beradi va uning bu xususiyatiga **chekli naflilikning kamayish qonuni** deyiladi.

Befarqlik egri chizig'i - bu iste'molchi uchun bir xil naf beruvchi ne'matlar kombinatsiyalarini ifodalaydi. Befarqlik egri chiziqlari majmuasi **befarqlik egri chiziqlari kartasini** hosil qiladi.

Ne'matlarning bir-birini o'rnini bosishi zonasi deb - bir ne'matni ikkinchi ne'mat bilan samarali almashtirish mumkin bo'lgan oraliqqa aytiladi.

Byudjet chizig'i tovarlar narxiga va iste'molchining daromadiga asoslanadi va u mavjud pul mablag'lari chegarasida iste'mol uchun qanday tovarlar majmuasini xarid qilish mumkinligini ko'rsatadi.

Iste'molning optimal (muvozanat) nuqtasida befarqlik egri chizig'i byudjet chizig'iga urinib o'tadi. Muvozanatlik shartiga ko'ra, iste'molchi daromadini shunday taqsimlaydiki, natijada tovarlarning har biriga sarflangan oxirgi pul birligi (oxirgi so'm, oxirgi dollar, oxirgi rubl) bir xil chekli naf keltirsin. Agar shunday bo'lmasa, iste'molchi kamroq chekli naf beradigan oxirgi so'mini, ko'proq chekli naf beradigan ne'matga qayta taqsimlashi mumkin bo'ladi.

Nazorat va muhokama uchun savollar


1. Iste'molchi tanlovini bozor sharoitida qaysi omillar belgilaydi?
2. Umumiy va chekli naflilik deganda nimani tushunasiz?
3. Naflilik funksiyasi nimani ifodalaydi?
4. Biror ne'matni ketma-ket iste'mol qilinganda maksimal naflilikka erishish sharti qanday?
5. Chekli naflilikning kamayish qonuni asosida nima yotadi?
6. Befarqlik egri chizig'i va ne'matlarni bir-birini o'rnini bosishi zonasi nimani ifodalaydi?
7. Byudjet chizig'i va byudjet tenglamasi nimani ifodalaydi?
8. Iste'molchining muvozanatlik shartini izohlab bering.

7-bob. DAROMAD VA ALMASHTIRISH SAMARASI

7.1. “Daromad-iste’mol chizig‘i” tahlili

Daromadning o‘zgarishi byudjet chizig‘ini o‘ziga parallel ravishda surilishiga olib keladi, nima uchun deganda, narxlar nisbati o‘zgarmaydi. Daromad oshganda, byudjet chizig‘i o‘ngga-yuqoriga suriladi, kamayganda pastga-chapga suriladi. Xuddi shunday siljishlar ne‘matlar narxi bir xil o‘zgarganda ham sodir bo‘ladi. Narxlarning pasayishi real daromadni oshiradi, natijada byudjet chizig‘i o‘ngga-yuqoriga suriladi. Xuddi shunday narxlarning o‘sishi, real daromadni kamaytiradi - byudjet chizig‘i pastga-chapga suriladi.

Real daromadning o‘sishi natijasida byudjet chizig‘i $A_1, A_2, A_3, \dots, A_n$ holatlarga ketma-ket suriladi (7.1-rasm).




7.1-rasm. “Daromad-iste’mol” chizig‘i

Daromadlarning o‘zgarishiga mos ravishda iste’molchining yangi holatdagi muvozanat nuqtalari o‘rnatiladi: $E_1, E_2, E_3, \dots, E_n$. Ushbu muvozanat nuqtalarini tutashtiruvchi chiziqni amerikalik olim Dj. Xiks “daromad-iste’mol” chizig‘i deb atadi va bu chiziq ilmiy adabiyotlarda “**turmush darajasi chizig‘i**” deb ham ataladi.

Agar “daromad-iste’mol” chizig‘i koordinata boshidan 45° burchak ostidagi to‘g‘ri chiziqdan iborat bo‘lsa, daromadning o‘sishi, iste’molchining iste’mol qiladigan ne‘matlari bir xil nisbatda o‘sadi. Agar iste’molchi ne‘matlarni har xil nisbatda xarid qilsa, W chizig‘ining yotliqligi o‘zgaradi. 7.1-rasmdagi koordinata

boshida Y tovarni xarid qilish X tovarga nisbatan tezroq sur'atda o'sadi, keyinchalik Y tovarni xarid qilish susayib, X tovar bilan barqarorlashadi.

XIX asrdayoq real daromad oshishi bilan birlamchi ehtiyoj ne'matlariga talab qisqarib borib, ikkilamchi ehtiyoj ne'matlariga talab oshib borishi isbotlangan. Nemis olimi Ernst Engel (1821-1896) birinchi bo'lib daromad o'zgarishining iste'mol tarkibiga ta'sirini tadqiq qilgan. Tovarlar tarkibining daromadga nisbatan o'zgarishini ifodalovchi chiziqlar, **Engel egri chiziqlari** deyiladi (7.2-rasm).




7.2-rasm. Engel egri chiziqlari

Gorizontaal o'q bo'ylab iste'molchi daromadini (R) va ordinata o'qi bo'ylab xarid qilinadigan tovarlar miqdorini (Q) belgilangan. Iste'molchi ehtiyoji birinchi navbatda kundalik zaruriy ehtiyoj tovarlari (Q_1), ikkinchi navbatda standart sifatli sanoat mahsulotlari (Q_2) va nihoyat, keyinchalik oliy kategoriyali tovarlar (Q_3) bilan to'yinadi. Yana shu holat aniqlanganki, oliy sifatli tovarlar va xizmatlarga talab oshganda ham, kundalik hayotda foydalaniladigan standart sifatli sanoat mahsulotlariga talabning kuchayishi qonuniyati kuzatilgan.

7.2. "Narx-iste'mol" chizig'i tahlili

Yuqorida "daromad-iste'mol" chizig'i tahlil qilinganda, ne'matlar narxi o'zgarmaydi deb faraz qilingan edi. Endi daromadni o'zgarimas deb qabul qilgan holda, ne'matlardan birini, masalan, X ne'matning narxini o'zgaruvchan, Y ne'matnikini esa o'zgarimas deb qaraymiz. Faraz qilaylik, X ne'matning narxi (P) pasayib bormoqda, ya'ni $P > P_1 > P_2 > P_3$. Grafikda narxning bunday o'zgarishi, byudjet chizig'ini AB holatdan AB_1 , AB_2 va AB_3 holatlarga siljitadi (7.3-rasm). Masalan, X tovar olma, Y tovar apelsin bo'lsin. (a) rasmda apelsin narxi o'zgarmaydi, olma narxi pasayib bormoqda. Natijada byudjet chizig'ining Y o'q bilan kesishgan nuqtasi o'zgarmaydi, X o'q bilan kesishgan nuqtasi o'ng tomonga surilib boradi. Olma narxini tushishi real daromadni oshiradi, natijada iste'molchi olma narxi

oshmasdan oldin xarid qilolmagan apelsin va olma majmualarini endi sotib olishi mumkin bo‘ladi.




7.3-rasm . “Narx-iste‘mol”(a) va talab chizig‘i (b)

Iste‘molchi endi bir birlik qo‘shimcha olma olish uchun, oldingidan kamroq miqdordagi apelsindan voz kechadi. Masalan, bitta apelsin narxi 2000 so‘m va bitta olma narxi 1000 so‘m bo‘lsa, bitta apelsinga yarimta olma to‘g‘ri keladi, bitta olma narxi 500 so‘mga tushsa, qo‘shimcha bitta olma olish uchun 1/4 qism apelsindan voz kechishi kerak. Olma narxining pasayishi, ma‘lum miqdordagi olmani apelsin bilan almashtirish imkoniyatini yaratadi. Natijada optimal majmua (apelsin va olmaning optimal miqdori) E nuqtadan yuqoriroq naflik darajasiga ega bo‘lgan befarqlik egri chiziqlarida joylashgan E_1, E_2 va E_3 nuqtalarga o‘tadi.

Agar biz optimal majmua nuqtalarini (befarqlik egri chiziqlari bilan byudjet chiziqlari kesishgan nuqtalarni) chiziq bilan birlashtirsak, bu chiziq “Narx-iste‘mol” chizig‘i bo‘ladi (a rasmdagi V chizig‘i). “Narx-iste‘mol” chizig‘iga ko‘ra talab chizig‘ini aniqlash mumkin (b) rasm. Bu holda ordinata bo‘yicha narx (P), absissa o‘qi bo‘yicha X ne‘mat miqdori belgilanadi.

7.3. Daromad samarasi va almashtirish samarasi

“Daromad-iste’mol” chizig‘ini tahlil qilganimizda, daromad o‘zgarishini (narxlar o‘zgarganda) iste’molga ta’sirini o‘rgangan edik. “Narx-iste’mol” chizig‘i orqali narxlarning o‘zgarishini bir ne’mat bilan boshqa bir ne’matni nisbiy almashtirishga ta’siri o‘rganiladi. Endi biz X ne’matga bo‘lgan talabni o‘zgarishining qancha qismi narx bilan bog‘liq va qancha qismi daromad bilan bog‘liqligini ko‘rib chiqamiz (7.4-rasm).



7.4-rasm. Normal tovarlar uchun daromad samarasi

Narxning har qanday pasayishi, birinchidan: real daromadni oshiradi, natijada befarqlik egri chizig‘i suriladi va iste’molchi sotib olishi mumkin bo‘lgan ne’matlar tarkibini o‘zgartiradi; ikkinchidan - narxlar nisbatini o‘zgartiradi va bir ne’matni (Y) boshqa ne’mat (X) bilan almashtiriladi.


Ne’matlar majmuasiga (X va Y ne’matlar) bo‘lgan talab o‘zgarishining qancha qismi real daromad ta’siri va qancha qismi narxning pasayishi bilan bog‘liq ekanligini aniqlamoqchimiz. 7.4-rasmda byudjet chizig‘ining boshlang‘ich holati YX va X ne’mat narxi pasaygandan keyingi holati YX' keltirilgan. Boshlang‘ich byudjet chizig‘ida TU_1 befarqlik egri chizig‘iga mos keluvchi optimal majmua E_1 nuqta bilan ifodalangan. E_1 nuqtada iste’molchi Y ne’matdan Y_1 miqdorda, X ne’matdan X_1 miqdorda sotib oladi. X ne’matning narxi tushgandan keyin, yangi optimal majmua YX' byudjet chizig‘i bilan TU_2 befarqlik egri chiziqlari kesishgan E_2 nuqtaga o‘tadi. E_2 nuqtada iste’molchi X ne’matdan X_2 miqdorda va Y tovardan Y_2 miqdorda sotib oladi. Demak, X ne’mat narxining pasayishi iste’molchining real daromadini, uning tovar sotib olish imkoniyatini oshiradi, ya’ni uning o‘z ehtiyojini qondirish darajasini oshiradi.

Bu yerda X ne'matni iste'mol qilish hajmining umumiy o'zgarishi (uning narxi tushishi hisobidan) rasmda X_1X_2 bilan belgilangan. Iste'molchi boshida OX_1 miqdorda X ne'matdan sotib oladi, narx o'zgargandan keyin sotib olish hajmi OX_2 ga o'zgaradi. Y tovarni sotib olish hajmi OY_1 dan OY_2 ga qisqardi.

X ne'mat iste'molining umumiy o'zgarishi X_1X_2 oraliqqa umumiy samara deyiladi. Endi umumiy samarani daromad samarasiga va almashtirish samarasiga qanday ajralishini ko'ramiz.

Daromad samarasini aniqlash uchun YX' byudjet chizig'iga parallel qilib $Y'X''$ byudjet chizig'ini TU_1 befarqlik egri chizig'iga urinadigan qilib o'tkazamiz va bu uringan nuqtani E_3 deb belgilaymiz. E_3 nuqtaga mos keluvchi optimal majmuadagi X ne'mat miqdori X_3 ga teng va u X_1X_2 umumiy samarani ikki qismga ajratadi: X_1X_3 va X_3X_2 . Parallel ikki byudjet chizig'i orasida yotgan X_3X_2 o'zgarishga **daromad samarasi** va bitta befarqlik egri chizig'i ustida yotgan X_1X_3 o'zgarishga - **almashtirish samarasi** deyiladi.

Daromad va almashtirish samarasini talab o'zgarishiga ta'siri 7.5-rasmda keltirilgan.



7.5-rasm. Daromad va almashtirish samarasini talab o'zgarishiga ta'siri

Daromad samarasi - bu ne'mat narxi o'zgarishi (almashish samarasi hisobga olinmaganda) natijasida real daromad o'zgarishining iste'molchi talabiga ta'siridir.

Daromad samarasi iste'molchining sotib olish imkoniyatini oshganligini ko'rsatadi va u bir byudjet chizig'idan boshqa byudjet chizig'iga iste'molchining optimal tovarlar majmuasiga o'tishini aks ettiradi.

Almashish samarasi - bu naflik darajasi o'zgarmaganda, tovarlar narxi o'zgarishi munosabati bilan iste'mol tovarlariga talab tarkibining o'zgarishidir. Almashish samarasi X ne'mat narxini o'zgarishi natijasida Y ne'matni qo'shimcha X ne'mat bilan almashtirilishini ifodalaydi. Bu almashtirish befarqlik egri chizig'i TU_1 bo'yicha bo'ladi.

Bozor sharoitida daromad samarasi va almashtirish samarasini ajratilishi, tovarlarga narx belgilashdagi qonuniyatlarni yaxshiroq tushunishga yordam beradi. Biz daromad va almashtirish samaralarini normal tovarlar uchun ko'rib chiqdik. Past kategoriyali tovarlar uchun daromad va almashtirish samaralari o'z xususiyatlariga ega.

7.4. Yakka va bozor talabi

Bozor talabi alohida bozordagi iste'molchilarning individual talablari yig'indisi bilan aniqlanadi. Bozor talabi chizig'i esa ma'lum bozordagi iste'molchilarning individual talablari chiziqlarini qo'shish orqali olinish mumkin.

Faraz qilaylik, oziq-ovqat bozorida (masalani soddalashtirish uchun) uchta A , B va V iste'molchilar harakat qiladi deylik.

Quyidagi jadvalda (7.1-jadval) har bir iste'molchining berilgan narxlarda oziq-ovqatga bo'lgan talabi keltirilgan.

7.1-jadval


Yakka va bozor talabi

Oziq-ovqat narxi, so'm (P)	Yakka iste'molchilar talabi			Umumiy bozor talabi, birlikda
	A	B	V	
1000	4	6	8	18
2000	3	5	7	15
3000	2	4	6	12
4000	1	3	5	9
5000	0	2	4	6

Manba: shartli raqamlar

Oxirgi ustunda umumiy bozor talabi keltirigan va ular iste'molchilarning individual talablarini qo'shish orqali aniqlangan. Masalan, oziq-ovqat narxi 1000 so'm bo'lganda, umumiy bozor talabi quyidagicha hisoblanadi: $4 + 6 + 8 = 18$.

Quyidagi 7.6-rasmda ushbu iste'molchilarning yakka talab chiziqlari va bozor talab chizig'i keltirilgan.



7.6-rasm. Iste'molchilar talab chiziqlari va bozor talabi chizig'i

Bozor talabi chizig'i har bir iste'molchining berilgan narxlardagi talablarini qo'shish orqali hosil qilingan. Bozor talabi chizig'ining har bir nuqtasi berilgan narxda uchta iste'molchi uchun qancha oziq-ovqat birligi kerakligini ko'rsatadi. Masalan, narx 3000 so'm bo'lganda, bozor talabi 12 birlik bo'lib, u A, B va V iste'molchilarning narx 3000 so'm bo'lgandagi talablari yig'indisiga teng $(2 + 4 + 6) = 12$.

Iste'molchilarning individual talablari chiziqlari to'g'ri chiziqlardan iborat bo'lgani bilan bozor talab chizig'i ham to'g'ri chiziqdan iborat bo'lishi shart emas. Nima uchun deganda, yuqori narxlarda ba'zi bir iste'molchilar tovarni sotib olmasligi ham mumkin yoki ular har xil miqdorda sotib olishi mumkin.

Yana shuni ta'kidlash lozimki, iste'molchilar talablariga ta'sir qiluvchi barcha omillar bozor talabiga ham ta'sir qiladi. Masalan, iste'molchilar sonining oshib borishi bozor talab chizig'ini o'ngga, tepaga siljitadi yoki bo'lmasa, iste'molchilar daromadlarini ortishi, ularning oziq-ovqatga bo'lgan talabini oshiradi. Bu o'z navbatida bozor talab chizig'ini o'ngga-tepaga surilishiga olib keladi.

Umuman olganda, bozor talabini aniqlashda har xil demografik guruhlariga qarashli iste'molchilar talablarini yig'ishga, har xil hududlarda yashovchi iste'molchilar talablarini yig'ishga to'g'ri keladi. Masalan, muzqaymoqqa bo'lgan bozor talabi o'rganilganda yosh bolalar talabi, o'smirlar talabi, ayollar talabi, nafaqaxo'rlar talabi to'g'risidagi axborotlarni olishga va ularni jamlashga to'g'ri keladi. Xuddi shu masalani hududlar bo'yicha aniqlash ham mumkin.

Bozor talabi chizig'ini va shu bilan birga individual talab chizig'ini ifodalashda tovarlarning narx bo'yicha elastiklik koeffitsiyentidan foydalanish mumkin. Biz yuqorida ko'rgan edikki, agar talab narx bo'yicha elastik bo'lsa, narxning pasayishi iste'molchini tovardan ko'proq sotib olishga undaydi. Natijada iste'molchining tovar sotib olishga sarfi o'sadi, narx oshganda iste'molchi sarfi kamayadi. Agar talab elastik bo'lmasa, narx oshganda iste'molchi sarfi ham oshadi, narx pasayganda

kamayadi. Bordiyu talab birlik elastiklikka ega bo'lsa, narx oshganda ham, oshmaganda ham iste'molchining tovar sotib olishga sarfi o'zgarmaydi.

Qisqa xulosalar

Daromadning o'zgarishi byudjet chizig'ini o'ziga parallel ravishda surilishiga olib keladi, nima uchun deganda, narxlar nisbati o'zgarmaydi. Daromad oshganda, byudjet chizig'i o'ngga-yuqoriga suriladi, kamayganda pastga-chapga suriladi. Daromadlarning o'zgarishiga mos ravishda iste'molchining yangi holatdagi muvozanat nuqtalari o'rnatiladi. Ushbu muvozanat nuqtalarini tutashtiruvchi chiziqni amerikalik olim Dj. Xiks "**daromad-iste'mol**" chizig'i deb atadi va bu chiziq ilmiy adabiyotlarda "**turmush darajasi chizig'i**" deb ham ataladi.

Real daromad oshishi bilan birlamchi ehtiyoj ne'matlariga talab qisqarib borib, ikkilamchi ehtiyoj ne'matlariga talab oshib borishi isbotlangan. Nemis olimi Ernst Engel (1821-1896) birinchi bo'lib daromad o'zgarishining iste'mol tarkibiga ta'sirini tadqiq qilgan. Tovarlar tarkibining daromadga nisbatan o'zgarishini ifodalovchi chiziqlar, **Engel egri chiziqlari** deyiladi

Daromad samarasi - bu ne'mat narxi o'zgarishi (almashish samarasi hisobga olinmaganda) natijasida real daromad o'zgarishining iste'molchi talabiga ta'siridir. Daromad samarasi iste'molchining sotib olish imkoniyatini oshganligini ko'rsatadi va u bir byudjet chizig'idan boshqa byudjet chizig'iga iste'molchining optimal tovarlar majmuasiga o'tishini aks ettiradi.

Almashish samarasi - bu naflik darajasi o'zgarmaganda, tovarlar narxi o'zgarishi munosabati bilan iste'mol tovarlariga talab tarkibining o'zgarishidir. Almashish samarasi X ne'mat narxini o'zgarishi natijasida Y ne'matni qo'shimcha X ne'mat bilan almashtirilishini ifodalaydi. Bu almashtirish befarqlik egri chizig'i TU_1 bo'yicha bo'ladi.

Muvozanatlik shartiga ko'ra, iste'molchi daromadini shunday taqsimlaydiki, natijada tovarlarning har biriga sarflangan oxirgi pul birligi (oxirgi so'm, oxirgi dollar, oxirgi rubl) bir xil chekli naf keltirsin. Agar shunday bo'lmasa, iste'molchi kamroq chekli naf beradigan oxirgi so'mini, ko'proq chekli naf beradigan ne'matga qayta taqsimlashi mumkin bo'ladi.

Nazorat va muhokama uchun savollar

1. "Daromad-iste'mol" chizig'i nimani ifodalaydi?
2. "Engel egri chiziqlari" deb nimaga aytiladi?
3. "Narx-iste'mol" chizig'i nimani ifodalaydi?
4. Daromad samarasi qanday holatda yuz beradi?
5. Almashtirish samarasi qanday holatda yuz beradi?
6. Yakka va bozor talabi qanday farqlanadi?

8-bob. BOZOR VA TAVAKKALCHILIK

8.1. Noaniqlik sharoitida tanlov

Kelajakka taalluqli har qanday harakat noaniq natijaga ega. Daromadlarimizning bir qismini bankka depozitga joylashtirganimizda bankdan pulni qaytarib oladigan davrda uning xarid quvvati qancha bo'lishini bilmaymiz, negaki o'tadigan davr oralig'ida inflyasiya sur'atlari qanchalik o'sishi bizga noma'lum. Yoki biror maqsadda bankdan uzoq muddatli kredit olib, uni kelgusida oladigan daromadlarimizdan qoplashni rejalashtiramiz. Ammo kelgusida oladigan daromadlarimiz har doim ham aniq bo'lavermaydi.

Bugun xarid qilingan aksiyaning bo'lg'usi qiymati ham bizga noma'lum, chunki biz aksiyasini xarid qilgan aksiyadorlik kompaniyasining kelgusidagi moliyaviy holati, obro'-e'tibori va dividend siyosati fond bozorlarida aksiya qiymatiga kuchli ta'sir ko'rsatadi.

Tadbirkorlik faoliyati — tadbirkorlik faoliyati sub'ektlari tomonidan amalga oshiriladigan, tavakkal qilib va o'z mulkiy javobgarligi ostida daromad (foyda) olishga qaratilgan tashabbuskor faoliyat. Demak, tadbirkorlikka yoki daromad olish uchun tikilgan kapitalning qiymati kelgusida undan olinadigan daromad qiymatiga bog'liq ekan, demak u noaniqlik va risk (tavakkalchilik) bilan bo'langan ekan.

Risk (tavakkalchilik) – bu har qanday usul bilan baholangan ehtimollik, noaniqlik esa baholab bo'lmaydigan holat.

Noaniqlik sharoitida iste'molchilar tomonidan ham, ishlab chiqaruvchilar tomonidan ham sotuvchi va xaridorlar sifatida qaror qabul qilishga to'g'ri keladi va bu qabul qilingan qarorlar albatta, ma'lum darajadagi risklar (tavakkalchilik) bilan bog'liq bo'lishi mumkin. Noaniqlik cheklangan resurslarni samarasiz taqsimlanishiga, ortiqcha sarflarga, vaqtni yo'qotishga olib keladi.

Shu vaqtgacha biz barcha ko'rsatkichlar (narx, iste'molchi daromadi, ishlab chiqarilgan mahsulot miqdori, olinadigan foyda, xarajatlar) aniq berilgan deb keldik. Lekin, real hayotda bozor sub'ektlari tomonidan qabul qilinadigan qaror noaniqliklar bilan bog'liq. Ma'lumki, to'g'ri qaror qabul qilishning asosiy sharti - bu axborot. Noaniqlik sharoitida qaror qabul qilish deganda, to'liq axborot bo'lmaganda qaror qabul qilish tushuniladi. Biror voqea yoki hodisa to'g'risida axborot to'liq bo'lmasa, qabul qilingan qaror salbiy oqibatlariga, ya'ni ma'lum yo'qotishlarga olib keladi. Ushbu yo'qotishlar **tavakkalchilikni** bildiradi.

Noaniqlik sharoitida qaror qabul qilishda tavakkalchilik (yo'qotish) darajasini bilish, uni oldini olish uchun, tavakkalchilik darajasini kamaytirish uchun, chora tadbirlar ko'rishga imkon beradi.

Tavakkalchilikni o'lchash. Tavakkalchilikni o'lchashning asosi ehtimol tushunchasi bilan bog'liq. Amerikalik olim F.Nayt (1885-1974) ehtimolni ikki turga bo'ladi: matematik, ya'ni oldindan aniqlash mumkin bo'lgan ehtimol va statistik ehtimol. Birinchi tur ehtimolga tanganing raqam yoki gerb tomonini tushish ehtimoli $1/2$ ga tengligi yoki o'ynaydigan olti qirrali toshning oltita raqamidan bittasini tushishi ehtimolining $1/6$ ga tengligi misol bo'lishi mumkin.

Ikkinchi turdagi ehtimolni empirik, ya'ni faraz qilish yo'li orqali aniqlash mumkin. Masalan, korxonaga xom ashyoni vaqtida etib kelmaslik ehtimoli faraz qilinganda, ushbu faraz qilingan raqam baholovchining bilimiga tajribasiga asoslanadi. Nima uchun deganda, ushbu voqeaning takrorlanishi to'g'risida statistik ma'lumotlar yo'q. Ehtimol sub'ektiv ravishda aniqlanganda, bitta hodisani har xil insonlar har xil qiymatdagi ehtimol bilan baholaydi.

Yuqoridagi misolda voqeaga ta'sir qiluvchi tasodifiy omillar ko'p va ularni hammasini bartaraf qilish mumkin emas. Bundan tashqari, bu yerda teng ehtimolli alternativ variantlarning o'zini yo'qligi ehtimolni matematik hisob-kitoblar orqali aniqlashga imkon bermaydi.

Birinchi turdagi ehtimolni ob'ektiv ehtimol desak, u iqtisodiyotda kamroq uchraydi, ikkinchi turdagi ehtimol sub'ektiv ehtimol bo'lib, biznesga xosdir. Ham ob'ektiv va ham sub'ektiv ehtimollar tavakkalchilik darajasini ifodalashda va tanlashda foydalaniladi. Ob'ektiv ehtimol o'rtacha qiymatni aniqlashga yordam bersa, sub'ektiv ehtimol olinishi mumkin bo'lgan natijalarning o'zgaruvchanlik mezonini aniqlashga yordam beradi. Tavakkalchilikni miqdoriy aniqlash uchun biror voqea yoki hodisaning olib kelishi mumkin bo'lgan oqibatlarini va bu oqibatlarning ehtimolini bilish kerak bo'ladi.

Kutiladigan miqdor - bu mumkin bo'lgan barcha natijalarning o'rtacha o'lgangan qiymatlari. Bu yerda har bir natijaning ehtimoli ushbu mos qiymatlarning takrorlanish chastotasi yoki o'lchovi.

$$E(X) = \pi_1 x_1 + \pi_2 x_2 + \dots + \pi_n x_n = \sum_{i=1}^n \pi_i x_i,$$

Bu yerda: x_i - mumkin bo'lgan natija; π_i - ushbu natijaning paydo bo'lish

ehtimoli, $\sum_{i=1}^n \pi_i = 1$.

Masalan, firma yangi mahsulot ishlab chiqarmoqchi, agar firmaning yangi mahsuloti bozorda muvaffaqiyatga erishsa, har bir aksiyani 10000 so'mdan sotish mumkin, agar muvaffaqiyatga erishmasa, bir aksiya uchun 1000 so'm olinadi. Firma mahsulotining bozorda muvaffaqiyatga erishish ehtimoli 0,6 ga teng bo'lsa, kutiladigan dividend qiymati quyidagicha aniqlanadi:

$$E(X) = 0,6 \cdot 10000 + 0,4 \cdot 1000 = 6400 \text{ so'm/aksiya.}$$

Chetlanish - bu haqiqiy natija bilan kutiladigan natija o'rtasidagi farq bo'lib, u tavakkalchilikdan (yo'qotishdan) darak beradi. Ushbu farq qancha katta bo'lsa yo'qotish, ya'ni tavakkalchilik ham shuncha yuqori bo'ladi. Faraz qilaylik tadbirkorning bir oylik soliq to'lovi 400 ming so'm, soliq to'lashdan qochganlik uchun jarima 10 000 ming so'm. Agar soliq inspeksiyasining yashirgan soliqni aniqlash ehtimoli 1/5 bo'lsa, tadbirkor uchun natijaning kutiladigan qiymati:

$$E(x) = 4/5 \times 400 - 1/5 \times 10\,000 = 320 - 2000 = -1\,680 \text{ ming so'm.}$$

Demak, soliqdan qochish tadbirkorga foyda keltirishdan ko'ra zararli ekan.

Noaniq holat natijalarining mumkin bo'lgan chegaralari – o'zgaruvchanlik deb ataladi. Faraz qilaylik talaba o'qishdan keyin qo'shimcha ish izlayapti. Uning uchun ikkita variant mavjud. Birinchisi, firmada sotish bo'yicha menedjer bo'lib ishlash, unda sotilgan mahsulotdan % shaklida maosh oladi. Agar tovar aylanmasi yaxshi bo'lsa, oyiga 1 500 ming so'm, yomon holatda esa 800 ming so'm maosh olish ehtimoli bor. Sotish hajmini yaxshi yoki yomon bo'lish ehtimoli 1/2.

Ikkinchi variant firma adminstrasiyasida qat'iy belgilangan oklad bo'yicha maosh olish. Bunda maosh miqdori 900 ming so'm, ammo shtat qisqarib, talaba ishsiz qolishi va bo'shaganda 700 ming so'm kompensasiya olishi mumkin (ehtimoli 10 %). Quyidagi 8.1-jadvalda mumkin bo'lgan natijalar va ularning ehtimoli keltirilgan.

8.1- jadval

Ish joylari variantlari bo'yicha daromad olish ehtimoli

Oylik maoshi	1- natija		2 – natija	
	Ehtimoli	Daromad, ming so'm	Ehtimoli	Daromad, ming so'm
Sotuvdan foiz shaklida	0,5	1 500	0,5	800
Qat'iy oklad	0,9	900	0,1	700

Manba: shartli raqamlar

Bunda ikkala ish joyidan olinishi kutiladigan daromad miqdori:

Birinchi variantda: $E(x) = 0,5 \times 1\,500 + 0,5 \times 800 = 1\,150$ ming so'm;

Ikkinchi variantda: $E(x) = 0,9 \times 900 + 0,1 \times 700 = 880$ ming so'm.

Ikkala ish joyi uchun ham mumkin bo'lgan natijalarning o'zgaruvchanligi har xil. Ushbu o'zgaruvchanlikka ko'ra tavakkalchilikni tahlil qilish va uning katta yoki kichikligi to'g'risida gapirish mumkin. Bunday mezonga ko'ra, haqiqiy natija bilan kutiladigan natija o'rtasidagi farq (u musbat yoki manfiy bo'lishidan qat'iy nazar) qancha katta bo'lsa, bunday chetlanish shuncha katta tavakkalchilik bilan bog'liq ekanligidan darak beradi.

Amaliyotda chetlanishni o'lchash uchun bir-biridan farq qiladigan ikkita mezon ishlatiladi. Birinchisi, dispersiya bo'lib, u haqiqiy natijadan kutiladigan natijani ayrilganining o'rtacha o'lchovi miqdori kvadratiga teng, ya'ni:

$$\sigma^2 = \sum_{i=1}^n \pi_i [x_i - E(x)]^2$$

Bu yerda: σ^2 -dispersiya; π_i - i -natijaning ehtimoli; x_i - mumkin bo'lgan natija; $E(x)$ - kutiladigan natija.

Bizning misolimizda: $\sigma^2 = \pi_1 [x_1 - E(x)]^2 + \pi_2 [x_2 - E(x)]^2$.

Ushbu formuladan foydalanib quyidagi jadvalda ikkita daromad manbai uchun haqiqiy natijalarning kutiladigan natijalardan chetlanishini topamiz (8.2-jadval).

Haqiqiy natijalarni kutiladigan natijalardan chetlanishi, ming so‘mda

Ish joyi	Sotuvdan foiz shaklida		Qat’iy oklad shaklida	
	natija	Chetlanish	natija	chetlanish
Birinchi	1 500	350	800	350
Ikkinchi	900	20	700	180

Manba: shartli raqamlar

$$\sigma_1^2 = 0,5 (1500 - 1150)^2 + 0,5 (800 - 1150)^2 = 61\,250 + 61\,250 = 122\,500$$

$$\sigma_2^2 = 0,9 (900 - 880)^2 + 0,1 (700 - 880)^2 = 360 + 3\,240 = 3\,600$$

Ko‘rinib turibdiki, har ikkala variant dispersiyalari keskin farq qiladi. Agar bu dispersiyalarni kvadrat ildizdan chiqarsak standart (o‘rtacha kvadrat) chetlanish hosil bo‘ladi.

Standart chetlanish (o‘rtacha kvadratik chetlanish ham deyiladi), bu dispersiyadan olingan kvadrat ildizga teng, ya’ni: $\sigma = \sqrt{\sigma^2}$, bu yerda σ - standart chetlanish.

Birinchi ish joyi uchun standart chetlanish $\sigma_1 = \sqrt{122500} = 350$ so‘m.

Xuddi shunday yo‘l bilan ikkinchi ish joyi uchun standart chetlanish $\sigma_2 = \sqrt{3600} = 60$ so‘m.


Bu shundan darak beradiki, birinchi variantda ikkinchi variantga nisbatan tavakkalchilik (risk) yuqori. Ikkala mezon ham bu yerda bir hil vazifani bajaradi, gap ularning qaysi biri foydalanishda o‘ng‘ayligida. Ko‘rinib turibdiki ikkala holda ham ikkinchi ish joyi birinchiga qaraganda kamroq tavakkalchilikka (yo‘qotishga) ega.

8.2. Tavakkalchilikka bo‘lgan munosabat

Yuqoridagi misoldan ko‘rdikki, kim tavakkalchilikka borishga moyil bo‘lmasa, ikkinchi ish joyiga boradi, nima uchun deganda bu ish joyida kutiladigan daromad kamroq tavakkalchilik bilan bog‘liq.

Insonlar tavakkalchilikka borishga tayyorligi bo‘yicha uch turga bo‘linadi: tavakkalchilikka borishga moyil, tavakkalchilikka qarshi, ya’ni moyil emas va tavakkalchilikka befarq qaraydigan insonlar.

Tavakkalchilikka qarshi bo‘lgan inson deganda shunday inson tushuniladiki, kutiladigan daromad berilganda, u tavakkalchilik bilan bog‘liq natijalarga nisbatan, kafolatlangan natijani ustun ko‘radi. Agar tavakkalchilikka qarshi insonni iste‘molchi deb qarash va u oladigan daromadiga iste‘mol tovarlar majmuasini sotib olib, uni iste‘mol qilishdan ma‘lum darajada naf oladi deb faraz qilsak, biz iste‘molchining tavakkalchilik bilan bog‘liq daromadining naflik darajasi bilan qanday bog‘liq ekanligini ko‘rishimiz mumkin (8.1-rasm).




8.1-rasm. Tavakkalchilikka moyil bo'lmagan holat

Tavakkalchilikka qarshi inson daromadi past darajadagi chekli naflikka ega ekanligini ko'ramiz. Rasmdan ko'rish mumkinki, har bir birlik qo'shimcha daromadga to'g'ri keladigan qo'shimcha naflik daromad oshishi bilan kamayib bormoqda. Masalan, 20-30 ming so'mlik daromad oralig'idagi har ming so'm daromadga 0,8 birlik naf to'g'ri kelsa, 40-70 ming so'mlik oralig'ida daromadga 0,13 naf birligi to'g'ri kelyapti. Chekli naflikni kamayishi insonlarda tavakkalchilikka salbiy munosabatini kuchaytiradi. Shuning uchun ham tavakkalchilikka borishga moyillikning yo'qligi ko'pchilik insonlarga xosdir. Tavakkalchilik ular uchun og'ir sinovdek hisoblanadi va ular ma'lum kompensatsiya bo'lgandagina tavakkalchilikka borishi mumkin.

Tavakkalchilikka befarq qaraydigan inson shunday inson hisoblanadiki, kutiladigan daromad berilganda, u kafolatlangan natija bilan tavakkalchilik bilan bog'liq natijalarni tanlashga befarq qaraydi. Tavakkalchilikka neytral qaraydigan inson uchun o'rtacha foyda muhim hisoblanadi.


O'rtacha qiymatga nisbatan cheklanishlar bir-biri bilan qisqarib, umumiy chetlanishlar nolga teng bo'lgani uchun ham ushbu chetlanishlar uni qiziqirmaydi. Tavakkalchilikka befarqlik koordinata boshidan chiqadigan to'g'ri chiziq sifatida ifodalanishi mumkin (8.2-rasm).

Daromadning bir tekisda o'zgarishi umumiy naflikni to'g'ri chiziq bo'yicha o'sishga olib keladi. Tavakkalchilikka moyil bo'lgan inson, shunday inson hisoblanadiki, kutiladigan daromad berilganda u kafolatlangan natijaga ko'ra tavakkalchilik bilan bog'liq natijani ustun ko'radi.



8.2-rasm. Tavakkachilikka befarqlik

Tavakkalchilikka qiziqadigan inson undan bahra oladi. Bunday turdagi insonlarga o'z taqdirini sinab ko'rishdan bahramand bo'lish uchun barqaror daromaddan voz kecha oladigan insonlar kiradi. Ular yutish ehtimoliga yuqori baho berib yuboradilar. Tavakkalchilikka moyillik grafigi keskin sur'atda ortib borayotgan parabola grafigi orqali ifodalanishi mumkin (8.3-rasm).



8.3-rasm. Tavakkalchilikka moyillik

Hayotda va umuman barcha bozor sub'ektlari tavakkalchilikni e'tiborga oladi. Ko'chalardagi, bozorlardagi har xil firibgarlar tavakkalchilikka moyil insonlar hisobidan boylik orttirsam, sug'urta kompaniyalari tavakkalchilikka moyil bo'lmagan insonlarni yo'qotishlarini kamaytirishga xizmat qiladilar.

8.3. Tavakkalchilikni (yo‘qotishlarni) pasaytirish

Tavakkalchilikni pasaytirishning quyidagi turlari mavjud: diversifikatsiya, sug‘urtalash, tavakkalchilikni birlashtirish, tavakkalchilikni taqsimlash, axborot izlash, fyuchers, opsiya, xedjerlash va boshqalar.

Diversifikatsiya usulida tavakkalchilik bir necha tovarlarga taqsimlanadi, ya'ni biror tovarni sotish (sotib olish) yuqori tavakkalchilik bilan bog‘liq bo‘lishi boshqa bir tovarni sotishdan (sotib olishdan) bo‘ladigan tavakkalchilikni kamaytirishga olib keladi.

Masalan, biror firma ikki xil mahsulot ishlab chiqaradi. Ma'lumki, bir vaqtning o'zida ikkala mahsulot turiga bo'lgan talabning kamayib ketish ehtimoli, ulardan bittasiga bo'lgan talabni kamayib ketish ehtimolidan yuqori. Ko'p hollarda bir turdagi mahsulotga bo'lgan talab kamayganda ikkinchi turdagi mahsulotga bo'lgan talab oshadi. quyidagi 8.3-jadvalda ikki turdagi mahsulotdan olinadigan daromadlar keltirilgan.

8.3- jadval

Tovarlarni sotishdan tushgan daromad

Tovarlarni turi	Yoz fasli	Qish fasli
1-tur (muzqaymoq)	150 mln. so‘m	5 mln. so‘m
2-tur (kofe va issiq choy)	50 mln. so‘m	120 mln. so‘m

Manba: shartli raqamlar

Firma o‘z ishlab chiqarishini diversifikatsiya qilib yoz oyida ikkinchi tur tovar hisobidan yo‘qotadigan daromadini birinchi tur tovarni ko‘proq sotish hisobidan qoplaydi. Xuddi shunday qish faslidagi yo‘qotishlar ikkinchi tur tovar hisobidan qoplanadi. Ko‘rinib turibdiki firma diversifikatsiya yo‘li bilan tavakkalchilikni kamaytirdi. Lekin, diversifikatsiya tavakkalchilikni to‘liq yo‘qotmaydi, u faqat kamaytiradi xolos.

Tavakkalchiliklarni qo‘shish - ushbu usul tasodifiy yo‘qotishlarni o‘zgaras xarajatlarga aylantirish orqali tavakkalchilikni kamaytirishga qaratilgan. Ma'lumki, mulkning o'g'irlanishi, shaxsning kasal bo'lib ishga chiqmasligi, tabiiy ofatlarning bo'lishi tasodifiy bo'lib ular juda katta xarajatlarga olib kelishi mumkin. Ushbu noxush hodisalarning oqibatlarini kamaytirishda sug‘urtaning ahamiyati katta.

O‘zbekistonda ham hozirgi vaqtda ko‘pgina insonlar o‘z hayotlarini, mulkini sug‘urtalaydilar. Sug‘urta ishlarini yo‘lga qo‘yish uchun respublikada maxsus qonunlar ishlab chiqilgan va bir qator davlat va nodavlat sug‘urtalash firmalari faoliyat ko‘rsatmoqda.

Sug‘urtalashda tavakkalchilikni qo‘shish samaradorligi shu bilan belgilanadiki, sug‘urtalangan shaxslarning tavakkalchiligi bir-biriga bog‘liq bo‘lmasligi kerak.

Tavakkalchilikni taqsimlash - ushbu usulga ko‘ra zarar ko‘rish ehtimoli bilan bog‘liq bo‘lgan tavakkalchilik bilan qatnashuvchi sub’ektlar o‘rtasida shunday

taqsimlanadiki, oqibatda har bir sub'ektning kutiladigan yo'qotishi nisbatan kichik bo'ladi.

Ushbu usuldan foydalangan holda yirik moliya kompaniyalari katta masshtabdagi loyihalarni va ilmiy izlanishlarni tavakkalchilikdan qo'rqmasdan moliyalashtiradilar.

Axborot bilan ta'minlash ham tavakkalchilikni kamaytiradi. Nima uchun deganda, axborotning yetishmasligi noto'g'ri qaror qabul qilishga olib keladi. Hozirgi vaqtda axborot asosiy taqchil resurslardan biri bo'lib, uni olish uchun haq to'lash kerak, ya'ni axborot olish xarajat bilan bog'liq, ba'zi axborotlar nihoyatda qimmat turadi. Shuning uchun ham kerakli bo'lgan axborotdan qancha olish kerak deganda, uning chekli xarajati bilan chekli nafini solishtirib ko'rish kerak bo'ladi.

Asimmetrik axborotlashgan bozor. Asimmetrik axborot - bu shunday holatki, bozordagi bozor sub'ektlari o'rtasida bo'ladigan savdo-sotiqda ularning bir qismi kerakli, muhim axborotga ega, qolgan qismi esa ega emas.

Bozordagi tovarlarni taqsimlanishi optimal bo'lishi tovarlar narxi va tovar to'g'risida qanchalik to'g'ri axborot berishi bilan bog'liq. Raqobatlashgan bozorni qaraganimizda biz axborotni simmetrik ravishda taqsimlangan, ya'ni sotuvchilar va sotib oluvchilar axborot bilan to'liq ta'minlangan, deb faraz qilgan edik. Bunday holatda narxlar sotiladigan ne'matlarning alternativ xarajatlari to'g'risida to'liq axborot beradi. Aniq va to'liq axborotning bo'lishi bozordagi ne'matlarning optimal taqsimlanishiga yordam beradi. Lekin, bozorda ahvol butunlay boshqacha. Sotuvchilar o'z tovarlari sifatini yaxshi bilsada, ushbu axborotni xaridordan yashiradi. Xuddi shunday xaridorlar ham o'zlarining bozordagi hatti-harakatlarini yashirib, har xil yo'l bilan savdo-sotiqda bir tomonlama yutuqqa erishishga harakat qiladi. Bozor narxi o'zida juda ko'p axborotni mujassamlashtiradi. Ushbu axborotni bozor qatnashchilari qancha to'liq bilsa, savdo-sotiq ikki tomon uchun shuncha samarali bo'ladi, ya'ni ikki tomon ham maksimal foyda ko'radi. Yuqoridagidan kelib chiqib aytish mumkinki, bozorda axborotlar asimmetrik (to'liq) bo'lmaganligi uchun bozor mexanizmi ham etarli darajada mukammal emas.

Bozor iqtisodiyoti shakllangan dastlabki davrlarda "iste'molchi ehtiyot chorasini ko'rsin (caveat venditor)" qoidasi amalda bo'lgan. Ya'ni sotuvchilar tovarning faqat sifati bilan bog'liq cheklangan xarakteristikasiga javob bergan. Hozirgi kunda "sotuvchi ehtiyot chorasini ko'rsin (caveat emptor)" qoidasi kirib keldi, ya'ni sotuvchi tovarning sifatsizligi yoki xaridorga yetkazgan moddiy va ma'naviy zarari uchun tovon puli to'lashi kerak

Mahsulot sifati noaniqligi. Faraz qilaylik, bozorda foydalanilgan avtomobillar sotiladi. Mashinaning holati (sifati) o'rtacha holatdan yuqori bo'lsa yaxshi avtomobil, past bo'lsa - yomon avtomobil (ushbu masalani 1970 yilda birinchi bo'lib amerikalik olim A.Akerlof o'rgangan). Yaxshi avtomobillarning narxini sotuvchilar 5000 doll. va iste'molchilar 5600 doll. baholaydilar. Holati o'rtadan past avtomobillar narxini esa mos ravishda 3000 va 3500 dollarga. Agar bozorda ikkala kategoriyadagi avtomobillar soni bir-biriga teng bo'lsa, avtomobilning o'rtacha narxi 4000 doll.

bo'ladi. Ushbu holatda yaxshi avtomobilni ham, yomon avtomobilni ham sotib olish ehtimoli 50 foizga teng.

Biroq sotuvchilar o'zlarining avtomobili sifatini yaxshiroq biladi, xaridorlar bunday axborotga ega emaslar. Yaxshi mashina sotuvchilarni 4000 doll. narx qanoatlantirmaydi. Yomon mashina sotuvchilarni esa 4000 doll. narx qanoatlantiradi va bu narx ular kutgan narxdan ancha yuqori.

Bozorda asimmetrik axborot bo'lgan sharoitda avtomobil bozoridagi narx avtomobil sifati to'g'risida to'liq axborotni bermaydi, natijada bozordagi savdo-sotiqnlarni noratsional bo'lishiga olib keladi. Yaxshi avtomobil egalari o'z avtomobillarini 4000 dollarda sotishdan voz kechadilar. Oqibatda yaxshi avtomobillar taklifi kamayadi. Yomon avtomobillar narxi yuqori bo'lgani uchun, ularning taklifi oshadi. Bunday holatda yaxshi avtomobil olish ehtimoli 50 foizdan nolga tushib ketadi

Sug'urtalash bozori. Sug'urtalash bozorida ham avtomobillar bozoridagi holatni kuzatish mumkin. Sug'urta qilinadigan shaxs o'zining sug'urta ob'ekti to'g'risida sug'urtalovchiga qaraganda ko'proq axborotga ega. Shuning uchun ham, bu yerda zaifroq, sog'ligi yaxshi bo'lmagan shaxslar ko'proq sug'urta kompaniyasi xizmatidan foydalanishga harakat qiladilar. Ushbu holat sug'urta kompaniyalarini sug'urta narxini oshishiga olib keladi va yuqori sug'urta narxi o'z navbatida sog'ligi yaxshi bo'lgan shaxslarni sug'urtalashga bormasligini kuchaytiradi.

Ma'naviy tavakkalchilik (yo'qotish) - yo'qotishlar sug'urta kompaniyasi tomonidan to'liq qoplanishiga ishonib vujudga kelishi mumkin bo'lgan yo'qotishlar ehtimolini ongli ravishda oshirishga intiluvchi shaxslarning hatti-harakati.

Insonlar o'z hayotini, mulkini sug'urtalagandan keyin, o'zining hayotiga, mulkining saqlanishiga ko'pincha befarq qaray boshlaydilar. Ular sug'urtalashgacha qilinadigan ehtiyot-choralarni bajarmay qo'yadilar. Bunday holat tavakkalchilikni kuchaytiradi va inson o'zini sug'urta qilgan voqea-hodisalarning sodir bo'lish ehtimolini oshishiga olib keladi.

Ba'zi bir nopok insonlar yuqori sug'urta haqi olish maqsadida, ongli ravishda o'zining eski uyini yoqadi, mulkini yaroqsiz holatga keltiradi va hatto o'z qarindoshlarini o'ldirishgacha boradilar.

Ma'naviy yo'qotishlarni quyidagi yo'llar orqali kamaytirish mumkin:

– sug'urtalanadigan shaxslarni yaxshiroq tekshirish, mijozlarni yo'qotishlari bo'yicha klassifikatsiya qilish asosida sug'urta badalini differentsiatsiyalash (ya'ni, yo'qotishi yuqori bo'lgan shaxs uchun yuqori sug'urta badali belgilash);

– yuqori yo'qotishga ega bo'ladigan shaxslar bilan sug'urta shartnomasini tuzmaslik (narkomanlar, spirtli ichimlik ichib avtomobil haydaydigan shaxslar);

– yo'qotishni qisman qoplash sharti bilan sug'urtalash.

Bozordagi asimmetrik axborotlarni yo'qotish yo'llari.

Bozor signallari. Bozorda sotiladigan tovar to'g'risida, tovarni ishlab chiqaruvchi firmaning nomi to'g'risidagi axborotlar, tovar markasi, firma belgisi, firmaning obro'i, tovar sifati va kafolati to'g'risidagi axborotlar bozor signallari bo'lib xizmat qiladi va bu signallar tovar sotib olishdagi tavakkalchilikni kamaytiradi.

Masalan, siz sotib olmoqchi bo'lgan tovar siz bilgan, sifatli mahsulot ishlab chiqaradigan firmaning mahsuloti bo'lsa, siz mahsulotni yo'qotishsiz sotib olasiz.

Auksionlar. Auksionlar ham axborotlardagi asimmetriyani yo'qotadigan bozor hisoblanadi. Noyob san'at namunasiga, tez buziladigan mahsulotlarga (sabzavot, meva, baliq) narxlar sotish vaqtida o'rnatiladi. Auksionlarning asosan ikki turi mavjud: Ingliz va Golland Auksionlari.

Ingliz auksioni - bu auksionda stavka pastdan yuqoriga qarab oshib boradi va bu oshish taklif qilingan maksimal narxda tovar sotilguncha davom etadi. Ushbu auksionda asosan san'at namunalari, zebu-ziynatlar va hokazolar sotiladi.

Golland auksionida stavkalar yuqoridan pastga qarab, toki tovar minimal mumkin bo'lgan narxda sotilgunga qadar tushib boradi. Ushbu auksionda vaqt muhim ahamiyatga ega, nima uchun deganda auksionda asosan tez buziladigan tovarlar sotiladi: gullar, sabzavotlar, mevalar, baliq va hokazolar sotiladi.

Golland auksionida minimal mumkin bo'lgan narx - birinchi e'lon qilingan narxning 20 foizi hisoblanadi. Agar tovar ushbu narxda ham sotilmasa, u sotuvdan olinadi.

Yopiq auksion - bu auksionda qatnashuvchilar bir-biriga bog'liq bo'lmagan holda tovar uchun stavkalar qo'yadi va tovar kim ko'p stavka qo'ygan bo'lsa, unga beriladi.

Hozirgi vaqtda iste'molchi huquqini himoya qiluvchi qonunlar ishlab chiqilgan. Bu qonunga ko'ra iste'molchi sotib olingan tovardan foydalanishi davomida ko'rgan jismoniy hamda ma'naviy yo'qotishlarini qoplashni sotuvchidan talab qilishga haqi bor. Lekin, iste'molchi huquqini himoya qilishda ob'ektiv chegara bo'lishi lozim. Rivojlangan davlatlarda iste'molchining yo'qotishini qoplash sotib olingan tovar qiymatining uch barobaridan oshmasligi kerak.


Ma'lumki, iste'molchi huquqini himoya qilish sotiladigan tovar va ko'rsatiladigan xizmat to'g'risida to'liq axborotga ega bo'lishni taqozo qiladi. Lekin, bunday axborotni olish mumkinmi, degan savol tug'iladi. Bu yerda iste'molchilar jamiyati va ommaviy axborot vositalari (gazeta, radio, televidenie), qonun chiqaruvchi va ijro etuvchi hokimiyat organlari muhim rol o'ynaydi. Axborot berishda firmalarning o'zi ham katta rol o'ynaydilar. Lekin, axborot uchun haq to'lash kerak.

Ma'lumki, axborotlarning juda katta qismi reklama shaklida keladi. Lekin, reklamalar to'g'ri axborot beradimi yoki yo'qmi uni aniqlash qiyin. Shuning uchun ham bu yerda asosiy mezon mahsulot sifati bilan uning narxi o'rtasidagi nisbatning optimal bo'lishidadir. Ma'lumki, mahsulot sifatining oshishi, uning narxini oshiradi.

Olib sotarlik va uning iqtisodiyotdagi o'rni. Olib sotarlik (savdogarlar) deganda, foyda olish maqsadida biror tovarni sotib olib, uni yuqori narxda sotish faoliyati tushuniladi. Olib sotarlar bozor sharoitida muhim rol o'ynaydilar, ular ortiqcha tovarni sotib olib, qaerda unga talab ko'p bo'lsa, o'sha yerga etkazib beradilar. Bu o'z navbatida tovarga bo'lgan narxni butun fazo bo'yicha ma'lum darajada tekis bo'lishini ta'minlaydi. Savdogarlar iste'molni vaqt bo'yicha siljishini ta'minlaydilar. Ular qishloq xo'jalik mahsulotlarini yoz faslida sotib olib, qish faslida

sotadi, yoki serhosil yilda sotib olib, qurg'ochilik kelgan yilda sotadilar. Ushbu holat iste'molni mo'l-ko'lchilik vaqtdan iste'mol tovarlari cheklangan vaqtga ko'chiradi va shu bilan narxlarning tekislashuvini ta'minlaydilar.

Savdogarlar bo'lmaganda, serhosil va hosildorlik yaxshi bo'lmagan yillarda talab D va taklif S_1 bo'lganda, muvozanat holat E_1 nuqtada o'rnatilgan bo'lar edi (8.4- a) va b) -rasmlar).



8.4-rasm. a) serhosil yil; b) hosildor bo'lmagan yil

Savdogarlar serhosil yilda mahsulot sotish hajmini Q_1 dan Q_2 ga qisqartirib, muvozanat narxni P_1 dan P_2 ga ko'taradi. Shu bilan birga jamg'arilgan mahsulot zahirasi hosildor bo'lmagan yildagi taklifni Q_1 dan Q_2 ga oshirib, muvozanat narxni P_1 dan P_2 ga tushiradi. Shunday qilib, savdogarlar iste'molni serhosil yildan hosil kam bo'lgan yilga siljitib narxni tekislaydilar. Savdogarlarga qishloq xo'jaligidagi mavsumiy tebranishlarni tekislashga yordam beradilar. Savdogarlar tavakkalchilikka bormaydiganlardan yo'qotishlarni sotib olib, foyda olish maqsadida o'zlari tavakkalchilikka boradilar.

Tavakkalchilikni pasaytirishda fyucherslar, opsiyon va xedjirlashtirishlar ham muhim rol o'ynaydilar.

Fyucherslar - bu oldindan belgilangan narxlarda ma'lum miqdordagi tovarlarni kelajakda ma'lum kunda etkazish uchun tuzilgan muddatli shartnoma.

Fyuchers bozori yordamida qishloq xo'jalik mahsulotlari, kofe, shakar va boshqa tovarlar sotiladi. Fyuchers bozori yordamida ishbiarmon ma'lum miqdordagi tovarni bugungi narxda kelajakda ma'lum muddatga qo'yish uchun shartnoma tuzadi.

Opsiyon yoki **mukofotga ko'ra savdo-sotiq** - bu Fyuchersning bir turi bo'lib, unga ko'ra bir tomon komission to'lov asosida biror tovarni kelajakda sotib olish yoki sotish huquqini oldindan kelishilgan narxda sotib oladi. Shuni

aytish kerakki, Fyuchers ham, opsiyon ham tovarlar narxini vaqt bo'yicha tekislashga yordam beradi.

Xedjirlashtirish - bu operatsiya bo'lib, unga ko'ra fyucherslar bozori va opsiyonlar bozori yordamida bir tavakkalchilik boshqa bir tavakkalchilik bilan qoplanadi. Ushbu operatsiyaning mohiyati shundan iboratki, narxlar o'zgarishi bilan bog'liq tavakkalchilik (yo'qotishlar) savdogar zimmasiga yuklatiladi.

Shunday qilib, savdogarchilikning ahamiyati shundaki, ular axborotlarni axborot egalaridan olib axborotga muxtoj bo'lganlarga etkazadilar.

Qisqa xulosalar

Kelajakka taalluqli har qanday harakat noaniq natijaga ega. Noaniqlik sharoitida iste'molchilar tomonidan ham, ishlab chiqaruvchilar tomonidan ham sotuvchi va xaridorlar sifatida qaror qabul qilishga to'g'ri keladi va bu qabul qilingan qarorlar albatta, ma'lum darajadagi risklar (tavakkalchilik) bilan bog'liq bo'lishi mumkin. Noaniqlik cheklangan resurslarni samarasiz taqsimlanishiga, ortiqcha sarflarga, vaqtni yo'qotishga olib keladi.

Tadbirkorlikka yoki daromad olish uchun tikilgan kapitalning qiymati kelgusida undan olinadigan daromad qiymatiga bog'liq ekan, demak u noaniqlik va risk (tavakkalchilik) bilan bo'lingan ekan.

Risk (tavakkalchilik) – bu har qanday usul bilan baholangan ehtimollik, noaniqlik esa baholab bo'lmaydigan holat.

Noaniqlik sharoitida qaror qabul qilish deganda, to'liq axborot bo'lmaganda qaror qabul qilish tushuniladi. Biror voqea yoki hodisa to'g'risida axborot to'liq bo'lmasa, qabul qilingan qaror salbiy oqibatlariga, ya'ni ma'lum yo'qotishlarga olib keladi. Ushbu yo'qotishlar tavakkalchilikni bildiradi.

Tavakkalchilikni o'lchashning asosi ehtimol tushunchasi bilan bog'liq. Ehtimol ikki turga bo'linadi: matematik, ya'ni oldindan aniqlash mumkin bo'lgan ehtimol va statistik ehtimol.

Kutiladigan miqdor - bu mumkin bo'lgan barcha natijalarning o'rtacha o'lchangan qiymatlari. **Chetlanish** - bu haqiqiy natija bilan kutiladigan natija o'rtasidagi farq bo'lib, u tavakkalchilikdan (yo'qotishdan) darak beradi.

Insonlar tavakkalchilikga borishga tayyorligi bo'yicha uch turga bo'linadi: tavakkalchilikga borishga moyil, tavakkalchilikga borishga qarshi, ya'ni moyil emas va tavakkalchilikka befarq qaraydigan insonlar.

Tavakkalchilikni pasaytirishning quyidagi turlari mavjud: diversifikatsiya, sug'urtalash, tavakkalchilikni birlashtirish, tavakkalchilikni taqsimlash, axborot izlash, fyuchers, opsiyon, xedjirlash va boshqalar.

Bozorda sotiladigan tovar to'g'risida, tovarni ishlab chiqaruvchi firmaning nomi to'g'risidagi axborotlar, tovar markasi, firma belgisi, firmaning obro'i, tovar sifati va kafolati to'g'risidagi axborotlar bozor signallari bo'lib xizmat qiladi va bu signallar tovar sotib olishdagi tavakkalchilikni kamaytiradi.

Nazorat va muhokama uchun savollar

1. Noaniqlik va tavakkalchilik deganda nimani tushunasiz?
2. Ob'ektiv va sub'ektiv ehtimollar va ular o'rtasidag farq qanday aniqlanadi?
3. Tavakkalchilikni o'lchash usullari xususida nimalarni bilasiz?
4. Tavakkalchilikka moyillik, befarqlik va undan qochish xususiyatlari nimalarga bog'liq?
5. Ma'naviy tavakkalchilik deganda nimani tushunasiz?
6. Tavakkalchilikka befarq qaraydigan shaxs qanday xususiyatga ega bo'ladi?
7. Tavakkalchilikni pasaytirish yo'llarini izohlab bering.
8. Asimmetrik axborot qanday oqibatlarga olib keladi?
9. Axborotdagi asimmetriyani yuqotish yo'llari nimadan iborat?
10. Bozor signallari nimani ifodalaydi?
11. Olib sotarlik va uni iqtisodiyotdagi o'rni nimadan iborat?

9-bob. FIRMA VA UNING TASKILY-IQTISODIY ASOSLARI

9.1. Firma tushunchasi va uning turkumlanishi

Bozor xo‘jaligining asosiy elementlaridan biri firma hisoblanadi. Ammo amaliyotda ko‘pincha korxonalar so‘zi ko‘p ishlatiladi. Eng avvalo korxonalar va firma so‘zlarining terminologik farqlarini ko‘rib chiqsak.

1. Korxonalar – bu zavod, fabrika, ferma va boshqa ko‘rinishdagi tashkilot bo‘lib, u asosan tovarlar va xizmatlar ishlab chiqarish hamda taqsimlash bilan shug‘ullanadi.

2. Firma esa, egaligida alohida mol-mulki bo‘lgan va o‘ziga qarashli bo‘lgan korxonada (korxonalarda) mustaqil xo‘jalik faoliyatini amalga oshiradigan yuridik tashkilotdir. Firma maksimal foyda olish va iqtisodiy ne‘matlarni ishlab chiqarish maqsadida resurslarni birlashtiradi.

Firma tadbirkorlik faoliyatini amalga oshiradi. O‘zbekiston Respublikasining 2012 yil 3 mayda qabul qilingan yangi tahrirdagi “Tadbirkorlik faoliyati erkinligining kafolatlari to‘g‘risida”gi qonunining 3-moddasida “Tadbirkorlik faoliyati” tushunchasiga quyidagicha ta’rif beriladi: “Tadbirkorlik faoliyati (tadbirkorlik) – tadbirkorlik faoliyati sub'ektlari tomonidan qonun hujjatlariga muvofiq amalga oshiriladigan, tavakkal qilib va o‘z mulkiy javobgarligi ostida daromad (foйда) olishga qaratilgan tashabbuskor faoliyat” hisoblanadi.

Firmalarni turli mezonlar bo‘yicha turkumlash mumkin (9.1-rasm):

1. Huquqiy maqomi bo‘yicha:

- jismoniy shaxs;
- yuridik shaxs.

2. Mulkchilik shakli bo‘yicha:


- xususiy mulk egaligida;
- hamkorlik mulkida;
- korporativ mulkda.

3. Band bo‘lgan xodimlar soni bo‘yicha:

- yakka tadbirkor;
- mikrofirma;
- kichik korxonalar;
- yirik korxonalar.

4. Tashkiliy-huquqiy shakli bo‘yicha:

- yakka tartibdagi tadbirkorlik;
- xususiy firma;
- oilaviy korxonalar;
- fermer xo‘jaligi;
- dehqon xo‘jaligi;
- to‘liq shirkat;
- kommandit shirkat;
- mas’uliyati cheklangan jamiyat;
- qo‘shimcha mas’uliyatli jamiyat;



9.1-rasm. Tadbirkorlik sub'ektlarining turkumlanishi

- aksiyadorlik jamiyati ;
- ishlab chiqarish kooperativlari;
- unitar korxonalar va boshq.

5. Faoliyat yo'nalishi bo'yicha:

- ishlab chiqarish yo'nalishidagi;
- xizmat ko'rsatish yo'nalishidagi;
- tijorat yo'nalishidagi;
- moliyaviy yo'nalishdagi;
- konsalting (maslahat) yo'nalishidagi va boshq.

6. Tarmoq tarkibi bo'yicha:

- sanoat;
- qishloq xo'jaligi;
- savdo va umumiy ovqatlanish;
- xizmat ko'rsatish;
- transport va aloqa;
- uy-joy va kommunal xo'jaligi;
- qurilish;
- moliya;
- ta'lim va fan;
- boshqa sohalardagi.

Amaldagi qonunchilikka ko'ra, tadbirkorlik faoliyati bilan jismoniy yoki yuridik shaxs sifatida shug'ullanish mumkin. O'zbekiston Respublikasining "Fuqarolik Kodeksi"ga muvofiq fuqarolar (jismoniy shaxslar) deganda respublikamizning fuqarolari, boshqa davlatlarning fuqarolari, shuningdek, fuqaroligi bo'lmagan shaxslar tushuniladi. Fuqaro (jismoniy shaxs) yakka tadbirkor sifatida davlat ro'yxatidan o'tgan paytdan boshlab tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullanishga haqlidir.

Fuqarolik Kodeksi"ning 39-moddasiga muvofiq: "o'z mulkida, xo'jalik yuritishida yoki operativ boshqaruvida alohida mol-mulkka ega bo'lgan hamda o'z majburiyatlari yuzasidan ushbu mol-mulk bilan javob beradigan, o'z nomidan mulkiy yoki shaxsiy nomulkiy huquqlarga ega bo'la oladigan va ularni amalga oshira oladigan, majburiyatlarni bajara oladigan, sudda da'vogar va javobgar bo'la oladigan tashkilot yuridik shaxs hisoblanadi". Ammo yuridik shaxslarning faqatgina foyda olishni o'z faoliyatining asosiy maqsadi qilib olgan turlari, ya'ni tijoratchi tashkilotlar tadbirkorlik sub'ektlari hisoblanadi.

Mulk shakli bo'yicha firmalar quyidagicha guruhlanadi:

- yakka mulk egaligi (yakka tartibdagi tadbirkorlar, dehqon xo'jaliklari, fermer xo'jaliklari, xususiy firmalar);
- hamkorlikdagi mulk egaligi (xo'jalik shirkatlari (to'liq va kommandit), mas'uliyati cheklangan va qo'shimcha mas'uliyatli jamiyatlar, qishloq xo'jaligi shirkatlari, kooperativlar boshq.);
- korporasiya (aksiyadorlik jamiyati).

Yakka mulk egaligi o'z manfaatlari yo'lida biznesni mustaqil tashkil etish imkonini beradi. Yakka mulk egaligidagi firmalarning mulki bir kishiga tegishli bo'lib, bo'linmasdir.

Afzalliklari:

- yakka mulk egaligiga asoslangan tadbirkorlikni tashkil etish nisbatan oson kechadi, ya'ni ularni davlat ro'yxatidan o'tkazish va hisobga qo'yish hamda tadbirkorlik faoliyatini yuritish uchun ruxsat beruvchi hujjatlarni rasmiylashtirish tartibi yengil;

- yakka mulk egasi o'z biznesiga o'zi xo'jayin va mustaqil xo'jalik yuritish hamda qarorlar qabul qilish imkoniyatiga ega;

- olinadigan foyda bir kishiga tegishli ekanligi biznesni samarali yuritishga kuchli iqtisodiy rag'batni vujudga keltiradi.

Nuqsonlari:

- ko'p holatlarda yakka tadbirkorning keyinchalik o'z biznesini kengaytirish va ko'proq daromad topish imkoniyatlari moliyaviy jihatdan cheklangan bo'ladi;

- moliyaviy resurslarning cheklanganligi sababli tijorat banklari va boshqa moliyaviy muassasalar ko'p holatlarda yakka tadbirkorlar bilan hamkorlik qilishga moyil bo'lmaydi;

- yakka mulk egasi tadbirkorlik faoliyatini tashkil etish va boshqarish bilan bog'liq barcha vazifalarni (xodimlarni yollash va boshqarish, moddiy ta'minot, mahsulotni sotish, ishlab chiqarishning texnologik jarayonlarini tashkil etish, mablag'larni jalb etish, buxgalteriya hisobi va hisobot shakllarini yuritish va boshq.) bir o'zi bajarishiga to'g'ri keladi va bular uning ko'p vaqtini band etadi;

- yakka tadbirkorlik sub'ekti cheklanmagan moddiy javobgarlikka ega bo'ladi, ya'ni noto'lovlar vujudga kelganda kreditorlar uning shaxsiy mulkiga ham da'vo qo'zg'atishi mumkin.

Hamkorlik biznesni tashkil etishning yakka tadbirkorlikka nisbatan mukammalroq shakli hisoblanadi. Hamkorlikda ikki yoki undan ortiq sheriklar firma tashkil etish va uni birgalikda boshqarishga kelishib oladilar. Bunda ular firmani ta'sis etish jarayonida o'zlarining moliyaviy mablag'larini va ishbilarmonlik qobiliyatlarini ham birlashtiradilar. Shu bilan birga biznesni yuritish bilan bog'liq tadbirkorlik xatari hamda foyda yoki zararlarni o'zaro taqsimlaydilar.

Firma faoliyatida ishtirok etishiga ko'ra, hamkorlar turlicha mavqega ega bo'ladi. Ayrim hollarda hamma sheriklar biznesni boshqarishda birdek faol ishtirok etishsa, boshqa holatlarda bir nechta sheriklar boshqaruvda ishtirok etmasligi mumkin (masalan, kommandit shirkatda).

Hamkorlikning afzalliklari:

- yakka tadbirkorlikdagi kabi hamkorlikdagi biznesni tashkil etish ham birmuncha oson kechadi;

- ishtirokchilar sonining ko'pligi boshqaruvda ixtisoslashuv imkoniyatini yaratadi;

- bir nechta sheriklarning resurslarini birlashtirish oqibatida firmaning moliyaviy barqarorligi kuchayadi va kredit beruvchi muassasalardan qarzga mablag'lar jalb etish imkoniyati kengayadi.

Nuqsonlari:

- firmani boshqarishda bir nechta kishi ishtirok etganda boshqaruv qarorlari qabul qilishda fikrlar va manfaatlarning mos kelmasligi, o'zaro kelishmovchiliklar hamda ayrim sheriklarning mas'uliyatsizligi biznesning muvaffaqiyatli rivojlanishiga xalaqit qilishi mumkin;

- garchi yakka mulk egaligiga nisbatan moliyaviy imkoniyatlar kengroq bo'lsada, biznes doirasini kengaytirish va yirik loyihalarni amalga oshirish uchun mablag' yetishmasligi mumkin;

- hamkorlikning davomiyligini oldindan bashorat etib bo'lmaydi, bir yoki bir nechta sherikning biznesdan chiqishi firma faoliyatini tugashiga olib kelishi yoki unga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin;

- hamkorlikda biror bir sherikning uquqsizligi yoki mas'uliyatsizligi natijasida ko'rilgan zarar uchun barcha sheriklar birdek moddiy javobgar bo'ladi.

Korporasiya biznesni mulk egalaridan ajratilgan tashkiliy-huquqiy shakli hisoblanadi. Korporasiya (aksiyadorlar jamiyati) ishtirokchilari uning majburiyatlari bo'yicha javob bermaydilar va korporasiya faoliyati bilan bog'liq zarar uchun o'zlariga qarashli aksiyalar qiymati doirasida javobgar bo'ladilar. Korporasiya uning mulkdorlaridan alohida yuridik shaxs maqomidagi firma hisoblanadi.

Korporasiya - mulkiy paylarga (aksiyalarga) asoslangan firmadir. Korporasiya aksiyalarini xarid qilgan shaxslar uning mulkdorlari sanaladi. Korporasiya - mulk egalaridan birining (bir nechtasining) o'limi yoki aksiyalarini sotishi, yangi aksiyadorlarning vujudga kelishi korporasiya faoliyatining to'xtashiga olib kelmaydi. Agar aksiya egalariga korporasiya yuritayotgan siyosat yoqmasa, u o'ziga tegishli bo'lgan aksiyani istagan ochiq bozorda boshqa shaxslarga sotishi mumkin, ammo kompaniya tugatilmaydi.

Korporasiyaning mulki uning aksiyadorlari o'rtasida aksiyalar ko'rinishida taqsimlangan. Korporasiyaning foydasi uning aksiyadorlari o'rtasida dividend ko'rinishida taqsimlanishi yoki korporasiyani rivojlantirish uchun taqsimlanmagan foyda ko'rinishida qoldirilishi mumkin.

Korporasiyaning afzalliklari:

- korporasiya biznesni tashkil etishning ancha mukammal shakli bo'lib, yirikligi va faoliyat doirasining kengligi bilan xarakterlanadi;

- korporasiyalar qimmatli qog'ozlar bozorida aksiya va obligasiyalarini sotish orqali ko'plab uy xo'jaligi egalarining mablag'larini jamlash va ishlab chiqarishni kengaytirishga sarflash imkoniyatiga ega bo'ladilar;

- korporasiya uchun cheklangan javobgarlik xosdir, ya'ni uning mulkdorlari (aksiyadorlar) faqatgina sotib olingan aksiyalar qiymatiga mos bo'lgan miqdorda tavakkalchilik qiladilar (kreditorlar korporasiya mulkdorlari shaxsiy mulkiga emas, yuridik shaxs sifatida korporasiyaning o'z mulkiga da'vo qo'zg'atishi mumkin);

- korporasiya hajmining kattaligi inson resurslaridan foydalanishda chuqur ixtisoslashuvni ta'minlash va ko'proq samaradorlikka erishishga yo'l ochadi;
- korporasiya mulkdorlardan alohida yuridik shaxs bo'lgani sababli mulkdorlardan biri yoki bir nechtasi aksiyalarini sotish orqali firmadan chiqishi uning faoliyatiga ta'sir ko'rsatmaydi, shu tufayli u barqaror rivojlanish xususiyatiga ega.

9.2. Xususiy mulk egaligidagi firmalar

Xususiy mulk egaligidagi firmalar sirasiga xususiy va oilaviy korxonalar, fermer va dehqon xo'jaliklari kiradi. Yakka tartibdagi tadbirkorlik yuridik shaxs sanalmasligi tufayli, firma toifasiga kiritilmaydi.

Xususiy korxonalar. Xususiy korxonalar xususiy mulkka asoslangan firma shaklidir. O'zbekiston Respublikasining "Xususiy korxonalar to'g'risida"gi qonuni xususiy korxonalar faoliyatini tartibga soladi. Mazkur qonunga ko'ra "mulkdor yagona jismoniy shaxs tomonidan tuzilgan va boshqariladigan tijoratchi tashkilot xususiy korxonalar deb e'tirof etiladi. Xususiy korxonalar tadbirkorlik sub'ektlarining tashkiliy-huquqiy shaklidir.

Xususiy korxonalar o'z mulkida alohida mol-mulkka ega bo'ladi, o'z nomidan mulkiy va shaxsiy nomulkiy huquqlarga ega bo'lishi hamda ularni amalga oshirishi, majburiyatlarni bajarishi, sudga da'vogar va javobgar bo'lishi mumkin.

Xususiy korxonalar o'z majburiyatlari bo'yicha o'ziga qarashli butun mol-mulk bilan javob beradi. Xususiy korxonalar mulkdori korxonaning mol-mulki etarli bo'lmagan taqdirda xususiy korxonaning majburiyatlari bo'yicha o'ziga qarashli mol-mulk bilan qonun hujjatlariga muvofiq subsidiar javobgar bo'ladi¹".

Xususiy korxonalar davlat ro'yxatidan o'tkazilgan paytdan boshlab yuridik shaxs maqomiga ega bo'ladi. Xususiy korxonalar mulkdor tomonidan tuziladi, mulkdor unga tegishli mol-mulk beradi va uning ustavini tasdiqlaydi. Amaldagi qonunchilikka ko'ra xususiy korxonalar, agar uning ustavida boshqacha qoida belgilangan bo'lmasa, nomuayyan muddatga tuziladi. Xususiy korxonaning ustav fondi bo'linmasdir, ya'ni bitta shaxsga tegishli va uni mulkdorning o'zi belgilaydi.

Xususiy korxonalar mulkdori korxonaning soliqlar va boshqa majburiy to'lovlar to'langanidan keyin qolgan foydasini o'z ixtiyoriga ko'ra tasarruf etadi.

Oilaviy korxonalar. O'zbekiston Respublikasining 2014 yil 23 martdagi "Oilaviy tadbirkorlik to'g'risida"gi qonuniga muvofiq "Oilaviy korxonalar uning ishtirokchilari tomonidan tovarlar ishlab chiqarish (ishlar bajarish, xizmatlar ko'rsatish) va realizatsiya qilishni amalga oshirish uchun ixtiyoriy asosda, oilaviy korxonalar ishtirokchilarining ulushli yoki birgalikdagi mulkida bo'lgan umumiy mol-mulk, shuningdek oilaviy korxonalar ishtirokchilaridan har birining mol-mulki negizida tashkil etiladigan kichik tadbirkorlik sub'ektidir. Oilaviy korxonalar faoliyati uning ishtirokchilarining shaxsiy mehnatiga asoslanadi. Oilaviy korxonalar tadbirkorlik

¹ O'zbekiston Respublikasining 2003 yil 11 dekabrda "Xususiy korxonalar to'g'risida"gi qonuni. www.lex.uz

sub'ektlarining tashkiliy-huquqiy shakllaridan biridir²”.

Mazkur qonunga ko'ra oilaviy tadbirkorlik yuridik shaxs tashkil etgan yoki etmagan holda amalga oshirilishi mumkin. Oilaviy tadbirkorlikning o'z faoliyatini faqat yuridik shaxs maqomida amalga oshirishi mumkin bo'lgan shakli oilaviy korxonadir. Oilaviy korxonada alohida mol-mulkka ega bo'ladi, o'z nomidan mulkiy va shaxsiy nomulkiy huquqlarni oladi hamda amalga oshiradi, zimmasiga majburiyatlar olishi, sudda da'vogar va javobgar bo'lishi mumkin.

Oilaviy korxonada o'z majburiyatlari bo'yicha qonunga muvofiq undiruv qaratilishi mumkin bo'lgan o'ziga tegishli barcha mol-mulk bilan javob beradi. Oilaviy korxonada ishtirokchilari korxonada mol-mulki etarli bo'lmaganda oilaviy korxonaning majburiyatlari bo'yicha o'ziga tegishli mol-mulk bilan qonun hujjatlariga muvofiq subsidiar javobgar bo'ladi.

Oila boshlig'i, uning xotini (eri), bolalari va nabiralari, ota-onasi, mehnatga qobiliyatli yoshga to'lgan boshqa qarindoshlari (bolalari va nabiralarning eri (xotinlari), tug'ishgan hamda o'gay aka-uka va opa-singillari, ularning eri (xotinlari) hamda bolalari, tog'a va amaki hamda amma va xolalari) oilaviy korxonada ishtirokchilari bo'lishi mumkin. Bir oilaviy korxonada ishtirokchisi bir vaqtning o'zida boshqa oilaviy korxonada ishtirokchisi bo'lishi mumkin emas. Oilaviy korxonada ishtirokchilarining umumiy yig'ilishi oilaviy korxonaning yuqori boshqaruv organidir.

Oilaviy korxonada xodimlarni yollashni amalga oshirishi mumkin. Oilaviy korxonada ishtirokchilarining va uning yollanma xodimlarining umumiy soni kichik tadbirkorlik sub'ektlari xodimlarining qonun hujjatlarida belgilangan o'rtacha yillik sonidan ko'p bo'lishi mumkin emas. Bunda oilaviy korxonada ishtirokchilarining eng kam soni ikki kishidan oz bo'lmasligi kerak.

Oilaviy korxonaning foydasi soliqlar va boshqa majburiy to'lovlar to'langanidan keyin uning ishtirokchilari tasarrufiga o'tadi hamda unga soliq solinmaydi.

Fermer xo'jaligi. Fermer xo'jaligi firmalarning agrar sektorda faoliyat olib boradigan va xususiy mulkka asoslangan tashkiliy-huquqiy shakli sanaladi. O'zbekiston Respublikasining “Fermer xo'jaligi to'g'risida”gi qonuniga asosan “Fermer xo'jaligi ijaraga berilgan er uchastkalaridan foydalangan holda qishloq xo'jaligi mahsulotini etishtirish hamda qonun hujjatlarida taqiqlanmagan boshqa faoliyat turlari bilan shug'ullanuvchi tadbirkorlik sub'ektidir. Fermer xo'jaligi O'zbekiston Respublikasida qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishining asosiy sub'ektidir.

Ko'p tarmoqli fermer xo'jaligi qishloq xo'jaligi mahsulotini etishtirish bilan birga qishloq xo'jaligi mahsulotini qayta ishlash, saqlash va realizatsiya qilish, sanoat ishlab chiqarishi, ishlarni bajarish, xizmatlar ko'rsatish va qonun hujjatlarida taqiqlanmagan boshqa faoliyat turlari bilan shug'ullanuvchi fermer xo'jaligidir³”.

² O'zbekiston Respublikasining 2014 yil 23 martdagi “Oilaviy tadbirkorlik to'g'risida”gi qonuni. www.lex.uz.

³ O'zbekiston Respublikasining 2004 yil 26 avgustdagi “Fermer xo'jaligi to'g'risida”gi qonuni (yangi tahrirda). www.lex.uz.

Fermer xo'jaliklari yuritish uchun er uchastkalari ochiq tanlov asosida ijaraga 30 yilgacha bo'lgan, lekin o'ttiz yildan kam bo'lmagan muddatga beriladi. Fermer xo'jaligi qishloq xo'jaligiga mo'ljallangan erlarda va zaxira erlarda tashkil etiladi.

Chorvachilikka ixtisoslashgan fermer xo'jaliklari kamida 30 shartli bosh chorva moli bo'lgan taqdirda tashkil etiladi. Bunda fermer xo'jaligiga beriladigan er uchastkasining eng kam o'lchami bir shartli bosh chorva molga nisbatan Andijon, Namangan, Samarqand, Toshkent, Farg'ona va Xorazm viloyatlaridagi sug'oriladigan erlarda kamida 0,3 gektarni (nasldor chorvachilik fermer xo'jaliklari uchun 0,5 gektarni), boshqa viloyatlar va Qoraqalpog'iston Respublikasidagi sug'oriladigan erlarda tegishincha, kamida 0,45 gektarni (nasldor chorvachilik fermer xo'jaliklari uchun 0,6 gektarni), sug'orilmaydigan (lalmikor) erlarda esa kamida 2 gektarni tashkil etadi.

Dehqonchilikka ixtisoslashtirilgan fermer xo'jaligiga ijaraga beriladigan er uchastkalarining eng kam o'lchami paxtachilik va g'allachilik uchun kamida 30 gektarni, g'allachilik va sabzavotchilik uchun kamida 10 gektarni, bog'dorchilik, uzumchilik, sabzavotchilik va boshqa ekinlarni etishtirish uchun kamida 1 gektarni hamda ko'pi bilan 5 gektarni tashkil etadi.

Fermer xo'jaligi o'z majburiyatlari bo'yicha qonunlarga muvofiq undiruv qaratilishi mumkin bo'lgan o'z mol-mulki bilan javob beradi. Fermer xo'jaligining boshlig'i fermer xo'jaligining mol-mulki etarli bo'lmagan taqdirda fermer xo'jaligining majburiyatlari bo'yicha o'ziga qarashli mol-mulk bilan qonun hujjatlariga muvofiq subsidiar javobgar bo'ladi.

Fermer xo'jaligining foydasi soliqlar va boshqa majburiy to'lovlar to'langanidan keyin fermer xo'jaligi boshlig'ining tasarrufiga o'tadi va unga soliq solinmaydi.

Dehqon xo'jaligi. Dehqon xo'jaligi agrar sektorda faoliyat ko'rsatuvchi xususiy mulkka asoslangan xo'jalik yuritish shakllaridan biri sanaladi. O'zbekiston Respublikasining 1998 yil 30 apreldagi "Dehqon xo'jaligi to'g'risida"gi qonuniga muvofiq "Dehqon xo'jaligi oilaviy mayda tovar xo'jaligi bo'lib, oila a'zolarining shaxsiy mehnati asosida, meros qilib qoldiriladigan umrbod egalik qilish uchun oila boshlig'iga berilgan er uchastkasida qishloq xo'jaligi mahsuloti etishtiradi va realizatsiya qiladi.

Dehqon xo'jaligidagi faoliyat tadbirkorlik faoliyati jumlasiga kiradi hamda dehqon xo'jaligi a'zolarining istagiga ko'ra yuridik shaxs tashkil etgan holda va yuridik shaxs tashkil etmasdan amalga oshirilishi mumkin⁴.

Amaldagi qonunchilikka ko'ra dehqon xo'jaligi a'zolari jumlasiga birgalikda yashayotgan va dehqon xo'jaligini birgalikda yuritayotgan oila boshlig'i, uning xotini (eri), bolalari, shu jumladan farzandlikka olingan bolalari, tarbiyaga olgan bolalari, ota-onalari, mehnatga qobiliyatli yoshga etgan boshqa qarindoshlari kiradi. Yuridik va jismoniy shaxslar bilan o'zaro munosabatlarda dehqon xo'jaligi nomidan shu xo'jalik boshlig'i ish ko'radi. Dehqon xo'jaligi o'z faoliyatida yollanma mehnatdan doimiy asosda foydalanishi mumkin emas.

⁴ O'zbekiston Respublikasining 1998 yil 30 apreldagi "Dehqon xo'jaligi to'g'risida"gi qonuni. www.lex.uz.

Tomorqa er uchastkasi - qishloq xo'jalik mahsulotini erkin savdo hamda oila ehtiyojlari uchun etishtirish, shuningdek yakka tartibdagi uy-joy qurilishi hamda uy-joyni obodonlashtirish maqsadida oila a'zolaridan biriga meros qilib qoldiriladigan umrbod egalik qilishga qonun hujjatlarida belgilangan tartibda va o'lchamlarda ajratib beriladigan er uchastkasidir.

Dehqon xo'jaligi yuritish uchun meros qilib qoldiriladigan umrbod egalik qilishga er uchastkasi sug'oriladigan erlarda 0,35 gektargacha va sug'orilmaydigan (lalmikor) erlarda 0,5 gektargacha o'lchamda, cho'l va sahro mintaqasida esa sug'orilmaydigan yaylovlardan 1 gektargacha o'lchamda beriladi.

Dehqon xo'jaligi o'z faoliyati yo'nalishlarini, ishlab chiqarish tuzilishi va hajmlarini mustaqil ravishda belgilaydi. Dehqon xo'jaligi qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishining qonunlarda taqiqlanmagan har qanday turi, shuningdek qishloq xo'jaligi mahsulotini qayta ishlash va realizatsiya qilish bilan shug'ullanishga haqli.

Dehqon xo'jaligi o'z majburiyatlari bo'yicha undiruv qaratilishi mumkin bo'lgan mol-mulki bilan javob beradi. Dehqon xo'jaligi a'zolari dehqon xo'jaligi mol-mulki yetarli bo'lmaganda, xo'jalikning majburiyatlari bo'yicha o'zlariga tegishli mol-mulk bilan solidar ravishda subsidiar javobgar bo'ladi.

9.3. Hamkorlikka asoslangan firmalar

Mas'uliyati cheklangan va qo'shimcha mas'uliyatli jamiyatlar hamda to'liq va kommandit shirkatlar hamkorlik mulkiga (ustav kapitali ulushlarga bo'lingan) asoslangan firmalar toifasiga kiradi.

Mas'uliyati cheklangan va qo'shimcha mas'uliyatli jamiyat. O'zbekiston Respublikasining 2001 yil 6 dekabrda "Mas'uliyati cheklangan hamda qo'shimcha mas'uliyatli jamiyatlar to'g'risida"gi qonuniga ko'ra: "Bir yoki bir necha shaxs tomonidan ta'sis etilgan, ustav fondi (ustav kapitali) ta'sis hujjatlari bilan belgilangan miqdorlarda ulushlarga bo'lingan xo'jalik jamiyati mas'uliyati cheklangan jamiyat deb hisoblanadi. Mas'uliyati cheklangan jamiyatning ishtirokchilari uning majburiyatlari bo'yicha javobgar bo'lmaydilar va jamiyat faoliyati bilan bog'liq zararlar uchun o'zlari qo'shgan hissalar qiymati doirasida javobgar bo'ladilar.

Bir yoki bir necha shaxs tomonidan ta'sis etilgan, ustav fondi (ustav kapitali) ta'sis hujjatlari bilan belgilangan miqdorlardagi ulushlarga bo'lingan xo'jalik jamiyati qo'shimcha mas'uliyatli jamiyat deb hisoblanadi. Bunday jamiyatning ishtirokchilari jamiyat majburiyatlari bo'yicha o'ziga tegishli mol-mulklari bilan hamma uchun bir xil bo'lgan va qo'shgan hissalar qiymatiga nisbatan jamiyatning ta'sis hujjatlarida belgilanadigan karrali miqdorda solidar tarzda subsidiar javobgar bo'ladilar.

Qo'shimcha mas'uliyatli jamiyat ishtirokchilari javobgarligining eng yuqori miqdori qo'shimcha mas'uliyatli jamiyatning ustavida nazarda tutiladi⁵".

⁵ O'zbekiston Respublikasining 2001 yil 6 dekabrda "Mas'uliyati cheklangan hamda qo'shimcha mas'uliyatli jamiyatlar to'g'risida" gi qonuni. www.lex.uz.

Jamiyat o'zining mustaqil balansida hisobga olinadigan alohida mol-mulkka ega bo'ladi, o'z nomidan huquqlarni olishi, majburiyatlarga ega bo'lishi, sudda da'vogar va javobgar bo'lishi mumkin. Jamiyat o'z majburiyatlari yuzasidan o'ziga qarashli barcha mol-mulk bilan javobgar bo'ladi. Jamiyat o'z ishtirokchilarining majburiyatlari yuzasidan javob bermaydi.

Yuridik va jismoniy shaxslar jamiyatning ishtirokchilari bo'ladilar. Jamiyat ishtirokchilarining soni əllik kishidan oshmasligi lozim.

Jamiyat ustav kapitali uning ishtirokchilari ulushlarining nominal qiymatlaridan tarkib topadi. Jamiyat ustav kapitalining əng kam miqdori lienziya talablarida belgilanishi mumkin. Jamiyat ishtirokchisining jamiyat ustav fondidagi (ustav kapitalidagi) ulushining miqdori foizlarda yoki kasr ko'rinishida belgilanadi. Jamiyat ishtirokchisi ulushining miqdori uning ulushi nominal qiymati bilan jamiyat ustav kapitalining nisbatiga teng bo'lishi kerak.

Jamiyat ishtirokchilarining umumiy yig'ilishi jamiyat boshqaruvining oliy organi hisoblanadi. Jamiyatning ustavida jamiyatning kuzatuv kengashini tuzish nazarda tutilishi mumkin.

Jamiyatning joriy faoliyatiga rahbarlik qilish jamiyatning yakkaboshchilik asosidagi ijro ətuvchi organi tomonidan yoki jamiyatning kollegial ijro ətuvchi organi tomonidan amalga oshiriladi.

Jamiyat yilning har choragida, yarim yilda bir marta yoki bir yilda bir marta o'zining sof foydasini jamiyat ishtirokchilari o'rtasida taqsimlash to'g'risida qarorni jamiyat ishtirokchilarining umumiy yig'ilishida qabul qilishga haqlidir.

Jamiyat foydasining uning ishtirokchilari o'rtasida taqsimlash uchun mo'ljallangan qismi (dividendlar) ularning jamiyat ustav fondidagi (ustav kapitalidagi) ulushlariga mutanosib ravishda taqsimlanadi.

Xo'jalik shirkatlari. O'zbekiston Respublikasining 2001 yil 6 dekabrda "Xo'jalik shirkatlari to'g'risida"gi qonuni to'liq va kommandit shirkatlar faoliyatini tartibga soladi. Mazkur qonunga muvofiq: "Muassislarning (ishtirokchilarning) ulushlariga (hissalariga) bo'lingan ustav fondiga (ustav kapitaliga) ega bo'lgan tijorat tashkiloti xo'jalik shirkati hisoblanadi, bunday shirkatda muassislar (ishtirokchilar) yoki ulardan ayrimlari shirkat nomidan tadbirkorlik faoliyati yuritishda shaxsan ishtirok ətadilar. Xo'jalik shirkati to'liq shirkat yoki kommandit shirkat shaklida tuziladi.

Ishtirokchilari (to'liq sheriklari) o'z o'rtalarida tuzilgan shartnomaga muvofiq shirkat nomidan tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullanadigan hamda uning majburiyatlari bo'yicha o'zlariga qarashli butun mol-mulk bilan javob beradigan shirkat to'liq shirkat deb hisoblanadi. Shaxs faqat bitta to'liq shirkatning ishtirokchisi bo'lishi mumkin.

Shirkat nomidan tadbirkorlik faoliyatini amalga oshiradigan hamda shirkatning majburiyatlari bo'yicha o'zlarining butun mol-mulklari bilan javob beradigan ishtirokchilar (to'liq sheriklar) bilan bir qatorda shirkat faoliyati bilan bog'liq zararlar uchun o'zlari qo'shgan hissalar doirasida javobgar bo'ladigan hamda shirkat tomonidan tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirishda ishtirok ətmaydigan bir yoki bir

necha ishtirokchi (hissa qo'shuvchi, kommanditchi) mavjud bo'lsa, bunday shirkat kommandit shirkat deb hisoblanadi⁶".

Yakka tadbirkorlar va tijoratchi tashkilotlar to'liq shirkatning ishtirokchilari hamda kommandit shirkatda to'liq sheriklar bo'lishlari mumkin. Yuridik va jismoniy shaxslar kommandit shirkatda hissa qo'shuvchilar bo'lishlari mumkin.

Shaxs faqat bitta kommandit shirkatda to'liq sherik bo'lishi mumkin. To'liq shirkat ishtirokchisi kommandit shirkatda to'liq sherik bo'la olmaydi. Kommandit shirkatdagi to'liq sherik o'sha shirkatning o'zida hissa qo'shuvchi va boshqa to'liq shirkatda ishtirokchi bo'lishi mumkin emas.

Xo'jalik shirkati, agar uning ta'sis shartnomasida boshqacha qoida belgilangan bo'lmasa, nomuayyan muddatga tuziladi. Xo'jalik shirkati o'zining mustaqil balansida hisobga olinadigan alohida mol-mulkiga ega bo'ladi, o'z nomidan huquqlarni olishi, majburiyatlarga ega bo'lishi, sudda da'vogar va javobgar bo'lishi mumkin.

Shirkatning ustav kapitali uning ishtirokchilari ulushlarining nominal qiymatidan tarkib topadi. Shirkat ustav kapitalining miqdori shirkatni davlat ro'yxatidan o'tkazish uchun hujjatlarni taqdim etish sanasidagi holatga ko'ra qonun hujjatlarida belgilangan eng kam oylik ish haqining ellik baravaridan kam bo'lmasligi kerak.

Shirkat ishtirokchisining shirkat ustav kapitalidagi ulushining miqdori foizlarda yoki kasr ko'rinishida belgilanadi. Shirkat ishtirokchisi ulushining miqdori uning ulushining nominal qiymati bilan shirkat ustav kapitalining o'zaro nisbatiga muvofiq bo'lishi kerak.

Ishtirokchilarning umumiy yig'ilishi shirkatning oliy boshqaruv organi hisoblanadi. Shirkatning har bir ishtirokchisi, agar ta'sis shartnomasida ishtirokchilar ovozining sonini aniqlashning boshqacha tartibi nazarda tutilgan bo'lmasa, bir ovozga ega bo'ladi.

Kommandit shirkat faoliyatini boshqarish to'liq sheriklar tomonidan amalga oshiriladi. Hissa qo'shuvchilar kommandit shirkatni boshqarishda va uning ishlarini yuritishda ishtirok etishga ishonchnomasiz boshqa har qanday tarzda uning nomidan ish ko'rishga haqli emaslar.

Shirkat foydasi va zararlari uning ishtirokchilari o'rtasida, agar ta'sis shartnomasida boshqacha qoida nazarda tutilgan bo'lmasa, ularning ustav kapitalidagi ulushlariga mutanosib ravishda taqsimlanadi.

Shirkat ishtirokchilari shirkatning majburiyatlari yuzasidan o'z mol-mulkilari bilan solidar tarzda subsidiar javobgar bo'ladilar.

9.4. Korporativ mulkka asoslangan firmalar

O'zbekiston Respublikasining 2014 yil 6 maydagi "Aksiyadorlik jamiyatlari va aksiyadorlarning huquqlarini himoya qilish to'g'risida"gi qonuni aksiyadorlik

⁶ O'zbekiston Respublikasining 2001 yil 6 dekabrda "Xo'jalik shirkatlari to'g'risida"gi qonuni. www.lex.uz.

jamiyatlarining faoliyatini tartibga soladi. Mazkur qonunga muvofiq: “Ustav kapitali aksiyadorlarning aksiyadorlik jamiyatiga nisbatan huquqlarini tasdiqlovchi muayyan miqdordagi aksiyalarga taqsimlangan tijorat tashkiloti aksiyadorlik jamiyati deb eʼtirof etiladi.

Jamiyat yuridik shaxs boʻlib, u oʻz mustaqil balansida hisobga olinadigan alohida mol-mulkka, shu jumladan oʻzining ustav fondiga (ustav kapitaliga) berilgan mol-mulkka ega boʻladi, oʻz nomidan mulkiy va shaxsiy nomulkiy huquqlarni olishi hamda amalga oshirishi, zimmasiga majburiyatlar olishi, sudda daʼvogar va javobgar boʻlishi mumkin.

Jamiyat davlat roʻyxatidan oʻtkazilgan paytdan eʼtiboran yuridik shaxs maqomiga ega boʻladi. Jamiyat, agar uning ustavida boshqacha qoida belgilanmagan boʻlsa, cheklanmagan muddatga tuziladi⁷”.

Aksiyadorlik jamiyati oʻz majburiyatlari yuzasidan oʻziga tegishli barcha mol-mulk bilan javobgar boʻladi. Aksiyadorlar jamiyatning majburiyatlari yuzasidan javobgar boʻlmaydi va uning faoliyati bilan bogʻliq zararlarning oʻrnini oʻzlariga tegishli aksiyalar qiymati doirasida qoplash tavakkalchiligini oʻz zimmasiga oladi. Jamiyat oʻz aksiyadorlarining majburiyatlari yuzasidan javobgar boʻlmaydi.

Jamiyatni tashkil etish toʻgʻrisidagi taʼsis shartnomasini imzolagan yuridik va jismoniy shaxslar jamiyatning muassislari deb eʼtirof etiladi.

Jamiyatning ustav kapitali aksiyadorlar olgan jamiyat aksiyalarining nominal qiymatidan tashkil topadi va Oʻzbekiston Respublikasining milliy valyutasida ifodalanadi. Jamiyat tomonidan chiqariladigan barcha aksiyalarning nominal qiymati bir xil boʻlishi kerak. Jamiyat ustav fondining (ustav kapitalining) miqdori jamiyat ustavida belgilanadi va uning eng kam miqdori liçenziya talablarida belgilanishi mumkin.

Jamiyat oʻzi chiqarayotgan aksiyalarga ularni ommaviy joylashtirish yoʻli bilan ochiq obuna oʻtkazishga haqli. Aksiyalar egasining nomi yozilgan eʼmissiyaviy qimmatli qogʻozlar boʻlib, ular turiga koʻra oddiy va imtiyozli boʻlishi mumkin. Aksiyalarning nominal qiymati besh ming soʻmdan ortiq boʻlishi mumkin emas.

Oddiy aksiyalar ovoz beruvchi aksiyalar boʻlib, ular oʻz egasiga dividendlar olish, jamiyatni boshqarishda ishtirok etish huquqini beradi.

Oʻz egalariga dividendlarni, shuningdek jamiyat tugatilayotganda aksiyalarga qoʻyilgan mablagʻlarni birinchi navbatda olish huquqini beradigan aksiyalar imtiyozli aksiyalardir. Imtiyozli aksiyalar oʻz egalariga jamiyat foyda koʻrish-koʻrmasligidan qatʼi nazar, muayyan dividendlar olish huquqini beradi.

“Oltin aksiya” davlatning ayrim jamiyatlarni boshqarishda ishtirok etishiga doir maxsus huquqi boʻlib, u strategik ahamiyatga ega boʻlgan davlat korxonalari xususiylashtirilayotganda yoki jamiyatlarning davlat aksiya paketlari xususiy mulk eʼtibori realizatsiya qilinayotganda Oʻzbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qaroriga asosan joriy etiladi va mamlakatning iqtisodiy manfaatlari himoya qilinishini taʼminlaydi.

⁷ Oʻzbekiston Respublikasining 2014 yil 6 maydagi “Aksiyadorlik jamiyatlari va aksiyadorlarning huquqlarini himoya qilish toʻgʻrisida”gi qonuni. www.lex.uz.

“Oltin aksiya” qiymatga ega bo‘lmaydi, boshqa shaxsga o‘tkazilmaydi hamda garovga berilmaydi, jamiyat ustav fondining (ustav kapitalining) miqdorini belgilashda va dividendlarni hisoblashda inobatga olinmaydi.

Dividend jamiyat sof foydasining aksiyadorlar o‘rtasida taqsimlanadigan qismidir. Jamiyat aksiyalarning har bir turi bo‘yicha e‘lon qilingan dividendlarni to‘lashi shart.

Dividend aksiyadorlarning umumiy yig‘ilishi qaroriga ko‘ra pul mablag‘lari yoki boshqa qonuniy to‘lov vositalari yoxud jamiyatning qimmatli qog‘ozlari bilan to‘lanishi mumkin. Dividend aksiyadorlar o‘rtasida ularga tegishli aksiyalarning soni va turiga mutanosib ravishda taqsimlanadi.

Dividendlar jamiyatning jamiyat tasarrufida qoladigan sof foydasidan va (yoki) o‘tgan yillarning taqsimlanmagan foydasidan to‘lanadi.

Aksiyadorlarning umumiy yig‘ilishi, kuzatuv kengashi va ijroiya organi jamiyatning boshqaruv organlaridir. Aksiyadorlarning umumiy yig‘ilishi jamiyatning yuqori boshqaruv organidir. Jamiyatning kuzatuv kengashi jamiyat faoliyatiga umumiy rahbarlikni amalga oshiradi. Jamiyatning kundalik faoliyatiga rahbarlik qilish vakolati jamiyatning ustavida belgilanadigan direktor yoki jamiyat boshqaruvi tomonidan amalga oshiriladi.

Qisqa xulosalar

Bozor xo‘jaligining asosiy elementlaridan biri firma hisoblanadi. Firma esa, egaligida alohida mol-mulki bo‘lgan va o‘ziga qarashli bo‘lgan korxonada (korxonalarda) mustaqil xo‘jalik faoliyatini amalga oshiradigan yuridik tashkilotdir. Firma maksimal foyda olish va iqtisodiy ne‘matlarni ishlab chiqarish maqsadida resurslarni birlashtiradi. Firma tadbirkorlik faoliyatini amalga oshiradi.

Mulk shakli bo‘yicha firmalar quyidagicha guruhlanadi: yakka mulk egaligi (yakka tartibdagi tadbirkorlar, dehqon xo‘jaliklari, fermer xo‘jaliklari, xususiy firmalar); hamkorlikdagi mulk egaligi (xo‘jalik shirkatlari (to‘liq va kommandit), mas‘uliyati cheklangan va qo‘shimcha mas‘uliyatli jamiyatlar, qishloq xo‘jaligi shirkatlari, kooperativlar boshq.); korporasiya (aksiyadorlik jamiyati).

Yakka mulk egaligi o‘z manfaatlari yo‘lida biznesni mustaqil tashkil etish imkonini beradi. Yakka mulk egaligidagi firmalarning mulki bir kishiga tegishli bo‘lib, bo‘linmasdir.

Hamkorlik biznesni tashkil etishning yakka tadbirkorlikka nisbatan mukammalroq shakli hisoblanadi. Hamkorlikda ikki yoki undan ortiq sheriklar firma tashkil etish va uni birgalikda boshqarishga kelishib oladilar. Bunda ular firmani ta‘sis etish jarayonida o‘zlarining moliyaviy mablag‘larini va ishbilarmonlik qobiliyatlarini ham birlashtiradilar. Shu bilan birga biznesni yuritish bilan bog‘liq tadbirkorlik xatari hamda foyda yoki zararlarni o‘zaro taqsimlaydilar.

Korporasiya biznesni mulk egalardan ajratilgan tashkiliy-huquqiy shakli hisoblanadi. Korporasiya (aksiyadorlar jamiyati) ishtirokchilari uning majburiyatlari bo‘yicha javob bermaydilar va korporasiya faoliyati bilan bog‘liq zarar uchun

o'zlariga qarashli aksiyalar qiymati doirasida javobgar bo'ladilar. Korporasiya uning mulkdorlaridan alohida yuridik shaxs maqomidagi firma hisoblanadi.

Nazorat va muhokama uchun savollar

1. Firma deganda nimani tushunasiz?
2. Firma qanday faliyat turlarini amalga oshiradi?
3. Tadbirkorlik faoliyati deganda nima nazarda tutiladi?
4. Firmalar qanday mezonlar bo'yicha turkumlanadi?
5. Mulkchilik shakli bo'yicha firmalarning qanday turlarini bilasiz?
6. Xususiy mulk egaligidagi firmalarning qanday afzallik va nuqsonlari mavjud?
7. Hamkorlikka asoslangan firmalarning qanday afzallik va nuqsonlari mavjud?
8. Korporativ mulkka asoslangan firmalarning qanday afzallik va nuqsonlari mavjud?
9. Firmalarning qanday tashkiliy-huquqiy shakllarini bilasiz?
10. Turli tashkiliy-huquqiy shakldagi firmalarning tashkiiy-iqtisodiy asoslarini so'zlab bering.

10-bob. ISHLAB CHIQRISH NAZARIYASI

10.1. Ishlab chiqarish va ishlab chiqarish funksiyasi

Ishlab chiqarish - korxonalarining asosiy faoliyati turi bo'lib, bu jarayon cheklangan resurslardan foydalangan holda amalga oshiriladi. Ishlab chiqariladigan mahsulot miqdori, ushbu tovarlarni ishlab chiqarish uchun sarflanadigan resurslar hajmidan va ishlab chiqarishda foydalanilayotgan texnologiyaning holati va darajasiga bog'liq.

Ishlab chiqarish - bu kerakli mahsulotlarni tayyorlash uchun ishchi kuchidan, uskuna va texnologiyadan, tabiiy resurslardan hamda materiallardan ma'lum miqdordagi kombinatsiyada foydalanish jarayonidir. Masalan, o'z ustaxonasiga ega bo'lgan shaxs stol ishlab chiqarish uchun ishchi kuchidan, xom ashyo sifatida taxta, temir, arra va boshqa uskunalarga sarflangan kapitaldan foydalanadi.

Ishlab chiqarish omillarini yiriklashgan uch guruhga bo'lib qarash mumkin: mehnat, kapital va materiallar.

Masalan, mehnat ishlab chiqarish omili sifatida malakali mehnatni (payvandchi, buxgalter, elektr ustasi), malakasiz mehnatni (har xil ishchilar) va korxonah rahbarlarining tadbirkorlik harakatini o'z ichiga oladi. Bu mehnat turlarini umumlashtiruvchi ko'rsatkichlar mehnat sig'imi va mehnat unumdorligidir.

Materiallar deganda, ishlab chiqarish jarayonida tayyor mahsulotga aylanadigan har qanday moddiy narsani qarashimiz mumkin: butlovchi qismlar, yarim fabrikatlar, temir, po'lat, shisha, yoqilg'i, yog'och, paxta va boshqa xom ashyolar tushuniladi.

Moddiy kapital sarfi ishchilar tomonidan binodan, uskunadan, instrumentdan va texnologik liniyalardan foydalanishni o'z ichiga oladi.

Ishlab chiqarish munosabatlari birinchi navbatda mahsulot ishlab chiqarishdagi texnologik munosabatlardir. **Texnologiya** - bu tovarlar va xizmatlarni ishlab chiqarish to'g'risidagi amaliy bilimlardir. Ma'lumki, texnologiyaning takomillashuvi fanda va texnikadagi yangi yutuqlarning ishlab chiqarish jarayoniga joriy qilish orqali boradi. Yangi texnologiya yangi ishlab chiqarish usullaridan foydalanishni, yangi mashina va mexanizmlardan yanada yuqori malakaga ega bo'lgan mehnatdan foydalanishni taqozo qiladi. Yangi texnologiya yangi turdagi mahsulotlarni yaratishga yordam beradi. Yangi texnologiya mahsulot sifatini oshirishga, ish sharoitlarini yaxshilashga, berilgan resurslar miqdori o'zgarmaganda ishlab chiqariladigan mahsulot miqdorini oshirishga, xarajatlarni kamaytirishga olib keladi.

Ishlab chiqarish funksiyasi. Sarflanadigan ishlab chiqarish omillari miqdori bilan, ushbu omillardan foydalangan holda maksimal ishlab chiqariladigan mahsulot miqdori o'rtasidagi bog'liqlikni ishlab chiqarish funksiyasi orqali ifodalash mumkin.

Ishlab chiqarish funksiyasi foydalaniladigan har bir ishlab chiqarish omillari sarfi majmuasidan maksimal Q miqdorda mahsulot ishlab chiqarishni ko'rsatadi.

Agar omillar majmuasi sarfi kapital, mehnat va materiallardan iborat bo'lsa, ishlab chiqarish funksiyasi quyidagi ko'rinishda bo'lishi mumkin:

$$Q = f(K, L, M) \quad (1)$$

bu yerda Q - berilgan texnologiyada maksimal ishlab chiqariladigan mahsulot miqdori; K - kapital; L - mehnat; M - materiallar.

Agar ishlab chiqarish funksiyasi ikkita, K (kapital) va L (mehnat) omillariga bog'liq bo'lsa, ishlab chiqarish funksiyasi quyidagicha yoziladi:

$$Q = f(K, L) \quad (2)$$

Ushbu funktsiyada mahsulot ishlab chiqarish hajmi ikkita ishlab chiqarish omiliga bog'liq - kapital va mehnatga. Masalan, ishlab chiqarish funksiyasi yordamida non ishlab chiqarish kombinatida mehnat resurslaridan va kapitaldan foydalangan holda qancha non mahsulotini ishlab chiqarish mumkinligini ifodalash mumkin, yoki qishloq xo'jalik korxonasiining berilgan mehnat resurslaridan va texnikadan (ishchilarning fond bilan qurollanganlik darajasida) foydalangan holda ma'lum vaqt oralig'ida qancha mahsulot ishlab chiqarishini ifodalash mumkin.

Mahsulot ishlab chiqarish ko'proq qo'l mehnatiga asoslangan bo'lsa (masalan, nonni qo'l mehnati asosida ishlab chiqarilsa), u holda ishlab chiqarish funksiyasini faqat sarflangan mehnatga bog'liq ravishda yozish mumkin:

$$Q = f(L) \quad (3)$$

Agar mahsulot ishlab chiqarishda ko'proq kapital ishtirok etsa, ya'ni mahsulot ishlab chiqarish yuqori kapital sig'imiga ega bo'lsa, ishlab chiqarish funksiyasini $Q = F(K)$ ko'rinishida yozish mumkin.

Ta'kidlash joizki, (1), (2) va (3) tenglamalar ishlab chiqarishning ma'lum texnologiyasida qo'llanilishi mumkin. Agar texnologiya o'zgarsa, ya'ni yangi texnologiya qo'llansa, mahsulot ishlab chiqarish hajmi resurslar hajmi o'zgarmaganda ham o'sishi mumkin.

10.2. Izokvanta va ishlab chiqarish omillarini chekli texnologik almashtirish normasi


Izokvantalar. Ishlab chiqarishda faqat ikkita omil - mehnat va kapitaldan foydalaniladigan ishlab chiqarishni qaraymiz. Faraz qilaylik, mebel ishlab chiqarish tsexida mavjud texnologiya asosida sarflanadigan kapital va mehnatning ma'lum nisbatlari kombinatsiyasida stul ishlab chiqarilmoqda. Quyidagi 10.1-jadvalda har xil resurslar sarflari kombinatsiyasida maksimal ishlab chiqariladigan mahsulot miqdori keltirilgan.

10.1-jadvalga ko'ra ikki birlik mehnat va bir birlik kapital sarflab 50 birlik stul ishlab chiqarish mumkin, yoki uch birlik mehnat va to'rt birlik kapital sarflansa, 110 dona stul ishlab chiqariladi. Jadvalning har bir qatoridagi ishlab chiqarish hajmlarini qarasa shu narsani kuzatishimiz mumkinki, kapital sarfi o'zgarmaganda, mehnat sarfining oshishi bilan birga umumiy ishlab chiqarish hajmi ortib bormoqda.

**Omillar sarfining har xil miqdoriy tarkibida ishlab chiqarilgan
mahsulotlar miqdori**

Kapital Sarfi	Mehnat sarfi, (soatlarda)				
	1	2	3	4	5
1	30	50	60	70	80
2	40	65	80	85	100
3	60	80	100	110	115
4	65	85	110	115	120
5	80	100	120	125	130

Masalan, kapital sarfi 2 ga teng bo'lganda va mehnat sarfi birdan besh birlikgacha o'zgarib, mahsulot ishlab chiqarish hajmi 40 birlikdan 100 birlikgacha o'zgaradi. Xuddi shunday, jadvalning ustunlarini yuqoridan pastga qarab kuzatganimizda ham, mehnat sarfi o'zgarib, kapital sarfi oshib borishiga ko'ra stul ishlab chiqarish hajmi ham oshib borayotganligini ko'ramiz. 5.1-jadvalda keltirilgan mahsulot ishlab chiqarish ko'rsatkichlarini grafikda ham tasvirlash mumkin (10.1-rasm).



10.1- rasm. Ishlab chiqarish omillari sarfi o'zgarishiga ko'ra stul ishlab chiqarish grafiqi.

Rasmda keltirilgan Q_1 egri chizig'i 60 dona stul ishlab chiqarishni ta'minlaydigan kapital va mehnat sarflari kombinatsiyalarini ifodalaydi. Q_2 egri chizig'i 80 dona stul ishlab chiqarish uchun sarflanadigan kapital va mehnat sarflari kombinatsiyalarini, Q_3 egri chizig'i esa 100 dona stul ishlab chiqarish uchun sarflanadigan resurslar sarflari kombinatsiyalarini ifodalaydi.

Rasmdagi Q_1 , Q_2 va Q_3 egri chiziqlarga izokvantalar deyiladi.

Izokvanta - bu bir xil hajmdagi mahsulotni ishlab chiqarishni ta'minlaydigan ishlab chiqarish omillari sarflari kombinatsiyalarini ifodalovchi egri chiziqdir. Demak, 10.1-rasmda uchta izokvanta tasvirlangan Q_1 , Q_2 va Q_3 . Grafikning gorizontaal o'qi bo'yicha mehnat sarfi, vertikal o'q bo'yicha kapital sarfi ko'rsatilgan. Masalan, Q_1 izokvantaning har bir nuqtasi koordinatalari 60 dona stul ishlab chiqarish uchun sarflanadigan mehnat va kapital sarflarini ko'rsatadi. A nuqtada 60 dona stul ishlab chiqarish uchun uch birlik kapital va bir birlik mehnat sarflangan bo'lsa, B nuqtada ushbu 60 dona stul ishlab chiqarish uchun bir birlik kapital va uch birlik mehnat sarflanadi.

Q_2 izokvanta nuqtalari 80 dona stulni mehnat va kapital sarflarining har xil kombinatsiyalarida ishlab chiqarish mumkinligini ifodalaydi. Rasmda Q_2 izokvantaning C , D , E va F nuqtalarida mehnat va kapital sarflarining har xil kombinatsiyalarida 80 dona stul ishlab chiqariladi. Xuddiy shunday Q_3 izokvantaning M , N va T nuqtalari ham har xil ishlab chiqarish omillari sarfida 100 ta stul ishlab chiqarishni ta'minlaydi.

10.1-rasmdan ko'rinib turibdiki Q_3 izokvanta Q_2 izokvantadan o'ngroq va yuqoriroqda joylashgani uchun unga to'g'ri keladigan ishlab chiqarish hajmi Q_2 nikidan ko'proq. Q_2 izokvanta esa Q_1 ga nisbatan o'ngroq va yuqoriroqda joylashgani uchun unga to'g'ri keladigan ishlab chiqarish hajmi Q_2 nikidan ko'proq.

Demak, izokvantalar chapdan o'ngga va yuqoriga qarab joylashib borsa, ularga to'g'ri keladigan ishlab chiqarish hajmi ham mos holda oshib boradi. 5.1-rasmdagi izokvantalar uchun $Q_1 < Q_2 < Q_3$ deb yozishimiz mumkin.


Izokvantalarni bunday tartibda joylashishini ikkita omildan, ya'ni mehnat va kapital sarflariga bog'liq ishlab chiqarish funksiyasi yordamida ko'rib chiqamiz.

quyidagi ishlab chiqarish funksiyasi berilgan bo'lsin: $Q = f(L, K)$ (1)

(1)-funktsiyaning uch o'lchovli fazodagi grafigi 10.2-rasmdagi ko'rinishda bo'ladi. Rasmda ishlab chiqarish funksiyasi grafigi berilgan, u yarmi kesilgan qozonni eslatadi. Q_1', Q_2', Q_3' lar funktsiyaning ma'lum qiymatlari bo'lib, ular funktsiyaning daraja chiziqlari deyiladi. Bu yerda funktsiyaning daraja chiziqlariga to'g'ri keluvchi mahsulot ishlab chiqarish hajmlari quyidagi tengsizlikni qanoatlantiradi: $Q_1' < Q_2' < Q_3'$.

Funktsiyaning daraja chiziqlarining OLK tekisligiga proektsiyasi Q_1 , Q_2 va Q_3 izokvantalar hisoblanadi. Ishlab chiqarish funksiyasining yuqori daraja chizig'iga to'g'ri keluvchi izokvantaga yuqori mahsulot ishlab chiqarish hajmi to'g'ri keladi. Rasmdan ko'rinib turibdiki, izokvantalar bir-biri bilan kesishmaydi.

Izokvantalar kartasi - bu izokvantalar majmuasidan iborat bo'lib, ularning har biri ma'lum ishlab chiqarish omillari sarflari kombinatsiyalariga to'g'ri keladigan maksimal ishlab chiqarish hajmini o'zida akslantiradi.



10.2-rasm. Ishlab chiqarish funksiyasi grafigi va uning Q_1 , Q_2 va Q_3 darajadagi chiziqlari

Izokvantalar firmalarda mahsulot ishlab chiqarishning variantlari ko‘pligini ko‘rsatadi. Bu firmalar uchun muhim axborot bo‘lib, keyinchalik ko‘ramiz, qanday qilib izokvantalar mahsulot ishlab chiqarishda xarajatlarni minimallashtiradigan yoki foydani maksimallashtiradigan omillar sarfi kombinatsiyalarini tanlashga imkon yaratadi.

Ma‘lum vaqt oralig‘ida jami ishlab chiqarilgan mahsulotni umumiy mahsulot desak, **o‘rtacha mahsulot** - umumiy mahsulotni ushbu mahsulotni ishlab chiqarish uchun sarflangan o‘zgaruvchan ishlab chiqarish omillari sarfiga nisbati bilan

aniqlanadi. $AP = \frac{Q}{F}$,

bu yerda: Q - umumiy mahsulot miqdori; AP - o‘rtacha mahsulot; F -sarflangan resurslar.

Chekli mahsulot - bu o‘zgaruvchan resurslar kombinatsiyasini kichik miqdorda qo‘shimcha sarfi hisobidan umumiy mahsulotning o‘sgan qismiga aytiladi. Masalan, ishlab chiqarishda bitta omil, ya’ni faqat mehnat saflansa chekli mahsulot

MP_L quyidagicha aniqlanadi: $MP_L = \frac{\Delta Q}{\Delta L}$;

ΔQ - qo‘shimcha birlik mehnat sarfi (ΔL) hisobiga ishlab chiqarilgan qo‘shimcha mahsulot miqdori.

Agar ishlab chiqarishda mehnat sarfi o‘zgarmas bo‘lib, mahsulot ishlab chiqarish faqat kapitalga bog‘liq bo‘lsa, chekli mahsulot MP_K ga teng:

$$MP_K = \frac{\Delta Q}{\Delta K}$$

Bu yerda: ΔQ - bir birlik qo'shimcha kapital sarfi hisobidan ishlab chiqarilgan qo'shimcha mahsulot; ΔK - bir birlik qo'shimcha sarflangan kapital.

Quyidagi jadvalda mehnat sarfi o'zgarmas bo'lganda, ishlab chiqarish hajmi faqat kapital sarfiga bog'liq bo'lgandagi o'rtacha va chekli mahsulotlar miqdori ko'rsatilgan.

10.2-jadval


Bir o'zgaruvchi omil qatnashgandagi ishlab chiqarish

Kapital sarfi, K	Mehnat sarfi, L	Mahsulot ishlab chiqarish hajmi, Q	O'rtacha mahsulot, $AP = \frac{Q}{L}$	Chekli mahsulot, $MP_L = \frac{\Delta Q}{\Delta L}$
15	0	0	-	-
15	1	12	12	12
15	2	32	16	20
15	3	60	20	28
15	4	80	20	20
15	5	95	19	15
15	6	108	18	13
15	7	112	16	4
15	8	112	14	0
15	9	108	12	-4
15	10	100	10	-8

Birinchi ustun ishlab chiqarishda qatnashgan kapitalning o'zgarasligini ko'rsatib turibdi. Ikkinchi ustunda mehnat sarfi keltirilgan. Bir birlik mehnat sarfiga to'g'ri keladigan mahsulot o'rtacha mahsulot bo'lib, u to'rtinchi ustunda keltirilgan. O'rtacha mahsulot ishlab chiqarilgan mahsulotni umumiy mehnat sarfiga nisbati bilan aniqlanadi. O'rtacha mahsulot ishlab chiqarish hajmi 84 birlikka etguncha ortib, undan keyin qisqarib boradi. O'rtacha mahsulot maksimal bo'lganda mehnat sarfi to'rt birlikni tashkil qiladi.

Beshinchi ustunda mehnat sarfining chekli mahsuloti MP_L keltirilgan. U qo'shimcha bir birlik mehnat sarfi hisobidan ishlab chiqarilgan qo'shimcha mahsulot miqdori bo'lib, mahsulot ishlab chiqarish hajmini ko'rsatuvchi uchinchi ustundagi har bir mahsulot miqdoridan undan oldingi ishlab chiqarilgan mahsulot miqdorini ayirish orqali aniqlanadi. Masalan, kapital sarfi o'zgarmas bo'lganda (15 birlik) mehnat sarfining ikki birlikdan uch birlikka o'zgarishi mahsulot ishlab chiqarishni 32 birlikdan 60 birlikka oshiradi, demak qo'shimcha bir birlik mehnat sarfi $60-32=28$ birlik qo'shimcha mahsulot yaratadi. O'rtacha mahsulotdek, chekli mahsulot ham boshida o'sib, keyinchalik kamayib boradi (ya'ni, u 3 birlik mehnat sarfigacha o'sib, mehnat sarfi 3 birlikdan oshganda kamayib boradi). Shuni esdan chiqarmaslik kerakki, chekli mahsulot miqdori mehnatga va boshqa kapital sarfiga ham bog'liq. Agar mehnat sarfi o'zgarsa kapital sarfi ham o'zgarishi mumkin.

Omillar mahsuldorligining kamayish qonuni. Omillar mahsuldorligini kamayish qonuni shuni ko‘rsatadiki, biror bir ishlab chiqarish omilidan foydalanish oshib borganda (boshqa omillardan foydalanish o‘zgarmaganda), shunday bir nuqtaga erishiladiki, ushbu nuqtadan boshlab qo‘shimcha ishlatilgan omil ishlab chiqarish hajmini kamaytiradi (10.3-rasm).



10.3-rasm. Bir o‘zgaruvchi omil (L-mehnat) sarfida ishlab chiqarish grafigi


Agar biz o‘zgaruvchan omil sifatida mehnat sarfini qarasak (kapital sarfi o‘zgarmaganda), mehnat sarfi kichik miqdorda oshganda mahsulot ishlab chiqarish hajmini anchagina oshiradi, nima uchun deganda, boshlang‘ich davrda mehnat sarfining oshishi kapitaldan to‘liqroq foydalanish imkonini beradi. Natijada chekli mahsuldorlik, umumiy va o‘rtacha mahsuldorlik oshadi. Lekin pirovard natijada ishchilar sonining oshishi (kapitalning o‘zgarmaganligi) chekli mehnat unumdorligini kamayishiga olib keladi, ya‘ni omil mahsuldorligining kamayish qonuni ishlay boshlaydi.

Omil mahsuldorligining (bir birlik qo‘shimcha omil sarfiga to‘g‘ri keladigan qo‘shimcha mahsulot) kamayish qonuni qisqa muddatli oraliqqa xosdir, chunki bu

oraliqda kamida bitta omil o'zgarib qoladi. Uzoq muddatli oraliqda barcha omillar ma'lum miqdordagi kombinatsiyada oshsa ishlab chiqarish hajmi ham oshib boradi.

Omil mahsuldorligining kamayish qonuni chekli mahsulotning kamayishini ifodalaydi. Mahsuldorlik kamayish qonuni ma'lum bir ishlab chiqarish texnologiyasida o'rinlidir (10.3-rasm). Yuqorida keltirilgan jadval ma'lumotiga ko'ra umumiy mahsulot miqdori, o'rtacha va chekli mahsulot miqdorlarini qarab chiqamiz: O'rtacha mahsulot va chekli mahsulot chiziqlari bir-biri bilan bog'liqdir. Agar chekli mahsulot o'rtacha mahsulotdan katta bo'lsa ($MP_L > AP$), o'rtacha mahsulot o'sadi. Rasmda NA' oraliqda chekli mahsulot MP_L o'rtacha mahsulot AP dan katta bo'lgani uchun, o'rtacha mahsulot o'sadi. A' nuqtada, chekli mahsulot maksimumga erishadi. $A'M$ oraliqda chekli mahsulot kamayib, M nuqtada o'rtacha mahsulotga teng bo'ladi. MC' oraliqda $MP_L < AP$ bo'lgani uchun o'rtacha mahsulot kamayib boradi.

Omillar mahsuldorligining kamayish qonuni absolyut bo'lmasdan nisbiy xarakterga egadir va u ma'lum ishlab chiqarish texnologiyasiga qo'llaniladi. Vaqt o'tishi bilan texnologiyaning takomillashuvi, mahsulot ishlab chiqarish chizig'ini yuqoriroqqa ko'tarilishiga olib kelishi mumkin. Masalan, birinchi texnologiyada o'zgaruvchan mehnat resursidan maksimal foydalanish L_1 bo'lsa (10.4-rasm), yangi, takomillashgan 2-texnologiyaga o'tilishi, mehnat sarfi hajmini L_2 ga oshiradi ($L_2 > L_1$), yanada takomillashgan 3-texnologiyaga o'tilishi mehnat sarfini L_3 miqdorgacha oshiradi $L_3 > L_2 > L_1$.



10.4-rasm. Texnologiya takomillashuvining ishlab chiqarish hajmiga ta'siri

Shuni eslatib o'tish kerakki, texnologiyaning takomillashuvi omil mahsuldorligining kamayishi qonunini umuman ishlamasligini bildirmaydi, ushbu qonun har qanday ishlab chiqarish texnologiyasida ham o'z kuchini saqlab qoladi. Rasmdagi 1, 2 va 3-takomillashgan texnologiyalarga mos keluvchi ishlab chiqarish

chiziqlaridagi A , B , C nuqtalardan keyingi ishlab chiqarish nuqtalarida har bir qo‘shimcha sarflangan ishlab chiqarish omili (mehnat sarfi), ishlab chiqarish hajmini kamaytiradi.


Ishlab chiqarish egri chiziqlarining o‘ngga yuqoriga siljishi ushbu qonunni ishlashini ma’lum ma’noda sezdirmaydi. Xuddi mana shu holat, ya’ni mahsuldorlikning kamayish qonunini qisqa muddatli orliqdagi va uzoq muddatli oraliqdagi (texnologiyalarning takomillashuvi sharoitida) ishlash mohiyatidagi anglashmovchiliklar ingliz iqtisodchi olimi Tomas Maltusni (1766-1834) yer sharida aholining uzuluksiz o‘sishi kelajakda og‘ir oqibatlarga olib kelishi mumkinligi to‘g‘risidagi bashoratiga sabab bo‘ldi. Maltusning ushbu bashorati asosida omil mahsuldorligining kamayish qonuni yotadi. Maltus yer sharidagi qishloq xo‘jaligida ishlatiladigan yerlarning nisbatan cheklanganligi va unda mehnat qiladigan aholining o‘sib borishi pirovardda mehnat unumdorligini kamayishiga olib keladi va cheklangan yer oshib borayotgan aholini oziq-ovqat bilan yetarli darajada ta’minlay olmaydi, deb faraz qiladi, ya’ni chekli va o‘rtacha mahsuldorlikning kamayishi bilan aholining o‘sib borishi umumiy ocharchilikka olib keladi.

Ma’lumki, Maltus xatoga yo‘l qo‘yadi (lekin, uning mehnat unumdorligining kamayish to‘g‘risidagi fikri to‘g‘ri bo‘lsada). Jahondagi ishlab chiqarish taraqqiyoti shuni ko‘rsatadiki, ikkinchi jahon urushidan keyingi yillarda oziq-ovqat ishlab chiqarish hajmi jahon bo‘yicha oshib bormoqda.

Ishlab chiqarish omilarini bir-biri bilan almashtirish. Ikki omilga bog‘liq ishlab chiqarish funksiyasini ko‘rib chiqamiz. Masalan, ishlab chiqarishda ikkita omildan - mehnat va kapitaldan foydalaniladi, deylik. U holda ishlab chiqarish funksiyasi quyidagi ko‘rinishda bo‘ladi: $Q = F(L, K)$

Bu yerda: Q - mahsulot hajmi; K - kapital; L - mehnat.

Faraz qilaylik, mehnat va kapital sarflab oziq-ovqat ishlab mahsulot ishlab chiqarishi hajmlaridagi izokvantalar 10.5-rasmda keltirilgan.



10.5-rasm. Izokvantalar

Ma’lumki, izokvanta - bu egri chiziq bo‘lib, bir xil hajmdagi mahsulotni ishlab chiqarish uchun sarflanadigan omillar kombinatsiyalarini ifodalaydi. Shuning uchun ham 65 birlik mahsulot ko‘proq kapitaldan foydalangan holda ishlab chiqarish mumkin (A nuqta), yoki ko‘proq mehnat sarfidan foydalanib ishlab chiqarish mumkin

(*B* nuqta). Ikkala chetki *A* va *B* nuqta oraliqlaridagi variantlar ham bo‘lishi mumkin. Rasmdan malumki, mahsulot ishlab chiqarishda mehnat omili (*L*) sarfining oshishi, kapital (*K*) sarfining kamayishi hisobiga to‘ldiriladi. $Q_1 = 65$, $Q_2 = 85$, $Q_3 = 100$, ya’ni, $Q_1 = f(L, K)$; $Q_2 = f(L, K)$; $Q_3 = f(L, K)$.


Chekli texnologik almashtirish normasi. Izokvantaning ma’lum nuqtasidagi burchak koeffitsienti bir ishlab chiqarish omili bilan (bu yerda kapital) boshqa bir omilni (mehnatni) texnik almashtirish qanday bo‘layotganligini ko‘rsatib beradi. Shuning uchun ham ushbu burchak koeffitsientining absolyut qiymati chekli texnologik almashtirish normasi deb yuritiladi va u *MRTS* ko‘rinishida belgilanadi.

MRTS o‘z mohiyatiga ko‘ra iste’mol nazariyasidagi chekli almashtirish normasi *MRS* ga o‘xshashdir:

$$MRTS = - \frac{\Delta K}{\Delta L} \frac{- \text{kapital sarfining o'zgarishi}}{- \text{mehnat sarfining o'zgarishi}}$$

Bu yerda ΔK va ΔL lar bitta izokvantada bo‘lgani uchun mahsulot ishlab chiqarish hajmi *Q* o‘zgarmaydi ($Q = const$). 10.5-rasmdan ko‘rish mumkinki, ishlab chiqarish hajmi 85 birlik bo‘lib, o‘zgarmaganda mehnat sarfi birdan 2 ga o‘zgarganda $-\frac{\Delta K}{\Delta L} = 2$. Mehnat sarfi 2 dan 3 ga oshganda *MRTS* = 1 ga teng (kamayib bormoqda).

Mehnat sarfi 3 birlikdan 4 ga o‘zgarganda va 4 birlikdan 5 ga o‘zgarganda *MRTS* mos ravishda $\frac{2}{3}$ va $\frac{1}{3}$ ga kamayib boradi. Demak, qancha ko‘p miqdordagi mehnat kapital bilan almashtirilsa, shuncha mehnat unumdorligi past bo‘ladi va kapitaldan foydalanish nisbatan samarali bo‘lib boradi (10.6-rasm).



10.6-rasm. Chekli texnologik almashtirish normasi

Izokvanta chizig'i botiq shakldagi ko'rinishga ega, shuning uchun izokvanta chizig'i bo'yicha pastga harakat qilganimizda $MRTS$ qisqarib boradi. Chekli texnologik almashtirish normasining kamayishi har qanday omildan foydalanish samaradorligi cheklanganligini ko'rsatadi. Ishlab chiqarishda kapitalni ko'proq mehnat bilan almashtirish mehnat unumdorligini pasayishiga olib kelsa, xuddi shunday mehnatni ko'proq kapital bilan almashtirish kapital qaytimini (bir-birlik qo'shimcha kapital hisobidan ishlab chiqariladigan qo'shimcha mahsulot miqdorini) kamaytiradi. Ishlab chiqarish hajmini oshirish uchun balanslashgan resurslar kombinatsiyalari talab qilinadi.

$MRTS$ chekli kapital mahsuloti MP_K va chekli mehnat mahsuloti MP_L bilan bog'liqdir. Bunday bog'liqlikni ko'rish uchun kapitalni mehnat bilan almashtirishda ishlab chiqarish hajmi Q^* o'zgarmaydi deylik, ya'ni almashtirish Q^* izokvanta chizig'ida amalga oshiriladi, deb qaraymiz.

Mehnat sarfining oshishi natijasida olingan qo'shimcha mahsulot ΔQ_L^* quyidagiga teng: $\Delta Q_L^* = MP_L \cdot \Delta L$

Bu yerda MP_L - qo'shimcha bir birlik mehnat sarfi hisobidan olingan qo'shimcha mahsulot; ΔL - qo'shimcha sarflangan mehnat.

Xuddi shunday qo'shimcha mehnat sarfi hisobidan qisqartirilgan kapital ΔK ga to'g'ri keladigan ishlab chiqarish hajmining qisqarishi ΔQ_K^* quyidagicha hisoblanadi:

$$\Delta Q_K^* = MP_K \cdot \Delta K$$


Bu yerda: ΔQ_K^* - kapital sarfining qisqarishi hisobidan ishlab chiqarish hajmining qisqarishi;

MP_K - chekli kapital mahsuloti, qo'shimcha bir birlik kapital sarfi natijasida olinadigan qo'shimcha mahsulot miqdori; ΔK - kapital sarfining qisqarishi. ΔK bilan ΔL ni almashtirishda ishlab chiqarish hajmi izokvanta chizig'ida o'zgarmasligini hisobga olsak: $\Delta Q_K^* = \Delta Q_L^*$, teng va ishlab chiqarish hajmining o'zgarishi nolga teng bo'ladi. Shunday qilib, $(MP_L) \cdot \Delta L + (MP_K) \cdot \Delta K = 0$.

$$\text{Ushbu munosabatdan quyidagini olamiz: } \frac{MP_L}{MP_K} = -\frac{\Delta K}{\Delta L} = MRTS.$$


Yuqoridagi munosabat shuni ko'rsatadiki, alohida izokvanta uchun kapitalni mehnat bilan ishlab chiqarish jarayonida uzluksiz almashtirish chekli kapital mahsuldorligini oshirishga va chekli mehnat mahsuldorligini kamayishiga olib keladi. Ikkala omilning o'zgarishi bunday chekli texnologik almashtirish normasining kamayishiga va izokvanta chizig'ining to'g'rilanishiga olib keladi.

Ishlab chiqarish funksiyasining ikki xususiy holi. Ishlab chiqarish jarayonida bir omil bilan ikkinchi omilni almashtirishda ikki xususiy hol mavjud. Birinchi holda (10.7-rasm) omillar bir-biri bilan to'liq almashtiriladi. Bu yerda izokvantaning har qanday nuqtasida $MRTS$ o'zgarmas qiymatga ega:



10.7-rasm. Ishlab chiqarish funksiyasining omillari to'liq almashtiriladigan holati

Ikkinchi holda, ishlab chiqarish omillaridan belgilangan tartibda foydalanishni ifodalaydigan ishlab chiqarish funksiyasi (10.8-rasm).



10.8-rasm. Tarkibi belgilangan omillardan foydalanishni ifodalovchi ishlab chiqarish funksiyasi

Har bir ishlab chiqarish hajmi aniq proporsiyadagi omillar kombinatsiyasidan foydalanishni talab qiladi. Masalan Q_1 miqdorda mahsulot ishlab chiqarish K_1 va L_1 miqdordagi resurslar kombinatsiyasini sarflashni talab qiladi; Q_2 va Q_3 miqdordagi mahsulot ishlab chiqarishda - mos holda (K_2, L_2) va (K_3, L_3) tarkibdagi resurslar kombinatsiyalarini sarflash talab qilinadi. Berilgan tarkibdagi resurslardan birortasining miqdori oshirilgan bilan mahsulot ishlab chiqarish oshmaydi.

Shunday qilib to'g'ri burchakli izokvantaning gorizont va vertikal qismlarida chekli kapital va chekli mehnat mahsuldorliklari (MP_K va MP_L) nolga teng. Agar sarflanadigan resurslar bir vaqtning o'zida, ma'lum kombinatsiyada oshsa, mahsulot ishlab chiqarish hajmi oshadi. Masalan, A nuqtadan B nuqtaga va C nuqtaga o'tganda

omillar sarfi kombinatsiyasi mos ravishda (K_1, L_1) dan (K_2, L_2) ga va (K_3, L_3) ga o'zgarganda ishlab chiqarish hajmi ham mos holda Q_1 dan Q_2 ga va Q_3 ga o'sadi. A , B va C nuqtalar texnik nuqtai nazardan samarali omillar kombinatsiyalari hisoblanadi.

10.3. Izokosta va ishlab chiqarish xarajatlarini minimalashtiruvchi omillar sarfini aniqlash

Ishlab chiqarish resurslari cheklanganda maksimal mahsulot ishlab chiqarish masalasi firmalar uchun asosiy masalalardan biri hisoblanadi. Masalani soddalashtirish uchun ikkita o'zgaruvchi omilni ko'ramiz: mehnat va kapital. Mehnat sarfi (L) soatbay ish haqi bilan, kapital sarfi (K) - uskuna, mashina va mexanizmlardan foydalanish vaqti (soatlarda) o'lchanadi. Faraz qilaylik, mehnat va kapital raqobatlashgan bozor sharoitida yollanadi va ijaraga olinadi. Mehnat haqi bir soatlik ish haqi bilan o'lchanadi va uni W orqali belgilaymiz. Kapital narxi - uskuna, mashinalarning bir soatlik ijara haqiga teng deylik va uni r deb belgilaymiz.

Mehnat va kapital raqobatlashgan bozor sharoitida yollanishi va ijaraga olinishini e'tiborga olsak, ularning narxi bozorda aniqlanadi va o'zgarmaydi. Demak, mehnat va kapital narxlari o'zgarmaydi. Berilgan xarajatlarda ishlab chiqarishni maksimallashtirish masalasini qarashda xarajatlar chizig'idan, ya'ni izokostadan foydalanamiz.

Izokosta - bu ishlab chiqarish xarajatlarini ifodalovchi chiziq bo'lib, u umumiy qiymati bir xil bo'lgan ikkita ishlab chiqarish omillari sarflarining barcha kombinatsiyalarini ifodalovchi nuqtalarni o'z ichiga oladi, ya'ni umumiy qiymati bir xil bo'lgan mehnat va kapital sarflari kombinatsiyalarni ifodalovchi nuqtalarni o'z ichiga oladi.


Agar firmaning ishlab chiqarish omillariga sarflanadigan byudjetni S deb belgilasak, ishchi kuchiga sarfini $W \cdot L$ va kapitalga sarfini $r \cdot K$ desak, izokostani ifodalovchi tenglamani quyidagicha yozish mumkin:

$$C = W \cdot L + r \cdot K \quad (1)$$

Demak, firmaning ishchi kuchiga sarfi bilan kapitalga sarfi yig'indisi uning umumiy xarajati C ga teng.

Izokostani grafikda quyidagicha aniqlaymiz:

(1) munosabatdan $K = 0$ bo'lsa, ya'ni firma mablag'ini faqat ishchi kuchiga sarflasa, u $L = \frac{C}{W}$ miqdorda ishchi kuchi yollashi mumkin. $\frac{C}{W}$ nuqtani gorizontal o'q bo'yicha belgilaymiz. Agar firma mablag'ini faqat kapitalga sarflasa, ya'ni $L = 0$ bo'lsa, $K = \frac{C}{r}$ kapitalni ijaraga olish mumkin. $\frac{C}{r}$ nuqtani vertikal o'q bo'yicha joylashtiramiz.



10.9-rasm. Izokosta

$\frac{C}{W}$ va $\frac{C}{r}$ nuqtalarni tutashiruvchi chiziq (1) tenglamani ifodalovchi izokostani beradi. Izokostaning har bir nuqtasiga mos keluvchi resurslar sarfi kombinatsiyasining qiymati umumiy xarajat C ga teng. Masalan, A va B nuqtalar uchun quyidagi tenglikni yozish mumkin:


$$C = W \cdot L_A + r \cdot K_A = W \cdot L_B + r \cdot K_B.$$

Agar nuqta $0N_1N_2$ uchburchak ichida yotsa, shu nuqtaga mos resurslar kombinatsiyasini olganda, firma o'z byudjetini to'liq sarflamaydi. Masalan M nuqta uchun (1)-tenglama quyidagicha yoziladi:

$$W \cdot L_M + r \cdot K_M < C. \quad (2)$$

(1) tenglama firmaning har bir umumiy xarajati uchun grafikda alohida izokosta bilan ifodalanadi. Agar firmaning umumiy xarajatlari ikki variantda bo'lsa, ya'ni C_1 va C_2 hamda $C_1 < C_2$ bo'lsa, ushbu umumiy xarajatlardan uchun izokostalar grafikda quyidagicha joylashadi (10.10-rasm).

Firma byudjetining o'sishi yoki resurslar narxining pasayishi izokostani o'ngga siljitadi, byudjetning qisqarishi va resurslar narxining oshishi izokostani chapga siljitadi.



10.10-rasm. Izokostaning joylashuvi

(1)-tenglamani quyidagi ko‘rinishda yozamiz: $K = \frac{C}{r} - \left(\frac{W}{r}\right) \cdot L.$ (3)


(3)-tenglamadan kelib chiqadiki izokostaning burchak koeffitsienti quyidagiga teng: $\frac{\Delta K}{\Delta L} = -\frac{W}{r}.$ (4)

Izokostaning burchak koeffitsienti $\left(-\frac{W}{r}\right)$ shuni ko‘rsatadiki, agar firma r narxda $\frac{W}{r}$ birlik kapital sotib olish uchun bir birlik mehnat sarfidan voz kechsa (W so‘m iqtisod qiladi), ishlab chiqarishdagi umumiy xarajat qiymati o‘zgarmaydi.

Masalan, agar ish haqi 200000 so‘m, kapitalga ijara haqi 50000 so‘m bo‘lsa $\frac{\Delta K}{\Delta L} = \frac{W = 200000 \text{ cyM}}{r = 50000 \text{ cyM}} = 4$ yoki $\Delta K = 4 \cdot \Delta L.$

Demak, firma umumiy xarajatni o‘zgartirmasdan bir birlik mehnatni 4 birlik kapital bilan almashtirishi mumkin.

Endi firmaning umumiy xarajatlari cheklanganda maksimal mahsulot ihlab chiqarishga erishish masalasini grafik usulda echilishini ko‘rib chiqamiz.



10.11-rasm. Ishlab chiqaruvchining muvozanat nuqtasi

Ishlab chiqaruvchi Q_3 miqdorda ishlab chiqara olmaydi, nimaga deganda uning byudjeti Q_3 miqdordagi mahsulotni ishlab chiqarish uchun kerak bo‘lgan resurslarni sotib olishga etmaydi. Q_1 ham maksimal ishlab chiqarish hajmi bo‘la olmaydi, chunki bu holatda ishlab chiqaruvchi o‘z byudjetini to‘liq sarflamaydi, demak u ishlab chiqarishni oshirishi mumkin.

Q_2 miqdordagi mahsulot berilgan byudjetda eng maksimal mahsulot ishlab chiqarish hajmi hisoblanadi. E nuqtada Q_2 izokvanta bilan izokosta chizig‘i C kesishadi va ushbu E nuqta ishlab chiqaruvchining muvozanat holatini ifodalaydi.

E nuqtada izokvanta ham, izokosta ham bir xil yotqlikka ega ekanligidan va izokvantaning yotqligi chekli texnologik almashtirish normasi bilan o‘lchanishi, ya’ni: $MRTS = -\frac{\Delta K}{\Delta L} = \frac{MP_L}{MP_K}$ (5)

va izokostaning yotqligi $\frac{\Delta K}{\Delta L} = -\frac{W}{r}$ ga tengligini hisobga olsak, muvozanat E nuqta uchun quyidagi tenglik o‘rinli bo‘ladi: $\frac{MP_L}{MP_K} = \frac{W}{r}$ (6)


(6)-munosabatni quyidagicha yozamiz: $\frac{MP_L}{W} = \frac{MP_K}{r}$ (7)

(7)- tenglik ishlab chiqaruvchining muvozanat holatini belgilovchi shart bo‘lib hisoblanadi.

Muvozanat shart (7) shuni ko‘rsatadiki, cheklangan xarajatda maksimal ishlab chiqarishga erishilganda ishlab chiqarish omillari uchun sarflangan har bir qo‘shimcha so‘m bir xil miqdordagi qo‘shimcha mahsulot ishlab chiqarishni ta’minlaydi.

Agar ishlab chiqarish omillaridan birining narxi oshsa, masalan ishchi kuchi narxi oshsa firma, bunday o‘zgarishga ishlab chiqarish jarayonida ishchi kuchini kapital bilan almashtirish bilan javob beradi.

Bunday holat quyidagi grafikda keltirilagan (10.12-rasm).



10.12-rasm. Ishchi kuchini narxi oshganda uni kapital bilan almashtirish

Boshlang‘ich holatdagi C_1 izokostada maksimal ishlab chiqarish E nuqtada erishiladi va L_1, K_1 miqdordagi resurslar sarflanadi. Ishchi kuchining narxi oshganda izokosta C_2 holatga o‘tadi. C_2 izokosta ishchi kuchi narxining oshganligini ifodalaydi.

C_2 izokostada firma maksimal ishlab chiqarish hajmiga E_2 nuqtada erishadi va ishlab chiqarishga L_2 va K_2 miqdordagi resurslar sarflanadi. Ishchi kuchiga

narxning oshishi, ishchi kuchidan foydalanishni qisqartiradi va kapitaldan foydalanishni oshiradi.

Misol. Firmaning ishlab chiqarish funksiyasi quyidagi ko‘rinishga ega:


$$Q = 2 \cdot L \cdot K$$

Kapital narxi 40 000 so‘m, ishchi kuchi narxi 120 000 so‘m. Agar firma byudjeti 12 000 ming so‘m bo‘lsa, u maksimal miqdorda mahsulot ishlab chiqarish uchun ancha ishchi kuchidan va qancha miqdordagi kapitaldan foydalanadi? Maksimal ishlab chiqarish hajmi qancha bo‘ladi?

Demak, masalaning ko‘rinishini quyidagicha yozamiz:

$$Q = 2 \cdot L \cdot K \rightarrow \max .$$

Firmaning byudjeti chegarasida $120 \cdot L + 40 \cdot K \leq 1200$ izokostani chizamiz (10.3-rasm).



10.13-rasm. Firmaning byudjeti chegarasida izokostani chizig‘i

Umumiy formuladan foydalanib maksimal ishlab chiqarishni ta‘minlaydigan resurslar miqdorini aniklaymiz.

$$K = \frac{1200}{2 \cdot r} = \frac{1200}{2 \cdot 40} = 15 \text{ birlik}, \quad L = \frac{1200}{2 \cdot W} = \frac{1200}{2 \cdot 120} = 5 \text{ birlik},$$

Demak, maksimal miqdori $Q = 2 \cdot 5 \cdot 15 = 150$ birlik

150 birlik mahsulot ishlab chiqarish uchun firma 15 birlik kapitaldan va 5 birlik ishchi kuchidan foydalanadi.

10.4. Masshtab samarasi

Xarajatlarning proporsional o‘zgarishga ishlab chiqarish masshtabining o‘zgarishi deyiladi. Ishlab chiqarishda faqat ikkita omildan - ishchi kuchi (L) va kapitaldan (K) foydalanilganda, ulardan foydalanish ikki barobar oshsa $2L$ va $2K$ bo‘lsa, ishlab chiqarish masshtabi ikki barobar kengaydi deyiladi.

Xuddi shunday mehnat va kapitaldan foydalanish ikki marta qisqartirilsa ($0,5L$ va $0,5K$) ishlab chiqarish masshtabi ikki marta qisqarganligini bildiradi. Ishlab chiqarishda omillardan foydalanishning proporsional oshishi, ya‘ni ishlab chiqarish masshtabining

kengayishi mahsulot ishlab chiqarish hajmiga har xil ta'sir qiladi, u mahsulot ishlab chiqarish hajmini oshirishi, kamaytirishi va o'zgartirmasligi mumkin.

Agar ishlab chiqarish masshtabi kengayganda omillar sarfi sur'atidan mahsulot ishlab chiqarish hajmining o'sish sur'ati yuqori bo'lsa, bunday ishlab chiqarish hajmining o'sishiga musbat masshtab samarasi deyiladi. Musbat masshtab samarasida uzoq muddatli o'rtacha xarajatlar kamayadi.

Agar, ishlab chiqarish masshtabi kengayganda, omillar sarfi sur'atidan ishlab chiqarish hajmining o'sish sur'ati past bo'lsa, bunday o'sishga manfiy masshtab deyiladi. Manfiy masshtab samarasida (keyinchalik ko'ramiz) uzoq muddatli oraliqda firma mahsulot ishlab chiqarishni oshirganda o'rtacha harajatlar oshib boradi.

Ishlab chiqarish masshtabi kengayganda omillar sarfi sur'ati ishlab chiqarish hajmining o'sish sur'atiga teng bo'lsa, bunday o'sishga o'zgarmas masshtab samarasi deyiladi.

Masshtab samarasi mahsulot ishlab chiqarish hajmining, mahsulotni ishlab chiqarish uchun sarflanadigan omillar miqdori bilan bog'liqligi bilan ifodalanishini e'tiborga olsak, uni o'rganishda ishlab chiqarish funksiyasidan foydalanish maqsadga muvofiqdir.

Ishlab chiqarish funksiyasi berilgan bo'lsin:

$$Q = f(X) = f(x_1, x_2, \dots, x_n),$$

bu yerda Q - ishlab chiqarish hajmi, x_1, x_2, \dots, x_n - ishlab chiqarish omillari sarfi miqdori.

Agar ishlab chiqarish masshtabi λ barobar oshsa ($\lambda > 1$) u holda ishlab chiqarish masshtabining kengayishini quyidagicha yozamiz:

$$\lambda \cdot X = (\lambda \cdot x_1, \lambda \cdot x_2, \dots, \lambda \cdot x_n).$$

Bu yerda λ ishlab chiqarish masshtabining o'zgarishini ifodalaydi. U holda ishlab chiqarish masshtabining λ barobar kengayishini mahsulot ishlab chiqarish hajmiga ta'sirini quyidagicha yozish mumkin:

$$Q = f(\lambda \cdot X) = \lambda^n \cdot f(x_1, x_2, \dots, x_n).$$

Ishlab chiqarishda faqat ikkita omildan foydalanilsa mehnat va kapitaldan. U holda yozish mumkin :

$$Q = A \cdot f(\lambda K, \lambda L) = \lambda^K \cdot A \cdot f(K, L).$$

Oxirgi munosabat ishlab chiqarish omillari sarfi λ barobar oshganda ishlab chiqarish hajmi λ^K barobar oshishini bildiradi.

Agar, $K > 1$ bo'lsa, ishlab chiqarish musbat masshtab samarasiga ega, ya'ni ishlab chiqarish o'sish sur'ati omillar sarfi sur'atidan yuqori.

Agar, $K < 1$ bo'lsa, ishlab chiqarish manfiy masshtab samarasiga ega.

Agar $K = 1$ bo'lsa, masshtab samarasi o'zgarmas, ishlab chiqarishning o'sish sur'ati omillar sarfi sur'atiga teng.

Misol. Ishlab chiqarish funksiyasi quyidagicha berilgan bo'lsin:

$$Q(L, K) = 2 \cdot L^{0,7} \cdot K^{0,8}.$$

Ushbu funksiya musbat, manfiy yoki o'zgaras masshtab samarasiga ega ekanligi aniqlansin.

Ishlab chiqarish masshtabini λ ($\lambda > 1$) barobar oshirsak.

$$Q(\lambda K, \lambda L) = 2(\lambda L)^{0,7} \cdot (\lambda K)^{0,8} = \lambda^{1,5} \cdot 2L^{0,7} \cdot K^{0,8}.$$

Demak, ishlab chiqarish funksiyasi musbat samaraga ega ($K = 1,5 > 1$), ya'ni omillar sarfi sur'ati λ bo'lganda, ishlab chiqarish hajmining o'sish sur'ati $\lambda^{1,5}$ ga teng bo'ladi.

Qisqa xulosalar

Ishlab chiqarish - korxonalarining asosiy faoliyati turi bo'lib, bu jarayon cheklangan resurslardan foydalangan holda amalga oshiriladi. Ishlab chiqariladigan mahsulot miqdori, ushbu tovarlarni ishlab chiqarish uchun sarflanadigan resurslar hajmidan va ishlab chiqarishda foydalanilayotgan texnologiyaning holati va darajasiga bog'liq. Sarflanadigan ishlab chiqarish omillari miqdori bilan, ushbu omillardan foydalangan holda maksimal ishlab chiqariladigan mahsulot miqdori o'rtasidagi bog'liqlikni ishlab chiqarish funksiyasi orqali ifodalash mumkin.

Izokvanta - bu bir xil hajmdagi mahsulotni ishlab chiqarishni ta'minlaydigan ishlab chiqarish omillari sarflari kombinatsiyalarini ifodalovchi egri chiziqdir.

Omillar mahsuldorligini kamayish qonuni shuni ko'rsatadiki, biror bir ishlab chiqarish omilidan foydalanish oshib borganda (boshqa omillardan foydalanish o'zgaraganida), shunday bir nuqtaga erishiladiki, ushbu nuqtadan boshlab qo'shimcha ishlatilgan omil ishlab chiqarish hajmini kamaytiradi. Omil mahsuldorligining kamayish qonuni chekli mahsulotning kamayishini ifodalaydi.

Izokvantaning ma'lum nuqtasidagi burchak koeffitsienti bir ishlab chiqarish omili bilan (bu yerda kapital) boshqa bir omilni (mehnatni) texnik almashtirish qanday bo'layotganligini ko'rsatib beradi. Shuning uchun ham ushbu burchak koeffitsientining absolyut qiymati chekli texnologik almashtirish normasi deb yuritiladi.

Nazorat va muhokama uchun savollar

1. Ishlab chiqarish omillariga nimalar kiradi?
2. Ishlab chiqarish funksiyasi nimani ifodalaydi?
3. Izokvanta yordamida nimalarni tahlil qilish mumkin?
4. Chekli texnologik almashtirish normasining mazmuni nimadan iborat?
5. Izokosta nimani ifodalaydi?
6. Izokostaning yotliqlik burchak koeffitsienti nimani ifodalaydi?
7. Firmaning umumiy xarajatlari cheklanganda maksimal mahsulot ishlab chiqarish masalasining qo'yilishi va uning echimi qanday amalga oshiriladi?
8. Chekli va o'rtacha mahsulotni hisoblash usulini ko'rsating.
9. Izokosta chizig'ning parallel siljishi sabablari nimada?
10. Masshtab samarasi nimani ifodalaydi?

11-bob. ISHLAB CHIQRISH XARAJATLARI

11.1. Firmaning qisqa va uzoq muddatli oraliqdagi faoliyati

Firmaning ishlab chiqarishi va xarajatlari to'g'risida gapirganda ularni ikki xil vaqt oralig'ida qarash lozim, qisqa muddatli va uzoq muddatli.

Qisqa muddatli oraliq - bu shunday vaqt oralig'iki, firma bu oraliqda faoliyat ko'rsatganda, u ishlab chiqarish omillaridan kamida bittasining hajmini o'zgartira olmaydi. Bunday omilga o'zgarmas ishlab chiqarish omillari deyiladi.

O'zgarmas omil sifatida firma kapitali - ishlab chiqarish quvvati hisoblanadi. Masalan, firma kapitalidan foydalanish yo'nalishini o'zgartirish uchun odatda uzoq vaqt talab qilinadi. Yangi zavod qurish uchun, birinchi navbatda uning loyihasi ishlab chiqiladi, uskuna va texnologik liniyalar sotib olinadi va o'rnatiladi. Ushbu ishlarni amalga oshirish uchun ko'p vaqt talab qilinadi (kamida bir yil).

Uzoq muddatli oraliq - bu oraliqda firma ishlab chiqarishda foydalanayotgan barcha ishlab chiqarish omillari hajmini (ishlab chiqarish quvvatini ham) o'zgartiradi. Uzoq muddatli oraliqda barcha ishlab chiqarish resurslari o'zgaradi va bunday resurslarga o'zgaruvchan resurslar deyiladi.

Qisqa muddatli oraliqda firma ishlab chiqarish quvvatini o'zgartira olmaydi, lekin undan foydalanishni intensivlashtirishi mumkin.


Uzoq muddatli oraliqda ishlab chiqarish quvvati ham o'zgaradi. Albatta uzoq va qisqa muddatli oraliqlar har-xil mahsulotlar uchun turlicha bo'lishi mumkin.

11.2. Firmalarda xarajatlar tushunchasi va ularning turkumlanishi

Har bir firma mahsulot ishlab chiqarish jarayoni bilan bog'liq xarajatlarni amalga oshiradi. Mahsulot ishlab chiqarish jarayonida sarf qilingan moddiy resurslar (asosiy vositalar eskirishi, xomashyo va materiallar, ehtiyot qismlar va boshqa) va jonli mehnat ishlab chiqarish xarajatlarini tashkil qiladi.

Firmaning mahsulot ishlab chiqarish, sotish va boshqa firma-moliyaviy faoliyati natijasida yuzaga keladigan xarajatlarini quyidagicha turkumlash mumkin (11.1-rasm):

1. Ishlab chiqarish jarayonidagi ishtirokiga ko'ra:
 - ishlab chiqarish xarajatlari;
 - noishlab chiqarish xarajatlari.
2. Mahsulot tannarxiga olib borilishi jihatidan:
 - bevosita xarajatlar;
 - bilvosita xarajatlar.
3. Firmaning umumiy ishlab chiqarish, moliyaviy va boshqa firma faoliyati natijasida yuzaga keladigan:
 - mahsulot tannarxiga kiritiladigan xarajatlar;
 - davr xarajatlari;
 - moliyaviy faoliyat bo'yicha xarajatlar;
 - favqulodda zararlar.



11.1-rasm. Firma xarajatlarning turkumlanishi

Ishlab chiqarish xarajatlari bevosita ishlab chiqarish jarayonini amalga oshirish bilan bog'liq quyidagi xarajatlardan tashkil topadi:

- bevosita moddiy material xarajatlari;
- bevosita mehnatga haq to'lash xarajatlari;
- ishlab chiqarishga taalluqli ustama xarajatlar.

Bevosita mahsulot ishlab chiqarish jarayoni bilan bog'liq bo'lmagan xarajat turlari noishlab chiqarish xarajatlari deb yuritiladi. Uning tarkibiga:

- mahsulotni sotish bilan bog'liq xarajatlar;
- boshqaruv xarajatlari;
- boshqa operatsion xarajat va zararlar;
- moliyaviy faoliyat bo'yicha xarajatlar;
- favqulodda zararlar kiradi.

Ayrim turdagi ishlab chiqarish xarajatlarini yaratilayotgan mahsulot tannarxiga to'g'ridan-to'g'ri kiritish mumkin. Unga ishlab chiqarishdagi ishchilarning ish haqi va iste'mol qilingan moddiy resurslar sarfini kiritish mumkin. Bunday xarajat turlari **bevosita ishlab chiqarish xarajatlari** deb yuritiladi.

Ikkinchi bir xarajat turlari bir necha xil mahsulot yetishtirish jarayonida ishtirok etishi tufayli (masalan, o'simlikchilikda yer haydash traktorlarining amortizatsiyasi), ularga ketgan xarajatlarni shu mahsulotlarni ishlab chiqarishdagi ishtirokiga mutanosib taqsimlashga to'g'ri keladi. Bunday xarajatlarni bilvosita ishlab chiqarish xarajatlari deb yuritiladi.

Xarajatlarni yo'nalishiga ko'ra tashqi va ichki xarajatlarga bo'linadi. Tashqi xarajatlarga tashqi to'lovlar, tashqi mol etkazib beruvchilarga (xom-ashyo, materiallar, elektr energiyasi, gaz) to'lovlar kiradi. Umumiy daromaddan tashqi xarajatlarni ayirib tashlasak, buxgalteriya foydasini olamiz. Buxgalteriya foydasi ichki (yashirin) xarajatlarni hisobga olmaydi.

Ichki xarajatlarni sifatida quyidagilar qaraladi:

- a) tadbirkorning o'ziga tegishli resurslarga bo'lgan xarajati;
- b) tadbirkorlik qobiliyatiga to'g'ri keladigan va tadbirkorga tegishli bo'lgan normal foyda. Buxgalteriya foydasidan ichki xarajatlarni ayirib tashlasak iqtisodiy foydani olamiz.

Tashqi va ichki xarajatlarning yig'indisi alternativ yoki iqtisodiy xarajatlarni tashkil qiladi. Alternativ xarajatlarni, firmaning resurslaridan eng yaxshi variantda foydalanishi bilan bog'liq yo'qotilgan imkoniyatlardir.

Iqtisodiy xarajatlarni firma faoliyatini buxgalter va iqtisodchi tomonidan baholanishni farq qilishga imkon beradi. Buxgalterni birinchi navbatda, firmaning ma'lum muddat davomidagi (hisobot davrida) faoliyati natijalari qiziqtiradi. Iqtisodchini esa firmaning kelajagi, uning kelajakdagi faoliyati qiziqtiradi. Shuning uchun ham firma ixtiyorida resurslardan eng yaxshi alternativ foydalanish variantlarini topishga e'tibor beradi.

Qaytarilmaydigan xarajatlarni. Qaytarilmaydigan xarajatlarni oldin qilingan xarajatlarni bo'lib, ularni qaytadan tiklash mumkin emas. Bu xarajatlarni qaytarilmasligi uchun ham firmaning qarori qabul qilishiga ta'sir qilmaydi. Masalan, firma 100 ming so'mga maxsus uskuna sotib oldi, lekin firmaning qarori o'zgardi va bu uskuna umuman

kerak bo'lmay qoldi, undan alternativ foydalanish varianti mavjud emas. Firma ushbu uskunani 60 mln. so'mga sotib, 40 mln. so'm zarar ko'rdi. Bunda 40 mln. so'm qaytarilmaydigan xarajat hisoblanadi va firmaning harakatiga ta'sir qilmaydi.


11.3. O'zgarmas, o'zgaruvchan, o'rtacha va chekli xarajatlar

O'zgarmas xarajatlar (TFC - *fixed costs*) - bu qisqa muddatli oraliqda mahsulot ishlab chiqarish hajmiga bog'liq bo'lmagan xarajatlardir (mahsulot ishlab chiqarish hajmi oshganda ham, kamayganda ham o'zgarmaydigan xarajatlar). O'zgarmas xarajatlarga binodan, texnikadan, inshootlardan, ishlab chiqarish uskunalaridan foydalanish bilan bog'liq xarajatlar, ijara haqi, kapital ta'mirlash, ma'muriy xarajatlar kiradi. O'zgarmas xarajatlar (TFC) chizig'i grafikda quyidagicha tasvirlanadi (11.2-rasm).



11.2-rasm. O'zgarmas (TFC) xarajatlar chizig'i grafigi

O'zgaruvchan xarajatlar (TVC - *Variable Costs*) - mahsulot ishlab chiqarish hajmiga bog'liq bo'lgan xarajatlar, ya'ni mahsulot hajmi oshganda yoki kamayganda o'zgaradigan xarajatlar. O'zgaruvchan xarajatlar Q ga bog'liq funksiya bo'lib, $TVC(Q)$ ko'rinishida yozilishi mumkin. O'zgaruvchan xarajatlar (TVC) chizig'i grafikda quyidagicha tasvirlanadi (11.3-rasm).




11.3-rasm. O'zgaruvchan (TVC) xarajatlar chiziqlari grafigi

O'zgaruvchan xarajatlarga xom ashyoga, elektr energiyasiga, gazga, yordamchi materiallarga bo'lgan xarajatlar hamda ish haqi kiradi.

Umumiy xarajatlar (TC - *Total Costs*) - qisqa muddatli orliqda ma'lum miqdorda mahsulot ishlab chiqarish uchun sarflangan o'zgarmas va o'zgaruvchan xarajatlarning yig'indisiga teng: $TC = TFC + TVC(Q)$.

Bu yerda: TFC - o'zgarmas xarajatlar, $TVC(Q)$ - o'zgaruvchan xarajatlar.

Umumiy xarajatlar ba'zi hollarda TC o'rniga C bilan ham belgilanadi. Grafik ko'rinishda umumiy xarajat chizig'i o'zgarmas va o'zgaruvchan xarajatlar chiziqlarini qo'shish bilan hosil qilinadi (11.4-rasm).



11.4-rasm. Umumiy xarajatlar grafigi

O'rtacha o'zgarmas xarajatlar (AFC - *Average Fixed Costs*) - bir birlik mahsulotga to'g'ri keladigan o'zgarmas xarajat bo'lib, u quyidagicha aniqlanadi:

$$AFC(Q) = \frac{TFC}{Q}$$

O'rtacha o'zgarmas xarajatlar mahsulot hajmi oshishi bilan kamayib boradi.

O'rtacha o'zgaruvchan xarajatlar (AVC - *Average Variable Costs*) - bir birlik ishlab chiqarilgan mahsulotga to'g'ri keladigan o'zgaruvchan xarajatlar bo'lib, u o'zgaruvchan xarajat miqdorini ishlab chiqarilgan mahsulot miqdoriga nisbati bilan aniqlanadi. O'rtacha xarajatlar firma optimal texnologik razmga (optimal ishlab chiqarish hajmiga) erishganda o'zining minimal qiymatiga erishadi, ishlab chiqarish hajmi yana oshsa, o'rtacha xarajatlar ham oshib boradi (bu yerda boshqarishning murakkablashuvi, samarali bo'lmagan resurslardan foydalanish, o'zgaruvchan xarajatlarni oshishiga sabab bo'ladi).

O'rtacha o'zgaruvchan xarajat firma faoliyatini tahlil qilishda muhim ahamiyat kasb etadi. Uning yordamida firma faoliyatining samaradorligi, firmaning muvozanat


holati va kelajakdagi istiqboli (ishlab chiqarishni kengaytirish, qisqartirish yoki tarmoqdan chiqish) belgilanadi.

O'rtacha umumiy xarajatlarni umumiy xarajatni ishlab chiqarilgan mahsulot miqdoriga bo'lish yo'li bilan aniqlash mumkin: $ATC = \frac{TC}{Q}$ yoki o'rtacha o'zgarmas

(AFC) va o'rtacha o'zgaruvchan (AVC) xarajatlarni qo'shish yo'li bilan aniqlanadi:

$$ATC = AFC + AVC = \frac{(TFC + TVC)}{Q}.$$

ATC , AFC va AVC chiziqlarining grafikdagi ko'rinishi quyidagi rasmda keltirilgan (11.5-rasm).



11.5-rasm. O'rtacha umumiy (ATC), o'rtacha o'zgarmas (AFC) va o'rtacha o'zgaruvchan (AVC) xarajatlar chiziqlarining grafiklari

O'rtacha umumiy xarajatlar firma faoliyatini tahlil qilishda asosiy ko'rsatkichlardan biri hisoblanadi. O'rtacha umumiy xarajatlar bilan narx o'rtasidagi farq orqali firmaning olayotgan foydasi yoki zarari aniqlanadi.

Chekli xarajat (MC - *Marginal Cost*) - ishlab chiqarish hajmini kichik miqdorga (odatda bir birlikka) oshirish bilan bog'liq bo'lgan qo'shimcha umumiy

xarajatdir:
$$MC = \frac{\Delta TC}{\Delta Q} = \frac{\Delta(TFC + TVC)}{\Delta Q} = \frac{\Delta TFC}{\Delta Q} + \frac{\Delta TVC}{\Delta Q} = \frac{\Delta TVC}{\Delta Q} = MVC$$


Bu yerda chekli o'zgarmas xarajat $\frac{\Delta(TFC)}{\Delta Q} = 0$ bo'lgani uchun, chekli xarajat chekli o'zgaruvchan xarajat MVC ga teng ($MC = MVC$).

MVC - chekli o'zgaruvchan xarajat bo'lib, mahsulotni qo'shimcha bir birlikka (ΔQ) oshirgandagi o'zgaruvchan xarajatning o'sgan qismi ΔTVC ga teng.

Yuqoridagi formuladan ko‘rinib turibdiki, o‘zgarmas xarajat chekli xarajat miqdoriga ta’sir qilmaydi. Chekli xarajat o‘zgaruvchan xarajat funksiyasidan olingan hosilaga teng: $MC = \frac{d(TVC)}{dQ}$.

Xarajatlar funksiyasi grafiklari bir-biriga nisbatan shunday joylashganki, boshlanishda chekli xarajatlar kamayib boradi (bu yerda asosiy sabab, ishlab chiqarish masshtabi kengayishining musbat samarasi va optimal texnologik ishlab chiqarish hajmiga chiqish hamda o‘zgarmas xarajatlarning kamayishi). Optimal hajmdan keyingi ishlab chiqarish hajmining o‘shishida kam samarali resurslarni ishlab chiqarishga jalb qilish, ishlab chiqarish masshtabini ortiqcha kengayishi natijasida boshqaruv samaradorligining kamayishi, xarajatlarning ortishi natijasida chekli xarajatlar o‘shib boradi.

Umumiy, o‘rtacha, o‘zgaruvchan va chekli xarajatlar grafiklarining tipik joylashuvi quyidagi 11.6-rasmda keltirilgan.



11.6-rasm. ATC, AVC, AFC va MC grafiklarining o‘zaro joylashuvi

Rasmdan ko‘rinib turibdiki, agar $MC < ATC$ bo‘lganda ATC chizig‘i pastga qarab tushadi va $MC < AVC$ bo‘lganda ham AVC chizig‘i pastga qarab kamayib boradi. Buning sababi - har bir yangi qo‘shimcha birlik mahsulotni ishlab chiqarish xarajati ishlab chiqilgan mahsulotning o‘rtacha va o‘rtacha o‘zgaruvchan xarajatidan kichik bo‘lgani uchun, o‘rtacha va o‘rtacha o‘zgaruvchan xarajatlarni kamaytiradi.

Agar $MC > ATC$ va $MC > AVC$ bo‘lganida ATC va AVC chiziqlari yuqoriga qarab o‘shib boradi. Bu yerda qo‘shimcha ishlab chiqarilgan birlik mahsuloti xarajati ATC va AVC dan katta bo‘lgani uchun, u ushbu o‘rtacha va o‘rtacha o‘zgaruvchan xarajatlarini oshiradi.

Yuqoridagi fikrlardan kelib chiqadiki, o‘rtacha umumiy xarajatlar (ATC) va o‘rtacha o‘zgaruvchan xarajatlar (AVC) o‘zlarining minimal qiymatlarida MC chizig‘ini kesib o‘tadilar (rasmda A va B nuqtalar), ya’ni $ATC = \min ATC(Q)$ bo‘lganda $MC = ATC$ va $AVC = \min AVC(Q)$ bo‘lganda $AVC = MC$.

Misol. Firmaning xarajatlarini qaraymiz (11.2-jadval).

11.2-jadval

Firmaning xarajatlari

Mahsulot miqdori, Q	O‘zgar-mas xarajat, TFC	O‘zgaruv- chan xarajat, TVC	Jami xarajat, TC	Chekli xarajat, MC	O‘rtacha xarajatlar		
					o‘zgar-mas, AFC	o‘zgaruv- chan, AVC	Umu-miy, ATC
0	50	0	50	-	-	-	-
1	50	50	100	50	50	50	100
2	50	90	140	40	25	45	70
3	50	120	170	30	17	40	57
4	50	160	210	40	13	40	53
5	50	210	260	50	10	42	52
6	50	270	320	60	8	45	53
7	50	340	390	70	7,1	49,6	55,8
8	50	420	470	80	6	53	59
9	50	510	560	90	5,5	56,5	62
10	50	610	660	100	5	61	66

Jadvalni qarasak, o‘rtacha umumiy xarajatlar sotish hajmi 5 birlikka teng bo‘lganda minimal 52 pul birligiga teng. Chekli xarajatlar sotish xajmi 2 dan 3 birlikka o‘tganda minimal qiymat 30 pul birligiga teng. O‘rtacha o‘zgar-mas xarajatlar sotish hajmi oshishi bilan kamayib bormoqda.

11.4. Ishlab chiqarish, davr, moliyaviy xarajatlar va favqulodda zararlar

Firmaning ishlab chiqarish, operatsion, moliyaviy va boshqa faoliyati natijasida yuzaga keladigan xarajatlar O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1999-yil 5-fevraldagi 54-sonli qarori bilan tasdiqlangan “Mahsulotlar (ishlar, xizmatlar)ni ishlab chiqarish va sotish xarajatlari tarkibi hamda moliyaviy natijalarni shakllantirish tartibi to‘g‘risidagi Nizom”ga muvofiq quyidagicha turkumlanadi (11.1-rasm):

1. **Mahsulot ishlab chiqarish tannarxini** hosil qiluvchi xarajatlar ularning iqtisodiy mazmuniga ko‘ra quyidagi elementlar bo‘yicha ajratiladi:

- ishlab chiqarishning moddiy xarajatlari;
- ishlab chiqarish xususiyatiga ega bo‘lgan mehnatga haq to‘lash xarajatlari;
- ishlab chiqarishga tegishli bo‘lgan ijtimoiy sug‘urtaga ajratmalar;
- asosiy fondlar amortizatsiyasi;

- ishlab chiqarish ahamiyatiga ega bo'lgan boshqa xarajatlar.

2. Ishlab chiqarish tannarxiga kiritilmaydigan, biroq asosiy faoliyatdan olingan foydani aniqlashda hisobga olinadigan **davr xarajatlari** elementlari:

- boshqaruv xarajatlari;
- mahsulotni sotish xarajatlari;
- boshqa operatsion xarajatlar.

3. Firmaning umumxo'jalik faoliyatidan olingan foydasini aniqlashda hisobga olinadigan **moliyaviy faoliyat bo'yicha xarajatlar**:

- foizlar bo'yicha to'lovlar;
- mol-mulknii uzoq muddatli ijaraga (lizingga) olish to'lovlari;
- xorijiy valuta bilan operatsiya bo'yicha salbiy kurs tafovutlari;
- qimmatli qog'ozlarga qo'yilgan mablag'larni qayta baholash;
- moliyaviy faoliyatga oid boshqa xarajatlar.

4. Firmaning odatdagi faoliyatiga mos kelmaydigan, bir necha yillar davomida takrorlanib turmaydigan va firma boshlig'ining (mulk egasining) qabul qilgan boshqaruv qarorlariga bog'liq bo'lmagan holda vujudga keladigan voqea va hodisalar (masalan, tabiiy ofatlar va mamlakat qonunchiligi o'zgarishi) natijasida ko'rilgan favqulodda zararlar.

Mahsulot tannarxi firma xarajatlari tushunchasidan farq qiladi. Firmaning mahsulot ishlab chiqarish, sotish va boshqa moliyaviy-xo'jalik faoliyati natijasida yuzaga keladigan barcha xarajatlari mahsulot tannarxiga kiritilmaydi. Mahsulotni (ishning, xizmatni) ishlab chiqarish tannarxiga uni bevosita ishlab chiqarish bilan bog'liq bo'lgan xarajatlar kiritiladi. Ularga quyidagilar tegishli bo'ladi:

- bevosita moddiy xarajatlar;
- bevosita mehnat xarajatlari;
- ishlab chiqarish xususiyatiga ega bo'lgan bilvosita ustama xarajatlar.

Bu xarajatlarning ko'pchiligi naturada, ya'ni dona, kg, metr va boshqa ko'rinishlarda hisobga olib borish va rejalashtirish mumkin. Ammo, mahsulot ishlab chiqarishga sarflangan barcha xarajatlarni birgalikda hisobga olish uchun ularni yagona o'lchov birligiga - qiymat-pul ko'rinishiga keltirish talab etiladi.

Mahsulot tannarxi ishlab chiqarish xarajatlarini shu mahsulot miqdoriga bo'lish orqali topiladi:

$$MT = \frac{MX + IX + ST + A + BIX}{Q}$$

Bu yerda: MT – mahsulot tannarxi so'm/dona, so'm/kg va boshqa;

MX – ishlab chiqarishning moddiy xarajatlari, so'm;

IX – ishlab chiqarish xususiyatidagi mehnatga haq to'lash xarajatlari, so'm;

ST – ishlab chiqarishga tegishli bo'lgan ijtimoiy sug'urta to'lovlari, so'm;

A – ishlab chiqarishdagi asosiy vositalar amortizatsiyasi, so'm;

BIX – boshqa ishlab chiqarish xarajatlari, so'm;

Q – mahsulot miqdori, dona, kg, tonna va boshq.

Qisqa xulosalar

Har qanday firmaning asosiy maqsadi foydani maksimallashtirishdan iboratdir. Umumiy holda foyda yalpi daromaddan umumiy xarajatlarni ayirish orqali topiladi. Xarajatlar firmaga nisbatan tashqi va ichki xarajatlarga bo'linadi. Tashqi xarajatlarga tashqi to'lovlar, ya'ni tashqi mol etkazib beruvchilarga (xomashyo, materiallar, elektr energiyasi, gaz) to'lovlar kiradi. Umumiy daromaddan tashqi xarajatlarni ayirib tashlasak, buxgalteriya foydasini olamiz. Buxgalteriya foydasi ichki (yashirin) xarajatlarni hisobga olmaydi. Tashqi va ichki xarajatlarning yig'indisi alternativ yoki iqtisodiy xarajatlarni tashkil qiladi. Alternativ xarajatlar, firmaning resurslaridan eng yaxshi variantda foydalanishi bilan bog'liq yo'qotilgan imkoniyatlardir.

Qisqa muddatli oraliq - bu shunday vaqt oralig'iki, firma bu oraliqda faoliyat ko'rsatganda, u ishlab chiqarish omillaridan kamida bittasining hajmini o'zgartira olmaydi. Uzoq muddatli oraliq - bu oraliqda firma ishlab chiqarishda foydalanayotgan barcha ishlab chiqarish omillari hajmini (ishlab chiqarish quvvatini ham) o'zgartiradi. Uzoq muddatli oraliqda barcha ishlab chiqarish resurslari o'zgaradi va bunday resurslarga o'zgaruvchan resurslar deyiladi

O'zgarmas xarajatlar (*TFC - fixed costs*) - bu qisqa muddatli oraliqda mahsulot ishlab chiqarish hajmiga bog'liq bo'lmagan xarajatdir (mahsulot ishlab chiqarish hajmi oshganda ham, kamayganda ham o'zgarmaydigan xarajat).

O'zgaruvchan xarajatlar (*TVC - Variable Costs*) - mahsulot ishlab chiqarish hajmiga bog'liq bo'lgan xarajat, ya'ni mahsulot hajmi oshganda yoki kamayganda o'zgaradigan xarajat.

Umumiy xarajatlar (*TC - Total Costs*) - qisqa muddatli oraliqda ma'lum miqdorda mahsulot ishlab chiqarish uchun sarflangan o'zgarmas va o'zgaruvchan xarajatlarning yig'indisiga teng.

Chekli xarajat (*MC - Marginal Cost*) - ishlab chiqarish hajmini kichik miqdorga (odatda bir birlikka) oshirish bilan bog'liq bo'lgan qo'shimcha umumiy xarajatdir.

Mahsulot ishlab chiqarish tannarxini hosil qiluvchi xarajatlar ularning iqtisodiy mazmuniga ko'ra quyidagi elementlar bo'yicha ajratiladi:

- ishlab chiqarishning moddiy xarajatlari;
- ishlab chiqarish xususiyatiga ega bo'lgan mehnatga haq to'lash xarajatlari;
- ishlab chiqarishga tegishli bo'lgan ijtimoiy sug'urtaga ajratmalar;
- asosiy fondlar amortizatsiyasi;
- ishlab chiqarish ahamiyatiga ega bo'lgan boshqa xarajatlar.

Nazorat va muhokama uchun savollar

1. Firmalarning qisqa va uzoq muddatli oraliqdagi faoliyati nimalar bilan xarakterlanadi?

2. Firmaning ichki va tashqi xarajatlarini izohlab bering.
3. Ishlab chiqarish xarajatlari grafikda qanday tasvirlanadi?
4. O'zgarmas va o'zgaruvchan xarajatlar qanday farqlanadi?
5. Umumiy xarajat va o'rtacha xarajatlarning hisoblash usullari farq qiladimi?
6. Qanday xarajatlarga o'zgarmas xarajatlar deb ataladi?
7. Qanday xarajatlarga o'zgaruvchan xarajatlar deb ataladi?
8. Chekli xarajat nimani ifodalaydi?

12-bob. MUKAMMAL RAQOBATLASHGAN BOZORDA, QISQA MUDDATLI ORALIQDA FIRMA FOYDASINI MAKSIMALLASHTIRISH VA UNING TAKLIFI

12.1. Qisqa muddatli oraliqda raqobatlashuvchi firma daromadlari va ularni hisoblash

Bozor **mukammal raqobatlashgan** yoki **raqobatlashgan** bozor bo'ladi, agar unda quyidagi shartlar bajarilsa:

- sotuvchi va xaridorlar bozorda mahsulot narxi qanday bo'lsa, shunday qabul qiladilar va ular narxga qila olmaydilar;
- bozorga yangi sotuvchilarni kirishi va sotuvchilarni bozordan chiqishi cheklanmagan;
- sotuvchilar birgalikda harakat qilish strategiyasini ishlab chiqolmaydi;
- bozor sub'ektlari bozor to'g'risida to'liq axborot olish imkoniyatiga ega.

Bunday shartlar bajariladigan bozor mukammal raqobatlashgan bozor, sof raqobatlashgan yoki raqobatlashgan bozor deb qaraladi. Raqobatlashgan bozorda harakat qilayotgan firmaning raqobatlashuvchi firma deb qaraladi. Bundan keyin raqobatlashuvchi firma to'g'risida gapirilganda, biz raqobatlashgan bozorda harakat qilayotgan firmani nazarda tutamiz.

Demak, raqobatlashgan bozorda tovar narxi bozorda talab va taklif asosida shakllanadi va unga sotuvchi ham xaridor ham ta'sir qila olmaydi: $P = const$.

Raqobatlashgan bozorda har bir alohida sotuvchi tomonidan sotiladigan tovarning bozorda sotiladigan umumiy tovar miqdoridagi ulushi juda oz bo'lgani uchun ham u tovar narxini o'zgartira olmaydi.

Mukammal raqobatlashgan bozorda sotuvchilar ham xaridorlar ham ko'p. Raqobatlashgan bozorni tahlil qilganimizda bozordagi tovarlarni bir xil deb, ya'ni ularning sifati bir xil deb qaraymiz (amalda tovarning sifatiga qarab, ularning narxi har xil bo'ladi, sifatli tovarning narxi sifati pastroq tovarning narxiga ko'ra yuqori bo'ladi).

Raqobatlashgan bozorda **umumiy daromad** (TR) firma tomonidan ma'lum miqdordagi ne'matni sotishdan olgan daromadiga teng, ya'ni umumiy daromad sotilgan mahsulot miqdorini (Q) uning narxiga (P) ko'paytmasiga teng:

$$TR = P \cdot Q$$

Bu yerda: TR - umumiy daromad; P - narx; Q - sotilgan ne'mat miqdori.

Umuman olganda, daromad sotilgan mahsulot miqdoriga bog'liq bo'lganligi uchun, u $TR(Q)$ ko'rinishida yoziladi.

O'rtacha daromad (AR)- sotilgan bir birlik mahsulotga to'g'ri keladigan daromaddir, ya'ni: $AR = \frac{TR}{Q} = \frac{P \cdot Q}{Q} = P$.

Chekli daromad (MR) - bu qo'shimcha bir birlik 'ni sotish natijasida umumiy daromadning o'sgan qismi $\Delta TR(Q)$, ya'ni:

$$MR = \frac{\Delta TR(Q)}{\Delta Q} = \frac{d(P \cdot Q)}{\Delta Q} = P \cdot \frac{\Delta Q}{\Delta Q} = P$$

Raqobatlashuvchi firmaning mahsulotiga bo'lgan talab chizig'i uning o'rtacha daromad chizig'i bilan ifodalanadi. Faraz qilaylik firma mahsulotiga bo'lgan talab funksiyasi umumiy holdagi chiziqli funksiya ko'rinishida berilgan bo'lsin:


$$P = \frac{a_0}{a_1} - \frac{Q_d}{a_1}$$

Firmaning daromadini yozamiz $TR = P \times Q = \frac{a_0}{a_1} - \frac{Q_d}{a_1} \times Q$, bundan

$$\text{o'rtacha daromadni aniqlaymiz: } AR = P = \frac{a_0}{a_1} - \frac{Q_d}{a_1} \quad (5)$$

Ko'rinib turibdiki, oxirgi o'rtacha daromad funksiyasi teskari talab funksiyasining o'zi, ya'ni $AR = P = \frac{a_0}{a_1} - \frac{Q_d}{a_1}$.

Demak, raqobatlashgan bozorda talab chizig'i o'rtacha va chekli daromadlar chizig'i bilan ifodalanadi. Agar abtsissa o'qi bo'yicha mahsulot miqdori Q ni va ordinat o'qi bo'yicha tovar narxini joylashtirsak, ular o'rtasidagi bog'liqlik gorizontall o'qqa nisbatan parallel chiziq bilan ifodalanadi va bu chiziq raqobatlashgan bozorda harakat qiluvchi firma mahsulotiga bo'lgan talab chizig'ini beradi (12.1-rasm).



12.1-rasm. Raqobatlashgan bozordagi narx, o'rtacha va chekli daromad

Rasmdan ko'rinib turibdiki, raqobatlashgan bozordagi talabning narx bo'yicha elastikligi cheksizdir $E_p^D = \infty$, ya'ni absolyut elastik. Bu degani, raqobatlashgan bozorda biror sotuvchi o'z tovari narxini kichik miqdorga oshirsa, u o'zining barcha xaridorlaridan ajraladi, agar narxni kichik miqdorga kamaytirsa, u o'ziga bozordagi barcha xaridorlarni tortadi.

Misol. Raqobatlashgan bozorda bir xil sifatli apel`sin sotilmoqda. Sotuvchining umumiy, o'rtacha va chekli daromadlarini hisoblaymiz. Ushbu hisob-kitoblar quyidagi 12.1-jadvalda keltirilgan.

Apelsin sotuvchining umumiy, o'rtacha va chekli daromadlari


Sotilgan apelsin miqdori, Q	Apelsin narxi, P	O'rtacha daromad, AR	Yalpi daromad, TR	Cekli daromad, MR
0	2000	2000	0	-
1	2000	2000	2000	2000
2	2000	2000	4000	2000
3	2000	2000	6000	2000
4	2000	2000	8000	2000
5	2000	2000	10000	2000
6	2000	2000	12000	2000
7	2000	2000	14000	2000
8	2000	2000	16000	2000

Cekli daromad MR yalpi daromadning berilgan qiymatidan oldingisini ayirish bilan aniqlanadi. Masalan, $MR(5) = TR(5) - TR(4) = 10000 - 8000 = 2000$.

12.2. Qisqa muddatli oraliqda ishlab chiqarish hajmini aniqlash va foydani maksimalashtirish

Raqobatlashuvchi firmaning ishlab chiqarish omillari narxining oshishiga aks ta'siri. Raqobatlashgan bozorda harakat qilayotgan firma ishlab chiqarish omillaridan birining narxi oshganda qanday qaror qabul qilishini ko'rib chiqamiz.

Bozordagi narx P' va firmaning boshlang'ich (ishlab chiqarish omillari narxi o'zgarmagandagi) chekli xarajati MC_1 va firma foydasini maksimalashtiruvchi ishlab chiqarish hajmi Q_1 bo'lsin deylik (12.2-rasm).




12.2-rasm. Chekli xarajatning ishlab chiqarish hajmiga bog'liqligi

Faraz qilaylik, ishlab chiqarish omillaridan birining narxi oshdi deylik. Omil narxining oshishi chekli xarajat MC_1 ni yuqoriga chapga MC_2 ga siljitadi. Nima uchun deganda, har bir ishlab chiqariladigan mahsulot xarajati oshadi. Foydani yangi chekli xarajatda maksimallashtiradigan ishlab chiqarish hajmi Q_2 ni tashkil qiladi, ya'ni Q_2 hajmda $P' = MC_2$.

Shunday qilib, ishlab chiqarish omili narxining oshishi firmani mahsulot ishlab chiqarish hajmini qisqartirishga majbur qiladi. Agar firma ishlab chiqarishni Q_1 hajmda davom ettirganida shtrixlangan sohaga teng bo'lgan zararni ko'rgan bo'lar edi. Shtrixlangan soha firma foydasining yo'qotilishi mumkin bo'lgan qismini ifodalaydi.

Qisqa muddatli oraliqda firma kapitali razmeri o'zgarmaydi, shuning uchun u foydani maksimallashtiradigan o'zgaruvchan ishlab chiqarish omillari hajmini tanlashi lozim bo'ladi. Ma'lumki, foydani maksimallashtirish bu umumiy daromad bilan umumiy xarajatlar ayirmasini maksimallashtirish demakdir, ya'ni: $\pi(Q) = TR(Q) - TC(Q)$.

Agar abtsissa o'qi bo'yicha ishlab chiqariladigan mahsulot hajmini, ordinata o'qi bo'yicha - umumiy daromadni joylashtirsak, daromadning mahsulot hajmiga bog'liqligi ($TR(Q) = P \cdot Q$) koordinata boshidan chiquvchi nur bilan ifodalanadi. Umumiy xarajatlar esa o'zgarmas va o'zgaruvchan xarajatlar yig'indisidan hosil bo'ladi (12.3-rasm).



12.3-rasm. Qisqa muddatli oraliqda foydani maksimallashtirish grafigi

12.3-rasmdagi grafikdan ko'rish mumkinki, ishlab chiqarish hajmi kichik bo'lganda, firma foydasi manfiy bo'ladi, firma zarar bilan ishlaydi, firmaning daromadi o'zgarmas va o'zgaruvchan xarajatlarni qoplash uchun yetarli emas.

Ishlab chiqarish hajmi oshib borishi bilan firmaning foydasi musbat bo'lib oshib boradi va ishlab chiqarish hajmi Q_2 ga teng bo'lganda daromad $TR(Q)$ bilan umumiy xarajat $TC(Q)$ o'rtasidagi farq maksimal bo'ladi (12.3-a-rasm bu MN).

Demak, foyda ishlab chiqarish hajmi $Q = Q_2$ bo'lganda maksimalashadi (12.3-b-rasm). Ishlab chiqarish hajmi Q_2 dan oshganda ($Q > Q_2$) umumiy xarajatlarning o'sishi daromad o'sishiga nisbatan ustunroq bo'lgani uchun foyda kamayib boradi.

Rasmdan ko'rinib turibdiki, ishlab chiqarish hajmi Q_1 gacha bo'lganda firma zarar bilan ishlaydi, nima uchun deganda ($TC(Q) > TR(Q)$). Firma Q_1 va Q_2 oralig'ida foyda oladi va bu foyda Q_2 ga qadar oshib, ishlab chiqarish hajmi Q_2 ga teng bo'lganda maksimal qiymatga erishadi. N nuqtada daromad chizig'ining burchak

koeffitsiyenti (chekli daromad $MR = \frac{\Delta TR}{\Delta Q} = tg\alpha$) umumiy xarajat chizig'ining

burchak koeffitsiyentiga (chekli xarajatiga $MC = \frac{\Delta TC}{\Delta Q} = tg\alpha$) teng $MC = MR$.

Shunday qilib, firmaning chekli daromadi bilan chekli xarajati bir-biriga teng bo'lganda foyda maksimal qiymatga erishadi. $MC = MR$ foydani maksimalashtirish sharti bo'lib, firma qaysi bozorda (raqobatlashgan, monopolistik yoki oligopolistik) faoliyat ko'rsatmasin, u o'z kuchini saqlab qoladi.

Yuqoridagi mulohazalardan shu kelib chiqadiki, $MR(Q) > MC(Q)$ bo'lganda, firma mahsulot ishlab chiqarish hajmini oshirishi kerak (har bir qo'shimcha ishlab chiqarilgan mahsulot umumiy foydani oshirib boradi), agar $MR(Q) < MC(Q)$ bo'lsa - ishlab chiqarish hajmini qisqartirish kerak bo'ladi. Maksimallik shartini matematik tomondan keltirib chiqarish mumkin: $\pi(Q) = TR(Q) - TC(Q)$

Funksiya maksimal qiymatga erishadi, qachonki ishlab chiqarish hajmini kichik ΔQ miqdorga oshirganimizda foyda o'zgarmasa, ya'ni

$$\frac{\Delta\pi(Q)}{\Delta Q} = 0 \text{ bundan } \frac{\Delta\pi(Q)}{\Delta Q} = \frac{\Delta TR(Q)}{\Delta Q} - \frac{\Delta TC}{\Delta Q} = 0$$

Bu munosabatda $\frac{\Delta TR(Q)}{\Delta Q} = MR$ va $\frac{\Delta TC}{\Delta Q} = MC$ bo'lgani uchun foydani

maksimalashtirish shartini quyidagicha yozamiz: $MR(Q) = MC(Q)$


12.3. Raqobatlashuvchi firmaning muvozanat holati

Biz ko'rgan edikki, raqobatlashgan bozorda narx bozor tomonidan belgilanadi va unga firma ta'sir qila olmaydi. Bunday bozorda harakat qilayotgan firmaning talab chizig'i gorizontall chiziqdan iborat bo'lib, uning chekli daromadi narxga teng, ya'ni

$MR=P$. Demak, raqobatlashuvchi firma foydasini maksimallashtirish sharti (qoidasi) shundan iboratki, firma ishlab chiqarish hajmini shunday tanlashi kerakki, bu hajmda narx chekli xarajatga teng bo'lsin: $P=MC$.

Raqobatlashgan bozorda faoliyat ko'rsatayotgan firma foydasini maksimallashtirish (muvozanat holati) sharti deyiladi, ya'ni raqobatlashuvchi firmaning chekli mahsulot qoidasini ifodalaydi. Ushbu qoidaga ko'ra firma mahsulot ishlab chiqarish hajmini chekli xarajat narxga teng bo'lgunga qadar oshirishi mumkin. Demak, $MC < P$ bo'lsa, ishlab chiqarishni oshirish mumkin va bu oshirish $MC = P$ bo'lguncha davom etishi kerak.

Raqobatlashgan firma foydasini maksimallashtirish sharti yordamida biz firmaning muvozanat holatini belgilovchi nuqtani grafik orqali aniqlashimiz mumkin (12.4-rasm).



12.4-rasm. Raqobatlashuvchi firmaning qisqa muddatli oraliqdagi xarajatlari va foydasi


Rasmda E nuqta raqobatlashuvchi firmaning qisqa muddatli oraliqdagi muvozanat holatini ifodalaydi. Bu nuqtada bo'lib, ushbu nuqtada firma foydani maksimallashtiradigan ishlab chiqarish hajmi Q^* ga erishadi.

Rasmda umumiy daromad ($TR(Q) - TC(Q)$) $0P_eEQ^*$ to'rtburchak yuzasiga, umumiy xarajat esa $0ABQ^*$ to'rtburchak yuzasiga teng. Umumiy maksimal foyda ($\max \pi(Q) = TR(Q) - TC(Q)$) AP_eEB yuza bilan ifodalanadi va bu yuza quyidagi formula bo'yicha hisoblanadi: $\pi = (P - ATC) \cdot Q$.

Ishlab chiqarish hajmi Q^* dan kichik bo'lganda $Q_0 < Q^*$ chekli daromad chekli xarajattan ko'p demak, ishlab chiqarish hajmini oshirib qo'shimcha foyda olish imkoniyati bor. Rasmda ikki karra shtirxlangan SFE yuza ishlab chiqarish hajmi Q_0 ga kamaygandagi yo'qotilgan foydani ifodalaydi.

Ishlab chiqarish hajmi Q^* dan yuqori bo'lganda, ya'ni $Q_1 > Q^*$ da chekli xarajatlar chekli daromaddan yuqori. Bu holda, ishlab chiqarish hajmini qisqartirish umumiy xarajatlarni qisqartirishga olib keladi. Rasmdagi ESK uchburchak yuzasi Q_1 miqdorda mahsulot ishlab chiqarish natijasida yo'qotilgan foydani ifodalaydi.


Xulosa qilish mumkinki, narx o'rtacha umumiy xarajatdan qancha yuqori bo'lsa, firmaning foydasi shuncha ko'p bo'ladi. Buni quyidagi grafikda ko'rish mumkin (12.5-rasm).



12.5-rasm. Raqobatlashuvchi firma foydasi

Rasmda, boshlang'ich narx P_0 bo'lganda umumiy foyda $P_0A_0B_0E_0$ to'rtburchak yuzi bilan ifodalansa, narx oshib P_1 bo'lganda umumiy foyda qiymati ham oshadi va $P_1A_1B_1E_1$ to'rtburchak yuzi bilan ifodalanadi.

Shuni ham eslatish o'tish joizki, firma qisqa muddatli oraliqda har doim ham foydani maksimallashtiravermaydi. Ko'p hollarda o'zgarmas xarajatning oshib ketishi umumiy o'rtacha xarajatni ham oshirib yuboradi (12.6-rasm).




12.6-rasm. Raqobatlashuvchi firmaning qisqa muddatli oraliqdagi yo'qotishlari

Natijada, foydani maksimallashtiradigan ishlab chiqarish hajmi Q^e da narx P o'rtacha umumiy xarajatdan kichik bo'ladi, ya'ni $P < ATC(Q)$ va shuning uchun BE ishlab chiqarishning o'rtacha yo'qotishiga (zarariga) teng. Shtrixlangan $PEBM$ to'rtburchak yuzi firmaning umumiy yo'qotishini bildiradi. Lekin, firma qisqa muddatli oraliqda zarar ko'rsa ham kelajakda narx oshishi yoki ishlab chiqarish xarajatlarini kamaytirishi evaziga foyda olish maqsadida ishni davom ettiradi.

Umuman olganda, raqobatlashuvchi firma qisqa muddatli oraliqda ishlab chiqarishni davom ettirishi yoki davom ettirmasdan ishlab chiqarishni to'xtatishi to'g'risidagi qarorni qabul qilishda firma o'z daromadini umumiy o'rtacha xarajat bilan emas, balki faqat o'rtacha o'zgaruvchan xarajat bilan taqqoslaydi. Nima uchun deganda, o'zgarmas xarajatlar sarflanib bo'lingan va ularni firmani yopganda ham kamaytirib bo'lmaydi. Shuning uchun ham narx o'rtacha o'zgaruvchan xarajatdan yuqori bo'lib, o'rtacha umumiy xarajatdan past bo'lganda firma kelajakda foydaga chiqish maqsadida ishlab chiqarish zarar ishlasa ham o'z faoliyatini davom ettiradi va shu bilan birga umumiy zararni minimallashtirishga harakat qiladi. Nima uchun deganda, bu narx o'rtacha umumiy xarajatdan kichik ($P < ATC$) bo'lgani bilan, u firmaning o'zgaruvchan xarajatlarini (xomashyo sarfi, ish haqi) qoplaydi, bundan tashqari o'zgarmas xarajatning ham ma'lum qismini qoplaydi.

Umumlashtirib aytadigan bo'lsak, raqobatlashgan bozorda harakat qilayotgan firma qisqa muddatli oraliqda xarajatlari bilan daromadlarini taqqoslagan holda foydani maksimallashtirishda chekli mahsulot va ishlab chiqarishni to'xtatish qoidasiga amal qiladi. Chekli mahsulot qoidasiga ko'ra firma mahsulot ishlab chiqarish hajmini chekli daromad bilan chekli xarajatni tengligini ta'minlaydigan darajada ushlab turishga harakat qiladi ($MC = MR$).

Ishlab chiqarishni to'xtatish qoidasiga ko'ra firmaning iqtisodiy foydasi har qanday ishlab chiqarish hajmida noldan kichik bo'lsa, ya'ni $P < AVC(Q)$ (12.7-rasmda B nuqta), firma yopiladi (ushbu bozordan ketadi, faoliyatini tugatadi).




12.7-rasm. Raqobatlashuvchi firmaning qisqa muddatli oraliqdagi harakat qilish qoidalari

B nuqta firmaning yopilish nuqtasi hisoblanadi. Yuqoridagi qoidalar firma uchun umumiy xarakterga ega. Firma qaysi bozorda faoliyat ko'rsatishidan qat'iy nazar ushbu qoidalar o'z kuchini saqlaydi.

12.7-rasmdagi A nuqta firmaning zararsiz ishlash nuqtasi deyiladi, bu nuqtada $P_e = \min ATC(Q)$ bo'lib, firma zarar ham ko'rmasdan, foyda ham olmasdan ishlashini ifodalaydi.

12.4. Raqobatlashgan firmaning qisqa muddatli oraliqdagi taklifi

Firmaning taklif chizig'i har bir mumkin bo'lgan narxlarda firma qancha miqdorda mahsulot ishlab chiqarib taklif qilishini ifodalaydi. Yuqorida ko'rdikki, firma mahsulot ishlab chiqarishni narx chekli xarajatga teng bo'lgunga qadar oshiradi va narx o'rtacha o'zgaruvchan xarajatdan kichik bo'lsa, ishlab chiqarishni to'xtatadi (firma yopiladi). Demak, firmaning noldan yuqori hajmdagi ishlab chiqarish ($Q > 0$) taklif chizig'i chekli xarajatning (MC) o'rtacha o'zgaruvchan xarajatning minimumidan yuqorida yotgan qismi bilan ustma-ust tushadi. AVC minimumidan yuqori bo'lgan har qanday narx P' da foydani maksimalashtiradigan ishlab chiqarish hajmi Q' ni grafik orqali aniqlashimiz mumkin (12.8-rasm).



12.8-rasm. Raqobatlashuvchi firmaning qisqa muddatli oraliqdagi taklif chizig'i


Raqobatlashgan bozorda narxning oshishi bozordagi firmalarni ishlab chiqarish hajmini oshirishga undaydi, shuning uchun ham raqobatlashgan firmaning qisqa muddatli oraliqdagi taklif chizig'i o'suvchi bo'ladi.

Endi raqobatlashgan bozorda qisqa muddatli oraliqdagi tarmoq muvozanatini qaraymiz. Ma'lumki, bir turdagi (bir xil ehtiyojni qondiradigan) tovarlarni ishlab chiqaradigan firmalar birgalikda tarmoqni tashkil qiladi. U holda tarmoq taklifi tarmoqni tashkil qiluvchi firmalarning takliflari yig'indisidan iborat bo'ladi.

$$S = S_1 + S_2 + \dots + S_n,$$

Bu yerda: S_1, S_2, \dots, S_n - firmalar taklifi chiziqlari; S - tarmoq taklifi chizig'i.

Agar tarmoq mahsulotiga talabni D bilan belgilasak, D bilan S chiziqlari kesishgan E nuqtasi tarmoqning muvozanat nuqtasini beradi va kesishgan nuqta E ga mos keluvchi narx P_e tarmoq muvozanat narxi, Q_e esa tarmoq muvozanat tovar hajmi deyiladi (12-rasm).




12.9-rasm. Raqobatlashgan bozorda, qisqa muddatli oraliqda tarmoq muvozanati

Firmaning tarmoqdagi ulushi uning chekli xarajatini, muvozanat narx bilan teng bo'lishini ta'minlaydigan ishlab chiqarish hajmi bilan aniqlanadi, ya'ni $MC = P_e$. Shunday qilib, raqobatlashgan bozorda qisqa muddatli oraliqda faoliyat ko'rsatayotgan firma (narx bozor tomonidan belgilanib o'zgarmaganda, talab chizig'i gorizontal bo'lganda) muvozanat narx P_e ishlab chiqarish hajmining

barcha qiymatlarida quyidagi shartni qanoatlantirsa: $P_e > ATC(Q)$, firma o'z foydasini maksimallashtiradi (12.10-rasm).


$$TR(Q^*) = P_e Q^* > Q \cdot ATC(Q^*) = TC(Q^*)$$



12.10-rasm. Firma foydasini maksimallashtirish sharti (E muvozanat nuqta, S korxonada taklifi chizig'i)

Agar bozordagi muvozanat narx P_e umumiy o'rtacha xarajatdan yuqori bo'lsa, firma normal foydadan tashqari ortiqcha foyda ham oladi.

Agar bozor muvozanati narxi P_e bo'lganda va talab chizig'i taklif chizig'ini ATC va AVC chiziqlari o'rtasida kesib o'tsa, ya'ni $\min AVC(Q_e) < P_e < \min ATC(Q_e)$, bo'lsa, firma o'z yo'qotishlarini (zararini) minimallashtiradi (12.11-rasm).



12.11-rasm. Firma zararini minimallashtiradigan hol

Bunday holda firma ishchi kuchidan, kapitaldan unumli foydalanishga harakat qiladi va boshqa xarajatlarni ham imkon boricha qisqartiradi.

Bordiyu muvozanat narx P_e firmaning o'rtacha o'zgaruvchan xarajatidan, har qanday ishlab chiqarish hajmida past bo'lsa, ya'ni $P_e < AVC(Q)$, firma o'z faoliyatini to'xtatadi.

Qisqa xulosalar

Bozor **mukammal raqobatlashgan** yoki **raqobatlashgan** bozor bo'ladi, agar unda quyidagi shartlar bajarilsa: sotuvchi va xaridorlar bozorda mahsulot narxi qanday bo'lsa, shunday qabul qiladilar va ular narxga qila olmaydilar; bozorga yangi sotuvchilarni kirishi va sotuvchilarni bozordan chiqishi cheklanmagan; sotuvchilar birgalikda harakat qilish strategiyasini ishlab chiqolmaydi; bozor sub'ektlari bozor to'g'risida to'liq axborot olish imkoniyatiga ega.

Raqobatlashgan bozorda **umumiy daromad (TR)** firma tomonidan ma'lum miqdordagi ne'matni sotishdan olgan daromadiga teng. **O'rtacha daromad (AR)**-sotilgan bir birlik mahsulotga to'g'ri keladigan daromaddir. **Chekli daromad (MR)** - bu qo'shimcha bir birlik 'ni sotish natijasida umumiy daromadning o'sgan qismi.

Qisqa muddatli oraliqda firma kapitali razmeri o'zgarmaydi, shuning uchun u foydani maksimallashtiradigan o'zgaruvchan ishlab chiqarish omillari hajmini tanlashi lozim bo'ladi.

Raqobatlashgan bozorda, qisqa muddatli oraliqda firmaning chekli daromadi bilan chekli xarajati bir-biriga teng bo'lganda foyda maksimal qiymatga erishadi. $MC=MR$ foydani maksimallashtirish sharti bo'lib, firma qaysi bozorda (raqobatlashgan, monopolistik yoki oligopolistik) faoliyat ko'rsatmasin, u o'z kuchini saqlab qoladi. Raqobatlashgan bozorda narx bozor tomonidan belgilanadi va unga firma ta'sir qila olmaydi. Bunday bozorda harakat qilayotgan firmaning talab chizig'i gorizonttal chiziqdan iborat bo'lib, uning chekli daromadi narxga teng, ya'ni $MR=P$. Demak, raqobatlashuvchi firma foydasini maksimallashtirish sharti (qoidasi) shundan iboratki, firma ishlab chiqarish hajmini shunday tanlashi kerakki, bu hajmda narx chekli xarajatga teng bo'lsin: $P=MC$.

Narx o'rtacha o'zgarruvchan xarajatdan yuqori bo'lib, o'rtacha umumiy xarajatdan past bo'lganda firma kelajakda foydaga chiqish maqsadida ishlab chiqarish zarar ishlasa ham o'z faoliyatini davom ettiradi va shu bilan birga umumiy zararni minimallashtirishga harakat qiladi.

Ishlab chiqarishni to'xtatish qoidasiga ko'ra firmaning iqtisodiy foydasi har qanday ishlab chiqarish hajmida noldan kichik bo'lsa, ya'ni $P < AVC(Q)$, firma yopiladi (ushbu bozordan ketadi, faoliyatini tugatadi).

Nazorat va muhokama uchun savollar

1. Mukammal raqobatlashgan bozorning asosiy shartlari nimalar?
2. Mukammal raqobatlashgan bozorda, qisqa muddatli oraliqda firma foydasini qanday maksimallashtirishiradi?
3. Raqobatlashgan bozorda firmaning talab chizig'i qanday ko'rinishga ega?
4. Raqobatlashgan bozorda firmaning muvozanat holati qanday aniqlanadi?
5. Firmaning qisqa muddatli oraliqdagi taklif chizig'i grafigi qanday?
6. Mukammal raqobatlashgan bozorda, qisqa muddatli oraliqda firma zararlarini qanday minimallashtirishiradi?
7. Mukammal raqobatlashgan bozorda, qisqa muddatli oraliqda firma qanday holatda yopiladi?


13-bob. RAQOBATLASHUVCHI FIRMA VA TARMOQNING UZOQ MUDDATLI ORALIQLDAGI MUVOZANATI VA TARMOQ TAKLIFI

13.1. Uzoq muddatli oraliqda ishlab chiqarish hajmini tanlash

Uzoq muddatli oraliqda firma foydalanadigan barcha omillarini o'zgartiradi, shu jumladan ishlab chiqarish quvvatlarini ham. Uzoq muddatli oraliqda firma o'z kapitali hajmini o'zgartirishi, ya'ni ishlab chiqarish quvvatini o'zgartirishi mumkinligi firmaga ishlab chiqarish xarajatlarini kamaytirishga imkon beradi. Firma ishlab chiqarish xarajatlarining qanday o'zgarishi ishlab chiqarish masshtabi samaradorligining o'sishi, o'zgarmasligi va kamayishi bilan aniqlanadi. Yana shuni eslatib o'tish kerakki, firmaning uzoq muddatli oraliqdagi faoliyatini tahlil qilganimizda uning o'rtacha xarajatlari muhim ahamiyat kasb etadi. Faraz qilaylik, firmaning ishlab chiqarish jarayonida barcha ishlab chiqarish hajmlari uchun o'zgarmas masshtab samarasiga ega. Bunda ishlab chiqarish omillari sarfi ikki barobar oshganda ishlab chiqarish hajmi ham ikki barobarga o'sadi. Demak, ishlab chiqarish hajmi oshgani bilan o'rtacha ishlab chiqarish xarajatlari o'zgarmaydi.

Endi faraz qilaylik, masshtab samarasi o'suvchi bo'lsin. Ishlab chiqarish omillaridan foydalanishni ikki barobar oshirganimizda, ishlab chiqarish hajmi ikki barobardan ko'proqqa oshadi (masalan, uch barobarga oshirishi mumkin). Bunday holda o'rtacha ishlab chiqarish xarajatlari qisqaradi, nima uchun deganda, ishlab chiqarish hajmining o'sish sur'ati, omillar sarfi sur'atidan ko'p. Xuddi shunday, masshtab samarasi pasayganda, ya'ni ishlab chiqarish omillari sarfini o'sishi sur'atidan ishlab chiqarish hajmining o'sish sur'ati kichik bo'lganda *ATC* ortib boradi.


Odatda, ishlab chiqarishning boshida masshtab samarasining oshishi, undan keyin o'zgarmas va keyinchalik kamayishi ko'pgina firmalarga xosdir. Shuning uchun ham uzoq muddatli oraliqda umumiy o'rtacha xarajatlar chizig'i botiq ko'rinishga ega bo'ladi (13.1-rasm).



13.1-rasm. Uzoq muddatli oraliqda o'rtacha xarajatlar *LAC* grafigi

Grafikda Q^* dan chap tomonda yotgan qismida masshtab samarasi musbat (o'suvchi), Q^* dan o'ng tomonda yotgan qismida masshtab samarasi manfiy va nihoyat Q^* ning kichik atrofida u o'zgarmasdir ($Q_1 - Q_2$ oraliqda). Ishlab chiqarish hajmi Q^* firmaning uzoq muddatli oraliqdagi samarali razmerini (quvvatini) ifodalaydi.

Uzoq muddatli o'rtacha xarajatlar (LAC) bilan qisqa muddatli o'rtacha xarajatlar (SAC) o'rtasidagi munosabatni quyidagi 13.2-rasmdan ko'rish mumkin.



13.2-rasm. Masshtab samarasi o'sganda va qisqarganda uzoq va qisqa muddatli oraliqlardagi o'rtacha xarajatlar grafigi


Faraz qilaylik, firma razmerini (quvvatini) tanlash bo'yicha besh xil variant mavjud. Har qaysi razmerdagi firma uchun qisqa muddatli o'rtacha xarajatlar quyidagicha $SAC_1, SAC_2, SAC_3, SAC_4, SAC_5$ (13.2-rasm).

Uzoq muddatli oraliqda barcha resurslar o'zgaruvchan bo'lgani uchun, barcha xarajatlar ham o'zgaruvchan bo'ladi. Firma har qanday berilgan ishlab chiqarish quvvatidan umumiy va o'rtacha xarajatlarni minimallashtiradi. Shuning uchun ham uzoq muddatli o'rtacha xarajatlar (LAC) grafigi qisqa muddatli oraliqdagi o'rtacha xarajatlar grafiklarini bir-biriga tutashtirish orqali hosil qilinadi. 7.13-rasmda beshta qisqa muddatli oraliqdagi o'rtacha xarajatlar grafiklari orqali uzoq muddatli oraliqdagi o'rtacha xarajatlar grafigi keltirilgan (13.2-rasmda qalin chiziq bilan ifodalangan).

Agar biz firma quvvatlarini yanada kichik o'zgarishlar orqali o'zgartirsak (qisqa muddatli oraliqlarni yanada kichiklashtirsak) LAC chizig'ini silliq botiq chiziqqa yaqinlashib boradi.


Uzoq muddatli o'rtacha xarajatlar ishlab chiqarish hajmining mumkin bo'lgan barcha qiymatlari uchun cheksiz qisqa muddatli oraliqdagi o'rtacha xarajatlar grafiklarini uzluksiz silliq birlashtiruvchi chiziq orqali ifodalanadi. Agar ishlab chiqarish masshtabi samarasi o'zgarmas bo'lsa, uzoq muddatli o'rtacha xarajat grafigi to'g'ri chiziqdan iborat bo'ladi (13.3-rasm).

Rasmdan ko‘rinib turibdiki, ishlab chiqarish quvvati Q_1 va Q_3 ga o‘zgarganda LAC o‘zgarmayapti.



13.3-rasm. Ishlab chiqarish masshtabi o‘zgarmas bo‘lganda uzoq muddatli va qisqa muddatli oraliqdagi xarajatlar grafigi

Uzoq muddatli oraliqda tarmoq tarkibidagi firmaning muvozanat holati bozorda shakllangan narx P_e ning ushbu firmaning o‘rtacha xarajatlari minimumiga tengligi bilan belgilanadi: $P_e = \min LAC(Q_e)$.



13.4-rasm. Raqobatlashuvchi firmaning uzoq muddatli oraliqdagi muvozanat holati (E -muvozanat nuqta)

Raqobatlashuvchi firma tarmoqqa qarashli bo‘lgani uchun bu shart tarmoqning ham uzoq muddatli oraliqdagi (raqobatlashgan bozorda) muvozanat holatini ifodalaydi.

13.4-rasmdan ko‘rish mumkinki, firmaning iqtisodiy foydasi uzoq muddatli oraliqdagi muvozanat holatida nolga teng. Lekin, bu firma umuman foyda olmaydi degani emas, aslida firma o‘zining qo‘ygan (qo‘shgan) kapitaliga ko‘ra real normal


foyda oladi. Iqtisodiy foyda alternativ xarajatni ham hisobga oladi, ya'ni firma egasining o'z kapitalini boshqa bir sohaga qo'yish natijasida oladigan foyda. Shuning uchun ham aytish mumkinki, raqobatlashuvchi firmaning uzoq muddatli oraliqdagi o'rtacha xarajatlari o'z ichiga normal foydani (tarmoq bo'yicha o'rtacha foydani) oladi. Firma egasining iqtisodiy foydasi nol degani, u o'z kapitalini boshqa sohaga qo'yganda ham shu miqdorga teng normal foydani olar edi, demak uning alternativ xarajati nolga teng. Agar firma egasining alternativ xarajati noldan yuqori, ya'ni musbat bo'lsa, u o'z kapitalini ushbu tarmoqdan olib, boshqa iqtisodiy foyda beradigan tarmoqqa qo'ygan bo'lar edi.

Shunday qilib, raqobatlashuvchi firmaning uzoq muddatli o'rtacha xarajati narxga teng bo'lsa ham (nolga teng iqtisodiy foyda olsa ham), u o'z ishini normal foyda olgani uchun to'xtatmaydi.

Raqobatlashgan bozorda tarmoqqa kirish va undan chiqish erkin bo'lgani uchun va tarmoqning o'zi ham raqobatlashuvchi bo'lgani uchun firmalarning iqtisodiy foydasi nolga yaqinlashish tendentsiyasiga ega.

13.2. Tarmoqning muvozanat holati va tarmoq taklifi

Uzoq muddatli oraliqda tarmoqning tipik vakili bo'lgan firma o'z foydasini shunday ishlab chiqarish hajmida maksimallashtiradiki, bu hajmda uzoq muddatli chekli xarajat mahsulot narxiga teng bo'lsa: $LMC = P_e = MR$ (13.5-rasm).




13.5-rasm. Uzoq muddatli oraliqda raqobatlashuvchi firmaning ishlab chiqarish hajmini tanlashi

Firmaning foydasi ishlab chiqarish hajmi Q_e ga teng bo'lganda maksimal bo'ladi va u $P_e C F E$ to'rtburchak yuziga teng. Ishlab chiqarish hajmiin Q_e dan oshirish yoki kamaytirish firmaning umumiy foydasini qisqartirdi. Chunki agar ishlab chiqarish hajmi Q_e dan kichik bo'lsa, ($Q < Q_e$) qo'shimcha ishlab chiqarilgan mahsulotning chekli daromadi chekli xarajattan ko'p, demak ishlab chiqarishni oshirish maqsadga

muvofiqdir. Ammo ishlab chiqarish hajmining Q_e dan yuqori bo'lgan har qanday hajmida chekli xarajat chekli daromaddan yuqori, shuning uchun qo'shimcha ishlab chiqarilgan mahsulot foydani qisqartiradi. Umuman olganda bozor narxi qancha yuqori bo'lsa, albatta xarajatlari o'zgarmaganda, firma shuncha ko'p foyda oladi. Xuddi shunday bozor narxi P_0 bo'lganda, firma foydasini maksimallashtiradigan ishlab chiqarish hajmi Q_0 nuqta, ya'ni uzoq muddatli o'rtacha xarajatlarning minimumi bilan aniqlanadi. Bunday holda firmaning iqtisodiy foydasi nolga teng. Lekin, firma, biz yuqorida aytganimizdek, iqtisodiy foyda nol bo'lganda ham investitsiya qilgan kapitaliga normal foyda oladi.

Uzoq muddatli oraliqda, mukammal raqobatlashgan bozorda nafaqat firma raqobatlashuvchi bo'ladi, balki tarmoqning o'zi ham raqobatlashuvchi bo'ladi. Tarmoqdan chiqish yoki tarmoqqa kirish, firmalar uchun erkin bo'lganligi uchun, firmalarning iqtisodiy foydasi nolga yaqinlashish tendentsiyasiga ega.

Shuning uchun ham, tarmoqda uzoq muddatli muvozanat holatiga erishiladi, qachonki mahsulot narxi P_0 tarmoqning tipik vakili bo'lgan firmaning uzoq muddatli o'rtcha xarajati minimumiga teng bo'lsa $P_0 = \min LAC(Q)$ (13.6-rasm).




13.6-rasm. Raqobatlashuvchi firmaning uzoq muddatli oraliqdagi muvozanati, tarmoq muvozanati (E muvozanat nuqta)

Firma nolga teng iqtisodiy foyda olganda, unda tarmoqdan chiqib ketishga hojat qolmaydi, boshqa firmalarning ham tarmoqqa kirib kelishidan manfaatdor emas. Uzoq muddatli muvozanat holat quyidagi o'rtacha shart bajarilganda sodir bo'ladi. Birinchidan, tarmoqdagi barcha firmalar o'z foydalarini maksimallashtiradi. Ikkinchidan, hamma firmalar nolga teng iqtisodiy foyda olgani uchun har bir firma tarmoqqa kirishdan va undan chiqishdan manfaatdor emas. Uchinchidan, mahsulotning narxi shundayki, bu narxda umumiy taklif (tarmoq taklifi) umumiy iste'mol talabiga teng. Endi faraz qilaylik, uzoq muddatli muvozanat holatga erishildi deylik:

$$P = P_e = LAC(Q_e) = \min LAC(Q_e) = LMC(Q_e)$$

Tarmoqning tipik firmasining ishlab chiqarish xajmi Q_0 ga teng. Muvozanat holatda tipik firmaning iqtisodiy foydasi nolga teng. Bozor narxi P_0 muvozanat narx sifatida tarmoq bo'yicha (umumiy talab umumiy taklifga teng bo'ladi) o'rnatiladi (13.7-rasm b). Bu yerda alohida firmalarning qisqa muddatli taklif chiziqlarining yig'indisi umumiy bozor taklif chizig'i S_0 ni beradi.



13.7-rasm. Tipik firmaning uzoq muddatli muvozanati (a), uzoq muddatli oraliqda tarmoq muvozanatining o'zgarishi (b)

Bozor taklif chizig'i S_0 bilan bozor taklif chizig'i D_0 tarmoq bozorining muvozanat narxini aniqlaydi. Bu narxga har bir firma moslashadi va $P_0 = LMC$ ni ta'minlaydigan va maksimal foyda beradigan ishlab chiqarish hajmini o'rnatadi.

Faraz qilaylik, iste'molchilarning didi o'zgarishi bilan tarmoq mahsulotiga bo'lgan talab oshdi va talab chizig'i D_0 holatdan D_1 holatga o'zgaradi. Natijada yangi muvozanat narx P_1 o'rnatildi. Yangi muvozanat narxda firmaning mahsulotiga bo'lgan talab chizig'i MR_0 holatdan MR_1 holatga siljiydi (esdan chiqarmaslik kerakki, raqobatlashgan bozorda talab chizig'i gorizontallik ko'rinishga ega, ya'ni cheksiz elastik).

Yangi muvozanat narxda firma noldan farqli, musbat iqtisodiy foyda olish boshlaydi va u foydani maksimallashtirish uchun ishlab chiqarish hajmini Q_0 dan Q_1 ga oshirdi. Lekin, ishlab chiqarish hajmining bunday oshishi qisqa muddatli oraliqdagina sodir bo'ladi. Natijada tarmoq bo'yicha ishlab chiqarish ham Q_0 'dan Q_1 ' ga oshadi. O'rtacha firma foydasining oshishi mablag' qo'yuvchilarni o'z resurslarini boshqa tarmoqdan ushbu tarmoqqa qo'yishga undaydi, ya'ni tarmoqqa yangi firmalar kirib kela boshlaydi. Yangi firmalarning tarmoqqa kirishi bozor

taklifini S_0 holatdan S_1 holatga o'tib, yangi muvozanat narx P_1 ni oldingi darajasi P_0 ga teng bo'lgunga qadar davom etadi.

Natijada tarmoq o'rtacha firmasining optimal ishlab chiqarish hajmi Q_0 ga teng bo'lib, uning iqtisodiy foydasi yana nolga teng bo'ladi va tarmoqqa yangi firmalarning kirib kelishi to'xtaydi. Tarmoq ishlab chiqarish hajmining Q_0' da Q_2 o'sishi tarmoqda $\frac{Q_2 - Q_0'}{Q_0'}$ ta yangi firmalarning paydo bo'lganini anglatadi.

Tarmoqqa firmalarning kirishi va undan chiqishini tarmoqda uzoq muddatli muvozanatni ta'minlovchi mexanizm deb qarash mumkin.

Tarmoqqa firmalar kirib keladi, agar ular ushbu tarmoqda iqtisodiy foyda olishini sezsa.

Tarmoqdan firmalar chiqib ketadi, agar ular uzoq muddatli oraliqda o'rtacha xarajtlarini qoplay olmasa.

Tarmoqdan chiqish va unga kirish oxirgi (chekli) firma nolga teng iqtisodiy foydaga erishguncha qadar davom etadi.

Umuman olganda uzoq muddatli muvozanat holatga erishish juda ko'p vaqt talab qiladi, lekin qisqa muddatli oraliqda firma katta foyda olishi ham mumkin yoki katta zarar ko'rishi ham mumkin. Biror bir mahsulot turini ishlab chiqarishda birinchi bo'lgan firma undan keyin shu ish bilan shug'ullangan firmaga ko'ra ko'proq qisqa muddatli foyda olishi mumkin. Xuddi shunday zarar bilan ishlayotgan tarmoqdan birinchi bo'lib chiqqan firma investitsiyalarining ancha mablag'ini iqtisod qilib qolishi mumkin. Uzoq muddatli muvozanatlik kontseptsiyasi firmani qanday va qaysi tomonga qarab harakat qilishini ko'rsatib beradi. Uzoq muddatli oraliqda ayrim firmalar haqiqiy musbat foyda olishi mumkin. Masalan, biror firma boshqa firmalarga nisbatan kamroq xarajat sarflab mahsulot ishlab chiqarishni ta'minlaydigan patentga yoki yangi g'oyaga ega deylik. Bunday holda bu firma uzoq muddatli oraliqda musbat haqiqiy foyda olishi mumkin. Boshqa firmalar ishlab chiqarish xarajtlarini kamaytirishni ta'minlaydigan ushbu patentni yoki g'oyani olmaguncha mahsulotni ishlab chiqarish bilan shug'ullanmaydi (tarmoqqa kirmaydi).

Agar firmalar ushbu patentdan foydalanish huquqini sotib olishsa, firmalarning iqtisodiy foydasi nolga teng bo'ladi.

Musbat iqtisodiy foyda tarmoqda harakat qilayotgan firmaning qimmatbaho aktivga, yangi texnologiyaga yoki yaxshi tajribaga ega ekanligidan dalolat beradi. Bunday holda boshqa firmalar tarmoqqa kirishga jur'at qilolmaydi.

Musbat iqtisodiy foyda investitsiyalarni tarmoqqa kirishga imoniyat yaratadi va ularni rag'batlantiradi.


13.3. Tarmoqning uzoq muddatli oralidagi umumiy taklifi

Qisqa muddatli oraliqda bozor taklifi firma taklif chiziqlari yig'indisi orqali topilardi. Uzoq muddatli oraliqdagi taklifni firma takliflarini qo'shish orqali aniqlab bo'lmaydi. Nima uchun deganda, uzoq muddatli oraliqda bozor narxining o'zgarishiga ko'ra firmalar bozorga kiradi yoki undan chiqadi. Bu o'z navbatida firmalar taklif chiziqlarini qo'shib bo'lmasligini ko'rsatadi (qaysi firmalar bozorda qolayotganligini biz bilmaymiz).

Uzoq muddatli oraliqdagi taklifni aniqlashda ishlab chiqarish hajmining kengayishini faqat resurslardan foydalanishning kengayishi hisobidan bo'ladi, deb faraz qilinadi. Ixtiro va texnologiyaning ishlab chiqarishga ta'siri o'zgarmas deb qabul qilinadi.

Uzoq muddatli oraliqdagi umumiy taklifning shakli tarmoqda ishlab chiqarish hajmi o'sishining yoki kamayishining foydalaniladigan ishlab chiqarish omillari narxiga ta'siri darajasiga bog'liqdir. Shuning uchun ham uch turdagi tarmoq xo'jaligi qaraladi: xarajatlari o'zgarmas, o'suvchi va kamayuvchi tarmoqlar.

Xarajatlari o'zgarmas bo'lgan tarmoq. Tarmoqda ishlab chiqarish hajmining o'sishi foydalaniladigan resurslarning narxiga ta'sir qilmasa, biz yuqorida ko'rdikki, tarmoqning kengayishi va qisqarishi muvozanat narx P_0 ga ta'sir qilmaydi. Biror sabab bilan (masalan, iste'molchi didining o'zgarishi) talab oshganda mahsulot narxi oshadi va tipik firma musbat iqtisodiy foyda ola boshlaydi. Bu foyda boshqa firmalarni ushbu tarmoqqa kirib kelishiga sabab bo'ladi. Boshqa firmalarning kirib kelishi taklifni oshiradi, natijada oshgan narx o'zining oldingi muvozanat holati P_0 ga qaytadi. Bundan kelib chiqadiki, xarajatlari o'zgarmas bo'lgan tarmoqning uzoq muddatli oraliqdagi taklif chizig'i narx uzoq muddatli o'rtacha ishlab chiqarish xarajatlarini minimumiga teng bo'lganda gorizontaal chiziqdan iborat bo'ladi (13.8-rasm).




13.8-rasm. O'zgarmas xarajatli tarmoqning uzoq muddatli oralidagi taklif chizig'i

Narx muvozanat narx P_0 dan yuqori bo'lsa iqtisodiy foyda musbat bo'ladi va bozorga yangi firmalar kirib qisqa muddatli taklifni oshiradi va bu narxni oldingi muvozanat holatiga qataradi. O'zgarmas xarajatga ega tarmoqning uzoq muddatli o'rtacha xarajatlari chizig'i gorizontaal bo'ladi. Masalan malakasiz ishchi kuchiga talab oshgani bilan uning narxi odatda o'zgarmaydi.

Xarajatlari o'sayotgan tarmoq. Xarajatlari o'suvchi tarmoqda, tarmoq kengayishi bilan birga bir qator yoki barcha omillarga talab oshdi va bu omillarning narxi ham oshadi. Bu yerda misol tariqasida malakali ishchi kuchini keltirish mumkin. Yoki yerga solinadigan o'g'itlar narxi oshsa, yerga o'g'itning solinishi bir tomondan mahsulot ishlab chiqarishni oshiradi va shu bilan birga yerning qiymati ham oshadi.

Faraz qilaylik, tarmoq uzoq muddatli muvozanat holatda bo'lsin (E nuqta) (13.9-b-rasm).



13.9-rasm. Xarajatlari o'suvchi tarmoqning uzoq muddatli oraliqdagi taklifi chizig'i

Taklif chizig'i D_1 dan D_2 holatga siljiganda (qisqa muddatli oraliqda) mahsulot narxi P_1 dan P_2 ga o'sadi, ishlab chiqarish xajmi esa Q_1 dan Q_2 ga. Tipik firma (13.9-a-rasm) narx P_2 ga o'sganda foydani maksimallashtirish uchun ishlab chiqarish hajmini Q_1 dan Q_2 ga oshiradi. Bu siljish qisqa muddatli chekli xarajat SMC_1 chizig'i bo'yicha bo'ladi. Ko'rinib turibdiki, yuqori foyda tarmoqqa yangi firmalarning kirib kelishiga sabab bo'ladi.


Tarmoqqa yangi firmalarning kirib kelishi, ishlab chiqarish hajmining oshishi, ishlab chiqarish omillariga bo'lgan talabni oshiradi va bu o'z navbatida ba'zi bir yoki barcha foydalaniladigan omillar narxini oshishiga olib keladi. Yangi firmalarning kirib kelishi bozor taklifi chizig'i S_1 ni S_2 holatga (ilgariday boshlang'ich muvozanat narxigacha emas, balki undan yuqoriroq bo'lgan muvozanat holatga)

siljiti va natijada yangi muvozanat holat E_2 vujudga keladi, bu holatga yangi muvozanat narx P_3 to'g'ri keladi va P_1 dan yuqori. Yangi muvozanat narx P_3 ning oldingi P_1 dan yuqori bo'lishi firmalarni o'sgan xarajatlarini qoplaydi va ularga uzoq muddatli oraliqdagi muvozanatda nolga teng foydani olishni ta'minlaydi.

Chunki ishlab chiqarish omillariga bo'lgan narxning oshishi firmaning uzoq muddatli va qisqa muddatli xarajatlarini o'sishiga olib keladi. Ushbu vaziyat 13.9-a-rasmda o'z ifodasini topgan. Bu erda uzoq muddatli o'rtacha xarajatlar yuqoriga ya'ni LAC_1 dan LAC_2 ga siljiydi, chekli qisqa muddatli xarajatlar chapga, SMC_1 holatdan SMC_2 holatga siljiydi. Yangi uzoq muddatli o'rtacha xarajatlar minimumi yangi muvozanat narx P_3 ga teng bo'ladi. Bu erda ham o'zgarmas xarajatli tarmoq kabi boshlang'ich talab oshish hisobidan olingan qisqa muddatli yuqori foyda uzoq muddatli oraliqda firma ishlab chiqarish hajmini oshirib borgan sari yo'qolib boradi, ishlab chiqarish omillariga bo'lgan xarajat esa ortib boradi.

Demak, tarmoqning uzoq muddatli oraliqdagi taklif chizig'i uzoq muddatli muvozanat nuqtadan, ya'ni E_2 nuqtadan o'tadi (13.9-b-rasm, S_2 chizig'i).

Xarajatlari o'sayotgan tarmoqning uzoq muddatli taklif chizig'i unga yuqoriga tomon yotiq bo'ladi, nima uchun deganda, tarmoqdagi firmalar sonini oshishi bilan bir qatorda barcha firmalar uchun resurslar narxi ham o'sib boradi (13.10-rasm).



13.10-rasm. Xarajatlari kamayuvchi tarmoqning uzoq muddatli taklif chizig'i (S_L)

Xarajatlari kamayib boradigan tarmoqda tarmoq ishlab chiqarishi ortib borganda, resurslarga bo'lgan narx pasayib boradi. Natijada tarmoqning uzoq muddatli oraliqdagi taklif chizig'i unga pastga tomon yotiq bo'ladi.

Tarmoq kengayganda, uning xarajatlarni kamaytirish imkoniyati ham keng bo'ladi. Masalan, yirik tarmoqda transport tizimini samarali tashkil qilish evaziga xarajatlar kamayishi mumkin, yirik tarmoqda resurslardan ham optimal foydalanish imkoniyati tug'iladi (masshtab samarasi) bu ham pirovardda mahsulot narxini pasaytirishga olib

kelishi mumkin. O'rtacha xarajatning va tovar narxining pasayishi kengayayotgan tarmoqni yangi muvozanat nuqtaga olib keladi (13.10-rasmda E_2 nuqta).

Umumlashtirib ta'kidlash mumkinki, alohida firmaning uzoq muddatli oraliqdagi muvozanat holati o'rtacha xarajati minimal bo'lib, nolga teng bo'lgan iqtisodiy foyda olish bilan tavsiflanadi. Bu, ya'ni $P_E = \min(ATC)$ bo'lishi yana shundan darak beradiki, iste'molchi o'zi talab qilgan hajmdagi mahsulotni mavjud xarajatlar imkoni darajasidagi eng minimal narxda sotib oladi. Bundan xulosa qilib aytish mumkinki, raqobatlashgan bozor samarali ishlab chiqarishni ta'minlaydi.

Qisqa xulosalar

Uzoq muddatli oraliqda firma foydalanadigan barcha omillarini o'zgartiradi, shu jumladan ishlab chiqarish quvvatlarini ham. Uzoq muddatli oraliqda firma o'z kapitali hajmini o'zgartirishi, ya'ni ishlab chiqarish quvvatini o'zgartirishi mumkinligi firmaga ishlab chiqarish xarajatlarini kamaytirishga imkon beradi. Firma ishlab chiqarish xarajatlarining qanday o'zgarishi ishlab chiqarish masshtabi samaradorligining o'sishi, o'zgarishligi va kamayishi bilan aniqlanadi.

Odatda, ishlab chiqarishning boshida masshtab samarasining oshishi, undan keyin o'zgarish va keyinchalik kamayishi ko'pgina firmalarga xosdir. Shuning uchun ham uzoq muddatli oraliqda umumiy o'rtacha xarajatlar chizig'i botiq ko'rinishga ega bo'ladi.

Uzoq muddatli oraliqda barcha resurslar o'zgaruvchan bo'lgani uchun, barcha xarajatlar ham o'zgaruvchan bo'ladi. Firma har qanday berilgan ishlab chiqarish quvvatidan umumiy va o'rtacha xarajatlarni minimallashtiradi. Shuning uchun ham uzoq muddatli o'rtacha xarajatlar (LAC) grafigi qisqa muddatli oraliqdagi o'rtacha xarajatlar grafiklarini bir-biriga tutashtirish orqali hosil qilinadi.

Uzoq muddatli oraliqda tarmoq tarkibidagi firmaning muvozanat holati bozorda shakllangan narx P_e ning ushbu firmaning o'rtacha xarajatlari minimumiga tengligi bilan belgilanadi: $P_e = \min LAC(Q_e)$.

Shunday qilib, raqobatlashuvchi firmaning uzoq muddatli o'rtacha xarajati narxga teng bo'lsa ham (nolga teng iqtisodiy foyda olsa ham), u o'z ishini normal foyda olgani uchun to'xtatmaydi.

Raqobatlashgan bozorda tarmoqqa kirish va undan chiqish erkin bo'lgani uchun va tarmoqning o'zi ham raqobatlashuvchi bo'lgani uchun firmalarning iqtisodiy foydasi nolga yaqinlashish tendentsiyasiga ega.

Uzoq muddatli oraliqda tarmoqning tipik vakili bo'lgan firma o'z foydasini shunday ishlab chiqarish hajmida maksimallashtiradiki, bu hajmda uzoq muddatli chekli xarajat mahsulot narxiga teng bo'lsa: $LMC = P_e = MR$.

Uzoq muddatli oraliqda, mukammal raqobatlashgan bozorda nafaqat firma raqobatlashuvchi bo'ladi, balki tarmoqning o'zi ham raqobatlashuvchi bo'ladi. Tarmoqdan chiqish yoki tarmoqqa kirish, firmalar uchun erkin bo'lganligi uchun, firmalarning iqtisodiy foydasi nolga yaqinlashish tendentsiyasiga ega.

Shuning uchun ham, tarmoqda uzoq muddatli muvozanat holatiga erishiladi, qachonki mahsulot narxi P_0 tarmoqning tipik vakili bo'lgan firmaning uzoq muddatli o'rtcha xarajati minimumiga teng bo'lsa $P_0 = \min LAC(Q)$.

Nazorat va muhokama uchun savollar

1. Uzoq muddatli oraliqda mukammal raqobatlashgan bozorda harakat qilayotgan firmaning foydasini maksimallashtirish shartlari nimalar?
2. Uzoq muddatli oraliqda mukammal raqobatlashgan bozorda harakat qilayotgan firmaning talab chizig'i qanday ko'rinishga ega?
3. Uzoq muddatli oraliqda mukammal raqobatlashgan bozorda harakat qilayotgan firmaning muvozanat holati qanday aniqlanadi?
4. Firmaning uzoq muddatli o'rtacha xarajatining tarkibi qanday aniqlanadi?
5. Tarmoqning uzoq muddatli oraliqdagi muvozanat holati qanday aniqlanadi?
6. Uzoq muddatli oraliqda tarmoqning kengayish mexanizmini tushuntirib bering.
7. Firmaning uzoq muddatli oraliqdagi taklif chizig'i nimalar bilan belgilanadi?

15-bob. RAQOBAT VA YAKKA HOKIMLIK

14.1. Raqobatlashmagan bozorlar va ularning xususiyatlari

Sof monopoliya - bu bitta sotuvchi va ko'p xaridorlar qatnashgan bozor, yoki o'rnini bosadigan tovar bo'lmagan tovarni sotadigan yagona sotuvchi bo'lgan bozor vaziyati, yoki tarmoqda yagona hukmron firma bo'lib, firmaning ishlab chiqarish va sotish chegarasi tarmoq chegarasiga teng bo'lgan bozor. Sof monopoliya va raqobatlashgan bozor bir-biriga teskari bozorlar hisoblanadi (14.1-jadval).

14.1-jadval

Raqobat muhitiga ko'ra bozorlarning xususiyatlari

Mezonlar	Sof raqobat	Nomukammal raqobat turlari		
		Monopolistik raqobat	Oligopoliya	Sof monopoliya
Bozordagi firmalar soni	juda ko'p	ko'p	kam	yagona
Raqobat turi	narx orqali	narxsiz	kelishuv	yo'q
Tarmoqqa kirish yoki chiqishga to'siqlar	yo'q	kuchsiz	odatda bor	bor
Mahsulotni tabaqalanishi	yo'q, bir xil	bor	mumkin	yo'q (bitta mahsulot)
Mahsulotga talab elastikligi	eng yuqori	o'rtacha	kichik	eng kichik
Iqtisodiy foyda olish imkoniyati	uzoq muddatli oraliqda iqtisodiy foyda yo'q	firmalar doimo iqtisodiy foyda oladi		
Narx va chekli xarajat nisbati	narx chekli xarajatga teng ($P=MC$)	narx chekli xarajattan katta ($P > MC$)		
Misol	qishloq xo'jaligi bozori	restoranlar, dorixonalar	mineral o'g'itlar bozori	O'zbekiston temir y'yllari

Oligopoliya - bu bozor tizimida biror bir tovarni sotishda cheklangan firmalar hukmronlik qiladi.

Monopol raqobat bozori to'liq raqobatlashmagan bo'lib, unda qatnashadigan firmalar soni ko'p bo'lib, ularning har biri o'z tovarlari narxini ma'lum chegarada nazorat qiladi, ya'ni ular kichik bo'lsa ham monopol hokimiyatga ega.

Monopsoniya - xaridor bitta bo'lib, sotuvchilar ko'p bo'lgan bozor.

Agar bozorda monopolist- sotuvchi bilan monopolist xaridor uchrashsa, bunday holda ikki tomonlama monopoliya bo‘ladi. Agar tarmoqda faqat ikkita firma faoliyat ko‘rsatsa, bunday oligopolik xususiy holga duopoliya deyiladi. Agar biz bozor taklifi va talabining har xil shakldagi variantlar kombinatsiyasini qarasaq, bozor tizimlari soni yanada ko‘payadi.

14.2. Sof monopoliya va bozor hokimiyati

Raqobatlashgan bozorda juda ko‘p sotuvchilar va xaridorlar qatnashadi, shu sababli ulardan birortasi ham tovar narxiga ta‘sir qila olmaydi, narxni bozorning o‘zi talab va taklifga ko‘ra shakllantiradi. Sotuvchilar va xaridorlar bu narxni qabul qiladilar va shu narxga ko‘ra qancha mahsulot sotish kerak yoki qancha mahsulot sotib olish kerakligi bo‘yicha qaror qabul qiladilar. Sof monopoliya raqobatlashgan bozorning aksi bo‘lib, bu yerda bitta sotuvchi va ko‘plab xaridorlar qatnashadi. Sof monopolistning raqobatchisi yo‘q.

Sof monopoliya mahsulot o‘rnini bosadigan boshqa mahsulot bo‘lmagan hududlarda vujudga keladi. Umuman olganda jahon va milliy bozorlarda bitta mahsulotni bitta sotuvchi tomonidan sotilishi kamdan-kam uchraydi. Sof monopoliya ko‘proq mahalliy bozorlarga xos bo‘ladi. Masalan, tumandagi yagona kitob magazini, yagona telefon stantsiyasi, yagona tish doktori, yagona jarrox yoki bo‘lmasa mahalliy kommunal xo‘jaligi xizmati. Yuqorida keltirilgan sub`ektlar bozor sharoitida narxga ta‘sir qilish uchun real hokimiyatga ega.

Sof monopoliyaning vujudga kelishiga ta‘sir qiluvchi yana bir omil bu - tarmoqqa kirish to‘siqlarining kuchliligidir. Biror mahsulotni sotishdan tushadigan iqtisodiy foyda yuqori bo‘lsa, bu raqobatlashgan bozor sharoitida boshqa firmalarni ham shu bozorga kirib kelishi uchun signal bo‘lar edi. Agar monopol firma iqtisodiy foyda ola boshlasa, bu boshqa firmalarni ham ushbu mahsulotlarni ishlab chiqarishga undaydi. Demak sof monopoliyani saqlab qolish uchun, boshqa raqobatlashmoqchi bo‘lgan firmalar uchun maxsus to‘siqlar bo‘lishini taqazo qiladi. Tarmoqqa kirish to‘siqlari - bu monopol firma bozoriga boshqa sotuvchilarni kirib kelishini to‘xtatuvchi cheklanishlar.

Tarmoqqa kirish to‘siqlaridan quyidagilarni ko‘rsatish mumkin.

1. Davlat tomonidan berilgan maxsus huquq. Masalan mahalliy hokimiyatlarda aholiga transport xizmati ko‘rsatish, pochta xizmati ko‘rsatish, kommunal xizmati ko‘rsatish va aloqa xizmati ko‘rsatish bo‘yicha monopol huquqlar berib, rasmiy to‘siqlar yaratadi.

2. Patentlar va mualliflik huquqi, yangi texnologiya yaratganlar uchun patent va mualliflik huquqi berilishi, ularga ushbu yangilikni sotishda, undan foydalanish uchun litsenziya berishda monopol huquq beriladi. Lekin bunday huquq ma‘lum muddatgacha kuchga ega bo‘ladi. AQSH da patent qonuniga ko‘ra ixtirochi o‘z ixtirosiga 17 yil egalik qiladi.

3. Biror bir ishlab chiqarish resursi taklifiga egalik qilish. Masalan, Amerikaning «De Birs» kompaniyasi jahonda sotiladigan, qayta ishlanmagan olmosning 85 foizini nazorat qilgani uchun, olmos bozorida monopol hokimiyatga ega. Yuqoridagilardan tashqari insonning noyob qobiliyati va bilimi ham monopoliyani vujudga keltiradi.

Ishlab chiqarish masshtabi kengayishining musbat samarasi ham tarmoqqa kirish uchun to'siq bo'lishi mumkin. Masalan, avtomobil zavodi ma'lum miqdorda avtomobil ishlab chiqarishga erishgandagina, uning umumiy xarajatlari minimal bo'ladi.

Monopol hokimiyat. Firma monopol hokimiyatga ega bo'ladi, qachonki u o'zining sotadigan tovari narxiga ta'sir qila olsa, ya'ni o'zgartira olsa. Monopol hokimiyat darajasi ushbu tovar o'rnini bosuvchi tovarning mavjudligi va tovarning bozordagi ulushi bilan belgilanadi. Monopol hokimiyatga ega bo'lish uchun firmaning sof monopolist bo'lishi shart emas. Firma mahsulotiga bo'lgan talab chizig'i raqobatlashgan bozordagiday garizontal bo'lmasdan, pastga yotiq bo'lishi kifoyadir. Agar talab chizig'i pastga yotiq bo'lsa, firma taklif hajmini oshirib yoki kamaytirib, mahsulot narxini o'zgartirishi mumkin.

Umumun olganda monopolist narxni nazorat qilishidan yutuqqa ega bo'ladi. Monopolistning taklifi raqobatlashgan bozor taklifiga ko'ra kam bo'ladi, tovar narxi esa, raqobatlashgan narxga nisbatan yuqori bo'ladi (monopol narx chekli xarajatdan yuqori).

Tovarlarni monopol narxda sotilishi jamiyat xarajatini ko'paytiradi, aholining turmush darajasiga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Nima uchun deganda, ushbu tovarni sotib oluvchilar ko'proq pul sarflaydi, shu tovarni sotib oluvchilar soni ham kamayadi. Shuning uchun ham monopoliyaga qarshi qonun, bozorlarni monopoliyaga aylantirishga yo'l qo'ymaydi.


Monopolist mahsulotiga talab. Raqobatlashgan bozorda firma maksimal foyda oladi, agar u chekli daromad chekli xarajatga teng holatni ta'minlaydigan hajmda mahsulot ishlab chiqarsa, $MR = MC$.

Bunday mahsulot hajmi optimal bo'ladi. Monopolist ham shu optimal ishlab chiqarish shartiga amal qilishi kerak bo'ladi. Sof monopolist tovariga bo'lgan talab ham bozor talabi hisoblanadi. Monopolist o'z tovari narxini oshirsa unga talab kamayadi va aksincha, monopolist tovar narxini tushirsa unga talab ortadi.

Xuddi shunday sof monopolist taklifi ham bozor taklifi hisoblanadi. Masalan tovar ishlab chiqarishning o'zgaruvchan xarajatlari oshsa, monopolist maksimal foyda olish uchun tovar hajmini qisqartiradi. Taklif hajmining qisqarishi va xaridorlar o'rtasida raqobatning mavjudligi tovar narxini oshiradi.

Raqobatlashgan bozorda firmaning chekli daromadi mahsulot narxiga teng $MR = P$ va talab chizig'i gorizontal bo'lsa, monopol bozorda monopolist mahsulotiga bo'lgan talab chizig'i pastga yotiqroq va monopolistning chekli daromadi har doim narxdan kichik bo'ladi $MR < P$ (14.1-rasm).

Monopol firmaning mahsulotiga talab bilan uning chekli va umumiy daromadi o'rtasidagi bog'liqliklarni quyidagi rasmda ko'rish mumkin.



14.1-rasm. Sof monopoliyada firmaning mahsulotiga talab, uning chekli va umumiy daromadi

Talab chizig'ining elastik qismida chekli daromad $MR > 0$ bo'lgani uchun monopolist mahsulot hajmini noldan, Q^* miqdorgacha oshirganda uning umumiy daromadi TR oshadi. Talab chizig'ining elastik bo'lmagan qismida chekli daromad manfiy, ya'ni $MR < 0$ bo'lgani uchun, talab chizig'ining ushbu qismida ishlab chiqarilgan mahsulot umumiy daromadni kamaytiradi. Shuning uchun ham monopolist talab chizig'ining elastik bo'lmagan qismidan qochishga harakat qiladi.


Agar monopolistning talab chizig'i raqobatlashgan bozordagi singari gorizontaal bo'lganda edi, u tovar hajmini o'zgartirishi bilan narxga ta'sir qila olmas edi. Monopollashgan bozorda taklif chizig'i ma'noga ega emas. Nima uchun deganda, ishlab chiqariladigan mahsulot (taklif) miqdori bilan narx o'rtasida proportsional bog'liqlik yo'q. Monopolistning qancha miqdorda mahsulot ishlab chiqarishi nafaqat chekli xarajatga bog'liq, balki talab chizig'ining shakliga ham bog'liq bo'ladi.

Monopol bozorda talabning o'zgarishi narxning va taklifning raqobatlashgan bozordagiday proportsional o'zgarishiga olib kelmaydi. Monopolist, talab o'zgarganda mahsulot hajmini o'zgartirmasdan narxni o'zgartirishi yoki narxni o'zgartirmasdan

mahsulot hajmini o'zgartirishi yoki bir vaqtning o'zida narxni hamda mahsulot miqdorini o'zgartirish mumkin.

Monopolistning maqsadi maksimal foyda olish bo'lsa, u tovar narxini xohlagancha oshira olmaydi. Narx oshishi bilan mahsulotga talab kamayib boradi, narx oshishi ma'lum darajaga etganda umumiy daromad umumiy xarajatni qoplaymaydi. Monopolist qanday narx strategiyasini tutishini bilish uchun daromadning narxga ko'ra talab elastikligi bilan qanday bog'liqligini eslash zarur bo'ladi. Talab chizig'ining elastik bo'lgan qismida ($E_p > 1$) narxning pasayishi umumiy daromadni o'sishiga olib keladi ($MR > 0$), elastiklik birga teng bo'lganda ($E_p = 1$) umumiy daromad maksimumga erishadi ($MR=0$), elastik bo'lmagan qismida narxning pasayishi umumiy daromadni pasayishiga olib keladi ($MR < 0$). Shuni tushungan monopolist talab chizig'ining elastik bo'lmagan qismida harakat qilmaydi.

Biz ko'rsatamiz monopolist ham raqobatlashgan bozordagi firma kabi chekli harakat bilan chekli daromadni tengligini ta'minlaydigan hajmda mahsulot ishlab chiqarsagina maksimal foyda olishi mumkin (14.2-rasm).



14.2- rasm. $MC=MR$ bo'lganda foydani maksimallashtirish grafigi

Rasmda monopolistning o'rtacha daromad chizig'i bipor talabi chizig'ini beradi. Mahsulot narxi shu mahsulot ishlab chiqarish hajmiga bog'liq funktsiya. Grafikdan ko'rinib turibdiki, ishlab chiqarish hajmi Q^* ga teng bo'lganda chekli xarajat chekli daromadga teng bo'ladi. Talab chizig'idan foydalanib mahsulot hajmi Q^* ga mos bo'lgan bir birlik mahsulotning monopol narxi P^* ni aniqlaymiz. Ushbu Q^* ga teng bo'lgan mahsulot hajmida foyda maksimal bo'lishini ko'rsatamiz. Ma'lumki, raqobatlashgan bozorda muvozanatlik E nuqtada erishiladi. Grafikda E nuqta muvozanat nuqta va unga mos keladigan ishlab chiqarish hajmi Q_e va narx P_e .

Faraz qilaylik, monopolist ishlab chiqargan mahsulot miqdori Q_1 bo'lsin va u Q^* dan kichik $Q_1 < Q^*$, bu holatga mos keladigan narx P_1 ham P^* dan yuqori va chekli daromad chekli xarajatdan katta $MR > MC$.

Monopolist mahsulot hajmini Q_1 dan oshirsa, u har bir birlik qo'shimcha ishlab chiqargan mahsuloti uchun $MR - MC$ ga teng bo'lgan qo'shimcha foyda olishi mumkin, ya'ni u o'zining umumiy daromadini oshirishi mumkin. Monopolist mahsulot hajmini oshirib, umumiy foydani oshirishi mumkin to mahsulot hajmi Q^* ga teng bo'lgunga qadar, mahsulot hajmi Q^* ga teng bo'lganda, keyingi qo'shimcha bir birlik ishlab chiqarilgan mahsulotdan tushadigan daromad nolga teng, nima uchun deganda $MR = MC$ bo'ladi. Shuning uchun ham ishlab chiqarish hajmi Q_1 ga teng bo'lganda monopolistning umumiy foydasi rasmdagi shtrixlangan FKM sohaga teng bo'lgan miqdorga kamayadi. Monopolist uchun Q_2 miqdorda mahsulot ishlab chiqarish ham uning umumiy foydasini kamaytiradi. Q_2 hajmda chekli xarajatlardan yuqori ($MC > MR$). Agar monopolist ishlab chiqarish hajmini Q_2 ga nisbatan kamaytirsa, u o'zining umumiy foydasini ($MC - MR$) miqdorga oshirgan bo'lardi. Monopolist mahsulot hajmini Q_2 dan Q^* ga qadar qisqartirishi natijasida umumiy foydani MEL shtrixlangan soha miqdorida oshirishi mumkin. Q^* hajmdan keyin mahsulot hajmini qo'shimcha birlikka qisqartirilishi umumiy foydani oshirmaydi ($MC = MR$ bo'ladi). Rasmda $Q = 0$ bilan Q^* va MC hamda MR chiziqlar oralig'idagi soha monopolistik tomonidan kam miqdorda mahsulot ishlab chiqarib o'ta yuqori narxda sotish munosabati bilan yo'qotiladigan foydani ifodalasa, mahsulot hajmi Q^* dan katta bo'lgandagi va MC bilan MR oralig'idagi soha nihoyatda ko'p mahsulot ishlab chiqarib ($Q > Q^*$), past narxlarda sotilishi natijasida yo'qotiladigan foydani ifodalaydi.

Mahsulot ishlab chiqarish hajmi Q^* foydani maksimal qiladigan hajm ekanligini matematik nuqtai nazardan ham ko'rsatish mumkin. Umumiy foydani π bilan belgilasak $\pi(Q) = TR(Q) - TC(Q)$, va bu munosabatdan Q bo'yicha hosila olib, uni nolga tenglashtirib ehamiz:

$$\frac{d\pi}{dQ} = \frac{dR}{dQ} - \frac{dC}{dQ} = 0.$$

Bu yerda $\frac{dR}{dQ} = MR$ va $\frac{dC}{dQ} = MC$ bo'lgani uchun ham foydani

maksimallashtirish sharti $MR - MC = 0$ yoki $MR = MC$ bo'ladi.

Misol 1. Quyidagi ko'rinishdagi xarajatlarni funksiyasi berilgan bo'lsin $TC(Q) = 80 + Q^2$, o'zgarmas xarajat $TFC = 80$ so'm, o'rtacha xarajat esa

$ATC = \frac{80}{Q} + Q$ bo'ladi. Talab funksiyasi quyidagicha berilgan bo'lsin: $Q = 60 - P(Q)$ yoki $P(Q) = 60 - Q$.

U holda daromad: $TR(Q) = Q \cdot P(Q) = 60 \cdot Q - Q^2$ ko'rinishda aniqlanadi. Chekli daromad $MR = \frac{dR}{dQ} = 60 - 2 \cdot Q$. Chekli xarajat $\frac{dC}{dQ} = MC = 2 \cdot Q$. Maksimallik shartiga ko'ra $MC = MR$ dan $2 \cdot Q = 60 - 2 \cdot Q$ bu tenglikdan aniqlash mumkinki, $Q^* = 15$ bo'lganda foyda maksimal miqdorga ega bo'ladi. Mahsulot narxi $Q^* = 15$ da $P = 45$ so'mga teng. Umumiy foyda

$$\pi(Q^*) = R(Q^*) - C(Q^*) = P \cdot Q^* - C(Q^*) = 45 \cdot 15 - 305 = 370 \text{ so'm.}$$

Faraz qilaylik, monopolist $Q^* = 15$ birlik mahsulot o'rniga $Q = 16$ birlik ishlab chiqardi deylik. Hisob-kitoblar natijasida quyidagilarni aniqlaymiz.

$$TC = 80 + Q^2 = 80 + 256 = 336, P = 44,$$

$$TR = 44 \cdot 16 = 704, \text{ foyda } \pi(16) = 704 - 336 = 368 \text{ so'm.}$$

Demak, monopolist mahsulot hajmini maksimal foyda beradigan hajm 15 birlikdan oshirsa, ya'ni 16 birlik ishlab chiqarsa uning foydasi 2 so'mga kamayadi.

Xuddi shunday monopolist ishlab chiqarish hajmini 15 birlikdan 14 birlikka kamaytirsa, narx ko'tarilib 46 so'm bo'ladi va umumiy foyda 370 so'mdan 368 so'mga kamayadi. Demak, bunday holni tushungan monopolist mahsulot ishlab chiqarishda bu qoidaga amal qiladi.

14.3. Monopol sharoitda narx belgilash va monopol hokimiyati ko'rsatkichi

Biz ko'rdikki, monopol bozorda narx chekli daromaddan yuqori bo'ladi ($P > MR$). Chekli daromad MR ni quyidagicha o'zgartirib yozamiz:

$$MR = \frac{\Delta R}{\Delta Q} = \frac{\Delta(P \cdot Q)}{\Delta Q} \quad (1)$$

$\frac{\Delta(P \cdot Q)}{\Delta Q}$ - bu qo'shimcha bir birlik mahsulot ishlab chiqarish natijasida olingan

qo'shimcha daromad bo'lib, u ikki xususiyatga ega. (1) - tenglikni quyidagicha yozish mumkin:

$$MR = \frac{\Delta P \cdot Q}{\Delta Q} + \frac{P \cdot \Delta Q}{\Delta Q} = Q \cdot \frac{\Delta P}{\Delta Q} + P \quad (2)$$

1) Bir birlik qo'shimcha mahsulot ishlab chiqarib ($\Delta Q = 1$), uni P narxda sotganimizda $P \cdot (1) = P$ narxga teng bo'lgan daromad olamiz ($Q=0$);

2) Monopol firma mahsulotiga bo'lgan talab chizig'i pastga yotiq bo'lgani uchun qo'shimcha bir birlik mahsulot ishlab chiqarib, uni sotilishi, narxni kichik miqdorga

kamaytiradi ($\frac{\Delta P}{\Delta Q}$ - qo'shimcha birlik mahsulot ishlab chiqarib sotish natijasida narx qancha miqdorga kamayishini ko'rsatadi) va bu barcha sotilgan mahsulotdan tushgan daromadni kamaytiradi (ya'ni $Q \cdot \frac{\Delta P}{\Delta Q}$ - daromadning o'zgarishi). Demak,

$MR = P + Q \cdot \frac{\Delta P}{\Delta Q}$ va bu yerda $\frac{\Delta P}{\Delta Q}$ talab chizig'i manfiy yotqlikka ega bo'lgani uchun chekli daromad narx P dan kichik bo'lishi kerak (nima uchun deganda $\frac{\Delta P}{\Delta Q}$ manfiy).

Endi chekli daromad bilan talab chizig'i yotqligi o'rtasidagi bog'liqlikni chekli daromad bilan narxga ko'ra talab elastikligi koeffitsienti o'rtasidagi bog'liqlikka aylantiramiz. Ma'lumki, talabning narxga ko'ra elastiklik koeffitsienti

$$E_p^D = \frac{P}{Q} \cdot \frac{\Delta Q}{\Delta P}, \quad \text{bundan} \quad \frac{\Delta P}{\Delta Q} = \frac{P}{Q \cdot E_p^D}, \quad \text{bu munosabatni chekli daromad}$$

tenglamasi (3) ga qo'ysak quyidagini olamiz

$$MR = P + Q \cdot \frac{P}{Q \cdot E_p^D} = P + P \cdot \frac{1}{E_p^D}, \quad MR = P + P \cdot \frac{1}{E_p^D} \quad (4)$$

(4) - tenglama chekli daromadni har qanday ishlab chiqarish hajmida tovar narxidan va talabning narxga ko'ra elastikligidan bog'liq ekanligini ko'rsatadi. Ikkinchidan, $MR < P$ ekanligini ham ko'rsatadi.

Firmaning maqsadi foydani maksimallashtirish bo'lgani uchun biz chekli daromadni chekli xarajatga tenglashtirib yozamiz:

$$MR = P + P \cdot \frac{1}{E_p^D} = MC, \quad \text{yoki} \quad \frac{P - MC}{P} = -\frac{1}{E_p^D} \quad (5)$$

Ushbu formula monopol narx belgilashda «Bosh barmoq» qoidasi nomi bilan yuritiladi (esdan chiqarish kerak $E < 0$, demak (5)-ifodaning o'ng tomoni har doim musbat). (5)-tenglamaning chap tomonidagi ifoda $\frac{P - MC}{P}$ narxning chekli xarajattan qanchalik yuqori ekanligini, narxga nisbatan foiz hisobida ko'rsatadi va bu farq teskari olingan manfiy elastiklik koeffitsientiga teng.

(5) tenglikni narxga bog'liq holda ham yozish mumkin:
$$P = \frac{MC}{1 + \left(\frac{1}{E_p^D}\right)}.$$

Masalan elastiklik $E_p^D = -5$ bo'lganda va chekli xarajat $MC = 30$ bo'lganda, mahsulot narxi $P = \frac{30}{1 + \left(\frac{1}{-5}\right)} = 37,5$ so'm bo'ladi.

Raqobatlashgan bozorda $P = MC$ bo'lganini ko'rgan edik. Monopolist narxni chekli xarajatdan yuqori belgilaydi ($P > MC$) va bu farq miqdor bo'yicha talab elastikligiga teskari proportsional bo'ladi (5). (5)-tenglamadan shunday xulosa kelib chiqadiki, agar talabning narx bo'yicha elastikligi qancha yuqori bo'lsa, mahsulot narxi shuncha chekli xarajatga (MC ga) yaqinlashadi. Narx qanchalik chekli xarajatga yaqin bo'lsa, monopol bozor raqobatlashgan bozorga shunchalik yaqin bo'ladi. Demak, talab yuqori darajada elastik bo'lsa, monopolist oladigan qo'shimcha foyda shuncha kichik bo'ladi.

Monopol hokimiyat ko'rsatkichi. Raqobatlashgan bozorda narx chekli xarajatga teng bo'lishi, maksimal foyda olishning zaruriy sharti edi. Monopol bozorda narx chekli xarajatdan yuqori belgilanadi ($P > MC$). Ana shu farq ($MC - P$), ya'ni foydani maksimalashtiradigan narx bilan chekli xarajat o'rtasidagi farq monopol hokimiyatni o'lchash usuli bo'lishi mumkin. Monopol hokimiyatni xuddi ushbu usulda aniqlashni 1934 yilda iqtisodchi olim Abba Lerner tomonidan taklif qilinganligi uchun, bu

ko'rsatkich Lernerning monopol ko'rsatkichi degan nomni olgan $L = \frac{P_m - MC}{P_m} = -\frac{1}{E_p^D}$,

bu yerda: L - monopol hokimiyatning Lerner indeksi; P_m - monopol narx; MC - chekli xarajat; E_p^D - talabning narxga ko'ra elastikligi. Masalan, benzining talabning narx bo'yicha elastikligi -5 bo'lsa,

$-\frac{1}{E_p^D} = -\frac{1}{-5} = 0,2$. Benzin sotuvchi firmaning monopol hokimiyati 0,2 ga teng.

Shuni ta'kidlash kerakki, yuqori monopol hokimiyat yuqori foyda olishni kafolatlamaydi. Foyda o'rtacha xarajatning narxga bo'lgan nisbatiga bog'liq. Agar ikki firmadan birinchisining monopol hokimiyati, ikkinchi firmanikiga ko'ra yuqori bo'lsa va birinchi firmaning o'rtacha xarajati juda yuqori bo'lsa, uning oladigan foydasi ikkinchi firma foydasidan kichik bo'ladi. Yuqoridagi tenglama ko'rsatadiki, talab qanchalik elastik bo'lmasa, shunchalik monopol hokimiyat yuqori. Demak, monopol hokimiyatning kelib chiqish sababi, talab elastikligidadir.

Amaliyotda chekli xarajatni hisoblash qiyin bo'lgani uchun, uni o'rtacha xarajat bilan almashtiradi. Bu holda formula quyidagi ko'rinishni oladi:

$$L = \frac{P - AC}{P}.$$

Agar biz ifodaning surat va maxrajini Q ga ko'paytirsak, maxrajda umumiy daromadni, suratda foydani olamiz: $L = \frac{(P - AC) \cdot Q}{P \cdot Q} = \frac{\pi}{TR}$.

Shunday qilib, Lerner ko'rsatkichi yuqori foyda olishni monopoliyaning dalolati ekanligini ko'rsatadi.

Monopol hokimiyatni xarakterlash uchun bozorni markazlashuv darajasi ko'rsatkichidan ham foydalaniladi. Bu ko'rsatkich birinchi bo'lib Xerfindal-Xirshman tomonidan tavsiya etilgani uchun, u Xerfindal-Xirshman indeksi deb yuritiladi.


Bu indeks korxonalarining bozordagi ulushlari yig'indisi sifatida qaraladi va qaysi firmaning bozordagi ulushi yuqori bo'lsa, u firma bozorda monopol hokimiyatiga ega bo'lishi mumkin yoki shunday imkoniyat mavjud deb qaraladi. Firmalar bozordagi ulushiga ko'ra tartiblashtiriladi. $I = S_1^2 + S_2^2 + S_3^2 + \dots + S_n^2$, bu yerda: I - Xerfindal-Xirshman indeksi; S_1^2 - bozorda eng katta ulushga ega bo'lgan firma; S_2^2 - undan keyingi kattalikdagi ulushga ega firma va hokazo; S_n^2 -eng kichik ulushga ega bo'lgan firma.

Agar tarmoqda yagona firma bo'lib, uning mahsuloti tarmoq mahsulotini tashkil qilsa, S_1^2 q100% bo'ladi va bunday hol sof monopoliya bo'ladi, ya'ni Xerfindal-Xirshman indeksi $I=10000$ ga tengdir.

Masalan, AQSh da Xerfindal-Xirshman indeksi $I=1800$ dan oshgan tarmoqlar, monopol tarmoqlarga kiradi. Yuqoridagi indeksdan monopoliyaga qarshi olib boriladigan faoliyatda foydalaniladi. Bozorning katta qismini bir necha firmalar tomonidan egallab olinish holatiga **bozorning markazlashuvi** (kontsentratsiya гынка) deyiladi.

14.4. Monopol hokimiyat va jamiyat farovonligi

Monopol hokimiyatda narx chekli xarajatdan yuqori bo'ladi. Monopol hokimiyatda narx oshadi, ishlab chiqarish hajmi kamayadi, natijada bu firmaning daromadini oshishiga va iste'molchilar turmush darajasining pasayishiga olib kelishi mumkin. Iste'molchilar va ishlab chiqaruvchilar ortiqchalarini monopol va raqobatlashgan bozor sharoitlarida qaraymiz (14.3-rasm).



14.3-rasm. Monopol hokimiyatidan olinadigan zararni ifodalovchi grafik

Raqobatlashgan bozordagi ishlab chiqaruvchilar va monopol ishlab chiqarishning chekli xarajatlari (MC) bir xil deb faraz qilaylik. 4-rasmda monopolistning oʻrtacha va chekli daromadlar chiziqlari AR , MR va chekli xarajatlari chizigʻi koʻrsatilgan.

Maʼlumki, monopolist oʻz foydasini $MC=MR$ boʻlishini (V nuqta) taʼminlaydigan ishlab chiqarish hajmida maksimallashtiradi. Monopolistning optimal ishlab chiqarish hajmi Q_m ga va u belgilaydigan narx P_m ga teng.

Raqobatlashgan bozorda $P=MC$ boʻlgandagi ishlab chiqarish hajmi maksimal foydani taʼminlaydi va talab chizigʻi (14.3-rasmda bu oʻrtacha daromad AR chizigʻi) bilan taklif chizigʻi (10.3-rasmda MC chizigʻi) kesishgan nuqta E da muvozanat narx P_e va muvozanat ishlab chiqarish hajmi Q_e aniqlanadi.

Monopol narxda isteʼmolchilar kamroq mahsulot sotib oladilar. Mahsulotni monopol narxda sotib olgan xaridorlar oʻzlarining isteʼmol ortiqchasining maʼlum qismini yoʻqotadi, bu yoʻqotish 4-rasmda $P_e P_m AC$ toʻgʻri toʻrtburchak yuzasiga teng. Mahsulotni P_e narxda sotib olishni xohlagan, lekin P_m narxda sotib olaolmagan isteʼmolchilar ham, isteʼmol ortiqchasining qismini yoʻqotadi, 14-3-rasmda bu yoʻqotish AEC uchburchak yuzasiga teng. Isteʼmolchilarning isteʼmol ortiqchasining umumiy yoʻqotishi $P_e P_m AC$ toʻrtburchak yuzi bilan AEB uchburchak yuzi yigʻindisiga teng.

Ishlab chiqaruvchi esa mahsulotni yuqori P_m narxda sotib $P_e P_m AC$ toʻrtburchak yuzi bilan ifodalangan foydani oladi, ammo, shu bilan birga u ishlab chiqarish ortiqchasining BCE uchburchak yuzasiga teng boʻlgan qismini yoʻqotadi, yaʼni u qoʻshimcha ($Q_e - Q_m$) birlik mahsulot ishlab chiqarib, uni P_e narxda sotib olish mumkin boʻlgan qoʻshimcha foydasini yoʻqotadi.

Shunday qilib, ishlab chiqaruvchining umumiy foydasi $P_e P_m AC$ toʻrt toʻrtburchak yuzidan, BCE uchburchak yuzasini ayirmasiga teng. Endi ishlab chiqaruvchining umumiy foydasidan isteʼmolchi yoʻqotgan isteʼmol ortiqchasini ayirsak ($ABE = AEC + BCE$), ABE uchburchak yuzasiga teng boʻlgan sof yoʻqotishni olamiz. Bu sof yoʻqotish, monopol hokimiyatidan kelib chiqadi.

ABE uchburchak yuzasiga teng sof yoʻqotish monopoliyaning “oʻlik yuki” boʻlib, u jamiyatning yoʻqotishi yoki jamiyatning monopoliyadan koʻradigan zararini ifodalaydi.


Monopol firma oʻz monopoliyasini saqlab qolish uchun, boshqa firmalarni tarmoqqa kirishga toʻsiqlar yaratish uchun yana xarajatlar qilsa, u bu bilan jamiyat yoʻqotishlarini yanada oshirishi mumkin.

14.5. Monopol narxga soliqlarning taʼsiri

Yuqorida koʻrgan edikki, raqobatlashgan bozorda bir birlik mahsulotga qoʻyilgan soliq mahsulotning bozor narxini soliq miqdoriga nisbatan kichikroq

miqdorga o'zgartiradi va bu soliq yuki ham iste'molchiga, ham sotuvchiga taqsimlanadi. Monopol bozorda soliq qo'yilganda, mahsulot narxi soliq miqdoridan ko'proq miqdorga ham oshishi mumkin.

Faraz qilaylik, monopol bozorda har bir birlik mahsulot soliqqa tortiladi. Soliq miqdori t so'mga teng va monopolist sotilgan har birlik mahsulot uchun davlatga t so'm soliq to'laydi. Demak, firmaning o'rtacha va chekli xarajatlari t so'mga oshadi. Agar firmaning boshlang'ich chekli xarajati MC bo'lsa, soliqqa tortilgandan keyingi chekli xarajati quyidagicha bo'ladi. Grafikda soliq xisobiga o'zgargan chekli xarajat chizig'i MC^t boshlang'ich chekli xarajat chizig'ini t miqdorga yuqoriga siljitish orqali hosil qilindi (14.4-rasm).



14.4-rasm. Monopol tovar narxiga soliqning ta'siri

Natijada MC^t chizig'i chekli daromad chizig'ini, yangi B_1 nuqtada kesib o'tadi. Biz soliqqa tortilmagan vaqtdagi ishlab chiqarish hajmi Q_0 va narx P_0 ni va soliqqa tortilgandan keyingi ishlab chiqarish hajmi Q_1 va narx P_1 larni olamiz.

Chekli xarajat chizig'ini yuqoriga siljishi ishlab chiqarish hajmini Q_0 dan Q_1 gacha pasaytiradi, narxni P_0 dan P_1 ga ko'taradi. 14.4-rasmdagi grafikdan ko'rinib turibdiki, narxning o'sishi soliq miqdoridan katta $\Delta P > t$.

Buning sababi, monopol bozorda narxning chekli xarajatga nisbati talabning elastikligiga bog'liq. $\frac{P}{MC} = \frac{1}{1 + \frac{1}{E_p^D}}$, $MC = P + \frac{P}{E}$

Masalan, $E_p^D = -2$ bo'lsa, monopol narx formulasiga ko'ra, soliq t ga teng

bo'lganda $P = \frac{MC + t}{1 + \frac{1}{-2}} = 2(MC + t) = 2MC + 2t$. Narx soliq miqdoriga nisbatan ikki barobar ortadi.

Qisqa xulosalar

Sof monopoliya - bu bitta sotuvchi va ko'p xaridorlar qatnashgan bozor, yoki o'rnini bosadigan tovar bo'lmagan tovarni sotadigan yagona sotuvchi bo'lgan bozor vaziyati, yoki tarmoqda yagona hukmron firma bo'lib, firmaning ishlab chiqarish va sotish chegarasi tarmoq chegarasiga teng bo'lgan bozor.

Oligopoliya - bu bozor tizimida biror bir tovarni sotishda cheklangan firmalar hukmronlik qiladi.

Monopol raqobat bozori to'liq raqobatlashmagan bo'lib, unda qatnashadigan firmalar soni ko'p bo'lib, ularning har biri o'z tovarlari narxini ma'lum chegarada nazorat qiladi, ya'ni ular kichik bo'lsa ham monopol hokimiyatga ega.

Monopsoniya - xaridor bitta bo'lib, sotuvchilar ko'p bo'lgan bozor.

Monopol hokimiyatda narx chekli xarajatdan yuqori bo'ladi. Monopol hokimiyatda narx oshadi, ishlab chiqarish hajmi kamayadi, natijada bu firmaning daromadini oshishiga va iste'molchilar turmush darajasining pasayishiga olib keladi.

Raqobatlashgan bozorda firma maksimal foyda oladi, agar u chekli daromad chekli xarajatga teng holatni ta'minlaydigan hajmda mahsulot ishlab chiqarsa, $MR = MC$. Bunday mahsulot hajmi optimal bo'ladi. Monopolist ham shu optimal ishlab chiqarish shartiga amal qilishi kerak bo'ladi. Sof monopolist tovariga bo'lgan talab ham bozor talabi hisoblanadi. Monopolist o'z tovari narxini oshirsa unga talab kamayadi va aksincha, monopolist tovar narxini tushirsa unga talab ortadi.

Monopol hokimiyatni xuddi ushbu usulda aniqlashni 1934 yilda iqtisodchi olim Abba Lerner tomonidan taklif qilinganligi uchun, bu ko'rsatkich Lernerning

monopol ko'rsatkichi degan nomni olgan $L = \frac{P_m - MC}{P_m} = -\frac{1}{E_p^D}$.

Monopol hokimiyatni xarakterlash uchun bozorni markazlashuv darajasi ko'rsatkichidan ham foydalaniladi. Bu ko'rsatkich birinchi bo'lib Xerfindal-Xirshman tomonidan tavsiya etilgani uchun, u Xerfindal-Xirshman indeksi deb yuritiladi.

Bu indeks korxonalarining bozordagi ulushlari yig'indisi sifatida qaraladi va qaysi firmaning bozordagi ulushi yuqori bo'lsa, u firma bozorda monopol hokimiyatiga ega bo'lishi mumkin yoki shunday imkoniyat mavjud deb qaraladi.

Firmalar bozordagi ulushiga ko'ra tartiblashtiriladi: $I = S_1^2 + S_2^2 + S_3^2 + \dots + S_n^2$.

Nazorat va muhokama uchun savollar

1. Bozor turlari qanday aniqlanadi?
2. Raqobatlashmagan bozorlarda narx va ishlab chiqarish hajmi qanday aniqlanadi?
3. Sof monopoliya deganda nimani tushunasiz?
4. Raqobatlashgan monopol bozor xususiyatlari nimalardan iborat?
5. Litsenziya, patent, mualliflik huquqi raqobatga qanday ta`sir ko`rsatadi?
6. Monopoliyaning jamiyat uchun foydali va zararli tomonlarini izohlab bering.
7. Bozor hokimiyati deganda nimani tushunasiz?
8. Monopol narxga soliq qanday ta`sir ko`rsatadi?
9. Lernerning monopol ko`rsatkichi.
10. Xerfendal-Xirshman indeksi nimani ifodalaydi.
11. Monopol sharoitda narx qanday aniqlanadi?

15-bob. BOZOR HOKIMIYATI SHAROITIDA NARX BELGILASH TAMOYILLARI

15.1. Monopoliyaga qarshi qonunchilik

Bu yerda biz monopol hokimiyatga ega bo'lgan monopolistlar to'g'risida gap yuritamiz. Lekin, hozirgi vaqtda monopoliyaning ijobiy tomonlari borligini hech kim inkor qila olmaydi.

Yiriklashgan korxonalarda ilmiy-texnik rivojlanish imkoniyati katta bo'ladi, nima uchun deganda, bunday korxonalarning moliyaviy imkoniyatlari ham katta bo'lganligi uchun, ular ilmiy izlanishlarga ko'proq mablag' ajratishlari mumkin.

Yiriklashgan korxonalariga masshtab samarasidan yaxshiroq foydalana oladilar, chunki ularda ilmiy-tadqiqot ishlarini, tajriba-konstruktorlik ishlab chiqishlarni keng masshtabda yo'lga qo'yish mumkin bo'ladi. Bu o'z navbatida mahsulot tannarxini pasaytirishga va uning sifatini oshirishga imkon yaratadi. Lekin, hozirgi bozor munosabatlarining rivojlanganligi, jahon bozorining shakllanganligi, xalqaro iqtisodiy aloqalarning kengayib borishi sharoitida kuchli bozor hokimiyatiga ega monopolistni topish qiyin.

Monopolistlarning jamiyatga ta'sir qiluvchi salbiy tomonlari borligini ham esdan chiqarmaslik lozim. Yiriklashgan firmalar o'z mahsuloti sifatini oshirishga va uni tez-tez yangilashga alohida e'tibor beradi, deb bo'lmaydi. Ushbu firmalarda yaratilgan yangiliklarni ishlab chiqarishga joriy qilishni ko'p hollarda to'xtab qolishini ham ko'rish mumkin.

Monopolist narxni chekli xarajatdan yuqori qilib belgilaydi, ya'ni $P > MC$. Natijada resurslarning taqsimlanishi samarali bo'lmaydi. Monopol narxning o'rnatilishi jamiyatda yo'qotishlarga olib keladi. Narx qanchalik yuqori bo'lsa, jamiyatning yo'qotishi ham shunchalik ko'p bo'ladi. Shuning uchun ham bozor iqtisodiyoti rivojlangan davlatlarda monopoliyaga qarshi qonunlar ishlab chiqarilgan.

Monopoliyaga qarshi qonun firmalarda jamiyat uchun xavfli bo'lgan monopolistik hokimiyatni to'planishini cheklashga qaratilgan. Monopolistik hokimiyat yuqorida aytganimizdek, monopolistning bozor narxiga ta'sir qilish kuchini bildiradi. Qaysi firma bozor narxiga ko'proq ta'sir qila olsa, u ko'proq monopolistik hokimiyatga ega bo'ladi.

Ko'pchilik adabiyotlarda monopoliyaga qarshi qonunga klassik misol sifatida AQShning trestlarga qarshi qonuni keltiriladi. 1890 yilda birinchi bo'lib Sherman qonuni deb ataluvchi qonun qabul qilingan bo'lib, u asosan savdoni va tijoratni monopollashtirishga qarshi qaratilgan edi. Ushbu qonun savdo erkinligini cheklovchi har qanday kelishuvni taqiqlar edi va raqobatchilarni adolatsiz yo'l bilan yo'qotishni jinoyat deb qarar edi. Ushbu qonunni buzganlar jarima to'lashdan tortib, firmani tarqatib yuborishgacha va hatto jinoiy javobgarlikka tortishgacha jazolanishni nazarda tutar edi.


1914 yilda Kleyton va federal savdo komissiyasi qonuni qabul qilindi. Ushbu qonun Sherman qonuniga qaraganda ancha mukammallashtirilgan qonun bo'lib, u qonunni bajarilishini nazorat qilishni federal savdo komissiyasi zimmasiga yuklagan edi. Bundan

tashqari ushbu qonunda monopoliyani vujudga kelishini oldini olish bo'yicha qilinadigan chora-tadbirlar belgilandi.

1938 yildagi Uiler qonuni iste'molchilar huquqini himoya qilishga qaratildi (tovar to'g'risida noto'g'ri axborot berish va noto'g'ri reklama berishga qarshi).

Keyingi yillarda ham trestlarga qarshi qonunchilik AQSHda rivojlandi. AQSHning trestlarga qarshi qonuni boshqa davlatlarda monopoliyaga qarshi qonunlarni ishlab chiqishda va rivojlantirishda muhim rol o'ynadi.

Narxlarni nazorat qilish va ularni muvofiqlashtirish ko'proq tabiiy monopoliyalarga qo'llaniladi. Eshlasak, raqobatlashgan bozorda narx chekli xarajatga teng bo'lar edi ($P_e = MC$) (15.1-rasm).



15.1-rasm. Tabiiy monopoliyada narxni muvofiqlashtirish

Lekin, bunday narxni tabiiy monopoliyalarga qo'llab bo'lmaydi, chunki bu narxda bir qator ishlab chiqaruvchilar zarar bilan ishlab ishdan chiqadilar. Nima uchun deganda, ishlab chiqaruvchilarning xarajatlari har xil bo'lgani uchun narxlar ham har xil bo'ladi.

Rasmdan ko'rinib turibdiki, P_e narx raqobatlashgan bozor narxiga to'g'ri keladi va u chekli xarajat bilan o'rtacha daromad chiziqlari kesishgan nuqta bilan aniqlanadi. Narx davlat tomonidan muvofiqlashtirilmasa, monopolist narxni P_m darajada belgilab, Q_m miqdorda mahsulot ishlab chiqaradi. Davlat esa narxni barcha uchun o'rtacha xarajat darajasida (o'rtacha xarajat chizig'i bilan daromad chizig'i kesishgan nuqta) belgilaydi, ya'ni P_1 . Bu narxga to'g'ri keladigan ishlab chiqarish hajmi Q_1 ga teng. $P_1 = AC$ bo'lishi tabiiy monopolistlarga (uzoq muddatli raqobatlashgan bozordagi firmalar kabi) normal foyda olish imkonini beradi.

P_1 narxda ishlab chiqarilgan mahsulot miqdori optimal hajmdan kichik ($Q_1 < Q_e$) bo'lsa ham iste'molchilar monopolist narxi tartiblashtirilmagandagiga qaraganda ($Q_m < Q_1$) ko'proq mahsulot sotib olish imkoniyatiga ega bo'ladi. O'rtacha xarajat darajasida o'rnatiladigan narx P_1 ni "**adolatli foyda olishni**

ta`minlaydigan narx” deb ataydilar. AQShda “adolatli” narxni ta`minlanishini juda ko‘p federal komissiyalar kuzatib boradi.


15.2. Monopol hokimiyat sharoitida narx belgilashda iste`molchi ortiqchaligini egallash

Monopol yoki bozor hokimiyatiga ega bo‘lgan firmalar rahbarlari oldida turadigan asosiy masalalardan biri - bu qanday qilib bozor hokimiyatidan samarali foydalanishdir. Ular oldida narxlarni qanday belgilash, qancha ishlab chiqarish omillari olish kerak, uzoq va qisqa muddatli oraliqlarda ishlab chiqarish hajmini qancha qilib belgilash kabi masalalarni echish turadi.

Raqobatlashgan bozordagi firmalarni boshqarishga qaraganda bozor hokimiyatiga ega bo‘lgan firmalarni boshqarish qiyinroq. Raqobatlashgan bozorda narx berilgani uchun firma rahbarlari o‘z e`tiborlarini ko‘proq xarajatlarni kamaytirishga va sotish bilan bog‘liq masalalarni echishga qaratadi. Ishlab chiqarish hajmini esa narxni chekli xarajatlarga tenglashtiradigan hajmda belgilaydi. Monopol hokimiyatga ega firmalar ishlab chiqarish hajmini va mahsulot narxini aniqlashi uchun hech bo‘lmaganda talab elastikligining taqribiy qiymatini bilishlari kerak bo‘ladi.

Monopol hokimiyatga ega bo‘lgan firmalarning narxni belgilash strategiyasining asosini iste`molchi ortiqchaligini egallash orqali qo‘shimcha foyda olish usullari tashkil qiladi.

Faraz qilaylik, firma barcha ishlab chiqargan mahsulotlarini bir narxda sotsin (15.2-rasm).



15.2-rasm. Iste`molchi ortiqchaligining narx va ishlab chiqarish hajmiga bog‘liqligi

U foydasini maksimallashtirish uchun narx P_m ni unga mos keluvchi ishlab chiqarish hajmi Q_m ni chekli xarajat chizig'i bilan chekli daromad chizig'i kesishgan nuqtaga ko'ra belgilaydi. Firma Q_m ishlab chiqarish hajmida maksimal foyda bilan ishlaydi, lekin firma rahbarlari foydani yanada oshirish to'g'risida o'ylaydi. Iste'molchi ortiqchaligi sohasida ko'rish mumkinki (NM oraliqda) ba'zi bir iste'molchilar tovarni P_m narxdan yuqori narxda ham sotib olishi mumkin. Lekin, narx P_m dan yuqori qilib qo'yilsa, sotish hajmi kamayadi, bir qator iste'molchilar yo'qotiladi va olinadigan foyda kamayadi. Narx monopol P_m bo'lganda ham iste'molchilarning bir qismi tovarni sotib ola olmaydi, lekin ular narx P_m dan kichik (ammo chekli xarajattan yuqori bo'lgan) bo'lgan holda tovarni sotib oladilar. Bunday xaridorlar ME sohaga qarashli bo'lib, ularning ortiqchaligi DME soha yuzasiga teng. Firma narxni tushirsa, u ME oraliqqa qarashli xaridorlarga ham tovarni sotishi mumkin. Biroq, bu holda uning daromadi va shu bilan birga foydasi ham kamayib ketadi.

Firma NM oraliqqa qarashli iste'molchilar ortiqchaligini (P_mMN yuzaga teng ortiqchalikni) va ME oraliqdagi iste'molchilar ortiqchaligini (DME yuzaga teng ortiqchalikni) qo'lga kiritish uchun har xil guruhdagi iste'molchilarning talab chizig'ida joylashuviga qarab har xil narx belgilashi mumkin. Yuqorida ko'rdikki, bu ortiqchaliklarni bir xil narx belgilash orqali egallash mumkin emas.


Masalan, firma NM oraliqdagi iste'molchilar uchun P_1 ($P_1 > P_m$) narx, ME oraliqdagilar uchun P_2 ($P_2 < P_m$) va ikkala guruh orasidagilar uchun P_m narxni belgilashi mumkin. Narxlarni bunday qo'yilishiga, ya'ni har xil guruhdagi iste'molchilar uchun har xil darajadagi narxlarning qo'yilishiga narx diversifikatsiyasi (differentsiatsiyasi yoki diskriminatsiyasi) deyiladi. Masalaning muhim tomoni shundaki, xaridorlarni topib, ularni har xil narxlarda xaridorlar guruhiga bo'lib chiqish, ya'ni bozorni segmentlashtirish kerak bo'ladi.

15.3. Narxlar diversifikatsiyasi

Narxlar diversifikatsiyasi (narxlarni iste'molchilarning imkoniyatlariga qarab har xil darajalarda belgilash) uch xil bo'lishi mumkin: iste'molchi daromadiga ko'ra, iste'mol hajmiga va tovarlar turiga ko'ra.

Iste'molchilar daromadiga ko'ra narxlarni belgilashning ideal varianti har bir xaridorning imkoniyatidan kelib chiqib, u sotib oladigan har bir tovarga maksimal narx belgilashdir. Ushbu maksimal narxni xaridorning rezerv narxi deb qaraladi. Har bir xaridor uchun rezerv narx belgilashga iste'molchilarning daromadiga ko'ra narxlarni ideal diversifikatsiyalash deyiladi.

Ideal diversifikatsiyalashda firma daromadi qanday bo'lishini ko'rib chiqamiz. Birinchi navbatda firma monopol narx P_m da qancha foyda olishni aniqlaymiz (15.3-rasm).



15.3-rasm. Narxlar diversifikatsiyalanmaganidagi foydani ifodalovchi grafik

Buning uchun umumiy ishlab chiqarilgan va sotilgan tovar hajmi Q_m ning har bir qo'shimcha ishlab chiqarilgan va sotilgan birlik mahsulotdan olinadigan qo'shimcha foydani qo'shib chiqamiz. Bu qo'shimcha foyda $\Delta\pi$ har bir birlik mahsulot uchun $\Delta\pi = MR - MC$ ga teng. Ushbu chekli daromad MR birinchi mahsulot uchun maksimal bo'lib, uning chekli xarajati MC eng minimaldir. Keyingi har bir qo'shimcha mahsulot uchun chekli daromad kamayib boradi, chekli xarajat esa ortib boradi. Firmaning ishlab chiqarish hajmi Q_m ga teng bo'lganda oxirgi Q_m - mahsulotdan olinadigan foyda $\Delta\pi_{Q_m} = MR - MC = 0$ bo'ladi va $MR = MC$. Q_m hajmdan ko'p ishlab chiqarilgan har qanday mahsulot hajmidagi chekli xarajat uning chekli daromadidan yuqori bo'ladi va bu firma foydasini kamaytiradi. Umumiy foyda har bir sotilgan mahsulotdan tushadigan foydalarning yig'indisiga teng. Rasmda umumiy foyda chekli daromad chizig'i bilan chekli xarajat o'rtasidagi (NDF) shtirxlangan yuza bilan ifodalangan.

Endi firma ideal diversifikatsiyadan foydalanadi deylik. U mahsulot narxini har bir xaridor uchun u to'lashi mumkin bo'lgan maksimal darajada qilib belgilaydi va natijada chekli daromad chizig'i firma foydasini maksimallashtiradigan ishlab chiqarish hajmi bilan bog'liq bo'lmay qoladi. Har bir birlik qo'shimcha mahsulotni sotishdan tushadigan qo'shimcha foyda tovarga to'lanadigan narxga bog'liq funktsiya bo'lib, chekli daromad chizig'i talab chizig'i bilan ustma-ust tushadi ($D = MR$) (15.3-rasm).

Masalan, agar har bir xaridor bittadan mahsulot sotib olsa, birinchi ishlab chiqarilgan tovardan olinadigan daromad $TR_1 = P_1 \cdot 1 = P_1$ ga, ikkita tovardan tushadigan umumiy daromad $TR_2 = R_1 + P_2 \cdot 1 = P_1 + P_2$ ga, uchta tovardan $TR_3 = P_1 + P_2 + P_3$ ga teng. Har bir tovar uchun alohida narx belgilangani uchun umumiy daromad har bir sotilgan tovarlar narxlarining yig'indisi bilan aniqlanadi. Chekli daromadni quyidagicha topamiz:


$$MR_1 = P_1; \quad MR_2 = R_2 - R_1 = P_1 + P_2 - P_1 = P_2;$$

$$MR_3 = R_3 - R_2 = P_1 + P_2 + P_3 - P_1 - P_2 = P_3,$$

Demak, har bir qo'shimcha sotilgan tovarning chekli daromadi ideal diversifikatsiyalashda ushbu tovar uchun belgilangan narxga teng.

Ko'rinib turibdiki, narx diversifikatsiyasi firmaning xarajatlari tarkibiga ta'sir qilmaydi. Shunday qilib, har bir birlik qo'shimcha ishlab chiqarilgan va sotilgan mahsulotdan tushadigan qo'shimcha foyda talabdan chekli xarajatni ayrilganiga teng. Masalan, agar yuqoridagi misolni qarasak, uchinchi qo'shimcha mahsulotni sotishdan olinadigan qo'shimcha foydani $\Delta\pi_3$ deb belgilasak, $\Delta\pi_3 = MR_3 - MC_3 = P_3 - MC_3$ ko'rinishida aniqlanadi.

Talab (MR) chekli xarajattan ustun bo'lganda firma ishlab chiqarish hajmini oshirib o'z foydasini orttiradi. Ishlab chiqarishni kengaytirish ishlab chiqarish hajmi Q_e^* hajmga etguncha davom ettiriladi. Q_e^* hajmda chekli daromad, ya'ni talab chekli xarajatga teng bo'ladi va ishlab chiqarish yanada oshirilsa chekli xarajat talabdan, ya'ni MR dan yuqori bo'lgani uchun firma foydasi qisqaradi. Umumiy foydaga endi chekli xarajat chizig'i bilan talab chizig'i o'rtasidagi shtrixlangan FEN yuzaga teng bo'ladi. Har bir iste'molchi uchun u to'lashi mumkin bo'lgan narxni o'rnatilishi firma tomonidan iste'molchi ortiqchaligining hammasini egallashga imkon beradi. Bu o'z navbatida ishlab chiqaruvchi daromadini oshiradi. 15.4-rasmdan ko'rish mumkinki, firma daromadi ancha oshgan.




15.4-rasm. Ideal diversifikatsiyalashda foydani ifodalovchi grafik

Ammo, xaridorlar juda ko'p bo'lsa, firma ularning har biri uchun alohida narx belgilashi qiyin. Bu erda asosiy muammo, xaridorlar sotib olishi mumkin bo'lgan narxni aniqlashdir. Firma xaridorlar bilan so'rov o'tkazishi mumkin, lekin xaridor ushbu sotib olishi mumkin bo'lgan maksimal narxni to'g'ri aytadi deb hech kim kafolat bera olmaydi. Shunga qaramasdan, xaridorlar kamroq bo'lganda, real hayotda narx differentsiatsiyasidan foydalanuvchi firmalar ham yo'q emas. Masalan, gazga, elektroenergiyaga aholi va korxonalar to'laydigan narxlar, hayvonot bog'iga, muzeyga kirish chiptalarining yosh bolalarga, katta yoshdagilarga va guruhlariga har xil narxlarda bo'lishi. Bunday hollarda narxni differentsiatsiyalovchi firma iste'molchi ortiqchaligining bir qismini o'zlashtiradi.

Yana bir misol tariqasida poyafzal sotuvchi firmani ko'rib chiqaylik. Sotuvchi har bir poyafzal sotilishidan 20 foiz foyda oladi deylik. Sotuvchi ba'zi bir xaridorlarga tovarni o'z narxida sotsa, boshqa biriga sotganda o'z ulushining bir qismidan voz kechadi, nima uchun deganda, foyda olmagandan ko'ra har bir poyafzaldan 10 foizdan (20 foiz o'rniga) foyda olish uning uchun afzalroq.

Agar narxlar differentsiatsiyasi xaridorlar sonini oshishiga olib kelsa, bundan sotuvchilar ham, xaridorlar ham manfaat ko'radi. Demak, umumiy farovonlik oshadi. Quyidagi 15.5-rasmda ana shu vaziyat tasvirlangan.




15.5-rasm. Daromadga bog'liq narxlar differentsiatsiyasi

Rasmdan ko'rish mumkinki, monopol narx P_m va undan yuqori bo'lgan narxlarda tovar sotib olishga qurbi etmagan xaridorlar P_m dan kichik bo'lgan P_1 va P_2 narxlarda tovarni sotib olishi mumkin bo'ladi va ma'lum iste'molchi ortiqchaligiga ega bo'ladi.

Iste'mol hajmiga ko'ra narxlar diversifikatsiyasi. Ba'zi bir tovarlarga bo'lgan talab u tovarni ishlab chiqarish va sotish oshgan sari kamayib boradi. Bunday

tovarga elektr energiyasi misol bo'la oladi. Har bir iste'molchi bir oyda ma'lum miqdordagi (kilovatt/soat) elektroenergiyaga pul to'lab, undan ortiqchasiga to'lash qobiliyati pasayib boradi.

Iste'molchi mablag'i etmagani uchun eng kerakli miqdordagi (uyni minimal yoritish uchun, muzlatgich, televizor ishlashi uchun zarur bo'lgan) elektroenergiyaga pul to'laydi, lekin bu miqdordagi minimal elektroenergiyaning qiymati qushimcha olishi mumkin bo'lgan elektroenergiya qiymatidan ancha yuqori bo'ladi. Musbat masshtab samarasi bo'lganda elektroenergiya ishlab chiqarish hajmining oshishi uni ishlab chiqarish uchun sarflanadigan o'rtacha va chekli xarajatlarni kamayishiga olib keladi. Bunday holatda elektroenergiya narxini differentsiatsiya qilinishi maqsadga muvofiqdir. Ya'ni, har xil miqdorda iste'mol qilingan bir xil tovarga (elektroenergiyaga) har xil narx belgilash. Birinchi bosqichda ma'lum miqdorgacha iste'mol qilingan elektroenergiyaga alohida narx, ikkinchi bosqichda qo'shimcha miqdordagi iste'mol qilingan elektroenergiyaga oldingi bosqichdagiga nisbatan kamroq narx belgilanadi. Ushbu vaziyat quyidagi 15.6-rasmda ifodalangan.



15.6-rasm. Elektroenergiyani iste'mol qilish hajmiga ko'ra narxni differentsiatsiyalash

Haqiqatan ham, elektroenergiyani ishlab chiqarish hajmini oshirganda (agar masshtab samarasi yuqori bo'lsa) uning xarajatlari kamayadi va narxlar differentsiatsiyasi bir tomondan iste'molchilarning turmush farovonligini oshirsa (ular ko'proq elektroenergiyadan foydalanish imkoniyatiga ega bo'ladilar), ikkinchi tomondan elektr energiyasini ishlab chiqaruvchi kompaniyaning umumiy foydasini oshiradi.

Rasmdan ko'rish mumkinki, elektroenergiya ishlab chiqarish hajmi oshganda ATC va MC lar kamaymoqda. Birinchi bosqichda Q_1 hajmdagi elektroenergiya eng yuqori P_1 narxda iste'mol qilinadi. Ikkinchi bosqichda qo'shimcha $(Q_2 - Q_1)$

miqdordagi elektroenergiya P_2 narxda ($P_2 < P_1$) iste'mol qilinadi. Agar elektroenergiyaga bir xil P_e narx o'rnatilganda Q_e hajmda elektroenergiya ishlab chiqarilgan bo'lar edi. Narx differentsiatsiyasida ishlab chiqarish hajmi Q_3 ga oshadi.

Tovarlar kategoriyasiga ko'ra narx differentsiatsiyasi. Ushbu turdagi narx differentsiatsiyasi xaridorlarni ularning talab chizig'iga ko'ra ikki yoki undan ortiq guruhlarga bo'ladi, demak, har bir guruhning o'z talab chizig'i bo'lib, bu talab chizig'i boshqa guruhlarnikiga qaraganda yotiqiligi bilan farq qiladi. Bunga misol tariqasida samolyotga, paroxodga sotiladigan chiptalarning klasslarga bo'linib, har xil yo'lovchilarga turli narxlarda sotilishini, bir xil spirtli ichimliklarning ham har xil sortlari turli xil narxlarda sotilishini, muzqaymoqlar (bolalar uchun, kattalar uchun), talabalar, nafaqadagilar va nogironlar uchun qilinadigan imtiyozlarni keltirish mumkin.

Iste'molchilarni kategoriyalarga bo'lish turli xil mezonlarga asoslanadi. Bularning ichida asosiy mezon xaridorlarning daromadlaridir. Masalan, shahar transportiga sotiladigan kartochkalar narxi oddiy fuqarolar uchun bir xil, talabalar uchun narxi pastroq, o'quvchilar uchun esa yanada pastroq. Xuddi shunday hayvonot bog'iga kiruvchilar ham: bolalarga sotiladigan chipta narxi kattalarga sotiladigan chipta narxidan ancha past. Yoki spirtli ichimliklarni olsak, ularning etiketkalarining o'zi xaridorlarni kategoriyaga bo'ladi (bir xil turdagi ichimlikni har xil etiketkali shishalarga quyilishi va ularga har xil narxlarni o'rnatilishi: "O'zbekiston" arog'i, "Ekstra" arog'i, "Kristall" aroqlari).

Endi biz tovarlar kategoriyasiga qarab ularga narx belgilashni ko'rib chiqamiz. Buning uchun quyidagi ikkita shart bajarilishi zarurdir.

Birinchi shartga ko'ra ishlab chiqarish hajmidan qat'iy nazar, umumiy hajmdagi tovarni xaridorlar guruhlari shunday taqsimlash kerakki, har bir birlik tovarni sotishdan olinadigan chekli daromad (MR) ning qiymati bir xil bo'lsin. Masalan, ikki xil sortdagi mahsulotni sotish kerak bo'lsin. Birinchi guruhga sotiladigan har bir mahsulotning chekli daromadini MR_1 va ikkinchi guruhnikini MR_2 deylik. Agar $MR_1 > MR_2$ bo'lsa, firma birinchi sortdagi mahsulotni ishlab chiqarishni oshiradi va ikkinchi sortdagi mahsulotni kamaytiradi. Nima uchun deganda, birinchi sort mahsulotni bir birligidan tushadigan foyda ikkinchi sortdagi mahsulotnikidan katta. Bunday holda ($MR_1 > MR_2$ bo'lganda) firma umumiy foydani oshirish uchun birinchi sort mahsulot narxini tushirib, ikkinchi sort mahsulotnikini ko'taradi. Chekli daromadlar bir-biriga teng bo'lmaganda firma o'z foydasini maksimallashtira olmaydi. Shuning uchun firma mahsulot kategoriyalariga narxlarni shunday tanlash kerakki har xil kategoriyadagi mahsulotlarni sotishdan tushadigan chekli daromadlar teng bo'lsin.

Ikkinchi shart - har bir sort bo'yicha ishlab chiqariladigan mahsulot hajmi foydani maksimallashtiradigan hajmga teng bo'lsin. Biz bilamizki, ishlab chiqarish hajmi foydani maksimallashtiradi, qachonki u chekli daromadni chekli xarajatga

tenglashtirsa. Demak, har bir sort bo'yicha sotiladigan mahsulotning chekli daromadi uni ishlab chiqarishdagi chekli xarajatga teng bo'lsa. Ikki xil sortdagi mahsulot uchun ikkinchi shart quyidagicha yoziladi: $MR_1 = MC_1$ va $MR_2 = MC_2$. Agar bu tenglik bajarilmasa firma o'z foydasini maksimallashtirish uchun umumiy ishlab chiqarish hajmini ko'taradi yoki pasaytiradi (mahsulotlar narxini oshirish yoki kamaytirish). Endi matematik jihatdan bu qanday bo'lishini ko'rib chiqamiz.

Faraz qilaylik birinchi sort mahsulot narxi P_1 va ikkinchi sortniki - P_2 bo'lsin. $TC(Q_C)$ - bu $Q_C = Q_1 + Q_2$ hajmdagi mahsulotni ishlab chiqarishning umumiy xarajatlari. U holda umumiy foyda quyidagiga teng:

$$\pi = P_1 \cdot Q_1 + P_2 \cdot Q_2 - C(Q_C). \quad (1)$$

Foydani maksimallashtirish uchun har bir sort bo'yicha qo'shimcha bir birlik mahsulotni sotishdan tushadigan qo'shimcha foydalarni nolga tenglashtiramiz. Nima uchun deganda, firma ikkala sortdagi mahsulotlarning oxirgisini sotishdan tushadigan qo'shimcha foyda nolga teng bo'lguncha birinchi sort mahsulot hajmini ham, ikkinchi sort mahsulot hajmini ham oshirib boradi. Demak,

$$\begin{cases} \frac{\Delta \pi}{\Delta Q_1} = \frac{\Delta(P_1 \cdot Q_1)}{\Delta Q_1} - \frac{\Delta C}{\Delta Q_1} = 0 \\ \frac{\Delta \pi}{\Delta Q_2} = \frac{\Delta(P_2 \cdot Q_2)}{\Delta Q_2} - \frac{\Delta C}{\Delta Q_2} = 0 \end{cases}. \quad (2)$$

Ko'rinib turibdiki bu erda $\frac{\Delta(P_1 \cdot Q_1)}{\Delta Q_1} = \frac{\Delta R}{\Delta Q_1} = MR_1$ va $\frac{\Delta(P_2 \cdot Q_2)}{\Delta Q_2} = \frac{\Delta R}{\Delta Q_2} = MR_2$

$$\frac{\Delta C}{\Delta Q_1} = MC \quad \text{va} \quad \frac{\Delta C}{\Delta Q_2} = MC.$$

Bu erda MC - qo'shimcha bir birlik mahsulotni ishlab chiqarishdagi qo'shimcha umumiy xarajatlari.

Ikkinchi shartga ko'ra quyidagini yozamiz: $MR_1 = MC$ va $MR_2 = MC$. (3)

Ikkalasini birlashtirib, ishlab chiqarish hajmi quyidagi $MR_1 = MR_2 = MC$ tenglikni bajarilishini ta'minlaydigan ishlab chiqarish hajmiga teng bo'lishi kerakligini aniqlaymiz.

Endi firma rahbarlari narxlarni o'rnatishda talab elastikligidan foydalansin deylik. Eshlasak, chekli daromadni quyidagicha yozish mumkin edi:

$$MR = P \left(1 + \frac{1}{E_D} \right). \quad \text{Bu holda har bir mahsulot sorti uchun } MR_1 = P_1 \cdot \left(1 + \frac{1}{E_1} \right) \quad \text{va}$$

$$MR_2 = P_2 \cdot \left(1 + \frac{1}{E_2} \right), \quad \text{bu erda } E_1 \text{ va } E_2 \text{ lar birinchi va ikkinchi sort mahsulotlarning}$$

narx bo'yicha talab elastiklari. Endi birinchi shartga ko'ra quyidagini yozamiz:

$MR_1 = MR_2$ yoki $P_1 \cdot \left(1 + \frac{1}{E_1}\right) = P_2 \cdot \left(1 + \frac{1}{E_2}\right)$, yuqoridagi tenglikdan narxlar

o'rtasida bajarilishi zarur bo'lgan munosabatni olamiz:
$$\frac{P_1}{P_2} = \frac{\left(1 + \frac{1}{E_2}\right)}{\left(1 + \frac{1}{E_1}\right)} \quad (4)$$

(4)-dan ko'rinib turibdiki, firma talab elastikligi kam bo'lgan mahsulot sortiga yuqori narx belgilashi kerak. Masalan, birinchi sort mahsulot elastikligi -3 va ikkinchi sort mahsulot elastikligi -6 bo'lsin. U holda birinchi sort mahsulot narxi (4)-ga ko'ra quyidagiga teng: $P_1 = 1,25 \cdot P_2$, birinchi sort mahsulot narxi ikkinchi sort mahsulot narxidan 1,25 marta ortiq qilib belgilanishi kerak.

$|E_1| < |E_2|$ bo'lgani uchun, ya'ni birinchi sort mahsulot talab elastikligi ikkinchi sort mahsulot elastikligidan kichik bo'lgani uchun, ikkinchi sort mahsulotning talab chizig'i birinchi sort mahsulotning talab chizig'iga ko'ra yotiqroq bo'ladi.

Misol. Hayvonot bog'iga kirish chiptasiga bo'lgan narx kattalar va bolalar uchun har xil bo'lsin. Kattalarning chiptaga bo'lgan talab chizig'i quyidagicha:

$$P_k = 10 - \left(\frac{1}{8000}\right) \cdot Q_k, \text{ bu erda } P_k - \text{ kattalar uchun chipta narxi; } Q_k -$$

kattalarning chiptaga talabi.

$$\text{Bolalarning talabi: } P_b = 6 - \left(\frac{1}{8000}\right) \cdot Q_b, \text{ bu erda } P_b - \text{ bolalar uchun chipta}$$

narxi; Q_b - bolalarning chiptaga talabi.

Hayvonot bog'iga 56000 kishi bir vaqtda kirishi mumkin. Hayvonot bog'i rahbariyati 5600 ta chiptani sotish uchun narx differentsiatsiyasidan foydalanmoqchi. Rahbariyat kattalar va bolalar uchun qanday narx belgilaydi?

Yechish. Kattalardan va bolalardan tushadigan daromadlarni yozamiz:

$$TR_k = P_k \cdot Q_k \text{ va } TR_b = P_b \cdot Q_b \quad (1)$$

P_k va P_b larni yuqoridagi formulalarga qo'yamiz va natijada quyidagilarni olamiz:

$$TR_k = 10 \cdot Q_k - \frac{1}{8000} \cdot Q_k^2$$

$$TR_b = 6 \cdot Q_b - \frac{1}{8000} \cdot Q_b^2 \quad (2)$$

Endi kattalarga va bolalarga sotiladigan chiptalar uchun chekli daromadlarni aniqlaymiz:

$$MR_k = 10 - \frac{1}{4000} \cdot Q_k$$

$$MR_b = 6 - \frac{1}{4000} \cdot Q_b \quad (3)$$

Chekli daromadlarni birinchi shartga ko'ra tenglashtiramiz $MR_k = MR_b$ dan

$$10 - \frac{1}{4000} \cdot Q_k = 6 - \frac{1}{4000} \cdot Q_b \quad (4)$$

munosabatni olib, uni ixchamlashtirsak, kattalarning talabini bolalar talabiga bog'liqligini aniqlaymiz: $Q_k = 16000 + Q_b$ (5)

Masalaning shartiga ko'ra $Q_k + Q_b = 56000$ chipta sotilishi kerak, bundan bolalar talabini aniqlaymiz: $Q_b = 56000 - Q_k$, bolalar talabini (5) - munosabatga quyib kattalarni chiptaga bo'lgan talabini aniqlaymiz va u $Q_k = 36000$ ga teng.

Endi bolalarning talabini aniqlaymiz: $Q_b = 56000 - 36000 = 20000$. Demak, bolalarning talabi 20000 ta chipta teng ekan.

Rahbariyat ushbu talablarga ko'ra kattalar va bolalar uchun chiptalarning narxlarini quyidagicha aniqlaydi: $P_k = 10 - \frac{1}{8000} \cdot 36000 = 5,5$ so'm,

$$P_b = 6 - \frac{1}{8000} \cdot 20000 = 3,5 \text{ so'm.}$$

Rahbariyat chipta narxini kattalar uchun 4,5 so'm va bolalar uchun 2,5 so'm qilib belgilaydi va umumiy daromad

$$TR = TR_k + TR_b = 5,5 \cdot 36000 + 3,5 \cdot 20000 = 268000 \text{ so'mni tashkil qiladi.}$$

Bordi-yu, rahbariyat hamma uchun chipta narxini 5,5 so'm qilib belgilasa, bolalarning ko'pchiligi chiptani sotib ola olmay qolardi va bu o'z navbatida umumiy foydani kamayishga olib kelardi.

Qisqa xulosalar

Monopol hokimiyatga ega bo'lgan firmalarning narxni belgilash strategiyasining asosini iste'molchi ortiqchaligini egallash orqali qo'shimcha foyda olish usullari tashkil qiladi. Monopolistlarning jamiyatga ta'sir qiluvchi salbiy tomonlari borligini ham esdan chiqarimaslik lozim. Yiriklashgan firmalar o'z mahsuloti sifatini oshirishga va uni tez-tez yangilashga alohida e'tibor beradi, deb bo'lmaydi. Ushbu firmalarda yaratilgan yangiliklarni ishlab chiqarishga joriy qilishni ko'p hollarda to'xtab qolishini ham ko'rish mumkin.

Narxlar diversifikatsiyasi (narxlarni iste'molchilarning imkoniyatlariga qarab har xil darajalarda belgilash) uch xil bo'lishi mumkin: iste'molchi daromadiga ko'ra, iste'mol hajmiga va tovarlar turiga ko'ra.

Iste'molchilar daromadiga ko'ra narxlarni belgilashning ideal varianti har bir xaridorning imkoniyatidan kelib chiqib, u sotib oladigan har bir tovarga maksimal narx belgilashdir. Ushbu maksimal narxni xaridorning rezerv narxi deb qaraladi. Har bir xaridor uchun rezerv narx belgilashga iste'molchilarning daromadiga ko'ra narxlarni ideal diversifikatsiyalash deyiladi.

Iste'mol hajmiga ko'ra narxlar diversifikatsiyasi. Ba'zi bir tovarlarga bo'lgan talab u tovarni ishlab chiqarish va sotish oshgan sari kamayib boradi. Bunday tovarga elektr energiyasi misol bo'la oladi. Har bir iste'molchi bir oyda ma'lum miqdordagi (kilovatt/soat) elektroenergiyaga pul to'lab, undan ortiqchasiga to'lash qobiliyati pasayib boradi.

Tovarlar kategoriyasiga ko'ra narx differentsiasiyasi. Ushbu turdagi narx differentsiasiyasi xaridorlarni ularning talab chizig'iga ko'ra ikki yoki undan ortiq guruhlariga bo'ladi, demak, har bir guruhning o'z talab chizig'i bo'lib, bu talab chizig'i boshqa guruhlarikiga qaraganda yotiqiligi bilan farq qiladi.

Nazorat va muhokama uchun savollar

1. Monopoliyaga qarshi qonunlarning maqsadi va ahamiyati nimadan iborat?
2. Jahonda ilk bor monopoliyaga qarshi qabul qilingan qonun va uning ahamiyati.
3. Monopol hokimiyatga ega bo'lgan firmalarning narxni belgilash strategiyasining asosini nima tashkil etadi?
4. "Adolatli foyda olishni na'minlaydigan narx" aniqlanadi?
5. Narx belgilashda iste'molchi ortiqchaligini egallash.
6. Narxlar diversifikatsiyasi turlari va ularga xarakteristika bering.
7. Iste'molchi daromadiga ko'ra narx qanday belgilanadi?
8. Tovarlar kategoriyasiga qarab, ularga narx belgilashning shartlari nimalardan iborat?
9. Iste'mol xajmiga ko'ra narxlar diversifikatsiyasi deganda nima tushuniladi?
10. Haridorning rezerv narxi qanday o'lchanadi?

16-bob. MEHNAT BOZORI VA KORXONALARDA MEHNAT RESURSLARIDAN FOYDALANISH

16.1. Raqobatlashgan mehnat bozori

Ishlab chiqarish omillari bozori deganda, mehnat, xom ashyo, kapital, yer va boshqa ishlab chiqarish resurslari bozori tushuniladi. Resurslar bozoridagi talab va taklif iste'mol tovarlari bozori ta'sirida shakllanadi. Shuning uchun ham resurslarga bo'lgan talab hosila talab bo'lib, firmaning ishlab chiqarish hajmidan va uning xarajatlariga bog'liq. Ishchi kuchiga bo'lgan talabni alohida firma uchun qaraymiz. Bozor (tarmoq) talabini aniqlash uchun tarmoqqa qarashli firmalar talablari yig'ib chiqiladi.

Faraz qilaylik, firma ishlab chiqarish omillaridan foydalanib mahsulot ishlab chiqaradi. Boshqaruvchi firmaga yana qo'shimcha qancha ishchi kuchini yollashni aniqlamoqchi. Buning uchun firma har bir qo'shimcha ishchi kuchini yollashdan qancha daromad olishni va ushbu birlik yollangan ishchi kuchidan foydalanish uchun qancha xarajat ketishini bilishi kerak bo'ladi. Qo'shimcha yollangan bitta ishchi kuchidan olinadigan qo'shimcha daromad mehnatning chekli daromadliligi deyiladi va u MRP_L orqali belgilanadi.

Mehnatning chekli daromadliligi MRP_L ning iqtisodiy ma'nosi shundan iboratki, ya'ni u qo'shimcha bir birlik ishchi kuchidan foydalanib qo'shimcha ishlab chiqarilgan mahsulot hajmini (MP_L), qo'shimcha bir birlik ishlab chiqarilgan mahsulotdan olinadigan qo'shimcha daromad MR ga ko'paytirish orqali aniqlanadi: $MRP_L = MP_L \cdot MR$ (1), bu yerda MRP_L - mehnatning chekli daromadliligi; MP_L - mehnatning chekli mahsuloti; MR - chekli daromad.


Ushbu muhim bo'lgan (1) munosabat iste'mol bozori raqobatlashganmi yoki yo'qmi har qanday raqobatlashgan omillar bozori uchun o'rinlidir. Masalan, kapital bozori uchun: $MRP_K = MP_K \cdot MR$, bu yerda MRP_K - kapitalning chekli daromadliligi; MP_K - kapitalning chekli mahsuloti; MR - chekli daromad. Yer bozori uchun: $MRP_t = MP_t \cdot MR$.

Raqobatlashgan bozor sharoitida chekli daromad bozor narxiga teng, ya'ni $MR = P$ bo'lgani uchun, chekli mehnat daromadliligi quyidagicha aniqlanadi:

$$MRP_L = MP_L \cdot P, \quad (2).$$

Chekli daromadning kamayish qonuniga ko'ra, mehnatning chekli mahsuloti ish vaqti uzayishi bilan kamayib boradi. Demak, MRP_L chizig'i narx o'zgarmasa ham pastga qarab yo'nalgan bo'ladi (16.1-rasm).

I- chiziq raqobatlashgan iste'mol bozoridagi firmaning MRP_L chizig'i (bu yerda firma monopol hokimiyatga ega emas). **II** chiziq iste'mol bozorida monopol hokimiyatga ega bo'lgan firmaning MRP_L chizig'i.



16.1-rasm. Chekli mehnat daromadliliği grafiği

Monopol hokimiyatga ega bo‘lgan firma ko‘proq mahsulot sotish uchun tovar narxini tushirishi mumkin. Natijada $MR < P$ bo‘ladi va ishlab chiqarish hajmi oshishi bilan MR kamayib boradi. Demak, MR va MP_L chiziqlari pastga yotiq bo‘lgani uchun MRP_L chizig‘i pastga tomon yotiq bo‘ladi. Agar biz monopol hokimiyatga ega firmaning mehnatni chekli daromadliliğini monopol bo‘lmagan firmaning mehnatni chekli daromadliliği bilan solishtirsak $MRP_L^M = MP_L \cdot MR < MP_L \cdot P = MRP_L^P$, bu yerda MRP_L^M - monopol hokimiyatga ega bo‘lgan firmaning mehnatini chekli daromadliliği; MRP_L^P - monopol hokimiyatga ega bo‘lmagan raqobatlashuvchi firmaning mehnatini chekli daromadliliği.

Bundan kelib chiqadiki, har qanday ish haqida iste‘mol bozorida monopol hokimiyatga ega bo‘lgan firma, monopol hokimiyatga ega bo‘lmagan firmaga nisbatan kamroq ishchi yollaydi.

Mehnatni chekli daromadliliği MRP_L dan ishchilarni yollashda foydalanish mumkin. Agar firma o‘z foydasini maksimallashtiradigan bo‘lsa, u ishchilarni yollashni mehnatni chekli daromadliliği ish haqiga teng bo‘lgunga qadar davom ettiradi: $MRP_L = W$ (3).

Bu yerda: W - ish haqi.

Agar $MRP_L > W$ bo‘lsa, firma qo‘shimcha ishchi kuchini yollab, o‘z foydasini oshirishi mumkin. Ushbu shart 16.2-rasmda ifodalangan.


Mehnatga bo‘lgan talab D_L , MRP_L chizig‘i bilan ustma-ust tushadi. D_L talab chizig‘iga ko‘ra, mehnat narxi pasaygan sari unga bo‘lgan talab ham ortib boradi va aksincha.

Mehnat bozorida ishchi kuchiga talab - bu firmalarning ishchi kuchiga talabidir. Taklif ishchilar tomonidan bo‘ladi.

Mehnat bozori raqobatlashgan bo‘lgani uchun mehnat narxi bozor tomonidan shakllanadi va unga bozor sub`ektlari ta’sir qila olmaydi (raqobatlashgan iste‘mol bozoridagi kabi). Bu barcha ishchilar qaysi firmada ishlashidan qat’iy nazar, bir xil ish haqi oladi va firmalar bu narxni oldindan buyirilgan narx sifatida qabul qiladilar.

Shuning uchun ham alohida firma uchun mehnat resurslari taklif chizig‘i gorizontal, ya’ni u absolyut elastik.

16.2-rasmda raqobatlashgan mehnat bozorida muvozanat nuqta E nuqta bilan ifodalanadi. Muvozanat ish haqi W_e^* bo‘lganda foydani maksimallashtiradigan mehnat resurslari miqdori L_e^* ga teng bo‘ladi. Ishchi chekli unumdorlik nazariyasiga ko‘ra, mehnatning to‘liq mahsulotini oladi. Shuning uchun firmaning mehnat uchun chekli xarajati MRC ish haqiga teng: $MRC = W^* = MRP_L$, bu yerda MRC - firmaning mehnatga bo‘lgan chekli xarajati.




16.2-rasm. Raqobatlashgan mehnat bozorida mehnat narxining uning miqdoridan bog‘liqligi

Raqobatlashgan mehnat bozorida har bir ishchining ish haqi W_e^* ga teng bo‘lgani uchun, firmaning ishchilarga beradigan umumiy ish haqi xarajatlari $0L_e^*EW_e^*$ to‘rtburchak yuziga to‘g‘ri keladi. Ish haqining o‘zgarishi ishchi kuchiga bo‘lgan talabni o‘zgartiradi. Agar ish haqi W_0 dan W_1 gacha oshsa (16.3-rasm), yollanadigan ishchilar soni L_0 dan L_1 gacha qisqaradi; agar ish haqi W_2 gacha pasaysa, ishdagi ishchilar soni L_2 gacha oshadi.

Mehnat bozorida firma foydasini maksimallashtiradigan shart, ya’ni mehnatni chekli daromadlilikining ish haqi stavkasiga tengligi iste’mol bozorida $MR = MC$ shartga o‘xshashdir.


(1) va (3) tenglikdan foydalanib quyidagi munosabatni yozamiz.

$MRP_L = MP_L \cdot MR = W$ tenglikning ikkala tomonini chekli mahsulot MP_L ga bo‘lamiz. Natijada quyidagini olamiz: $MR = W / MPL = W * \Delta L / \Delta Q = MRC$ (4)



16.3-rasm. Ishchi kuchiga talab bilan ish haqi o'rtasidagi bog'liqlik

(4) - munosabatning chap tomoni ish haqi stavkasining bir birlik mahsulot ishlab chiqarish uchun ketgan mehnat sarfiga ko'paytirilganiga teng, ya'ni bu ishlab chiqarishning chekli xarajatidir. Tarmoq bo'yicha mehnat bozorini ko'rib chiqamiz. Umumiy bozor talabi tarmoqdagi firmalar talablari yig'indisi bilan aniqlanadi $D_{TL} = MRP_L = \sum (MRP)_i$ (16.4-rasm).




16.4-rasm. Tarmoq mehnat bozori

Umumiy taklif- takliflar yig'indisidan iboratdir: $S_{TL} = \sum (MRC)_i$

Bu yerda $MRC_i = W_i$ i -ishchi uchun sarflanadigan qo'shimcha xarajat, ya'ni, ish haqidir.

16.2. Mehnat qilish va dam olish o'rtasidagi bog'liqlik

Har bir ishchi oldidagi masala, bu qancha ishlab, qancha dam olish muammosidir. Agar sutkada 24 soat bo'ladigan bo'lsa, ishchi 24 soat ishlasa, u M so'mga teng bo'lgan maksimal daromad olishi mumkin (16.5-rasm).




16.5-rasm. Ish vaqti va dam olish o'rtasidagi bog'liqlik

Agar u ishlamasa, uning maksimal dam olishi bir sutkaga, ya'ni, 24 soatga teng bo'ladi va uning daromadi nolga teng. Ishchining "daromad va bo'sh vaqti" budget chizig'ini MN chizig'i orqali ifodalash mumkin.

Ma'lumki, ishchi har doim sutkasiga 24 soat ishlayvermaydi. Tabiiyki, ishchining ish vaqti chegaralangan bo'ladi, u ma'lum vaqt dam olib, o'zining ishlash qobiliyatini tiklashi kerak bo'ladi. Bundan tashqari, dam olish uni ma'naviy o'sishini ta'minlaydi. Demak, ishchi ma'lum vaqt ishlab, ma'lum miqdorda naf olsa (daromad olsa), u ma'lum vaqt dam olganda ham qandaydir naf oladi (ma'naviy o'sish, zavqlanish). Demak, ishchini qancha vaqt ishlab, qancha vaqt dam olishi kerakligi to'g'risidagi masalani quyidagicha qo'yish mumkin:

Ishchining ishlash vaqti va dam olish vaqtidan bog'liq naflik funksiyasini quyidagicha yozamiz: $U = U(t, T)$ (5), bu yerda U - naflik funktsiyasi; t - dam olish vaqti; T - ish vaqti. Demak, ishchi sutkadagi 24 soatni ish vaqtiga va dam olish vaqtiga shunday taqsimlashi kerakki, natijada u maksimal naf olsin: $U = U(t, T) \rightarrow \max$ (6). Quyidagi shart bajarilganda: $t + T \leq 24$ (7).

Ushbu masalaning optimal echimini grafik orqali aniqlaymiz (16.6-rasm).




16.6-rasm. Naflik funktsiyasini maksimalashtirish

Rasmdan ko‘rish mumkinki, masalaning echimi muvozanat nuqta E orqali aniqlash mumkin. Naflik funksiyasining befarqlik chizig‘i U_2 byudjet chizig‘ini E nuqtada kesib o‘tadi. Optimal echimga ko‘ra, dam olish vaqti t_E soatga teng, ish vaqti $T_E = 24 - t_E$. Ishchining bir soatlik ish haqi W so‘mga teng bo‘lsa, uning umumiy daromadi quyidagicha topiladi: $R = W(24 - t_E)$ (8).

U holda byudjet chizig‘i yotliqligi $tg\alpha = W$ ish haqiga teng bo‘ladi.

$$tg\alpha = \frac{R}{24 - t_E} = W \quad (9).$$

Ishchi naflik funksiyasini maksimallashtiradi, agar bo‘sh vaqt bilan daromadni chekli almashtirish normasi MRS_{tR} ish haqi W ga teng bo‘lsa, $MRS_{tR} = W$. Faraz qilaylik, ish haqi stavkasi W_0 dan W_1 ga oshdi. Byudjet chizig‘i NM holatidan NM_1 holatga siljiydi (16.7-rasm).




16.7-rasm. O‘rnini bosish samarasi va daromad samarasi, $0t_0$, $0t_1$, $0t_2$ lar bo‘sh vaqt, t_0N , t_1N va t_1N lar ish vaqti

Agar biz M_1N byudjet chizig‘iga parallel bo‘lgan va U_1 befarqlik chizig‘i bilan kesishadigan AB byudjet chizig‘ini o‘tkazsak, daromad va o‘rnini bosish samarasini aniqlashimiz mumkin.

O‘rnini bosish samarasi bo‘sh vaqtni qisqarishi va ish vaqtining ortishi natijasida daromadning o‘sishi bilan ifodalanadi, ya‘ni, ma‘lum miqdordagi bo‘sh vaqt ish vaqti bilan almashtiriladi. 16.7-rasmda bu t_2 dan t_0 ga siljishini ifodalaydi, ya‘ni, ish vaqti $T_1 = 24 - t_2$ dan $T_2 = 24 - t_0$ gacha oshadi. Lekin, daromadning ortishi bilan birga dam olishning - shaxsning ma‘naviy o‘sishi uchun kerak bo‘ladigan bo‘sh vaqtning ham qimmatini oshadi. Daromad samarasi (bo‘sh vaqtning


ortishi) teskari yoʻnalishda boʻlib, u $t_0 t_1$ oraliq bilan ifodalanadi ($t_0 \rightarrow t_1$). Natijaviy oʻzgarish $t_1 t_2$ oraliqqa teng.

Ish haqining bunday oʻsishida oʻrnini bosish samarasi daromad samarasidan yuqori boʻladi. Bundan shu kelib chiqadiki, birinchidan, ish haqining oʻsishi, ish vaqtini ortishiga olib keladi; ikkinchidan, individual shaxsning mehnat taklifi musbat yotqlikka ega (16.8-rasm).




16.8-rasm. Ish haqining oʻsishi natijasida ish vaqtining oʻsishi

Daromadning yanada oshib borishi barcha shaxslarni ham dam olish vaqtini qisqartirib, ish vaqtini oshirishga undayvermaydi. Dam olish vaqtining qisqarib borishi, uni shaxs uchun boʻlgan qimmatini oshiradi. Yuqorida eslatib oʻtganimizdek, sutkasiga 24 soat ishlash maʼnoga ega emas. Boʻsh vaqtni qimmatini oshib borishi shunga olib keladiki, daromad samarasi, oʻrnini bosish samarasidan oshib ketadi (16.9-rasm). Natijada ish vaqti $T_2 = 24 - t_2$ dan $T_1 = 24 - t_1$ gacha qisqaradi.



16.9-rasm. Daromad samarasi oʻrnini bosish samarasidan ortiq boʻlgan hol, $0t_0$, $0t_1$, $0t_2$ lar boʻsh vaqt, t_0N , t_2N va t_1N lar ish vaqti

Shaxsning bo'sh vaqti esa $0t_2$ dan $0t_1$ ga o'sadi. Bo'sh vaqt qiymatini ortishi, ish haqi oshganda individual shaxsning mehnat taklifi chizig'i manfiy yotiqlikka ega bo'ladi (16.10-rasm).



16.10-rasm. Ish haqi oshganda ish kunini qisqarish taklif chizig'i yotiqligi


Ish haqi o'sishining dam olish vaqti bilan ishlash vaqti o'rtasidagi nisbatga ta'siri. Odatda ish haqi oshganda, ko'pchilik ko'proq ishlab, ko'proq daromad olishga harakat qiladi. Lekin, ish vaqti oshgan sari bo'sh vaqtning ham qiymati oshib boradi. Inson ma'naviy o'sishga ham intiladi. Demak, ish vaqtining o'sishi o'z chegarasiga ega. Nima uchun deganda, insonlar, ishlab topgan daromadini ko'proq zavq olish uchun, dam olishga sarflaydilar.

Ish vaqti ma'lum vaqtgacha o'sgandan keyingi ish haqining o'sishi, ish vaqtini qisqarishiga olib keladi. Ish haqi oshganda o'rnini bosish samarasi hamda daromad samarasi mavjud bo'ladi. O'rnini bosish samarasida yuqoriroq ish haqi, ishchining real daromadini oshiradi. Ishchi ko'p daromad olganda, u ko'proq ne'matlarni sotib oladi, ushbu ne'matlardan biri, yaxshi dam olishdir.

Agar ishchi dam olishga ko'proq mablag' sarflasa, daromad samarasi (daromadning oshishi), uni kamroq ishlashga undaydi. Daromad samarasi juda ham katta bo'lganda, ishchi ish vaqtini qisqartiradi va mehnat taklifi chizig'i pastga yotiq bo'ladi. Quyidagi rasmda (16.11-rasm) ish haqi o'sishining uch bosqichi ko'rsatilgan.

Ish haqining birinchi bosqichida W_1 dan W_2 ga o'sishi, ish vaqtini t_1 dan t_2 soatga oshiradi. Bu yerda o'rnini bosish samarasi daromad samarasidan yuqori bo'ladi. Ish haqining ikkinchi bosqichidagi W_2 dan W_3 ga o'sishi, ish vaqtiga ta'sir qilmaydi, ishchi t_2 soat ishlaydi, o'rnini bosish samarasi daromad samarasiga teng.

Uchinchi bosqichdagi ish haqining W_3 dan W_4 ga o'sishi, ish vaqtini t_2 dan t_4 ga qisqartiradi, o'rnini bosish samarasi daromad samarasidan kam bo'ladi. Ko'rinib turibdiki, daromadning o'sishi dam olishga bo'lgan talabni oshiradi.



16.11-rasm. Individual shaxsning mehnati taklifi chizig'i

Ushbu hol ish vaqtini qisqarishi va dam olish vaqtini oshishida o'z ifodasini topgan. Ish haqining oshishi bilan birga dam olishning narxi ham oshadi. Odatda, rivojlangan mamlakatlarda aholining o'rtacha daromadi, rivojlanayotgan mamlakatlardagi aholining o'rtacha daromadidan ancha yuqori bo'lgani uchun, ular ko'proq dam olishga harakat qiladi (Daromad samarasi, o'rnini bosish samarasidan yuqori). Rivojlanayotgan davlatlarda ish haqi past bo'lgani uchun, ish haqining o'sishi, ishchilarni ko'proq vaqt ishlab, ko'proq daromad qilishga undaydi (o'rnini bosish samarasi, daromad samarasidan yuqori bo'ladi).


16.3. Mehnat bozorida monopsoniya bo'lgan hol

Bunday hol ko'proq kichik shaharlarda uchraydi. Shaharda yagona ishlab chiqarish korxonasi bo'lib, u shahar aholisining asosiy qismini ish bilan ta'minlaydi.

Shaharda boshqa ish joylari kam bo'lgani uchun, ushbu vaziyat monopsonik bozor vaziyatiga yaqin bo'ladi. Monopol korxonada mahalliy mehnat bozorida ishchi kuchini sotib oluvchi yagona korxonaga bo'lgani uchun ham u ish haqiga ta'sir qila oladi. Korxonaga ishga yollaydigan ishchilar sonini qisqartirsa, ishga kiruvchilar o'rtasida raqobat kuchayadi va bu ish haqini muvozanat darajasidan pastga tushiradi (16.12-rasm).

Raqobatlashgan mehnat bozorida muvozanat holat E nuqtada o'rnatiladi. E nuqtada talab va taklif chiziqlari kesishadi. Muvozanat holatida L_e ishchi W_e miqdordagi ish haqi bilan ta'minlanadi. Monopsonist har bir birlik mehnat uchun bir xil ish haqi to'lagani uchun taklif chizig'i o'rtacha xarajat AC chizig'idan iborat bo'ladi.

Chekli mehnat xarajatlari chizig'i MRC_L o'rtacha xarajat chizig'idan yuqorida yotadi. MRC_L va MRP_L chiziqlarini kesishgan nuqtasi monopsonik holatda qancha ishchi bilan band bo'lishini aniqlaydi. Bu yerda $MRP_L = MRC_L$ monopsonik muvozanat holati sharti.



16.12-rasm. Monopsonist mehnat bozori


Demak, monopsonist ishchilar sonini L_e dan L_c qisqartirib, ish haqini W_e dan W_N ga qisqartirishga erishadi. Shunday qilib, monopsonist bir vaqtning oʻzida ham ishchilar sonini qisqartirib, ham ish haqini pasaytirib, oʻz foydasini $MCNW_N$ toʻrtburchak yuziga teng boʻlgan miqdorda oshiradi.

16.4. Minimal ish haqi

Minimal ish haqi davlat tomonidan qonun orqali oʻrnatiladi. Koʻp hollarda minimal ish haqi muvozanat ish haqi darajasidan yuqori qilib oʻrnatiladi.

Bunday holda umumiy oʻrtacha ish haqi oshadi, lekin ishchilarni ishga yollash soni qisqaradi. Minimal ish haqini oʻrnatilishini va uni oshirilishini kasaba uyushmalari ham koʻpincha talab qilib chiqadilar.

Minimal ish haqi koʻproq malakasiz ishchilar va ish topa olmagan ishchilarga salbiy taʼsir koʻrsatadi. Nima uchun deganda, malakali ishchilarga talab har doim mavjud boʻladi, shu sababli ular minimal ish haqining oshishidan yutadilar. Umuman, minimal ish haqining ortishi, ish bilan band boʻlgan aholining yuqoriroq daromad olishini taʼminlaydi. Minimal ish haqi oshganda, mehnatga haq toʻlashning barcha stavkalari qaytadan koʻrib chiqiladi va oshiriladi (16.13-rasm).




16.13-rasm. Minimal ish haqi va bandlik

Minimal ish haqi oʻrnatilmaganda ishchilarning bandlik darajasi va ish haqi muvozanat holat (E nuqta) orqali aniqlanadi. Muvozanat holatda ish bilan L_e ishchi band boʻladi va u W_e miqdorda ish haqi oladi.

Minimal ish haqini muvozanat ish haqidan yuqori qilib belgilanishi ($W_{\min} > W_e$), ish bilan band boʻlgan ishchilar sonini L_M gacha qisqartiradi (Nima uchun deganda, firma bunday narxda kamroq ishchi yollaydi). H nuqta norasmiy mehnat bozorini ifodalaydi, W_H norasmiy bozordagi ish xaqi.

16.5. Monoplistik mehnat bozori

Amalda kasaba uyushmalarini monopolist deb qarash mumkin. Ular ishchilarga oʻz taʼsirini oʻtkazib, mehnat taklifini qisqartirib, ish haqini oshirishga harakat qiladilar. Faraz qilaylik, kasaba uyushmalari sof monopolist. Ushbu holat 16.14-rasmda keltirilgan.




16.14-rasm. Sof monopol mehnat bozorida monopolistning ish haqiga va bandlikka taʼsiri

Raqobatlashgan mehnat bozorida muvozanat E nuqtada oʻrnatiladi va L_e ishchi ish bilan taʼminlanib, W_e ish haqi oladi. Mehnat bozorida kasaba uyushmasi monopol hokimiyatga ega boʻlganligi uchun, u band boʻlgan ishchilar sonini L_e dan L_M ga qisqartirib, ish haqini W_e dan W_M ga oshirishi mumkin. Ishchilar oladigan alʼternativ foyda (iqtisodiy renta) $ANMW_M$ toʻrtburchak yuziga teng.

Mehnat bozoridagi ikki tomonlama monopoliya. Bunday bozorda monopsonist firmaga ishchi kuchini taklif qiluvchi monopolist (kasaba uyushmasi) turadi.

Ikki tomonlama monopolistik bozordagi holat quyidagi 16.15-rasmda ko'rsatilgan.



16.15-rasm. Mehnat bozoridagi ikki tomonlama monopoliya

Raqobatlashgan bozorda muvozanat holat E nuqtada o'rnatilgan bo'lar edi. Bu nuqtada mehnatga bo'lgan talab D_L va taklif S_L chiziqlari kesishadi. Muvozanat holatda L_e ishchi ish bilan band bo'lib, W_e ish haqi oladi. Lekin, monopsonist firma ish bilan band bo'lgan ishchilar sonini L_e dan L_M gacha qisqartirib, ish haqini W_e dan W_M gacha qisqartirishga harakat qiladi. Kasaba uyushmalari (monopolist) ish kuchi taklifini qisqartirib, (L_N gacha), ish haqini W_N gacha ko'tarishga harakat qiladi.


Shunday qilib, ish bilan band bo'lgan ishchilar sonining nisbatan kichik o'zgarishga ($L_M \leftrightarrow L_N$) ish haqlarining (ushbu yondashishda) bir-biridan juda katta farq qilishi to'g'ri keladi ($W_M \leftrightarrow W_N$). Ushbu vaziyatda ish haqining qanday bo'lishi, qarama-qarshi turgan monopolistik va monopsonik kuchlarga bog'liq. Ko'rinib turibdiki, ish haqi muvozanat ish haqi W_e ga ham yaqinlashishi mumkin.

16.6. Ish haqi stavkalari differentsiasiyasi (tabaqalashuvi)

Biz yuqoridagi mulohazalardan ish haqini o'zgarmas deb qaradik. Amalda o'rtacha ish haqi mutaxassisliklar bo'yicha ham, tarmoqlar bo'yicha ham, hattoki bir xil ishni bajaruvchi ishchilar bo'yicha ham farq qiladi. Masalan, avtomobilsozlik tarmog'ida ishlaydigan ishchilarning o'rtacha ish haqi, qurilish sohasida ishlaydigan ishchilarning o'rtacha ish haqlaridan farq qiladi, xuddi shunday kimyo tarmog'idagi o'rtacha ish haqi ham engil va oziq-ovqat sanoatidagi o'rtacha ish haqidan farq qiladi. Yuqori kategoriyali vrach past kategoriyali vrachga qaraganda ko'proq maosh oladi.

Ushbu farqning tagida, insonlar qobiliyatining xilma-xilligi, ma`lumoti, bilimi, tajribasi, malakasi yotadi. Bulardan tashqari, ular bajaradigan ishlarning turi ham, ular oladigan daromadlarga har-xil ta'sir qiladi. Ishning murakkabligi, ishlab chiqarishning inson hayoti uchun zararli bo'lishi, ushbu sohada ishlovchilarning ish haqida ushbu zararni qoplaydigan qo'shimcha ish haqida o'z ifodasini topadi.

Quyidagi 16.16-rasmda ishning og'irligi va zararligi uchun to'lanadigan qo'shimcha ish haqi ko'rsatilgan.




16.16-rasm. Har xil ish sharoitidagi ish haqi

Bu yerda og'ir ishni bajaruvchi, qo'shimcha $\Delta W = W_2 - W_1$ ish haqi oladi, $W_2 = W_1 + \Delta W$.

Iqtisodiy renta. Biz yuqorida resurs qanchalik ko'p cheklangan bo'lsa, uning narxi ham shunchalik yuqori bo'lishini ko'rgan edik. Shuning uchun ham yuqori malakali mutaxassis har doim ortiqcha ish haqi oladi. Ushbu ortiqcha ish haqi iqtisodiy renta bo'lib, u ishchining qobiliyati yoki yuqori malakasi uchun to'lanadi.


Tarmoq mehnat bozorini ko'rib chiqaylik (16.17-rasm).



16.17-rasm. Iqtisodiy renta

Muvozanat sharoitida (E nuqta) ishchilar W_e ish haqi oladilar. Lekin, malakali ishchilar W_0 ish haqi olib ishlashga tayyor bo'lsalar ham W_e ish haqi olayaptilar (demak, ular oladigan iqtisodiy renta $(W_e - W_0)$ ga teng bo'ladi).

Minimal ish haqi (mehnat narxi) bilan bozorda shakllangan ish haqi o'rtasidagi farq iqtisodiy rentani tashkil etadi. 16.17-rasmda barcha ishchilar uchun ushbu ko'rsatkich W_0EW_e uchburchak yuziga teng. Shuning uchun ham raqobatlashgan bozorda, qisqa muddatli oraliqda iqtisodiy rentaning bo'lishi, tarmoqqa yangi ishchilarni kirib kelishini rag'batlantiradi. Raqobatlashuvchi tarmoqda uzoq muddatli oraliqda mehnat taklifi chizig'i absolyut elastik (gorizontal) bo'lgani uchun iqtisodiy renta bo'lmaydi. Lekin, noyob mutaxassislarning etishmasligi, iqtisodiy rentani uzoq muddatda ham saqlanib qolishiga olib keladi (amalda ishlab chiqarishda noyob mutaxassislarni jalb qilish uchun, ularga qo'shimcha ish haqi belgilanadi). Estrada yulduzlari, kino yulduzlari, mashhur sportchilar iqtisodiy renta oladilar. Quyidagi 16.18-rasmda ushbu holat ifodalangan.



16.18-rasm. Taklif cheklangandagi iqtisodiy renta

Boshlang'ich ishchi kuchiga talab D_1 , taklif esa S . Taklif elastik bo'maganda, ishchi kuchi narxi faqat talabdan bog'liq bo'ladi. Kinoaktyorning obro'i oshib borishi, unga bo'lgan talabni D_1 dan D_2 ga keskin oshiradi.

Shunday qilib, uning narxi W_0 dan W_1 ga ko'tariladi. Rasmda $W_0E_1E_2W_1$ to'rtburchak yuzi iqtisodiy rentani ifodalaydi. **Iqtisodiy renta** - bu taklifi chegaralangan resursga to'lanadigan narxdir.

Qisqa xulosalar

Ishlab chiqarish omillari bozori deganda, mehnat, xom ashyo, kapital, yer va boshqa ishlab chiqarish resurslari bozori tushuniladi. Resurslar bozoridagi talab va taklif iste'mol tovarlari bozori ta'sirida shakllanadi.

Qo'shimcha yollangan bitta ishchi kuchidan olinadigan qo'shimcha daromad mehnatning chekli daromadlilik deyiladi va u MRP_L orqali belgilanadi.

Mehnatning chekli daromadliligi MRP_L ning iqtisodiy ma'nosi shundan iboratki, ya'ni u qo'shimcha bir birlik ishchi kuchidan foydalanib qo'shimcha ishlab chiqarilgan mahsulot hajmini (MP_L), qo'shimcha bir birlik ishlab chiqarilgan mahsulotdan olinadigan qo'shimcha daromad MR ga ko'paytirish orqali aniqlanadi.

Mehnat bozorida ishchi kuchiga talab - bu firmalarning ishchi kuchiga talabidir. Taklif ishchilar tomonidan bo'ladi. Umumiy bozor talabi tarmoqdagi firmalar talablari yig'indisi bilan aniqlanadi.

Har bir ishchi oldidagi masala, bu qancha ishlab, qancha dam olish muammosidir. Agar sutkada 24 soat bo'ladigan bo'lsa, ishchi 24 soat ishlasa, u M so'mga teng bo'lgan maksimal daromad olishi mumkin. Agar u ishlamasa, uning maksimal dam olishi bir sutkaga, ya'ni, 24 soatga teng bo'ladi va uning daromadi nolga teng.

Odatda ish haqi oshganda, ko'pchilik ko'proq ishlab, ko'proq daromad olishga harakat qiladi. Lekin, ish vaqti oshgan sari bo'sh vaqtning ham qimmati oshib boradi. Inson ma'naviy o'sishga ham intiladi. Demak, ish vaqtining o'sishi o'z chegarasiga ega. Nima uchun deganda, insonlar, ishlab topgan daromadini ko'proq zavq olish uchun, dam olishga sarflaydilar.

Minimal ish haqi davlat tomonidan qonun orqali o'rnatiladi. Ko'p hollarda minimal ish haqi muvozanat ish haqi darajasidan yuqori qilib o'rnatiladi.

Amalda o'rtacha ish haqi mutaxassisliklar bo'yicha ham, tarmoqlar bo'yicha ham, hattoki bir xil ishni bajaruvchi ishchilar bo'yicha ham farq qiladi. Ushbu farqning tagida, insonlar qobiliyatining xilma-xilligi, ma'lumoti, bilimi, tajribasi, malakasi yotadi. Bulardan tashqari, ular bajaradigan ishlarning turi ham, ular oladigan daromadlarga har-xil ta'sir qiladi. Ishning murakkabligi, ishlab chiqarishning inson hayoti uchun zararli bo'lishi, ushbu sohada ishlovchilarning ish haqida ushbu zararni qoplaydigan qo'shimcha ish haqida o'z ifodasini topadi.

Nazorat va muhokama uchun savollar

1. Raqobatlashgan mehnat bozor muvozanati qanday o'rnatiladi?
2. Firma foydasini maksimallashtirish uchun ishchi kuchini yollashni qanday shart bajarilgunga qadar davom ettiradi?
3. Mehnat qilish va dam olish o'rtasidagi bog'liqlikni izohlab byering.
4. Mehnat bozoriga kasaba uyushmasi qanday ta'sir ko'rsatadi va uning oqibatlarini izohlang.
5. Lorens egri chizig'i yordamida daromadlar taqsimlanishi qanday tahlil qilinadi?

17-bob. KAPITAL QO'YILMALAR VA KAPITAL BOZORI

17.1 Kapital bozori va kapital qo'yilmalar

Kapital - bu uzoq muddatli oraliqda ishlatiladigan ishlab chiqarish resursi bo'lib, uning yordamida uzoq vaqt davomida mahsulot ishlab chiqariladi.

Kapitalning ikki xil turi mavjud: asosiy kapital (uzoq muddatda foydalaniladigan uskuna, texnologik liniya, bino, qurilma); aylanma kapital (har bir ishlab chiqarish siklida o'z qiymatini tayyor mahsulot qiymatiga o'tkazadigan ishlab chiqarish resurslari, xom ashyo, materiallar, yarim fabrikatlar va hokazolar).

Asosiy kapitaldan uzoq muddatda foydalaniladi va u qayta takror ishlab chiqaradi, ya'ni u ishlatilishi davomida o'z qiymatini ma'lum qismini mahsulot qiymatiga o'tkazadi.

Kapitaldan foydalanish davomida u ham ma'naviy, ham jismoniy eskiradi. Jismoniy eskirish - bu kapitalning vaqt o'tishi bilan ishga yaroqsiz bo'lishi bo'lsa, ma'naviy eskirish uning unumdorligining kamayishi, ya'ni yangi ishlab chiqarilgan zamonaviy uskunalarga qaraganda unumdorligining pastligi, yoki umuman barcha ko'rsatkichlari bo'yicha (mahsulot sifati, foydalanishga qulayligi) yangi uskunadan orqada qolganligidir.

Asosiy kapital egasi kapital qiymatini undan foydalanish vaqti davomida qayta tiklaydi. Masalan, uskuna 1000000 so'm bo'lib, undan foydalanish muddati 10 yil bo'lsa, uning qiymati 10 yil davomida teng qiymatlarda mahsulot qiymatiga o'tkaziladi deb qaraydigan bo'lsak, har yilgi daromaddan 100000 so'mdan amortizatsiyaga ajratish kerak bo'ladi.

Aylanma kapital bir yil davomida o'zining butun qiymatini mahsulot qiymatiga o'tkazib qayta tiklanadi.

Kapitalning qiymati undan foydalanib, kelajakda qancha daromad olishga bog'liqdir. Kelajakda ko'proq daromad olish ishtiyoqi ko'pchilikni bugungi iste'molining bir qismidan voz kechib, uni jamg'arishga undaydi. Jamg'arilgan mablag' pul ko'rinishidagi kapital sifatida biror-bir tadbirkorga ma'lum muddatga qo'shimcha qiymat orqali qaytarilishi sharti bilan berilishi mumkin. Ushbu olingan qo'shimcha qiymatga kapitalga olingan foiz deyiladi.

Ssuda foizi - kapital egasiga uning kapitalidan ma'lum muddat oralig'ida foydalanganligi uchun to'lanadigan narxdir.

Kapitaldan foydalanishni tahlil qilganda bugun sarflangan mablag'ni kelajakda sarflanadigan mablag' bilan taqqoslash yoki bugun olinadigan daromad bilan kelajakda olinadigan daromadni taqqoslash muhim ahamiyatga egadir. Bu yerda vaqt omilini e'tiborga olish kerak bo'ladi. Bugungi sarflangan bir so'm bir yildan keyin sarflanadigan bir so'mga teng emas. Bularni bir-biriga tenglashtirish uchun, avval ularni bir vaqtga keltirish zarur bo'ladi. Turli xil yillardagi xarajatlarni yoki daromadlarni bir yilga keltirishda diskont ko'paytiruvchisidan foydalaniladi.

Xarajat va daromadlarni bir xil boshlang'ich vaqtga keltirish hisob-kitoblariga **diskontirlash** deyiladi. Bunday hisob-kitoblar investitsiya loyihalarini baholashda keng qo'llaniladi. Investitsiyalarni tahlil qilganda yillar davomida bo'ladigan xarajatlar bilan loyihadan olinadigan daromadlarni solishtirishga to'g'ri keladi. Kelajakda olinadigan daromadning nafi bugungi kunda olinadigan daromad nafidan kichik bo'ladi. Nima uchun deganda, joriy daromadga (ya'ni, bugungi kundagi daromadga) kelajakda foiz bo'yicha qo'shimcha daromad olish mumkin.

Loyihalarni tahlil qilishda loyiha qiymatini aniqlash uchun bugungi kunda qo'yilgan kapital mablag'lar bilan loyiha amalga oshirilgandan keyin olinadigan daromadlarni solishtirish zarur bo'ladi. Buning uchun joriy xarajatni va kelajakda olinadigan daromadni hisob-kitob qilish kerak.

Loyiha deganda, ma'lum maqsadga erishish uchun qilinadigan resuslar investitsiyasi tushuniladi.

Investitsiya - daromad olish uchun qo'yiladigan kapital mablag'.

Investitsiyalash - bu kapitalni yaratish yoki kapital zahirasini to'ldirish jarayonidir. Investitsiyalash deganda, yalpi va sof investitsiyalash tushuniladi.

Yalpi investitsiyalash - kapital zahirasining umumiy o'sishidir.

Qoplash - asosiy kapitalning ishdan chiqqan qismini almashtirish.

Sof investitsiya - yalpi investitsiyadan qoplash uchun sarflanadigan mablag'ni ajratgandan keyingi qolgan qismi.

Sof investitsiya = Yalpi investitsiya - Qoplash.

Agar yalpi investitsiya qoplashdan yuqori bo'lsa, sof investitsiya musbat bo'ladi (bu holda kapital ko'payadi va ishlab chiqarish kengayadi). Agar yalpi investitsiya qoplashdan kichik bo'lsa, sof investitsiya manfiy bo'ladi (mavjud kapital kamayib boradi). Va nihoyat, yalpi kapital qoplashga teng bo'lsa, kapital hajmi o'zgarmaydi (bu holda kapital oddiy takror ishlab chiqarilmaydi).

Qisqa muddatli loyihalarni (qisqa muddatli investitsiyalarni) tahlil qilganda kapitalning ichki o'zini oqlash koeffisienti r dan va ssuda foizi i dan foydalaniladi. Qisqa muddatli oraliqdagi investitsiyalarning (bir yillik oraliqdagi) chekli sof oqlashi ularning chekli ichki oqlash koeffisientidan ssuda stavkasi foizini ayirish orqali aniqlanadi: $\Delta r = r - i$, bu yerda Δr - chekli sof qoplash; r - chekli ichki qoplash; i - ssuda stavkasi foizi. Agar $r = i$ bo'lsa, investitsiyadan olinadigan foyda maksimal bo'ladi.


Faraz qilaylik, firma mandarin sotish bilan shug'ullanadi, deylik. Firma sotish quvvati turli bo'lgan do'konlarni qurmoqchi. Do'konlarni qurish uchun sarflanadigan kapital mablag'lar, sotish uchun sarflanadigan xarajatlar quyidagi jadvalda keltirilgan (17.1-jadval). Ssuda foizi stavkasi 10 foiz bo'lsin.

Bir kunda 1000 kg mandarin sotadigan do'kon qurish uchun 100000 so'm sarflanadi, 2000 kg uchun esa 200000 so'm sarflanadi va hokazo. Sotish masshtabi 1000 kg ga oshganda umumiy sarflanadigan kapital hajmi 100000 so'mga o'zgaradi.

Bir yillik investitsiya qaytimlari

Do'kon-larning sotish quvvati (kir kunlik), kg	Umumi y investitsiya (kapital mablag' sarfi), so'm	Chekli investitsiya, so'm	Kapitalga to'lanadigan chekli foiz, so'm	Chekli sotish xarajatlari, so'm	Chekli umumiy xarajatlar, so'm (MC)	Investitsiyadan olinadigan daromad, so'm (MR)	Chekli foyda, so'm
1000	100000	100000	10000	5000	115000	120000	5000
2000	200000	100000	10000	7500	117500	120000	2500
3000	300000	100000	10000	10000	120000	120000	0
4000	400000	100000	10000	12500	122500	120000	-2500
5000	500000	100000	10000	15000	125000	120000	-5000

Foiz stavkasi 10 foiz bo'lgani uchun chekli investitsiya 100000 so'mga, to'lanadigan mablag' 10000 so'mga teng. Har bir 100000 so'mlik chekli investitsiyadan olinadigan chekli daromad bir xil bo'lib, u 120000 so'mga teng. Sotish quvvati 1000 kg bo'lganda, chekli umumiy xarajat (chekli investitsiya plus kapitalga to'lanadigan chekli foiz plus chekli sotish xarajati) 115000 so'm bo'ladi va chekli foyda $120000 - 115000 = 5000$ so'mni tashkil etadi. Sotish quvvati 2000 kg bo'lgan do'kon uchun ushbu ko'rsatkichlar mos ravishda 117500 va 2500 so'mga teng bo'ladi. Agar chekli xarajat MC chekli daromad MR ga teng bo'lsa ($MC = MR$), kapitaldan olinadigan foyda maksimal bo'ladi. Do'konlarning bir kunlik sotish quvvati 3000 kg bo'lganda foyda maksimal bo'ladi, ya'ni $5000 + 2500 = 7500$ so'm. Ushbu holat quyidagi 17.1-rasmda ifodalangan.



17.1-rasm. Qisqa muddatli oraliqdagi investitsiya

Ishlab chiqarish masshtabi oshishi bilan birga chekli xarajat ham oshib boradi, shuning uchun ham MC chizig‘i musbat yotqlikka ega. Chekli daromad 120000 ga teng bo‘lganligi uchun MR chizig‘i 120000 nuqtadan o‘tib abtsissa o‘qiga parallel bo‘ladi. MC chizig‘i bilan MR chizig‘ining kesishgan nuqtasi maksimal foydani ta‘minlaydigan optimal sotish quvvati 3000 kg ga teng ekanligini aniqlaydi.

$$r = \frac{\text{Chekli foiz to'lovi} + \text{Chekli foyda}}{\text{Chekli investitsiya}} \cdot 100$$


Endi chekli qoplash normasi koeffisienti r ni va ssuda foiz stavkasi i bilan taqqoslaymiz (17.2-jadval).

17.2-jadval

Bir yillik qo‘yilgan investitsiyaning chekli oqlash normasi

Sotish quvvati, kg	r - chekli qoplash normasi, %	Ssuda foizi stavkasi i , %	Investitsiyani chekli sof qoplash normasi (Δr), %
1000	15,0	10,0	5,0
2000	12,5	10,0	2,5
3000	10,0	10,0	0,0
4000	7,5	10,0	-2,5
5000	5,0	10,0	-5,0

Sotish masshtabi oshishi bilan o‘zini oqlash normasi 15 foizdan 5 foizga tushadi. $i = r$ bo‘lganda, investitsiyadan olinadigan daromad maksimallasadi, ya’ni sotish hajmi 3000 kilogrammga etadi. Ushbu vaziyat 17.2-rasmda keltirilgan.



17.2-rasm. Chekli oqlash normasi va ssuda foizi stavkasi dinamikasi

SSuda foizi stavkasi o'zgaras bo'lib 10% ga teng bo'lgani uchun, uning chizig'i abtssisa o'qiga parallel joylashadi. Chekli oqlash normasi do'konlarning sotish quvvatiga qarab o'zgaradi, ya'ni r sotish masshtabi oshishi bilan pasayib boradi.

Chekli oqlash normasi chizig'i investitsiyaga bo'lgan talab chizig'ini ifodalaydi. Talab chizig'idan ko'rish mumkinki, foiz stavkasi qancha yuqori bo'lsa, kapitalga bo'lgan talab shuncha kam va aksincha, foiz stavkasi qancha past bo'lsa, kapital mablag'ga bo'lgan talab shuncha yuqori bo'ladi. Foydani maksimallashtiradigan sotish hajmi $i = r$ bo'lganda 3000 kilogrammga teng bo'ladi.

17.2. Uzoq muddatli oraliqdagi investitsiya

Asosiy kapitalga qo'yilgan investitsiyalar asosan uzoq muddatli bo'ladi. Asosiy kapitalning xizmat qilish, ya'ni undan foydalanish muddati mavjud bo'lib, u chegaralangan bo'ladi. Asosiy kapital xizmat ko'rsatish muddati davomida firma uchun daromad keltiradi.

Uzoq muddatli oraliqdagi kapital qo'yilmadan olinadigan foydani hisoblash uchun asosiy kapitalning xizmat ko'rsatish muddatini va undan foydalanish davomida har yilda olinadigan daromadni bilish kerak bo'ladi.

Faraz qilaylik, I - investitsiyani chekli qiymati, R_j - j -xizmat ko'rsatish yilida asosiy kapitaldan olinadigan chekli (qo'shimcha) daromad. U holda birinchi yil uchun ($j=1$) kapitalning chekli oqlash normasini (r) quyidagi formula orqali hisoblash mumkin: $I \cdot (1 + r) = R_1$ (1)

Demak, bugungi bir so'mlik kapitalning qiymati yilning oxiriga kelib $1+r$ so'mga teng bo'ladi, agar u bir yil davomida r so'mlik foyda keltirsa.

Agar chekli kapital qiymati 1000 so'm va chekli kapitalning bir yildan keyin umumiy foydaga qo'shadigan chekli hissasi 1300 so'm bo'lsa, chekli oqlash normasi quyidagiga teng.

$$(1) \text{ formuladan foydalanib yozamiz: } r = \frac{R_1 - I}{I} = \frac{1300 - 1000}{1000} \cdot 100\% = 30\%.$$

Bugungi bir so'mlik kapital qiymati yil oxirida $1 \cdot (1 + 0,3) = 1,3$ so'mga teng bo'ladi.

Agar ssuda foizi stavkasi $i = 10\%$ bo'lsa, sof oqlash normasi $\Delta r = (r - i) = (30 - 10) = 20\%$ bo'ladi.

Agarda $I = 1000$ so'm va $r = 30\%$ berilgan bo'lsa, R_1 ni topish mumkin bo'ladi: $1000 \cdot (1 + 0,3) = 1300$.

Ikkinchi yil uchun esa $R_1 \cdot (1 + r) = R_2$ (2) yoki $I \cdot (1 + r) \cdot (1 + r) = R_2$, $I \cdot (1 + r)^2 = R_2$ (3).

Bir yillik investitsiyaning qiymati yilning oxiriga kelib quyidagini tashkil qiladi, (1) dan foydalanib quyidagini yozamiz:

$$I = \frac{R_1}{(1+r)} \quad (4) \quad \text{ikkinchi yil uchun esa} \quad I = \frac{R_2}{(1+r)^2} \quad (5).$$

Ixtiyoriy t yil uchun kapitalning qiymati quyidagicha aniqlanadi:

$$I = \frac{R_1}{(1+r)} + \frac{R_2}{(1+r)^2} + \dots + \frac{R_t}{(1+r)^t}.$$

Jamg'arma va vaqt bo'yicha chekli tanlash normasi. Insonlar joriy va kelajakdagi iste'molni bir-biri bilan solishtirib, jamg'arish to'g'risida qaror qabul qiladilar. Odatda shaxs kelajakda ko'proq iste'mol qilish uchun bugungi kundagi bir so'mlik iste'moldan voz kechadi. Masalan, shaxsning bir yillik daromadi 100 ming so'm bo'lsin. Agar u ushbu daromadini joriy yilda to'liq iste'mol qilsa, uning jamg'armasi nolga teng bo'ladi. Shaxs ushbu daromadidan 10 ming so'mini jamg'aradi (10 ming so'mlik joriy iste'moldan voz kechadi), agar u kelajakda 10 ming so'mdan ko'proq iste'mol qilish imkoniyatiga ega bo'lsa, masalan 15 ming so'mlik. U holda uning vaqt bo'yicha chekli tanlash normasi *M RTP* quyidagicha aniqlanadi: $M RTP = \frac{\Delta C_1}{\Delta C_0} = \frac{15}{10} = 1,5$.

M RTP - vaqt bo'yicha chekli tanlash normasi, bu shaxsning umumiy tushum darajasi o'zgarmagan sharoitda bir birlik joriy iste'moldan voz kechish hisobiga bo'ladigan kelajakdagi qo'shimcha iste'mol qiymati bo'lib, u shu voz kechilgan birlik iste'molni qoplash uchun etarlidir.

Vaqt bo'yicha tanlash investitsiya qo'yishga jamg'arma orqali ta'sir qiladi. Lekin, joriy iste'mol hisobidan jamg'armani xohlagancha oshirish mumkin emas. Nega deganda, umumiy daromad cheklangan. Jamg'arma umumiy daromaddan iste'molni ayrilganiga teng: $S = I - C$, bu yerda: S - jamg'arma; I - umumiy daromad; C - iste'mol.

Ma'lumki foiz stavkasi (i) qancha yuqori bo'lsa, jamg'arishga moyillik shuncha yuqori bo'ladi va aksincha.

Qiymatni diskontirlash. Bir yildan keyin beriladigan bir so'mning bugungi qiymati qancha bo'ladi? Bu savolga javob - foiz stavkasiga bog'liqdir. Faraz qilaylik, foiz stavkasi i bo'lsin. U holda biz bir so'mni jamg'aradigan bo'lsak, uning qiymati bir yildan keyin $1 \cdot (1+i)$ so'mga teng bo'ladi (agar foiz stavkasi $i = 50\%$ bo'lsa, bugungi bir so'm bir yildan keyin 1,5 so'mga teng bo'ladi). Demak, aytishimiz mumkinki, bir yildan keyin olinadigan bir so'mning bugungi qiymati $\frac{1 \text{ so'm}}{(1+i)}$ so'mga teng, ya'ni u bir so'mdan kichik bo'ladi. Xuddi shunday ikki yildan keyin to'lanadigan bir so'mning bugungi qiymati $\frac{1 \text{ so'm}}{(1+i)^2}$ ga teng bo'ladi. Nima uchun

deganda, bir so‘m i foiz stavkasi bo‘yicha investitsiyaga qo‘yilsa, ikki yildan keyin u $(1+i) \cdot (1+i) = (1+i)^2$ so‘mga teng bo‘ladi.

Umumlashtirib aytadigan bo‘lsak, joriy diskontirlashtirilgan qiymat PDV (*Present Discount Value*), ya‘ni boshlang‘ich yilga keltirilgan qiymat - bu ma‘lum muddat o‘tgandan keyin to‘lanadigan bir so‘mning bugungi qiymati (narxi). Agar muddat bir yilga teng bo‘lsa, $PDV = \frac{1}{(1+i)}$ ga teng.

Agar muddat n yilga teng bo‘lsa, $PDV = \frac{1}{(1+i)^n}$ ga teng bo‘ladi. Quyidagi jadvalda (17.3-jadval) bir dollarning har xil foiz stavkalaridagi keltirilgan qiymatlari ko‘rsatilgan.

17.3-jadval
1 dollarning diskontirlangan (keltirilgan) qiymati

Foiz stavkasi	Yillar			
	1	5	10	20
0,01	0,990	0,951	0,905	0,820
0,05	0,952	0,784	0,614	0,377
0,10	0,909	0,621	0,386	0,149
0,15	0,870	0,497	0,247	0,061
0,20	0,833	0,402	0,162	0,026

Jadvaldan ko‘rish mumkinki, foiz stavkasi qancha yuqori bo‘lsa, bir dollarning joriy diskontirlangan (boshlang‘ich yilga keltirilgan) qiymati shuncha kichik bo‘ladi. Masalan, foiz stavkasi 5% bo‘lganda, 10 yildan keyin olinadigan dollarning bugungi qiymati 61,4 sentga teng bo‘ladi, 10 foizlik stavkada esa ushbu ko‘rsatkich 38,6 sentga va 20% bo‘lganda 16,2 sentga teng bo‘ladi.

Vaqt bo‘yicha diskontirlangan (boshlang‘ich vaqtga keltirilgan) daromadni qaraymiz. Faraz qilaylik, bizda ikki xil daromad bor. Birinchisini "A" deb belgilasak, ikkinchi daromadni "V" deylik. "A" daromad 400 so‘mga teng bo‘lib, uning 200 so‘mi hozir to‘lanadi, qolgan 200 so‘mi bir yildan keyin to‘lanadi. "V" daromad 440 so‘m bo‘lib, uning 40 so‘mi bugun to‘lanadi, 200 so‘mi bir yildan keyin, qolgan 200 so‘mi ikki yildan keyin to‘lanadi. Ushbu ikki variantdan qaysi biri foydaliroq hisoblanadi? Javob: foiz stavkasiga bog‘liq. Ushbu daromadlarni boshlang‘ich vaqtga keltirilgan qiymatini hisoblaymiz.

$$PDV(A) = 200 + \frac{200}{1+i}; \quad PDV(B) = 40 + \frac{200}{(1+i)} + \frac{200}{(1+i)^2}.$$

17.4-jadval

Diskontirlangan daromadlar turi

Daromadlar turi	Yillar bo'yicha keltirilgan daromad		
	joriy yil	1-yil	2-yil
A	200	200	0
V	40	200	200

Quyidagi jadvalda daromadlarning ikkala turi bo'yicha foizlar stavkasi 5, 10, 15, 20% bo'lgandagi keltirilgan qiymatlari ko'rsatilgan.

17.5-jadval

Foiz stavkalarida diskontirlangan daromad

Daromad turi	Foiz stavkalarida diskontirlangan daromad, (so'mda)			
	$i = 0,05$	$i = 0,10$	$i = 0,15$	$i = 0,20$
A	390,5	381,8	373,9	366,7
V	411,9	387,1	365,1	345,6

Jadvaldagi ma'lumotlardan ko'rish mumkinki, daromadlarni tanlash foiz stavkalariga bog'liq. Agar foiz stavkasi 10% ga teng va undan kichik bo'lganda, shaxs "A" daromad turiga qaraganda "V" daromad turini tanlashi yaxshiroq bo'lardi. Foiz stavkasi 15% va undan yuqori bo'lganda, "A" daromad turi "V" daromad turiga nisbatan yaxshiroq bo'lar edi.

Bu yerda asosiy sabab, "A" daromad qiymati "V" daromadga qaraganda kam bo'lsa ham, u tezroq to'lanadi.

17.3. Investitsiyani hisoblashdagi diskontlangan qiymat

Investitsiya qo'yishdan maqsad, kelajakda olinadigan daromadlarni va qilinadigan xarajatlarni solishtirish orqali loyihaning qiymatini baholash mumkin bo'ladi. Investitsiyani baholashda sof keltirilgan qiymat mezonini (NPV) ishlatiladi. Bu mezonga ko'ra, agar olinadigan daromad investitsiyaga sarflanadigan xarajatdan yuqori bo'lsa, investitsiya amalga oshiriladi.

Faraz qilaylik, investitsiya hajmi boshlang'ich ishlab chiqarish yili uchun ($t = 0$) I ga teng; R_t , C_t - kutiladigan t -yildagi ($t = 1, 2, \dots, T$) daromadlar va xarajatlar. U holda sof keltirilgan qiymat quyidagiga teng:

$$NPV = -I + \frac{R_1 - C_1}{(1+i)} + \frac{R_2 - C_2}{(1+i)^2} + \dots + \frac{R_T - C_T}{(1+i)^T},$$

bu yerda, i - diskont normasi (xarajatlarni bir vaqtga keltirish normasi). Diskont normasi i foiz stavkasi yoki boshqa bir stavka bo'lishi mumkin. T - loyihani faoliyat ko'rsatish muddati.


Ba'zi hollarda diskont normasini asosiy kapitalga qo'yilgan al'ternativ xarajat sifatida qarash mumkin.

Agar $NPV > 0$ bo'lsa, investitsiya o'zini oqlaydi, ya'ni keltirilgan foyda qo'yilgan investitsiya qiymatidan katta. Agar $NPV < 0$ bo'lganda investitsiya o'zini oqlamaydi.

Loyihaning ishlash muddati cheksiz bo'lganda ($t \rightarrow \infty$), sof keltirilgan qiymat quyidagicha hisoblanadi: $NPV = -I + \frac{R - C}{i}$.

Investitsiyaga talab. Sof keltirilgan qiymat mezoniga ko'ra, investitsiya o'zini oqlaydi, agar $NPV = -I + f(i) > 0$ bo'lsa. Bu yerda $f(i) = \sum_{t=1}^T \frac{R_t - C_t}{(1+i)^t}$.

Demak, $I = f(i)$ investitsiyaga talab funksiyasi. Ushbu funksiyaning grafigi kamayuvchi bo'lib, investitsiya "narxi" bilan, ya'ni foiz stavkasi bilan investitsiyaga qilinadigan xarajatlar o'rtasidagi teskari aloqani ifodalaydi (17.3-rasm).



17.3 -rasm. Investitsiyaga talab funksiyasi grafigi

Investitsiyaga talab funksiyasi berilgan loyiha investorlar tomonidan kapital mablag' qo'yishi mumkin bo'lgan maksimal foiz stavkasini ifodalaydi. Yuqori foiz stavkasida yuqori foyda berishi mumkin bo'lgan loyihalar amalga oshiriladi. Foiz stavkasi kamayganda kapital mablag' qo'yish masshtabi kengayadi, ya'ni kam foyda beradigan loyihalar ham mablag' bilan ta'minlanadi.

Inflatsiyaning ta'siri. Inflatsiya yoki narxlarning umumiy darajasining o'sishi joriy va kelajakda olinadigan mablag'lar nisbatini o'zgartiradi. Shuning uchun ham inflatsiya darajasi loyihalarni baholashda e'tiborga olinishi zarur.

Agar barcha tovarlarga, xizmatlarga va ishlab chiqarish resurslariga (ish haqiga ham) bo'lgan narxlarning darajasi o'sganda, ular o'rtasidagi nisbat o'zgarmasa, bunday o'zgarishga balanslashgan inflatsiya deyiladi. Bunday holda, ya'ni narxlarning o'sish sur'ati bir xil bo'lganda loyihani tahlil qilishda inflatsiyani hisobga olmasa ham bo'ladi. Nominal narxlardan, nominal foiz

stavkasidan foydalanib daromadlar va xarajatlarni hisoblab, ularni solishtirish mumkin. Foyda va xarajatlarni belgilangan (solishtirma) narxlarda ham hisoblash mumkin, lekin bunday holda real foiz stavkasidan foydalanish kerak bo‘ladi.

Agar har bir tovar, xizmat va resurs o‘zining narx o‘sish sur‘atiga ega bo‘lsa, inflatsiya balanslashmagan bo‘ladi. Balanslashmagan inflatsiya loyiha bo‘yicha hisob-kitoblarni murakkablashtirib yuboradi.

Nominal foiz stavkasi - bu joriy pul birliklarida ifodalangan jamg‘armaga yoki ssudaga bo‘lgan daromad normasi.

Real foiz stavkasi - bu o‘zgarmas (ya’ni, inflatsiya darajasiga ko‘ra o‘zgartirilgan) pul birliklarida ifodalangan jamg‘arma yoki ssudaga bo‘lgan daromad normasi.

Faraz qilaylik, i - nominal, ε - real foiz stavkasi bo‘lsin. π - inflatsiya darajasi sur‘ati, ya’ni $\pi = \frac{P_1 - P_0}{P_0}$, bu yerda P_0 - joriy narx darajasi;

P_1 - ma’lum vaqt o‘tgandan keyingi (bir yildan keyingi) narx darajasi.

Faraz qilaylik, qandaydir joriy qiymat M_0 berilgan bo‘lib, u bir yildan keyin M_1 bo‘lsin. U holda $M_1 = M_0 \cdot (1 + i)$.

Pulning sotib olish kuchini aniqlaymiz. Bu yerda $\frac{M_0}{P_0}$ hozirgi sotib olish

kuchi; $\frac{M_1}{P_1}$ - kelajakda sotib olish kuchi. U holda $\frac{M_1}{P_1} = \frac{M_0 \cdot (1 + i)}{P_0 \cdot (1 + \pi)} = \frac{M_0}{P_0} \cdot (1 + \varepsilon)$.

Bundan real foiz stavkasi r quyidagiga teng: $\varepsilon = \frac{\frac{M_1}{P_1} - \frac{M_0}{P_0}}{\frac{M_0}{P_0}} = \frac{1 + i}{1 + \pi} - 1$, ya’ni,

$$(1 + \varepsilon) \cdot (1 + \pi) = 1 + i, \text{ yoki } \varepsilon = \frac{i - \pi}{1 + \pi} = \frac{0,6 - 0,9}{1 + 0,9} \approx -0,16$$

Inflatsiya darajasi (sur‘ati) kichik bo‘lganda real foiz stavkasi quyidagicha hisoblanishi mumkin: $\varepsilon \approx i - \pi$.

Umuman olganda, firmalarning talabi moddiy kapital ne‘matga (uskuna, texnologik liniya) emas, balki vaqtincha bo‘sh bo‘lgan pul mablag‘igadir. Ushbu pul mablag‘ini moddiy kapitalga sarflab, ulardan foydalanish natijasida kelajakda oladigan foydaning bir qismini pul egasiga qaytarish kerak bo‘ladi. Shuning uchun ham investitsiyaga talab, bu pul jamg‘armasiga bo‘lgan talab, foiz to‘lovi esa qarzga olingan pulning narxidir.


Misol. Nominal stavka $i = 60\%$; ε - real stavka; π - inflatsiya darajasi; $\pi = 90\%$.

Formulaga ko‘ra quyidagini yozamiz: $(1 + \varepsilon) \cdot (1 + 0,9) = 1 + 0,6$, yoki real foiz stavkasi $\varepsilon = 15,8\%$.

Zayomlarning qiymatini diskontirlash. Zayomlar to'lov majburiyati bo'lib, ularning mohiyati shundan iboratki, zayom beruvchi zayom oluvchiga (kreditorga) ma'lum muddat o'tishi bilan ma'lum summada pul to'laydi. Faraz qilaylik, davlat yoki biror korxonaning zayomi yaqin 10 yil ishlab chiqarishda har yilda 100 so'mdan daromad keltiradi, 10 yil o'tgandan keyin pirovard dividend 1000 so'm bo'lsin. Ushbu zayomga zayom oluvchi qancha to'lashini ko'rib chiqamiz. Buning uchun daromadlarning diskontirlangan summasini hisoblab chiqamiz.

$$PDV = \frac{100}{(1+i)} + \frac{100}{(1+i)^2} + \dots + \frac{100}{(1+i)^{10}} + \frac{1000}{(1+i)^{10}} \quad (1).$$

Bu yerda ham zayom qiymati foiz stavkasiga bog'liq. 17.4-rasmda zayomning har xil foiz stavkalarida diskontirlangan qiymati keltirilgan.



17.4-rasm. Zayom qiymatidan olinadigan diskontirlangan daromadlar yig'indisi

Foiz stavkasi qancha ko'p bo'lsa, zayomning qiymati shuncha past bo'ladi. Masalan, 5 foizli stavkada zayom narxi 1386 so'mni tashkil qilsa, 15 foizda u 747 so'mga teng bo'ladi.

Zayomlar muddatsiz bo'lganda zayom olgan shaxs cheklanmagan muddatda har yili ma'lum o'zgarmas summa olib turadi. 1000 so'mlik dividend beradigan cheksiz muddatli zayomning narxi quyidagicha teng:

$$PDV = \frac{1000}{(1+i)} + \frac{1000}{(1+i)^2} + \frac{1000}{(1+i)^3} + \dots$$

Bunday holda PDV quyidagicha hisoblanadi: $PDV = \frac{1000}{i}$.

Shunday qilib, agar foiz stavkasi 5% bo'lsa, muddatsiz zayomning qiymati $\frac{1000}{0,05} = 20000$ so'm bo'ladi. Agar foiz stavkasi 20% bo'lsa, zayomning qiymati 5000 so'mga teng bo'ladi.

17.4. Yer bozori


Iqtisodiy nazariyada yer deganda, uning tabiiy resurslari tushuniladi, ya'ni: yerning hosildorligi, undagi foydali qazilma boyliklar va hokazolar. Bunda biz yerning ustki qatlamini qaraymiz, ya'ni uning ustki qatlamidan qishloq xo'jaligi mahsulotlari etishtirishda yoki qurilishda (uy-joy, maktab, korxonalar va hokazo) foydalanish mumkin.

Yerning o'ziga xos xususiyatlaridan biri, u har doim cheklangan va uni u joydan boshqa joyga, ya'ni kapitalni ko'chirib bo'lmaydi.

Yer taklifi. Yer taklifiga ta'sir etuvchi asosiy omillar - bu uning hosildorligi va qulay joylashganligidir. Ma'lumki, sifatli yerlar har doim va har yerda cheklangan bo'ladi. Sifatli, shaharlarga yaqin bo'lgan yerlar yanada ko'proq cheklangan bo'ladi.

Ma'lumki, yerning hosildorligi yerning sifatiga, ob-havo sharoitiga, suv bilan ta'minlanishi mumkinligiga, unda mehnat qiladiganlarning bilimiga, tajribasiga va foydalaniladigan texnikaga, ekiladigan urug' sifatiga va hokazolarga bog'liqdir. Yuqoridagi omillarning ko'pchiligi o'zgaruvchan bo'lib, ularning ta'siri ham o'zgaruvchidir. Lekin, qishloq xo'jaligida foydalaniladigan kapitalning va mehnatning o'zgarishi har doim ham bir xil sodir bo'lmaydi. Ular odatda ma'lum muddat o'tgandan keyin o'zgaradi.

Yer taklifining cheklanganligi shuni ko'rsatadiki, uning taklif chizig'i absolyut elastik emas. Shuning uchun yerning taklif chizig'i grafikda vertikal ko'rinishga ega bo'ladi (17.5-rasm).




17.5-rasm. Yer taklifi

Taklif chizig'ining absolyut elastik emasligidan shu kelib chiqadiki, uning narxi (bir gektariga) qanchalik oshmasin, yer taklifi o'zgarmaydi. Yerning real narxi

qanday bo'lishini aniqlash uchun unga bo'lgan talabni tahlil qilish kyerak bo'ladi. Taklif o'zgarmasa, bozor narxini o'rnatilishida talab katta rol o'ynaydi.

Yerga talab. Yerga bo'lgan talab ikki xil bo'ladi: qishloq xo'jaligida foydalanish uchun bo'lgan. Yerga talab va noqishloq xo'jaligida foydalanish uchun bo'lgan talab. $D = D_{q/x} + D_{noq/x}$, bu yerda D - umumiy talab; $D_{q/x}$ - qishloq xo'jaligi uchun talab; $D_{noq/x}$ - noqishloq xo'jaligi talabi.

Ushbu talablarni grafikda quyidagicha tasvirlash mumkin (17.6-rasm). Bu yerda qishloq xo'jaligi uchun bo'lgan talab chizig'i manfiy yotqlikka ega. Nega deganda, yer unumdorligining kamayish qonuniga asosan, mavjud texnika va texnologiya o'zgarmaganda foydalaniladigan yerning ortib borishi, uning hosildorligini kamayib borishiga olib keladi. D.Rikardoning (1772-1823) ilmiy asarlari yer unumdorligining kamayish qonunini keng tarqalishida muhim rol o'ynagan.



17.6-rasm. Yerga talab

Noqishloq xo'jalik sohasining yerga bo'lgan talab chizig'i ham manfiy yotqlikka ega. Bu yerda ham qurilish uchun nafaqat shahar ichidagi yerlardan foydalaniladi (ular cheklangan), balki shahar atrofidagi yerlardan ham foydalanishga to'g'ri keladi. Hozirgi vaqtda qishloq xo'jaligi bilan bog'liq bo'lmagan sohalar uchun yerga bo'lgan talab o'sish tendentsiyasiga ega.

Ushbu talab o'z ichiga uy-joy qurish uchun bo'lgan talabni, infratuzilma ob'ektlari uchun va sanoat ob'ektlari qurish uchun bo'lgan talablarni oladi. Inflatsiya darajasi yuqori bo'lganda ko'pchilik ortiqcha pulini yer sotib olishga sarflaydi (yerga bo'lgan inflyatsion talab). Shuning uchun ham yer boylikni saqlash va uni ortishini ta'minlash ob'ekti sifatida qaraladi. Noqishloq xo'jalik yerlarga talab yerning hosildorligiga bog'liq bo'lmay, ko'proq uning qulay joylashuviga (shaharga yaqin) bog'liqdir. Odatda shahar markazlaridagi yer narxi yuqori bo'ladi, shahar markazidan yiroqlashgan sari esa uning narxi kamayib boradi.

Qishloq xo'jaligi uchun kyerak bo'lgan yerlarga talab uning hosildorligiga va bu hosildorlikni oshirish imkoniyatlariga, yerning joylashuviga (qishloq xo'jalik mahsulotlari iste'molchilaridan uzoqlashish darajasiga) bog'liq.

Qishloq xo'jalik yerlariga talab oziq-ovqat mahsulotlariga bo'ladigan talab bilan belgilanadi. Ma'lumki, oziq-ovqat mahsulotlariga talab noelastikdir. Insonlar oziq-ovqatsiz yashay olmaydilar. Shuning uchun am oziq-ovqat mahsulotlarining asosiy turlariga bo'lgan talab, ularning narxi qanchalik oshmasin, kam o'zgaradi.

Oziq-ovqat mahsulotlariga talabning noelastikligi shuni bildiradiki, ularning taklifini kam miqdorda qisqartirish, mahsulotlar narxini keskin oshib ketishiga sabab bo'lishi mumkin va aksincha, taklifning ko'payishi (hosildor yil kelganda), oziq-ovqat mahsulotlari narxini keskin kamayib ketishiga olib kelishi mumkin.

Iqtisodiy renta (absolyut renta) - bu cheklangan resurs uchun to'lanadigan to'lov.

Yer rentasi - cheklangan yer resurslaridan (boshqa tabiiy resurslardan) foydalanilish uchun to'lov.


Iqtisodiy renta yer rentasiga ko'ra kengroq ma'noga ega, buni yuqorida ko'rgan edik.

Absolyut renta - bu barcha yer egalari tomonidan yerning sifatiga bog'liq bo'lmagan holda oladigan rentadir (absolyut renta K.Marks tomonidan kiritilgan).

Yer rentasini tahlil qilish uchun quyidagi shartlar bajarilgan deb faraz qilinadi:

- ishlab chiqarilgan barcha mahsulot bozor uchun ishlab chiqariladi;
- barcha yerlar mukammallashgan bozor sharoitida ijaraga beriladi;
- barcha yerlardan asosiy oziq-ovqat mahsulotlarini ishlab chiqarish uchun foydalaniladi;
- barcha yerlarning unumdorligi bir xil.

Yer taklifi absolyut elastik bo'lmagani uchun, yer taklif chizig'i vertikal ko'rinishda bo'ladi (17.7-rasm).



17.7-rasm. Yer bozorida muvozanat holat


Yerga bo'lgan talab chizig'i D (yer unumdorligining pasayish qonuniga ko'ra) manfiy yotqlikka ega. Yer taklifi chizig'i S ni talab chizig'i D_1 bilan kesishgan

nuqtasi E_1 yer bozorida muvozanat holatini bildiradi. R_1 muvozanat renta bo'lib, u har oyda ijarachi tomonidan yer egasiga to'lanadi. $R_1E_1Q_EO$ to'rtburchak yuzi barcha yerdan foydalanish uchun to'lanadigan umumiy renta. Agar asosiy mahsulot bug'doy bo'ladigan bo'lsa, bug'doyga bo'lgan talabning ortishi, yerga bo'lgan talabning ortishiga olib keladi (D_3), natijada bir gektar yerga to'lanadigan renta R_1 dan R_3 ga ko'tariladi. Ushbu holat umumiy (absolyut) renta $OR_3E_3Q_E$ to'rtburchak yuziga teng bo'ladi. Agar bug'doyga bo'lgan talab kamaysa, har oyda to'lanadigan renta ham kamayadi va umumiy renta qiymati $OR_2E_2Q_E$ to'rtburchak yuzigacha kamayadi.

Ko'rinib turibdiki, taklif absolyut elastik bo'lmaganda yer rentasi asosan unga bo'lgan talabga bog'liq.

Diffyerenzial renta. Absolyut rentani qaraganimizda, yerning sifati, joylashuvi bir xil deb faraz qilgan edik. Haqiqatda esa yerlar hosildorligi bo'yicha hamda joylashuviga ko'ra bir-biridan farq qiladi.

Faraz qilaylik, tabiiy hosildorligi bo'yicha 3 xil yer bo'lsin, ya'ni, yaxshi, o'rtacha va yomon yerlar. Bu yerlarning hosildorligi har xil bo'lganligi uchun, ularning teng o'lchamdagi uchastkalariga teng miqdorda kapital va mehnat sarflasak, turli xil natija olamiz. Hosildorligi yuqori bo'lgan yerdan, boshqa yerlarga nisbatan ko'proq hosil olamiz va bu ortiqcha olingan hosil yerning faqat tabiiy hosildorligi bilan bog'liqdir. Yaxshi hosildor yerga renta o'rtacha yer rentasiga ko'ra yuqori, o'rtacha yer rentasi esa yomon yer rentasiga ko'ra ko'p bo'ladi, yomon yer egasi esa sof iqtisodiy (absolyut) renta oladi (17.8-rasm).



17.8-rasm. Diffyerenzial renta

Eng yaxshi yer egasi har bir gektar yerdan har oyiga differensial renta R_1 ni oladi, o'rtacha yer egasi - R_1 rentani. Yomon yerning rentasi nolga teng. Biz bu yerda yaxshi, o'rtacha va yomon yerlarning o'lchami teng deb faraz qildik. Xuddi shunga o'xshash differensial rentalarni yerlarning joylashuviga ko'ra ham aniqlash mumkin.

Biz yuqorida yerlarni tabiiy hosildorligi bo'yicha rentalarni ko'rdik. Lekin, yer hosildorligini unga qo'shimcha kapital sarflab ham (masalan, optimal darajada o'g'it berish, yangi agrotexnikani qo'llash) oshirish mumkin. Masalan, yaxshi yerga qo'shimcha kapital sarflasak, u quyidagi oqibatlarga olib kelishi mumkin: a) qo'shimcha kapital ishlab chiqarish samaradorligini oshirishi mumkin (bu holda yer rentasi R_1 dan R_1^* ga oshadi); b) sarflangan qo'shimcha kapital ishlab chiqarish samaradorligini kamayishiga olib keladi (bu holda yaxshi yer rentasi pasayib R_1' ni tashkil etadi). Bordi-yu, qo'shimcha kapital sarfi samaradorlik darajasini o'zgartirmasa, yer rentasi ham o'zgarmaydi.

Yer narxi. Yer narxi yer rentasini kapitalizatsiya qilish yordamida aniqlanadi. Faraz qilaylik, ma'lum bir yer uchastkasi o'lchami yer egasiga bir yilda P renta (so'mda) keltirsin. yer qiymatini aniqlashda yer egasi uchun al'ternativ qiymatdan foydalaniladi. Yer narxi shunday pul miqdoriga tengki, agar uni bankga qo'ysak, undan olinadigan foyda ushbu yerdan olinadigan foydaga teng bo'lsa. Demak, yer narxi kelajakda olinadigan yer rentasining diskontirlangan (keltirilgan) qiymatiga teng:

$$P_L = \sum_{k=1}^{\infty} \frac{R_k}{(1+i)^k}.$$

Yer narxi - bu kapitalni muddatsiz qo'yish demakdir.

$$\text{Agar } k \rightarrow \infty \text{ bo'lsa, } \frac{1}{(1+i)^k} \rightarrow 0, \text{ u holda } P_L = \sum_{k=1}^{\infty} \frac{R_k}{(1+i)^k} = \frac{R}{i},$$

bu yerda R_k - k -yil rentasi; i - ssudaning bozor foiz stavkasi.

Agar renta 1000 so'm bo'lsa, ssudaning bozor foiz stavkasi 5% bo'lsa, yerning narxi $P_L = \frac{1000}{5\%} = \frac{100000}{5} = 20000$ so'm bo'ladi.

Haqiqatdan qaraganda renta ijarachining yer egasiga to'laydigan ijara haqining bir qismi hisoblanadi. Ijara haqi tarkibiga rentadan tashqari yer ustidagi inshootlarning amortizatsiyasi hamda yerga qo'yilgan kapital foizi kiradi. Yer egasi yer ustiga qandaydir qurilish qilgan bo'lsa yoki inshootlar qurgan bo'lsa, ularning qiymatini qoplashi kyerak, xuddi shunday, agar kapital sarflagan bo'lsa, ushbu kapitalga foiz olishi kyerak. Yer egasi ushbu kapitalni bankga qo'yib foiz olishi mumkin edi.

Misol 1. Fyermner xo‘jaligida bug‘doy etishtirish funksiyasi quyidagi ko‘rinishga ega: $Q = 400 \cdot x - 2 \cdot x^2$.

Q - bug‘doy ishlab chiqarish hajmi yer maydoni x ga bog‘liq. Bir sentner bug‘doyning narxi 20 so‘m. Agar fermerning yer maydoni 30 gektar bo‘lsa, u yer egasiga qancha miqdorda renta to‘laydi? Agar foiz stavkasi bir yilda 10% bo‘lsa, bir gektar yer narxi necha so‘mga teng bo‘ladi?

Yechish. Ma‘lumki, raqobatlashgan bozorda resurs (ya‘ni, yer) narxi uning pulda ifodalangan chekli mahsulotiga teng, ya‘ni $\frac{dQ}{dX} = MP_x = 400 - 4 \cdot X$.

Yerning puldagi chekli mahsuloti: $MRP = 8000 - 80 \cdot X$.

Yer maydoni 30 gektar bo‘lgani uchun

$$MRP = 8000 - 80 \cdot X = 8000 - 80 \cdot 30 = 8000 - 2400 = 5600 \text{ so‘m.}$$

Demak, fermer har bir gektar yer uchun 5600 so‘m renta to‘laydi.

$$\text{Fermerning umumiy daromadi: } R = (400 \cdot X - 2 \cdot X^2) \cdot 20 = 204000.$$

Yer narxi=ijara to‘lovlari/Foiz stavkasi=5600/0,1=56000 so‘m bir gektari uchun.

Misol 2. Yerga talab quyidagi funksiya orqali berilgan: $Q = 200 - 4 \cdot R$, bu yerda Q - foydalaniladigan yer maydoni; R - renta foizi (bir gektariga ming so‘m).

Agar yer hajmi 100 gektar bo‘lsa, muvozanat yer foizi qancha bo‘ladi? Bank foiz stavkasi 125 % bo‘lsa, bir gektar yerning narxi necha so‘m bo‘ladi? Agar davlat maksimal rentani bir gektariga 20000 so‘m qilib belgilasa, ushbu siyosat natijasida yer egasining sof iqtisodiy rentasi qanday o‘zgaradi?

Yechish. Muvozanat renta darajasini muvozanatlik tenglamasidan aniqlaymiz:

$$100 = 200 - 4 \cdot R, \text{ bundan } R = 25000 \text{ so‘m bo‘ladi.}$$

Yer narxini ma‘lum formula bo‘yicha hisoblaymiz:

$$P_L = \frac{\text{renta}}{\text{bank foiz stavkasi}} = \frac{25}{1,25} = 20000 \text{ so‘m bir gektariga.}$$

Agar davlat yer rentasini 3 ming so‘m qilib belgilasa, yerga talab $Q_d = 200 - 4 \cdot 20 = 120$ gektarga teng bo‘ladi.

Demak, yerga talab taklifdan oshib ketadi. Yer egasining sof iqtisodiy rentasi $100 \cdot 25 = 2500$ ming so‘mdan $100 \cdot 20 = 2000$ ming so‘mga tushib ketadi.

Qisqa xulosalar

Kapital - bu uzoq muddatli oraliqda ishlatiladigan ishlab chiqarish resursi bo‘lib, uning yordamida uzoq vaqt davomida mahsulot ishlab chiqariladi.

Kapitalning ikki xil turi mavjud: asosiy kapital (uzoq muddatda foydalaniladigan uskuna, texnologik liniya, bino, qurilma); aylanma kapital (har bir ishlab chiqarish siklida o‘z qiymatini tayyor mahsulot qiymatiga o‘tkazadigan ishlab chiqarish resurslari, xom ashyo, materiallar, yarim fabrikatlar va hokazolar).

Ssuda foizi - kapital egasiga uning kapitalidan ma`lum muddat oralig`ida foydalanganligi uchun to`lanadigan narxdir.

Xarajat va daromadlarni bir xil boshlang`ich vaqtga keltirish hisob-kitoblariga **diskontirlash** deyiladi. Bunday hisob-kitoblar investitsiya loyihalarini baholashda keng qo`llaniladi. Investitsiyalarni tahlil qilganda yillar davomida bo`ladigan xarajatlar bilan loyihadan olinadigan daromadlarni solishtirishga to`g`ri keladi. Kelajakda olinadigan daromadning nafi bugungi kunda olinadigan daromad nafidan kichik bo`ladi. Nima uchun deganda, joriy daromadga (ya`ni, bugungi kundagi daromadga) kelajakda foiz bo`yicha qo`shimcha daromad olish mumkin.

Asosiy kapitalga qo`yilgan investitsiyalar asosan uzoq muddatli bo`ladi. Asosiy kapitalning xizmat qilish, ya`ni undan foydalanish muddati mavjud bo`lib, u chegaralangan bo`ladi. Asosiy kapital xizmat ko`rsatish muddati davomida firma uchun daromad keltiradi.

Bir yildan keyin beriladigan bir so`mning bugungi qiymati qancha bo`ladi? Bu savolga javob - foiz stavkasiga bog`liqdir.

Nazorat va muhokama uchun savollar

1. Kapital bozori va uning asosiy ko`rsatkichlari nimalardan iborat?
2. Asosiy va aylanma kapital bir-biridan qanday farq qiladi?
3. Loyiha, investitsiya va investitsiyalash jarayonlarini xarakterlab byering.
4. Qiymatni diskontirlashning mohiyati va ahamiyati nimada?
5. Sof joriy qiymat qanday aniqlanadi?
6. Bo`lg`usi qiymat qanday aniqlanadi?
7. Inflatsiya darajasi investitsiyalardan olinadigan daromadga ta`sir qiladimi?
8. Yer bozorining o`ziga xos xususiyatlari nimalardan iborat?
9. Yerning narxi qanday hisoblanadi?
10. Absolyut va differensial renta qanday aniqlanadi?

18-bob. KORXONALAR FAOLIYATINI DAVLAT TOMONIDAN TARTIBGA SOLISH

18.1. Iste'molchi va ishlab chiqaruvchi ortiqchaligi


Tovarga narx bozor tomonidan o'rnatiladigan raqobatlashgan bozorda tovarni ishlab chiqaruvchilar bozor narxida (muvozanat narxida) sotadi, shu bozor narxida iste'molchilar tovarni sotib oladi.

Lekin, ayrim iste'molchilar uchun tovarning qiymati uning bozor narxidan ko'ra yuqoriroq. Shuning uchun ham u tovarni bozor narxidan yuqoriroq narxda ham sotib olishi mumkin.

Iste'molchi ortiqchaligi - iste'molchi tomonidan tovarga to'lashi mumkin bo'lgan maksimal narx bilan tovarning haqiqiy narxi o'rtasidagi farqni bildiradi. Aniqroq qilib aytadigan bo'lsak, iste'molchining tovar uchun berishi mumkin bo'lgan maksimal narxdan tovarni sotib olishda to'lanadigan haqiqiy narxning ayirmasiga teng.

Iste'molchi ortiqchaligi (qo'shimcha naf) alohida insonning qanchalik o'rtacha yaxshi yashayotganligini ko'rsatadi.

Iste'molchining umumiy ortiqchaligi bu talab chizig'i bilan bozor narxi chizig'i o'rtasida joylashgan soha (18.1-rasmda shtrixlangan soha).




18.1-rasm. Iste'molchi ortiqchaligi

Iste'molchi ortiqchaligi barcha iste'molchilarning umumiy sof nafini o'lchashga yordam beradi va u yordamida biz bozorni davlat tomonidan muvofiqlashtirilishi samaradorligini, iste'molchi ortiqchaligini umumiy natijasining o'zgarishini o'lchash asosida aniqlashimiz mumkin.

Misol. Faraz qilaylik bir dona apelsinning bozor narxi 500 so'm deylik, lekin iste'molchi ushbu bir dona apelsin uchun 1000 so'm berishga tayyor, ya'ni apelsinning iste'molchi uchun qiymati 1000 so'mga teng.

Iste'molchi ushbu bir dona apelsinni bozor narxida, ya'ni 500 so'mga oladi va u iqtisod qilgan 1000-500 so'm iste'molchi ortiqchaligini bildiradi, iste'molchi qo'shimcha 500 so'mlik naf oladi (18.2-rasm).




18.2-rasm. Umumiy iste'molchi ortiqchaligini grafikda aniqlash

Iste'molchi ikkinchi apelsinni ham sotib oladi, nima uchun deganda, u ikkinchi apelsin uchun berishi mumkin bo'lgan maksimal narx 900 so'm, iste'molchi ortiqchaligi 400 so'mga teng. Xuddi shunday davom etsak 4-apelsin uchun iste'molchi ortiqchaligi 1 so'mga teng, beshinchi apelsinni sotib olishga iste'molchi befarq qaraydi, nima uchun deganda u iste'molchining umumiy ortiqchaligini oshirmaydi. Shunday qilib, iste'molchining iste'molchi ortiqchaligi $500+400+300+200+100=1500$ so'mga teng. Iste'molchining sarfi 2500 ga teng.

Ishlab chiqaruvchi ortiqchaligi ishlab chiqaruvchi tomonidan olingan umumiy manfaatni bildiradi. Bir xil ishlab chiqaruvchilar uchun bir birlik mahsulot xarajatlari bozor narxiga teng bo'lsa, boshqa ishlab chiqaruvchi uchun ushbu xarajatlar bozor narxidan kichikdir. Demak, ishlab chiqaruvchilar ushbu tovarni sotishdan foyda, ya'ni ortiqcha manfaat oladilar. Har bir tovar uchun ushbu ortiqcha manfaat tovarning bozor narxi bilan uni ishlab chiqarishdagi chekli xarajati o'rtasidagi farqqa teng bo'lib, uni ishlab chiqaruvchi oladi. Bu farq bir birlik mahsulotdan oladigan foyda bilan ishlab chiqarishdagi rentani qo'shilganiga teng.

Umuman ishlab chiqaruvchi ortiqchaligi bu barcha ishlab chiqaruvchilar tomonidan olinadigan foydalarning umumiy yig'indisidir. Bozor uchun umumiy ishlab chiqaruvchi ortiqchaligi taklif chizig'idan tortib to bozor narxi chizig'igacha bo'lgan oralqdagi yuzaga teng (18.3-rasm).




18.3-rasm. Ishlab chiqaruvchi ortiqchaligining grafikdagi tasviri

Rasmdagi shtirxlangan uchburchak iste'molchi ortiqchaligini ifodalaydi. Iste'molchi ortiqchaligi ishlab chiqaruvchilarning umumiy sof foydasini o'lchashga yordam berishini e'tiborga olsak, biz bu ko'satkich yordamida davlatning bozorga aralashuvidan olinadigan qo'shimcha foyda yoki zararni iste'molchi ortiqchaligining natijaviy o'zgarishni o'lchash yordamida aniqlashimiz mumkin.

18.2. Iste'molchi va ishlab chiqaruvchi ortiqchaligidan foydalanish

Iste'molchi va ishlab chiqaruvchi ortiqchaligi yordamida davlatning iqtisodiy siyosatini baholash mumkin. Biz oldingi boblarning birida narxlarni davlat tomonidan nazorat qilinishi, ya'ni davlat tomonidan o'rnatiladigan maksimal va minimal narxlar va bu siyosatning iqtisodiy oqibatlari to'g'risida gapirgan edik.

Faraz qilaylik, tovarga davlat tomonidan maksimal narx P_{max} o'rnatildi deylik, ya'ni $P_{max} < P_e$ (P_e muozanat narx) (18.4-rasm).



18.4-rasm. Narx davlat tomonidan nazorat qilinganda iste'molchi va ishlab chiqaruvchi ortiqchaligining grafikdagi tasviri

Maksimal narx o'rnatilganda bir qator ishlab chiqaruvchilar (xarajatlarini maksimal narxda qoplay olmagani uchun) bozordan siqib chiqariladi va ishlab chiqariladigan va sotiladigan mahsulot hajmi Q_e dan Q_1 gacha kamayadi. Tovarni sotib olishni davom ettirayotgan iste'molchilar tovarni past narxda sotib oladilar va ularning iste'mol ortiqchaligi oshadi. Ushbu oshgan ortiqchalik grafikda qo'shshtirxlangan A to'rtburchak yuzi bilan ifodalangan. Lekin bir qator iste'molchilar tovar hajmi qisqargani uchun uni sotib ololmaydilar. Ularning iste'mol ortiqchaligining qisqarganligi shtirxlangan B uchburchak yuziga teng. Demak, iste'molchi ortiqchaligining sof o'zgarishini quyidagicha aniqlash mumkin: $\Delta ist. = A - B$ (1), bu yerda, $\Delta ist.$ - iste'molchi ortiqchaligining sof o'zgarishi.

Rasmdan ko'rinib turibdiki, $A > B$ bo'lgani uchun sof iste'molchi ortiqchaligi musbat $\Delta ist. > 0$.

Endi ishlab chiqaruvchi ortiqchaligini qaraymiz. Bozorda qolib ishlab chiqarishni davom ettirayotgan ishlab chiqaruvchilar bozor narxidan past narxda Q_1 hajmda mahsulot ishlab chiqaradi. Ishlab chiqaruvchilar grafikda ko'rsatilgan A to'rtburchak yuziga teng bo'lgan iste'molchi ortiqchaligini yo'qotadilar.


Bozordan siqib chiqarilgan ishlab chiqaruvchilar tomonidan yo'qotilgan ishlab chiqaruvchi ortiqchaligi esa C uchburchak yuzi bilan ifodalangan. Demak, ishlab chiqaruvchi ortiqchaligining umumiy o'zgarishi teng: $\Delta i/ch = -A - C$ (2), bu yerda, $\Delta i/ch$ - ishlab chiqaruvchi ortiqchaligining sof o'zgarishi.

Maksimal narx o'rnatilganda asosiy yo'qotishlar ishlab chiqaruvchilar zimmasiga to'g'ri keladi. Rasmdan ko'rinib turibdiki, narxni nazorat qilish umumiy yalpi ortiqchalikning ma'lum qismini yo'qotishga olib keladi va ushbu yo'qotishga to'liq yo'qotish deyiladi.

Ortiqchaliklarning umumiy o'zgarishini aniqlash uchun biz iste'mochi ortiqchaligi o'zgarishi $\Delta ist.$ va ishlab chiqaruvchi ortiqchaligi o'zgarishi $\Delta i/ch$ ni qo'shamiz. $\Delta = \Delta ist. + \Delta i/ch = A - B + (-A - C) = A - B - A - C = -B - C$. (3)

Shunday qilib, biz V va S uchburchaklarning yuziga teng bo'lgan to'liq yo'qotishni olamiz. Bu to'liq yo'qotish narxlarni nazorat qilish bilan bog'liq davlatning iqtisodiy siyosatining samarasiz ekanligini ko'rsatadi. Bu yerda ishlab chiqaruvchilar tomonidan yo'qotilgan ortiqchalikning iste'molchilar yutib olgan ortiqchalikdan katta ekanligini ko'rish mumkin.


Agar talab chizig'i juda ham elastik bo'lmaganda narxlarni nazorat qilish ham juda katta yo'qotishga olib kelishi mumkin (18.5-rasm).



18.5-rasm. Narx davlat tomonidan nazorat qilinganda elastik bo'lmagan talabdagi yo'qotishlar

Rasmdan ko'rinib turibdiki, B uchburchak yuzi bozordan siqib chiqarilgan iste'molchilarning yo'qotishlari bo'lib, bu bozorda qolib tovarni sotib olish huquqiga ega bo'lgan iste'molchilarning yutug'ini ifodalovchi A to'rtburchak yuzasidan katta.

Bu yerda bozordan siqib chiqarilgan iste'molchilar katta yo'qotishga ega. Endi faraz qilaylik davlat tomonidan minimal narx P_{min} o'rnatildi deylik ($P_{min} > P_e$, P_e - muvozanat narx), ya'ni davlat narxni muvozanat narxidan yuqori qilib belgilanadi (18.6-rasm).



18.6-rasm. Narx muvozanat narxidan yuqori belgilangandagi ishlab chiqaruvchilar va iste'molchilarning yo'qotishlari

Rasmdan ko'rish mumkinki ishlab chiqaruvchilar narx oshganda Q_e nisbatan ko'proq Q_1 mahsulotni ishlab chiqarishga harakat qiladi. Iste'molchilar kamroq (Q_e o'rniga Q_2 miqdorda) mahsulot sotib olishga harakat qiladi. Agar biz ishlab chiqaruvchilar bozorda qancha mahsulot sotilsa shuncha mahsulot ishlab chiqaradi, deb faraz qilsak, bozorga ishlab chiqarilgan mahsulot miqdori Q_2 ga teng bo'ladi va bu yerda ham ishlab chiqaruvchilar va iste'molchilar ortiqchaligi yo'qotiladi. Bu yerda A to'rtburchakning yuzi ishlab chiqaruvchilarning olgan qo'shimcha ortiqchaligini ifodalaydi. Lekin, minimal (P_{min}) narxda mahsulotni hajmi Q_e miqdordan Q_2 ga qisqargani uchun ishlab chiqaruvchi ortiqchaligining bir qismi yo'qotiladi. Natijada ishlab chiqaruvchi ortiqchaligining o'zgargan qismi quyidagiga teng: $\Delta i/ch. = A - C$, (4).

Iste'molchilar minimal (P_{min}) narxda har bir mahsulot uchun muvozanat narxdan yuqori narx to'laydi va natijada ularning iste'mol ortiqchaligiga rasmdagi A to'rtburchak yuziga teng bo'lgan miqdorda kamayadi. Narx oshganligi munosabati bilan ba'zi bir iste'molchilar ushbu bozordan chiqib ketadi va tovarni sotib ololmaydilar va bunga mos bo'lgan ortiqchalikni yo'qotadi. Bu yo'qotish rasmda B uchburchak bilan ifodalangan. Demak, iste'molchilarning ortiqchaligining umumiy o'zgarishi quyidagini tashkil qiladi:


$$\Delta_{ист.} = -A - B, (5).$$

Ko'rinib turibdiki, bunday siyosat iste'molchilarning turmush darajasini tushurib yuboradi.

(4)- va (5)- ifodalarni qo'shib umumiy ortiqchalikdagi o'zgarishni aniqlaymiz: $\Delta = \Delta i/ch. + \Delta_{ист.} = \Delta = \Delta i/ch. + \Delta_{ист.} = A - C + (-A - B) = -C - B$ (6)

Demak, davlat tomonidan minimal narx oʻrnatilganda umumiy toʻliq yoʻqotish vujudga keladi va u ikkita C va B uchburchaklar yuzalarining yigʻindisi bilan ifodalanadi.

Endi biz ishlab chiqaruvchilar ortiqchaligini ishlab chiqarish Q_e miqdordan Q_1 miqdorga kengaytirilganda qarab chiqamiz. Haqiqatdan ham minimal narx muvozanat narxdan yuqori boʻlganda u ishlab chiqaruvchilarni Q_1 miqdorga mahsulot ishlab chiqarishga undaydi. Lekin, ular bozorda faqat Q_2 hajmdagi mahsulotni sotishi mumkin xolos. Ular $\Delta 0 = Q_1 - Q_2$ miqdordagi mahsulotni ishlab chiqarishga ketgan xarajatlarni qoplaydigan daromadni ola olmaydi (18.7-rasm). Rasmda ushbu xarajatlarni shtrixlangan D trapetsiya yuzi bilan ifodalangan.




18.7-rasm. Minimal narx oʻrnatilishi natijasidagi yoʻqotishlar grafigi

Natijada ishlab chiqaruvchilarning ortiqchaligi oʻzgarishi quyidagiga teng: $\Delta W/\text{ч.} = A - C - D$. Demak, ishlab chiqaruvchilar Q_1 oraliqda mahsulot ishlab chiqarsa, umumiy yoʻqotish yanada ortadi va u $(-B - C - D)$ yuzani tashkil qiladi.

Bunday holda har bir ishlab chiqaruvchi oʻz mahsulotining hammasining yuqori narxda sotaman deb oʻylaydi. Pirovardda davlat tomonidan oʻrnatilgan minimal narx siyosati ortiqcha mahsulot ishlab chiqarish uchun ketgan xarajatlarni qoʻlamaganligi sababli, ishlab chiqaruvchilarning foydasini ancha qisqartirib yuborish mumkin. Yana bitta misol tariqasida mehnat bozorini qaraylik.

Maʼlum mehnat bozorida ishchi kuchi bahosi bu ish haqi. Davlat tomonidan minimal ish xaqi (W_{\min}) belgilandi deylik. 10.8-rasmda taklif chizigʻi ishchi kuchi taklifini, talab chizigʻi - ishchi kuchiga talabni ifodalaydi. Davlat tomonidan oʻrnatilgan minimal ish haqi W_{\min} mehnat resurslari bozoridagi muvozanat ish haqi W_e dan katta, yaʼni $W_{\min} > W_e$.

Ushbu siyosat natijasida ish joyi topgan ishchilar (rasmda L_1 ishchi) yuqori ish haqi oladi. Lekin, $\Delta L = L_2 - L_1$ miqdoridagi ishchilar ish topa olmaydilar va ishsiz qoladilar. Demak, bunday siyosat ishsizlikka olib kelishi mumkin.




18.8-rasm. Minimal ish haqi grafigi

Barqaror narxni ta`minlash va ishlab chiqarish hajmini cheklash siyosati. AQSh va Evropa davlatlarida minimal narxni o`rnatishdan tashqari, narxlarni barqarorlashtirishda ishlab chiqarish hajmini qisqartirishni yoki ishlab chiqarishni chekli rag`batlantirish siyosatlarini qo`shib olib boradi. Ayniqsa, bunday siyosat AQShda qishloq xo`jaligi tizimi qo`llanadi.

Barqaror narxlarni ushlab turish. Rivojlangan davlatlarda barqaror narx ko`pincha sutga, tamaki va donga qo`llaniladi, bundan maqsad, ushbu tovarlarni ishlab chiqaruvchilarning daromadlarini etarli darajada bo`lishini ta`minlash.

Bunda davlat mahsulotga narxni P^* darajada belgilab, uni shu darajada bo`lishini ta`minlash uchun kerakli hajmdagi mahsulotni sotib oladi (18.9-rasm).



18.9-rasm. Narxni barqaror bo`lishini ta`minlash

Narx P^* darajada o`rnatiladigandan keyin iste`mol talabi Q_0 dan Q_1 ga pasayadi, taklif esa Q_2 ga qadar oshadi. P^* narxni ushlab turish uchun va omborlarda tovar

zahiralarini to'planishini oldini olish uchun davlat ortiqcha $\Delta Q = Q_2 - Q_1$ miqdordagi tovarni sotib olishi kerak. Iste'mol talabi davlat talabi ΔQ qo'shiladi va ishlab chiqaruvchilar barcha mahsulotni P^* narxda sotish mumkin bo'ladi.

Tovarni sotib oluvchi iste'molchilar tovarni P_e ga nisbatan qimmatroq P^* narxda sotib oladilar va ular o'zlarining iste'molchi ortiqchaligini A to'rtburchak yuziga teng bo'lgan qismini yo'qotadilar (18.9-rasm). Iste'molchilarning boshqa bir qismi tovarni sotib ola olmaydilar va ularning yo'qotishi B uchburchak yuzi bilan ifodalanadi, natijada iste'molchilarning umumiy yo'qotishi $\Delta \text{ИСТ}$. quyidagiga teng bo'ladi: $\Delta \text{ист.} = -A - B$.

Boshqa tomondan qaraganda, ishlab chiqaruvchilar yutib chiqadi. Siyosatning maqsadi ham shundan iborat edi. Ishlab chiqaruvchilar Q_0 ga nisbatan ko'proq, ya'ni Q_2 miqdordagi mahsulotni yuqoriroq bo'lgan P^* narxda sotadilar. Ishlab chiqaruvchilarning ortiqchaligi ($\Delta \text{И/Ч}$) quyidagi miqdorga oshadi: $\Delta \text{И/Ч} = A + B + E$.

Endi davlatning xarajatlari $(Q_2 - Q_1) \cdot P^*$ ga teng, ya'ni bu davlat tomonidan sotib olingan tovar summasi. Bu xarajat ham pirovardida iste'molchi yo'qotishiga qo'shiladi, nima uchun deganda u soliqlar hisobidan to'lanadi. 18.9-rasmda davlatning xarajati $Q_0 Q_2 F_2 F_1$ katta to'rtburchak bilan ifodalangan. Davlatning ushbu xarajatlari kamayishi mumkin, agar u sotib olgan mahsulotining bir qismini chetga (odatda past narxda) sotsa. Lekin, bu davlat ichidagi ishlab chiqaruvchilarning o'z mahsulotini chetga chiqarib sotish imkoniyatini cheklaydi.

Bunday siyosatning aholi turmush darajasiga ta'sirini baholash uchun biz iste'molchi ortiqchaligidagi va ishlab chiqaruvchi ortiqchaligidagi natijaviy o'zgarishlarni qo'shib, undan davlat xarajatini ayiramiz:

$$\Delta \text{ист} + \Delta \text{И/Ч} - (Q_2 - Q_1) \cdot P_* = -A - B + A + B + E - (Q_2 - Q_1) \cdot P_* = E - (Q_2 - Q_1) \cdot P_*,$$

yoki $E - S_{Q_1 Q_2 F_2 F_1}$.

Demak, bunday siyosatda jamiyat o'z faravonligining bir qismini yo'qotadi. 18.9-rasmda ushbu yo'qotish shtrixlangan soha yuzasi bilan ifodalanadi. Ko'rinib turibdiki, bunday siyosat juda katta jamiyat yo'qotishlari bilan bog'liq.


Siyosatning asosiy maqsadi fermerlar daromadini oshirish bo'lsa, bundan samaraliroq yo'l bormi, degan savolni qo'yadigan bo'lsak, unga bor, deb javob berish mumkin.

Fermerlarning daromadini $A+B+E$ miqdorga oshirishni jamiyatni kamroq yo'qotishi orqali amalga oshirish yo'li bu ushbu $A+B+E$ pulni to'g'ridan-to'g'ri fermerlarning o'ziga berishdir. Iste'molchilarning narxni barqarorlashtirishdagi yo'qotishi bari bir $A+B$ ga teng bo'lgani uchun, fermerlarga ushbu pul bevosita berilsa, jamiyat 18.9-rasmda shtrixlangan yuzaga teng bo'lgan mablag'ni iqtisod qilishi mumkin.

Ishlab chiqarishni cheklash (ishlab chiqarish kvotasi). Davlatning bozor narxiga ta'sir qilish siyosatidan biri bu - mahsulot ishlab chiqarish hajmini cheklash orqali mahsulot narxini kerakli darajagacha ko'tarish mumkin. Davlat har bir firmaning mahsulot ishlab chiqarish hajmini qonun chiqarish orqali belgilashi (kvotalashi) mumkin. Biror mahsulotni ishlab chiqarish yoki sotish bo'yicha litsenziyaning davlat tomonidan berilishi, shunday siyosatni yuritishga misol bo'lishi mumkin. Masalan, spirtli

ichimliklarni sotishga beriladigan litsenziyalarni ko'paytirish yoki kamaytirish orqali spirtli ichimlikni sotish hajmini oshirish yoki qisqartirish mumkin. Sotish hajmining qisqarishi tovar narxini kerakli darajaga oshirish imkonini beradi.

Yana AQSh davlatining qishloq xo'jaligi siyosati qaraymiz. AQSh davlatining qishloq xo'jaligi siyosati ko'proq mahsulot ishlab chiqarishni qisqartirishni rag'batlantirishga qaratilgan. Fermerlar ekin ekish maydonining qisqatirsalar, ya'ni ekin maydonlarining bir qismi ekilmasdan qoldirilsa, shunga yarasha pul kompensatsiyasini oladilar. Ekin maydonlarini qisqartirish hisobidan narxni oshirish mexanizmini quyidagi 18.10-rasmda keltirilgan.



18.10-rasm. Ekin maydonlari cheklanganda taklif chizig'i (taklif chizig'i S elastik emas bo'lgani uchun u gorizotal ko'rinishda)

Shuni ta'kidlash mumkinki ekin maydonlari cheklanganda taklif chizig'i absolyut elastik bo'lmay qoladi, ya'ni taklif Q_1 ga teng bo'lib, u o'zgarmaydi, mahsulotning bozor narxi esa P_e dan P^* ga ko'tariladi.

Bunday siyosatda iste'molchi ortiqchaligining o'zgarishi quyidagicha teng:
 $\Delta \text{ист.} = -A - B.$

Fermerlar Q_1 miqdorda mahsulot ishlab chiqarib, uni yuqori P_* narxda sotadi. Natijada fermerlar ortiqchaligi A to'rtburchak yuziga teng miqdorda oshadi. Lekin, ishlab chiqarish hajmi Q_e dan Q_1 ga qisqargani uchun fermerlar S uchburchak yuziga teng bo'lgan ortiqchalikni yo'qotadi. Bulardan tashqari, fermerlar ekin maydonini (ishlab chiqari hajmini Q_1 ga) qisqargani uchun davlatdan pul kompensatsiyasi oladi. Shunday qilib, ishlab chiqaruvchilar ortiqchaligining umumiy o'zgarishini quyidagicha aniqlash mumkin: $\Delta i/ch = A - C + \text{pul kompensatsiyasi}$

Davlat xarajatlari, ya'ni femerlarga to'lanadigan rag'batlantirish (kopensatsiya) puli kamida $B+C+E$ ga teng bo'lish kerak. Bu yerda $B+C+E$ fermerlar ekin erlarini qisqartirmaganda qo'shimcha mahsulot ishlab chiqarib, uni yuqori P_* narxda sotishi natijasida olish mumkin bo'lgan qo'shimcha foydaga teng. Shuning uchun ham davlat xarajatlari kamida $B+C+E$ ni tashkil qiladi va u fermerlarga pul

kompensatsiyasi tariqasida berilgani uchun ishlab chiqaruvchilar ortiqchaligi quyidagicha bo‘ladi: $\Delta i/ch = -A - C + B + C + E = A + B + E$.

Ushbu ishlab chiqaruvchi ortiqchaligining o‘zgarishi davlatning narxlarni mahsulotning bir qismini sotib olish hisobidan barqaror bo‘lishini ta‘minlash siyosatidagi ortiqchalik o‘zgarishining o‘zi. Iste‘molchilarga ham buni farqi yo‘q, nima uchun deganda, ular ikkala siyosatda ham bir xil yo‘qotishga ega. U ikkala siyosatdan qaysi biri davlat uchun qimmatroq bo‘lishiga qaraymiz. Bu yerda 18.10-rasmdagi uchburchaklar yuzalari yig‘indisi $B + C + E$ 18.9-rasmdagi $[(Q_2 - Q_1) \cdot P^* - E]$ yuzadan kichik bo‘lgani uchun ham davlatning ekin ekiladigan erlarni cheklash siyosati, ortiqcha mahsulot sotib olish asosida narxlar barqarorligini ta‘mirlash siyosatidan ekanligi kelib chiqadi.


Ekiladign erlarni cheklash siyosatidagi jamiyat farovonligining o‘zgarishi quyidagiga teng: $\Delta \text{jamiyat farovonligining o‘zgarishi} = \Delta \text{ist} + \Delta i/ch - \text{davlat xarajatlar}$ $i = -A - B + A + B + E - B - C - E - B - C$, bu yerda davlat xarajati = $B + C + E$.

Agar davlat fermerlarga $A + B + E$ pulni bevosita berib narx va ishlab chiqarish hajmiga ta‘sir qilmasa, jamiyat bunday siyosatdan aniq yutadi. Bunday holatda fermerlar $A + B + E$ foydani oladi, davlat $A + B + E$ miqdorda yo‘qotadi va jamiyatning umumiy farovonligi o‘zgarishi nolga teng bo‘ladi.

18.3. Soliqni uzoq va qisqa muddatli ta‘siri

Soliqni alohida firma faoliyatiga ta‘sirini qaraymiz. Faraz qilaylik, soliq firmaning ishlab chiqarish hajmidan olinadi va u mahsulot narxiga ta‘sir qilmaydi.

Biz ko‘ramizki, ishlab chiqarish hajmiga qo‘yilgan soliq firmani ishlab chiqarish hajmini qisqartirishga undaydi (18.11-rasm).




18.11-rasm. Raqobatlashuvchi firmaning ishlab chiqarish hajmiga soliqning ta‘siri

Rasmdan ko‘rish mumkinki, qisqa muddatli oraliqda musbat iqtisodiy foyda bilan ishlayotgan firma q_1 hajmda mahsulot ishlab chiqarib P_1 bozor narxida sotadi. Soliq har bir ishlab chiqarilgan mahsulot birligiga qo‘yilganligi


uchun, u firmaning chekli xarajatini MC_1 dan $MC_2 = MC_1 + t$ (t - bir birlik mahsulotga qo'yilgan soliq) holatga siljitadi. Soliq xuddi shunday o'rtacha o'zgaruvchan xarajatni ham t miqdorga yuqoriga siljitadi.

Endi faraz qilaylik, tarmoqdagi barcha firmalar soliqqa tortilgan. Majud bozor narxida har bir firma o'z ishlab chiqarish hajmini qisqartirgani uchun tarmoqning ham yalpi mahsuloti qisqaradi va bu bozor narxining oshishga sabab bo'ladi (18.12-rasm).



18.12-rasm. Soliqni tarmoq ishlab chiqarish hajmiga ta'siri.

Rasmdan ko'rish mumkinki, tarmoqning umumiy taklifini S_1 dan $S_2 = S_1 + t$ holatga siljishi bozor narxini P_1 dan P_2 ga o'stiradi. Narxning oshishi, firmalarni ishlab chiqarish hajmini narx o'zgarmagandagiga nisbatan kamroq qisqartirishga undaydi. Uzoq muddatli oraliqni qaraydigan bo'lsak, ishlab chiqarish hajmiga qo'yilgan soliq ba'zi bir firmalarni biznesdan chiqishga majbur qiladi (18.13-rasm).



18.13-rasm. Tarmoq ishlab chiqarish hajmiga soliqning uzoq muddatli ta'siri

a) rasmdan ko‘rish mumkinki, soliq har bir firmaning uzoq muddatli oraliqdagi o‘rtacha xarajatini siljishga olib keladi. Bu o‘z navbatida ba‘zi bir xarajatlari yuqori bo‘lgan firmalar foydasini qisqartirib nolga tenglashtiradi. Ular bu tarmoqdan chiqib boshqa, ko‘proq foyda oladigan tarmoqlarga o‘ta boshlaydi. Natijada bu bozor taklifi chizig‘ini chapga (b rasm) yuqoriga siljitadi (S_1 dan S_2 holatga) va xarajatlr oshganinin ko‘rsatadi. Bozor narxi P_1 dan P_2 ga o‘sadi, bozor taklifi esa Q_1 dan Q_2 ga kamayadi. Soliq ta‘siri tugagandan keyin, ya‘ni tarmoqda yangi uzoq muddatli muvozanat ($E2$ nuqta) vujudga kelganda tarmoqda kamroq mahsulot ishlab chiqaruvchi kamroq firma qoladi.

18.4. Raqobatlashgan bozor samaradorligi

Biz ko‘rdikki davlatning bozor mexanizmiga aralashuvi jamiyatda to‘liq yo‘qotishga olib keladi. Shuning uchun ham davlat o‘zining iqtisodiy siyosatini shlab chiqqanda to‘liq yo‘qotishlarni hisob-kitobdan chetda qoldirmasligi kerak. Lekin, bundan davlatning raqobatlashgan bozorga aralashuvi har doim ham yo‘qotishlarga olib kelaveradi, deb bo‘lmaydi. Quyidagi ikki holda davlatning aralashuvi raqobatlashgan bozorda iste‘molchilar va ishlab chiqaruvchilarning turmush darajasini o‘sishga olib keladi.


Birinchidan, iste‘molchilar va ishlab chiqaruvchilarning harakati natijasida vujudga keladigan yutuq yoki yo‘qotish bozor narxida o‘z ifodasini topmasa. Bunday yo‘qotish yoki yutuqlar bozorga nisbatn tashqi samara deyiladi, nima uchun deganda, ular bozorga nisbatan tashqarida ro‘y beradi. Bozorga nisbatan tashqi samaraga misol qilib ishlab chiqaruvchilar tomonidan atrof-muhitni zaharlash natijasida vujudga keladigan jamiyat xarajatlarini keltirish mumkin. Ushbu xarajatlarni faqat davlatning aralashuvi orqali bartaraf qilish mumkin (bu masalaga keyingi boblarning birida batafsil to‘xtaymiz).

Ikkinchidan “bozor qiyinchiligi” - bu yerda mahsulotning sifati, kim tomonidan, qachon ishlab chiqarilganligi to‘g‘risida axborotning to‘liq bo‘lmasligi, iste‘molchilarni ortiqcha yo‘qotishlarga olib kelishi mumkin, ya‘ni iste‘molchi naflikni maksimallashtiradigan tovarlarni sotib olish bo‘yicha to‘g‘ri qaror qilolmasligi mumkin. Bunday holda davlatning aralashuvini (tovarlar yorlig‘ida tovar to‘g‘risida to‘liq axborot bo‘lishni davlat tomonidan talab qilinishi) samarali deb qarash mumkin.

Raqobatlashgan bozorning muvozanat holatda ishlashi iste‘molchi va ishlab chiqaruvchi ortiqchaligini maksimal bo‘lishini ta‘minlaydi, demak, muvozanat holatda iste‘molchilr o‘z talabini mavjud ishlab chiqarish xarajatlarida mumkin bo‘lgan eng past narxda qondiradi. Raqobatlashgan bozor samaradorligi ishlab chiqarishni ta‘minlaydi.

Uzoq muddatli oraliqda raqobatlashgan bozorning muvozanat holati sharti quyidagicha tenglik bilan ifodalanadi: $MR=MC=AC=P$ (18.14-rasm).

Ma'lumki qisqa muddatli oraliqda, raqobatlashgan bozor sharoitida firma ortiqcha foyda olishi yoki zarar ko'rishi mumkin. Lekin, uzoq muddatli oraliqda bunday holat istisno qilinadi, nima uchun deganda, tarmoqqa kirish, undan chiqish erkin bo'lganda, tarmoqdagi yuqori foyda boshqa firmalarni o'ziga jalb qiladi, tarmoqdagi zarar bilan ishlaydigan firmalar boshqa tarmoqqa o'tadilar.



18.14-rasm. Raqobatlashgan firmaning uzoq muddatli oraliqdagi muvozanat holati

Raqobatlashgan bozor cheklangan resurslarni optimal taqsimlashga yordam beradi va natijada iste'molchilarning ehtiyojlarini maksimal darajada qondirishga erishiladi. Bunday taqsimlanish $P = MC$ shartida ta'minlanadi. Firmalar ushbu shartga ko'ra ishlab chiqarishni narx chekli xarajatga teng bo'lgan qadar mumkin darajada maksimallashtiradilar. Ushbu shart bajarilganda nafaqat resurslarni samarali taqsimlashga erishiladi, balki maksimal ishlab chiqarish samaradorligiga ham erishiladi. Raqobatlashgan bozor firmalarni minimal xarajatlarda mahsulot ishlab chiqarishga va uni ushbu xarajatlarga mos bo'lgan narxda sotishga majbur qiladi. Muvozanat holat grafigidagi o'rtacha xarajat grafigi talab chizig'iga urinadi xolos.

Agar $AC > P$ bo'lsa, firma zarar ko'radi va tarmoqdan ketishga majbur bo'ladi. Agar $AC < P$ bo'lsa, bozorda qisqa muddatli oraliqda ortiqcha foyda olish ikoniyati tug'iladi. Lekin, bu ortiqcha foyda tarmoqqa boshqa firmalarni kirib kelishiga sabab bo'ladi. Boshqa firmalarning kirib kelishi ortiqcha foydani nolga tushiradi. Bu o'z navbatida muvozanat holatni uzoq muddatgacha turg'un saqlanishidan dalolat beradi.

Raqobatlashgan bozorda va muvozanat holat sharoitida raqobatlashvchi tarmoqqa qarashli firmalar xarajatlari bir xil deb qaraladi. Lekin, biz bilamizki ba'zi bir firmalar sifatli xom ashyoda ishlaydi, boshqalari zamonaviyroq va samaraliroq uskunada va texnologiyada ishlaydi, yana boshqasi yuqori malakali kadrlar bilan ishlaydi. Umuman olganda ikkita bir xil firmaning o'zi bo'lmaydi. O'z-o'zidan ravshanki, sifatli resurslar bilan ishlaydigan firmalarning xarajatlari boshqalarnikiga qaraganda kam bo'ladi.

Bu holatni raqobatlashgan bozordagi firmalarning o'rtacha xarajatlari bir xil bo'ladi, degan shart bilan mos kelishini iqtisodda quyidagicha tushuntiradi: ya'ni sifatli resurs egalari o'z resurslari uchun ko'proq ish xaqi oladi, mukammallashgan samarali uskunalarning ijara haqi ham yuqori bo'ladi. Iqtisodiy renta - bu raqobatlashgan bozorda kerakli resurs uchun firma to'lashi mumkin bo'lgan narx bilan ushbu resursning minimal narxi o'rtasidagi farq. Masalan, o'rtacha xom ashyodan foydalanib ishlab chiqarilgan har bir mahsulot 10 so'm keltirsin, cheklangan sifatli xom ashyodan foydalanib ushbu mahsulotni ishlab chiqarganda (xarajatlarning kamayishi va mahsulot sifatini oshishi hisobiga) har bir mahsulotdan oladigan foyda 20 so'mni tashkil qilsin, deylik. Sifatli resursni hamma firmalar ham sotib olishga harakat qiladi. Lekin, sifatli resurs cheklangan bo'lgani uchun hamma firmalar sotib ola olmaydi. Agar sifatli xom ashyo raqobatlashgan bozorda sotilsa, uning narxi o'rtacha xom ashyo narxidan albatta yuqori bo'ladi. Agar o'rtacha xom ashyo narxi P_1 va sifatli xom ashyo narxi P_2 ($P_2 > P_1$) bo'lsa. Sifatli xom ashyo egasi $\Delta P = P_2 - P_1$ ga teng bo'lgan iqtisodiy renta oladi. Natijada mahsulot ishlab chiqaruvchi firmalarning o'rtacha xarajati bir-biriga teng bo'ladi.

Shunday qilib, samarali resurslardan foydalanib olingan barcha foyda ushbu resurslarni sotib olishga sarflanadi. Ushbu holat raqobatlashgan bozordagi firmalarning o'rtacha xarajatlari tenglashish tendentsiyasiga ega ekanligini ko'rsatadi.

Qisqa xulosalar

Iste'molchi ortiqchaligi - iste'molchi tomonidan tovarga to'lashi mumkin bo'lgan maksimal narx bilan tovarning haqiqiy narxi o'rtasidagi farqni bildiradi. Aniqroq qilib aytadigan bo'lsak, iste'molchining tovar uchun berishi mumkin bo'lgan maksimal narxdan tovarni sotib olishda to'lanadigan haqiqiy narxning ayirmasiga teng.

Ishlab chiqaruvchi ortiqchaligi ishlab chiqaruvchi tomonidan olingan umumiy manfaatni bildiradi. Bir xil ishlab chiqaruvchilar uchun bir birlik mahsulot xarajatlari bozor narxiga teng bo'lsa, boshqa ishlab chiqaruvchi uchun ushbu xarajatlar bozor narxidan kichikdir.

Davlatning bozor narxiga ta'sir qilish siyosatidan biri bu - mahsulot ishlab chiqarish hajmini cheklash orqali mahsulot narxini kerakli darajagacha ko'tarish mumkin. Davlat har bir firmaning mahsulot ishlab chiqarish hajmini qonun chiqarish orqali belgilashi (kvotalashi) mumkin. Biror mahsulotni ishlab chiqarish yoki sotish bo'yicha litsenziyaning davlat tomonidan berilishi, shunday siyosatni yuritishga misol bo'lishi mumkin.

Raqobatlashgan bozorning muvozanat holatda ishlashi iste'molchi va ishlab chiqaruvchi ortiqchaligini maksimal bo'lishini ta'minlaydi, demak, muvozanat holatda iste'molchilr o'z talabini mavjud ishlab chiqarish xarajatlarida mumkin bo'lgan eng past narxda qondiradi. Raqobatlashgan bozor cheklangan resurslarni

optimal taqsimlashga yordam beradi va natijada iste'molchilarning ehtiyojlarini maksimal darajada qondirishga erishiladi.

Nazorat va muhokama uchun savollar

1. Davlatning iqtisodiy siyosati deganda nimani tushunasiz?
2. Davlatning iqtisodiy siyosatini baholashda iste'molchi va ishlab chiqaruvchi ortiqchaligidan qanday foydalanish mumkin?
3. Ishlab chiqarish hajmini cheklash qanday oqibatlarga olib keladi?
4. Ishlab chiqarishga soliqni uzoq va qisqa muddatli ta'sirini izohlab bering.
5. Bozor qaysi holatda samarali faoliyat ko'rsatadi?
6. Ishlab chiqarishni kvotalash tovar narxiga qanday ta'sir ko'rsatadi?
7. Barqaror narxlarni ta'minlashda davlatning roli.
8. Talab chizig'i elastikligining jamiyat yo'qotishiga ta'siri.

19-bob. MAKROIQTISODIYOTGA KIRISH

19.1. “Makroiqtisodiyot” fanining shakllanishi tarixi, predmeti va obykti

Makroiqtisodiyot atamasi kundalik foydalanishga nisbatan yaqindagina kiritilgan bo'lsada makroiqtisodiy tahlil elementlari iqtisodiyot fani bilan deyarli birga paydo bo'ldi. Mamlakat iqtisodiyoti rivojlanishini yaxlit bir jarayon sifatida tadqiq qilish, unga turli elementlarining o'zaro bog'liqligi va o'zaro ta'siri xos bo'lgan tizim sifatida yondoshish dastlab F. Kene asarlarida uchraydi. Fransiya qiroli Lyudovik XV saroyi vrachi F.Kene 1758 yilda, milliy mahsulot ishlab chiqarish jarayoni pul oqimlarining doiraviy aylanishi sifatida tasvirlangan “Kene jadvali” ni tuzishda ilk bor makroiqtisodiy tahlil elementlarini qo'lladi.

Makroiqtisodiy tahlilning tamal toshlari, shuningdek, J.B.Sey, L.Valras, V.Pareto va boshqa olimlar tomonidan XIX asrdanoq qo'yilgan edi deb ta'kidlash mumkin. Keyinchalik, K.Marks o'zining jami ijtimoiy mahsulot(JIM)ni takror ishlab chiqarish sxemasi, V.Leontev esa o'zining tarmoqlararo balansi bilan makroiqtisodiyotni iqtisodiy nazariyaning alohida bo'limi sifatida ajralib chiqishi uchun mustahkam asos yaratishdi. J.M. Keynes esa o'zining “Ish bilan bandlilik, foiz va pulning umumiy nazariyasi”(1936 yil) asari bilan bu jarayonni mantiqiy yakuniga etkazdi. Shu sababli ham J.M. Keynes makroiqtisodiyot fanining asoschisi sifatida tan olinadi.

Shunday qilib, makroiqtisodiyot o'z predmeti va tadqiqot usullariga ko'ra mustaqil fan sifatida XX asrning o'rtalariga kelib shakllanib bo'ldi.

Makroiqtisodiyot umumiy iqtisodiy nazariyaning bo'limi hisoblanib, unda milliy xo'jalik darajasida iqtisodiyotning fundamental muammolari tadqiq qilinadi.

Makroiqtisodiy nazariyaning ikki ko'rinishi o'zaro farqlanadi:

- a) pozitiv makroiqtisodiyot;
- b) normativ makroiqtisodiyot.

Pozitiv makroiqtisodiyot real iqtisodiy hodisalarni va ularning aloqadorliklarini o'rganadi.

Normativ makroiqtisodiyot esa qaysi sharoitlar yoki jihatlar maqbul yoki nomaqbul ekanligini belgilaydi, harakatning aniq yo'nalishlarini taklif etadi.

Shu joyda iqtisodiy nazariyaning ikki mustaqil bo'limi sifatida makroiqtisodiyot va mikroiqtisodiyot fanlarining predmetlarini o'zaro farqlab olishimiz zarur.

Mikroiqtisodiyot predmeti bo'lib “belgilangan” iqtisodiy shart- sharoitlarda uy xo'jaliklari va firmalar darajasida iqtisodiy qaror qabul qilish mexanizmi

hisoblanadi¹⁸. Mikroiqtisodiy tahlil obyekti bo'lib alohida tovarlar bozorlari, resurslar bozorlari, ulardagi talab va taklif hisoblansa makroiqtisodiyotda milliy iqtisodiyot darajasida mehnat, pul, tovarlar va xizmatlar bozorlarining o'zaro munosabatlari va o'zaro ta'sirini tahlil qilinadi. Mikroiqtisodiyotda "belgilangan" deb qabul qilingan, ya'ni mikroiqtisodiy tadqiqot predmeti hisoblanmaydigan ko'pgina ko'rsatkichlar, jumladan iste'molchilarning daromadlari, jamg'armalari, foiz stavkasining dinamikasini va buni belgilovchi omillarni makroiqtisodiyot tadqiq qiladi.

Makroiqtisodiyot yalpi ishlab chiqarishining barqaror o'sishini, resurslarning to'liq bandligini, inflatsiyaning past sur'atlarini va to'lov balansining muvozanatini ta'minlash nuqtai nazaridan mamlakat iqtisodiyotini bir butun holda tadqiq qiladi va uni makroiqtisodiy tartibga solishning iqtisodiy mexanizmlarini o'rganadi¹⁹.

Keltirilgan ta'rifdan ko'rinib turibdiki makroiqtisodiyot predmetida o'zaro bog'liq uch jihatni ajratib ko'rsatish mumkin. Bular:

- 1) milliy iqtisodiyot;
- 2) davlat tomonidan iqtisodiy siyosati yuritish va iqtisodiyotni tartibga solish;
- 3) jahon xo'jaligi doirasida milliy iqtisodiyotni boshqa mamlakatlar iqtisodiyoti bilan o'zaro munosabatlari masalasi.

1.1-jadvalda keltirilgan iqtisodiy nazariyaning ikki qismida ko'riladigan masalalar ro'yxati mikroiqtisodiyot va makroiqtisodiyot fanlari predmetlarini yaxshiroq farqlab olishga yordam beradi. Nisbatan mustaqil bo'lgan bu ikki fanning iqtisodiy hodisalar va qonuniyatlar to'g'risidagi xulosalari bir birini to'ldirib turadi.

Uy xo'jaliklari, firmalar, davlat va tashqi dunyo makroiqtisodiyot sub'ektlari hisoblanidilar.

Bu sub'ektlar orasida davlatning roli bahsli masala hisoblanib kelmoqda. Keynschilar bozor tizimi mexanizmlarining iqtisodiyotni barqaror o'sishini ta'minlashga doim ham qodir emas va davlatning iqtisodiyotga aralashuvi zarur deb hisoblashisha iqtisodiy nazariyaning klassik maktabi namoyondalari bunday aralashishga qarshi fikrlar bildirishadi.

Bugungi kunga kelib ko'pchilik mamlakatlarda davlatning iqtisodiyotdagi roli sezilarli darajada katta ekanligini hisobga olsak, davlatning iqtisodiy rivojlanish strategiyasini belgilash, bozor mexanizmlariga putur etkazmagan holda iqtisodiyotni tartibga solishi muhim ekanligiga iqror bo'lamiz.

Davlat makroiqtisodiyotning boshqa sub'ektlari hatti-harakatini belgilovchi omillarni hisobga olgan holda, barqaror iqtisodiy rivojlanishni ta'minlash maqsadida, o'z tasarrufida mavjud bo'lgan vositalar orqali ularni yo'naltirib turadi.

¹⁸ N. Gregory Mankiw. Macroeconomics. 8 th edition. Harvard University. (NY.: Worth Publishers, 2013): 13

¹⁹ N. Gregory Mankiw. Macroeconomics. 8 th edition. Harvard University. (NY.: Worth Publishers, 2013): 15

Iqtisodiy nazariyaning asosiy masalalari va tarkibi²⁰

Iqtisodiy nazariyaning masalalari	Iqtisodiy nazariyaning bo'limlari
Mikroiqtisodiyot	
Iste'molchilar bozordagi talab hajmi va tarkibini qanday belgilaydilar?	Iste'molchi talabi nazariyasi
Ishlab chiqaruvchilar mahsulot ishlab chiqarish hajmi va usullarini qanday aniqlashadi?	Mahsulot ishlab chiqarish va taklif etish nazariyasi
Bozor bahosi qanday tashkil topadi?	Tarmoq va umumiy iqtisodiy muvozanat nazariyasi
Milliy daromad qanday taqsimlanadi?	Ishlab chiqarish omillar bahosini
Davlat ishlab chiqarish omillarini tarmoqlararo taqsimlash va milliy daromadni individlararo taqsimlashda ishtirok etishi kerakmi?	shakllantirish nazariyasi Ijtimoiy farovonlik nazariyasi
Makroiqtisodiyot	
Milliy daromad miqdorini nima belgilab beradi?	Statik makroiqtisodiy muvozanat nazariyasi
Pul nima va uning roli qanday?	Pul nazariyasi
Baholar darajasi nima va uning dinamikasini qaysi omillar belgilab beradi?	Inflatsiya nazariyasi Ish bilan bandlilik nazariyasi. Iqtisodiy davrlar nazariyasi
Bandlik darajasini nima belgilab beradi?	Iqtisodiy o'sish nazariyasi
Iqtisodiy kon'yuktura o'zgarishlarini qaysi omillar belgilab beradi?	To'lov balansi va valyuta kursi nazariyasi
Barqaror iqtisodiy o'sishning shartlari qanday?	Davlatning barqarorlashtirish siyosati nazariyasi
Mamlakatning iqtisodiy kon'yukturasiga tashqi dunyo qanday ta'sir ko'rsatadi?	
Davlat barqaror iqtisodiy o'sishga erishishni qanday ta'minlashi mumkin?	

Bu vositalar esa fiskal (budjet-soliq) va monetar (pul-kredit) siyosatdir. Xulosa qilib aytganda makroiqtisodiyot fani alohida mamlakatda iqtisodiy siyosatning va jahon xo'jalik aloqalarini tashkil etishning nazariy asosi hisoblanadi.

19.2. Makroiqtisodiyot fanining tadqiqot usullari

Makroiqtisodiyot fanining tadqiqot usullariga ilmiy mavhumlashish, analiz va sintez, deduksiya, induksiya, statistik kuzatuv, iqtisodiy matematik modellashtirish usullari kiradi. .

²⁰ Тарасевич Л.С., Гребников П.И., Лусский А.И. Макроэкономика: Учебник.- 5-е изд. , испр. и доп. –М.: Юрайт-Издат, 2004, 13 с.

Juda murakkab tizim hisoblangan milliy iqtisodiyotni tadqiq qilish o'ziga xos usullardan foydalanishni talab etadi. Son-sanoqsiz faktlarni, minglab ko'rsatkichlarni alohida-alohida o'rganib chiqish va ular borasida ilmiy asoslangan xulosalar chiqarish o'ta qiyin vazifadir. Shu sababli ham makroiqtisodiyot fanida **agregat kattaliklardan** foydalanishga asoslangan tadqiqot usullaridan foydalaniladi.

Agregatlash, ya'ni bir qancha iqtisodiy ko'rsatkichlar va kategoriyalarni yagona makroiqtisodiy ko'rsatkich yoki kategoriyaga umumlashtirish orqali milliy iqtisodiyotdagi makroiqtisodiy jarayonlarni tadqiq qilish imkoniyati yuzaga keladi. Agregat ko'rsatkichlar yordamida minglab alohida bozorlarni mamlakatning yagona bozori sifatida ko'rib chiqish mumkin bo'ladi.

Makroiqtisodiy tahlil jarayonida alohida tovarlar va xizmatlarning bahosi, ularga bo'lgan talab va ularni taklif etish hajmlari ko'rsatkichlari emas, balki agregat ko'rsatkichlar hisoblangan baholarning o'rtacha darajasi, yalpi talab va yalpi taklif ko'rsatkichlaridan foydalaniladi. Davlat obligatsiyalari bo'yicha foiz stavkalari, Markaziy bankning hisob stavkasi, tijorat banklarining kreditlar uchun belgilagan foiz stavkalari kabi kapital uchun to'lov stavkalari umumlashtirilib ularning o'rtacha miqdori bozor foiz stavkasi deb yuritiladi va makroiqtisodiy tahlil jarayonida bu agregat ko'rsatkichdan foydalaniladi.

Makroiqtisodiy tahlilda asosiy tadqiqot usuli makroiqtisodiy jarayonlarni agregat ko'rsatkichlardan foydalangan holda iqtisodiy matematik modellashtirishdir.

Makroiqtisodiy modellar iqtisodiy ko'rsatkichlar va jarayonlar o'rtasidagi miqdoriy, sabab- oqibat bog'lanishlarini matematik formula, grafik va chizmalar ko'rinishida ifodalaydi.⁵

Bunga yalpi talab-yalpi taklif (AD-AS) modelini, Keyns xochini, Fillips egri chizig'ini, IS-LM modelini, iqtisodiy o'sishning Domar, Xarrod va Solou modellarini i keltirish mumkin. Bu modellarni bir vaqtning o'zida ham grafik ko'rinishda, ham algebraik formula ko'rinishida tasvirlash mumkin. Algebraik formulalar kabi makroiqtisodiy modellar o'am ikki, uch yoki bundan ko'p o'zgaruvchili bo'lishi mumkin.

AD-AS modelida yalpi talab va yalpi taklif hajmlarining baholarning umumiy darajasi dinamikasi ta'sirida o'zgarishi va makroiqtisodiy muvozanatga erishish mexanizmi o'rganilsa, Fillips egri chizig'i yordamida ishsizlik va inflatsiya ko'rsatkichlari o'rtasidagi bog'liqlik tadqiq qilinadi.


Yuqorida sanab o'tilgan modellar barcha mamlakatlar iqtisodiyotini tahlil qilishda qo'llanaveradi. Ammo ularda keltirilgan empirik koeffitsentlar, turli iqtisodiy ko'rsatkichlarning o'zaro bog'liqligi xususiyati bir mamlakatda ikkinchisidan farq qilishi mumkin. Har qanday makroiqtisodiy modelda, u qanchalik sodda yoki murakkab bo'lmasin, ma'lum darajada mavhumlikka yo'l qo'yiladi. Masalan, makroiqtisodiy tahlil davomida milliy iqtisodiyot ba'zan yopiq iqtisodiy tizim, ya'ni tashqi iqtisodiy aloqalari mavjud bo'lmagan "yopiq iqtisodiyot" deb qaraladi. Amaldva esa barcha mamlakatlar tashhi dunyo bilan iqtisodiy aloqalarga ega, ya'ni "ochiq iqtisodiyot"ga ega. Hech bir model iqtisodiy hodisa va jarayonlar o'rtasidagi bog'liqliklarni to'la-to'kis qamrab olmaydi. Shunga qaramasdan makroiqtisodiy modellardan foydalanish eng muhim

iqtisodiy qonuniyatlarni aniqlash, qabul qilinadigan turli iqtisodiy qarorlarning olinishi mumkin bo'lgan ko'p variantli natijalarini oldindan aniqlab olish, makroiqtisodiy siyosatning turli yo'nalishlarini muvofiqlashtirish imkonini beradi.

Makroiqtisodiy modellarda tashqaridan belgilanadigan, ya'ni modelda tayyor kattalik sifatida qabul qilinadigan **ekzogen** o'zgaruvchilar hamda modelni yechish natijasida topiladigan **ichki-endogen** o'zgaruvchilar farqlanadi. Bir modelda ekzogen hisoblangan o'zgaruvchi (ko'rsatkich) ikkinchi model uchun endogen hisoblanishi mumkin²¹.

Tarixda ma'lum bo'lgan birinchi makroiqtisodiy model mavzuning birinchi savolida qayd etilgan "Kene jadvali" hisoblanadi. Bu modelda F.Kene milliy iqtisodiyot amal qilishini uch sinfning- 5 mlrd. frank qishloq xo'jalik mahsulotlari ishlab chiqaruvchi dehqonlar, jami 2 mlrd. frank turadigan buyumlar yasashadigan hunarmandlar va 2 mlrd. frank renta olishadigan yer egalari sifatida tasvirlaydi. Kene modeliga ko'ra yer egalari olgan 2 mlrd. frank yer rentasining 1 mlrd. frankini qishloq xo'jalik mahsulotlarini sotib olishga, qolgan 1 mlrd. frankini esa hunarmandchilik buyumlarini sotib olishga sarflaydilar.

Hunarmandlar dehqonlarga 1mlrd. franklik buyumlarini sotadilar va dehqonlardan o'zlari ega bo'lgan 2 mlrd. frankning 1mlrd frankiga oziq-ovqat mahsulotlari, qolgan 1 mlrd. frankiga esa ishlab chiqarish ehtiyojlari uchun xomashyo sotib oladilar.



19.1-rasm. F. Kenening pul oqimlarining doiraviy aylanish modeli (keltirilgan raqamlar o'lchami mlrd.frank)


Dehqonlar yer egalariга 1 mlrd. franklik qishloq xo'jalik mahsulotlarini sotadilar va qolgan 2 mlrd. franklik mahsulotni iste'mol va ishlab chiqarish ehtiyojlari uchun o'zlarida qoldiradilar. Jami olingan 3 mlrd. franklik daromadning 1 mlrd. franki dehqonlar tomonidan hunarmandchilik buyumlari sotib olishga, yana 2 mlrd. franki esa yer rentasi to'lashga sarflanadi. Shunday qilib makroiqtisodiy bozorlarning balanslashishi ro'y beradi. Makroiqtisodiy ko'rsatkichlar ekzogen va endogen o'zgaruvchilarga guruhlanibgina qolmasdan **zahiralarni tavsiflovchi** va

²¹ N. Gregory Mankiw. Macroeconomics. 8 th edition. Harvard University. (NY.: Worth Publishers, 2013):8

oqimlarni tavsiflovchi o'zgaruvchilarga ajratiladi. Birinchi guruh ko'rsatkichlar tadqiqot obyektining ma'lum sanadagi holatini tavsiflaydi. Bularga kapital bilan qurollanganlik darajasi, ishsizlik darajasi, davlat qarzi kabi ko'rsatkichlar misol bo'ladi. Ikkinchi guruh ko'rsatkichlar ma'lum davr oralig'ida iqtisodiy jarayonlarning kechishini tavsiflaydi. Bularga yil davomida ishlab chiqilgan YaIM hajmi, iste'mol va investitsiya xarajatlari miqdori, inflatsiya sur'ati kabi ko'rsatkichlar misol bo'ladi. Oqimlar ma'lum davr mobaynida zahiralarining o'zgarishini keltirib chiqaradi. Masalan yil davomida qilingan investitsiyalar iqtisodiyotda to'plangan kapital hajmi, o'z navbatida esa mehnatni kapital bilan qurollanganligi darajasining ham oshishiga olib keladi.

19.3. “Resurslar-tovarlar va xizmatlar” hamda “daromadlar – xarajatlar”ning doiraviy oqimi modeli

Har qanday iqtisodiy tizimda tovarlar va xizmatlarni takror ishlab chiqarish umumiy jarayonini resurslar, tovar va xizmatlar, daromadlar hamda xarajatlarning **doiraviy oqimi modeli** ko'rinishida tasavvur qilish mumkin. Bu sodda model makroiqtisodiy tahlil asosini tashkil etadi. Faqat xususiy mulkka tayangan (ya'ni davlat ishtiroki mavjud bo'lmagan) yopiq iqtisodiyotda bunday doiraviy oqimi firmalar va uy xo'jaliklari o'rtasida amalga oshiriladi (19.2-rasm).



19.2-rasm. Sof bozor iqtisodiyoti sharoiti “resurslar-mahsulotlar” va “daromadlar–xarajatlar”ning doiraviy aylanishi modeli

Uy xo'jaliklari ishlab chiqarish uchun zarur bo'lgan barcha iqtisodiy resurslarni resurslar bozoriga etkazib beradilar, korxonalar esa bu resurslarni sotib olib turli xil


mahsulotlarga, xizmatlarga aylantiradilar, soʻngra esa ularni tayyor mahsulotlar va xizmatlar bozoriga etkazib beradilar. Ayni paytda “resurslar - tovarlar va xizmatlar” oqimiga qarama qarshi yoʻnalishda “daromadlar - xarajatlar”ning ham doiraviy oqimi amalga oshiriladi. Yaʼni, uy xoʻjaliklari oʻzlari etkazib bergan iqtisodiy resurslar evaziga daromad oladi hamda ularni tovarlar va xizmatlar isteʼmol qilish uchun sarflaydilar yoki aksincha korxonalar resurslar uchun sarf-xarajatlar qiladilar hamda tayyor mahsulotlarni sotish evaziga daromad oladilar.

Resurslar hamda tovarlar va xizmatlar oqimi yalpi taklifni, daromadlar va xarajatlar oqimi yalpi talabni koʻrsatadi.

Davlat ishtiroki mavjud boʻlmagan yopiq iqtisodiyotda yalpi talab va yalpi taklifning oʻzaro teng boʻlishi firmalarning yalpi sotuvi, yoki yalpi ishlab chiqarishi hajmi uy xoʻjaliklarining yalpi daromadlari, yoki yalpi daromadlariga teng boʻlishi shaklida namoyon boʻladi.

Bu koʻrsatkichlar oʻrtasidagi tenglikning buzilishi ishlab chiqarishning pasayishi, inflatsiya va ishsizlik darajalarining koʻtarilib ketishiga sabab boʻladi. Davlat aralashi mavjud boʻlgan iqtisodiyotda bu model ancha murakkab koʻrinish oladi.

Bunday iqtisodiyotda resurslar - tovarlar va xizmatlar, daromadlar-xarajatlarning uzluksiz harakati ham bozor mexanizmlari orqali, ham davlat aralashuvi bilan taʼminlanadi. Bunda hukumat ishlab chiqaruvchilar va isteʼmolchilarning harakatini bevosita boshqarmaydi, balki resurslar va tovarlar bozorlarida qatnashish orqali ularning iqtisodiy faoliyatiga qulay sharoitlar yaratadi.



19.3-rasm. “Resurslar-tovarlar va xizmatlar” hamda “daromadlar – xarajatlar”ning davlat aralashuvi mavjud iqtisodiyotdagi doiraviy aylanishi modeli

Bunda:

- | | |
|--|--------------------------------|
| 1. Yer, mehnat, kapital. | 9. Iste'mol xarajatlari. |
| 2. Resurslar. | 10. Sotishdan tushgan daromad. |
| 3. Tovar va xizmatlar. | 11. Resurs xarajatlari. |
| 4. Tovar va xizmatlar. | 12. Soliqlar. |
| 5. Resurslar. | 13. Soliqlar. |
| 6. Tovar va xizmatlar | 14. Xarajatlar. |
| 7. Transfertlar. | 15. Xarajatlar. |
| 8. Pul daromadlar (ish haqi, renta, foiz, foyda) | 16. Subsidiyalar. |

Davlat korxonalar va uy xo'jaliklarini soliqqa tortish bilan birga korxonalarga subsidiyalar berish, aholiga transfert to'lash orqali ularning ishlab chiqarish imkoniyatlari va xaridga qodir talablariga ta'sir etadi. Ayni paytda davlat resurslar bozorida hamda tovarlar va xizmatlar bozorida sotib oluvchi sifatida ishtirok etadi. Davlat o'z ishtiroki bilan firmalarning ishlab chiqarish hajmlari va uy xo'jaliklarining tovarlar va xizmatlar xarid qilish miqdolari to'g'risidagi qarorlari o'zaro mos kelmagan hollarda ro'y beradigan iqtisodiy tebranishlarni tartibga solib turadi. Ochiq iqtisodiyot sharoitida doiraviy oqimlar modeli yanada murakkablashadi. Endi unda to'rtinchi makroiqtisodiy sub'ekt- tashqi dunyo ham paydo bo'ladi. Chet el investitsiyalarining kiritilishi va xorijga investitsiya qilish, eksport va import operatsiyalari shu jumladan moliyaviy bozor orqali jamg'armalarning investitsiyalarga oqib o'tishi va moliyaviy mablag'larning qayta taqsimlanishini e'tiborga olsak ko'rib o'tilgan model mukammal emasligiga iqrar bo'lamiz. Ammo shu ko'rinishda ham bu model makroiqtisodiy jarayonlarni yaxlit holda tasavvur qilishga imkon beradi.

Doiraviy oqimlar modelidan chiqariladigan xulosa shuki, davlat, firmalar, uy xo'jaliklari va tashqi dunyoning yalpi xarajatlari yalpi ishlab chiqarish hajmiga teng bo'lishi resurslar, tovarlar va xizmatlar oqimlari (ya'ni real oqim) bilan daromadlar va xarajatlar oqimlari (ya'ni pul oqimlari) o'zaro teng bo'lishining asosiy shartidir. Yalpi xarajatlar hajmining oshishi ishlab chiqarish hajmlari va ish bilan bandlilik darajasining o'sishiga olib keladi. Bu esa o'z navbatida yalpi daromadlarning oshishiga sabab bo'ladi. Kattaroq hajmdagi yalpi daromadlar unga mos hajmdagi yalpi xarajatlarni belgilab beradi. Sabab oqibat bog'lanishlari o'rin almashishi tufayli doiraviy oqimlar modeli doiraviy aylanish ko'rinishini oladi. Iqtisodiyot barqaror rivojlanib borishi uchun yalpi xarajatlar to'xtovsiz o'sib borishi shart. Bu vazifa budjet- soliq siyosati vositalari bo'lgan soliq'larni hamda davlat xarajatlarni o'zgartirish hamda pul-kredit siyosati vositalari yordamida pul massasini o'zgartirish orqali bajariladi.

19.4.O‘zbekiston iqtisodiyotini barqaror rivojlantirishda makroiqtisodiy dasturlarni ishlab chiqish va amalga oshirish yondashuvlaridan foydalanish

Global tovar bozorlaridagi noaniqlik va beqaror vaziyatni, ko‘plab yirik mamlakatlarda iqtisodiy o‘shish sur‘atlari pasaygani hamda boshqa jiddiy tahdidlarni e‘tiborga olib, Davlat o‘z iqtisodiy siyosatini qanday murakkab sharoitlarda amalga oshirishi kerakligini yaxshi anglaydi.

Global moliyaviy-iqtisodiy inqiroz eng avj olgan paytda — 2008 yilda mamlakat Birinchi Prezidentii tomonidan ishlab chiqilgan va o‘z vaqtida qabul qilinib, muvaffaqiyatli amalga oshirilgan Inqirozga qarshi choralar dasturi o‘zining naqadar to‘g‘ri va samaradorligini har tomonlama isbotlamoqda. Shuning uchun makroiqtisodiy barqarorlikni ta‘minlash bo‘yicha o‘zini oqlagan chora-tadbirlar va mexanizmlardan foydalanish masalalari ustuvor vazifa sifatida saqlanib qoladi.

Umuman olganda, mustaqillik yillarida mamlakatda huquqiy demokratik davlat, kuchli fuqarolik jamiyati qurishga, erkin bozor munosabatlariga va xususiy mulk ustuvorligiga asoslangan iqtisodiyotni rivojlantirishga, xalq osoyishta va farovon hayot kechirishi uchun shart-sharoitlar yaratishga, xalqaro maydonda O‘zbekistonning munosib o‘rin egallashiga qaratilgan kompleks chora-tadbirlar amalga oshirildi.

Bosib o‘tilgan yo‘l va orttirilgan tajribani xolisona baholashdan, mustaqillik yillarida erishilgan yutuqlarni tahlil qilishdan hamda zamon talablaridan kelib chiqqan holda, iqtisodiy islohotlarni yanada chuqurlashtirish va mamlakat taraqqiyotini jadallashtirishning muhim ustuvorliklarini hamda aniq marralarini belgilash vazifalarini amalga oshirish yo‘lida 2017 yil 7 fevralda O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida”gi Farmoni qabul qilindi.

Harakatlar strategiyasiga O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev tomonidan saylovoldi jarayoni, jamoatchilik, ishbilarmon doiralar vakillari hamda davlat organlari bilan uchrashuvlar chog‘ida bildirilgan mamlakatni ijtimoiy-siyosiy, sotsial-iqtisodiy, madaniy-gumanitar rivojlantirishning konseptual masalalari kiritildi.

O‘zbekiston Respublikasi taraqqiyotining bugungi bosqichida makroiqtisodiy kompleksda o‘z yechimini kutayotgan qator muammolar mavjudki, Harakatlar strategiyasida ushbu muammolarni bartaraf etish ko‘zda tutilgan.

Bunday muammolarga milliy valyuta va ichki baholarning barqarorligi, valyuta kursining mahalliy ishlab chiqaruvchilarning tashqi bozorlardagi raqobatbardoshligiga salbiy ta‘sir etishi, tadbirkorlik sub‘ektlarining o‘z ixtiyoridagi xorij valyutadan erkin foydalana olmayotgani, naqd va naqd pulsiz to‘lovlarda farqning mavjudligi, tijorat banklarining barqarorligi va moliyaviy holatini mustahkamlash, aholining banklarga bo‘lgan ishonchini oshirish kabilar iqtisodiy rivojlanishga jiddiy to‘sqinlik qilmoqda.

Harakatlar strategiyasining “Iqtisodiyotni yanada rivojlantirish va liberallashtirish” deb nomlangan uchinchi yo‘nalishda bu borada qator choratadbirlarni amalga oshirish uchun milliy valyuta va narxlarning barqarorligini ta‘minlash, valyutani tartibga solishning zamonaviy bozor mexanizmlarini bosqichma-bosqich joriy etish, mahalliy budjetlarning daromad bazasini kengaytirish, tashqi iqtisodiy aloqalarni kengaytirish, eksportga mo‘ljallangan mahsulot va materiallar ishlab chiqarish uchun zamonaviy texnologiyalarni joriy etish, transport-logistika infratuzilmasini, tadbirkorlikni rivojlantirish hamda xorijiy investorlar uchun investitsiyaviy jozibadorlikni oshirish, soliq ma‘murchiligini yaxshilash, bank faoliyatini tartibga solishning zamonaviy prinsiplari va mexanizmlarini joriy etish nazarda tutilmoqda.

2017-2021 yillarda umumiy qiymati 40 milliard AQSh dollari miqdoridagi 649 ta investitsiya loyihasini nazarda tutuvchi tarmoq dasturlarini ro‘yobga chiqarish rejalashtirilmoqda. Natijada keyingi 5 yilda sanoat mahsulotini ishlab chiqarish 1,5 baravar, uning yalpi ichki mahsulotdagi ulushi 33,6 foizdan 36 foizgacha, qayta ishlash tarmog‘i ulushi 80 foizdan 85 foizgacha oshadi.

Qisqa xulosalar

“Makroiqtisodiyot” fani umumiy iqtisodiy nazariyaning ikki muhim bo‘limidan biri bo‘lib, iqtisodiyotni bir butun holda o‘rganadi va ishsizlik, inflatsiya, iqtisodiy o‘shish, to‘lov balansi barqarorligi, davlat budjeti, davlat qarzi kabi hozirgi zamon iqtisodining barcha muhim muammolarini tadqiq qiladi.

Iqtisodchi olimlar tomonidan makroiqtisodiy tahlil elementlari XVIII asrdanoq qo‘llanila boshlagan bo‘lsada makroiqtisodiyot fani XX asrning o‘rtalariga kelib mustaqil fan sifatida shakllanib bo‘ldi va uning asoschisi deb J.M. Keyns tan olinadi.

Makroiqtisodiy tahlilning o‘ziga xos xususiyati unda agregat ko‘rsatkichlardan foydalanishda namoyon bo‘ladi.

Uy xo‘jaliklari, firmalar, davlat va tashqi dunyo makroiqtisodiyot sub’ektlarini tashkil etadi.

Makroiqtisodiy tahlilda matematik formula, grafik va chizmalar ko‘rinishidagi makroiqtisodiy modellardan foydalaniladi. Iqtisodiyotdagi barcha muammolarni o‘rganish imkonini beradigan yagona model mavjud emas. Shuning uchun ham makroiqtisodiy tadqiqotlarda o‘zaro bir birini to‘ldiradigan ko‘pgina modellardan foydalaniladi.

Davlatning iqtisodiy tizimning barqarorligini va iqtisodiy o‘shishni ta‘minlash borasidagi hatti-harakatlari iqtisodiy siyosat deb ataladi.

“Resurslar - tovarlar va daromadlar” hamda “daromadlar – xarajatlar”ning doiraviy oqimi sxemasi soddalashtirilgan makroiqtisodiy model bo‘lib makroiqtisodiyot sub’ektlarining o‘zaro munosabatlarini va makroiqtisodiy jarayonlarning kechishini shartli tarzda aks ettiradi.

Nazorat va muhokama uchun savollar

1. Makroiqtisodiyot fani predmetining o'ziga xos xususiyati nimada va u mikroiqtisodiyot predmetidan nimasi bilan farq qiladi?
2. Pozitiv va normativ makroiqtisodiyot tushunchalariga izoh bering.
3. Makroiqtisodiyot sub'ektlari orasida davlatning roli qanday?
4. Agregat ko'rsatkichlar deganda nimani tushunasiz? Makroiqtisodiy tahlilda agregat ko'rsatkichlardan foydalanish zaruriyati nima uchun yuzaga keladi?
5. Makroiqtisodiy modellarning mohiyatiga izoh bering.
6. Zahiralarini tavsiflovchi ko'rsatkichlar va oqimlarni tavsiflovchi ko'rsatkichlar o'rtasida qanday bog'liqliklar mavjud?
7. "Resurslar- tovarlar va xizmatlar" hamda "daromadlar – xarajatlar"ning doiraviy oqimi modelidagi qarama-qarshi omillarga izoh bering.
8. Doiraviy oqimlar modelini doiraviy aylanish tusini olishining shartlari qanday?

20-bob. ASOSIY MAKROIQTISODIY KO‘RSATKICHLAR

20.1. Milliy iqtisodiyotni tahlil qilishda qo‘llaniladigan asosiy ko‘rsatkichlar

Mamlakat iqtisodiyoti rivojlanishini tahlil qilish, milliy iqtisodiyot rivojlanishidagi muammolarni aniqlash hamda uni yanada rivojlantirish bo‘yicha chora-tadbirlar ishlab chiqarish uchun bir qator iqtisodiy ko‘rsatkichlardan foydalaniladi.

Hukumat statistik raqamlardan rivojlanish darajasini monitoring qilish va iqtisodiy siyosatni shakllantirish maqsadida foydalanadi²². Alohida firmalar faoliyatiga baho berishda qo‘llaniladigan ko‘rsatkichlardan farqli tarzda bu ko‘rsatkichlar milliy iqtisodiyotning barcha sub’ektlari faoliyatiga umumiy baho berish, makroiqtisodiy tahlil o‘tkazish, mamlakat iqtisodiyotining jahon xo‘jaligida raqobatga bardoshlilik darajasini aniqlash imkonini beradi.

Bu ko‘rsatkichlarga quyidagilar kiradi:

- Yalpi ichki mahsulot (YaIM), Sof ichki mahsulot (SIM), Yalpi milliy daromad (YaMD), Sof milliy daromad (SMD), shaxsiy daromad (ShD), Shaxsiy tasarrufidagi daromad (ShTD), Iste‘mol (C), Jamg‘arish (S) ko‘rsatkichlarining hajmi va o‘shish sur‘atlari;

- iqtisodiyotning tarkibiy tuzilishi;

- mamlakat eksporti va importi hajmi, tarkibi, YaIMdagi ulushi va o‘shish suratlari;

- resurslardan foydalanishning samaradorligini xarakterlovchi ko‘rsatkichlar (Mehnat unumdorligi, Fond qaytimi);

- davlat budjeti taqchilligi, deflator, iste‘mol baholari indeksi, inflatsiyaning o‘shish sur‘atlari;

- ishsizlik darajasi va ishsizlar soni, aholining ish bilan bandlik darajasi;

- aholining moddiy ne‘matlar va xizmatlar iste‘moli hajmi, ularning jamg‘armalari, ish haqining quyi miqdori va boshqalar.

Davlat budjeti taqchilligi va inflatsiya sur‘ati kabi ko‘rsatkichlar umumiy makroiqtisodiy vaziyatga baho berishda qo‘llanilsa, YaIM, SIM, YaMD, SMD, ShD, ShTD, C, S ko‘rsatkichlari milliy ishlab chiqarishning parametrlarini va dinamikasini tahlil etishda foydalaniladi.

Bu ko‘rsatkichlar iqtisodiyotning barcha sub’ektlari faoliyatlari natijasi sifatida aniqlanib, ularni hisoblashning asosini Milliy hisobchilik tizimi (MHT) tashkil etadi. MHT mamlakat buxgalteriyasi vazifasini o‘tagani holda uning standartlaridan kelib chiqqan holda makroiqtisodiy ko‘rsatkichlarni hisoblash, mamlakatlararo taqqoslovlarni amalga oshirish imkonini beradi.

²² N. Gregory Mankiw. Macroeconomics. 8 th edition. Harvard University. (NY.: Worth Publishers, 2013): 17

Mamlakat iqtisodiyotining haqiqiy holatini o'rganish, unga tizimli baho berish uchun yuqorida sanab o'tilgan barcha ko'rsatkichlardan foydalanish zarur, aks holda bir tomonlama yondoshuvga yo'l qo'yilishi mumkin.

20.2. Yalpi ichki mahsulot tushunchasi va uni hisoblashning asosiy shartlari

Makroiqtisodiy statistika va tahlilda uzoq davr mobaynida yalpi milliy mahsulot va yalpi ichki mahsulot ko'rsatkichlaridan baravar foydalanib kelindi. Har ikkala agregat ko'rsatkich ham mamlakatdagi iqtisodiy faollik darajasini xarakterlasada kapital va ishchi kuchi migratsiyasi mavjudligi sababli ular o'zaro farq qilishadi.

Bugungi kunga kelib Milliy hisobchilik tizimini qo'llaydigan deyarli barcha davlatlarda yalpi ichki mahsulot ko'rsatkichi asosiy makroiqtisodiy ko'rsatkich sifatida tan olindi.

Ko'pgina iqtisodiy adabiyotlarda YaIMga ishlab chiqarilishida qo'llanilgan resurslar qaysi davlatga tegishligidan qat'iy nazar, mamlakatning jug'rofiy hududida yaratilgan pirovard tovarlar va xizmatlarning bozor baholari yig'indisi deb ta'rif berib kelingan.

1993 yilda qabul qilingan (2008 yilda yangi tahrir) BMT MHTning yangi talqiniga ko'ra Yalpi ichki mahsulot (YaIM) tushunchasiga aniqliklar kiritildi.

Yangicha talqiniga ko'ra:

Yalpi ichki mahsulot - mamlakat hududida ma'lum muddat davomida ishlab chiqarilgan pirovard tovarlar va xizmatlar bozor baholarining umumiy yig'indisidan iborat²³.

YaIM ning «ichki» deb atalishiga sabab uning mamlakat rezidentlari tomonidan yaratilishidir. Rezident deganda faqatgina mamlakatning yuridik va jismoniy shaxslari tushunilmaydi. Chunki mamlakat yuridik shaxsi boshqa mamlakat hududida bir yildan ortiq faoliyat yuritsa o'sha mamlakat rezidenti deb qaraladi.

«Milliy tegishligi va fuqaroliligidan qat'iy nazar, mazkur mamlakatning iqtisodiy hududida iqtisodiy manfaat markaziga ega bo'lgan (ishlab chiqarish faoliyati bilan shug'ullanadigan, yoki mamlakat hududida bir yildan ortiq yashayotgan) barcha iqtisodiy birliklar(korxonalar, uy xo'jaliklari) rezident hisoblanishadi»²⁴.

Elchixonalar va harbiy bazalar o'zlari tegishli bo'lgan mamlakatlarning iqtisodiy makoni bo'lib qolaveradilar. Aynan shu jihat YaIMni hisoblashda iqtisodiy va jug'rofiy hudud o'rtasidagi farq deb qaraladi.

YaIM uch xil usul bilan hisoblanadi:

- 1) ishlab chiqarish usuli;
- 2) xarajatlar usuli;

²³ N. Gregory Mankiw. Macroeconomics. 8 th edition. Harvard University. (NY.: Worth Publishers, 2013): 21

²⁴ Агапова Т.А., Серегина С.Ф. Макроэкономика: Учебник.-7-е изд. перераб. и доп.- М.:Издательство "Дело и сервис", 2005. 25-с.

3) daromadlar usuli.

Har uchala usul bilan hisoblangan YaIM ko'rsatkichi hajmi statistik xatolar istisno etilganda o'zaro teng bo'lishi lozim. Shu bilan birga har uchala usul bilan YaIM ko'rsatkichni hisoblashda o'ziga xos talablarga amal qilinishi talab etiladi²⁵.¹⁰

Yalpi ichki mahsulotni hisoblashning asosiy shartlari quyidagilar:

- yakuniy tovarlar va xizmatlar bahosini ifodalaydi;
- bozor baholarida hisoblanadi;
- faqat joriy yilda ishlab chiqarilgan tovarlar va xizmatlar bahosini o'z ichiga oladi;
- sof moliyaviy bitimlar bahosini o'z ichiga olmaydi.

20.3.Yalpi ichki mahsulotni hisoblash usullari

YaIMni ishlab chiqarish usulida aniqlash. Ishlab chiqarish usulida hisoblangan YaIM yakuniy tovarlar va xizmatlarni ishlab chiqarishning turli bosqichlarida qo'shilgan qiymatlar yig'indisi sifatida aniqlanadi. YaIMni bu usulda aniqlash statistik jihatdan qulay bo'lishi bilan birga uni hisoblashning muhim shartiga amal qilish, ya'ni bir qiymatni ikki bor hisobga olish, yoki oraliq mahsulot qiymatini YaIMga kiritib yuborishning oldini oladi.

Ishlab chiqarish hajmini to'g'ri hisoblash uchun joriy yilda ishlab chiqarilgan tovar va ko'rsatilgan xizmatlar qiymati bir marta hisobga olinish kerak. Ko'pgina mahsulotlar bozorga borguncha bir nechta ishlab chiqarish bosqichini o'taydi. Shu sababli YaIMda ayrim mahsulotlarni ikki va undan ko'p marta hisobga olmaslik uchun, faqat pirovard mahsulotning bozor qiymati hisobga olinadi, oraliq mahsulotlar esa hisobga olinmaydi.

Yakuniy tovarlar va xizmatlar deganda ularning ishlab chiqarish, yoki ichki ayirboshlash siklidan chiqqan, yakuniy iste'mol, jamg'arish yoki eksport uchun foydalaniladigan qismi tushuniladi.

Yakuniy tovarlar va xizmatlarni ishlab chiqarishda sarflangan oraliq tovarlar va xizmatlar bahosi YaIMga qo'shilmaydi.

Qo'shilgan qiymat tovar va xizmatlarning sotish bahosi bilan ularni ishlab chiqarish uchun foydalanilgan xom ashyo va materiallarni sotib olishga qilingan xarajatlar o'rtasidagi farq ko'rinishida aniqlanadi²⁶.¹¹

Ishlab chiqarish usulida aniqlangan YaIM ko'rsatkichinig strukturasi va undagi siljishlarni tahlil qilish juda muhim xulosalar beradi. Alohida tarmoqlarning mamlakat iqtisodiyotida yaratilgan yalpi qo'shilgan qiymatdagi ulushi, bu ulushning

²⁵ N. Gregory Mankiw. Macroeconomics. 8 th edition. Harvard University. (NY.: Worth Publishers, 2013): 21-23

²⁶ N. Gregory Mankiw. Macroeconomics. 8 th edition. Harvard University. (NY.: Worth Publishers, 2013): 22

o'zgarishi bu mamlakatning iqtisodiy rivojlanish darajasi va kutilayotgan istiqboliga baho berish imkonini beradi.

Iqtisodiyot rivojlanishi, real sektorda ishlab chiqarish samaradrligi oshib borishi bilan sanoat va ayniqsa xizmat ko'rsatish sohasining YaIMdagi ulushi ortib borilishi jahon iqtisodiy tarixida kuzatilgan hodisadir.

Qo'shilgan qiymatlar yig'indisi ko'rinishida hisoblangan YaIM tarkibiga sof bilvosita soliqlar, ya'ni davlat budjetiga tushgan qo'shilgan qiymat solig'i, aksiz solig'i va bojxona boji to'lovlari bilvosita soliqlar bilan davlat budjetidan ishlab chiqaruvchilarga berilgan subsidiyalar o'rtasidagi farq ham qo'shiladi.

Sof soliqlarning YaIMdagi ulushi 2018 yilda O'zbekiston Respublikasida 11,5% ni tashkil qilgan. O'zbekiston mustaqillikni qo'lga kiritishi bilan qisqa muddatlarda mamlakatning g'alla va umuman oziq-ovqat mustaqilligiga erishish, aholini o'zimizda ishlab chiqarilgan asosiy oziq-ovqat mahsulotlari bilan ta'minlash strategik maqsadi qo'yildi.

Oziq-ovqat muammosini hal etish uchun paxta ekin maydonlari 2 marta qisqartirildi, bo'shatilgan maydonlarda esa oziq-ovqat ekinlari, shu jumladan, g'alla, meva-sabzavot, kartoshka, uzum, poliz va ozuqa ekinlari etishtirila boshladi.

O'zbekiston mustaqillik yillarida mamlakatimizda sanoatning avtomobilsozlik, neft-gaz-kimyoy, neft-gaz mashinasozligi, zamonaviy qurilish materiallari sanoati, temir yo'l mashinasozligi, maishiy elektrotexnika, farmatsevtika, zamonaviy oziq-ovqat va to'qimachilik kabi mutlaqo yangi tarmoqlari barpo etildi. Asaka va Pitnak shaharlarida «Jeneral Motors» kompaniyasi bilan hamkorlikda engil avtomobillar, Samarqandda «Isuzu» avtobuslari va «MAN» kompaniyasi bilan hamkorlikda yuk avtomobillari ishlab chiqarish bo'yicha yangi zavodlar ishga tushirildi. Neft-gaz-kimyoy tarmog'ida Buxoro neftni qayta ishlash zavodi, Sho'rtan gaz-kimyoy majmui, Qo'ng'iro't soda zavodi, Dehqonobod kaliyli o'g'itlar zavodi va bir qator boshqa yuqori texnologiyali ishlab chiqarishlar qurildi.

Mustaqillik yillarida xizmatlar ko'rsatish sohasi O'zbekiston Respublikasi iqtisodiyotining eng istiqbolli va jadal rivojlanuvchi tarmog'iga aylandi.

Barchamizga ayonki, xizmat ko'rsatish sohasi iqtisodiyotimizni barqaror rivojlantirishning eng muhim manbai va omili hisoblanadi. Jahon tajribasi bugun aynan ushbu soha yalpi ichki mahsulotni shakllantirish, aholi bandligini ta'minlash, odamlarning farovonligini oshirishda etakchi o'rin tutishini ko'rsatmoqda.

2018 yilga kelib elektron axborotlashtirish, iqtisodiyotning barcha tarmoq va sohasini qamrab oldi. Davlat idoralari va mahkamalari o'rtasida, biznes muhiti ichida, shuningdek, hukumat va uning xizmatlarini iste'molchilari – biznes va aholi o'rtasida axborot hujjatlar aylanmasi elektron aloqa vositalari orqali ta'minlandi.

20.1-jadval ma'lumotlariga tayangan holda O'zbekiston Respublikasida ishlab chiqarilgan YaIMning tarmoq tuzilishini ko'rib chiqamiz.

Mustaqillik yillarida xomashyo resurslarini chuqurroq qayta ishlash, yuqori qo'shilgan qiymatli tovarlar ulushining ortishiga qaratilgan tarkibiy siyosatni amalga oshirish natijasida mamlakat yalpi ichki mahsulot tarkibida qishloq xo'jaligi

ulushining pasayishi va sanoat, xizmat ko'rsatish sohalarining ulushini ortishi kuzatilmoqda.

2.1-jadval

O'zbekiston Respublikasida YaIM ishlab chiqarish tarkibi²⁷

Yillar	YAIM	Sanoat	Qishloq xo'jaligi	Qurilish	Transport va aloqa	Savdo va umumiy ovqatlanish	Boshqalar	Sof soliqlar
2000	100	14,2	30,1	6	7,7	10,8	18,7	12,5
2001	100	14,1	30	5,8	7,5	11,7	19	11,9
2002	100	14,5	30,1	4,9	8,2	11	18,7	12,6
2003	100	15,8	28,4	4,7	9,4	10,1	17,9	13,7
2004	100	17,5	26,4	4,8	10,2	9,6	17,4	14,1
2005	100	21,1	26,3	4,8	10,6	8,8	17,8	10,6
2006	100	21,8	25,1	5,1	11	9	17,9	10,1
2007	100	21	23,2	5,9	11,3	9,4	19,1	10,1
2008	100	23,5	19,7	5,6	12,5	8,6	20,2	9,9
2009	100	23,9	18,6	6,8	11,6	8,9	20,6	9,6
2010	100	23,9	18	6,5	11,5	9,2	21,7	9,2
2011	100	24	17,6	6,1	11,7	8,8	24	7,8
2012	100	24	17,5	5,9	11,9	8,6	24,4	7,7
2013	100	24,2	17,6	6	11,9	8,5	23,8	8
2014	100	24,1	17,2	6,8	11,4	8,6	23,5	8,4
2015	100	24,3	16,7	7,3	11,0	8,3	23,6	8,8
2016	100	25,7	17,6	7,2	11,2	8,5	21,6	8,2
2017	100	22,2	34,0	5,7	9,5	8,0	20,6	11,5

2000-2017 yillarda YAIM tarkibida sanoatning ulushi 14,2 foizdan 22,2 foizgacha (qurilish tarmog'ini ham qo'shib hisoblaganda 27,9 foizgacha) o'sdi, bunda sanoatning tarkibi sezilarli darajada diversifikatsiya qilindi, bu sanoatda xomashyoga yo'naltirilishdan ichki va tashqi bozorda talab etilgan tayyor tovarlar ishlab chiqarishni kengaytirish borasida amalga oshirilgan chora-tadbirlar natijasi hisoblanadi. Bu avvalo mamlakatimiz iqtisodiyotida industrial sanoat tarmoqlari va xizmatlarning jadal rivojlanib borayotgani bilan izohlanadi.

Qo'shilgan qiymatlar yig'indisi ko'rinishida hisoblangan YaIM tarkibiga sof bilvosita soliqlar, ya'ni davlat budjetiga tushgan qo'shilgan qiymat solig'i, aksiz solig'i va bojxona boji to'lovlari bilvosita soliqlar bilan davlat budjetidan ishlab chiqaruvchilarga berilgan subsidiyalar o'rtasidagi farq ham qo'shiladi.

²⁷ O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot vazirligi ma'lumotlari

Sof soliqlarning YaIMdagi ulushi 2000 yilda O‘zbekiston Respublikasida 12,5 foizni, 2017 yilda esa 11,5 foizni tashkil etdi. Sof soliqlarning YaIMdagi ulushi kamayib borishini ijobiy tendensiya deb baholash mumkin.

Shu bilan birga, ushbu davrda qishloq xo‘jaligi ishlab chiqarishi o‘shining yuqori sur‘atlari (har yili o‘rtacha 6,2 %) saqlab qolinganda YAİM tarkibida qishloq xo‘jaligining ulushi 30,1 foizdan 34,0 foizgacha o‘zgardi.

Agar 2000 yilda YAİM tarkibida xizmat ko‘rsatish sohasining ulushi 37,0 foizni tashkil qilgan bo‘lsa, so‘nggi 4 yil mobaynida mazkur sohaning jadal yuqori o‘sh sur‘atlari (o‘rtacha o‘sh sur‘ati 114%) ushbu sohaning YAİMdagi ulushini 2013 yildagi 48,6%dan 2017 yilda 38,1%gacha o‘zgarishini ta‘minladi (20.2- jadval). Natijada, bu sohaning YAİM o‘shidagi ulushi yildan yilga ortib bormoqda.

20.2-jadval

Yangi metodika bo‘yicha iqtisodiyot tarmoqlari bo‘yicha YAİM tuzilmasi (yakunga nisbatan% da)²⁸

Ko‘rsatkichlar	2016	2017
YAİM, shu jumladan:	100	100
Tarmoqlarning yalpi qo‘shilgan qiymati	90,8	88,5
Mahsulotlarga sof soliqlar	9,2	11,5
Tarmoqlarning yalpi qo‘shilgan qiymati	100,0	100,0
Qishloq xo‘jaligi	34,0	34,0
Sanoat (qurilish sohasi bilan birga)	26,6	27,9
Xizmatlar	39,4	38,1

Shu bilan birga, avtomobilsozlik sanoatida ishlab chiqarish hajmi keyingi uch yilda 2,8 barobar qisqarib, bu sanoat (qurilish bilan birga) o‘sh suratining 2014 yildagi 107,9%dan 2016 yilda 106,6%gacha pasayishi va YaİMdagi sanoat ulushining mos ravishda 4,4 f.b.ga kamayishiga olib keldi.

2016 yilga kelib elektron axborotlashtirish, iqtisodiyotning barcha tarmoq va sohalarini qamrab oldi. Davlat idoralari va mahkamalari o‘rtasida, biznes muhiti ichida, shuningdek, hukumat va uning xizmatlarini iste‘molchilari – biznes va aholi o‘rtasida axborot hujjatlar aylanmasi elektron aloqa vositalari orqali ta‘minlandi.

YaİMni xarajatlar bo‘yicha hisoblash. Bu usul yakuniy foydalanish usuli deb ham yuritilib, unda YaİMni hisoblash uchun yakuniy mahsulotlarni sotib olishga qilingan barcha xarajatlar o‘zaro qo‘shib chiqiladi. Bu xarajatlar quyidagicha guruhlanadi:

Uy xo‘jaliklarining iste‘mol xarajatlari (C):

- a) uzoq muddat foydalaniladigan iste‘mol buyumlari sotib olishga;
- b) kundalik foydalaniladigan iste‘mol buyumlari sotib olishga;
- v) iste‘mol xizmatlari to‘loviga.

²⁸ O‘zbekiston iqtisodiyoti. 2016 yil uchun axborot tahliliy byulleten, Toshket- 2017., 17 b.

Yalpi ichki xususiy investitsiya xarajatlari (I):

- a) asbob-uskunalar, mashinalarni yakuniy sotib olishga;
- b) korxonalar, inshootlar, turarjoy binolarini qurishga sarflangan;
- v) tovar zahiralari o'rtasidagi farqlar yoki zahiralarning o'zgarishi. **Tovar va xizmatlarning davlat xaridi (G).**

Bu guruh xarajatlariga mahalliy va markaziy boshqaruv hokimiyati idoralari tomonidan korxonalarining pirovard mahsulotlari va resurslari xaridi (avtomobil yo'llari va pochta muassasalari qurilishi, davlat korxonalarida to'lanadigan ish haqi) xarajatlari kiritiladi. Lekin shu o'rinda ta'kidlash lozimki, bu xarajatlarga davlat transfert to'lovlari kiritilmaydi²⁹.

Sof eksport (Xn): mamlakatning import va eksport operatsiyalari bo'yicha xarajatlar o'rtasidagi farq.

YaIMni xarajatlar orqali hisoblash formulasini quyidagicha tasvirlash mumkin:

$$\mathbf{YaIM = C + I + G + Xn}$$

O'zbekiston Respublikasida yaratilgan YaIMning foydalanish (xarajatlarga ko'ra) tarkibi tahlili shuni ko'rsatadiki uy xo'jaliklarining iste'mol xarajatlari YaIM tarkibidagi eng salmoqli komponent ekan. Bu ko'rsatkichning YaIMdagi ulushiga ko'ra O'zbekiston Rossiya Federatsiyasi, Yaponiya va Fransiya davlatlariga yaqin turadi.

YaIMni daromadlar (taqsimot usuli) bo'yicha hisoblash. YaIMni daromadlar bo'yicha aniqlashda yakuniy mahsulotni ishlab chiqarish jarayonida rezident-ishlab chiqarish birliklari tomonidan, qo'shilgan qiymatlar hisobidan, to'langan dastlabki daromadlar qo'shib chiqiladi.

YaIMni daromadlari yig'indisi ko'rinishida hisoblashda asosan quyidagi ko'rsatkichlardan foydalaniladi:

-**sof bilvosita soliqlar (Tn)** – bilvosita soliqlar(qo'shilgan qiymat solig'i, aksizlar, bojxona bojlari) va subsidiyalar hajmlari o'rtasidagi farq;

- **yollanma ishchilarning ish haqlari (W)** - xususiy va davlat kompaniyalarining yollanma ishchilarga hisoblagan barcha turdagi mehnat haqi to'lovlarining nominal miqdori plyus ish beruvchilar tomonidan ish haqi fondiga nisbatan hisoblanib to'lanadigan ijtimoiy sug'urta ajratmalari. O'zbekiston Respublikasida bu ajratma normasi 2005 yilda ish haqi fondiga nisbatan 31% bo'lgan bo'lsa. 2006 yildan boshlab 25 % qilib belgilandi

- **Korporatsiyalarning yalpi foydasi + nokorporativ korxonalar daromadi (R).**

Nokorporativ korxonalar- kichik hajmdagi, uy xo'jaliklariga tegishli korxonalar bo'lib ularda korxonaga foydasi va korxonaga egasining ish haqi elementlari o'zaro qo'shib ketgan bo'ladi. Bu holat aralash daromad atamasini qo'llashga sabab bo'ladi.

²⁹ N. Gregory Mankiw. Macroeconomics. 8 th edition. Harvard University. (NY.: Worth Publishers, 2013): 27

$R =$ Korporatsiyalarning sof foydasi ($R1$) + nokorporativ korxonalar sof daromadlari ($R2$) + amortizatsiya (A);

YaIMni daromadlar ko'rinishida yalpi qo'shilgan qiymatni ko'rsatilgan uch guruhga bo'lib topish mumkin:

$$YaIM = Tn + W + R$$

Olingan dastlabki daromadlar qayta taqsimlanishi natijasida dividend, renta, to'g'ridan to'g'ri xorijiy investitsiyalardan olingan reinvestitsiya ko'rinishidagi daromadlar paydo bo'ladi.

Shuningdek, YaIMni daromadlar ko'rinishida aniqlashda, iqtisodiy nazariyada, daromadlarni quyidagi komponentlarga bo'lish ko'zda tutiladi:

- amortizatsiya (A);
- bilvostia soliqlar (T);
- yollanma ishchilarning ish haqlari (W);
- ijara haqi to'lovi va renta ko'rinishidagi daromadlar ($R1$);
- kapital uchun olingan foiz daromadlari ($R2$);
- mulkdan keladigan daromad (nokorporativ korxonalar daromadi) ($P1$);
- korporatsiya foydasi ($P2$).

Korporatsiyalar foydasi o'z navbatida quyidagilarga bo'linadi:

- a) korporatsiyasi foydasidan to'lanadigan soliqlar ($P2.1$);
- b) hissadorlar o'rtasida taqsimlanadigan dividendlar ($P2.2$);
- v) korporatsiyaning taqsimlanmagan foydasi ($P2.3$). Keltirilgan yondoshvuga

ko'ra:

$$YaIM (Y) = A + T + W + R1 + R2 + P1 + P2$$

Xarajatlar va daromadlar ko'rinishida hisoblab topilgan YaIM hajmi o'zaro mos keladi. Chunki milliy iqtisodiyot doirasida bir sub'ekt tomonidan qilingan har qanday xarajat ikkinchi sub'ekt uchun daromad bo'lib tushadi.

20.4. Milliy hisobchilik tizimidagi boshqa ko'rsatkichlar va ular o'rtasidagi nisbat

Milliy hisobchilik tizimiga ko'ra milliy iqtisodiyot rivojlanishini tahlil etish uchun YaIM ko'rsatkichidan boshqa yana bir qator ko'rsatkichlardan foydalaniladi. Bu ko'rsatkichlar jumlasiga Yalpi milliy daromad (YaMD) ko'rsatkichi ham kiradi. Bu ko'rsatkich MHTning oldingi ko'rinishida hisoblangan Yalpi milliy mahsulot (YaMM) ko'rsatkichi bilan mohiyatan bir xil.

YaMD - mamlakat rezidentlari tomonidan, mamlakatda va mamlakat tashqarisida, ishlab chiqarishda ishtirok etish va mulkdan olgan boshlang'ich daromadlari yig'indisidir.

YaIM va YaMD ko'rsatkichlari o'rtasidagi farqni quyidagi formula ko'rinishida tasavvur etish mumkin:

YaMD = YaIM + mamlakat rezidentlari tomonidan xorijdan olingan daromadlari - norezidentlarning mamlakatdan xorijga jo‘natgan daromadlari.

YaIM va YaMD ning prinsipal farqlari shundaki ulardan birinchisi mamlakat rezidentlari tomonidan ishlab chiqarilgan yakuniy tovarlar va xizmatlar oqimini o‘lchasa, ikkinchisi ular olgan boshlang‘ich daromadlarni o‘lchaydi.

Sof ichki mahsulot (SIM) va Sof milliy daromad (SMD) ko‘rsatkichlari YaIM va YaMD ko‘rsatkichlaridan amortizatsiya (iste‘mol qilingan asosiy kapital) summasi miqdoriga farq qiladi³⁰.

$$\text{SIM} = \text{YaIM} - \text{A} \quad \text{SMD} = \text{YaMD} - \text{A}$$

Makroiqtisodiy tahlilda shuningdek MHTga kirmagan Shaxsiy daromad

(ShD) ko‘rsatkichi ham qo‘laniladi.

ShD = SMD – [ISA (Ijtimoiy sug‘urta ajratmalari) + T (bilvosita soliqlar) + (R1.1) korporatsiya foydasiga soliqlar) + R1.3 (Korporatsiya- larning taqsimlanmagan foydasi + biznesning foiz daromadlari) + transfert to‘lovlari (TR) + foizlar ko‘rinishida olingan shaxsiy daromad³¹.

Foizlar ko‘rinishida aholi olgan daromadga davlat qarzlari bo‘yicha olingan foiz daromadlari ham kiritiladi.

Shaxsiy daromaddan aholi to‘laydigan daromad solig‘i, mulk solig‘i va ayrim nosoliq to‘lovlarini ayirib tashlab **shaxsiy tasarrufdagi daromad (ShTD)** ko‘rsatkichi topiladi.

ShTD uy xo‘jaliklari tomonidan **iste‘mol (C)** va **jamg‘arish (S)** uchun ishlatiladi.

$$\text{ShTD} = \text{C} + \text{S}$$

Makroiqtisodiy tahlilda uy xo‘jaliklarining ShTD va Yalpi milliy tasarrufdagi daromad (YaMTD) ko‘rsatkichlari o‘zaro farqlanadi.

YaMTD = YaMD + Xorijdan olingan sof transfertlar

Xorijdan olingan sof transfertlar = Mamlakat tashqarisidan olingan transfertlar – Mamlakatdan tashqariga berilgan transfertlar)

Yalpi milliy tasarrufdagi daromad yakuniy iste‘mol va milliy jamg‘armish uchun ishlatiladi.

$$\text{YaMTD} = \text{Yakuniy iste‘mol} + \text{Milliy jamg‘armalar}$$

Yakuniy iste‘mol uy xo‘jaliklarining iste‘mol xarajatlaridan tashqari hukumatning iste‘molga xarajatlarini ham o‘z ichiga oladi.

³⁰ N. Gregory Mankiw. Macroeconomics. 8 th edition. Harvard University. (NY.: Worth Publishers, 2013): 30

³¹ N. Gregory Mankiw. Macroeconomics. 8 th edition. Harvard University. (NY.: Worth Publishers, 2013): 31

20.5. Nominal va real Yalpi ichki mahsulot

Iqtisodiyotda mavjud bo'lgan inflatsiya jarayonlari YaIMni hisoblashni qiyinlashtiradi. Bu ko'rsatkich dinamikasi bir vaqtning o'zida ishlab chiqarilayotgan mahsulotlar miqdor va baho darajalarining o'zgarishini ifodalaydi. Bu shuni bildiradiki, YaIM miqdoriga bir vaqtning o'zida ham ishlab chiqarilayotgan mahsulotlarning fizik hajmi, ham baho darajasi o'zgarishi ta'sir ko'rsatadi.

Iqtisodiyotda doimiy inflatsiya jarayonining mavjudligi makroiqtisodiy ko'rsatkichlarni taqqoslama baholarda hisoblashni zarur etib qo'yadi. Chunki, inflatsiya iqtisodiyotning real holatini buzib ko'rsatadi. Iqtisodiyotni tahlil qilish, muammolarni aniqlash hamda boshqaruv qarorlarini qabul qilishni qiyinlashtiradi. Bu vazifani bajarish uchun joriy baholarda hisoblangan nominal ko'rsatkichlardan emas, balki taqqoslama (bazis) baholarda hisoblangan real ko'rsatkichlardan foydalanish zarur. Ayrim yagona firmadan farqli o'laroq milliy iqtisodiyotda juda ko'p sonli tovarlar va xizmatlar ishlab chiqarilishi sababli ularning barchasini bir varakayiga taqqoslama baholarda hisoblash qiyin. Shu tufayli YaIM tarkibida katta ulushni tashkil etgan eng muhim tovarlar va xizmatlar bahosining o'zgarishi koeffitsienti (baholar indeksi) hisoblab topilib olingan natija butun milliy iqtisodiyot uchun tadbiiq etiladi.

Baholar indeksini yoki inflatsiya darajasini hisoblash uchun:

- deflator (Paashe indeksi);
- iste'mol narxlari indeksi(Laspeyres indeksi);
- sanoat ishlab chiqarish baholari indeksleri hisoblanishi lozim. Deflator ko'rsatkichi quyidagi formula bilan hisoblaganadi:

$$\sum Q^i_1 P^i_1 \text{ Deflator} = 100$$
$$\sum Q^i_1 P^i_0$$

Bu yerda: i – deflatorsni hisoblash uchun bozor savatiga kiritilgan tovarlar soni;

Q^i_1 – joriy yilda bozor savatiga kiritilgan i – tovar yoki xizmatlar hajmi miqdori (Masalan 2 kg shakar, 2 dona ko'ylak va h.k);

P^i_1 – joriy yilda bozor savatiga kiritilgan i — mahsulotning shu yilga bahosi;

P^i_0 – joriy yilda bozor savatiga kiritilgan i – mahsulotning bazis yildagi bahosi.

Deflatorsni hisoblash shartlari:

- odatda o'tgan yilga nisbatan hisoblanadi;
 - bozor savati joriy yilda aniqlanib keyingi yillarda o'zgartirilishi mumkin;
 - bozor savatiga ham iste'mol ishlab chiqarish xarakteridagi tovarlar va xizmatlar kiritiladi;
 - bozor savatiga kiritilgan tovarlar va xizmatlar turlarining umumiy YaIM dagi ulushi katta qismini tashkil qilishi kerak;
 - bozor savatiga kiritilgan tovarlar va xizmatlar hajmlari o'rtasidagi nisbat

ularning YaIM dagi ulushlari o'rtasidagi nisbatga mos kelishi kerak.

Nominal YaIM yakuniy tovarlar va xizmatlar hajmini joriy narxlarda, real YaIM esa doimiy narxlarda baholaydi³².

$$\text{Real YaIM} = \frac{\text{Nominal YaIM}}{\text{Deflator}} = 100$$

Shunday qilib, real YaIM hajmi faqatgina ishlab chiqarish hajmi o'sishi bilan oshadi, nominal YaIM esa tovar va xizmatlar baho darajasining o'sishi natijasida ham oshishi mumkin.

Iste'mol narxlari indeksi quyidagicha aniqlanadi:

$$\text{INI} = \frac{\sum Q^i_0 P^i_1}{\sum Q^i_0 P^i_0}$$

Bu yerda:

Q^i_0 – bazis yilda bozor savatiga kiritilgan i – tovar va xizmatlar hajmi; P^i_1 – i – tovarning joriy yildagi bahosi;

P^i_0 – i – tovarning bazis yildagi hajmi.

Iste'mol narxlari indeksi hisoblashning shartlari;

- bozor savati bazis yil uchun aniqlanadi va bir necha yil davomida o'zgarmaydi;

- bozor savatiga faqat iste'mol xarakteridagi tovarlar va xizmatlar kiritiladi;

- bozor savatiga kiritilgan tovarlar va xizmatlarning hajmi iste'mol xarajatlarining katta qismini tashkil etishi kerak.

INI ko'rsatkichining kamchiligi shundaki bozor savati tarkibi o'zgaras bo'lganligi tufayli aholi iste'moli tarkibida tovarlar va xizmatlar ulushining o'zgarganligini, shuningdek tovarlar va xizmatlar sifatida ro'y bergan o'zgarishlarni hisobga olish imkonini bermaydi Shu sababli bu indeks baholar darajasini biroz oshirib ko'rsatadi.

YaIM deflatori esa bozor savatiga joriy yilda kiritilmay qolgan tovarlar baholarining oshishini hisobga olish imkonini bermasligi tufayli baholar darajasini biroz pasaytirib ko'rsatadi. Shu sababli bu ikki indeksning o'rtacha darajasini xarakterlovchi Fisher indeksi hisoblanadi:

$$I_f = \sqrt{I_{def} * I_{ini}}$$

³² N. Gregory Mankiw. Macroeconomics. 8 th edition. Harvard University. (NY.: Worth Publishers, 2013): 24

Sanoat ishlab chiqaruvchilar baho indeksi iste'mol narxlari indeksi singari hisoblanadi. Lekin bozor savatiga sanoat mahsulotlarigina kiritilib ular ulgurji baholarda hisoblanadi.

20.6. Asosiy makroiqtisodiy ayniyatlar

Milliy iqtisodiyot rivojlanishi jarayonlarida turli makroiqtisodiy ko'rsatkichlar o'rtasida ma'lum proporsiyalar yoki tenglik ta'minlanishi lozim. Proporsiya atamasi aynan tenglikni bildirmasdan bir butunga nisbatan uning bo'laklarining nisbatini, yoki shu bo'laklar o'rtasidagi nisbatni bildiradi. Bunga mavzuimizning YaMTD ning yakuniy iste'mol va milliy jamg'arishga bo'linishini misol qilib keltirish mumkin.

Odatda YaMTD hajmida yakuniy iste'mol hajmi yuqori bo'ladi. Ammo mavzuning 4-savolida Xitoy Xalq Respublikasi misolida ko'rdikki milliy jamg'armalarning ulushi ham yuqori bo'lishi mumkin ekan. Demak yakuniy iste'mol va milliy jamg'armalarning YaMTD dagi ulushi 3:1 proporsiyada ham, 2:1 proporsiyada ham bo'lishi mumkin ekan.

Shu bilan birga iqtisodiyotda muvozanat bo'lishi uchun ayrim ko'rsatkichlarning aynan teng bo'lishi talab etiladi. **Turli makroiqtisodiy ko'rsatkichlar, yoki ko'rsatkichlar guruhlari o'rtasidagi mavjud bo'ladigan, yoki mavjud bo'lishi iqtisodiy qonuniyat hisoblagan o'zaro tenglikka makroiqtisodiy ayniyat deyiladi.**

Xarajatlar va daromadlar ko'rinishida hisoblangan YaIM ko'rsatkichlarining o'zaro tengligi asosiy makroiqtisodiy ayniyat hisoblanadi.

$$Y = C + I + G + X_n$$

Ikkinchi bir makroiqtisodiy ayniyat investitsiyalar va jamg'armalar o'rtasidagi tenglik hisoblanadi.

Investitsiyalar miqdori mamlakatdagi jamg'armalar miqdoriga bog'liq bo'ladi. Bu ikki ko'rsatkich o'rtasidagi tenglikka erishish makroiqtisodiy barqarorlikka erishishning muhim shartidir. Agarda, milliy iqtisodiyot tashqi dunyo bilan hech qanday aloqaga ega emas ($X_n = 0$) va davlatning iqtisodiyotga aralashuvi nolga teng ($G=0$), deb faraz qilinsa, unda YaIM orqali ifodalangan ishlab chiqarish hajmi ShTD ga teng bo'ladi. Ya'ni:

$$YaIM = ShTD = C + S, \text{ ayni paytda: } YaIM = C + I$$

Bu yerda makroiqtisodiy ayniyat quyidagi ko'rinishga ega bo'ladi:

$$C + I = C + S \text{ yoki } I = S$$

Ushbu ayniyatdan ko'rinib turibdiki, uy xo'jaliklarining jamg'arishga bo'lgan istaklari tadbirkorlikning qancha miqdorda investitsiyalash xohishlariga mos tushsa, unda daromadlar hajmi ($C+S$) va yalpi xarajatlar ($C+I$) hajmiga tengligiga yoki ishlab chiqarishning muvozanat darajasiga erishish mumkin.

Aytaylik, mamlakat iqtisodiyoti ochiq, ya'ni eksport-import aloqalari yo'lga qo'yilgan, soliq solish va transfert to'lovlari ko'rinishida davlat aralashuvi mavjud bo'lsin. Bunday holatda jamg'arish tushunchasi murakkablashib, quyidagi ko'rinishga ega bo'ladi³³:

$$S = Sp + Sg + Sx$$

Bu yerda: Sp - xususiy jamg'armalar; Sg - davlat jamg'armalari;

Sx - boshqa mamlakatlar jamg'armalari.

Bunda xususiy jamg'armalar daromadlar (Y), transfert to'lovlari (TR), davlat zayomlari bo'yicha foizlar yig'indisidan (N) soliqlar (T) va iste'mol

(C) xarajatlari yig'indisini ayirish natijasiga teng bo'ladi.

$$Sp = (Y + TR + N - T) - C$$

Davlat jamg'armalari quyidagi miqdorga teng bo'ladi:

$$Sg = (T - TR - N) - G$$

Agar davlat jamg'armalari nolga teng bo'lsa, davlat budjeti muvozanatlashgan, jamg'arishning manfiy miqdori budjet taqchilligini (BT) bildiradi:

$$BT = - Sg$$

Bu yerda: BT – budjet taqchilligi miqdori.

Boshqa mamlakatlarning jamg'armalari tashqi dunyoning bizning importimiz hisobiga olgan daromadlaridan ularning bizning eksportimizga sarflangan harajatlarini ayirib topiladi.

$$Sx = M - X \text{ yoki } Sx = -Xn$$

Agar mamlakat eksportiga nisbatan ko'proq import qilsa, unda daromadlarning bir qismi xorijda qoladi va keyinchalik undan xorijiy sheriklar tomonidan mamlakatimizda ko'chmas mulk va moliyaviy aktiv sotib olishda foydalaniladi.

Har qanday holatda ham barcha turdagi jamg'armalarning umumiy yig'indisi investitsiyalarga teng bo'ladi:

$$Sp + Sg + Sx = (Y + TR + N - T) - C + (T - TR - N) - G + (-Xn)$$

yoki

$$Sp + Sg + Sx = Y - C - G - Xn \quad S = C + I + G + Xn - C - G - Xn \quad S = I$$

Demak, iqtisodiyotdagi investitsiya xarajatlari nafaqat ichki jamg'armalar hisobiga, balki tashqi dunyo jamg'armalari hisobiga ham amalga oshirilishi mumkin. Mamlakatda investorlarga kafolatlangan yuqori foyda olishi uchun yaratilgan shart-sharoitlar xorijiy investorlar oqimining o'sishiga olib keluvchi muhim shartlardan biridir.

Keynschilar fikriga ko'ra, $S = I$ ayniyatga bozor mexanizmlari vositasida tasodifan erishiladi, xolos. Chunki investorlar va jamg'aruvchilarning rejalari o'zaro mos kelavermaydi. Shu tufayli davlat to'g'ri iqtisodiy siyosat yurguzib makroiqtisodiy barqarorlikni ta'minlashi shart.

Qisqa xulosalar

Mamlakatning makroiqtisodiy holati ko'rsatkichlar tizimi orqali baholanadi. Makroiqtisodiy tahlilda YaIM, YaMD, SIM, SMD, ShD, ShTD, YaMTD, S, S, INI, YaIM

³³ N. Gregory Mankiw. Macroeconomics. 8 th edition. Harvard University. (NY.: Worth Publishers, 2013): 70

deflator kabi ko'rsatkichlardan foydalaniladi.

YaIM - mamlakat rezidentlari tomonidan ma'lum muddat davomida ishlab chiqarilgan pirovard tovarlar va xizmatlar bozor baholarininng umumiy yig'indisidan iborat. YaIMni hisoblashning ishlab chiqarish, yakuniy iste'mol va taqsimot usulari mavjud bo'lib, ulardan dastlabki ikki turi keng qo'llaniladi.

YaIMni hisoblashda bir qiymatni ikki qayta hisoblashga yo'l qo'ymaslik uchun uni qo'shilgan qiymatlar yig'indisi ko'rinishida hisoblanadi. Bu usul YaIMni hisoblashning ishlab chiqarish usuli deyiladi.

YaIMni xarajatlar ko'rinishida to'rt guruhdagi xarajatlar - iste'mol, investitsiya, davlat xaridi va sof eksport xarajatlari yig'indisi orqali hisoblanadi.

Har uchala usulda hisoblangan YaIM ko'rsatkichi hajmi statistik xatolar istisno etilganda o'zaro teng bo'ladi.

Milliy hisobchilik tizimining barcha ko'rsatkichlarini hisoblashning uslubiy bazasi bitta bo'lgani uchun ularni o'zaro taqqoslash imkoni mavjud.

Makroiqtisodiy tahlilda YaIM ko'rsatkichi bilan birga YaMD ko'rsatkichidan ham foydalaniladi. YaMD - mamlakat rezidentlari tomonidan, mamlakatda va mamlakat tashqarisida, ishlab chiqarishda ishtirok etish va mulkdan olgan boshlang'ich daromadlari yig'indisidir. Soddalik uchun YaIM yalpi ishlab chiqarish, YaMD esa yalpi daromad deb ham yuritiladi. Milliy ishlab chiqarish va daromad hajmining real o'zgarishini aniqlash uchun baholar indekslaridan: YaIM deflatori va INI ko'rsatkichlaridan foydalaniladi.

Nazorat va muhokama uchun savollar

1. Milliy iqtisodiyotni tahlil qilish uchun foydalaniladigan ko'rsatkichlardan qaysilari makroiqtisodiy ko'rsatkichlar hisoblanadi?

2. Qo'shilgan qiymat, yakuniy mahsulot, oraliq mahsulot ko'rsatkichlarini tavsiflab bering.

3. Nima uchun YaIM ko'rsatkichini qayta hisoblashdan ehtiyot bo'lish zarur va bunga qanday erishiladi?

4. YaIMni xarajatlar bo'yicha hisoblashda qo'llaniladigan komponentlar tarkibini sanab o'ting.

5. O'zbekiston Respublikasida YaIMning ishlab chiqarish strukturasi tahliliy sharh bering.

6. YaIMni taqsimot usulida aniqlashda MHTning yangi talqinida keltirilgan hamda iqtisodiy adabiyotlarda qo'llab kelinayotgan uslublardagi farqlarni tushuntirib bering.

7. YaMD ko'rsatkichi qanday hisoblanadi va YaIM ko'rsatkichidan nimasi bilan farq qiladi?

8. ShD, ShTD, YaMTD ko'rsatkichlari o'rtasidagi bog'liqlik va farqlar nimada?


9. Baholar indekslarini va real YaIM ni hisoblash zaruratini asoslab bering?

21-bob. IQTISODIY TEBRANISHLAR. ISHSIZLIK

21.1. Iqtisodiy davrlar va iqtisodiy tebranishlarning sabablari

Mamlakatlarning iqtisodiy rivojlanish tarixini o‘rganish, ulardan hech biri uzoq muddatda bir tekis rivojlanmaganligi, aksincha, barcha malakatlar uchun davriy rivojlanish xos ekanligini ko‘rsatadi.

Ishlab chiqarish, bandlilik va inflatsiya darajasining davriy tebranishga iqtisodiy davr (sikl)lar deyiladi. Ayrim iqtisodiy davrlar boshqalaridan o‘tish davrining davomiyligi va faolligi bilan farq qiladi. Shunga qaramasdan ularning barchasi bir xil bosqichlardan tashkil topadi (3.1-rasm).



21.1-rasm. Iqtisodiyotning davriy rivojlanishi

Iqtisodiy davrlar to‘rtta bosqichni o‘z ichiga oladi. Birinchi bosqich iqtisodiy rivojlanishning eng yuqori darajasiga erishilgan bosqich bo‘lib, u «**cho‘qqi**» deb yuritiladi. Bu iqtisodiyotda ish bilan to‘liq bandlik, ishlab chiqarish to‘la quvvatda ishlayotganligi, shuningdek, mahsulotlarning baho darajasining o‘shish holati kuzatiladi.

Keyingi bosqich **pasayish (retsessiya)** bosqichidir. Bunda ishlab chiqarish va bandlik darajalari kamayadi, ammo bahoning o‘shish darajasi pasaymaydi. Bu bosqich faol va uzoq davom etsagina bahoning o‘shish darajasi sustlashishi mumkin. **Pasayishning quyi** nuqtasida ishlab chiqarish va bandlik eng quyi darajaga tushadi va turg‘unlik davri boshlanadi.

Ko‘tarilish bosqichida ishlab chiqarish va bandlik darajasi asta-sekin oshib, ishlab chiqarish quvvatlaridan to‘liq foydalanish va to‘liq bandlik darajasiga erishiladi.

Yuqorida ta’kidlaganimizdek, iqtisodiy davrlar bir xil bosqichlarga ega bo‘lsada, ammo ular davomiyligi va faolligiga ko‘ra o‘zaro farq qilib turadi. Shuning

uchun ham iqtisodchilar, bu jarayonlarni iqtisodiy davrlar deb emas, balki iqtisodiy tebranishlar deb atash to'g'ri bo'ladi deb hisoblashadi. Iqtisodiy tebranishlarning asosiy sababi sifatida iqtisodchilar uch omilni ko'rsatadi.

Birinchi guruh olimlar iqtisodiy tebranishlarning asosiy sababi texnika va texnologiyalarda ro'y beradigan o'zgarishlar deb hisoblaydilar. Ularning fikricha fan-texnika yutuqlarini qo'llash natijasida iqtisodiyotda o'sish ro'y beradi. Masalan avtomobilning yaratilishi yoqilg'i sanoati, neft qazib chiqarish, ximiya, yo'l qurilishi materiallari sanoatlarining jadal rivojlanishiga sabab bo'ldi. Yangi texnologiyalar ishlab chiqarish unumdorligini bir necha baravar oshirish, ilgari foydalanilmagan resurslarni ishga tushirish imkonini beradi. Texnik va texnologik yangiliklar doim ham yaratilavermasligi iqtisodiyotdagi tebranishlarga sabab bo'ladi.

Olimlarning yana bir guruhi iqtisodiy bosqichlarni siyosiy va tasodifiy vaziyatlarga bog'lashadi.

Bu jarayonni monetar siyosatga bog'laydigan olimlar ham mavjud. Ya'ni, davlat qanchalik ko'p pul bosib chiqarsa, uning qadri shunchalik kamayib boradi, va aksincha, pul miqdori qanchalik kam bo'lsa, ishlab chiqarish ko'lamining pasayishi va ishsizlar sonining ortishi shunchalik tezlashadi. Xullas, iqtisodiy bosqichlarni baholashga turli xil yondashuvlar mavjud. Ammo barcha iqtisodchilar, ishlab chiqarish va bandlilik darajalarini yalpi talab va boshqacha aytganda yalpi xarajatlar miqdoriga bog'liq, degan fikrni qo'llab-quvvatlaydilar. Chunki, korxonalar o'z tovar va xizmatlarini ularga talab bo'lsagina ishlab chiqaradi. Boshqacha aytganda, talab katta bo'lmasa, korxonalarda tovar va xizmatlarni katta miqdorda ishlab chiqarish foydali emas. O'z navbatida, ishlab chiqarishda bandlilik va daromadlar darajasi ham, aynan shu sababli, past bo'ladi. Yalpi xarajatlar miqdori qanchalik ko'p bo'lsa, ishlab chiqarishning o'sishi katta foyda olib keladi. Shuning uchun ishlab chiqarish, bandlilik va daromadlar darajasi ortib boradi. Iqtisodiy tebranishlar sabablarini, ularga ta'sir etuvchi omillarni o'rganish, iqtisodiy tebranishlar amplitudasini qisqartirish barcha hukumatlar makroiqtisodiy siyosatining muhim maqsadlaridan biridir.

Shu o'rinda quyidagi misolni keltiramiz. 2008 yilda yuzaga kelgan jahon moliyaviy -iqtisodiy inqirozi dunyodagi deyarli barcha rivojlangan mamlakatlarda makroiqtisodiy berqarorlikni keltirib chiqardi. «Bu inqiroz Amerika Qo'shma Shtatlarida ipotekali kreditlash tizimida ro'y bergan tanglik holatidan boshlandi. So'ngra bu jarayonning miqyosi kengayib, yirik banklar va moliyaviy tuzilmalarning likvidlik, ya'ni to'lov qobiliyati zaiflashib, moliyaviy inqirozga aylanib ketdi. Dunyoning etakchi fond bozorlarida eng yirik kompaniyalar indeksleri va aksiyalarining bozor qiymati halokatli darajada tushib ketishiga olib keldi. Bularning barchasi, o'z navbatida, ko'plab mamlakatlarda ishlab chiqarish va iqtisodiy o'sish sur'atlarining keskin pasayib ketishi bilan bog'liq ishsizlik va boshqa salbiy

oqibatlarni keltirib chiqardi»³⁴.

Dastlab AQSh ipoteka bozorlarida namoyon bo'lgan mazkur inqiroz etarlicha to'lov layoqatiga ega bo'lmagan, qarzlarni qaytarish qobiliyati shubhali bo'lgan qarzdorlarga ipoteka kreditlari berish amaliyotining jadallashuvi natijasida ro'y berdi.

Modomiki, ipoteka krediti o'zining mohiyati bo'yicha ko'chmas mulk garovi hisobiga beriladigan kreditlar bo'lsada, AQSh bozorlari bunday likvidli ko'chmas mulklarga etarlicha «to'yindi» va ularning narxlari keskin tusha boshladi. Buning ustiga investitsion banklarning AQSh ipoteka bozorlaridagi yangi moliyaviy «mahsulot» hisoblangan aktivlarni sekyuritizatsiyalash bo'yicha operatsiyalarining avj olishi ipoteka bozorlaridagi tanazzullik holatlari ehtimolligini oshirdi.

AQSh iqtisodiyoti yaratilgan shart-sharoitlar tufayli arzon kredit resurslariga to'yindi va bu Federal zahira tizimi (FZT) amalga oshirayotgan pul-kredit siyosatini o'zgartirishiga olib keldi. Natijada 2004-2006 yillarda Federal zahira tizimi foiz stavkalarini 6,25% gacha ko'tardi. Kreditlarning qimmatlashuvi aholini ipotekaga nisbatan talabining pasayishiga va kreditlarni qaytarish bo'yicha qarzdorlar to'lovining qisqarishiga olib keldi. Pirovard natijada 2007 yil boshida AQShda aholining ipoteka kreditlarini qaytarishi bilan bog'liq muammo kuchaydi. Qarzdorlarning ko'chmas mulk garovi bilan olingan kreditlarni qaytarishdan ko'ra to'lovlarni to'lashdan bosh tortish holati kengaydi. Banklarning to'lov qobiliyatiga ega bo'lmagan mijozlarning ko'chmas mulklarini qayta sotuvga qo'yishi natijasida ipoteka bozoridagi taklif ko'payib, bozordagi narxlarning keskin pasayishiga olib keldi.

Pirovard natijada 2007 yil boshida AQShda aholining ipoteka kreditlarini qaytarishi bilan bog'liq muammo kuchaydi. Qarzdorlarning ko'chmas mulk garovi bilan olingan kreditlarni qaytarishdan ko'ra to'lovlarni to'lashdan bosh tortish holati kengaydi. Banklarning to'lov qobiliyatiga ega bo'lmagan mijozlarning ko'chmas mulklarini qayta sotuvga qo'yishi natijasida ipoteka bozoridagi taklif ko'payib, bozordagi narxlarning keskin pasayishiga olib keldi.

Aksariyat moliyachi-iqtisodchilar vujudga kelgan moliyaviy inqirozning haqiqiy sabablaridan biri sifatida rivojlangan mamlakatlarda iqtisodiyotni haddan ziyod ortiqcha erkinlashtirish siyosatining «mevasi» ekanligini, ya'ni

«o'z-o'zini boshqaruvchi bozor» g'oyasini ilgari surish orqali davlatning milliy iqtisodiyotga va xususan moliyaviy bozorlarga aralashuvini cheklanganligi bilan ham izohlamoqdalar.

Yuzaga kelgan global moliyaviy –iqtisodiy inqiroz jahonning asosiy moliyaviy markazlari hisoblangan yirik fond bozorlarini o'z ichiga oluvchi mamlakatlar iqtisodiyotiga jiddiy ta'sir ko'rsatdi. Uning o'ziga xos xususiyati shundaki, moliyaviy inqiroz inflatsiya, qator banklar va moliyaviy muassasalarning tanazzulga yuz tutishi ta'sirida ishsizlik, ishlab chiqarish sur'atlarining pasayishi va boshqalar negizida

³⁴ Karimov I.A. Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi, O'zbekiston sharoitida uni bartaraf etishning yo'llari va choralari. – T.: O'zbekiston, 2009, 4-b.

iqtisodiy inqiroz shaklida kuchayib bormoqda. Bundan ko‘rinadiki, hozirgi jahon moliyaviy inqirozining o‘ziga xos xususiyati – bu uning iqtisodiyotning moliyaviy sektoridan boshlanib, real sektoriga o‘tganligidir.

Global inqiroz bo‘yicha ko‘p sonli nashrlarni tahlil qilish shuni ko‘rsatdiki, dunyoning rivojlangan davlatlari uchun inqirozning harakat nuqtasi moliyaviy bozorlarning beqarorligi bo‘ldi va inqirozning rivojlanishi sxemasi quyidagi ko‘rinishda bo‘ldi:

Moliyaviy bozorlarning beqarorligi → Kreditlarning qisqartirilishi va iste’molning pasayishi → Ishlab chiqarish va eksportning qisqarishi, ishsizlikning o‘shishi.

Shunga ko‘ra, hukumatlar darajasida inqirozdan chiqish bo‘yicha davlat dasturlarini ishlab chiqishda bandlik masalalarini, talabni rag‘batlantirish orqali ishlab chiqarish ko‘lamini kengaytirishga qaratilgan keskin choralarni ko‘rish masalasini ko‘ndalang qilib qo‘ymoqda.

21.2. Ishsizlik tushunchasi va ishsizlik darajasining o‘lchanishi

Iqtisodiyotning beqaror rivojlanishi oqibatida, iqtisodiy pasayish davrida ishlab chiqarish resurslari to‘liq foydalanilmay qoladi.

YaIMni yaratishda qatnashadigan iqtisodiy resurslarning eng asosiylaridan biri bo‘lgan mehnat resurslaridan to‘liq foydalanilmaslik ishsizlikda namoyon bo‘ladi.

Makroiqtisodiy tahlilda mehnat resurslari emas balki ishchi kuchi kategoriyasidan ko‘proq foydalaniladi.

Ishchi kuchi yoki iqtisodiy faol aholi deganda mehnatga layoqatli yoshdagi ishlayotgan va ishsiz yurgan aholining umumiy soni tushuniladi³⁵.

Mehnat bozorida boshqa resurslar bozori singari talab va taklif qonuni amal qiladi. Ishchi kuchining bahosi hisoblangan real ish haqi hajmi oshsa ishchi kuchiga bo‘lgan talab qisqaradi, agar real ish haqi hajmi kamaysa ishchi kuchiga bo‘lgan talab ortadi, ishchi kuchi taklifi esa kamayadi. Ishchi kuchiga bo‘lgan talab miqdorining ishchi kuchi taklifi miqdoridan kam bo‘lishi ishsizlikni keltirib chiqaradi.

Ishsizlar – bu, ishchi kuchining bir qismi bo‘lib, ijtimoiy ishlab chiqarishda band bo‘lmagan, lekin ishlashni xohlovchi va faol ish qidirayotgan aholidir.

Ishsizlik darajasi deb ishsizlarni ishchi kuchi soniga nisbatiga (% hisobida) aytiladi va uni quyidagi formula bilan aniqlash mumkin:

Ishsizlik darajasi = (ishsizlar soni / ishchi kuchi soni) x 100

Ishsizlikning quyidagi turlari mavjud:

Friksion ishsizlik. Unga ish qidirayotgan yoki yaqin vaqtlar ichida ish bilan ta’minlanishni kutayotgan ishchi kuchi kiradi³⁶. Ishsizlikning bu turi asosan ish yoki turar

³⁵ N. Gregory Mankiw. Macroeconomics. 8 th edition. Harvard University. (NY.: Worth Publishers, 2013): 37

³⁶ N. Gregory Mankiw. Macroeconomics. 8 th edition. Harvard University. (NY.: Worth Publishers, 2013): 180

joylarni o'zgartirish, o'quv yurtlarini tugatish va shuningdek, boshqa sabablardan kelib chiqadi. U doimo mavjud bo'lib, ma'lum bir darajada kerakli hisoblanadi.

Tarkibiy ishsizlik. Tarkibiy ishsizlar guruhiga ishlab chiqarish strukturasi o'zgarishi natijasida ishchi kuchiga talab tarkibining o'zgarishi natijasida ishsiz qolganlar kiradi. Unga asosan malakalarini o'zgartirishi va oshirishi, ma'lumot olishi, yangi kasb egallashi lozim bo'lgan ishsizlar guruhlar kiradi. Friksion ishsizlik bilan tarkibiy ishsizlikning asosiy farqi shundaki, birinchisida, ma'lum malaka va tajriba mavjud bo'ladi va undan foydalanib, ish joylarini tezroq topib olishadi, ikkinchisida esa, ishchi kuchi darhol va tezroq ish joylarini topa olmaydi.

Davriy ishsizlik asosan ishlab chiqarishning pasayishi natijasida ishchi kuchiga bo'lgan talabning kamayishidan paydo bo'ladi. Davriy pasayish tovar va xizmatlarga bo'lgan yalpi talabning kamayishini, shunga muvofiq, yalpi tatalabning kamayishini, va oqibatda aholining ish bilan bandligi qisqarishi va ishsizlikning o'sishini bildiradi.

To'la ish bilan bandlik ishchi kuchining 100 foiz ish bilan ta'minlanganligini bildirmaydi. Aksincha, friksion va strukturali ishsizlik ilojsiz hol bo'lganligini hisobga olsak, biz mutlaq to'la ish bilan bandlikka erishib bo'lmasligini tushunamiz.

Agarda davriy ishsizlik bo'lmasa, u holda to'la ish bilan bandlikka erishiladi. To'la ish bilan bandlik davridagi ishsizlik, **ishsizlikning tabiiy darajasi** deyiladi.

Bunga ish qidiruvchilar soni bo'sh ish joylari soniga muvofiq kelsagina erishish mumkin. Ishsizlikning tabiiy darajasi friksion va tarkibiy ishsizlik yig'indisiga teng bo'ladi.

Ishsizlikning tabiiy darajasi doimiy emas, chunki u iqtisodiy vaziyat, qonun va milliy an'analar bilan bog'liq holda o'zgarib turadi.

Ishsizlikning tabiiy darajasi mamlakatdagi oxirgi o'n yilda mavjud bo'lgan haqiqiy ishsizlik darajasi va keyingi o'n yil uchun prognoz qilib hisoblangan ishsizlik darajalarining o'rtacha miqdori sifatida belgilanadi. Umumiy holda ishchi kuchi ish bilan band va faol ish qidirib yurgan ishsizlarga bo'linadi.

21.3. Ishsizlikning iqtisodiy oqibatlari. A. Ouken qonuni

Barcha mavjud resurslardan to'liq foydalanish yoki ishsizlikning tabiiy darajasi holatida iqtisodiyotda yaratilishi mumkin bo'lgan mahsulot hajmini iqtisodiyotning **ishlab chiqarish potentsiali** deb ataladi. Mamlakatning ishlab chiqarish potentsiali potentsial YaIM ko'rsatkichi bilan o'lchanadi.

Makroiqtisodiy beqarorlik tufayli, iqtisodiy pasayish davrida mamlakat o'z iqtisodiy potentsialini to'liq ishga solmasdan, yaratilgan haqiqiy YaIM hajmi (Yh) potentsial YaIM (Yp) hajmidan ortda qoladi. Ya'ni YaIMning uzilishi (YuZ) ro'y beradi.

$$\begin{aligned} Y_h - Y_p \\ Y_uZ = 100 \\ Y_p \end{aligned}$$

Potensial YaIM deganda mamlakatdagi ishlab chiqarish resurslaridan to'liq foydalanilgan sharoitda mumkin bo'lgan ishlab chiqarish hajmi tushuniladi.

Potensial YaIM*ni hisoblashda mamlakatda ishsizlik mutlaqo yo'q deb emas, balki mavjud, biroq u tabiiy darajada, deb hisoblanadi.

Ishsizlik darajasining oshishi natijasida iqtisodiyot potensial YaIM hajmini ololmaydi. Shu sababli mamlakat miqyosida ishsizlikni uning tabiiy darajasida saqlash va tartibga solish iqtisodiy jihatdan katta ahamiyatga ega. Ishsizlikning haqiqiy darajasi uning tabiiy darajasidan qanchalik yuqori bo'lsa, YaIM uzilishi shuncha ko'p bo'ladi. Shuning uchun ham potensial hajmdagi YaIM* haqiqiy YaIM dan katta bo'ladi.

Ishsizlik darajasi va YaIM uzilishi o'rtasidagi miqdoriy nisbatni ingliz iqtisodchisi Artur Ouken matematik holda isbotlab bergan. Shuning uchun bu qonun, OUKEN qonuni deyiladi.²⁶ Qonunning mohiyati shundan iboratki, agar ishsizlikning haqiqiy darajasi uning tabiiy darajasidan bir foizga oshib ketsa, ya'ni davriy ishsizlik 1 foizni tashkil etsa milliy iqtisodiyot YaIMni ikki yarim foizga kam yaratadi. YaIMning pastroq darajasi o'z navbatida, ishlab chiqarishda qatnashuvchilar daromadlarining nisbatan kamroq bo'lishini va iqtisodiyotning kelgusi taraqqiyotini investitsiyalash imkoniyatlari qisqarishini bildiradi.

Ouken qonuni ishsizlikning turli darajalaridagi mahsulot yo'qotishlari hajmini aniqlash imkonini beradi. Hozirgi kunda β koeffitsienti deb atalgan bu koeffitsient miqdori 2 foizdan 3 foiz oralig'ida deb hisoblanadi³⁷.

Ouken qonunini formulada quyidagicha tasvirlash mumkin:

$$Y_u Z = -2,5 [u - u^*]$$

Bu yerda: u^* – ishsizlikning tabiiy darajasi;

u – ishsizlikning haqiqiy darajasi.

YaIM uzilishini ifodalaydigan formula bilan Ouken qonunini formulasini umumlashtirib quyidagi formulani olamiz:

$$\frac{Y_h - Y_p}{Y_p} = -\beta [u - u^*]$$

Ouken qonuni izohlagan miqdoriy bog'liqlikning teskari jihatiga e'tibor qaratamiz. Iqtisodiy tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki YaIMning 2-3 foizga o'sishi davriy ishsizlik darajasini 1 foizga qisqarishini keltirib chiqarmas ekan. Ya'ni dastlabki 1 foizlik iqtisodiy o'sish fan-texnika taraqqiyoti natijasida resurslardan foydalanish samaradorligi hisobiga erishilishi mumkin, shuningdek bu paytda aholi sonining ko'payishi ham ishsizlik sonining pasaymasligiga sabab bo'ladi. Dastlabki 2-3 foizdan yuqori bo'lgan har 2-3 foiz iqtisodiy o'sish esa davriy ishsizlikni 1 foizga qisqarishini keltirib chiqaradi. Demak 1 foizlik davriy ishsizlikni tugatish uchun yillik 4-6 foizlik iqtisodiy o'sish ta'minlanishi kerak.

³⁷ O'zbekiston Respublikasi Bandlik va mehnat munosabatlari vazirligi ma'lumotlari

Qisqa xulosalar

Iqtisodiy davrlar asosan to'rtta bosqichini o'z ichiga oladi va ularni iqtisodiy tebranishlar deb yuritish maqsadga muvofiq. Iqtisodiy tebranishlarning sabablari xilma - xil bo'lsada, ularning barchasi yalpi xarajatlar hajmining o'zgarishi orqali YaIM dinamikasiga ta'sir ko'rsatadi.

Ishsizlik darajasi deb ishsizlar sonining ishchi kuchi soniga nisbatiga aytiladi. Ishchi kuchi ham boshqa tovar mahsulotlari kabi bozorda sotiladi va sotib olinadi. To'la ish bilan bandlik 100% ish bilan ta'minlanganlik darajasini anglatmaydi.

Kelib chiqish sabablariga ko'ra friksion, tarkibiy va davriy ishsizlik turlari mavjud.

Ishsizlikning tabiiy darajasi friksion va tarkibiy ishsizlik darajalari yig'indisiga teng bo'lib, mamlakatdagi oxirgi o'n yilda mavjud bo'lgan haqiqiy ishsizlik darajasi va keyingi o'n yil uchun prognoz qilib hisoblangan ishsizlik darajalarining o'rtacha miqdori sifatida belgilanadi.

Ishsizlar sonining oshishi, ya'ni ishsizlikning haqiqiy darajasi uning tabiiy darajasidan yuqori bo'lishi potensial hajmdagi YaIM bilan haqiqiy hajmdagi YaIM o'rtasida uzilishga olib keladi. Ouken qonuni bunday bog'liqlikning miqdoriy darajasini ifodalaydi.

AQSh ipotekali kreditlash tizimida ro'y bergan minqiroz asta sekin butun moliya tizimini qamrab oldi va pirovardida iqtisodiy inqirozga ham aylandi. Natijada iqtisodiyotda pasayish va ishsizlik darajasining o'sishi kuzatildi.

Nazarot va muhokama uchun savollar

1. Iqtisodiy tebranishlarning sabablarini qanday izohlaysiz?
2. Ishsizlikning qanday turlari mavjud? Ishsizlik darajasi qanday aniqlanadi?
3. Ishsizlikning tabiiy darajasi, ish bilan to'liq bandlilik tushunchalariga tavsif bering.
4. Potensial YaIM ko'rsatkichini izohlab bering.
5. Makrodarajada ishsizlikning iqtisodiy oqibatlarini qanday o'lchash mumkin ?

22- bob. INFLATSIYA VA INFLATSIYAGA QARSHI SIYOSAT

22.1. Inflatsiyaning mohiyati va hisoblanish usullari

Inflatsiya - ma'lum davr mobaynida mamlakatda baholar o'rtacha (umumiy) darajasining barqaror o'sishi, pulning xarid qobiliyatini uzoq muddatli pasayishi^{38,30}. Inflatsiya (lotincha *inflatio* - shishish, bo'rtish, taranglashish) - bozor iqtisodiyotining asosiy izdan chiqaruvchi omillari jumlasiga kiradi, uning sur'ati qanchalik yuqori bo'lsa, iqtisodiyotga xavfli ta'siri shunchalik katta bo'ladi. Ayniqsa bir iqtisodiy tizimdan ikkinchi bir iqtisodiy tizimga o'tayotgan mamlakatlarda inflatsiyaning iqtisodiyotga ta'siri ancha xavfli. Chunki, bu davr narxlarning erkinlashuvi va shunga muvofiq ularning umumiy darajasi keskin oshib ketishi bilan bog'liq.

Ammo inflatsiya davrida barcha tovarlarning baholari ham oshavermaydi: ayrimlariniki barqaror bo'lib tursa, ba'zilariniki esa tushishi mumkin.

"Inflatsiya" atamasi ilk bor Shimoliy Amerikada 1861-1865 yillardagi Fuqarolar urushi davrida qo'llanildi. Inflatsiyaning atamasi muomaladagi qog'oz pul massasining tovarlarning real taklifiga nisbatan haddan ziyod ko'payib ketishi holatini izohlangan. Ammo inflatsiyaning bunday tavsifi mukammal emas va uning sabablarini ochib bermaydi. Umuman olganda inflatsiya pul muomalasi qonunlarining buzilishi shakli sifatida makroiqtisodiy muvozanatning buzilishini, talab va taklif nomutanosibligini anglatadi.

Keynschiar maktabi namoyondalari bunday nomutanosiblikning sababi to'liq bandlik sharoitida talabning haddan ziyod bo'lishida deb bilishadi. Shu sababli ular ishlab chiqarish quvvatlaridan foydalanish darajasi past bo'lsa budjet taqchilligi va qo'shimcha pul chiqarish yo'li bilan xarid qobiliyatini, boshqacha aytganda yalpi talabni ko'paytirish inflatsiyaga olib kelmaydi deb hisoblashishadi.

Neoklassik yondoshuv tarafdorlari inflatsiyaning manbai ishlab chiqarishning haddan ziyod o'sishida, ishlab chiqarish xarajatlarining ko'payishida deb bilishadi. Demak keynschilar inflatsiyaga talab tomonidan, neoklassiklar esa taklif tomonidan yondoshishadi.

Agar iqtisodiyotda tovarlar va xizmatlar massasi yalpi talabga nisbatan sekinroq o'ssa, yoki yalpi talab ko'paygani holda o'zgarmasdan tursa, bu nomutanosiblik baholar darajasining ko'tarilishi orqali bartaraf etiladi. Oqibatda pul birligining xarid qobiliyati pasayadi va milliy iqtisodiyotning qo'shimcha pul massasiga ehtiyoji paydo bo'ladi.

Inflatsiya nafaqat pul muomalasining izdan chiqishi, balki butun takror ishlab chiqarish mexanizmining kasali, makroiqtisodiy buzilishlar natijasidir. Baholarning o'sishi, pul birligi xarid qobiliyatining pasayishidan tashqari inflatsiya namoyon bo'lishining quyidagi uch belgisi ham bor. Bular:

³⁸ N. Gregory Mankiw. *Macroeconomics*. 8 th edition. Harvard University. (NY.: Worth Publishers, 2013): 101

- 1) valuta kururslarining o'zgarishi;
- 2) kredit berish shartlarining qimmatlashuv va muddatlarining qisqarishi tomon o'zgarishi;

3) kundalik ehtiyoj mollaridan iborat iste'mol savati bahosining o'sishi.

Inflatsiya baho indeksleri - deflator va iste'mol narxlar indeksi yordamida aniqlanadi.

Baholar o'rtacha (umumiy) darajasining nisbiy o'zgarishi **inflatsiya darajasi (baholarning o'sish sur'ati)** deb ataladi. Makroiqtisodiy modellarda inflatsiya darajasi quyidagicha ifodalanishi mumkin:

$$P-P-1 \pi = \text{-----}$$

P-1 bunda: π – yillik inflatsiya sur'ati;

P - joriy yilning narxlar indeksi; **P-1** - o'tgan yilning narxlar indeksi.

Inflatsiyani miqdoran o'lchash uchun makroiqtisodiyotda «70-miqdor qoidasi» deb atalgan usuldan ham foydalaniladi. Bu usul narxlarning barqaror o'sishi sharoitida inflatsiya darajasi necha yilda ikki baravarga oshishini aniqlash imkonini beradi. Buning uchun 70 ni yillik inflatsiya darajasiga bo'lish kifoya:

Baholar ikki martaga 70

oshishi uchun zarur = -----

yillar soni π

Misol uchun, yillik inflatsiya darajasi 7 % ga teng bo'lsa, taxminan 10 yilda baholar ikki martaga oshadi, ya'ni, $(70:7 = 10)$.

Real YaIM va jamg'armaning necha yildan so'ng ikki marta oshishini hisoblash zarur bo'lgan hollarda ham «70-miqdor qoidasidan» foydalaniladi.

22.2. Inflatsiyaning turlari. Talab va taklif inflatsiyasi

Talab inflatsiyasi iqtisodiyotda talab keskin oshib ketishi va uni ishlab chiqarishning real hajmi bilan qondirish mumkin bo'lmay qolgan sharoitlarda kelib chiqadi. Ya'ni, to'liq bandlilikka yaqin sharoitda iqtisodiyotning ishlab chiqarish imkoniyatlari o'sib borayotgan yalpi talabni qondirolmaydi. Ortiqcha talab esa real tovarlar bahosining ko'payishiga iqtisodiy bosim beradi va talab inflatsiyasi kelib chiqadi. Yoki, oddiy so'zlar bilan aytganda,

«haddan ziyod pullar haddan kam tovarlarni ovlaydi». Talab inflatsiyasini keltirib chiqaruvchi asosiy sabablar aholining ish bilan to'liq bandligi va ish haqining oshib borishi hisoblanadi. Demak, inflatsiya talab, taklif, ish bilan bandlik, baho, ishlab chiqarish sur'atlari kabi ko'pgina omillarga bog'liq.

Iqtisod pasayish holatida bo'lganda mamlakatda yalpi talab oshsa, ishlab chiqarish hajmi ko'payadi, ishsizlik kamayadi, baho darajasi esa deyarli o'zgarmaydi yoki kam miqdorda o'zgaradi. Baho o'zgarishining sababi shundaki katta hajmdagi bo'sh turgan mehnat va xom ashyo resurlarini shu o'zgarish bahoda ishga tushirish mumkin bo'ladi. Chunki, ishsiz yurgan kishi ish haqini oshirishni talab

qilmaydi, uning uchun ishga yollanishning o'zi kifoya hamda qo'shimcha stanok sotib olishga hojat yo'q.

Bundan tashqari, baho ishchi kuchini to'la ish bilan bandligiga erishishdan oldin ham oshishi mumkin. Ya'ni, ba'zi sanoat korxonalarida bo'sh turgan resurs va zahiralarni ishlab chiqarishga ertaroq to'liq jalb qilinadi, natijada ular talabning o'sishiga mos ishlab chiqarishga, taklifga erisha olmaydi. Talab, taklifdan ko'payib ketadi, natijada baho yana osha boshlaydi.

Taklif inflatsiyasi bu, mamlakat iqtisodiyotida tovar va xizmatlar taklifining kamayishi natijasida tovar va xizmatlar baholarining oshishidan paydo bo'ladi. Bunday hollarda ortiqcha talab bo'lmasa ham tovarlarning baholari oshib boradi. Hatto ish bilan bandlik va YaIM ishlab chiqarish kamaygan yillari tovarlarning bahosi oshadi. Yalpi taklif qisqarishining asosiy sababi mahsulot birligiga sarflangan xarajatlarning o'sishi hisoblanadi. Bunda nominal ish haqi, xom ashyo va yoqilg'i narxlarining oshishi natijasida ishlab chiqarish tannarxi ham oshadi.

Taklif inflatsiyasining kelib chiqishiga, shuningdek, taklif mexanizmining buzilishi ham ta'sir qiladi. Taklif mexanizmi esa tasodifiy holda asosiy ishlab chiqarish omillari bahosining keskin ko'payishidan kelib chiqadi. Iqtisodchi olimlarning fikriga ko'ra, taklif inflatsiyasi o'z-o'zini cheklaydi. Ishlab chiqarishning pasayishi xarajatlarning qo'shimcha o'sishini cheklaydi, chunki ishsizlikning o'sishi nominal ish haqining asta-sekin pasayishiga olib keladi. Talab inflatsiyasini cheklash uchun esa maxsus chora-tadbirlar ko'rish zarur bo'ladi. Inflatsiya darajasi yuqori bo'lgan mamlakatlarda ishlab chiqarishning haqiqiy hajmi qisqarishi bilan bir vaqtda nominal hajmining ortib borishi kabi vaziyat sodir bo'ladi. Daromadlarni ishlab chiqarish tomonidan ta'minlanmagan o'sishi aholi qo'lidagi pulning taklif qilinayotgan tovar va xizmatlardan oshiqchaligiga olib keladi. Bunday hol pul birligining xarid quvvatini pasaytiradi, bir miqdordagi pulga joriy yilda o'tgan yildagiga nisbatan aholi kamroq mahsulot sotib oladi, ya'ni, uning real daromadi kamayadi. Misol uchun, joriy yilda aholining nominal daromadlari 30% ga ko'paygan, narxlar darajasi 50% ga oshgan bo'lsa, unda aholining real daromadlari 20% ga kamaygan bo'ladi. Chunki, narxlarning o'sishi aholi pul daromadlarining o'sishidan yuqori bo'lgan (30% - 50%q- 20%).

Inflatsiyani real daromadlar darajasiga ta'siri u kutilayotgan yoki kutilmayotganiga ham bog'liq. **Kutilayotgan inflatsiya** sharoitida daromad oluvchi inflatsiyaning u olayotgan daromadga ta'sirini kamaytirish, ya'ni real daromadi darajasini saqlab qolish chorasini ko'radi.

Bu uchun Fisher tenglamasidan foydalanish mumkin:

$$i = r + \pi kut$$

bu yerda i -nominal foiz stavkasi; r - real foiz stavkasi; π_{kut} - kutilayotgan infnflyasiya darajasi³⁹.

Inflatsiya sur'ati 10 foizdan oshganda Fisher tenglamasi quyidagi ko'rinishni oladi:

$$r = \frac{i - \pi_{kut}}{1 + \pi_{kut}}$$

Kutilmagan inflatsiya daromadlarni debitorlar va kreditorlar o'rtasida kreditorlar foydasiga qayta taqsimlaydi. Shuningdek kutilmagan inflatsiya daromadlarni qayd qilingan daromad oluvchilar va qayd qilinmagan daromad oluvchilar o'rtasida keyingilari foydasiga qayta taqsimlaydi. Talab va taklif inflatsiyasini qat'iy chegaralash qiyin. Ba'zida bu ikki turdagi inflatsiya bir- biri bilan qo'shib ketadi. Masalan, talab inflatsiyasi sharoitida yollanma ishchilar kutilayotgan inflatsiya darajasini e'tiborga olib ish haqlari oshirilishini mehnat shartnomalariga kiritadilar. Bu esa mahsulot tannarxini oshirib taklif inflatsiyasini keltirib chiqaradi. Tovarlar taklifning kamayishini kuzatayotgan iqtisodiy agentlar pul mablag'larini tovarlarga aylantirishga shoshadilar. Bu holat talab inflatsiyasi ko'rinishini keltirib chiqaradi. Bunday ketma-ketlik oxir-oqibat giperinflatsiyani keltirib chiqarishi mumkin. Giperinflatsiya boshqarib bo'lmaydigan inflatsiya jarayoni bo'lib, ishlab chiqarish va bandlik darajalariga halokatli ta'sir ko'rsatadi. Yillik sur'ati bir necha o'n yoki yuz foizni tashkil etgan inflatsiya pul tizimining boshlanayotgan yoki kuchayayotgan inqirozi belgisidir. Giperinflatsiya uning halokatini, butun bozor mexanizmi falajlanishini anglatadi. Giperinflatsiyaning rasmiy mezoni amerikalik iqtisodchi Fillipp Kegan tomonidan kiritilgan. F. Kegan giperinflatsiyaning boshlanishi deb baholarning birinchi bor 50% dan oshgan oyni, tugallanishi deb esa baholarning o'sishi bu sur'atdan pasaygan va shundan so'ng kamida bir yil davomida undan oshmagan oydan oldingisini hisoblash kerak deb taklif qilgan. Giperinflatsiya sharoitida pul o'zining qiymat o'lchovi va almashinuv vositasi singari funksiyalarini bajarolmay qoladi. Normal iqtisodiy munosabatlar buziladi. Mablag'lar ishlab chiqarishga emas, balki tovar-moddiy boyliklari jamg'arishga yo'naltiriladi.

22.3. Inflatsiya va ishsizlik o'rtasidagi bog'liklik. Fillips egri chizig'i


Iqtisodiyot o'z rivojlanishida potensial darajaga yaqinlashgan shariotda yoki bandlilik darajasini oshirish yoxud inflatsiya darajasini pasaytirish kabi muqobil variantlardan birini tanlashga majbur bo'linadi. Chunki qisqa muddatli davrda ishsizlik va inflatsiya darajalari o'rtasida teskari bog'liqlik mavjud. Ishsizlikni

³⁹ N. Gregory Mankiw. Macroeconomics. 8 th edition. Harvard University. (NY.: Worth Publishers, 2013): 113

pasaytirish ish joylarini yaratish uchun qo‘shimcha mablag‘lar ajratilishini anglatadi. Ayni paytda bu ish haqi miqdorining oshishiga ham olib keladi. Har ikkala holat ham baholar darajasining ko‘tarilishiga olib keladi, ya‘ni talab inflatsiyasi ro‘y beradi.

Ishsizlik va inflatsiya ko‘rsatkichlari o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqlik ingliz iqtisodchisi A.V.Fillips tomonidan aniqlangan va **Fillips egri chizig‘i** (4.1 - rasm) deb ataladi.

Fillips egri chizig‘i ishsizlik va inflatsiya darajalari o‘rtasidagi teskari bog‘lig‘likni xarakterlaydi.



22.1-rasm. Fillips egri chizig‘i

Mamlakat iqtisodiyotining xususiyatiga ko‘ra, shuningdek, inflatsiyaning qaysi turi mavjudligiga qarab Fillips egri chizig‘idagi inflatsiya va ishsizlik darajalarining kombinatsiyasi farq qilishi mumkin. Bunday tanlov kutilayotgan inflatsiyaning sur‘atiga bog‘liq. Kutilayotgan inflatsiya darajasi qanchalik yuqori bo‘lsa ishsizlikning har qanday darajasida (sur‘ati past bo‘lgan inflatsiya darajasiga nisbatan) haqiqiy inflatsiya darajasi yuqori bo‘ladi. Ishsizlik darajasi va inflatsiya sur‘atining maqbul miqdorlari quyidagi formula ko‘rinishida tasvirlanishi mumkin:

$$\pi = \pi_{kut} + f\left(\frac{Y_h - Y_p}{Y_p}\right) + \varepsilon$$

Bu yerda π - inflatsiyaning haqiqiy darajasi; π_{kut} - inflatsiyaning kutilayotgan darajasi;

$$f\left(\frac{Y_h - Y_p}{Y_p}\right) - \text{talab inflatsiyasi;}$$

f - Fillips egri chizig‘ining og‘ish burchagini belgilovchi empirik koeffitsent;
 ε - tashqi baho shoki (taklif inflatsiyasi).

Ouken qonuniga ko'ra YaIMning uzilishi, ya'ni $(Y_h - Y_p) / Y_p$ miqdor davriy ishsizlikning o'zgarishiga bog'liqligi sababli qisqa muddatli Fillips egri chizig'ini tenglamasini quyidagicha tasvirlash mumkin:

$$\square = \pi_{kut} - \beta [u - u^*] + \varepsilon$$

Keltirilgan tenglamadan ko'rinib turibdiki, haqiqiy inflatsiya darajasi miqdori kutilayotgan nflyasiya darajasiga hamda tashqi baho shoklari darajasi bilan to'g'ri bog'liqlikka, davriy ishsizlik darajasi bilan esa teskari bog'likka ega ekan.

Hukumat Fillips egri chizig'iga asoslanib, qisqa davr uchun, iqtisodiy siyosat maqsadlaridan kelib chiqib ishsizlik va inflatsiya darajalarining istalgan kombinatsiyasini tanlashi mumkin.

Qisqa xulosalar

Inflatsiya ma'lum davr mobaynida mamlakatda baholar o'rtacha (umumiy) darajasining barqaror o'sishi va pulning xarid qobiliyatini uzoq muddatli pasayishini anglatadi. Inflatsiyaning iqtisodiyotga salbiy ta'siri normal iqtisodiy munosabatlarni izdan chiqarishida namoyon bo'ladi.

Inflatsiya darajasi baho indeksleri vositasida o'lchanadi.

Kelib chiqish sabablariga kqra talab inflatsiyasi va taklif inflatsiyasi o'zaro farqlanadi. Inflatsiyaning bu ikki turi ko'pincha aralash holda yuzaga keladi. Kutilmagan inflatsiya daromadlarni debitorlar va kreditorlar, aholining turli qatlamlari hamda davlat va aholi o'rtasida qayta taqsimlaydi.

Ishsizlik va inflatsiya sur'atlari o'rtasidagi teskari bog'liqlik Fillips egri chizig'ida aks etadi.

Hukumat Fillips egri chizig'iga asoslanib qisqa davr uchun ishsizlik va inflatsiya darajalarining istalgan kombinatsiyasini tanlashi mumkin.

Antiinflatsiya siyosati-baholar umumiy darajasini barqarorlashtirish, inflatsion keskinlikni yumshatishga yo'naltirilgan makroiqtisodiy siyosat.

Antiinflatsiya siyosati o'z ichiga quyidagilarni oladi:

-yalpi talabni tartibga solish;

-yalpi taklifni tartibga solish.

O'zbekiston Respublikasida ishlab chiqarishni modernizatsiya va texnik qayta qurollantirishni izchil davom ettirish, energetika tizimini modernizatsiya qilish, kommunal xizmatlar baholari o'sishini cheklash mexanizmini shakllantirish, bank tizimini yanada takomillashtirish, ishlab chiqarishni mahalliyashtirish, qabul qilingan Inqirozga qarshi chora-tadbirlar dasturida ko'zda tutilgan vazifalarni amalga oshirish inflatsiya sur'atlarini cheklash imkonini beradi.

Nazarot va muhokama uchun savollar

1. Inflatsiyaning mohiyati faqatgina muomaladagi pul massasining ortiqchaligi bilan izohlanishi to'g'rimi?

2. Inflatsiyani tushuntirib berishga keynchilarning va neoklassiklarning yondoshuvlari qanday farq qiladi?

3. Inflatsiyaning ijtimoiy – iqtisodiy oqibatlari qanday?

4. Talab inflatsiyasi qanday sodir bo‘ladi?

5. Taklif inflatsiyasiga izoh bering?

6. Fillips egri chizig‘i qaysi ko‘rsatkichlar o‘rtasidagi bog‘liqlikni ko‘rsatadi? Bu bog‘liqlik qanday tavsiflanadi?

7. Antiinflatsiya siyosatining mohiyatini tushuntirib bering.

23- bob. YALPI TALAB-YALPI TAKLIF MODELI

23.1. Yalpi talab-yalpi taklif modeliga umumiy tavsif. Yalpi talab tushunchasi va grafigi

Har qanday bozorda vaziyat talab va taklif o'rtasidagi nisbatga bog'liq bo'lib, ular hajmlarining o'zgarishi baholarning o'zgarishini keltirib chiqaradi. Baholarning o'zgarishi esa talab va taklif hajmlariga ta'sir ko'rsatadi. Bunday o'zaro bog'liqlik umumlashtirilgan holda ko'rib chiqiladigan milliy bozorga ham ta'luqlidir.

Alohida tovarlar va xizmatlar bozoridagi bunday bog'liqlik talab va taklif modeli yordamida tadqiq qilinishini yaxshi bilamiz. Ammo makroko'lamda milliy ishlab chiqarish hajmining o'zgarishi bilan birga baholar umumiy darajasining o'zgarishi o'rtasida bog'liqlikni tadqiq qilish, nima uchun milliy ishlab chiqarish hajmi ayrim davrlarda barqaror o'sishi, ba'zi davrlarda esa pasayib ketishni izohlab berish uchun bu modellardan foydalanib bo'lmaydi.

Bu vazifani bajarish uchun yalpi talab - yalpi taklif (AD-AS aggregate demand-aggregate supply) modelidan foydalanamiz.

Bu modelda yalpi taklif, baholarning umumiy darajasi kabi agregat ko'rsatkichlaridan foydalaniladi⁴⁰.

Makroiqtisodiyotda AD-AS modeli ishlab chiqarish hajmlari va baholar darajalarining tebranishlarini hamda ular o'zgarishining oqibatlarini o'rganish uchun bazaviy model bo'lib hisoblanadi. AD-AS modeli yordamida davlat iqtisodiy siyosatining turli variantlari tasvirlab berilishi mumkin.

Yalpi talab – uy xo'jaliklari, korxonalar, hukumat va chet ellik xaridorlarning baholarning ma'lum darajasida iqtisodiyotda ishlab chiqarilgan yakuniy tovarlar va xizmatlarning umumiy hajmiga bo'lgan talabidir.

Yoki boshqacha qilib aytganda yalpi talab iqtisodiyotda ishlab chiqarilgan yakuniy tovarlar va xizmatlarni sotib olishga qilingan umumiy harajatlar yig'indisidir. Formula ko'rinishida yalpi talabni quyidagicha tasvirlash mumkin:

$$AD = C + I + G + X_n.$$

Baholar darajasi va talab qilingan milliy mahsulot hajmi o'rtasidagi bog'liqlikni ifoda etuvchi chiziq yalpi talab egri chizig'i deb ataladi.


Buni chizma ko'rinishida tasvirlash mumkin (23.1-rasm).

23.1-rasmdan ko'rinib turibdiki, yalpi talab egri chizig'i doimo pastga va o'ngga suriladi.

Bunday surilishning sababi har xil. Ma'lumki, alohida olingan tovarlar bozorida talab egri chizig'ining surilishiga asosan daromad samarasi va o'rinbosar tovarlar sabab bo'ladi. Ayrim tovarlarning bahosi pasayganda, iste'molchilarning pul daromadlari ko'proq mahsulot sotib olish imkonini beradi (daromad samarasi). Shuningdek, baho

⁴⁰ N. Gregory Mankiw. Macroeconomics. 8 th edition. Harvard University. (NY.: Worth Publishers, 2013): 285

pasayganda iste'molchi ushbu tovarni ko'proq boshqa sotib oladi, chunki u boshqa tovarlarga nisbatan arzonroq bo'ladi (o'rnini bosadigan tovarlar).



23.1-rasm. Yalpi talab egri chizig'i

Milliy bozorda AD-egri chizig'ining traektoriyasini, ya'ni uning quyiga egilganligini, avvalo pulning miqdoriy nazariyasi tenglamasi yordamida izohlash mumkin:

$$M V = Y P$$

Bu yerda: M – muomaladagi pul miqdori; V – pulning aylanish tezligi;

P – iqtisodiyotdagi baholar darajasi (baholar indeksi); Y – talab qilinayotgan real ishlab chiqarish hajmi.

Bu tenglamadan:

$$P = M V / Y \text{ va } Y = M V / P$$

tenglamalarni keltirib chiqaramiz. Bu tenglamalardan ko'rinadiki, baholar darajasi qancha oshsa, real Y va M hajmiga talab shuncha past bo'ladi, ya'ni pul massasi (M) va uning aylanish tezligi (V) o'zgarmas bo'lsa baholar darajasi va yalpi talab o'rtasida teskari bog'liqlik mavjud bo'ladi.

23.2. Yalpi talabning baho va bahodan boshqa omillari

Baholar darajasi va yalpi talab o'rtasidagi teskari bog'liqlikni, shuningdek quyidagi baho omillari bilan izohlanadi:

1. Foiz stavkasi samarasi;
2. Boylik samarasi yoki real kassa qoldiqlari samarasi;
3. Import xaridlar samarasi.

Foiz stavkasi samarasi shuni bildiradiki, yalpi talabning egri chiziq bo'yicha surilishi narxlar darajasi o'zgarishining foiz stavkasiga bo'lgan ta'siriga bog'liq.

Demak, tovarlarning baho darajalari oshsa, iste'molchilarga xarid qilish uchun katta miqdorda naqd pul kerak bo'ladi. Ishbilarmonlar uchun ham ish haqi va boshqa

xarajatlarni to'lashga katta miqdorda pul zarur bo'ladi. Qisqacha aytganda, tovarlar bahosi darajalarining yuqoriligi pulga bo'lgan talabni oshiradi.

Pul taklifi hajmi o'zgarmagan holatda talabning oshishi foiz stavkasini ko'rsatilishiga olib keladi. Foiz stavkalari yuqori bo'lgan sharoitda ishbilarmonlarning investitsiya tovarlariga bo'lgan talabi pasayadi.

Investitsiya harajatlari yalpi talabning bir qismi bo'lganligi tufayli bu yalpi talab hajmining pasayishiga olib keladi.

$$P \uparrow \rightarrow MD \uparrow (MS \text{ const}) \rightarrow R \uparrow \rightarrow I \downarrow \rightarrow AD \downarrow$$

Boyluk samarasi yoki real kassa qoldiqlari samarasi shuni bildiradiki, narxlar darjasining oshishi, jamg'arilgan moliyaviy aktivlari (omonatlar, obligatsiyalar) real xarid qobiliyatini pasaytirib yuboradi. Bunday sharoitda aholi moliyaviy aktivlarning real qiymatini tiklash uchun joriy daromadidan iste'mol xarajatlar miqdorini qisqartiradi. Masalan, muayyan shaxs aktivida 10 mln. so'm bo'lsa, undan hech ikkilanmasdan birorta avtomashina sotib olishi, agarda inflatsiya ta'sirida mashina narxi 12 mln. so'mga ko'tarilsa, u mashina sotib olishi mumkin va yana 2 mln. so'm to'plash uchun joriy davrda olgan ixtiyoridagi daromadidan ko'proq qismini jamg'aradi.

Iste'mol xarajati yalpi talabning bir qismi bo'lganligi tufayli uning kamayishi ADning pasayishiga olib keladi.

Moliyaviy

$$P \uparrow \rightarrow \text{aktivlarning} \downarrow \rightarrow C \downarrow (S \uparrow) \rightarrow AD \downarrow \text{ real qiymati}$$

Import xaridlar samarasi shuni bildiradiki, biror mamlakatda tovar va xizmatlarning ichki narxlari tashqi narxlarga nisbatan oshib borsa, shu mamlakatda ishlab chiqarilayotgan tovar va xizmatlarga talab kamayadi va o'z navbatida shu mamlakatda import mahsulotlarga bo'lgan talab oshadi. Va, aksincha, ichki narxlarning pasayishi importning kamayishiga va eksportning oshishiga yoki YaIMga talab oshishiga olib keladi. Bu esa sof eksport hajmi orqali yalpi talab hajmiga ta'sir ko'rsatadi.

$$P \uparrow \rightarrow X \downarrow (M \uparrow) \rightarrow X_n \downarrow \rightarrow AD \downarrow$$

Yuqorida ko'rib o'tilgan omillar yalpi talabning baho omillari deb ataladi. Bundan tashqari yalpi talabning bahoga bog'liq bo'lmagan omillari ham mavjud. Bu omillardagi o'zgarishlar yalpi talabning miqdorida o'z aksini topadi va uning egri chizig'ini chapga yoki o'ngga siljitadi (5.1-rasm). Yalpi talabning bahoga bog'liq bo'lmagan omillariga quyidagilarni kiritamiz:

1. Iste'mol xarajatlaridagi o'zgarishlar:
 - a) iste'molchilarning real moddiy aktivlari miqdorining o'zgarishi;
 - b) iste'molchilar kutishi;
 - v) iste'molchilarning qarzlari miqdorining o'zgarishi;g) iste'molchilar daromadlaridan olinadigan soliqlar miqdorining o'zgarishi.
2. Investitsiya xarajatlaridagi o'zgarishlar:

a) foiz stavkasidagi o'zgarishlar; b) investitsiyalardan kutilayotgan foyda normasining o'zgarishi; v) korxonalaridan olinadigan soliqlar miqdorining o'zgarishi; g) yangi texnologiyalarning ishlab chiqarishga jalb qilinishi; d) zahiradagi quvvatlar o'zgarishi.

3. Davlat xarajatlarining o'zgarishi. Masalan, harbiy xarajatlar va yangi kasalxona va boshqa muassasalar qurishga qaror qilinganda.

4. Sof eksport hajmidagi o'zgarishlar.

a) boshqa mamlakatlar milliy daromadlarining o'zgarishi.

b) valuta kurslaridagi o'zgarishlar.

Pulning miqdoriy nazariyasi tenglamasi yuqoridagilardan tashqari yalpi talabning narxlarga bog'liq bo'lmagan yana ikki omilini beradi. Bular: pul taklifi (M) va pulning aylanish tezligi (V) dir.

Yalpi talabning bahoga bog'liq bo'lmagan omillari ta'sirida AD egri chizig'i o'ngga yoki chapga siljiydi (23.1-rasm). Natijada ma'lum baho darajasiga mos keluvchi talab qilinayotgan yalpi ichki mahsulot hajmi o'zgaradi.

Pul taklifining, pulning aylanish tezligining oshishi, boshqa davlatlar milliy daromadining oshishi, milliy valuta kursining ma'lum miqdorda pasayishi (bular eksportning ortishi, importning pasayishiga olib kelishi tufayli) oqibatida sof eksportning pasayishi va yalpi xarajatlar turli komponentlarining oshishi AD egri chizig'ining o'ngga siljishiga olib keladi. Bunga aksincha bo'lgan holatlarda AD egri chizig'i chapga siljiydi.


23.3. Yalpi taklif grafigi va omillari

Yalpi taklif deganda muayyan baholar darajasida ishlab chiqarilishi va taklif qilinishi mumkin bo'lgan tovar va xizmatlarning real hajmi tushuniladi. Yalpi taklif tushunchasi ko'pincha yalpi ichki mahsulot sinonimi sifatida qo'llaniladi. Baholarning yuqori darajasi ishlab chiqaruvchilarga qo'shimcha mahsulot ishlab chiqarishga rag'bat yaratadi va aksincha past baholar mahsulot ishlab chiqarish hajmini qisqarishga olib keladi. Shuning uchun ham milliy ishlab chiqarish hajmi bilan baholar darajasi o'rtasida to'g'ri aloqa mavjud⁴¹.³⁸ Demak, mahsulot ishlab chiqarish hajmi baholar o'sib borishi bilan o'sib, pasayishi bilan tushib boradi. Yalpi taklif (AS) egri chizig'i alohida tovar taklifi egri chizig'idan farq qilib uch qismdan, gorizontal yoki keyns kesmasi, ko'tarilib boruvchi yoki oraliq kesma hamda vertikal yoki klassik kesmadan iborat (23.2-rasm). Bunday holat yalpi taklifni tahlil qilishga klassik va keynschilarga xos yondashuv bilan izohlanadi. Iqtisodiy adabiyotlarda ko'pincha oraliq kesma ham keyns kesmasiga kiritib yuboriladi.

Yalpi taklifning keyns kesmasida milliy ishlab chiqarishning haqiqiy hajmi uning potensial hajmidan, ya'ni to'liq bandlik sharoitida erishishi mumkin bo'lgan hajmidan kamdir.

⁴¹ N. Gregory Mankiw. *Macroeconomics*. 8 th edition. Harvard University. (NY.: Worth Publishers, 2013): 288

Demak, bu kesma iqtisodiyot pasayish bosqichida bo‘lgan va katta miqdordagi resurslardan foydalanilmagan sharoitni ko‘rsatadi.



23.2-rasm. Yalpi taklif egri chizig‘i

Foydalanilmayotgan ushbu resurslarni esa baholar darajasiga ta‘sir ko‘rsatmagan holda ishga tushirish mumkin. Bu kesmada milliy ishlab chiqarish hajmi oshishi baholar darajasi o‘zgarmay qolgan sharoitda ro‘y beradi.

Yalpi taklif egri chizig‘ining **Keyns kesmasida** iqtisodiyotni nisbatan qisqa muddatda amal qilishini xarakterlaydi. Bu kesmada yalpi taklifni tahlil qilish quyidagi shartlarga tayanadi:

- iqtisodiyot ishlab chiqarish omillari to‘liq band bo‘lmagan sharoitda amal qiladi;
- baholar, nominal ish haqi qayd etilgan, bozor tebranishlaridan juda kam ta‘sirlanadi;
- real miqdorlar (ishlab chiqarish, bandlilik, real ish haqi) harakatchan va bozor tebranishlaridan tez ta‘sirlanadi.

Vertikal yoki klassik kesmada iqtisodiyot to‘liq bandlik sharoitiga yoki ishsizlikning tabiiy darajasi sharoitiga erishgan vaziyatni ko‘ramiz. Iqtisodiyot egri chiziqning bu kesmasida o‘zining ishlab chiqarish potentsiali darajasida bo‘ladi.⁴²

Bu shuni bildiradiki, baholarning har qanday oshishi ishlab chiqarish hajmining oshishiga olib kelmaydi. Chunki, iqtisodiyot to‘liq quvvatda faoliyat ko‘rsatayapti. To‘liq bandlik sharoitida ayrim firmalar boshqa firmalarga nisbatan resurslarga yuqoriroq baholarni taklif etish orqali ishlab chiqarish hajmini oshirishga harakat qiladi. Ammo, bunday holatda ayrim firmalarning resurslar va ishlab chiqarish hajmini oshirishi, boshqalari uchun yo‘qotishga olib keladi. Natijada bu mahsulotlar bahosi oshishi mumkin, lekin ishlab chiqarishning real hajmi o‘zgarmay qoladi.

Klassik nazariyada yalpi taklifni tahlil qilish quyidagi shartlarga tayanadi:

⁴² N. Gregory Mankiw. Macroeconomics. 8 th edition. Harvard University. (NY.: Worth Publishers, 2013): 290

-ishlab chiqarish hajmi faqatgina ishlab chiqarish omilari hajmiga va texnologiyalarga bog‘liq va baholar daoajasiga bog‘liq emas;

-ishlab chiqarish omillari va texnologiyalarda o‘zgarish sekinlik bilan ro‘y beradi;

-iqtisodiyot to‘liq bandlik sharoitida amal qiladi, ya‘ni ishlab chiqarish hajmi potensial darajaga teng;

-baholar va nominal ish haqi o‘zgaruvchan, ularning o‘zgarishi bozorlarda muvozanatni ta‘minlab turadi.

Oraliq kesma – ishlab chiqarish real hajmining o‘sishi narxlar darajasining o‘sishiga mos ravishda o‘sib boradi. Nima uchun? Chunki, iqtisodiyotning pasayish holatidan to‘liq bandlikka o‘tishi noteks va turli vaziyatlarda ro‘y beradi. Masalan, ayrim tarmoqlarda resurslarning etishmasligiga duch kelinsa, boshqa tarmoqlarda hozircha ortiqcha resurslar mavjud bo‘ladi. Shuningdek, ular ishlab chiqarishni kengaytirish uchun yangi asosiy vositalar sotib olish va malakasiz mutaxassislardan foydalanishiga to‘g‘ri keladi. Bu esa mahsulotlar birligiga ketadigan xarajatlarning oshishiga va natijada baholar darajasining o‘sishiga olib keladi.


Ishlab chiqarish hajmi ko‘payishi yoki kamayishi bahoga bog‘liq bo‘lmagan omillar hisobiga ham ro‘y berishi, bu omillar esa yalpi taklif egri chizig‘ini o‘ng yoki chap tomonga siljitishi mumkin. Bahoga bog‘liq bo‘lmagan omillarnig xususiyati shundaki, ular mahsulot birligiga ketgan xarajatlarga bevosita ta‘sir qiladi va shu orqali yalpi taklif egri chizig‘ining siljishiga sabab bo‘ladi.

Bu omillarga texnologiyalardagi o‘zgarishlar, ishlab chiqarish omillari mihdorining o‘zgarishi, resurslar baholarining o‘zgarishi, firmalarni soliqqa tortishdagi o‘zgarishlar boshqalar kiradi.

23.4. AD-AS modelida makroiqtisodiy muvozanat

AD va AS egri chiziqlarining kesishish nuqtasi ishlab chiqarishning muvozanatli hajmi va baholarning muvozanatli darajasini belgilaydi.

Baholarning muvozanatli darajasi deganda baholarning shunday darajasi tushuniladiki, unda yalpi talab va taklif bir-biriga mos kelishi yoki teng bo‘lishi kerak. Modelda makroiqtisodiy muvozanatga erishish mexanizmini dastlab oraliq kesmada ko‘rib chiqamiz (23.3-rasm). Dastlab muvozanat e nuqtasida o‘rnatilgan.




23.3-rasm. Yalpi taklif egri chizig'ining oraliq kesmasidagi muvozanat

Baholarning muvozanatli darajasi va yalpi ishlab chiqarish hajmining muvozanatli hajmlari mos ravishda P_e va Y_e lar bilan belgilangan. Nima uchun P_e narxlarning muvozanatli darajasini va Y_e esa yalpi ishlab chiqarishning muvozanatli hajmini bildirishini ko'rsatishimiz uchun baholarning muvozanatli darajasi P_e emas, balki P_1 deb hisoblaymiz.

Baholar darajasi P_1 bo'lgan vaziyatda ishlab chiqaruvchilar yalpi ishlab chiqarish hajmini Y_1 miqdoridan oshirmaydi.

Iste'molchilar baholar darajasi P_1 bo'lganda mahsulotlarni Y_2 darajada sotib olishga tayyor turadi. $AD > AS$ bo'lganligi tufayli iste'molchilar o'rtasidagi raqobat baholar darajasini P_e gacha suradi. Baholar darajasining P_1 dan P_e gacha ko'tarilishi ishlab chiqarish hajmini Y_1 dan Y_e gacha oshirishga va iste'molchilar talabini Y_2 dan Y_e gacha kamayishga olib keladi. Natijada AD va AS egri chiziqlari e nuqtada kesishadi. Demak, aynan P_e baho baholarning muvozanatli darajasi va e muvozanat nuqtasidir.

23.4-rasmda yalpi talab egri chizig'i yalpi taklif egri chizig'ini bilan keyns kesmasi kesishadigan vaziyat tasvirlangan. Bunday vaziyatda makroiqtisodiy muvozanat nuqtasi baholar darajasi bir xil turganda ham o'zgaradi. Buni tushunish uchun avvalo yalpi ishlab chiqarishning muvozanatli hajmini Y_e va muvozanatli baholar darajasini P_e bilan belgilaymiz.



23.4-rasm. Yalpi taklif egri chizig'ining keyns kesmasidagi muvozanati⁴³


Muvozanatli ishlab chiqarish hajmi aynan Y_e ekanligini isbotlash uchun bu hajmni Y_1 deb hisoblaymiz. U holda $AD < AS$, oqibatida sotilmay qolgan tovarlar va xizmatlar hajmining ortishi ishlab chiqarishni Y_e darajaga pasaytirilishiga olib keladi.

⁴³ N. Gregory Mankiw. Macroeconomics. 8 th edition. Harvard University. (NY.: Worth Publishers, 2013): 291

Muvozanatli ishlab chiqarish hajmini Y_2 deb hisoblasak, aksincha, $AS < AD$, oqibatda korxonalarda tovar zahiralari kamayib ularni ishlab chiqarishni Y_e darajaga oshirishga undaydi. Shunday qilib aynan yalpi taklif va yalpi talab egri chiziqlarining kesishish nuqtasigina AD-AS modelda muvozanat nuqtasi deyiladi.

Yuqoridagilardan ko'rinib turibdiki, yalpi taklif egri chizig'ining keyns kesmasida yalpi talabning o'zgarishi ishlab chiqarish hajmining oshishi yoki kamayishiga olib keladi, baholar darajasi esa o'zgarmaydi.

Yalpi talab egri chizig'ini AS egri chizig'ining vertikal kesmasida o'zgarsa bu ishlab chiqarish hajmiga ta'sir ko'rsatmaydi va faqat baholar darajasi o'zgaradi, xolos. Ya'ni, bu kesmada talabning oshishi talab inflatsiyasini keltirib chiqaradi. Yalpi taklifning bu kesmasida talabning har qanday o'zgarishi faqat baholar darajasi o'zgarishga olib keladi. Ishlab chiqarish hajmi esa to'liq bandlik sharoitida o'zgarmay qoladi.



23.5-rasm. Yalpi taklif o'zgarishining AD-AS modelidagi muvozanatga ta'siri

Oraliq va vertikal kesmalarda baholar o'sib borishi bilan kuzatilgan yalpi talabning ko'payishi talab inflatsiyasi mavjudligini ko'rsatadi.

Yalpi taklif o'zgarishining baholarning va ishlab chiqarishning muvozanatli darajalariga ta'sirini 23.5-rasm misolida ko'rib chiqamiz. Bahodan boshqa omillar ta'sirida yalpi taklifning AS1dan AS2ga siljishi natijasida ishlab chiqarish hajmi Y_1 dan Y_2 gacha kamayadi, baholar darajasi esa R_1 dan R_2 gacha ko'tariladi, ya'ni stagflyasiya ro'y beradi.

Boshqa bir vaziyatda, masalan, narxlarga bog'liq bo'lmagan omillardan birortasi o'zgarib, yalpi taklifning o'zgarishiga olib kelsin. Ya'ni, yerning bahosi pasaysa, korxonalardan olinadigan soliqlar kamaysa va natijasida mahsulot birligiga ketgan sarf-xarajatlar qisqarsa, unda yalpi taklif egri chizig'i AS1dan AS3 holatga siljiydi. Bunda narxlar muvozanat darajasi P_1 dan P_3 ga qadar pasayadi va ishlab chiqarishning muvozanatli hajmi Y_1 dan Y_3 qadar oshadi, ya'ni, iqtisodiy o'sish holati ro'y beradi.

Yalpi taklif va yalpi talab o'rtasidagi muvozanatning buzilishi makroiqtisodiy beqarorlikni keltirib chiqaradi. Jumladan "jahon moliyaviy inqirozining yuzaga

kelishida asosiy sabab – moliyaviy resurslar bilan real ishlab chiqarish hajmi o‘rtasidagi mutanosiblikning keskin buzilishi hisoblanishini ta’kidlash lozim. Pul muomalasi qonunlaridan ma’lumki, iqtisodiyot sog‘lom va barqaror amal qilishi uchun muomalaga chiqarilayotgan pul massasi bilan tovar va xizmatlar ishlab chiqarish real hajmi o‘rtasida muayyan nisbatga amal qilinishi lozim. Biroq, milliy iqtisodiyotlarning baynalminallashuvi va globallashtirish jarayonlari pul muomalasining amal qilishiga ham o‘z ta’sirini o‘tkazib, dastlab ayrim mamlakatlar, masalan AQShda, keyinchalik ko‘plab mamlakatlarda mazkur qonunga rioya qilishning zaiflashuviga, keyin esa uni umuman e’tiborga olmaslikka qadar olib keldi”⁴⁴.

Natijada muomaladagi pul massasi (yalpi talab) tovarlar va xizmatlar hajmi o‘rtasida muvozanat buzildi, va moliyaviy inqiroz iqtisodiy inqirozga aylandi.

Shu sababli ham makroiqtisodiy siyosatning asosiy vazifalaridan biri makroiqtisodiy muvozanatni ta’minlashdan iboratdir. Bunda yalpi talab va yalpi taklifning dinamik muvozanatiga erishish uchun yalpi talabni rag‘batlantirisho‘ yoki cheklash siyosati, shuningdek yalpi taklifni rag‘batlantirish siyosati qo‘llaniladi.

Yalpi talabni rag‘batlantirish siyosatining ko‘rinishlariga daromadlarni o‘stirish, soliqlarni kamaytirish, bank kreditlarini arzonlashtirish, narxlarni cheklash tadbirlari kirs, yalpi taklifni rag‘batlantirish siyosatida investitsiyalarni rag‘batlantirish, ishlab chiqaruvchilarga soliq yukini pasaytirish, eksportchilarni qo‘llab quvvatlash va h.k. choralar kiradi.

Qisqa xulosalar

AD-AS modeli umumiy makroiqtisodiy muvozanat modeli bo‘lib milliy bozorni qisqa va uzoq muddatga tahlil qilish imkonini beradi. AD-AS modeli iqtisodiy tebranishlarni tahlil qilish va baholash uchun asos yaratadi.

Yalpi talab – uy xo‘jaliklari, korxonalar, hukumat va chet ellik xaridorlarning baholarning ma’lum darajasida iqtisodiyotda ishlab chiqarilgan yakuniy tovarlar va xizmatlarning umumiy hajmiga bo‘lgan talabidir.

Baholar darajasi va talab qilingan milliy mahsulot hajmi o‘rtasidagi bog‘liqlikni ifoda etuvchi chiziq yalpi talab egri chizig‘i deb ataladi AD egri chizig‘i traektoriyasini pulning miqdoriy nazariyasi tenglamasi bilan hamda baho omillari bo‘lgan foiz stavkasi samarasi, boyluk samarasi va import xaridlari samarasi bilan izohlash mumkin. Bahodan boshqa omillar ta’sirida AD egri chizig‘i o‘ngga yoki chapga siljiydi.

AS egri chizig‘i keyns, oraliq va klassik kesmalarni o‘z ichiga oladi. Uzoq muddatli davrlarda AS egri chizig‘i vertikal, qisqa muddatga esa gorizantal bo‘ladi.

⁴⁴ B.Yu.Xodiev, A.Sh.Bekmurodov, U.V.G‘ofurov, B.K.Tuxliev. O‘zbekiston Respublikasi birinchi Prezidenti Islom Karimovning «Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi, O‘zbekiston sharoitida uni bartaraf etishning yo‘llari va choralari» nomli asarini o‘rganish bo‘yicha o‘quv qo‘llanma. – T.: Iqtisodiyot, 2009. , 14- b.

Shuning uchun AD dagi o'zgarishlar ishlab chiqarish hajmi, bandlik hamda baholar darajasiga bu kesmalarda turlicha ta'sir ko'rsatadi. Yalpi talab va yalpi taklif hajmlari o'zaro mos kelgan, ya'ni AD va AS egri chiziqlari kesishgan nuqta makroiqtisodiy muvozanat nuqtasi, unga mos keluvchi baholar darajasi baholarning muvozanatli darajasi deb aytiladi.

AS egri chizig'i ishlab chiqarishga jalb qilingan resurslar hajmi ko'payishi hamda chngi texnologiyalarning kiritilishi hisobiga o'ngga siljiydi. Bu holat iqtisodiy o'sish deb ataladi. AS egri chizig'ining chapga siljishi stagflyasiyadan dalolat beradi.

Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozining yuzaga kelish sababini yalpi talab va yalpi taklif o'rtasidagi muvozanat buzilishi bilan izohlash mumkin.

Nazarot va muhokama uchun savollar

1. Yalpi talabga va uning komponentlarini ta'rif bering.
2. Yalpi talab egri chizig'i quyiga egilgan traektoriyaga ega bo'lishi sababi nimada?
3. Yalpi talabning boshqa omillariga va ularning AD egri chizig'iga ta'siriga izoh bering.
4. Yalpi taklif egri chizig'i shakli qaysi sabablarga ko'ra murakkab ko'rinishga ega?
5. AD-AS modelidagi makroiqtisodiy muvozanat holatini va uning shartlarini tushuntiring.
6. Yalpi talab o'zgarishi modeldagi muvozanat holatiga qanday ta'sir ko'rsatadi?
7. Yalpi taklif o'zgarishi modeldagi muvozanat holatiga qanday ta'sir ko'rsatadi?

24- bob. ISTE'MOL, JAMG'ARISH VA INVESTITSIYA

24.1. Iste'mol va jamg'arish, ularning grafiklari va funksiyalari

Uy xo'jaliklarining iste'mol xarajatlari (bundan buyon iste'mol deb yuritiladi), yalpi talab, yoki YaIMning yakuniy iste'molga ko'ra tarkibida eng katta ulushga ega bo'lgan komponentdir. 2017 yilda O'zbekiston Respublikasi Davlat Statistika Qo'mitasining ma'lumotlariga ko'ra respublikamizda bu ulush 58,0 %ni tashkil etgan. Shuningdek, rivojlangan mamlakatlarda iste'mol xarajatlari shaxsiy tasarrufdagi daromadning 90 foizdan ortiq qismini tashkil etadi. Shu tufayli ham iste'mol xarajatlariga ta'sir etuvchi omillarni, uning o'zgarish qonuniyatlarini o'rganish muhim ahamiyatga ega.

Uy xo'jaliklari tasarrufidagi daromadning iste'mol qilinmasdan qolgan qismi ularning jamg'armalarini tashkil etadi. Klassik maktab vakillari jamg'arish hajmi foz stavkasining funksiyasi deb qarashsa J.M. Keynes uy xo'jaliklarining iste'mol xarajatlari va jamg'arishlari hajmini belgilovchi asosiy omil ularning ishlab chiqarishda ishtirok etishdan olingan daromadlari deb hisoblaydi. Yanada aniqlik kiritsak iste'mol va jamg'arish hajmini belgilovchi asosiy omil uy xo'jaliklarining ishlab topgan daromadlari, olgan transfert to'lovlari va to'lagan soliqlari bilan belgilanadigan tasarrufidagi daromadi (DI – disposable income, yoki Yd) ko'rsatkichidir⁴⁵. Makroiqtisodiy nazariyada iste'mol va jamg'armalar, milliy daromad yoki shaxsiy daromadlarning funksiyasi sifatida ham tadqiq qilinadi.

Ma'lumki, uy xo'jaligi tasarrufidagi daromad iste'mol va jamg'arish uchun ishlatiladi. Ya'ni, qancha ko'p iste'mol qilinsa, shuncha kam jamg'ariladi va aksincha. Iste'mol va jamg'arish o'rtasidagi o'zaro bog'liqlik har xil daromadga ega bo'lgan shaxslarda bir xil emas: kam daromadga ega bo'lganlar, odatda, uning ko'proq qismini iste'mol qilib, kamroq qismini jamg'aradi, lekin daromadlari oshib borishi bilan bu nisbat jamg'arish foydasiga o'sadi. Bu bog'liqlikni gipotetik ma'lumotlar asosida ko'rib chiqamiz (24.1-jadval).


24.1-jadval

Daromad, iste'mol va jamg'arish ko'rsatkichlari

Yillar	Tasarrufdagi daromad (Yd)	Iste'mol (C)	Jamg'arish (S)
1	370	375	-5
2	390	390	0
3	410	405	5
4	430	420	10
5	450	435	15
6	470	450	20
7	490	465	25

⁴⁵ N. Gregory Mankiw. Macroeconomics. 8 th edition. Harvard University. (NY.: Worth Publishers, 2013): 64

Tasarrufidagi daromad hajmi 370 shartli birlikka (sh.k.) teng bo'lganda uy xo'jaliklari iste'moli 375 sh.b.ka teng, ya'ni tasarrufidagi daromaddan 5 sh.b.ka ko'p bo'ladi. Ya'ni uy xo'jaliklari 5 sh.b.ka teng miqdorda qarz hisobiga yoki o'tgan yillarda to'plangan jamg'armalar hisobiga iste'mol xarajatlari qiladilar.




24.1-rasm. Iste'mol grafigi

Uy xo'jaliklari tasarrufidagi daromadlar 390 sh.b.ka teng bo'lganda, uning miqdori iste'mol miqdori bilan tenglashadi. Bu miqdor bo'sag'aviy daromad deb yuritiladi. 6.1-jadval ma'lumotlari asosida iste'mol grafigini chizamiz.

Iste'mol grafigi ikki to'g'ri chiziq ko'rinishida berilgan. Bissektrisa ko'rinishidagi $Y_d = C$ to'g'ri chizig'ining har bir nuqtasida iste'mol va tasarrufidagi daromad hajmlari teng bo'ladi. Haqiqiy iste'mol (C) grafigi haqiqiy iste'mol va daromad teng bo'lgan nuqtada (α) bissektrisa bilan kesishadi. Bo'sag'aviy nuqtadan quyida haqiqiy iste'mol daromaddan oshiq. Bu vaziyat insonlarning qarz hisobiga hayot kechirishini bildiradi. α – nuqtada yuqorida haqiqiy iste'mol daromaddan kam hamda ular o'rtasidagi farq jamg'arishni tashkil etadi. Haqiqiy iste'mol to'g'ri chizig'i iste'mol hajmini belgilovchi vertikal o'qni a nuqtada kesib o'tadi. Bu hol uy xo'jaliklari umuman daromad olmaganlarida ham ma'lum miqdorda iste'mol qilishlarini anglatadi. a – nuqta esa avtonom iste'mol hajmini bildiradi.

Keltirilgan ma'lumotlar asosida jamg'arish grafigini ham ko'rib chiqamiz (6.2-rasm).

Jamg'arish grafigi daromad bilan jamg'arish o'rtasidagi bog'liqlikni ifodalaydi. Vertikal o'qdagi har bir nuqta jamg'arma miqdorini bildiradi va daromad bilan unga muvofiq keladigan iste'mol hajmi o'rtasidagi farq sifatida aniqlanadi ($S = Y_d - C$). Boshlang'ich daromad darajasida jamg'arish nolga (0) teng bo'lgan holda ixtiyordagi daromad hajmi o'sib borishi bilan uning miqdori ham oshib boradi.



24.2-rasm. Jamg‘arish grafigi

Mavzuning birinchi savolida keltirilgan gepotetik ma‘lumotlar va grafiklarga tayanib iste‘mol funksiyasini yozamiz:

$C = a + b Y_d$, bu yerda: a – avtonom xarajatlar; Y_d – tasarrufidagi daromad ($Y_d = Y - T$), bu yerda: T – soliqlar;
 b – iste‘mol hajmining tasarrufidagi daromadga bog‘liqligini ifodalovchi koeffitsient, boshqacha aytganda iste‘molga chegaralangan moyillik.

$$b = \frac{\Delta C}{\Delta Y_d} \cdot 100;$$

Demak, iste‘mol hajmi avtonom iste‘molga, tasarrufidagi daromad hajmiga va iste‘mol hajmining tasarrufidagi daromad o‘zgarishiga ta‘sirchanligiga bog‘liq. Jamg‘arish grafigini ham iste‘mol grafigiga o‘xshab algebraik ifodalash mumkin, ya‘ni jamg‘arish funksiyasi quyidagi ko‘rinishga ega:

$$S = -a + (1 - b) Y_d$$

Iste‘mol va jamg‘arish hajmiga tasarrufidagi daromad dinamikasidan tashqari quyidagi omillar, to‘g‘rirog‘i bu omillardagi o‘zgarishlar ham ta‘sir ko‘rsatadi:

1. Uy xo‘jaliklari daromadlari.
2. Uy xo‘jaliklarida to‘plangan mulk hajmi.
3. Baholar darajasi.
4. Iqtisodiy kutish.
5. Iste‘molchilar qarzlari hajmi.
6. Soliqqa tortish hajmi.

Dastlabki besh omil ta‘sirida iste‘mol va jamg‘arish grafiklari o‘zaro teskari tomonga siljiydi. Bu besh omil ta‘sirida joriy tasarrufidagi daromad tarkibida iste‘mol va jamg‘arish ulushi nisbatlari o‘zgaradi. Soliqqa tortish darajasining o‘zgarishi ixtiyordagi daromad hajmini o‘zgartirgani tufayli uning ta‘sirida iste‘mol va jamg‘arish grafiklari bir tomonga qarab siljiydi. Iste‘mol funksiyasini aniqlash borsidagi tadqiqotlar, uning hajmi shuningdek 6)aholining daromadlari hajmi va

to'plagan mulki ko'lamiga ko'ra tabaqalanishi darajasi hamda 7) aholining soni va yoshiga ko'ra tarkibiga ham bog'liqligini ko'rsatdi.

24.2. Iste'mol va jamg'arishga o'rtacha hamda chegaralangan moyillik

Makroiqtisodiy tahlil jarayonida iste'mol va jamg'arish funksiyalarini yanada to'laroq bilish uchun iste'mol va jamg'arishga o'rtacha moyillik va chegaralangan moyillik tushunchalarini mohiyatini anglab olishimiz lozim.

Iste'molga o'rtacha moyillik deganda tasarrufidagi daromaddagi iste'mol xarajatlarining ulushi tushuniladi, ya'ni:

$$APC = \frac{C}{Y_d} \cdot 100$$

bunda: APC – (average propensity to consume) iste'molga o'rtacha moyillik.

Tasarrufidagi daromaddagi jamg'arish ulushini jamg'arishga o'rtacha moyillik deb ataladi, ya'ni:

$$APS = \frac{S}{Y_d} \cdot 100$$

Bunda: APS (average propensity to saving) – jamg'armaga o'rtacha moyillik.

Misol uchun, tasarrufidagi daromad darajasi 410 va 530 shartli birlikka va iste'mol darajalari 405 va 495 shartli birlikka teng bo'lgan holatlar uchun iste'molga o'rtacha moyillikni hisoblaymiz, ya'ni:

$$APC = (405 / 410) \cdot 100 = 98,78\% \text{ yoki } 0,98;$$

$$APS = (495 / 530) \cdot 100 = 93,39\% \text{ yoki } 0,93 \text{ ga teng.}$$

Demak, bu misollardan ko'rinib turibdiki, tasarrufidagi daromadlar miqdori ko'payib borishi bilan uning tarkibidagi iste'mol ulushi kamayib va aksincha jamg'arma ulushi ko'payib boradi. Bu holatni Keynsning "asosiy psixologik qonun"i bilan izohlash mumkin. "Mavjudligiga nafaqat aprior tasavvurlarga ko'ra, bizning inson tabiatini bilishimizdan kelib chiqib shuningdek o'tmish tajribasini sinchiklab o'rganish asosida biz to'liq ishonishimiz lozim bo'lgan asosiy psixologik qonun shundan iboratki kishilar daromadlari o'sishi bilan, odatda, o'z iste'mollarini oshirishga moyillar, ammo daromadlari o'sgan darajada emas"⁴⁶.

Soliqlar to'langandan keyin qolgan daromadning bir qismi iste'mol qilinadi, ikkinchi qismi esa jamg'ariladi, shu tufayli ham iste'molga va jamg'arishga o'rtacha moyillik yig'indisi 100% ga yoki koeffitsient ko'rinishda 1 ga teng:

$$APC + APS = 100\% \text{ yoki } 1.$$

Uy xo'jaliklari tasarrufidagi daromadlarining o'sgan qismini yo iste'mol qiladi, yoki jamg'aradi.

⁴⁶ Кейнс Дж.М. Общая теория занятости, процента и денег. М.,1978. С.157.

Iste'moldagi o'zgarishlarning shu o'zgarishni keltirib chiqargan tasarrufidagi daromad o'zgarishdagi ulushi iste'molga chegaralangan moyillik deyiladi.⁴⁷

$$\text{MPC} = \frac{\Delta C}{\Delta Yd} \cdot 100$$

Bu yerda: MPC (marginal propensity to consume) – iste'molga chegaralangan moyillik.

Yuqorida keltirilgan 4-jadval ma'lumotlariga ko'ra ixtiyordagi daromad 410 sh.b.dan 430 sh.b.kacha oshgan holatda MPSni hisoblaymiz.

$$\Delta C = 420 - 405 = 15; \quad \Delta Yd = 430 - 410 = 20;$$

$$\text{MPC} = (15/20) \cdot 100 = 75\%;$$

Bu shuni bildiradiki, daromad 100 % ga (yoki bir birlikka) o'zgarganda iste'mol 75 % (yoki 0,75)ga o'zgaradi.

Jamg'arishdagi o'zgarishning ixtiyordagi daromad o'zgarishdagi ulushi jamg'arishga chegaralangan moyillik deyiladi.

$$\text{MPS} = \frac{\Delta S}{\Delta Yd} \cdot 100$$

Bu yerda: MPS (marginal propensity to saving) – jamg'arishga o'rtacha moyillik. Yuqorida keltirilgan misolda:

$$\Delta Yd = 430 - 410 = 20 \quad \Delta S = 10 - 5 = 5$$

$$\text{MPS} = (5/20) \cdot 100 = 25\%;$$

Shunday qilib, iste'molga chegaralangan moyillik 0,75 ni tashkil etgan bo'lsa, jamg'armaga chegaralangan moyillik 0,25 ni tashkil etadi. Daromadning o'sgan qismi yoki iste'molga, yoki jamg'armaga sarflanadi. Shu sababga ko'ra iste'mol va jamg'arishga o'rtacha moyillik ko'rsatkichlari yig'indisi 100%ga yoki koeffitsient ko'rinishida 1ga teng bo'ladi.

$$\text{MPC} + \text{MPS} = 100\% \text{ yoki } 1.$$

MPC va MPS ancha barqaror ko'rsatkichlar bo'lib, juda sekin o'zgarishga uchraydilar.

24.3. Investitsiyalarning mohiyati, grafigi va funksiyasi

YaIMning ikkinchi komponenti bo'lgan investitsiyalarga to'xtalib o'tamiz.

Investitsiyalar yoki kapital qo'yilmalar – bu, hali buyumlashmagan, lekin ishlab chiqarish vositalariga qo'yilgan kapitaldir. O'zining moliyaviy shakliga ko'ra, ular foyda olish maqsadida xo'jalik faoliyatiga qo'yilgan aktivlar hisoblansa, iqtisodiy mohiyatiga ko'ra investitsiyalar yangi korxonalar qurish, uzoq muddat xizmat ko'rsatuvchi mashina va asbubi-uskunalarini yakuniy sotib olishga hamda shu bilan bog'liq bo'lgan aylanma kapitalning o'zgarishiga ketgan xarajatlardir. Shuningdek investitsilar tarkibiga uy-joy qurilishiga ketgan xarajatlari ham kiritiladi.

⁴⁷ N. Gregory Mankiw. Macroeconomics. 8 th edition. Harvard University. (NY.: Worth Publishers, 2013): 65

Investitsiyalarning turli guruhlash mumkin. Makroiqtisodiy tahlilda eng ko‘p duch kelinadigan guruhlashda investitsiyalar investitsiyalash obyektiga ko‘ra uch turga bo‘linadi.

1. Ishlab chiqarish investitsiyalari;
2. Tovar-moddiy zahiralarga investitsiya;
3. Uy-joy qurilishiga investitsiya.

Makroiqtisodiy tahlilda investitsiyalar dinamikasini belgilovchi omil sifatida real foiz stavkasi qaraladi⁴⁸. Real foiz stavkasi ortishi bilan investitsiyalar hajmi kamayishini kuzatishimiz mumkin. Chunki investorlar uchun qarz bahosi ortib, ular ko‘rsatadigan foyda normasini pasaytirib qo‘yadi.

Avtonom investitsiyalarning grafigi investitsiyalar hajmi foiz stavkasi dinamikasiga teskari proporsional tarzda o‘zgarishini ko‘rsatadi.

Avtonom investitsiya funksiyasi quyidagi ko‘rinishga ega:


$$I = e - dR$$

Bu yerda: I – avtonom investitsiya xarajatlari;

e – foiz stavkasi 0 ga teng to‘lgandagi investitsiya xarajatlarining maksimal hajmi. U tashqi iqtisodiy omillar, resurs imkoniyatdari, yer, foydali qazilma boyliklari va boshqalar bilan belgilanadi;

R – real foiz stavkasi;

d – investitsiyalarning real foiz stavkasi dinamikasi o‘zgarishga ta’sirchanligini miqdoriy belgilovchi empirik koeffitsient.



24.3-rasm. Avtonom investitsiyalar grafigi

Grafikdan e nuqtasi shuni bildiradiki, banklar nolga teng foiz stavkasi bilan kredit berganlarida hamda ularning kredit resurslari cheksiz ko‘p bo‘lganda ham mamlakatdagi boshqa resurslari miqdorining cheklanganligi tufayli investitsiya xarajatlari ma’lum miqdor bilan chegaralanadi.

⁴⁸ N. Gregory Mankiw. Macroeconomics. 8 th edition. Harvard University. (NY.: Worth Publishers, 2013): 65

24.4. Investitsiyalar dinamikasini belgilovchi foiz stavkasidan boshqa omillar. Akselerator modeli

Investitsiyalar dinamikasini belgilovchi eng muhim omillardan biri bo'lib kutilayotgan sof foyda normasi hisoblanadi. Agar real foiz stavkasi bilan investitsiya xarajatlari miqdori o'rtasida teskari bog'liqlik bo'lsa, kutilayotgan sof foyda normasi (KSFN) dinamikasi bilan investitsiya xarajatlari o'rtasida to'g'ri bog'liqlik bor.

Agarda kutilayotgan foyda me'yor foiz stavkasidan yuqori bo'lsa, investitsiyalash foydali va aksincha, foiz stavkasi kutilayotgan foyda miqdoridan yuqori bo'lsa, investitsiyalash foydali bo'lmay qoladi.

Misol uchun, zavodga 100000 so'mlik yangi stanok sotib olindi. Yangi stanokni qo'llashdan zavod 10.000 so'm sof foyda olgan bo'lsin. Kutilayotgan sof foyda normasi quyidagicha aniqlanadi:

$$KSFN = 10000 / 100000 \times 100 = 10\%.$$

Investitsiya xarajatlari foyda keltirishini aniqlashda nominal foiz stavkasi emas, balki real foiz stavkasi hisobga olinadi. Real foiz stavka narxlar darajasining o'zgarishini aks ettirib, nominal stavkadan inflatsiya darajasi ayirmasi ko'rinishida aniqlanadi. Masalan, nominal foiz stavkasi 16% ga teng bo'lsa, inflatsiya darajasi yiliga 12% ni tashkil etsa, unda real foiz stavkasi 4 foizini (16%-12%) tashkil etadi.

Investitsiya xarajatlari dinamikasiga ta'sir etuvchi boshqa omillar quyidagilar kiradi:

1. Soliqqa tortish darajasi;
2. Ishlab chiqarish texnologiyalaridagi o'zgarishlar;
3. Mavjud bo'lgan asosiy kapital miqdori;
4. Investirlarning kutishi;
5. Yalpi daromadlarning o'zgarishi.

Soliqqa tortish darajasining pasayishi hamda yangi texnologiyalarning paydo bo'lishi kutilayotgan sof foyda normasining (real foiz stavkasi o'zgarmagan sharoitda ham) ko'payishga olib keladi. Bu esa investitsiya xarajatlarining ortishiga turtki beradi.

Investitsiyalar hajmining YaIM yoki daromadlar darajasiga bog'liqligini akselerator modeli aks ettiradi:

$I = f(Y)$, ya'ni investitsiyalar (I) YaIM (Y)ning funksiyasi ekan.

Akselerator modelining to'liqroq ko'rinishi quyidagicha bo'ladi:

$$I = I_{reja} + \gamma Y \quad \text{bu yyerda:}$$

$$\gamma = \frac{\Delta I}{\Delta Y} = \frac{I_t - I_{t-1}}{Y_t - Y_{t-1}}$$

I_{reja} – rejalashtirilgan investitsiyalar; Y – YaIM (daromad) hajmi.

Akselerator modelini hisobga olib, investitsiya funksiyasini quyidagicha yozish mumkin:⁴⁹

⁴⁹ N. Gregory Mankiw. Macroeconomics. 8 th edition. Harvard University. (NY.: Worth Publishers, 2013): 517

$$I = e - dR + \gamma Y$$

YaIM hajmi oshishi korxonalar foydasining ko'payishiga olib keladi. Korxonalar foydasi investitsiyalarning manbai ekanligini hisobga olsak, bu holatda investitsiya xarajatlari oshadi. YaIM hajmi pasayib ketganda esa, ya'ni iqtisodiy faollik pasayishi sharoitida bo'sh turgan quvvatlar mavjudligi tufayli, investitsiya xarajatlari pasayib ketadi. Ammo YaIMning davriy tebranishlari, innovatsiyalarni doim ham bir tekisda bo'lmasligi, uskunalarni uzoq muddat xizmat qilishi, iqtisodiy kutishdagi xavflar tufayli investitsiyalar hajmi barqaror bo'lmaydi.

Qisqa xulosalar

Iste'mol xarajatlarini YaIMning eng yirik komponenti bo'lib, uning hajmini avvalo uy xo'jaliklarining tasarrufidagi daromadi belgilaydi. Aholining daromadlari miqdori oshib borishi bilan undagi jamg'armalar ulushi ham oshib boradi.

Iste'mol va jamg'arish hajmi, shuningdek iste'molchilar boyliklari darajasiga, narx va soliq o'zgarishlari, iste'molchilarning qarzi darajasiga va boshqa omillarga bog'liq.

Iste'mol va jamg'arishga o'rtacha moyillik aholi daromadlarining qancha qismi iste'molga va qancha qismi jamg'armaga sarflanganligini xarakterlovchi ko'rsatkichlardir.

Iste'molga chegaraviy moyillik (MRS) iste'moldagi o'zgarishlarni ixtiyordagi daromad darajasidagi o'zgarishga bo'lib topiladi. MRS ning katta yoki kichikligi fiskal siyosat samaradorligini belgilovchi omillardan biridir.

Investitsiya yoki kapital qo'yilmalar hali buyumlashmagan, lekin ishlab chiqarish vositalariga qo'yilgan mablag' hisoblanadi. Investitsiya xarajatlari dinamikasi, foiz stavkasi, kutilayotgan sof foyda normasi va boshqa bir qancha omillarga bog'liq.

Investitsiya hajmining YaIM hajmiga bog'liqligini xarakterlovchi model - akselerator modeli deyiladi.

Nazorat va muhokama uchun savollar

1. Daromad, iste'mol va jamg'armalar o'rtasidagi o'zaro bog'liqlikka izoh bering?
2. Avtonom iste'mol kategoriyasining mohiyatini tushuntirib bering.
3. Iste'mol va jamg'arish grafiklarini izohlang.
4. Iste'mol va jamg'armaga o'rtacha va chegaraviy moyillik ko'rsatkichlarini izohlab bering?
5. Qaysi mablag'larni investitsiya tarkibiga kiritamiz?
6. Akselerator modelini tushuntirib bering.
7. Kutilayotgan sof foyda normasi o'zgarishi qaysi sabablarga ko'ra ro'y beradi va u investitsiya hajmiga qanday ta'sir ko'rsatadi.

25–bob. KEYNSNING TOVARLAR VA XIZMATLAR BOZORIDA MAKROIQTISODIY MUVOZANAT MODELI

25.1 Keynsning makroiqtisodiy muvozanat nazariyasi asoslari

Klassik maktab namoyondalari bozorlar va baholarning umumiy muvozanati nazariyasini yaratdilar. Ularning umumiy muvozanat konsepsiyasiga ko'ra iqtisodiyotda faqatgina to'liq bandlilik sharoitidagi muvozanat mavjud bo'lishi mumkin. Bunday xulosa J.B.Seyning bozorlar qonuniga tayanadi. Bu qonunga ko'ra mehnat taqsimotiga asoslangan iqtisodiyotda har bir sub'ektning ishlab chiqarishi bir vaqtning o'zida boshqa sub'ektlarning ishlab chiqarish natijalariga talab hisoblanadi. Oxir-oqibat yalpi talab yalpi taklifga teng bo'ladi. Klassik iqtisodchilar fikriga ko'ra $AD \neq AS$ holati ro'y bermaydi, umumiy xarajatlar miqdori etishmay qolgan, ya'ni $AD < AS$ holati ro'y bergan sharoitda ham baho, ish haqi va foiz stavkasi kabi dastaklar ishga tushadi va natijada xarajatlar miqdorining kamayishi ishlab chiqarishning real hajmi, bandlik va real daromadlar miqdorining kamayishiga olib kelmaydi.


Makroiqtisodiy muvozanatning klassik modeli ishlab chiqarish hajmi resurslarning bandligi va ishlab chiqarish texnologiyalarining funksiyasi hisoblanadi, va egiluvchan baholar mexanizmi tomonidan potensial darajada tutib turiladi degan shartlarga tayanadi. Egiluvchan baholar mexanizmi hisobiga bozor iqtisodiyoti barcha mavjud resurslarning to'liq bandligini ta'minlab turadi.

Klassik makroiqtisodiy muvozanat modelining o'ziga xos xususiyati pulning neytralligi prinsipini ko'zda tutishidir. Bu model pul massasi real ishlab chiqarishga hech qanday ta'sir ko'rsatmaydi degan prinsipga asoslanib tuziladi. Klassiklar modelida pul bozor agentlariga faqatgina bitimlarga xizmat qilishi, ya'ni oldi-sotti jarayonida sof texnik vazifalarni bajarishi uchun kerak. Bu asosga ko'ra klassiklar tomonidan klassik dixotomiya konsepsiyasi shakllantirilgan. **Klassik dixotomiya** konsepsiyasida – ikki parallel bozor, real va pul bozori alohida-alohida amal qiladi, ular o'rtasidagi muvozanat avtomatik barqarorlashtirgichlar orqali ta'minlab turadi deb hisoblanadi.

Pul bozori investitsiya va jamg'armalar tengligini hamda to'liq bandlik sharoitini ta'minlaydi. Faqatgina, ishsizlikning tabiiy darajasida «ixtiyoriy» ishsizlik bo'lishi mumkin, deb hisoblashadi. Bu shuni bildiradiki, AD va AS ning muvozanat nuqtasida ishlab chiqarish hajmi (Y) uning potensial hajmiga esa (Y^*) teng. Iqtisodiyotda yaratilgan daromadlaning bir qismi jamg'arilishi yalpi talabning yalpi taklifni qoplashi uchun etishmasligiga olib kelmaydi, chunki har bir jamg'arilgan so'm tadbirkorlar tomonidan investitsiyalanadi, deb ta'kidlashadi.

Agarda, tadbirkorlar uy xo'jaliklarining jamg'armalari miqdorida investitsiya qilishsa, ishlab chiqarish hamda bandlik darajalari doimiy bo'lib qoladi.

Klassik iqtisodchilar ta'kidlashlaricha, kapitalizmning o'ziga xos pul bozori mavjud va bu bozor jamg'arma va investitsiyalarning tengligini ta'minlaydi. Bunda tenglashtiruvchi omil rolini foiz stavkasi o'taydi (25.1- rasm).



25.1-rasm. Jamg'arish-investitsiya grafi

Shuning uchun ham to'liq bandlik mavjud bo'ladi. Bu iqtisodchilar davlatning iqtisodiyotga aralashuvi qisqa muddatli samara bersada, uzoq muddatga, oxir-oqibat bozor iqtisodiyotining tabiiy harakat mexanizmiga notabiiy aralashilganligi uchun, salbiy oqibatlarga olib keladi deb hisoblashadi.

1936-yili ingliz iqtisodchisi Jon Meynard Keynes kapitalizm iqtisodiyotiga yangi, ish bilan bandlik nazariyasini kiritadi. U o'zining «Pul, foiz va ish bilan bandlikning umumiy nazariyasi» asarida yangicha iqtisodiy muvozanat nazariyasini izohlab berdi.

Keynes makroiqtisodiy muvozanatga to'liq bo'lmagan bandlik sharoitida ham erishish mumkinligini, to'la ish bilan bandlik qonuniy holat emasligini, balki tartibga solinmagan iqtisodiyotda tasodifiy ro'y berishigina mumkinligini isbotlab berdi. Shuningdek, bu nazariyada iqtisodiyotdagi tebranishlar faqat urush, tabiiy ofat va shu kabi vaziyatlargagina bog'liq emasligini, balki u tinchlik yillarida ham ichki omillarning salbiy oqibatlaridan kelib chiqishi mumkinligi asoslagan. Ishsizlik va inflatsiyaning kelib chiqishi investitsiya va jamg'armalarga bevosita bog'liq. Narxlarning oshishi va ish haqining pasayishi boshqa salbiy omillar bilan birga iqtisodiyotning beqarorligiga olib keladi.

Bunday nomutonositliklar rejalashtirilgan investitsiyalar va jamg'armalarning bir-biriga mos kelmasligi tufayli ro'y beradi. (25.2-rasm).

Bunga sabab birinchidan, jamg'arish va investitsiyalash to'g'risidagi qarorlarni har xil guruhlardagi odamlar turli maqsadlarda qabul qilishi bo'lsa. ikkinchidan, jamg'aruvchilar va investorlarni jamg'arish va investitsiyalashga turlicha sabablar undaydi. Keynschilar fikricha, jamg'arma va investitsiyalar bitta omilga bog'liq bo'lmagan holda turli sabablar asosida amalga oshiriladi. Masalan, kishilar qiymati o'zining ish haqi miqdoridan ortiq bo'lgan mahsulotlarni sotib olish uchun, masalan avtomobil yoki televizor xarid qilish uchun jamg'arishadi. Jamg'armalar biror shaxs yoki oilaning kelajakdagi iste'molini qondirish maqsadida, ya'ni, uy xo'jaliklari oila boshlig'ining nafaqaga chiqqandan keyingi hayotini yoki bolalari kelajagini ta'minlash maqsadida amalga oshiriladi. Bundan tashqari jamg'armalar tasodifiy vaziyatlarda foydalanish maqsadida ham amalga oshiriladi.

Investorlarni investitsiya qilishga undovchi sabablar esa foiz stavkasi bilan birga kutilayotgan sof foyda normasi hamdir.

Klassiklar nazariyasi bo'yicha jamg'arma va investitsiyalar miqdorini aniqlaydigan asosiy omil foiz stavkasi hisoblanadi. Agarda, u oshsa, uy xo'jaliklari kamroq iste'mol qilib, ko'proq jamg'arishga harakat qilishadi. Uy xo'jaliklarida jamg'armalarning ko'payishi kredit narxlarining kamayishiga olib keladi. Bu esa o'z vaqtida investitsiyaning o'sishini ta'minlaydi.

Keynschilar fikricha esa, foiz stavkasi emas, balki aholining ixtiyoridagi daromadi iste'mol va jamg'arish dinamikasini belgilab beradi. Keltirilgan nazariy asoslarga tayangan holda Keynes o'zining makroiqtisodiy muvozzant modelini ishlab chiqdi.

25.2. Haqiqiy va rejalashtirilgan xarajatlar

Ishlab chiqarishning kamayishi natijasida mumkin bo'lgan yo'qotishlarning oldini olish uchun yalpi talabni tartibga solib turadigan faol davlat siyosati zarur. Shuning uchun ham Keynsning iqtisodiy nazariyasini ko'p hollarda yalpi talab nazariyasi deb yuritiladi. Yalpi talab komponentlari, ayniqsa investitsiyalarning o'zgarishi makroiqtisodiy beqarorlik sabablaridan biridir.

“Haqiqiy investitsiyalar rejalashtirilgan va rejalashtirilmagan investitsiyalar miqdorini o'z ichiga oladi. Rejalashtirilmagan investitsiyalarga tovar – moddiy zahiralarga (TMZ) investitsiyalardagi kutilmagan o'zgarishlar kiradi. Ushbu rejalashtirilmagan investitsiyalar tenglashtiruvchi mexanizm sifatida jamg'arma va investitsiyalar miqdorining o'zaro bir-biriga mos kelishiga olib keladi va makroiqtisodiy muvozzanatni ta'minlaydi”⁵⁰.

Rejalashtirilgan xarajatlarga uy xo'jaliklari, firmalar, davlat va tashqi dunyoning mahsulot va xizmatlarni sotib olishga mo'ljallagan xarajatlari kiradi⁵¹. Firmalar tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlarni sotishdagi kutilmagan o'zgarishlar tovar moddiy zahirasiga rejalashtirilmagan investitsiyalar qilishga olib kelsa, haqiqiy xarajatlar rejalashtirilgan xarajatlardan farq qiladi.

Rejalashtirilgan xarajatlar funksiyasi: $E=C+ I +G+X_n$ ko'rinishiga ega. Dekmak uning grafigi iste'mol funksiyasi ($C=a+ b (Y-T)$) grafigiga nisbatan $I+G+X_n$ miqdorda yuqoriga surilgan bo'ladi. Keltirilgan X_n -sof eksport bo'lib, uning funksiyasi esa quyidagi ko'rinishga ega:

$$X_n = g - m'Y$$

Bu yerda :g – avtonom sof eksport;

m' - importga chegaralangan moyillik; Y – daromad.

Importga chegaralangan moyillik import xarajatlaridagi o'zgarish miqdorini bunga sabab bo'lgan daromadlardagi o'zgarish miqdoriga bo'lib topiladi.

$$m' = \Delta M / \Delta Y;$$

Bu yyerda: ΔM - importga xarajatlarning o'zgarishi; ΔY - daromadlarning o'zgarishi.

Yalpi daromadlarning oshishi bilan import ham oshadi. Chunki, bunda iste'molchilar va investorlar ham milliy ham import mahsulotlarga bo'lgan xarajatlari


⁵⁰ Агапова Т.А., Серегина С.Ф. Макроэкономика: Учебник.-7-е изд. перераб. и доп.- М.: Издательство “Дело и сервис”, 2005., 114-с

⁵¹ N. Gregory Mankiw. Macroeconomics. 8 th edition. Harvard University. (NY.: Worth Publishers, 2013): 305

miqdorini oshiradilar. Ayni paytda mamlakatning eksporti hajmi shu mamlakatdagi yalpi daromadlar (Y) miqдорiga bevosita bog‘liq bo‘lmaydi, balki tovar olib chiqib ketayotgan mamlakatning yalpi daromadlari o‘zgarishiga bog‘liq bo‘ladi. Shuning uchun ham mamlakatdagi yalpi daromadlar (Y) o‘zgarishi bilan sof eksport (Xn) o‘rtasidagi bog‘liqlik salbiydir va sof eksport funksiyasida minus ishorasi bilan belgilanadi. Keynesning makroiqtisodiy muvozanat modelini ko‘rib chiqish jarayonini soddalashtirish uchun sof eksport miqdori yalpi daromadlar (Y) o‘zgarishiga bog‘liq emas deb olinadi. Shuning uchun sof eksport to‘lig‘icha avtonom xarajatlar miqdoriga qo‘shiladi, ya’ni avtonom xarajatlar ($a + I + G + X_n$) yig‘indiga teng deb olinadi.

25.3. «Keyns xochi». Ishlab chiqarish hajmining muvozanat darajasiga erishish mexanizmi

Rejalashtirilgan xarajatlar chizig‘i haqiqiy va rejalashtirilgan xarajatlar bir-biriga teng bo‘lgan ($Y=E$) chiziqni qaysidir a nuqtada kesib o‘tadi⁵². Quyida keltirilgan 25.2-rasmda tovarlar va xizmatlar bozorida qisqa muddatli muvozanatga erishish mexanizmi tasvirlangan bo‘lib, u “Keyns xochi” nomini olgan. $Y=E$ chiziqda haqiqiy investitsiyalar va jamg‘armalar tengligi saqlanadi. a nuqtada esa daromadlar rejalashtirilgan xarajatlarga teng bo‘ladi. Shuningdek, bu yerda rejalashtirilgan hamda haqiqiy investitsiyalarning o‘zaro tengligiga erishiladi. Ya’ni, makroiqtisodiy muvozanat ta’minlanadi.



25.2-rasm. Keyns xochi (Keynsning makroiqtisodiy muvozanat modeli)⁵³

⁵² N. Gregory Mankiw. Macroeconomics. 8 th edition. Harvard University. (NY.: Worth Publishers, 2013): 307

⁵³ N. Gregory Mankiw. Macroeconomics. 8 th edition. Harvard University. (NY.: Worth Publishers, 2013): 308

Agarda, ishlab chiqarishning haqiqiy hajmi (Y1) uning muvozanat darajasi (Y0) dan ko'p bo'lsa, iste'molchilar mahsulotlarni ishlab chiqaruvchilar taklif qilganga nisbatan kam sotib oladi ($AD < AS$). Cotilmagan mahsulotlar TMZ ko'rinishiga ega bo'ladi. Zahiralarining o'sishi firmalarda ishlab chiqarish hamda bandlik darajalarini pasaytirishiga olib keladi. Bu esa YaIM hajmini Y1 dan Y0 gacha kamayishiga olib keladi va daromad va rejalashtirilgan xarajatlar tenglashadi.

O'z navbatida yalpi talab va taklifning tenglashishiga ($AD = AS$) erishiladi. Aksincha, haqiqiy ishlab chiqarish (Y2) uning muvozanat darajasidan (Y0) kam bo'lgan vaziyatda esa, firmalar iste'molchilar talabiga nisbatan kam ishlab chiqarayotganligini ($AD > AS$) ko'ramiz. Talabning oshishi esa firmalar zahirasi kamayishi hisobiga qondiriladi. Natijada, YaIM asta sekin Y2 dan Y0 ga qarab o'sadi va yana $AD = AS$ tengligiga erishiladi. Bu esa ayni paytda $E = Y$ va $I = S$ ayniyatlarga erishilganligini anglatadi.

Milliy ishlab chiqarishning muvozanat holati (Y0), yalpi xarajatlar komponentlarining har birining (iste'mol, investitsiya, davlat xarajatlari yoki sof eksport) o'zgarishi natijasida tebranishi mumkin. Ushbu tarkibdagi birorta omilning miqdorining o'sishi rejalashtirilgan xarajatlar egri chizig'ini yuqoriga suradi va aksincha kamayishi pastga surilishga olib keladi.

25.4. Avtonom xarajatlar multiplikatori

Avtonom xarajatlarning har qanday o'sishi, ya'ni $\Delta A = \Delta (a + I + G + X_n)$ mul'tiplikator samarasi hisobiga yalpi daromadlarning ko'proq miqdorga (ΔY) oshishiga olib keladi.

Avtonom xarajatlar mul'tiplikator muvozanatli YaIM o'zgarishning avtonom xarajatlarning har qanday komponenti o'zgarishiga nisbatini ko'rsatadi:

$$m = \Delta Y / \Delta A:$$

Bu yerda: m - avtonom xarajatlar mul'tiplikator; ΔY - muvozanatli YaIMning o'zgarishi;

ΔA - avtonom xarajatlarning Y o'zgarishiga bog'liq bo'lmagan o'zgarishi.

Mul'tiplikator - yalpi daromadlar avtonom xarajatlarning dastlabki o'sishi (kamayishi) dan necha marta ortiq o'sganligini (kamayganligi) ko'rsatadi.

Avtonom iste'mol ΔC_A miqdorga o'ssa, bu yalpi xarajatlar va daromadlar (Y) ning o'sha miqdorda o'sishiga olib keladi. Bu esa, o'z navbatida iste'molning ikkinchi marta (daromadlar oshishi hisobiga) $MPC \times \Delta C_A$ miqdorda o'sishiga olib keladi. Keyinchalik yalpi xarajatlar va daromadlar $MPC \times \Delta C_A$ miqdorda yana o'sadi. Shunday qilib, «daromad- xarajat» ko'rinishidagi doiraviy aylanish bo'yicha jarayon davom etaveradi.

$\Delta C_A \uparrow \Rightarrow AD \uparrow \Rightarrow Y \uparrow \Rightarrow C \uparrow \Rightarrow AD \uparrow \Rightarrow Y \uparrow \Rightarrow C \uparrow \Rightarrow AD \uparrow \Rightarrow Y \uparrow$ va hokazo. Ushbu oddiy vaziyatdan ko'rinish turibdiki, yalpi daromadlar (Y), avtonom iste'molning dastlabki o'zgarishi $\Delta C_A \uparrow$ ga nisbatan bir necha marta ko'p o'zgaradi. Bu shuni bildiradiki, C , I , G yoki X_n miqdordagi oddiy o'zgarishlar ham ishlab chiqarish hajmi va bandlik darajalarida katta o'zgarishlarga olib kelishi mumkin. Shunday qilib, multiplikator

iqtisodiy beqarorlik omili hisoblanadi. Shuning uchun ham davlatning budget-soliq siyosatidagi asosiy vazifalardan biri bo'lib, o'rnatilgan barqarorlashtirgichlar tizimini yaratish hisoblanadi. Bu tizim iste'molga chegaralangan moyillikni kamaytirish orqali multiplikatsiya samarasini pasaytiradi.

Multiplikator samarasi mohiyatini quyidagi misolda ko'rib chiqamiz. Aytaylik, dastlab iqtisodiyotga investitsiyalar miqdori 5 mlrd. so'mga ko'paysin. Bu, o'z navbatida ish haqi, renta, foyda ko'rinishda uy xo'jaliklari daromadiga aylanadi. Agar iste'molga chegaralangan moyillikni 0,75 ga yoki 75 %ga teng deb olsak. Uy xo'jaliklari bu daromadning 75 foizini, ya'ni 3,75 mlrd. so'mni iste'mol xarajatlariga sarflaydi, qolgan 1,25 mlrd. so'mni jamg'aradi. Sarflangan 3,75 mlrd. so'm boshqalar uchun daromad hisoblanadi. O'z navbatida ular ham 3,75 mlrd. so'mning 75 foizini iste'mol uchun sarflaydilar va 25 foizini jamg'aradilar. Bu jarayon oxirgi so'm jamg'arilmaguncha davom etadi.

Bunda: $m = \Delta Y / \Delta A = 20 / 5 = 4$ va $m = 1 / (1-0,75) = 4$ va bundan : ΔY 1

$m = \text{-----} = \text{-----}$

ΔA 1- MPC

Demak iste'molga chegaralangan moyillik qancha katta bo'lsa multiplikator samarasi ham shuncha yuqori bo'ladi.

Multiplikatorning matematik mohiyati cheksiz kamayib boruvchi geometrik progressiyani anglatadi, ya'ni $m=1+b+b^1+b^2+b^3+b^4+\dots+b^n$, bu yerda $b=MPC$.

Tenglikning ikki tomonini b ga ko'paytiramiz: $mb=b+b^2+b^3+b^4+\dots+b^{n+1}$

Endi birinchi tenglamadan ikkinchisini ayiramiz:

$m-mb=1-b^{n+1}$, $m(1-b)=1-b^{n+1}$

Hisob kitob natijalarini quyidagicha tasvirlaymiz:

$m = (n+1) / (1-b)$

b kasr son va b^{n+1} nolga juda yaqin bo'lgani uchun


$m = 1 / (1-b)$ tenglik to'g'ri bo'ladi⁵⁴.

Avtonom xarajlar multiplikatori miqdorining katta yoki kichikligi budget soliq siyosati samaradorligiga ta'sir ko'rsatadi. Davlat o'z xarajatlarini oshirayotganda, yoki investitsiya xarajatlarini oshirish choralari ko'rayotganda, bu xarajatlar yalpi talabni qancha miqdorga oshirib yuborishi mumkinligini hisobga olishi zarur.

25.5. Retsession va inflatsion uzilish

Agarda ishlab chiqarishning haqiqiy hajmi (Y_0) potensial (Y^*) hajmidan kam bo'lsa, yalpi talab samarasiz hisoblanadi. Ya'ni, $AD=AS$ tenglikka erishilgan bo'lsada, yalpi xarajatlar miqdori resurslarining to'liq bandligi darajasini ta'minlamaydi. Yalpi talabning etishmasligi iqtisodiyotga depressiv ta'sir ko'rsatadi.

⁵⁴ N. Gregory Mankiw. Harvard University. (NY.: Worth Publishers, 2013): 310




25.3-rasm. Ishlab chiqarishning haqiqiy va potensial hajmi o'rtasidagi retseession uzilish.

YaMM (YaIM)ni to'liq bandlilikning noinflatsion darajasiga qadar o'stirish uchun yalpi talab (jami xarajatlar) ko'paytirilishi zarur bo'lgan miqdor retseession uzilish deyiladi (25.3-rasm).

Ishlab chiqarishda to'liq bandlikka erishish va retseession uzilishni yo'qotish uchun yalpi talabni rag'batlantirish va muvozanatni «A» nuqtadan

«V» nuqtagacha surish lozim. Bu yerda muvozanatli yalpi daromadning o'sishi ΔU quyidagiga teng bo'ladi:



25.4-rasm. Ishlab chiqarishning haqiqiy va potensial hajmi o'rtasidagi inflatsion uzilish.

$\Delta Y = \text{Retseession uzilish miqdori} \times \text{Avtonom xarajatlar multiplikatori miqdori}$

YaIMni to'liq bandlikning noinflatsion darajasigacha pasaytirish uchun yalpi talab (jami xarajatlar) kamayishi zarur bo'lgan miqdor inflatsion uzilish deyiladi.

Agarda, ishlab chiqarish haqiqiy hajmi (Y_0) potensial (Y^*) hajmidan ko'p bo'lsa, jami xarajatlar ortiqcha hisoblanadi. Yalpi talabning ortiqchaligi iqtisodiyotda inflatsiya jarayoniga olib keladi. Boshqacha aytganda yalpi talab hajmining yalpi taklif hajmidan qisqa muddatda katta bo'lishi oqibatida haqiqiy va potensial YaIM hajmlari o'rtasida inflatsion uzilish ro'y beradi (25.4-rasm). Bu uzilishni bartaraf qilish uchun jami xarajatlarni kamaytirish, boshqacha qilib aytganda yalpi talabni cheklash zarur.

Grafikda bu jarayon muvozanatni A nuqtadan B nuqtagacha surishni anglatadi. Bu yerda jami muvozanatli yalpi daromad hajmidagi (ΔY) qisqarish quyidagicha bo'ladi:

$\Delta Y = \text{Inflatsion uzilish miqdori} \times \text{Avtonom xarajatlar multiplikatori miqdori}$.

Keynsning makroiqtisodiy muvozanat modeli yalpi talab- yalpi taklif modelini qisqa muddatli makroiqtisodiy siyosat maqsadlarida aniqlashtirgan bo'lib, uning xususiy holi hisoblanadi. Yalpi talab va yalpi taklif modelidan farqli o'laroq bu modelda baholar darajasi va ish haqi o'zgarish miqdorlar hisoblanadi. Ayni shu sababga ko'ra tovar moddiy zahiralarining o'sishi qisqa muddatda makroiqtisodiy muvozanatga erishishni belgilovchi omil bo'ladi.

Qisqa xulosalar

Klassik iqtisodchilar makroiqtisodiy muvozanat faqat to'liq bandlik sharoitida ro'y beradi, qisqa muddatli buzilishlar esa bozor mexanizmlari tomonidan, ya'ni t'bah, ish haqi kabi dastaklarning ishga tushishi bilan bartarafs etiladi deb hisoblashadi.

Klassik iqtisodchilar nazariyasidan farqli o'laroq ingliz iqtisodchisi J. Keyns o'zining to'liq bandlik mavjud bo'lmagan sharoitda ham makroiqtisodiy muvozanat ro'y beradi, tartibga solinmagan iqtisodiyotda to'liq bandlilik faqatgina tasodifiy ro'y beradi deb hisoblaydi.

Keyns modelida makroiqtisodiy muvozanat ishlab chiqarishni ta'minlovchi ikkita omil yalpi xarajatlar va yalpi daromadlarning kesishuv nuqtasida ro'y beradi. Bu modelda tovar zahiralarining o'zgarishi makroiqtisodiy muvozanatni ta'minlovchi omil deb qaraladi.

Yalpi daromadlarning avtonom xarajatlar miqdoridagi dastlabki o'sishdan (kamayishi)dan necha marta ortiq o'sishi (kamayishi) multiplikator samarasi deyiladi. Multiplikator iqtisodiy tebranishlar darajasini kuchaytiruvchi omil hisoblanadi.

Avtonom xarajatlar multiplikatori miqdori iste'molga chegaralangan moyillik darajasi bilan belgilanadi va u bilan to'g'ri bog'liqlikka ega.

Makroiqtisodiy muvozanat potensial YaIM hajmidan kamroq bo'lgan haqiqiy YaIM hajmida o'rnatilsa retsersion uzilish, aksincha bo'lsa inflatsion uzilish ro'y beradi.

Nazorat va muhokama uchun savollar

1. Makroiqtisodiy muvozanat to'g'risida klassik nazariyaning mohiyatini tushuntirib bering.

2. Keynsning makroiqtisodiy muvozanat nazariyasi mohiyati nimada va klassiklar nazariyasidan prinsipial farqlari nimada?

3. Avtonom xarajatlar deganda nimani tushunasiz?

4. Haqiqiy va rejalashtirilgan xarajatlarga ta'rif bering.

5. Keyns xochi nomli modelda makroiqtisodiy muvozanatni ta'minlovchi mexanizmga izoh bering.

6. Multiplikativ samara nima sababdan ro'y beradi.

7. Retsersion uzilish qanday vaziyatlarda ro'y beradi va u qay tariqa bartaraf qilinadi?

8. Inflatsion uzilish qanday vaziyatlarda ro'y beradi va u qay tariqa bartaraf qilinadi?

26–bob. PUL BOZORIDA MUVOZANAT

26.1. Pul tushunchasi va uning funksiyalari. Pul agregatlari

Pul – iqtisodiyot sub'ektlari mulkining bir turi bo'lib, mulkning boshqa turlaridan ikki xususiyatiga ko'ra farq qilad: birinchidan, pul yuqori likvidliliklar, ya'ni qisqa muddatda, sezilarsiz sarf - xarajatlar bilan boshqa buyumga ayirboshlanish qobiliyatiga ega; ikkinchidan baholar o'zgarimas bo'lgan sharoitda pul yoki hech qanday daromad keltirmaydi, yoki uning daromadlilik darajasi boshqa mulk turlaridan ancha kam. Shunga qaramasdan kishilar nima uchun mulk sifatida pulga egalik qilishga harakat qiladilar? Bu savolga javobni pulning funksiyalaridan topamiz.

Odatda pulning uch asosiy funksiyasi mavjud deb qaraladi.

Bular: to'lov vositasi (almashinuv vositasi); qiymat o'lchovi vositasi, jamg'arish (boylik to'plash) vositasi.

Umumiy ekvivalentlilik, yuqori likvidlilik xususiyatlari pulni ideal to'lov vositasiga aylantiradi.

Qiymat o'lchovi sifatida pullar tovarlar bahosini ifodalaydi va turli tovarlar qiymatini taqqoslash imkonini beradi.

O'z tovari uchun olgan pulni sotuvchi doim ham birdaniga ishlatvermaydi. Shu sababga ko'ra pullar ularga o'tkazilgan qiymatni saqlab turishlari juda muhim. Agar pul aytilgan xususiyatga ega bo'lsa, unda u boylik to'plash maqsadida jamg'ariladi. Pulning bu funksiyasini muqobil tarzda mulkning boshqa turlari - obligatsiyalar, aksiyalar, ko'chmas mulk ham bajarishi mumkin.

Rivojlangan iqtisodiyot sharoitida pulning to'lov vositasi sifatidagi vazifasi jamg'arish vositasi vazifasiga nisbatan muhimroq a'hamiyat kasb etadi.

Pulning yuqori likvidlilik va qiymatni saqlab turishi xususiyatlar barcha turdagi to'lov vositalarida bir xil emas. Naqd pullar va muddatsiz depozitlarning likvidlilik darajasi muddatli depozitlarga yoki veksellarga qaraganda yuqoriroq. Shu sababli pul massasi likvidlilik darajasining pasayib borishi tamoyiliga asoslangan agregatlarga bo'linadi. Rivojlangan mamlakatlarda pul massasini aniqlashda - M1; M2; M3; M4 deb belgilanadigan pul agregatlaridan foydalaniladi.

Pul agregatlarining tarkibi va miqdori turli mamlakatlarda o'zaro farq qilish mumkin. Quyida umumlashtirib olingan pul agregatlari tarkibini keltiramiz:

“M0- bank tizimidan tashqaridagi naqd pullar va tijorat banklarining Markaziy bankdagi rezervlari;

M1 = M0 + muddatsiz depozitlar, yo'l cheklari va boshqalar;

M2 = M1 + (miqdori va muddati cheklangan) muddatli depozitlar va boshqalar;

M3 = M2+(miqdori va muddati cheklanmagan) muddatli depozitlar va boshqalar”⁵⁵.

Makroiqtisodiy tahlilda M1 va M2 pul agregatlari eng ko'p foydalaniladi. Pul agregatlarining dinamikasi turli sabablarga bog'liq. Masalan, daromadlarning oshishi natijasida M1ga talab tezroq o'ssa, foiz stavkasining o'sishi natijasida M2 va M3ga talab M1ga nisbatan tezroq o'sadi.

26.2. Pulga talabning klassik nazariyasi

Pulning miqdoriy nazariyasi pulga bo'lgan talabni almashinuv tenglamasi yordamida aniqlaydi:

$$M \cdot V = P \cdot Y$$

Bu yerda: M – muomaladagi pul miqdori; V – pulning aylanish tezligi; P – baholar darajasi (baho indeksi); Y – real YaIM.

Pulning aylanish tezligi, iqtisodiyotda bitimlar tarkibi nisbatan barqaror bo'lganligi uchun ham doimiy kattalik deb qabul qilinadi. Ammo bank tizimiga hisob-kitoblarni tezlashtiruvchi texnik vositalar joriy qilinishi natijasida u o'zgarishi mumkin. V doimiy bo'lgan sharoitda almashtirish tenglamasi quyidagicha bo'ladi:

$$M \cdot V^* = P \cdot Y \text{ (Fisher tenglamasi), bundan:}$$

$$P \cdot Y = \frac{M}{V^*}$$

$$V^*$$

$P \cdot Y$ – nominal YaIM miqdorini bildirishini va doimiy miqdorligini hisobga olsak, muomala uchun zarur bo'lgan pul miqdori ishlab chiqarilayotgan tovarlar va xizmatlar miqdori va ularning bahosi o'zgarishlariga, boshqacha aytganda, nominal YaIM o'zgarishiga bog'liq. Muomaladagi pul massasining o'zgarishi, klassik nazariyaga ko'ra, Y sekin o'zgarishi tufayli asosan baholar darajasiga ta'sir ko'rsatadi. Bu holat "pulning neytralligi" nomini olgan.

Monetaristlar qoidasiga ko'ra hukumat pul massasining o'sish sur'atini, real YaIMning o'rtacha o'sish sur'ati darajasida ta'minlab tursalar iqtisodiyotda baholar darajasi barqaror bo'ladi.

Fisher tenglamasidan tashqari bu tenglamaning boshqa bir shakli Kembrij tenglamasidan ham keng foydalaniladi:

$$M = k \cdot P \cdot Y$$

Bu yerda: $k = 1/V$ – pulning aylanish tezligiga teskari miqdor.

k - koeffitsientni nominal pul miqdori (M)ning daromadlar ($P \cdot Y$)dagi ulushini ko'rsatadi.

Kembrij tenglamasi turli darajada daromadli bo'lgan turlicha moliyaviy aktivlar mavjudligini va daromadni ularning qaysi biri ko'rinishida saqlashni tanlash imkoniyati mavjudligini ko'zda tutadi.

Pulga real talab quyidagi ko'rinishda hisoblanadi:

$$\left(\frac{M}{P}\right)^d = k \cdot Y$$

Bu yerda: M/P – "real pul qoldig'i", "pul mablag'larining real zahirasi" deb nomlanadi.

26.3. Pulga talabning keynscha nazariyasi

Pulga talabning Keyns nazariyasi, likvidlilikning afzalligi nazariyasi, pulni naqd ko'rinishda saqlashga kishilarni undovchi uch sababni ajratib ko'rsatadi:

1. transaksion sabab (joriy bitimlar uchun naqd pulga talab);

2. ehtiyotkorlik sababli (ko'zda tutilmagan holatlar uchun ma'lum miqdorda naqd pullarni saqlash);

3. spekuliyativ sabab (foydalanish maqsadida qimmatli qog'ozlar sotib olish uchun pulga talab).

Spekuliyativ sabab foiz stavkasi bilan obligatsiyalar kursi o'rtasidagi teskari bog'liqlikka asoslanadi. Agar foiz stavkasi ko'tarilsa, obligatsiyalar bahosi pasayadi, ularga talab esa oshadi. Bu esa o'z navbatida, naqd pul zahiralarning qisqarishiga hamda naqd pullarga talabning pasayishiga olib keladi.

Pul likvidlilik xususiyatiga ega bo'lganligi uchun ham aholi uni saqlashni afzal biladi. Likvidlilikning afzalligi nazariyasi ko'rsatadiki pulga bo'lgan talab miqdori foiz stavkasiga bog'liq. Foiz stavkasi naqd pul vositalarini qo'lda ushlab turishning muqobil xarajatlari miqdorini, ya'ni, siz foiz olib kelmaydigan naqd pullarni qo'lda ushlab turgan sharoitda yo'qotadigan pul miqdorini bildiradi. Nonning narxi non talabi miqdoriga ta'sir qilganidek, naqd pullarni qo'lda ushlab turish miqdori ham pul zahiralarga talab miqdoriga ta'sir ko'rsatadi. Shuning uchun foiz stavkasi oshganda, insonlar boyliklarini naqd pul shaklida kamroq ushlab turishga harakat qiladi.

Real pul zahiralarga talab funksiyasini quyidagi ko'rinishda yozamiz:


$$M/P = f(R)$$

Bu tenglama ko'rsatayaptiki, pulga bo'lgan talab miqdori foiz stavkasi funksiyasi ekan. Grafikda foiz stavkasi va real pul zahiralari miqdoriga talab teskari bog'liqlikka ega ekanligi ko'rinadi. Chunki, yuqori foiz stavkasi pulga talab miqdorining kamayishini ko'rsatadi

Klassik va keynschilarga xos yondashuvlarni umumlashtirib, pulga talabning quyidagi omillarini ajratib ko'rsatish mumkin:

- 1) daromadlar darajasi;
- 2) pulning aylanish tezligi;
- 3) foiz stavkasi.

Agar klassik nazariya pulga talabni asosan, real daromad hajmi bilan bog'lasa, keynschilarda esa pulga talab asosan, foiz stavkasiga bog'liq deb hisoblanadi.



26.1-rasm. Pulga talab grafigi

Pulning aylanish tezligini hisobga olmaganda, real pul qoldig‘i (likvidliligi) ga talab formulasi quyidagicha bo‘ladi:

$$(M/P)^d = L(R, Y);$$

Bu yerda: R – foiz stavkasi; Y – real daromad.

Chiziqli bog‘liqlikni e‘tiborga olsak, quyidagicha formula hosil bo‘ladi:

$$(M/P)^d = kY - hR$$

Bu yerda: k va h – pulga talabning daromadlar va foiz stavkasiga ta‘sirchanligini ifodalovchi koeffitsientlar; R – foiz stavkasi (real foiz stavkasi).

Real foiz stavkasi nominal foiz stavkasidan inflatsiya sur‘atini ayirib topiladi.

Daromad darajasining o‘zgarishi foiz stavkasi o‘zgarimas bo‘lgan sharoitda ham pulga talabning ko‘payishiga olib keladi. Bu grafikda pulga talab egri chizig‘ining siljishi ko‘rinishida namoyon bo‘ladi.

26.4. Pul taklifi. Bank multiplikatori

Pul taklifi (M) o‘z ichiga bank tizimidan tashqaridagi naqd pullar (C) va zarur bo‘lganda (D) iqtisodiy agentlar bitimlar uchun ishlatishi mumkin bo‘lgan depozitlarni oladi⁵⁵:

$$M = C + D.$$

Aksariyat mamlakatlarda davlat pul chiqarishda monopol huquqqa ega. Uni amalga oshirish huquqi nisbatan mustaqil muassasa Markaziy bank ixtiyorida. “Markaziy bank O‘zbekiston Respublikasi hududida qonuniy to‘lov vositasi sifatida banknotlar va tangalar ko‘rinishidagi pul belgilarini muomalaga chiqarish mutlaq huquqiga ega”⁵⁶. Ammo pul taklifini ko‘paytirish imkoniga yoki pul yaratish qobiliyatiga tijorat banklari ham ega. Ular kreditlar bera borib, to‘lov vositalari emissiyasini yoki kredit multiplikatsiyasini amalga oshiradi. Masalan, A bankning depoziti 2000 so‘mga o‘sgan bo‘lsa, zahira normasi 20 % ga teng bo‘lganda (zahira normasi

– tijorat banklar depozitlarining ma‘lum qismini Markaziy bankda saqlab turish normasi), u 400 so‘mni Markaziy bankda zahiralab, qolgan 1600 so‘mni qarzga beradi. Shunday qilib, A bank pul taklifini 1600 so‘mga ko‘paytiradi va u endi $2000 + 1600 = 3600$ so‘mni tashkil etadi. Ya‘ni, omonatchilarning depozitlardagi 2000 so‘mdan tashqari yana 1600 so‘m qarz oluvchilar qo‘lida qoladi. Agar, 1600 so‘m yana banka tushsa, (masalan, B bankka) unda 20 % ga teng bo‘lgan zahira normasida u 320 so‘mni zahirada qoldirib, 1280 so‘mni kreditga beradi hamda shu miqdorda pul taklifini oshiradi. Kredit berishning bu jarayoni so‘nggi pul birligidan foydalanishga qadar davom etadi. Yakuniy hisob kitob bank depozitlari jami 10000

⁵⁵ N. Gregory Mankiw. Macroeconomics. 8 th edition. Harvard University. (NY.: Worth Publishers, 2013): 87

⁵⁶ O‘zbekiston Respublikasining “O‘zbekiston Respublikasi Markaziy Banki to‘g‘risida” gi Qonuni, 1995-yil, 21- dekabr /www.lex.uz

ko'payganligini ko'rsatadi. Bu jarayonni formula ko'rinishida quyidagicha yozishimiz mumkin:

$$M = (1/rr) \times D$$

Bunda: M- pul taklifi hajmi; rr – majburiy zahiralash normasi ; D - dastlabki depozit.

Keltirilgan formuladan ko'rinib turibdiki, pul taklifi 1/rr koeffitsientiga bog'liq bo'lib, uni bank multiplikatori yoki pul ekspansiyasi multiplikatori, deb ataladi. U ushbu bank zahiralash normasida ortiqcha zahiralarning bir pul birligi bilan yaratilishi mumkin bo'lgan yangi kredit pullarining eng ko'p miqdorini bildiradi.

26.5. Pul taklifining kengaytirilgan modeli, pul multiplikatori

Pul taklifining umumlashma modeli Markaziy bankning pul taklifidagi roli hamda pulning bir qismini depozitlardan naqd pullarga oqib o'tishni hisobga olgan holda yoziladi. Bu model bir qator yangi o'zgaruvchilarni o'z ichiga oladi. Bular:

- pul bazasi (rezerv pullar, yuqori quvvatli pullar) – bank tizimidan tashqaridagi naqd pullar va tijorat banklari Markaziy bankda saqlaydigan depozitlar summasi;

- deponentlash koeffitsienti - $Cr = C/D$

Pul bazasini MB va bank rezervlarini R deb belgilasak,

$$B = C + R.$$

Pul taklifining kengaytirilgan modelini quyidagicha yozish mumkin⁵⁷:

$$M = \frac{Cr + 1}{Cr + rr} \cdot B \quad \text{yoki} \quad M = m \cdot B$$

$Cr + rr$

$(Cr + 1) / (Cr + rr)$ nisbat pul multiplikatori deb yuritilib bir so'mlik pul bazasi hisobiga necha so'mlik pul taklifi yuzaga kelishini ko'rsatadi. **Pul multiplikatorini** – pul taklifining pul bazasiga nisbati ko'rinishida yozish mumkin:

$$m = \frac{M}{B} = \frac{C+D}{C+R} = \frac{C/D + D/D}{C/D + R/D} = \frac{Cr + 1}{Cr + rr}$$

Cr miqdori – aholining o'z mablag'larini naqd pullar va depozitlar o'rtasida qanday proporsiyada saqlashni tanlashga bog'liq.

$rr = R / D$ miqdori esa – aholining nafaqat Markaziy Bank belgilab bergan majburiy rezerv normasiga, balki tijorat banklari saqlab turishni mo'ljallanayotgan ortiqcha rezerv miqdoriga ham bog'liq.

Demak, pul taklifi pul bazasi va pul multiplikatori miqdoriga bog'liq ekan. Pul multiplikatori pul bazasining bir miqdorga oshishi natijasida pul taklifi qanday o'zgarishini ko'rsatadi.

⁵⁷ N. Gregory Mankiw. Macroeconomics. 8 th edition. Harvard University. (NY.: Worth Publishers, 2013): 93

Markaziy bank pul taklifini avvalambor, pul bazasiga ta'sir etish yo'li bilan tartibga soladi.

Mamlakatda pul miqdori ko'payadi, agar:

- pul bazasi o'ssa;
- majburiy zahiralar normasi pasaytirilsa;
- tijorat banklarining ortiqcha rezervlari kamaysa;
- naqd pullarning depozitlar umumiy summasiga nisbati pasaysa.

26.6. Pul bozorida muvozanat

Pul bozori modeli pulga talab va taklifni birlashtiradi. Dastlab, soddalik uchun pul taklifi Markaziy Bank tomonidan nazorat qilinadi va $(M/P)^S$ darajasida qayd qilingan deb olamiz.

Agarda M -pul taklifini, P-narxlar darajasini bildirsa, M^*/P^* pul vositalarining real zahirasi miqdorini ko'rsatadi.

$$(M/P)^S = M^*/P^*$$

Bu yerda: M - pul taklifi darajasini bildiradi;

P – baholar darajasi (ushbu modelda ekzogen o'zgaruvchi) ni ko'rsatadi. 26.1-rasm real pul taklifi miqdoridagi foiz stavkasiga bog'liq bo'lmagan


vaziyatni ko'rsatadi. Shuning uchun real pul vositalari taklifi grafikda ko'rsatayotganimizdek vertikal chiziq ko'rinishiga ega bo'ladi. Bu holat foiz stavkasi qanchalik o'zgarishiga qaramasdan real pul taklifi miqdori o'zgarmasdan qolgan vaziyatni aks ettiradi.

Baholar darajasini ham barqaror deb qabul qilamiz. Bu holatda real pul taklifi M^*/P^* ga teng va grafikda M^S to'g'ri chiziq ko'rinishiga ega bo'ladi.


Pul talabi berilgan daromad darajasida foiz stavkasiga teskari proporsional egri chiziq ko'rinishiga ega. Muvozanat nuqtasida pul talabi va taklifi o'zaro teng, (9.2-rasm).

O'zgarib turuvchi foiz stavkasi pul bozorini muvozanatda ushlab turadi. Foiz stavkasining o'zgarishi natijasida iqtisodiy agentlar o'z aktivlari tarkibini o'zgartirgani tufayli pul bozorida muvozanatga erishish uchun vaziyatga ta'sir etib uni o'zgartirish zarur va mumkindir. Agar R juda yuqori bo'lsa, pul taklifi unga bo'lgan talabdan yuqori bo'ladi. Iqtisodiy agentlar o'zlarida to'planib qolgan ortiqcha naqd pullarni aksiya va obligatsiyalarga aylantirib, ulardan qutilishga intilishadi.

Yuqori foiz stavkasi, ta'kidlanganidek, obligatsiyalar kursining pastroq darajasiga mos keladi. Shu sababli, arzon obligatsiyalarni (kelajakda foiz stavkasi pasayishi oqibatida ular kursi o'sishini ko'zda tutib) sotib olish foydali bo'ladi.




26.1-rasm. Real pul vositalari zahirasi taklifi grafigi




26.2-rasm. Pul bozorida muvozanat modeli

Banklar, $M_s > M_d$ bo'lgani uchun foiz stavkasini pasaytira boshlaydi. Astasekin iqtisodiy agentlar o'z avtivlari tarkibini o'zgartirishi va banklar tomonidan foiz stavkasining o'zgartirilishi oqibatida pul bozorida muvozanat tiklanadi. Foiz stavkasi pasayib ketgan holatda teskari jarayon ro'y beradi.

Foiz stavkasi va pul massasi muvozanatli darajasining o'zgarib turishi pul bozorining ekzogen o'zgaruvchilari – daromadlar darajasi va pul taklifining o'zgarishi natijasida ham ro'y beradi.



26.3-rasm. Daromadlar darajasining oshishi natijasida pulga talabning o'zgarishi



26.4-rasm. Pul taklifining kamayishi natijasida pul bozorida muvozanatning o'zgarishi

Grafik ko'rinishda, bu, pul talabi va pul taklifi egri chiziqlarining siljishi sifatida namoyon bo'ladi (26.3, 26.4-rasmlar).

Daromadlar darajasining Y_1 dan Y_2 ga qadar o'sishi (26.3-rasm) pulga talabni M^1d dan M^2d gacha oshishiga va foiz stavkasini R_1 dan R_2 ga qadar ko'tarilishiga olib keladi. Pul taklifining kamayishi ham foiz stavkasining ko'tarilishiga va muvozanat nuqtasining o'zgarishiga olib keladi.

Pul bozorida muvozanatni o'rnatish va saqlab turish mexanizmi qimmatli qog'ozlar bozori rivojlangan bozor iqtisodiyoti sharoitida muvafaqqiyatli amal qiladi. Pul bozorida muvozanat tovarlar va xizmatlar bozorida muvozanat singari makroiqtisodiy muvozanatning muhim tarkibiy qismidir.

Qisqa xulosalar

Pul to'lov, jamg'arish va qiymat o'lchovi funksiyalarini bajaruvchi, yuqori likvidli tovardir. Pul tushunchasi vaqatgina naqd pullar bilan cheklanib qolmasdan, uning tarkibiy elementlari likvidlik darajasi tushib borishiga qarab agregatlarga ajratilgan. Makroiqtisodiy tahlilda e'tibor ko'proq M_1 va M_2 agregatlariga qaratiladi.

Pul emissiyasi faqat Markaziy bank vakolatiga kirsada, tijorat banklari ham kredit berib pul taklifini ko'paytirish qobiliyatiga ega.

Tijorat banklarining pul taklifini keltirib chiqarish imkoniyati majburiy zahira normasini belgilash orqali tartibga solib turiladi.

Umumiy pul taklifi nafaqat joriy hisoblardagi mablag'lardan, balki aholi qo'lidagi naqd pullardan ham tashkil topadi. Pul taklifi miqdori majburiy zahira normasi, deponentlash koefitsenti va pul bazasi miqdoriga bog'liq.

Mahsulotlar bozorida kabi pul bozorida ham pulga bo'lgan umumiy talab va taklif muvozanat nuqtada kesishadi. Mahsulotlar bozorida muvozanat nuqtani narxlar tengligi asoslasi, pul bozorida esa bunday tenglikni foiz stavkasi belgilaydi.

Nazorat va muhokama uchun savollar

1. Pul taklifi asosida nimalar yotadi? Bank multiplikatori qanday aniqlanadi?
2. Pul bazasining mohiyatini tushuntirib bering.
3. Pul taklifining umumiy modeli mohiyatini tushuntirib bering.
4. Deponentlash koefitsentning pasayishi pul multiplikatori va pul taklifiga qanday ta'sir ko'rsatadi?
5. Pul bozorida muvozanat nuqtasi nimani bildiradi? Pul bozorida muvozanat qay yo'sinda ta'minlanadi?

27–bob. DAVLAT BUDJETI, SOLIQLAR VA DAVLAT QARZI

27.1. Davlat budjetining mohiyati va funksiyalari

Davlat o‘z iqtisodiy funksiyalarini bajarishda moliyaviy manba sifatida davlat budjetiga tayanadi.

Davlat byudeti mamlakat moliya tizimining markaziy unsuri bo‘lib makroiqtisodiy barqarorlikni ta‘minlashda muhim rol o‘ynaydi.

Davlat budjeti moliyaviy balans sifatida ikki qismdan iborat bo‘lib, bu qismlarni sodda qilib daromadlar va xarajatlar deb atash mumkin.

Davlat budjeti daromadlari soliq va soliq bo‘lmagan tushumlar hisobiga shakllansada, makroiqtisodiy tahlilda u soliqlar hisobigagina shakllanadi deb qaraladi.

Davlat budjeti xarajatlari tarkibida iqtisodiyotga xarajatlar, markazlashgang investitsiyalarni moliyalashtirish, ijtimoiy himoya, ijtimoiy soha, davlat boshqaruv va sud idoralarini moliyalashtirish moddolari mavjud.

Davlat budjet xarajatlarini (davlat xarajatlari va transfert to‘lovlari) ko‘paytirish yoki qisqartirish orqali mamlakat iqtisodiyotiga aralashadi. Davlat tomonidan tartibga solishning bevosita usullari yoki budjet siyosati tovar va xizmatlarning davlat xaridi, YaIMni taqsimlash va qayta taqsimlash, ijtimoiy dasturlarni ishlab chiqish va amalga oshirish, davlat budjetining daromadlar va xarajatlar qismidagi mutanosiblikni ta‘minlash, ishlab chiqaruvchilarga moliyaviy yordam shakllarini ko‘rsatish, baholar ustidan nazorat o‘rnatish, eksport va import qilinadigan tovarlarga kvotalar o‘rnatish va shuningdek, mamlakat aholisini himoya qilish maqsadida olib borilayotgan chora-tadbirlar majmuasidan iborat.

Davlat tomonidan ko‘rsatiladigan moliyaviy yordamlar dotatsiya, subvensiya va subsidiya shakllarida olib boriladi.

Subsidiyalar – bu, pul yoki natura ko‘rinishidagi yordam turi bo‘lib, budjet va budjetdan tashqari fondlardan ko‘rsatiladi. Subsidiyalar bevosita va bilvosita bo‘lishi mumkin. Bevosita subsidiyalarga kapital qo‘yilmalar, ilmiy tadqiqotlar, kadrlarni qayta tayyorlashga ajratilgan mablag‘lar kirsa, bilvosita subsidiyalarga soliq imtiyozlari, imtiyozli shartlarda kreditlar berish, pasaytirilgan bojxona bojlari va boshqalar kiradi.

Bundan tashqari davlat aholini davlat transfertlari ko‘rinishida himoya qiladi.

Bozor iqtisodiyoti sharoitida ko‘p qirrali soliqlar tizimidan foydalaniladi. Aholi davlat budjetiga har oyda olgan daromadlariga qarab daromad solig‘i to‘laydi, korxonalar esa olgan foydasiga qarab foydadan soliq to‘laydilar. Shu kabi juda ko‘p mavjud soliq turlaridan oqilona va ilmiy asosda foydalanish orqali davlat soliq siyosatini, soliq stavkalari miqdorlarini va imtiyozlari turlarini aniqlaydi va shu bilan butun makroiqtisodiy vaziyatga ta‘sir ko‘rsatadi. Soliqlarni o‘zgartirish orqali investitsiyalar va jamg‘armalar rag‘batlantiriladi.

Davlat budjeti mablag‘lari hukumatning daromadlarni va resurslarni qayta taqsimlash funnksiyasin bajarishi uchun imkoniyat yaratadi.

27.2. Davlat budjeti xarajatlari

Davlat budjeti xarajatlari davlatning ijtimoiy-iqtisodiy siyosatining moddiy mazmunini aks ettiradi. O‘zbekiston Respublikasi davlat budjeti xarajatlarining keyingi yillardagi tarkibiy tahlillari ko‘rsatadiki, xarajatlar nominal mazmunda (mutlaq ko‘rsatkichlarida) ortib borayotganligi kuzatishimiz mumkin. Lekin, uning yalpi ichki mahsulotga nisbatan salmog‘ining kamayib borish tendensiyasi kuzatilmoqda.

Shu bilan bir qatorda davlat budjeti xarajatlari tarkibida ijtimoiy soha va aholini ijtimoiy himoyalash xarajatlarining izchil ravishda ortib borayotganligi davlatimiz tomonidan kuchli ijtimoiy siyosatning moliyaviy asoslarini shakllantirilayotganligini kuzatishimiz mumkin. Buni quyidagi jadval ma’lumotlaridan ko‘rishimiz mumkin.

27.1-jadval

Davlat budjeti xarajatlari (YaIM ga nisbatan % da)⁵⁸

Ko‘rsatkichlar	2010	2011	2012	2013	2014	2015	2016	2017
Davlat budjeti xarajatlari, jami	21,7	21,5	21,6	21,7	21,7	20,5	20,5	19,8
Ijtimoiy soha va aholini ijtimoiy qo‘llab-quvatlash xarajatlari	12,7	12,5	12,7	12,7	12,8	12,1	12,1	10,9
Iqtisodiyot xarajatlari	2,5	2,5	2,4	2,3	2,3	2,2	2,2	2,1
Markazlashgan investitsiyalarni moliyalashtirish	1,4	1,4	1,2	1,2	1,1	1,0	1,1	1,3
Davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari, sud organlari xarajatlari	0,8	0,8	0,9	1,0	1,0	0,9	0,9	0,8
Boshqa xarajatlar	4,4	4,3	4,4	4,5	4,5	4,3	4,3	4,7

Davlat budjeti xarajatlarining tarkibidagi ijtimoiy-madaniy tadbir xarajatlari yil sayin oshib borgan. Keyingi 5 yil mobaynida jami budjet xarajatlarining tarkibida

⁵⁸ O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi ma’lumotlari

ijtimoiy sohaga qilinayotgan xarajatlar 2012 yilda 58,3% dan 2017 yilda 58,9% gacha o'sib borgan. Ushbu holat o'z navbatida, jahondagi barcha davlatlar orasida eng yuqori ko'rsatkichni tashkil etadiki, o'z navbatida Respublikamizda izchil amalga oshirilayotgan ijtimoiy islohotlarning uzoq, strategik ahamiyatga ega ekanligidan dalolatdir. shuningdek, ushbu xarajatlarning o'sib borishi bilan birga ular davlat budjeti xarajtlari tarkibida eng yuqori salmoqni tashkil etmoqda.

Iqtisodiyot xarajatlari esa 2012 yilda 2338 mlrd. so'mni tashkil etgan bo'lib, jami budjet xarajatlarida 11,0 foizni tashkil etgan. 2017 yilga kelib ushbu xarajatlarning jami davlat budjeti xarajatlaridagi salmog'i 10,6 %ni takil etgan. Lekin ushbu xarajatlar nominal mazmunda o'sib borgan.

Markazlashtirilgan investitsiyalarni budjetdan moliyalashtirish 2012 yilda 1174 mlrd. so'm, 2013 yilda 1300 mlrd. so'mni va 2016 yilda 2104 mlrd. so'mni tashkil etgan. Bu o'z navbatida hozirgi kunda amalga oshirilayotgan iqtisodiyotni modernizatsiya qilish va yangilash, innovatsion texnologiyalarni keng joriy qilish bilan bog'liq yirik va strategik ahamiyatga ega bo'lgan loyihalarni moliyalashtirishda budjet investitsiyalarining ham ahamiyati yuqoriligidan dalolat beradi.

Ta'lim va tibbiyot muassasalarini rekonstruksiya qilish, kapital ta'mirlash va jihozlash fondiga ajratilayotgan mablag'larning oshib borishi ta'lim va tibbiyot muassasalarini modernizatsiya qilish orqali ta'lim va soliqni saqlash bo'yicha xizmatlar sifatini yanada yuksaltirish, pirovardida aholining intellektual salohiyati va turmush farovonligini yuksaltirishda davlat budjeti alohida ahamiyatga ega bo'layotganini tasdiqlaydi.

Davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari, sud organlari faoliyati uchun xarajatlar jami xarajatlar tarkibida 2012 yilda jami budjet xarajatlarini 3,9 foizni tashkil etgan bo'lsa, 2016 yilga kelib bu xarajatlar 4,4 foizni tashkil etgan. Demak, nominal mazmunda ushbu xarajatlar qariyb 2 barobardan ko'p o'sgan bo'lsa-da, ularning budjet xarajatlaridagi 0,5 f.b.ga ko'paygan.

Yuqoridagi jadvaldagi budjet xarajatlari budjet siyosatining asosiy yo'nalishlarini o'zida ifoda etib, unda tabiiy ravishda ijtimoiy soha va aholini ijtimoiy qo'llab-quvvatlash masalalari ustuvor ekani kuzatilmoqda. Davlat budjetining ijtimoiy soha va aholini ijtimoiy qo'llab-quvvatlash xarajatlari asosan ta'lim, sog'liqni saqlash, madaniyat va sport, ilm-fan, ijtimoiy ta'minot va ijtimoiy nafaqalardan tashkil topgan.

2010-2016 yillardagi davlat moliyasi tizimi barqarorligini ta'minlash bo'yicha islohotlardagi muhim qadamlardan biri bu bir nafar o'quvchiga (tarbiyalanuvchiga) xarajatlarning bazaviy me'yorlaridan kelib chiqqan holda maktabgacha tarbiya bolalari muassasalari, umumta'lim maktablari, akademik litseylar va kasb-hunar kollejlarning budjetini rejalashtirish va xarajatlarini moliyalashtirish tartibini joriy etilganligi va 2010 yildan boshlab ushbu tartibni respublikaning barcha hududlaridagi mazkur muassasalarga tatbiq etilgani hisoblanadi. Natijaga yo'naltirilgan budjetlashtirishning ushbu elementi budjet muassasalarining moliyaviy mustaqilligini oshirilishini ta'minlab xarajatlarning manzilli va maqsadli sarflanishi uchun sharoit

yaratilishiga olib kelmoqda. Ushbu islohotlarning samarali natijalariga erishishda davlat budjeti xarajatlarining hissasi yuqori bo'lmoqda.

Davlat budjeti ijrosining g'aznachilik tizimini joriy etilishi natijasida keyingi yillarda davlat budjeti pofitsit bilan ijro etilmoqda. Bunda rejalashtirilgan budjet xarajatlarini manzilli va maqsadli sarflanishini ta'minlanishi natijasida xarajatlarning maksimal iqtisod qilinishi ta'minlanmoqda.

27.3. Soliqlarning turlari va funksiyalari

Soliqlar majburiy to'lovni ifoda etuvchi pul munosabatlarini bildirib, bu munosabatlar soliq to'lovchilar (huquqiy va jismoniy shaxslar) bilan soliqni o'z mulkiga aylantiruvchi davlat o'rtasida yuzaga keladi.

Korxonalar va tashkilotlar aholiga xizmat ko'rsatganida, ishlar bajarganida yoki bozorlarda oldi-sotdi qilganda ham pul to'lovlari mavjud. Lekin ular soliq bula olmaydi. Soliq munosabati bulish uchun davlat mamlakatda yaratilgan yalpi ichki mahsulot qiymatini taksimlash yo'li bilan majburan davlat budjetiga mablag to'plash jarayonini amalga oshiradi.

Soliqlarning o'ziga xos belgilari mavjud bo'ladi, ularga: majburiylik, xazinaga tushishlik, kat'iylik va doimiylik, anik soliq to'lovchi uchun ekvivalentsizlik belgilari mavjuddir.

Birinchi belgi-majburiylik. Soliq va yig'imlar majburiy bo'ladi, bunda davlat soliq to'lovchining bir kism daromadlarini majburiy badal sifatida budjetga olib kuyadi. Bu majburiylik Oliy Majlis tasdiqlab bergan Soliq Kodeksiing tamoyili asosida amalga oshiriladi. Demak, majburiylik belgisi huquqiy tomondan davlat uchun kafolatlangan.

Ikkinchi belgi soliqlarning davlat mulkiga aylanishidir. Soliqlar albatta xazinaga-davlat budjetiga va boshqa davlat pul fondlariga tushadi. Bordi-yu, to'lov boshqa ixtiyoriy fondlar - «Iste'dod», «Yoshlar ittifoqi», «Nuroni»,

«Mahalla» jamg'armalariga tushsa, unda soliq munosabati bo'lmaydi. Chunki majburiylik tamoyili yuk, u to'lov davlat mulkiga tushmaydi.

Soliqlar qat'iy belgilangan va doimiy harakatda bo'ladi. Tarixda 50 va

100 yillab o'zgarasdan harakatda bo'lgan soliqlar mavjud. Ilmiy asosi kancha chuqur bo'lsa soliqlar shuncha kat'iy va uzoq yillar o'zgarasdan harakat kiladi yoki juda kam o'zgaradi.

To'langan soliqlar mamlakat miqyosida hammaga bir xil mikdorda qaytib keladi. "Soliqqa tortish tizimida eng muhimi – bunda soliqlarning ichki mohiyati mujassamlashgan- shunaki, u soliqlarni to'liq va samarali qaytarilish tamoyiligina amal qilishi kerak. Faqatgina soliqlarning to'liq, manzilli va samarali qaytarilishligigina soliq mexanizmini ijtimoiy takror ishlab chiqarishning eng muhim bo'g'inlaridan biriga aylantiradi"⁵⁹.

⁵⁹ Козырев В.М. Основы современной экономики". М.: "Финансы и статистика", 2005, 242 с.

Lekin, davlatga to‘langan soliq summasi to‘lovchining shaxsan o‘ziga to‘liq kaytib kelmaydi, ya’ni u ekvivalentsiz pul to‘lovidir. Masalan, soliq to‘lovchi bu yili davlatning soyolikni saqlash va maorif xizmatlaridan hech foydalanmagan bo‘lishi mumkin. Lekin bozor iqtisodiyoti sharoitida hamma soliq to‘lovchilarning tulagan soliq va yig‘imlari davlatning ularga ko‘rsatgan xilma-xil xizmatlari (mudofaa, xavfsizlikni ta‘minlash, tartib-intizomni urnatish va boshqa ijtimoiy-zaruriy xizmatlar) orqali o‘zlariga kaytib keladi. Demak, soliq to‘lovchilar nuktai nazaridan olganda hamma soliqlar bozor iqtisodiyoti sharoitida davlatning ko‘rsatgan ijtimoiy xizmatlari uchun tulanadigan (to‘lov) xaqdir. Soliqlar budjetga va davlat pul fondlariga kelib tushadigan, majburiy harakterga ega bo‘lgan pul to‘lovi munosabatlaridir.

“Shuningdek, soliqlar iqtisodiy kategoriya bo‘lganligi uchun bozor iqtisodiyoti munosabatlari, shu jumladan, moliyaviy munosabatlar bilan chambarchas bog‘liqdir. Bozor iqtisodiyoti erkin iqtisodiyotdir, ya’ni har bir huquqiy shaxs, tadbirkor o‘z tovariga erkin baho belgilashi, mahsulot etkazib beruvchini topishi va o‘zi iste’molchini topib unga mahsulotni sotish huquqiga ega. Shuning uchun davlat ularning bir qism daromadlarini taqsimlab, budjetga oddiy ajratma sifatida ololmaydi. Soliq qilib olish uchun Oliy majlisning karori zarur, ya’ni qonun bilan olingan to‘lov byudjetga o‘tadi. Erkin iqtisodiyot sharoitida soliqlar ham erkin, ochik, anik bo‘ladi, demokratik to‘lovga aylanadi”⁶⁰⁶⁵.

Soliqlar iqtisodiy kategoriya bo‘lganligidan to‘lovchilar va budjet o‘rtasida daromadlar taksimlanayotganda tomonlarning iqtisodiy manfaatini, albatta, e‘tiborga olish zarur. Soliq to‘lovchilar daromadini davlat istaganicha ololmaydi, soliqlarni budjetga olishning ma‘lum chegarasi mavjud. Bu xaqda ko‘plab yirik iqtisodchilar va davlat arlari o‘z asarlarida ko‘rsatib utgan. Uni davlat, shu bilan birga soliq to‘lovchilarning mahsulot ishlab chiqarish va foyda olishdagi faoliyatini hisobga olib soliq belgilanadi. Ikkinchi tomondan, soliqlardan makroiqtisodiyotni rivojlantirish, bozor infratuzilmasini yaratish va boshqa umumdavlat maksadlari uchun etarli moliyaviy resurslar tuplash uchun foydalaniladi. Soliqlarning mohiyati soliq to‘lovchilar bilan davlat o‘rtasidagi doimiy, uzoq muddatli munosabatlarda o‘z ifodasini topadi.

Aniqroq aytsak, bu yerda iqtisodiy munosabat, ya’ni pul munosabati mavjuddir.

Markazlashgan pul fondini va davlatning boshqa fondlarini majburiy tashkil etadigan soliq va yig‘imlar turlarining yig‘indisiga soliqlar tizimi deb ataladi. Bu ta‘rifda soliq va yig‘imlar yagona mohiyat, ya’ni «majburiy xarakterga ega bo‘lgan munosabat» va ularning bir-biri bilan bog‘liqligi va nihoyat budjetga tushishligini ko‘rsatadi. Bu O‘zbekiston Respublikasi soliq Kodeksi mazmuniga mos keladi. Shu yerda bahsli masala ham mavjud, ya’ni davlatning budjetdan tashqari fondlariga (pensiya, ijtimoiy sugurta, bandlik, yo‘l fondlari va boshqalarga) to‘lovlarni ham

⁶⁰ Поляк Г.Б. Налоги и налогообложение.: Учебное пособие-М.: “ЮНИИТИ”, 2003, 63-с
339

majburiylik nuqtai nazardan soliq tizimiga kiritish muammosi mavjud. O‘zbekiston Respublikasi Soliq Kodeksiga binoan soliqlar tizimi umumdavlat soliqlari hamda mahalliy soliq ar va yig‘imlarni o‘z ichiga oladi (27.2-jadval).

10.2-jadvalda ko‘rinib turibdiki, hozirgi kunda soliqlar kodeksda 6 ta umumdavlat (respublika) soliqlari va 5 ta mahalliy soliqlar kiradi.

27.2-jadval

O‘zbekiston Respublikasida soliqlar tizimi tarkibi

Umumdavlat soliqlari.	Mahalliy soliqlar va yig‘imlar
1. Yuridik shaxslar daromadiga (foydasiga) soliq. 2. Jismoniy shaxslar daromadiga soliq. 3. Qo‘shilgan qiymat solig‘i. 4. Aksiz solig‘i. 5. Yer osti boyliklaridan foydalanish solig‘i. 6. Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq. 7. Bojxona boji. 8. Davlat boji. 9. Boshqa Boshqa to‘lovlar.	1. Mol-mulk solig‘i. 2. Yer solig‘i. 3. Yagona soliq. 4. Obodonlashtirish va infratuzilmani rivojlantirish solig‘i 5. Jismoniy shaxslardan transport vositalariga benzin, dizel yoqilg‘isi va suyultirilgan gaz ishlatganlik uchun olinadigan soliq 6. Boshqa to‘lovlar.

Soliqlarni obyekt va iqtisodiy mohiyati bo‘yicha guruhlanadi. Soliqlarni guruhlash iqtisodiyotga ijobiy va salbiy ta‘sirlarni o‘rganishning ilmiy va amaliy uslubidir.

Soliqlar soliqqa tortish obyektiga karab to‘rt guruhga bulinadi:

- oborotdan olinadigan soliqlar;
- daromaddan olinadigan soliqlar;
- mol-mulk kiymatidan olinadigan soliqlar;
- yer maydoniga qarab olinadigan soliqlar.

Oborotdan olinadigan soliqlarga qo‘shilgan qiymat solig‘i, aksiz solig‘i, bojxona va yer osti boyliklari kiymatidan olinadigan soliqlar kiradi. Lekin oborot (aylanma) tushunchasi bizning qonunchiligimiz bo‘yicha ilgaridek mahsulot realizatsiyasi oborotidan emas, balki maxsulotlarni yuklab yuborgan kiymat bilan ulchanadi Yalpi tushumdan olinadigan yagona soliq ham oborotdan olinadigan soliqlarga kiradi.

Daromaddan olinadigan soliqlarga huquqiy shaxslarning daromadiga (foydasiga), jismoniy shaxslarning daromadiga solinadigan soliq, savdo tashkilotlarining yalpi daromadidan soliqlar i kiradi. Bu guruh soliqlarga ijtimoiy infratuzilmani rivojlantirish solig‘i ham kiradi.

Mol-mulk qiymatidan olinadigan soliqlarga mol-mulk solig'i, ekologiya, avtomobil mashinalarini qayta sotish solig'i va boshqalar kiradi.

Yer maydonlaridan olinadigan soliqlarga qishlok xo'jalik tovar ishlab chikaruvchilarning yagona yer solig'i va yuridik (noqishloqxo'jalik) va jismoniy shaaxslarning yer soliqlari kiradi.

Iqtisodiy mohiyatiga karab soliqlar egri va to'g'ri soliqlarga yoki bevosita va bilvosta bulinadi.

27.3-jadval

O'zbekiston Respublikasi soliqlarining obyektiga ko'ra guruhlanishi

Tog'ri soliqlar	Egri soliqlar
1. Yuridik shaxslar foydasidan (daromadidan) olinadigan soliq	1. Qo'shilgan qiymat solig'i 2. Aksiz solig'i
2. Jismoniy shaxslar daromadidan olinadigan soliq	3. Jismoniy shaxslardan transport vositalariga benzin, dizel yoqilg'isi va suyultirilgan gaz ishlatganlik uchun olinadigan soliq
3. Yer solig'i 4. Mol-mulk solig'i	4. Bojxona to'lovlari va boshqalar
5. Yer osti boyliklaridan foydalanganlik uchun soliq	
7. Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq	
8. Obodonlashtirish va infiraturuzilmani rivojlantirish solig'i	

To'g'ri soliqlarni bevosita soliq to'lovchilarning o'zi tulaydi, ya'ni soliqni huquqiy to'lovchisi ham, hakikiy to'lovchisi ham bitta shaxs bo'ladi. to'g'ri soliq yukini boshqalarga ortish Holati bu yerda bo'lmaydi. Bu soliqlarga hamma daromaddan tulanadigan va barcha mulk soliqlar i kiradi.

“To'g'ri soliqlardan to'gridan-to'g'ri daromaddan soliq to'langanligi uchun soliqlar stavkasining kamaytirilishi korxonalar daromadining ko'p qismini ularga koldirib, investitsiya faoliyatini kengaytirish imkonini yaratib, bozor iqtisodiyotini rivojlantiradi. Bu soliqlar ning stavkalari kupaytirilsa, biznes imkoniyatlari kamaya borib, iqtisodiy rivojlanishni susaytiradi. Demak bu guruh soliqlarning stavkalari to'gridan-to'g'ri bozor iqtisodiyoti bilan chambarchas bog'langandir”⁶¹.

Egri soliqlar ni huquqiy to'lovchilari mahsulot (ish, xizmatni) yuklab yuboruvchilardir (xizmat ko'rsatuvchilardir). Lekin soliq og'irligini haqiqatdan ham budjetga to'lovchilari tovar (ish, xizmat) ni iste'mol qiluvchilardir, ya'ni xakikiy soliq to'lovchilar bu yerda yashiringan. Bu soliqlar tovar (ish, xizmat) kiymati ustiga ustama ravishda qo'yiladi.

Bu soliqlarning ijobiy tomoni mamlakatda ishlab chikarilgan tovarlarni chetga chiqib ketishini chegaralaydi, mamlakat ichida tovarlar ko'p bo'lishiga yordam beradi. Egri soliqlar orkali tovarlar kiymati oshirilmasa, bozorlarda ularning

⁶¹ Malikov T.S. Soliq va soliqqa tortishning dolzarb masalalari. T.: “Akademiya”, 2002, 56-b.

taqchilligi ortadi. Egri soliqlar stavkasining asosli ravishda oshirilishi korxonalar faoliyatining moliyaviy yakuniga to'gridan to'g'ri ta'sir etmaydi, ya'ni investitsion faoliyatini qiskartirmaydi. Ammo soliq stavkasi tahlil kilinmasdan oshirib yuborilsa korxonalar mahsulotlarini sotishda qiyinchilikka uchrab, foydasi va budjetga to'lovlari kamayishi mumkin.

Bu soliqlarning yana bir tomoni muomaladagi ortiqcha pul massasini kamaytirib, inqirozni jilovlab boradi. Birok bu soliqlar mehnat bilan band bo'lgan aholining real daromadini pasaytiradi. Korxonalarda to'g'ri soliqlar stavkasini kamaytirish hisobiga berilgan imkoniyat ko'prok mahsulot ishlab chiqarishni ko'paytirib, tovarlar assortimentining oshishini ta'minlashi kerak.

Jaxon soliq amaliyotida to'g'ri va egri soliqlar nisbatiga karab u yoki bu mamlakat iqtisodiyotini rivojlanishi yoki iqtisodiy kiyinchiliklarni borligini tahlil qilib berish mumkin. Masalan. AQShda to'g'ri soliqlar salmog'ining budjet daromadida 90 foizga yakin bo'lishi bu yerda rivojlangan bozor iqtisodiyoti mavjudligidan darak beradi.

Egri soliqlar tarkibiga QQS, aksiz solig'i, bojxona boji, yer osti boyliklaridan foydalanish soliqlari kiradi. Yuqorida aytib utilganidek, to'g'ri va egri soliqlar yagona soliq tizimini tashkil etib bir-biri bilan o'zaro bog'langan. Umumiy soliq summasi o'zgarmagan holda birining stavkasini kamaytirish ikkinchisini stavkasini oshirishni talab etadi.

Soliqlarning umudavlat (respublika) va mahalliy soliqlarga bulinishi xukumat idoralarining respublika xukumati va mahalliy xukumatlarga bo'linishi asosida kelib chiqadi. Har bir xokimiyat idoralari O'zlarining bajaradigan muhim vazifalaridan kelib chiqib, O'z budjetiga va uni ta'minlaydigan soliqlar ga ega bo'lishi kerak. Respublika xukumati umumdavlat mikiyosida katta vazifalarni mudofaa, xavfsizlikni saqlash, tartib intizom infrastrukturasini yaratish, mexnatkashlarga ijtimoiy ximoyasini tashkil etish va boshqa bir kator yirik vazifalarni bajaradi. Shuning uchun uning budjeti ham soliqlar i ham salmokli bo'lishi shart. QQS, aksiz solih, yuridik shaxslarning daromadi (foydasi)dan, fuqarolar daromadidan olingan soliqlar respublika budjetiga tushadi. Umumdavlat soliqlar ining muhim xususiyati shundaki, respublika budjetiga tushadigan soliqlar dan mahalliy budjetlarni boshqarib borish uchun ajratma sifatida tushushi mumkin. Bordi- yu, ajratma etmasa subvensiya yoki subsidiya beriladi. Agar kelgusi yil mahalliy budjetlarning o'z manbalari (soliqlar i) kupayib kolsa, respublika soliqlar dan ajratma berishning xojati kolmaydi. Respublika va mahalliy soliqlar yagona mohiyatiga ega bo'ladi, budjetga tulanishi lozim bo'lgan to'lovlardir.

Mahalliy soliqlar xukumatlar bajaradigan vazifalariga karab belgilanib, ularga doimiy va to'liq biriktirib beriladi. Mahalliy hukumatlar asosan mexnatkashlarga yakin bo'lganligidan ularga ijtimoiy masalalarni maktab, sog'likni saqlash, madaniyat, maorif, shahar va kishloklar obodonchiligi kabi vazifalarni bajaradi. Lekin bu soliqlar va yig'imlar ularning budjet Harajatlarining 30-40 foizini koplaydi, holos. Keyingi vaktlarda mahalliy budjetlar daromadlari salmog'ini 50-60 foizga

etkazish kabi xukumat karorlari mavjud. Mahalliy budjetlar daromadlarini kupaytirish eng dolzarb masalalardan biridir. Fakat o'z daromad manbaiga to'liq ega bo'lgan mahalliy xukumatlar o'z faoliyatlarini to'liq amalga oshirishlari mumkin. Aks holda, har xil moliyaviy kamchiliklarga yo'l qhyish zhtimoli bor. Mahalliy soliqlarning muhim xususiyati shundaki ular fag'at shu xududning budjetiga tushadi. Boshqa budjetlarga ajratmalar berilmaydi.

Mahalliy budjetlarning soliq va yig'implari kam bo'lganligidan bu budjetlarning daromadlar va xarajatlarini barqarorlashtirish (balanslashtirish) ancha murakkabdir. Bu masalani yechishda ilgari ko'rsatganimizdek xududdan respublika budjetiga tushadigan soliqlardan ajratmalar beriladi. (masalan, QQS, daromad solig'i va boshqalar). Amaliyotda shu soliqlardan mahalliy budjetlarga ular budjetini barqarorlashtirish uchun 100 foizgacha ajratma bermasdan turib subvensiya (maksadli yordam) berish hollari uchraydi. Vaholanki, mahalliy hukumatlarni o'z xududlaridan tushadigan soliqlarni undirishga qiziktirish uchun 100 foizgacha ajratmalar berish maqsadga muvofiqdir.

Subvensiya yoki subsidiya uslublari esa mahalliy hukumatlarning respublika hukumatiga murojaat etish lozimligini bildirib, ularni o'z xududlaridagi soliqlar to'liq undirilishini qiziktirmaydi, ulardagi boqi beg'amlik kayfiyatini kuchaytiradi.

Soliq tizimining takomilashganligi soliq turlari, stavkalari, soliqlarning davlat budjeti tarkibidagi daromadining nisbati mamlakatning iqtisodiy rivojlanish darajasiga qay darajada mos kelishi, iqtisodiy islohotlarni amalga oshirish, mamlakat iqtisodiyotini yuksaltirish maqsadlariga mutanosibliigi bilan belgilanadi.

27.4. Davlat budjetining soliqlarga ko'ra tarkibi.Soliq yuki

Respublikamizda 1992 yilda jami 24 turdagi soliqlar va yig'implar amalda bo'lgan bo'lsa ularning soni 2000 yili 17 tagacha, 2017 –yilga kelib esa 10 tagacha qisqardi. Soliqlar turining qisqarishi ayrim soliqlarning bekor qilinishi, ayrimlarini esa qo'shib yuborish-unifikatsiya qilish hisobiga ta'minlandi. Masalan ijtimoiy infratuzilma solig'iga obodonlashtirish yig'imi qo'shib yuborilgan bo'lsa, 2006 yilda ekologiya solig'i mutlaq bekor qilindi.

2000-2017 yillarda foyda solig'i stavkasi 31 %dan 8 foizga tushirildi, Shuningdek, tadbirkorlik sub'ektlaridan olinadigan yagona soliq unifikatsiya qilindi, ya'ni unga nobudjet davlat jamg'armalariga o'tkaziladigan majburiy to'lovlardan yagona yo'l jamg'armasi, maktab ta'limini rivojlantirish jamg'armasiga ajratmalar ham qo'shib yuborildi.

Yagona soliq stavkasi 2007 yilda 13 % ga, 2012 yilda esa 5 % gacha pasaytirildi.

Bu chora tadbirlar iqtisodiyotga soliq yukini kamaytirish imkonini berdi.

Agar davlat budjeti daromaadlarining YaIMdagi ulushi 2000 yilda 28,5 % bo'lgan bo'lsa 2005 yilda 22,5 % ni 2017 yilda 19,9 % ni tashkil etdi (27.4-jadval).

Bizga ma'lumki Yagona yo'l jamg'armasi, Maktab ta'limini rivojlantirish jamg'armasi, Pensiya jamg'armasi va Bandlilikka ko'maklashish jamg'armasini o'z ichiga olgan davlat nobudjet fondlariga to'lovlar ham soliq mazmuniga ega bo'lib tovarlar va xizmatlar tannarxiga, ularning sotilish bahosi ko'tarilishiga, raqobatbardoshligi pasayishiga olib keladi, shuningdek korxonalar moliyaviy resurslari qisqarishini keltirib chiqaradi. Nobudjet davlat jamg'armalarini ham qo'shib hisoblanadigan jamlanma budjet daromadlarining YaIMdagi ulushi sifatida aniqlanadigan soliq yukining ham kamayishini kuzatishimiz mumkin. 2001-2017 yillar davomida iqtisodiyotga umumiy soliq yuki 40 foizdan 29 foizgacha pasaytirildi.

27.4-jadval

Davlat budjeti daromad qismining bajarilishi (YaIMga nisbatan % da)⁶⁷

Ko'rsatkichlar	2010	2011	2012	2013	2014	2015	2016	2017
Daromadlar jami	22,1	21,9	22,0	22,0	21,9	21,3	20,6	19,9
1. Bevosita soliqlar	5,8	5,8	5,6	5,3	5,1	5,1	4,9	4,6
2. Bilvosita soliqlar	11,1	10,6	10,8	11,3	11,6	11,2	10,6	10,5
3. Resurs to'lovlari hamda mulk solig'i	3,4	3,4	3,4	3,3	3,0	2,8	2,7	2,8
4. Boshqa daromadlar	1,8	2,2	2,2	2,2	2,2	2,2	2,4	2,1

Iqtisodiyotga soliq yukining pasaytirilishi korxonalarining moliyaviy resurslarining ko'payishiga olib keldi. " Bu o'z navbatida investitsiyalarning ko'payishi, korxonalarining aylanma mablag'larini to'ldirish, ishchi va xizmatchilarning ish haqi va daromadlarini oshirish uchun qo'shimcha manba bo'lib xizmat qilmoqda.

2014 yilda yuridik shaxslar daromadiga solinadigan soliq stavkasi 8.5% dan 8%ga, kichik korxonalar va mikrofirmalar uchun yagona ijtimoiy to'lov 25% dan 15%ga pasaytirildi.

Natijada iqtisodiyotga davlat budjeti daromadlari bo'yicha hisoblanadigan soliq yuki 19,9 % gacha pasaydi.

Bu yillar davomida soliq yukining pasayishi soliq stavkalarining kamaytirilishi bilan birga investorlar va tadbirkorlar uchun soliq imtiyozlari ro'yxatining kengaytirilishiorqali ro'y berdi. Tahlil qilinayotgan davrda to'g'ri soliqlarning YaIMdagi ulushi 7,5 % (2000 y) dan 4,6 % (2017 y.) gacha pasaydi.

Mol-mulk solig'i va resurs to'lovlarning YaIMdagi va yalpi soliq tushumlaridagi ulushi kamayib borganligini ta'kidlash lozim. Bu soliqlarning YaIMdagi ulushi 2010 yilda 3,4 %ni, 2017 yilda 2,8 %ni tashkil etdi.

To'g'ri soliqlar tarkibida, jismoniy shaxslarning daromadlaridan olinadigan soliqlar ulushi muttasil o'zgarib bormoqda (10.5-jadval). Agar bu ko'rsatkich 2000 – yilda 44,5 foizni tashkil etgan bo'lsa, 2010 yilda 45.0 %ni, 2011 yilda 42,7 % ni, 2012 yilda 42,5 % ni, 2017 yilda esa 42,3 % ni tashkil etdi, ya'ni, to'g'ri soliqlar yalpi tushumida yuqori o'rin tutadi.

27.5-jadval

**O'zbekiston Respublikasida Davlat budjetiga to'g'ri soliqlar
tushumining tarkibi (%)⁶⁸**

Soliq turlari	2008	2009	2010	2011	2012	2013	2014	2015	2016	2017
To'g'ri soliqlar	100,0	100,0	100,0	100,0	100,0	100,0	100,0	100,0	100,0	100,0
1.Korxonalarining foyda solig'i	18.7	19,2	18,1	19,2	18,5	16,3	15,1	13,3	12,5	12,8
2. Jismoniy shaxslar daromad solig'i	47.9	46,2	45,0	42,7	42,5	42,8	44,1	43,2	42,1	42,3
3.Yagona soliq	17.3	18,9	21,6	23,2	22,8	25,0	25,8	27	29	30
4. Tadbirkorlar daromadiga qat'iy belgilangan soliq	3.8	3,9	4,6	5,0	5,9	6,5	7,5	6,7	6,9	9,0
5. Ijtimoiy infratuzilmani rivojlantirish solig'i	12.4	11,9	10,8	10,0	10,3	9,4	7,5	9,8	9,5	5,9

Yuridik shaxslar daromadlaridan olinadigan soliq stavksining kamayishi natijasida 2000-2017 yillarda u bo'yicha tushumlarining to'g'ri soliqlar tarkibidagi ulushi kamayishi kuzatildi va 12,8%ni tashkil qildi.

Soliq shkalalari bo'yicha soliq stavkalari kamayishiga qaramasdan jismoniy shaxslar daromadidan olinadigan soliqlarning ko'payib borayotganligi soliq bazasi, ya'ni aholi daromadlari ortib borayotganligidan dalolat beradi. 2011-2017 yillarda ijtimoiy infratuzilma solig'i ulushining ortishi hisobiga jismoniy shaxslar daromad solig'inig to'g'ri soliqlar tushumidagi ulushi qisqardi.

To'g'ri soliqlar stavkalarining pasaytirilishiga qaramasdan soliq bazasining kengayishi hisobiga bu soliqlar tushumining mutlaq miqdori oshib borishi, to'g'ri soliqlardagi ulushi esa 2012-2017 yillarda deyarli barqaror bo'lib qolayotganligini ta'kidlash mumkin, xususan, 2017 yilda budjet daromalari tarkibida to'g'ri

solliqlarning ulushi 24,0 % ni tashkil etdi. Bunday baqarorlik 2012-2017 yillarda yagona soliq to'loviga ham tegishlidir. Soliq to'lovchilar soni ortishi, soliq bazasining kengayishi yagona soliq stavkasining pasayishiga qaramasdan uning mutlaq miqdori ortib borishiga olib keldi.

Egri soliqlar davlat budjeti jami daromadlarining yarmidan ko'p (2017 yilda 51,5%) qismini ta'minlab beradi (27.6-jadval).

27.6-jadval

O'zbekiston Respublikasida Davlat budjetiga egri soliqlar tushumining tarkibi⁶² (%)

Soliq turlari	2008	2009	2010	2011	2012	2013	2014	2015	2016	2017
Egri soliqlar	100,0	100,0	100,0	100,0	100,0	100,0	100,0	100,0	100,0	100,0
1.Qo'shilgan qiymat solig'i	60,8	56,8	56,7	57,9	57,1	56,4	56,1	56,5	56,3	56,2
2.Aksiz solig'i	27,2	32,9	32,4	30,9	30,6	31,1	29,2	29,3	29,7	30,5
3.Bojxona boji	7,7	6,2	6,3	6,3	7,3	7,5	8,0	8,3	8,2	6,5
4. Benzin iste'moli uchun jismoniy shaxslardan undiriladigan soliq	4,3	4,1	4,5	4,9	5,1	5,0	6,7	5,9	5,8	6,8

Agar ushbu soliqlar tarkibini qarab chiqadigan bo'lsak, qo'shilgan qiymat solig'i bo'yicha tushumlar egri soliqlar tarkibidagi ulushi bo'yicha birinchi o'rinni egalladi. 2000 -yilda qo'shilgan qiymat solig'i ulushi 47,3 foizni, 2004 yil 42,5% foizni, 2013 yilda 56,4% tashkil etgan bo'lsa, 2017 yilda 56,2 % ni tashkil qildi.

Qo'shilgan qiymat solig'i ulushining bunday keskin ko'tarilishi aksiz solig'i bo'yicha tushumlar hajmining kamayishi bilan izohlanadi. 2013 yilda aksiz solig'i bo'yicha tushumlarning egri soliqlar tarkibidagi ulushi 2004 yildagi 48,2% o'rniga 31,1%ga teng bo'lishi, 2016 yilda esa 29,7 % ga teng bo'lishi kuzatildi. Ushbu pasayishning sababi respublika hududida ishlab chiqarilgan alkogol mahsulotlariga aksiz solig'ining qat'iy belgilangan stavkasining o'zgarmaganligi bilan bog'liq. Boshqa egri soliqlarning stavkalarida esa inflatsiya darajasi hisobga olinadi.

Tashqi iqtisodiy faoliyatning yanada faollashuvi natijasida, bojxona bojlarining egri soliqlardagi ulushi ortib borib 2000 yildagi 2 % o'rniga 2005 yilda 4,7 % ga, 2017 yilda esa yana ko'tarilib 6,5 % ga yetdi. Shu davrda egri soliqlar tushumining

⁶² O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot vazirligi ma'lumotlari (*2015 yilda aholining umumiy daromadlari ko'rsatkichi kiritilgan)

umumiy hajmida jismoniy shaxslardan undiriladigan yagona bojxona to'lovi ulushi ortdi.

Avtomobil egalariга mulk egaligi uchun solinadigan soliqlar o'rniga joriy etilgan benzin iste'moli uchun jismoniy shaxslardan undiriladigan soliqlarning egri soliqlar tushumidagi ulushi 2002 yilda 2,5 foizni tashkil etgan bo'lsa, ko'payib borib 2005 yilda 4,4 foizga, 2017 yilda 6,8 foizga yetdi.

Soliq stavkalarini pasaytirish, iqtisodiyotga soliq yukini kamaytirish, soliqlarning rag'batlantiruvchi funksiyasini kuchaytirish borasida amalga oshirilgan chora tadbirlar natijasida umumiy soliq yuki kamaygani holda, budjet daolmadlari ortib bordi, ularning tarkibida ijobiy siljishlar ro'y berdi. Davlat budjetiga soliq tushumlarining ko'payishi hukumatimiza ijtimoiy-iqtisodiy dasturlarni moliyalashtirish, aholini ijtimoiy himoya qilish borasidagi tadbirlarni amalga oshirishiga xizmat qildi.

Qisqa xulosalar

Davlat budjeti- mamlakat hukumatiga davlatning iqtisodiy funksiyalarini bajarish imkonini beruvchi asosiy moliyaviy manba bo'lib uning xarajatlari tarkibini optimallashtirish muhim ahamiyatga ega.

O'zbekiston Respublikasi davlat budjeti xarajatlarida ijtimoiy soha va ijtimoiy himoyaga sarflanadigan mablag'larning mutlaq miqdori va jami xarajatlardagi ulushi oshib bormoqda.

Soliqlar majburiy to'lov bo'lib fiskal, qayta taqsimlash, rag'batlantirish va nazorat funksiyalarini bajaradi.

Barcha soliqlar uch guruhga-to'g'ridan-to'g'ri, egri soliqlar hamda resurs to'lovlari va mulk solig'iga bo'linadi.

Respublikamizda amalga oshirilayotgan soliq siyosati iqtisodiyotni modernizatsiya qilish va texnik qayta qurollantirish, makroiqtisodiy barqarorlik va iqtisodiy o'sishda soliqlarning rolini oshirishga qaratilgan.

Soliq islohotlari iqtisodiyotga soliq yukini pasaytirish, soliqlarni unifikatsiya qilish, soliq stavkalarini pasaytirish, ayniqsa to'g'ridan -to'g'ri soliqlarning stavkalarini pasaytirish, soliqlarning rag'batlantirish funksiyasini kuchaytirish yo'nalishlarida amalga oshirilmoqda.

Nazorat va muhokama uchun savollar

1. Davlat budjetiga ta'rif bering va uning xarajatlari tarkibini sanab o'ting.
2. O'zbekiston Respublikasi davlat budjeti ixarajatlarida qanday o'zgarishlar ro'y bermoqda?
3. Soliqlarning funksiylariga izoh bering.
4. O'zbekiston Respublikasi budjetiga soliq tushumlaring tarkibi va miqdoridagi tendensiyalarni izohlab bering.
5. Mamlakatimizda soliq siyosati qaysi maqsadlarga qaratilgan?
6. Soliq islohotlarining asosiy yo'nalishlarini tushuntirib bering.

28–bob. BUDJET- SOLIQ SIYOSATI

28.1. Budjet –solliq siyosatining mohiyati va usullari

Davlatning asosiy vazifalaridan biri iqtisodiyotni barqarorlashtirish hisoblanadi. Bunday barqarorlashtirishga monetar siyosat vositalari qatori fiskal siyosat orqali ham erishiladi. Fiskal siyosat shuningdek, budjet-soliq siyosati deb ham aytiladi.

Budjet-soliq siyosati deganda noinflatsion YaIM ishlab chiqarish sharoitida iqtisodiyotda to'liq bandlilikni, to'lov balansining muvozanatini va iqtisodiy o'sishni ta'minlashga qaratilgan davlat xarajatlari va soliqlarini o'zgartirishni o'z ichiga olgan chora tadbirlar tushuniladi.

Iqtisodiyot turg'unlik yoki pasayish davrida bo'lgan vaziyatlarda davlat tomonidan rag'batlantuvchi fiskal siyosat-fiskal ekspansiya olib boriladi. Ya'ni, davlat qisqa muddatda iqtisodiyotning pasayishi muammosini davlat xarajatlarini oshirish yoki soliqlarni kamaytirish, yohud ikkalasini bir vaqtning o'zida olib borish evaziga hal etadi. Uzoq muddatda davlat xarajatlarining yuqori bo'lishi va soliqlarni kamaytirish ishlab chiqarish omillarining o'sishiga va natijada, iqtisodiy salohiyatning ko'tarilishiga olib kelishi mumkin. Ammo, bunga Markaziy bank tomonidan olib boriladigan pul-kredit siyosatidan samarali foydalanish va davlat xarajatlari tarkibini maqbul holatga olib kelish orqaligina erishish mumkin. Iqtisodiyotda to'liq bandlik va ortiqcha talab natijasida inflatsiya kelib chiqishi mumkin bo'lgan vaziyatlarda cheklovchi fiskal siyosat- fiskal restriksiya olib boriladi. Cheklovchi fiskal siyosat davlat xarajatlarini (G) kamaytirish yoki soliqlarni

(T) oshirish yoki bo'lmasa ikkala tadbirni bir vaqtda olib borish orqali iqtisodiyotning davriy o'sishini chegaralashdan iborat. Qisqa muddatli davrlarda ushbu tadbirlar talab inflatsiyasini kamaytiradi. Uzoq muddatli davrlarda esa yuqori soliqlar iqtisodiyotda stagnatsiyaga olib kelishi mumkin.

Bu esa mamlakatning iqtisodiy salohiyatini izdan chiqaradi. Bunga davlat xarajatlaridan samarasiz foydalanish qo'shimcha turtki bo'lishi mumkin.

28.2. Davlat xarajatlari, solliq va balanslashgan budjet multiplikatorlari

Qisqa muddatli davrda budjet-soliq siyosati davlat xarajatlari, solliq va balanslashgan budjet multiplikatorlari samarasi ta'siri ostida bo'ladi.

$$\Delta G \uparrow \rightarrow \Delta E \uparrow (\Delta E = \Delta C) \rightarrow \uparrow \Delta Y (\Delta Y = \Delta C \times mg)$$

Davlat xarajatlarining ΔG miqdorga o'sishi rejalashtirgan xarajatlarining ΔE miqdorda o'sishiga va umumiy xarajatlarning egri chiziq bo'yicha yuqoriga surilishiga olib keladi. Bu vaziyatda yalpi ishlab chiqarish hajmi (ΔY) miqdorida o'sadi.


Avval ko'rganimiz singari xarajatlardagi ozroq o'zgarish daromadlardagi undan ancha katta bo'lgan, o'zgarishni keltirib chiqaradi va $\Delta Y / \Delta E = 1 / (1 - b)$ bo'ladi (28.1-rasm).

$$\Delta Y = \Delta E \times (1/(1-b)) = \Delta E \times m$$

Soliqqa tortish hisobga olinmaganda yopiq iqtisodiyot uchun davlat xarajatlari multiplikatori va ishlab chiqarishning muvozanatli hajmini quyidagi tenglamalar sistemasini yechish orqali topish mumkin:

$$\begin{cases} Y = C + I + G \\ C = a + bY \end{cases}$$

Bu yerda: $Y = C + I + G$ – yopiq iqtisodiyot uchun asosiy makroiqtisodiy ayniyat;



28.1-rasm. Davlat xarajatlari o'zgarishining multiplikativ samarasi

Tenglamalar sistemasini Y uchun echib quyidagi natijani olamiz:

1

$$Y = \frac{1}{1-b} (a+I+G);$$

Bu yerda: $1/(1-b)$ – yopiq iqtisodiyotda soliqqa tortish hisobga olinmagan vaziyatda xarajatlar multiplikatori;

$(a+I+G)$ – avtonom xarajatlar;

$b = MPC$ – istemolga chegaralangan moyillik bo'lib multiplikator miqdorini belgilovchi asosiy omildir.

Soliqqa tortish hisobga olinganda iste'mol funksiyasi o'zgaradi va $C = a + b(1-t)Y$ ko'rinishni oladi. Bu tenglamani asosiy makroiqtisodiy ayniyatga qo'yib echsak, quyidagi natijani olamiz:

1

$$Y = \frac{1}{1-b(1-t)} (a+I+G)$$

Bu yerda: $1 / (1-b(1-t))$ – yopiq iqtisodiyotda xarajatlar multiplikatori;

t – chegaraviy soliq stavkasi.

$$t = \Delta Y / \Delta T$$

Bu yerda: ΔT – to‘lanadigan soliqlar miqdorining o‘sishi;
 ΔY – daromadlarning o‘sishi.

Progressiv soliq tizimi multiplikator samarasini yumshatadi va ishlab chiqarish hamda bandlilik darajalarini barqarorlashtiradi.

Soliqqa tortish hisobga olingan holdagi xarajatlar multiplikatori soliqqa tortish hisobga olinmagan holdagi soliq multiplikatoridan ancha kichikroq miqdorga ega, chunki daromadlarga aylangan xarajatlarning bir qismi soliqqa chegirilib, muomaladan chiqadi va multiplikatsiya samarasini pasaytiradi. Bu ikkala formulani solishtirganda ham ko‘zga tashlanadi. Shuningdek ochiq iqtisodiyotda oshgan daromadlarning bir qismi importga yo‘naltirilishi oqibatida muomaladan chiqib ketishi tufayli multiplikator samarasi yopiq iqtisodiyotga nisbatan pastdir.

Ochiq iqtisodiyotda davlat xarajatlari multiplikator va muvozanatli ishlab chiqarish hajmi quyidagi tenglamalar sistemasini echib topiladi:

$$\begin{cases} Y=C+I+G+X_n \\ C=a+b(1-t) \times Y \\ X_n=g+m'Y \end{cases}$$

Agarda (2) va (3) tenglamalarni asosiy makroiqtisodiy ayniyatga qo‘yib, echsak quyidagi echimga ega bo‘lamiz:

$$Y = \frac{1}{1(1-b(1-t))+m'} (a+I+G+g)$$

Bu yerda: $1 / 1(1-b(1-t))+m'$ ochiq iqtisodiyotda davlat xarajatlar multiplikatori.

Muvozanatli daromadlar darajasiga soliqlarni kamaytirish ham multiplikativ ta‘sir ko‘rsatadi. Soliqlar miqdorini ΔT ga kamaytirsak, tasarrufdagi daromad darajasi ΔT ga oshadi. Iste‘mol xarajatlari mos tarzda $\Delta T \times b$ (bu yerda b -iste‘molga chegaraviy moyillik) miqdorga oshadi va u rejalashtirilgan xarajatlar egri chizig‘ini yuqoriga siljitadi, milliy ishlab chiqarish hajmini esa ΔU ga oshiradi.

Soliq multiplikatsiya samarasi davlat xarajatlari singari soliqlarning bir marta o‘zgarishi oqibatida iste‘molning bir necha bor o‘zgarishiga boqliq.

$$\begin{aligned} T \downarrow (\Delta T) &\Rightarrow Y_d \uparrow (\Delta Y_d = -\Delta T) \Rightarrow C \uparrow (\Delta C = b(-\Delta T)) \Rightarrow E \uparrow (\Delta E = b(-\Delta T)) \Rightarrow Y \uparrow \\ (\Delta Y = b(-\Delta T) &\Rightarrow C \uparrow (\Delta C = b(b(-\Delta T)) \Rightarrow E \uparrow (\Delta E = b^2(-\Delta T)) \Rightarrow Y \uparrow (\Delta Y = b^2(-\Delta T)) \Rightarrow \\ &\Rightarrow C \uparrow (\Delta C = b(b^2(-\Delta T))) \text{ va h.k.} \end{aligned}$$

Demak, soliq multiplikatorini quyidagicha tasvirlash mumkin:

$$\frac{\Delta Y}{\Delta T} = \frac{-b}{1-b}$$

Agar davlat byujetiga barcha soliq tushumlari joriy daromad–Y dinamikasiga bog‘liq deb hisoblasak soliq funksiyasi $T = tY$ – ko‘rinishni oladi. Bu holatda iste‘mol funksiyasi quyidagi ko‘rinishga ega bo‘ladi:

$$C = a + b(Y - tY) = a + b(1-t)Y,$$

Soliq multiplikatori esa quyidagi ko‘rinishni oladi:

$$m_t = \frac{-b}{1-b(1-t)}$$

Bu yerda: m_t – yopiq iqtisodiyot uchun soliq multiplikatori.

To‘liq soliq funksiyasi $T = T_a + tY$ ko‘rinishga ega.

T_a – avtonom soliqlar (masalan, mulkka, erga soliqlar).

To‘liq soliq funksiyasini e‘tiborga olsak, iste‘mol funksiyasi quyidagi ko‘rinishga ega bo‘ladi:

$$C = a + b[Y - (T_a + tY)]$$

Iste‘mol funksiyasining Ushbu shaklini hamda sof eksport funksiyasini hisobga olib ochiq iqtisodiyot uchun soliq multiplikatorini hisoblasak u

$$m_t = \frac{-b}{1-b(1-t) + m'} \quad \text{ko‘rinishini oladi.}$$

Demak soliqlarni bir miqdorga kamaytirilishi yoki ko‘paytirilishi natijasida YaIM hajmining bundan necha marta ko‘p miqdorga o‘zgarishi iste‘molga chegaralangan moyillik, chegaraviy soliq stavkasiga va importga chegaralangan moyillik darajalariga bog‘liq

Ochiq iqtisodiyotda davlat xarajatlari multiplikatori va soliq multiplikatorini hisobga olganda muvozanatli ishlab chiqarish hajmi modeli quyidagicha bo‘ladi:

$$Y = \frac{1}{1-b(1-t)+m'} (a+I+G+g) - \frac{b}{1-b(1-t) + m'} T_a$$

Aytaylik hukumat o‘z xarajatlarini qandaydir miqdorga oshirdi va bu xarajatlarni moliyalashtirish uchun soliq miqdorini ham shuncha oshirdi.

Bunda davlat xarajatlari va avtonom soliqlar miqdorlarining bir vaqtning o‘zida bir xil miqdorda o‘zgarishi natijasida daromadlarning jami o‘zgarishi ΔY miqdori quyidagiga teng bo‘ladi:

$$\Delta Y = \frac{1}{1-b(1-t)+m'} \Delta G - \frac{b}{1-b(1-t) + m'} \Delta T_a$$

Agar davlat xarajatlari va avtonom soliqlar bir xil miqdorga ko‘paysa muvozanatli ishlab chiqarish hajmi shu miqdorga teng yoki undan kamroq summaga

ko'payadi. Buni balanslashgan byujet multiplikatori deb yuritiladi. Balanslashgan byujet multiplikatori birga teng yoki undan kichikroq bo'ladi.

Davlat xarajatlari o'zgarishidan yuzaga keladigan multiplikativ samara soliqlar pasayishidan olinadigan multiplikativ samaradan kattaroq bo'ladi. Bu holat davlat xarajatlarining daromadlar va is'temol hajmiga ta'siri (soliqlar o'zgarishi ta'siriga nisbatan) kuchliroq ekanligi oqibatidir.

Ushbu farq fiskal siyosat vositalarini tanlashda muhim rol o'ynaydi. Agar hukumat davlat sektorini kengaytirmoqchi bo'lsa, davriy pasayishni tugatish uchun o'z xarajatlarini oshirishi, inflatsiyani cheklash uchun esa soliqlarni oshirishi maqsadga muvofiq bo'ladi.

Aksincha, fiskal siyosat davlat sektorini cheklashga qaratilgan bo'lsa, davriy pasayish sharoitida soliqlarni kamaytiradi, davriy ko'tarilish paytida esa davlat xarajatlarini oshirish maqbul yo'l hisoblanadi.

28.3. Diskret va nodiskret fiskal siyosat. Budjet taqchilligi va ortiqchaligi

Hukumatning bandlik darajasi, ishlab chiqarish hajmi, inflatsiya sur'atlari va to'lov balansi holatini o'zgartirishga yo'naltirilgan maxsus qarorlarni qabul qilishi natijasida davlat xarajatlari, soliqlar va davlat budjeti qoldig'ini maqsadli o'zgartirilishi diskret fiskal siyosat deyiladi. Diskret fiskal siyosat yuritilganda iqtisodiy pasayish davrida yalpi talabni rag'batlantirish uchun davlat xarajatlarini oshirilishi va soliqlarni kamaytirilishi natijasida davlat budjeti kamomadi yuzaga keltiriladi. O'z navbatida davriy ko'tarilish paytida budjet ortiqchaligi yuzaga keltiriladi.

Diskret fiskal siyosat iqtisodiy tebranishlarni yumshatishda muhim rol o'ynasada, uning ayrim kamchiliklari mavjud. Bu, avvalam bor, vaqt oraliqlari bilan bog'liq. Ya'ni iqtisodiyotda pasayish yoki inflatsion zo'riqishning paydo bo'lishi, bu holatlarni aniqlash yuzaga kelgan muammolarni hal etish uchun davlat xarajatlari va soliq tushumlarini o'zgartirish borasida qaror qabul qilish, bu qaror bajarilishini ta'minlash jarayonlarining har biri o'rtasida ma'lum vaqt o'tadi.


Bu vaqt davomida iqtisodiy vaziyat o'zgaradi va ko'rilgan chora- tadbirlar ko'tirilgan natijani bermasligi mumkin. Shu tufayli davriy tebranishlarni avtomatik tarzda yumshatib turish mexanizmini yaratish zarurati yuzaga keladi.

Nodiskret fiskal siyosat – davlat xarajatlari, soliqlar va davlat budjeti qoldig'ini avtomatik o'zgartirishni ko'zda tutadi. Nodiskret fiskal siyosat o'rnatilgan barqarorlashtirgichlarga asoslanadi. Rivojlangan davlatlarda o'rnatilgan barqarorlashtirgichlari rolini progressiv soliq tizimi, davlat transfertlari tizimi va foydada ishtirok etish tizimi o'ynaydi. Nodiskret fiskal siyosat davriy tebranishlarni yumshatish uchun hukumatning bevosita aralashuvini talab etmaydi. Davriy pasayish sharoitida daromadlar pasayishi tufayli soliq stavkalari pasayadi. Bu esa yalpi talabning oshishiga, ishlab chiqarishni kengaytirishga rag'batni yuzaga kelishiga olib keladi. Shuningdek pasayish davrida davlat transfertlari, jumladan ishsizlik nafaqasi

to'lovlari miqdori oshadi. Bu holat ham yalpi talabni oshirib, yalpi taklif hajmini oshishiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

Iqtisodiy yuksalish davrida ortiqcha talab iqtisodiyotga inflatsion ta'sir ko'rsatayotgan sharoitda daromadlar darajasi oshishi bilan soliqlar stavkalari pasayadi va bu yalpi talabga cheklovchi ta'sir ko'rsatadi. Ayni paytda davlat xarajatlari (ishsizlarga nafaqalar, davlat transfertlarining bir qancha turlar) ham pasayadi. Ammo nodiskret fiskal siyosat vositalari iqtisodiy tebranishlarni to'liq yumshatish imkonini bermaydi va u diskret fiskal siyosat yuritishni inkor etmaydi.

Iqtisodiyotning o'rnatilgan barqarorligi darajasi davriy budjet taqchilligi va ortiqchaligi miqdorlariga bog'liq. Davriy taqchillik (ortiqchalik) iqtisodiy faollik pasayishi (oshishi) sharoitida soliq tushumlarining avtomatik kamayishi (oshishi) va davlat xarajatlarining avtomatik oshishi (kamayishi) natijasida yuzaga keladigan davlat budjeti taqchilligi (ortiqchaligi)dir.



28.2-rasm. Budjet taqchilligi va ortiqchaligi

Davriy pasayish bosqichida soliqlar avtomatik pasayishi, davlat transfertlarining oshishi natijasida budjet taqchilligi kelib chiqadi.

Davriy yuksalish bosqichida soliqlar avtomatik ko'payishi va davlat xarajatlarining kamayishi natijasida budjet ortiqchaligi paydo bo'ladi. Davlat xarajatlari o'zgaras bo'lgan sharoitda ham budjet taqchilligi va ortiqchaligi mavjud bo'lishi mumkin. Davriy taqchillik va ortiqchalik miqdorlari soliq va budjet funksiyalari grafiklarining «tikligiga» bog'liq. Soliq funksiyasi T ning egilish burchagi chegaraviy soliq stavkasi t ning miqдорiga bog'liq. t qancha yuqori bo'lsa T chizig'i shuncha tik bo'ladi. Davlat budjetidan beriladigan transfertlar hajmi o'zgarishining daromadlar o'zgarishiga bog'liqligini xarakterlovchi γ koeffitsent qancha kichik bo'lsa, G chizig'i ham shuncha tik bo'ladi. Demak daromad oshgani sari budjetga soliq to'lovlari oshaveradi, budjetdan transfert to'lovlari esa kamayadi.

Davlat xarajatlari daromadga bog‘liq bo‘lmagan o‘zgarmas miqdor bo‘lganda t qanchalik katta bo‘lsa T chizig‘i shuncha tik va iqtisodiyotning o‘rnatilgan barqarorligi darajasi ham shunchalik yuqori bo‘ladi. Ammo iqtisodiy o‘rnatilgan ta‘minlash vazifasi T va G chiziqlarini yotiqroq bo‘lishini taqozo etadi.

O‘rnatilgan barqarorlashtirgichlar muvozanatli YaIM hajmini , uning potensial hajmi darajasi atrofida tebranishi sababini to‘liq tugatmaydi va ishlab chiqarishning har qanday darajasida mavjud bo‘lishi mumkin.

To‘liq bandlikni ta‘minlagan diskret fiskal siyosat yuritilishi natijasida davlat budjetining tarkibiy taqchilligi (ortiqchaligi), ya‘ni to‘liq bandlik sharoitida budjet xarajatlari (daromadlari) va daromadlari (xarajatlari) o‘rtasidagi farq yuzaga keladi.

Davriy taqchillik ko‘pincha davlat budjetining haqiqiy taqchilligi va tarkibiy taqchillik farqi sifatida baholanadi.

Davlat byudjeti kamomadini moliyalashtirish usullari:

1. Pul-kredit emissiyasi;
2. Davlat zayomlarini chiqarish;
3. Davlat budjetiga soliq tushumlarini ko‘paytirish.
4. Xususiylashtirishdan tushgan mablag‘lar hisobiga moliyalashtirish.

Davlat budjeti kamomadi pul chiqarish orqali qoplanganda muomalada pul massasini ko‘paytirish inflatsiyaga olib keladi.

Inflatsiya darajasi oshganda Oliver-Tanzi samarasi paydo bo‘ladi. Ya‘ni, soliq to‘lovchilar tomonidan davlatga to‘laydigan soliqlar to‘lovini atayin kechiktirish hollari yuzaga keladi. Bu esa davlat budjeti kamomadi oshishiga olib keladi. Budjet taqchilligi tufayli davlat xususiy ishlab chiqaruvchilardan tovarlar va xizmatlar sotib olsa-yu, lekin ular to‘lovlarni kechiktirsa, xususiy ishlab chiqaruvchilar o‘z mahsulotlari narxlarini oldindan oshirib qo‘yishadi. Bu esa inflatsiyaning oshishiga olib keladi.

Agar davlat budjeti taqchilligi davlat zayomlarini chiqarish orqali moliyalashtirilsa, ular sotilishi natijasida pulga talab oshadi. Bu esa o‘z navbatida foiz stavkasini ko‘tarilishiga olib kelishi mumkin. Oqibatda investitsiya xarajatlari,sof eksport hajmi va qisman iste‘mol xarajatlari kamayadi. Pirovardida siqib chiqarish samarasi ro‘y beradi va u fiskal siyosatning rag‘batlantiruvchi samarasini zaiflashtirib qo‘yadi.

Budjet taqchilligini moliyalashtirishning bu usuli noinflatsion usul hisoblansada inflatsiya xavfini ma‘lum muddatga kechiktiradi xolos. Chunki muddati etgan zayomlarni sotib olish bilan davlat muomaladagi pul massasini ko‘paytiradi. Bu esa o‘z navbatida, baholar darajasining ko‘tarishiga sabab bo‘ladi. Soliq tushumlarini ko‘paytirish budjet taqchilligini moliyalashtirishning uchinchi yo‘li bo‘lib, u uzoq muddat talab etadigan soliq islohati o‘tkazilishini talab etadi. Bu islohotlar soliq bazasini kengaytirish, soliq stavkalarini kamaytirish, soliq yukini ishlab chiqaruvchilardan ko‘proq mulk egalari va mulkdan foydalanuvchilar zimmasiga o‘tkazish orqali soliqlar tushumini ko‘paytirishni ko‘zda tutadi.


Budjet ortiqchaligini kamaytirish usullariga muomaladagi pul mablag‘larini olib qo‘yish va davlat qarzlarini to‘lash kiradi.

Davlat qarzlarini to‘lash nominal daromadlar va muomaladagi pul massasini oshirib, baholar darajasining yanada oshishiga olib kelishi mumkin. Shu tufayli budjetdagi ortiqcha mablag‘larni muzlatib qo‘yish budjet kamomadini pasaytirishning nisbatan noinflatsion usulidir.

Barqarorlashtirishning dastlabki bosqichida olib borilgan izchil makroiqtisodiy siyosat natijasida davlat budjeti taqchilligi pasaytirildi va 2003, 2004 yillarda YaIM ga nisbatan 0,4 foizni tashkil etdi (1992 yilda 12%). Bu umumetirof etilgan 3 % li me‘yordan ancha past ko‘rsatkichdir. Budjet taqchilligi asosan noinflatsion usullar bilan, ya‘ni davlat obligatsiyalari chiqarish hamda xususiylashtirishdan tushgan mablag‘lar hisobiga moliyalashtirildi.

Respublikamizda o‘tkazilayotgan soliq-budjet siyosati makroiqtisodiy barqarorlikni ta‘minlab turish, ustivor tarmoqlarni investitsiyalash, ta‘lim sohasini jadal rivojlantirish, aholini ijtimoiy himoya qilish maqsadlariga qaratilib kelinmoqda.

Mamlakatimizda kuzatilayotgan makroiqtisodiy barqarorlik muhim begilaridan biri davlat budjetining profitsit bilan bajarilayotganligi hisoblanadi. Xususan, keyingi yillarda davlat budjeti taqchillik bilan rejalashtirilayotgan bo‘lsa-da, soliqlar bo‘yicha prognoz ko‘rsatkichlarni ortig‘i bilan bajarilishi hamda davlat budjeti xarajatlarini manzili va maqsadli sarflanishini ta‘minlanishi natijasida budjet profitsit bilan ijro etilmoqda.



28.3-rasm. O‘zbekiston Respublikasida Davlat budjeti ko‘rsatkichlarining bajarilish darajasi⁶³, YAIMGa nisbatan foizda

Keyingi yillarda respublikamizda davlat budjetining ijro etilishida ijobiy holat ko‘zga tashlanmoqda.

11.3-rasmdan ko‘rishimiz mumkinki, 2000-2004 yillar davomida mamlakatimiz davlat budjeti taqchilligini -1,0 foizdan -0,4 foiz darajasiga qadar pasaytirishga, 2005-

⁶³ O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi ma‘lumotlari


2008 yillar davomida esa davlat budjeti taqchilligiga barham berib, davlat budjeti profitsitini 0,1 foizdan 1,5 foizga qadar oshirishga erishildi.

Keyingi yillarda mazkur jarayonlarga ham jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi o'zining salbiy ta'sirini ko'rsatishiga qaramasdan, budjet profitsitini saqlab qolishga erishilmoqda.

2017 yilda ham maqsadga muvofiq yo'naltirilgan chora-tadbirlar natijasida budjet daromadlari uning xarajatlaridan ortish hajmi YAIMning 0,1 foizi darajasida bo'lishiga erishildi. Umuman olganda, davlat budjeti sohasidagi bunday natijalarni qo'lga kiritishda mamlakatimiz iqtisodiyotini bosqichma-bosqich o'zgartirish va erkinlashtirish, ilgari davlat zimmasida bo'lgan bir qancha vazifalarning xususiy sektorga o'tkazish orqali davlat budjeti xarajatlarini optimallashtirish, yangi sanoat yo'nalishlarining rivojlantirilishi hamda xususiy sektor moliyaviy holatining mustahkamlanishi, shuningdek, uning mamlakat iqtisodiyotidagi roli va ulushining ortishi kabi omillar sezilarli ta'sir ko'rsatdi.

Budjet taqchilligining kuchayishi muqarrar ravishda davlat qarzini keltirib chiqaradi. Ya'ni, budjet taqchilligi asosan davlat qarzi hisobiga qoplanib, u ichki va tashqi qarzlardan iborat bo'ladi.

O'zbekistonda tashqi qarz masalasiga mustaqil taraqqiyotimizning dastlabki pallasidanoq har tomonlama chuqur o'ylangan va mulohaza qilingan holda yondoshildi.



28.4-rasm. O'zbekiston Respublikasining tashqi qarz darajasi dinamikasi, YaIMga nisbatan %da⁶⁴

O'zbekistonda tashqi qarz va kreditlarni olishda qat'iy va muhim tamoyillar, jumladan, ularning uzoq muddatga va past foizlarda berilishi, qarz berishning hech qanday siyosiy yoki mafkuraviy talab va shartlar bilan bog'liq emasligi, ularning

⁶⁴ O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot vazirligi ma'lumotlari

umumxalq manfaatlariga, asosan real iqtisodiyotni rivojlantirish hamda aholi farovonligini oshirishga yo'naltirilganligi kabilarga amal qilinganligi 2017 yil yakunlariga ko'ra, tashqi davlat qarzining yalpi ichki mahsulotga nisbatan 16,0 foizni tashkil etishiga imkon yaratdi.

Tashqi qarz darajasining past darajada ekanligi mamlakat oltin –valyuta zaxiralarining barqarorligini ta'minlamoqda. Jumladan, 2017 yilda OVZ hajmi ko'payib, hozirda 12 oydan ziyodroq importni qoplaydigan oltin –valyuta zaxiralari mavjud.

Qisqa xulosalar

Fiskal siyosat (budjet-soliq siyosati) maqsadi iqtisodiy o'sish, baholarning barqaror darajasi, to'liq bandlik va to'lov balansi barqarorligini ta'minlashdan iborat. Bu maqsadlarga erishish uchun davlat xarajatlari va soliqlar bilan manipulyasiya qilinadi.

Fiskal siyosat cheklovchi yoki rag'batlantiruvchi turlarga bo'linadi. Rag'batlantiruvchi fiskal siyosat iqtisodiyotning pasayish davrida olib borilsa, cheklovchi fiskal siyosat iqtisodiyotda haddan ziyod talab tufayli inflatsiya paydo bo'lgan sharoitda olib boriladi.

Fiskal siyosat tadbirlari qisqa va uzoq muddatda multiplikator samarasi ta'siri ostida bo'ladi.

Davlat xarajatlari multiplikatori iste'molga chegaralangan moyillik darajasi bilan to'g'ri bog'liqlikka, chegaraviy soliq stavkasi hamda iste'molga chegaralangan moyillik darajasi bilan teskari bog'liqlikka ega.

Davlat xarajatlari va soliqlar miqdorini bir xil miqdorga oshirilishi daromadlar hajmini ham shuncha miqdorga oshirilishiga olib keladi. Bu holat balanslashgan budjet multiplikatori bilan izohlanadi.

Iqtisodiy pasayish paytida budjetning davriy taqchilligi, diskret fiskal siyosat natijasida esa tarkibiy taqchilligi yuzaga keladi. Budjet taqchilligini moliyalashtirishning maqbul yo'li davlat qimmatli qog'ozlarni chiqarish va ularni sotish hisobiga qarz olishdir.

Respublikamizda o'tkazilayotgan budjet-soliq siyosati iqtisodiyotga soliq yukini kamaytirish, soliqlarning rag'batlantiruvchi rolini kuchaytirish, barqaror iqtisodiy o'sishga shart-sharoit yaratish, yalpi talabni oshirish kabi maqsadlarga qaratilgan.

Nazorot va muhokama uchun savollar

1. Rag'batlantiruvchi va cheklovchi fiskal siyosatning qisqa va uzoq muddatdagi natijalarini tushuntirib bering.
2. Davlat xarajatlarining multiplikatori kattaligi qaysi ko'rsatkichlarga bog'liq?
3. Ochiq iqtisodiyotda davlat xarajatlari multiplikatori kattaligi fiskal siyosat samaradorligiga qanday ta'sir ko'rsatadi?

4. Soliq multiplikatori miqdori qaysi omillarga bog'liq?
5. Balanslashgan budjet multiplikatorining mohiyati nimada?
6. Diskret fiskal siyosatining kamchiliklarini tushuntirib bering.
7. Budjet taqchilligi va ortiqchaligi qanday paydo bo'ladi, ular qay yo'sinda tugatiladi?

29–bob. PUL-KREDIT SIYOSATI

29.1. Banklar va ularning bozor iqtisodiyotidagi vazifalari

Moliya bozoridagi operatsiyalar moliya muassasalari vositasida amalga oshiriladi. Bunday muassasalarga turli xil banklar, birjalar, depozitariylar, sug'urta kompaniyalari, investitsiya fondlari, agentliklar va h.k.lar kiradi.

«Bank» tushunchasi qadimiy fransuzcha bang va banca so'zlaridan kelib chiqqan bo'lib, «sarrof kursisi, do'koni» degan ma'noni anglatadi. Bunday tushuncha tarixchilarning taxminan 2000 yil muqaddam faoliyat ko'rsatgan bankirlar haqidagi ma'lumotlarida ham mavjud.

Pul munosabatlarining rivojlanishi banklarni yuzaga keltirgan. Bank iqtisodiyot ishtirokchilarining pul yuzasidan bo'lgan aloqalariga xizmat qiluvchi institut (muassasa)dir. Pul bilan bog'liq xizmatlarni ko'rsatuvchi tashkilotlar ko'p, ammo ularning markazida banklar turadi. O'zbekiston Respublikasining «Banklar va bank faoliyati to'g'risida»gi qonunida, bank nima, degan savolga quyidagicha javob topish mumkin:

Bank - tijorat tashkiloti bo'lib, bank faoliyati deb hisoblanadigan faoliyat turlari majmuini amalga oshiradigan yuridik shaxsdir.

O'zbekistondagi bank tizimi O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki, aksiyadorlik-tijorat banklari va xususiy banklardan iboratdir. 2017 yil 1-iyul holatiga ko'ra O'zbekiston Respublikasi bank tizimi 28 tijorat bankini o'z ichiga oldi.

Banklar pul olamini harakatga keltiruvchi motor - yurak, pul bilan bo'ladigan hisob-kitoblarni amalga oshiradi. Hamma pul to'lovlari (transfertlar) banklar orqali o'tadi. Banklar quyidagi ishlarni amalga oshiradi:

- pul va qimmatli buyumlarni omonatga olib, saqlab beradi;
- pul bilan bo'ladigan hisob-kitob opretsiyalarini, xususan, pul to'lash ishlarini bajaradi;
- chet el valutasini sotadi va sotib oladi;
- o'z qo'lidagi pulni qaytarish, foizlilik va muddatlilik sharti bilan unga (muhtojlarga) qarz (ssuda)ga beradi, ya'ni, kredit bilan shug'ullanadi;
- o'z puliga aksiya sotib olib, uni boshqa sohaga joylashtiradi;
- biznes yuzasidan maslahat beradi va hokazo.

Bank ishi pul olamida bo'ladigan biznesdir. Bank biznesi foyda topish maqsadida yuritiladi.

Markaziy bankning monopollik mavqei uning mamlakatdagi pul va pirovard natijada iqtisodiy barqarorlik uchun alohida javobgar ekanligi bilan chambarchas bog'liq.

O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankining bosh maqsadi va asosiy vazifalari quyidagilar:

“Markaziy banning bosh maqsadi milliy valutaning barqarorligini ta'minlashdan iborat.

Asosiy vazifalari:

Monetar siyosatni hamda valutani tartibga solish sohasidagi siyosatni shakllantirish, qabul qilish va amalga oshirish;

Qzbekiston Respublikasida hisob-kitoblarning samarali tizimini tashkil etish va ta'minlash;

Banklar, kredit uyushmalari va garovxonalar faoliyatini litsenziyalash hamda tartibga solish, banklar, kredit uyushmalari, garovxonalarni nazorat qilish, qimmatbaho qog'ozlar blankalari ishlab chiqarishni litsenziyalash;

O'zbekiston Respublikasining rasmiy oltin valuta rezervlarini, shu jumladan kelishuv bo'yicha hukumat rezervlarini saqlash va tasarruf etish;

Davlat budjeti kassa ijrosini Moliya vazirligi bilan birgalikda tashkil etishdan iboratdir”⁶⁵74 .

Tijorat banklari Markaziy bankda o'z qisqa muddatli va o'rta muddatli majburiyatlaridan muayyan foiz hajmida eng kam zahira deb yuritiladigan foizsiz omonatlarni saqlashga majbur.

Markaziy bank banklar faoliyatini nazorat qilishda o'zining mintaqaviy bo'linmalari orqali kredit muassasalaridan majburiy ravishda axborot, oylik hisobot va yillik yakuniy balans ma'lumotlarini taqdim etish asosida qatnashadi.

Kredit muassasalarining bo'ysinishiga qarab bank qonunchiligi hamda kredit tizimining pastdan yuqoriga tomon tarkibiy tuzilishiga muvofiq tarzda bank tizimini ikki asosiy: bir bosqichli va ikki bosqichli turga ajratish mumkin.

Bir bosqichli bank tizimi doirasida barcha kredit muassasalari, jumladan, Markaziy bank ham, yagona bosqichda turadi hamda mijozlarga kredit - hisob xizmati ko'rsatishda bir xil vazifalarni bajaradi.

Ikki bosqichli tizimda banklar o'rtasidagi o'zaro munosabatlar bo'yiga (vertikal) va eniga (gorizontal) yo'nalishlarida tuzilishiga asoslanadi. Vertikal

– rahbarlik qiluvchi, boshqaruvchi markaz hisoblangan Markaziy bank bilan quyi bo'g'inlar – tijorat va ixtisoslashgan banklar o'rtasidagi bo'ysunish munosabatlari, gorizontal-turli quyi bo'g'inlar o'rtasidagi teng huquqli sheriklik munosabatlari tushuniladi.

29.2. Pul-kredit siyosatining maqsadlari, vositalari va ko'rinishlari.

Depozitlarni majburiy zahiralash normasi

Pul-kredit siyosati deganda, to'liq bandlik sharoitida yalpi milliy mahsulotni ishlab chiqarishga inflatsiyaning ta'sirini kamaytirish yoki bartaraf etish maqsadida muomaladagi pul miqdorini o'zgartirishga qaratilgan chora-tadbirlar tushuniladi. Pul kredit siyosati davlat tomonidan belgilanadi va uni Markaziy Bank amalga oshiradi. Uning yordamida har qanday davlat mamlakatda iqtisodiy barqarorlikni ta'minlash vazifasini hayotga tatbiq etadi.

⁶⁵ O'zbekiston Respublikasining “O'zbekiston Respublikasi Markaziy Banki to'g'risida” gi Qonuni, 1995-yil, 21- dekabr /www.lex.uz

Pul kredit siyosatini amalga oshirishning pirovard maqsadlari iqtisodiy o'sish, to'liq bandlikni, baholarning hamda to'lov balansining barqarorligini ta'minlashdan iborat.

Bu maqsadlarga erishish uchun milliy valutani muomaladagi pul massasi, foiz stavkasi va milliy valuta almashinuv kursining optimal kattaliklarini ta'minlab turish zarur bo'ladi. Bu vazifalarni amalga oshirish uchun Markaziy Bank qator vazifalardan foydalanadi.

Pul-kredit siyosatining uchta asosiy vositasi ajratib ko'rsatiladi:

1. Hisob stavkasi;
2. Majburiy zahiralar normasi;
3. Ochiq bozordagi operatsiyalar.

Markaziy bank ular yordamida pul yoki asosan bank depozitlari ko'rinishidagi pul massasiga yoki foiz stavkasiga ta'sir o'tkazadi, taklifini o'zgartiradi va shular orqali pul-kredit muomalasini tartibga solib turadi.

Pul-kredit siyosatini yuritish vositalaridan biri –majburiy bank zahira me'yorini o'zgartirish siyosatidir. Majburiy zahiralar – bu, kredit maqsadlari uchun ishlatilmaydigan bank omonatlarining bir qismidir. Zahira normasi ikki asosiy funksiyani bajaradi: bank likvidligini joriy tartibga solish uchun sharoit yaratadi va kredit emissiyasini cheklaydi. Markaziy bank tijorat banklari Markaziy bankda ushlab turishga majbur bo'lgan zahiralarining eng quyi normasini o'rnatadi va shu vosita yordamida ular kreditlash qobiliyatiga, imkoniyatiga ta'sir etadi. Bu me'yor qanchalik yuqori bo'lsa, ortiqcha zahiralar shunchalik kam va tijorat banklarining kredit berish yo'li bilan

«pullarni barpo etish» qobiliyati past bo'ladi. Ilk majburiy zahira normalari AQSh da 1865 yilda joriy qilingan edi. Agar Markaziy bank majburiy bank zahasini kamaytirsam, ortiqcha bank zahiralarini ortadi, bu esa pul taklifining multiplikatsion ortishiga olib keladi. Masalan, ushbu me'yor 25 % bo'lsa, unda bankka qo'yilgan 800 so'mdan 200 so'm majburiy bank me'yorini tashkil etadi. Bunda bank faqat 600 so'mni qarzga berishi mumkin bo'ladi. Endi faraz qilaylik, me'yor 10 % ga tushiriladi, unda bank 720 so'mni qarzga berish imkoniyatiga ega bo'ladi va boshlang'ich pul taklifini 720 so'mga oshiradi.

Majburiy bank zahirasi me'yorini ko'tarish yordamida pul taklifini kamaytiradi. Zero, bu banklarning ortiqcha bank zahiralarini qisqarishiga olib keladi. Pul-kredit siyosatini o'tkazishda bu vosita butun bank tizimining asoslariga ta'sir etadi. Turli mamlakatlarda qo'llanilayotgan majburiy zahira normalari turlichadir. Yuqori inflatsiya darajasi sharoitida Janubiy Koreyada bu norma -100 foiz bo'lgan bo'lsa, Italiyada -25 foizni, Yaponiyada bor yo'g'i -2.5 foizni tashkil etadi.

O'zbekiston Respublikasida majburiy zahiralarlash normasi keyingi o'n yil davomida sezilarli darajada kamaydi (29.1-jadval).

29.1-jadval

O‘zbekiston Respublikasi Markaziy Bankining majburiy
zahiralash normasi⁶⁶

Amal qilish sanasi	Muddatsiz va muddati 3 yilgacha bo‘lgan depozitlar bo‘yicha	3 yildan ortiq muddatli depozitlar bo‘yicha	Xorijiy valutadagi depozitlar bo‘yicha
01.06.1996 y. gacha	30%	10%	0%
01.06.1996 y. dan	25%	10%	0%
01.12.1997 y. dan	20%	10%	0%
01.03.2000 y. dan	20%	20%	0%
04.07.2004 y. dan	20%	20%	0%
01.02.2005 y. dan	15%	15%	5%
01.09.2007 y. Dan	13 %	13 %	13 %
01.11.2008 y. dan	15%	15%	15%
01.11.2009 y. dan	1 yilgacha bo‘lgan dep.u-n.15 %, 1 yildan 3 yilgacha bo‘lgan depozitlar uchun 12%	10,5%	Miliy valuta singari

Bunday pasayish pul multiplikator miqdorining kattalashishiga va albatta iqtisodiyotda pul taklifining ko‘payishiga olib keladi. Tijorat banklari ortiqcha rezervlarining ko‘payishi ularning aktiv operatsiyalarini ko‘paytiradi va bu iqtisodiyotning real sektori rivojlanishiga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi.

Pul kredit siyosati vositalari albatta alohida-alohida ishlatilishi shart emas. Aksincha ko‘pincha bir necha vosita birdaniga qo‘llanilishi, ya’ni kompleks siyosat o‘tkazish amaliyotda tez-tez uchrab turadi.

Xo‘sh, pul-kredit siyosatining oqibatlari qanday? Davlat tomonidan amalga oshiriladigan pul-kredit siyosati YaIM, bandlik va baholar darajasiga bevosita ta’sir

⁶⁶ O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki ma’lumotlari

ko'rsatadi. Faraz qilaylik, iqtisodiyotda ishlab chiqarish qisqarmoqda va ishsizlar soni ortib bormoqda. Bunday sharoitda davlat Markaziy bank orqali pul taklifini biz yuqorida ko'rib chiqqan vositalar yordamida oshirishga harakat qiladi. Natijada pul taklifi o'sadi, foiz stavkasi esa kamayadi. Bu esa investitsiyalarga bo'lgan talabni oshiradi va o'z navbatida, YaIM miqdorining ko'payishiga olib keladi. Bu bilan davlat ma'lum davrda o'z maqsadiga erishadi, ishlab chiqarishning orqaga ketishi to'xtaydi, ishsizlar soni kamayadi, jamiyatning daromadlari esa oshadi.

Pul-kredit siyosatining oqibati to'g'risida gapirganda, bu siyosatning qisqa muddatli va uzoq muddatli oqibatlarini farqlash kerak. Agarda qisqa muddatli davrda davlat pul taklifini oshirilishi natijasida YaIM miqdori o'sishini rag'batlantirilgan hamda ma'lum darajada samaradorlikka erishilgan bo'lsa, uzoq muddatli davrda bu choralarning samaradorligi pasayishi mumkin.

29.3. Ochiq bozordagi operatsiyalar va hisob stavkasi

Ochiq bozordagi operatsiyalar – Markaziy bank tomonidan davlat obligatsiyalarini (qimmatli qog'ozlarni) tijorat banklari va aholidan sotib olish va ularga sotish bo'yicha operatsiyalardir. Markaziy bank tijorat banklaridan yoki aholidan bu qimmatli qog'ozlarni sotib olar ekan, tijorat banklari zahiralarni sotib olingan obligatsiyalar miqdori hajmida ko'paytiradi. Bu zahiralar pul bazasiga kiradi, ya'ni yuqori quvvatli pullar bo'lganligi uchun pul taklifi multiplikativ ko'payadi. Markaziy bank tijorat banklari va aholiga obligatsiyalarni sotish bilan zahiralarni hamda tijorat banklarining kredit berish qobiliyatini kengaytiradi. Bu holda pul taklifi qisqaradi.

Hozirda hamma mamlakatlarda pul miqdorini tartibga solishda ochiq bozordagi operatsiyalarni, ya'ni davlat qimmatli qog'ozlarini taklif qilish usulidan keng foydalanilmoqda. Ushbu operatsiyalarni Markaziy bank asosan nufuzi katta banklar guruhi bilan birgalikda amalga oshiradi.

Pul bozorida muomalada pul miqdori ortiqchaligi mavjud deb faraz qilamiz. Tabiiyki, Markaziy bank ortiqcha pul massasini kamaytirishga

harakat qiladi. Buning uchun, o'zida mavjud bo'lgan o'zining qimmatli qog'ozlarini u ochiq bozorda aholi va banklarga taklif etadi, ular esa uni xarid qila boshlaydilar. Davlat qimmatli qog'ozlarini (sotish yoki xarid qilish yo'li bilan) taklifi oshib borgan sari, unga bo'lgan baho pasayadi, o'z navbatida, unga bo'lgan foiz (ya'ni, qimmatli qog'ozlarni sotib olganlarga foiz shaklida to'lanadigan haq) oshadi, bu esa unga bo'lgan talabni oshiradi. Banklar va aholi qimmatli qog'ozlarni ko'proq xarid qila boshlaydi, pirovard natijada banklarning zahiralari qisqaradi, o'z navbatida, bu hol pul taklifining bank multiplikatoriga teng nisbatda qisqarishiga, shuningdek, bank zahirasi va pul taklifining ortishiga olib keladi. O'zbekiston Respublikasi Markaziy Banki ham pul kredit siyosatini yuritishda bu vositaning rolini keskin oshirishni maqsad qilib olgan.

Pul - kredit siyosatini amalga oshirishning muhim vositalardan biri – bu, hisob stavkasi siyosatidir. Hisob stavkasi yoki qayta moliyalash stavkasi deb

Markaziy bank tomonidan tijorat banklariga beriladigan ssudaning foiz stavkasi tushuniladi. Bu ssudalarni tijorat banklari ayrim ko'zda tutilmagan zarurat tug'ilganda va moliyaviy ahvoli mustahkam bo'lgan hollardagina oladilar. Hisob stavkasining pasayishi bilan tijorat banklarida Markaziy bankdan qo'shimcha zahiralarni olish imkoniyatlari kengayadi. O'z navbatida, bu tijorat banklarining zahiralardan yangi kreditlar berish bilan pul taklifini ko'paytiradi. Yana shunday hollar mavjudki, Markaziy bank hisob stavkasini ko'tara borib, tijorat banklari tomonidan qo'shimcha zahiralarni olish yo'lidagi to'siqlarni biroz ko'targanday bo'ladi va kreditlar berish bo'yicha ularning faoliyatini pasaytiradi, shu yo'l bilan pul taklifini cheklaydi. Agar ushbu stavka past bo'lsa, unda tijorat banklari ko'proq kredit olishga harakat qiladilar. Natijada banklarning ortiqcha zahiralari ortib boradi va muomaladagi pul massasi miqdorining oshib borishiga olib keladi. Agarda hisob stavkasi miqdori yuqori bo'lsa, unda banklar kamroq kredit olishga, olganlarini esa qaytarib berishga harakat qiladilar, pirovard natijada ortiqcha bank zahiralari qisqaradi, muomaladagi pul miqdori kamayadi.

Bu ko'rsatkichlar darajasi turli mamlakatlarda iqtisodiy vaziyatga qarab turlicha maqsadda bo'ladi. Masalan iqtisodiyotda turg'unlik elementlari ko'ringach investitsiyalarni qo'llab quvvatlash va umuman iqtisodiy faollikni oshirish uchun AQSh Federal zahira tizimi hisob stavkasini 2002 yilda bir foizgacha qisqartirdi. O'zbekiston Respublikasida qayta mmoliyalashtirish stavkasi 2001 yilda o'rtacha 26,8 %, 2003 yilda o'rtacha 27,1 %, 2006 yilda o'rtacha 14 foizni, 2011 yilda o'rtacha 11 foizni tashkil etgan bo'lsa, 2015 yilning yanvar oyidan 9 foizga tushirildi (29.2-jadval).

Amaliyotda, davlatlar hisob stavkasi siyosatini ochiq bozordagi operatsiyalar siyosati bilan muvofiqlashtirilgan holda olib borishga harakat qiladilar.

Pul-kredit siyosati asosida iqtisodiyotga pul-kredit siyosatining ta'sir etishi jarayonlarini o'rganuvchi pul nazariyasi yotadi. Ushbu nazariyaga ikki xil yondashuvchi iqtisodchilar o'rtasida ko'p yillardan beri tortishuvlar bo'lib kelmoqda. Bularga neokeynschilar nazariyasi va zamonoviy pul miqdori nazariyasi tarafdorlarini kiritamiz. Har ikki nazariya tarafdorlari ham pul taklifining nominal YaIM ga ta'sirini inkor etmaydilar, ammo bu ta'sirning ahamiyatiga har xil baho beradilar. Keynschilar fikricha, monetar siyosat yuritishda foiz stavkasi darajasiga asoslanishi, monetaristlar fikricha esa, pul taklifining darajasiga asoslanishi lozim. Keynschilar bozor iqtisodiyotini tartibga solishda davlat aralashuvi shart deb hisoblashadi, monetaristlar esa uni ortiqcha deb hisoblaydilar.

O'zbekiston Respublikasida foiz stavkalarining o'zgarishi⁶⁷ (%)

Davr	Yillik qayta moliyalash stavkasi	Qisqa muddatli kreditlar bo'yicha o'rtacha tortilgan stavka	Yuridik shaxslarning so'mdagi muddatli depozitlari bo'yicha o'rtacha tortilgan stavka	Jismoniy shaxslarning so'mdagi muddatli depozitlari bo'yicha o'rtacha tortilgan stavka
2000	32,3	25,7	12,9	32,2
2001	26,8	28,0	16,0	38,1
2002	34,5	32,2	19,2	40,2
2003	27,1	28,1	17,1	36,2
2004	18,8	21,2	11,3	34,5
2005	16,0	18,8	9,6	27,1
2006	14,0*	19,4	9,8	16,7
2007	14,0	18,5	9,4	20,3
2011	12	13,8-13,2*	6,1-5,9*	9,9-9,6*
2014	10	12,5-10,5*	5,5-7,4*	8-9,8*
2015	9	12,0-10,0*	5,0-7,1*	7-9,5*

* 15.07.2006 y.dan boshlab.

Keynschilar pul taklifining YaMIga ta'sirini quyidagi ketma-ketlikda amalga oshadi deb hisoblashadi:

- pul taklifining o'zgarishi foiz stavkasining o'zgarishiga olib keladi;
- foiz stavkasining o'zgarishi o'z navbatida, investitsiyalarga bo'lgan talabning o'zgartiradi;
- investitsiyalarga talab o'zgarishi yalpi talab (yalpi xarajatlarning o'zgarishiga olib keladi);
- yalpi talabning o'zgarishi ishlab chiqarish hajmiga (YaIMga) ta'sir etadi.

Monetaristlar esa pul miqdorining o'zgarishi bilan YaIM o'zgarishi o'rtasida yaqinroq aloqa mavjud; ya'ni, pul miqdorining o'zgarishi bevosita YaIM o'zgarishiga olib keladi deb hisoblashadi. Buni ular pulning miqdoriy nazariyasi tenglamasi bilan izohlaydilar.

⁶⁷ O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki ma'lumotlari

Ayni paytda monetaristlar pulning aylanish tezligini barqaror deb hisoblaydilar, keynschilar esa, aksincha, beqaror deydilar.

Hozirda mavjud bo'lgan monetaristik siyosatning modellari bu ikki yondashuvni sintez qilgan, ya'ni, bu yondashuvlarning ijobiy jihatlarini qo'shib, o'zida aks ettiradi. Pul kredit siyosatining uzoq muddatli maqsadlariga erishish uchun monetaristik yondashuv ko'proq ishlatiladi. Shu bilan birga qisqa muddatli davrlarda esa davlat foiz stavkasiga ta'sir etish usulidan voz kechmaydi. .

Markaziy Bank bir vaqtning o'zida ham pul massasini, ham foiz stavkasini o'zgartirmasdan ushlab tura olmaydi. Pulga talab o'sgan holatlarda maqsad foiz stavkasining barqarorligini ta'minlash bo'lsa Markaziy Bank pul taklifini oshirishga majbur bo'ladi. Bu tadbir yumshoq pul kredit siyosati deb yuritiladi.

Pul massasining ko'payib ketishiga yo'l qo'ymaslik uchun pul taklifini cheklash siyosatini qo'llash foiz stavkasining ko'tarilishiga olib keladi va bu siyosat qattiq pul kredit siyosati deb yuritiladi.

Agar pulga talab inflatsiya tasirida ko'paysa qattiq pul kredit siyosatini qo'llash maqsadga muvofiq bo'ladi. Maboda pulga talab ishlab chiqarish va daromadlarning o'sishi oqibatida oshsa yumshoq pul kredit siyosatini qo'llash o'rinlidir.

daromadlarning o'sishi oqibatida oshsa yumshoq pul kredit siyosatini qo'llash o'rinlidir.

Pul kredit siyosatining ishlab chiqarish hajmiga ta'siri birinchi paragrafda ta'kidlanganidek pul taklifi o'zgarishining foiz stavkasi darajasiga, foiz stavkasi o'zgarishining esa investitsiya xarajatlari hajmiga (bu bilan yalpi xarajatlar hajmiga ham) va yalpi xarajatlar o'zgarishining ishlab chiqarish ya'ni yalpi taklif hajmiga ta'siri ko'rinishida bosqichma - bosqich ro'y beradi. Foiz stavkasining pul taklifi o'zgarishiga tasirchanligi, yoki investitsiya xarajatlarining foiz stavkasi o'zgarishiga tasirchanligi past bo'lishi pul kredit siyosatini amalga oshirishda muammolarni keltirib chiqaradi.

Pul-kredit siyosati fiskal va savdo siyosatlari bilan chambarchas bog'liq. Agarda Markaziy bank qayd qilingan valuta kursini saqlab turishni maqsad qilib qo'ysa mustaqil (ichki) pul siyosatini olib borish mumkin bo'lmay qoladi. Chunki almashinuv kursini ta'minlab turish uchun valuta zahiralarini ko'paytirib yoki kamaytirib turish iqtisodiyotda pul hajmiga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Pul-kredit va fiskal siyosatlarni muvofiqlashtirish bilan bog'liq qiyinchiliklar ham mavjud. Agarda hukumat iqtisodiyotni davlat xarajatlarini oshirish orqali qo'llab-quvvatlashni amalga oshirmoqchi bo'lsa, uning muvaffaqiyatli amalga oshishi ko'proq pul-kredit siyosatining xarakteriga bog'liq. Chunki, bu mo'ljallanayotgan xarajatlar qimmatli qog'ozlar (ya'ni, obligatsiyalar)ni chiqarish evaziga amalga oshsa, pulga bo'lgan talab oshadi va natijada esa foiz stavkalari ko'tariladi. Bu esa investitsiya xarajatlarining kamayishiga olib keladi. Yoki Markaziy bank hukumatning yuqoridagi siyosatini qo'llab-quvvatlash uchun pul taklifini ma'lum miqdorda ko'paytirsa, pul qadrsizlanishi mumkin.

Umuman, barqaror pul-kredit siyosati hukumat tomonidan olib boriladigan fiskal siyosatga hamma vaqt ham mos kelavermaydi.

Qisqa xulosalar

Bank tizimi Markaziy bank va tijorat banklarini o'z ichiga oladi.

O'zbekiston Respublikasida ikki bosqichli bank tizimi shakllangan.

Markaziy banning bosh maqsadi milliy valutaning barqarorligini ta'minlashdan iborat.

Pul kredit siyosatini amalga oshirishning pirovard maqsadlari iqtisodiy o'sish, to'liq bandlikni, baholarning hamda to'lov balansining barqarorligini ta'minlashdan iborat.

Pul-kredit siyosatini amalga oshirishda foiz stavkasi, majburiy zahiralash normasi va ochiq bozordagi operatsiyalar kabi vositalardan foydalaniladi.

Ochiq bozordagi operatsiyalar pul-kredit siyosatining eng progressiv usuli bo'lib, uni qo'llash ko'lami ortib boradi.

O'zbekiston Respublikasida majburiy zahiralash normasi va qayta moliyalash stavkalari kamaytirib borilayotganligi, pul-kredit siyosatining nisbatan yumshatilayotganligidan dalolat beradi. Bu inflatsiya sur'atlarining jilovlanganligi tufayli mumkin bo'ldi va investitsiyalar, yalpi talab hajmiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

Nazorat va muhokama uchun savollar

1. Markaziy bank va tijorat banklari funksiyalarini tushuntirib bering.
2. Pul-kredit siyosatining asosiy maqsadi va vazifalari nimalardan iborat?
3. Ochiq bozordagi operatsiyalarning pul taklifiga ta'siri mexanizmini tushuntirib bering.
4. Qayta moliyalash stavkasining o'zgartirilishi pul taklifiga qanday ta'sir etadi?
5. .Majburiy zahiralash normasi qaysi maqsadlarda qo'llaniladi va uning pasaytirilishi oqibatlari qanday?
6. . Pul-kredit siyosatining etkazish mexanizmini tushuntirib bering.
7. Yumshoq va qattiq pul kredit tsiyosati tushunchalariga izoh bering.

30- bob. IS-LM MODELINING SHAKLLANISI VA TATBIQI

30.1. IS - LM modelining mohiyati va AD-AS modeli bilan bog‘liqligi

Tovar va pul bozorida umumiy muvozanatga erishish shartlari va makroiqtisodiy siyosat tadbirlarining bu ikki bozorga ta’sirini umumlashtirib tadqiq qilish IS - LM modeli yordamida bajariladi.

IS - LM modeli birinchi marta 1937 yilda J.Xiks tomonidan keynsning makroiqtisodiy konsepsiyasini izohlash uchun taklif etildi hamda 1949 yilda

A. Xansening “Monetar nazariya va fiskal siyosat” nomli kitobi nashr qilinganidan so‘ng keng yoyildi. Shu sababli bu model Xiks modeli yoki Xiks-Xansen modeli deb ham yuritiladi.

IS - LM modeli qisqa muddatli davrga ham tovarlar ham pul bozorida birgalikda muvozanat o‘rnatilishi mexanizmini xarakterlaydi⁶⁸. Bunda tovarlar bozori deganda ham iste’mol ham investitsion tovarlar bozori tushuniladi. Garchand iste’mol va investitsion tovarlarga talab turli omillar bilan belgilansada IS - LM modelida ular bir butun deb qaraladi. Pul bozori deganda xazina veksellari va tijorat qog‘ozlari ko‘rinishidagi qisqa muddatli kredit vositalarini oldi sotdi mexanizmi tushuniladi. Bu bozorni obligatsiyalar bozoridan farqlash zarur. Pulning obligatsiyalarda ifodalangan nisbiy bahosi obligatsiyalar bo‘yicha foiz stavkasidir.

“IS - LM modeli (investitsiyalar-jamg‘armalar, likvidlilikni afzal ko‘rish – pul) – yalpi talab funksiyasini belgilovchi iqtisodiy omillarni aniqlash imkonini beruvchi tovar-pul muvozanatim modeli”⁶⁹. AD-AS modelida tovar va pul bozorlarining aloqasi e’tiborga olingan edi. Ya’ni tovarlar va xizmatlar baholarining ko‘tarilishi pulga bo‘lgan talabni oshirishi bu esa o‘z navbatida foiz stavkasining ko‘tarilishiga olib kelishi, oqibatda investitsiya xarajatlari va umuman yalpi xarajatlar kamayishi AD-AS modelida ko‘zda tutilgan edi. IS-LM modeli AD-AS modelini qisqa muddatli davrga aniqlashtiradi va bu modelda har ikkala bozor yagona makroiqtisodiy tizimning sektorlari sifatida namoyon bo‘ladi.

Model bu sektorlarda tarkib topgan sharoitlarga bog‘liq tarzda foiz stavkasi R bilan daromad darajasi Y ning muvozanatli darajasini belgilaydi.

30.2. Modelning asosiy tenglamalari

IS-LM (investitsiya - jamg‘armalar, likvidlilikning afzalligi - pul) modeli foiz stavkasi R bilan daromadlar Y ning bir vaqtning o‘zida har ikkala bozorda muvozanatni ta’minlaydigan kombinatsiyalarini topish imkonini beradi.

Modelning asosiy tenglamalari quyidagilar:

1. $Y=C +I + G +X_n$ — asosiy makroiqtisodiy ayniyat.
2. $C = a+b (Y-T)$ — iste’mol funksiyasi, bu yerda $T = T_a + tY$.
3. $I = e-dR$ — investitsiya funksiyasi.
4. $X_n = d - m`Y - nR$ — sof eksport funksiyasi.

⁶⁹ Агапова Т.А.Серегина С.Ф. Макроэкономика:Учебник.-7-е изд.перераб. и доп.- М.:Издательство “Дело и сервис”, 2005. с.191.

5. $M/P = kY - hR$ — pulga talab funksiyasi.

IS-LM modelida ko‘rilgan barcha tenglamalar bajarilsa muvozanatga erishiladi.

Modelning endogen o‘zgaruvchilari Y, C, I, X_n va foiz stavkasi R . Modelning ekzogen o‘zgaruvchilari G, M_s va chegaraviy soliq stavkasi t . a, b, c, d, m, n, k va h empirik koeffitsientlar bo‘lib musbat va nisbatan barqarordir.

Y haqiqiy $< Y$ potensial bo‘lgan qisqa muddatli davrga muvozanat ko‘rib chiqilayotganda, modelda, baholar darajasi o‘zgarimas, foiz stavkasi R va daromad Y o‘zgaruvchan deb olinadi.


Y haqiqiy $= Y$ potensial bo‘lgan, ya’ni to‘liq bandlik sharoitida baholar darajasi R o‘zgaruvchan, M_s nominal kattalik va boshqa barcha o‘zgaruvchilar real kattaliklardir.

30.3. IS - egri chizig‘i va uning tenglamasi

IS-egri chizig‘i tovarlar xizmatlar bozorida foiz stavkasi R va daromadlar darajasi Y ning kombinatsiyalarini xarakterlovchi, bir vaqtning o‘zida asosiy makroiqtisodiy ayniyat, iste’mol, investitsiya va sof eksport funksiyalari qondiriladigan nuqtalarning geometrik joylashuvini xarakterlaydi. Bu egri

chiziqning har bir nuqtasida investitsiyalar va jamg‘armalar o‘zaro teng bo‘ladi.

IS-egri chizig‘ini Keynes xochi va investitsiya funksiyasi grafigi yordamida keltirib chiqaramiz. (30.1-,30.2-, va 30.3-rasmlar.)⁷⁰



⁷⁰ N. Gregory Mankiw. Macroeconomics. 8 th edition. Harvard University. (NY.: Worth Publishers, 2013): 315

Foiz stavkasining R_1 dan R_2 ga qadar ko'tarilishi investitsiyalar miqdorini I_1 dan I_2 ga qadar kamayishiga olib keladi. Bu haqiqiy xarajatlar egri chizig'ini E_1 dan E_2 ga qadar pastga tomon $\Delta E = \Delta I$ ga teng miqdorda surilishiga olib keladi. Oqibatda daromadlar miqdori Y_1 dan Y_2 qadar

$\Delta Y = \Delta E \times m$ miqdorga pasayadi, bu yerda ($m = 1/(1-b(1-T)+m')$).

Demak tovarlar va xizmatlar bozorida daromadlar darajasi va foiz stavkasi dinamikasi o'rtasida teskari bog'liqlik mavjud.

R o'zgarmagan holda IS egri chizig'ining o'ngga yoki chapga siljishi quyidagi omillar ta'sirida ro'y beradi:

- iste'mol xarajatlari darajasi;
- davlat xaridi darajasi;
- sof soliqlar (soliqlar - subsidiyalar - transfertlar);
- investitsiyalar hajmining (R ning mavjud stavkasida) o'zgarishi.

IS tenglamasini iste'mol, investitsiya va sof eksport funksiyalari tenglamalarini asosiy makroiqtisodiy ayniyatga qo'yib, uni R va Y ga nisbatan echib topiladi.

R ga nisbatan topilgan IS tenglamasi:

$$R = \frac{a + e + g}{d+n} - \frac{1-b(1-t) + m'}{d+n} Y + \frac{1}{d+n} G - \frac{1}{d+n} Ta$$

bu yerda $T = Ta + t Y$

Y ga nisbatan topilgan IS tenglamasi:

$$Y = \frac{a + e + g}{1-b(1-t) + m'} - \frac{1}{1-b(1-t) + m'} G - \frac{1}{1-b(1-t) + m'} Ta + \frac{1}{1-b(1-t) + m'} R$$

bu yerda $T = Ta + t Y$

$(1-b(1-t) + m')/(d+n)$ IS egri chizig'ining Y o'qiga nisbatan og'ish burchagini ko'rsatadi va fiskal hamda pul kredit siyosati samaradorligining nisbiy parametrlaridan biri hisoblanadi

30.4. LM - egri chizig'i va uning tenglamasi

LM egri chizig'i o'zgarmas narxlar sharoitida pul vositalari bozorida vujudga keladigan foiz stavkasi va daromadlar darajasi o'rtasidagi o'zaro bog'liqlikni aks ettiradi.

LM egri chizig'ining har bir nuqtasida pulga talab M_d pul taklifi M_s ga teng bo'ladi (liquidity Preference = Money Supply). Pul bozorida bunday muvozanatga daromad Y ning oshishi bilan foiz stavkasi R ko'tarilagina erishiladi.

Ma'lumki, pulga talab miqdoriga foiz stavkasidan tashqari daromadlar darajasi ham ta'sir ko'rsatadi. Daromadlar yuqori bo'lsa, xarajatlar ham ko'p bo'ladi. Bu esa,

o'z navbatida iste'mol va boshqa xarajatlar uchun pulga talabni oshishiga olib keladi. Shunday qilib, daromadlar darajasining yuqoriroq bo'lishi pul talabini oshiradi. Boshqacha aytganimizda, daromad va pulga talab dinamikasi o'rtasida to'g'ri bog'liqlik mavjud.

Pulga talab funksiyasini quyidagicha yozamiz:


$$M/R = L(R; Y)$$

Pul bozori holatini belgilovchi ko'rsatkichlar o'rtasidagi bunday o'zaro munosabatlarni 30.4-, 30.5 rasmlarda tasvirlaymiz.


30.4-rasmdan ko'rinib turibdiki, pulga bo'lgan talab, foiz stavkasi pasayishi bilan, shuningdek, daromadlar ko'payishi natijasida ham oshadi. Daromadlarning oshishi natijasida pulga talab egri chizig'i M_{d1} yuqori surilib, M_{d2} holatini egallaydi va unda pul bozoridagi muvozanat nuqtasi, r_1 holatidan r_2 holatiga o'tadi.

Shunday qilib, yuqoriroq daromad yuqoriroq foiz stavkasiga olib keladi va buni LM egri chizig'i aks ettiradi. U pul bozorida foiz stavkasi va daromad o'rtasidagi munosabatlarni ko'rgazmali tarzda ifodalaydi. Daromad darajasi qancha baland bo'lsa, pulga bo'lgan talab shuncha yuqori va shunga muvofiq muvozanatli foiz stavkasi ham shuncha yuqori bo'ladi.

LM egri chizig'i o'ziga xos konfiguratsiyaga ega: gorizontaal qism va vertikal qism. LM egri chizig'ining gorizontaal qismi foiz stavkasi R ning minimal darajasidan pasaya olmasligini anglatadi, vertikal qism foiz stavkasi R ning maksimal darajasi chegarasidan tashqarida hech kim o'z mablag'larining likvid (pul) shaklida ushlab turmasligini va ularni qimmatli qog'ozlarga aylantirishini anglatadi.



30.4-rasm. Pul bozoridagi muvozanat grafi



30.5-rasm. LM egri chizig'i grafi

LM egri chizig'i o'ziga xos: gorizontaal va vertikal konfiguratsiyaga ega⁷¹.

⁷¹ N. Gregory Mankiw. Macroeconomics. 8 th edition. Harvard University. (NY.: Worth Publishers, 2013): 321

LM egri chizig'ining gorizontol kesmasi foiz stavkasi foiz stavkasi R_{min} . darajadan pastga tushishi mumkin emasligini ko'rsatadi. Egri chiziqning vertikal kesmasi foiz stavkasining maksimal daraja R_{max} . chegarasidan tashqarida hech kim jamg'armalarini likvid (pul) shaklida ushlab turmaydi va ularni qimmatli qohozlarga aylantiradi.

Baholarning o'zgarishi hamda pul taklifi hajmidagi o'zgarishlar LM egri chizig'ining o'ngga yoki chapga siljishiga olib keladi.

LM egri chizig'i tenglamasi pulga talab funksiyasini R va Y ga nisbatan echib topiladi.

R ga nisbatan LM egri chizig'i tenglamasi quyidagicha:

$$R = (k/h)Y - (1/h) (M/P).$$

Y ga nisbatan LM egri chizig'i tenglamasi quyidagicha:


$$Y = (1/k) (M/P) + (h/k) R.$$

k/h koefitsenti LM egri chizig'ining Y o'qiga nisbatan og'ish burchagini xarakterlaydi hamda fiskal va pul kredit siyosatining nisbiy samaradorligi baholaydi.

30.5. IS-LM modelida makroiqtisodiy muvozanat

IS-LM egri chiziqlari kesishadigan nuqta IS-LM modelidagi iqtisodiy muvozanat holatini ko'rsatadi.

Bu nuqta o'zida shunday foiz stavkasi « R » ni va daromad darajasi « Y » ni aniqlaydiki, bunda tovarlar va xizmatlar bozorida talab va taklif hamda real pul mablag'lariga bo'lgan talab va ularning taklifi o'zaro teng bo'ladi. (30.6- rasm.)



30.6-rasm. IS – LM modelidagi iqtisodiy muvozanat

Bu yerda : R^* -muvozanatli foiz stavkasi; Y^* - muvozanatli daromad hajmi.

IS va LM egri chiziqlarining o'zaro kesishishi pul taklifi investitsiyalar va jamg'armalarni o'zaro tenglashtiruvchi foiz stavkasi shakllanishi uchun etarli ekanligini anglatadi.

IS egri chizig'i rejalashtirilgan xarajatlarga bog'liq bo'lganligi uchun uning o'zgarishi fiskal siyosatidagi o'zgarishlarni xarakterlaydi. LM pul taklifiga bog'liq bo'lganligi uchun undagi o'zgarish monetar siyosat tadbirlari natijasini ko'rsatadi.

Bundan xulosa shuki IS-LM modeli fiskal va monetar siyosatning iqtisodiyotga birgalikda ko'rsatadigan ta'sirini baholash imkonini beradi. Davlat xarajatlarining o'sishi yoki soliqlarning kamayishi IS egri chizig'ini o'ngga siljitadi. Davlat xarajatlarining kamayishi va soliqlarning oshishi esa bu egri chiziqni chapga siljitadi. Xuddi shuningdek pul taklifining oshishi LM egri chizig'ini o'ngga, kamayishi esa chapga siljitadi. IS-LM modeli ma'lum makroiqtisodiy natijalarga erishishning turli variantlarni ko'rib chiqish imkoniyatini beradi. Bir bozorda bo'lgan o'zgarish ikkinchi bozorga ham ta'sir etadi. Masalan Markaziy bank ochiq bozordan obligatsiyalar sotib ola boshladi. Natijada pul taklifining ko'payishi (LM egri chizig'ini o'ngga siljishi da aks etib) foiz stavkasining pasayishini keltirib chiqaradi. Monetar impuls ta'sirida, ya'ni, foiz stavkasining pasayishi oqibatida investitsiya xarajatlari ko'payadi va IS egri chizig'i ham o'ngga siljib yangi nuqtada muvozanat o'rnatiladi.

Agar modelda muvozanati LM egri chizig'ining gorizontal(keyns) kesmasida yuzaga kelsa pul massasining ko'paytirilishi investitsiyalar, ishlab chiqarish va bandlilikning o'sishiga olib kelmaydi. Bu iqtisodiy tizimda aloqalar buzilganligidan dalolat beradi. Bunda pul taklifining o'sishi tovarlar bozoriga ta'sir ko'rsata olmaydi, chunki pul bozorida foiz stavkasini kamaytirish imkoniyati qolmaydi. Bunday vaziyat **likvidlilik tuzog'i** nomini olgan.

"Likvidlilik tuzog'i vaziyatida kredit (monetar) siyosat yalpi talab va milliy daromadni rag'batlantirish vositasi sifatida kutilgan samarani keltirib chiqarmaydi va shu sababli, keynschilar fikriga ko'ra, (ixtiyorimizda) faqat bir dastak - soliqlar va hukumat xarajatlari orqali yalpi talabga bevosita ta'sir ko'rsatadigan fiskal siyosatgina qoladi"⁷²⁸³.

Agar modelda IS egri chizig'i LM egri chizig'ining vertikal kesmasidan kesib o'tganda yuz bergan bo'lsa pul taklifini oshirish milliy daromadning o'sishigava foiz stavkasining pasayishiga olib keladi. Aksinsa davlat xarajatlarining oshirilishi esa, keynschilar fikriga ko'ra, bu kesmada yalpi talabga va milliy daromar hajmiga ta'sir ko'rsatmaydi.

Agar IS egri chizig'i vertikal ko'rinishda bo'lsa, ya'ni investitsiyalarga talab foiz stakasi o'zgarishiga ta'sirchan (elastik) bo'lmagan, masalan investorlar kelajakdagi bozor konyukturasiining noaniqligi sababli o'z investitsiyalari istiqboliga tushkun baho bersalar **investitsion tuzoq** yuzaga keladi. Investitsion tuzoq shuni anglatadiki IS egri chizig'i vertikal bo'lganda LM egri chizig'ining siljishlari real daromad miqdorini o'zgartirmaydi. Bu holatda pul-kredit siyosati yalpi talalab va milliy daromad hajmiga hech qanday ta'sir ko'rsatmaydi, fiskal siyosat esa samarali bo'ladi.

⁷² Ивашковский С.Н. Макроэкономика: Учебник.-2-е изд., доп.- М.: Дело, 2002, с. 219 .

Demak pul- kredit siyosati foiz stavkalari yuqori bo'lgandasamarali bo'ladi. Fiskal siyosat esa foiz stavkasi minimal, ya'ni LM egri chizig'i gorizontal, IS egri chizig'i esa vertikal bo'lganda samaraliroq bo'ladi. Model yordamida makroiqtisodiy siyosat variantlarini tanlash, shuningdek usullarini muvofiqlashtirilgan holda qo'llash va siqib chiqarish samaralarini kamaytirish yo'llarini tahlil etish mumkin.

Qisqa xulosalar

IS-LM modeli tovar va pul bozorlarining o'zaro aloqalarini va har ikki bozorda birgalikda muvozanat o'rnatilishi mexanizmini izohlovchi modeldir. IS egri chizig'i tovar va xizmatlar bozorida paydo bo'ladigan daromadlar darajasi va foiz stavkasining kombinatsiyalarini ko'rsatadi. IS egri

chizig'ining har bir nuqtasida tovar pul bozorida muvozanat tarkib topadi.

LM egri chizig'i o'zgarmas narxlar sharoitida pul vositalari bozorida vujudga keladigan foiz stavkasi va daromadlar darajasining kombinatsiyalarini ko'rsatadi. LM egri chizig'ining har bir nuqtasida pul bozorida talab va taklif o'zaro teng bo'ladi.

IS va LM egri chiziqlarining kesishuv nuqtasi har ikki bozor uchun muvozanat nuqtadir. Bu nuqtada asosiy makroiqtisodiy ayniyat iste'mol, investitsiya, sof eksport va pulga talab funksiyalari tengligini to'liq qanoatlantiradi.

Model unda IS va LM egri ichiziqlarining holati aks ettiradigan makroiqtisodiy vaziyatdan kelib chiqib makroiqtisodiy siyosat usullarning qay birini qo'llash, yoki ularni muvofiqlashtirish masalalarini hal etish imkonini beradi.

Nazorat va muhokama uchun savollar

1. IS-LM modeli qanday maqsadga xizmat qiladi va unga ehtiyojni qanday asoslab berish mumkin?
2. IS-LM modelining asosi bo'lgan tenglamalarni sanab bering va ularga tavsif bering.
3. IS egri chizig'ining mohiyati nimada va qanday keltirib chiqariladi?
4. LM egri chizig'ining asosiy o'zgaruvchilari nimalardan iborat va u qanday keltirib chiqariladi?
5. IS egri chizig'i tenglamasidagi qaysi parametr fiskal va pul kredit siyosatining nisbiy samaradorligini belgilaydi va nima sababli?
6. Modelda makroiqtisodiy siyosat yuzaga kelishining shartlari qaday?
7. Likvidlilik tuzog'i qachon vaziyatda yuzaga keladi va makroiqtisodiy siyosatga qanday ta'sir ko'rsatadi?
8. "Investitsion tuzoq" atamasi qo'llaniladigan makroiqtisodiy vaziyatni tavsiflab bering.

31–bob. IQTISODIY O‘SISHNING UMUMIY TAVSIFI VA NEOKEYSNSCHA MODELLARI

31.1. Iqtisodiy o‘shish tushunchasi va o‘lchanishi

Iqtisodiy o‘shish to‘liq bandlilik sharoitiga mos keluvchi potensial ishlab chiqarish darajasini uzoq muddatli ko‘payishi tendensiyasini anglatadi.

Iqtisodiy o‘shish yalpi taklifning o‘shishini yoki boshqacha aytganimizda, haqiqiy va potensial YaIM hajmining oshishini bildiradi. Iqtisodiy o‘shish muammosini o‘rganish natijasida real ishlab chiqarish tizimi duch keluvchi - cheklangan resurslardan samarali foydalanish muammosiga echim topiladi.

Demak, iqtisodiy o‘shish omillari va ular samaradorligini o‘rganish hamda tahlil qilish jamiyat oldidagi eng dolzarb muammolardan biridir.

Iqtisodiy o‘shish nafaqat mamlakat real daromadlarining o‘shishi, shuningdek, jon boshiga to‘g‘ri keladigan real daromadlarning o‘shishini ham anglatadi. Shu sababli ham iqtisodiy o‘shish ikki xil usul bilan o‘lchanadi.

Birinchi usulda iqtisodiy o‘shish real YaIM ni o‘tgan davrga nisbatan o‘zgarishi sifatida aniqlanadi va mamlakatning umumiy iqtisodiy imkoniyatlari dinamikasini aniqlash uchun ishlatiladi.

Bunda joriy yildagi real YaIM (Y_t) hajmining bazis yildagiga (Y_{t-1}) (asosan oldingi yilga) nisbatan foiz ko‘rinishidagi o‘shishi aniqlanadi:

$$\Delta Y = \frac{Y_t}{Y_{t-1}} \times 100$$

Ikkinchi usulda iqtisodiy o‘shish aholi jon boshiga to‘g‘ri keladigan real YaIM ning o‘tgan davrga nisbatan o‘zgarishi sifatida aniqlanadi.

Iqtisodiy o‘shish nazariyasi va modellarida YaIM o‘rniga SIM, YaMD, SMD ko‘rsatkichlaridan ham foydalanilishi mumkin. Iqtisodiy nazariyada iqtisodiy o‘shish daromadlarni qanday nisbatlarda iste‘mol va investitsiyalarga bo‘linishiga bog‘liq deb qaraladi.

Iste‘mol hajmi dinamikasi iqtisodiyotning provard maqsadini va yashash darajasi oshishini bildirsa, investitsiyalar hajmining o‘zgarishi resurs imkoniyatlarining o‘shishi va texnik yangiliklarning moddiylashishini anglatadi. Iste‘mol va investitsiya o‘rtasida etarlicha muqobillik mavjud, chunki, joriy iste‘mol miqdorining oshishi investitsiyalarning daromaddagi ulushini pasaytirish iqtisodiy o‘shish imkoniyatlarini qisqartiradi.

Iqtisodiy o‘shish real kattaliklarda, qiyosiy baholarda o‘lchanadi.

Har bir mamlakat iqtisodiy o‘shishga intiladi, chunki iqtisodiy o‘shish, birinchidan, milliy mahsulot hajmi va daromadning ko‘payishiga, ikkinchidan, resurslardan samarali foydalanishga, uchinchidan, yangi-yangi ehtiyojlar va

imkoniyatlarning paydo bo'lishiga, to'rtinchidan, xalqaro bozorlarda mamlakat obro'sining oshishiga olib keladi.

31.2. Iqtisodiy o'sishga omillari va tiplari

Real ishlab chiqarish hajmlarining uzoq muddatli o'sishi sur'atlarini, ko'lamlarini, samaradorligi va sifati oshishini belgilovchi hodisa va jarayonlar iqtisodiy o'sish omillari deyiladi.

Iqtisodiy o'sish omillari ikki guruhga ajratiladi.

Birinchi guruh omillari iqtisodiy o'sishni fizik (ashyoviy) jihatdan ta'minlaydi.

Bu guruhga ishlab chiqarish omillari kiritiladi:

- tabiiy resurslar soni va sifati;
- mehnat resurslari soni va sifati;
- asosiy kapital hajmi;
- texnologiyalar va ishlab chiqarishni tashkil etish;
- jamiyatda tadbirkorlik malakalarining rivojlanishi darajasi.

Agar iqtisodiyotning qisqa muddatli holati ko'proq yalpi talab bilan belgilansa, uzoq davrga iqtisodiyotning rivojlanishi ko'proq ishlab chiqarish imkoniyatlari bilan belgilanadi. Shu sababli iqtisodiy o'sishni modellashtirishda diqqat markazida real sektor turadi.

Ikkinchi guruhga omillari jamiyatdagi iqtisodiy o'sish potensialini yuzaga chiqarish imkonini beruvchi omillar – talab va taqsimot omillari bilvosita omillar) kiritiladi:

- bozorning monopollashuvi darajasini pasayishi;
- iqtisodiyotdagi soliq muhiti;
- kredit-bank tizimi samaradorligi;
- iste'mol, investitsiya va davlat xarajatlarining o'sishi;
- eksport hajmining o'sishi;
- iqtisodiyotda ishlab chiqarish resurslarini qayta taqsimlash imkoniyatlari;
- daromadlarni taqsimlashning shakllangan tizimi.

Agar o'sish qo'shimcha resurslarni jalb etish hisobiga ta'minlansa va jamiyatdagi resurslardan foydalanishning shakllangan o'rtacha samaradorligi darajasini oshirmasa ekstensiv iqtisodiy deb ataladi.

Ekstensiv iqtisodiy o'sish yangii korxonalar, yo'llar, elektrostansiyalar qurish, yangi erlarni o'zlashtirish, mehnat va tabiiy resurslarni qo'shimcha jalb etish kabilar hisobiga ta'minlanadi. Ammo bu resurslarning cheklanganligi rivojlanishning ma'lum bir bosqichida ekstensiv iqtisodiy o'sish imkoniyatlarini kamaytiradi va uni ziddiyatli qilib qo'yadi.

YaIMning o'sishi iqtisodiyotda band bo'lganlar sonidan yuqori sur'atga ega bo'lsa intensiv iqtisodiy o'sish ro'y beradi.

“Iqtisodiy o‘shishning intensiv tipi ishlab chiqarish samaradorligining oshishiga bog‘liq. U foydalanilayotgan resurs birligiga to‘g‘ri keladigan mahsulot ishlab chiqarishni ko‘paytirishni, ishlab chiqarishning texnik xususiyatlarini yaxshilashni ko‘zda tutadi. Bunday jaryonlar namoyon bo‘ladi:

- fan va texnika yutuqlaridan foydalanish va ishlab chiqarishni yangilashda;
- xodimlar malakasini oshirishda;
- ishlab chiqarilayotgan mahsulot sifatini oshirish, assortimentini yangilashda”⁷³.

Iqtisodiy o‘shishning bu ikki tipi sof holda ro‘y bermaydi. Iqtisodiy o‘shish uni ta‘minlashdagi intensiv yoki intensiv omillarning ulushi darajasiga qarab ko‘proq ekstensiv, yoki ko‘proq intensiv bo‘lishi mumkin.

Iqtisodiyotning tarkibiy tuzilishini takomillashtirib borish, chuqur qayta ishlangan, tayyor, qo‘shilgan qiymat hisyasi yuqori bo‘lgan mahsulot ishlab chiqaruvchi tarmoqlarni jadal rivojlantirish va ularning YAIM hamda mamlakat eksportidagi ulushini ko‘paytirish muhim ahamiyatga ega.

30.5-jadval

O‘zbekistonda iqtisodiy o‘shish omillari va ularning YaIMdagi hisyasi⁷⁴

№	Omillar	2009-2012	2013-2014	2015-2017
1.	Taklif omillari	62	55	53
2.	Talab omillari	22	25	26,5
3.	Taqsimot omillari	16	20	20,5

Jadvaldan ko‘rinib turibdiki, omilli tahlillar shuni ko‘rsatadiki uzoq muddatli iqtisodiy o‘shishni ta‘minlashda uning bilvosita ya‘ni talab va taqsimot omillari uning bevosita omillari, ya‘ni taklif omillaridan ko‘proq samara berar ekan.

2009 yilda bevosita va bilvosita omillarning ulushi mos ravishda 62 va 38 foizni tashkil etgan bo‘lsa, 2015 yilda ushbu nisbat mos ravishda 53 va 47 foizni tashkil etgan. Bunga o‘z navbatida ichki va tashqi talabni rag‘batlantirish bilan bog‘liq chora tadbirlar sezilarli ta‘sir ko‘rsatgan.

Kelgusi yillarda esa bu nisbat yanada ortishi kutilmoqda, bunga eng avvalo makroiqtisodiy siyosatda yuzaga keladigan o‘zgarishlar ta‘sir etishi prognoz qilinmoqda.

⁷³ Макроэкономика. Теория и российская практика: учебник / под ред. А.Г.Грязневой и Н.Н. Думной.-5-е изд., перераб. И доп.-М.: КНОРУС, 2008, 187-188 с.с

⁷⁴ Hakimov H.A. Iqtisodiy o‘shishni ta‘minlashda talab va taqsimot omillarining ta‘sirini oshirish yo‘llari (O‘zbekiston Respublikasi misolida). “Makroiqtisodiyot” mutaxassisligi magistri akademik darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya. T.: TDIU, 2016 y- 40b.

31.3. Iqtisodiy o'sishning E.Domar modeli

Iqtisodiy o'sish moldellari yalpi ishlab chiqarishning uzoq muddatli ko'payishi taklif omillariga tayangan holda tahlil etish imkonini beradi.

Boshqa iqtisodiy modellar singari iqtisodiy o'sish modellari ham real jarayonlarni abstrakt va soddalashgan ko'rinishda, shartli tarzda grafiklarda va tenglamalarda aks ettiradi.

Iqtisodiy o'sishning keynscha va neoklassik modellari mavjud.

Keynscha modellarning mohiyati quyidagicha:

1) ularning barchasi Keynsning yalpi talb to'g'risidagi bosh g'oyasiga tayanadi. Ya'ni ularni tuzishda mualliflar iqtisodiyotni uzoq muddatli mutanosib rivojlanishining hal qiluvchi sharti yalpi talabni oshirish deb qarashgan;

2) iqtisodiy o'sishning asosiy omili investitsiyalar hisoblanadi, boshqa ishlab chiqarish omillari e'tiborga olinmaydi;

Keynscha iqtisodiy o'sish modelidan soddarog'i 40-yillarda E. Domar tomonidan taklif etilgan model hisoblanadi.

Keyns o'z tahlilida investitsiyalarnig yalpi talabga ta'sirini qrgangani o'oldaa, yalpi taklifga ta'sirini ko'rib chiqmaydi. Undan farqli tarzda Domar modelida mehnat bozorida ortiqcha taklif mavjud, bu baholarn barqaror xolatida ushlab turadi, nvestitsion lag «0» ga teng, kapital quyilmalarni ng chegaraviy unumdorligi doimiy deb olinadi.

E.Domar investitsiyalarni ham talab ham taklif omili deb qaraydi. Ya'ni investitsiyalar nafaqat multiplikativ ta'sir ko'rsatib yalpi talabni oshiradi, balki ishlab chiqarish quvvatlarini yuzaga keltirib, ishlab chiqarishni rivojlantiradi, tovarldar taklifini oshiradi . Shunday ekan, yalpi talabning o'sishi yalpi taklifning o'sishiga teng bo'lishi uchun investitsiyalar qanday o'sishi kerak degan savol paydo bo'ladi. Bu savolga javob topish uchun Domar uch tenglamani o'z ichiga olgan tenglamalar sistemasini tuzdi:

1) taklif tenglamasi;

2) talab tenglamasi;

3) talab va taklif tengligini ifodalovchi tenglama.

1. Taklif tenglamasida investitsiyalar ishlab chiqarish omillarining qanchaga qo'shimcha o'sishini ko'rsatadi . Agar berilgan sharoitda investitsiyalar I o'ssa, yalpi ishlab chiqarish $\Delta K \alpha$ miqdorga o'sadi:

$\Delta Y_s = \Delta K \alpha$, ΔK investitsiyalar hisobiga ta'minlanganligi uchun tengikni:

$\Delta Y_s = I \alpha$ deb yozish mumkin. , bunda, α – kapital quyilmalar (investitsiyalar)ning chegaraviy unumdorligi. Agar bir yilda yalpi ishlab chiqarishni 1 mlrd. so'mga oshirish uchun 4 mlrd so'm investitsiya talab etilsa $\alpha = 0,25$ bo'ladi. $\alpha = \Delta Y_s / I$ bir so'mlik investitsiya hisobiga yaratilgan yangi mahsulot miqdorini ko'rsatadi.

2. Talab tenglamasi quyidagi ko'rinishga ega

$\Delta Y_d = \Delta I (1/\mu)$, bu yerda $1/\mu$ – xarajatlar multiplikatori, μ – jamg‘arishga chegaralangan moyillik.

Bu tenglama milliy daromad ΔY_d , yoki yalpi talab qo‘shimcha investitsiyalarning multiplikativ ko‘payishiga teng miqdorda o‘shini ko‘rsatadi.

Ishlab chiqarish to‘plangan jami kapital bilan ta‘minlanishi, milliy daromad esa qo‘shimcha investitsiyalarning multiplikativ ta‘siri ostida ko‘payishi sababli taklif tenglamasida jami investitsiyalar, talab tenglamasida esa qo‘shimcha investitsiyalargina ko‘rib chiqilaadi.

3. Daromadlar va ishlab chiqarish quvvatlarining qo‘shimcha o‘shish sur‘atlari tengligi tenglamasi:

$$\Delta I (1/\mu) = I \alpha$$

Bu tenglamani echib suvidagi natijani olamiz:

$$\Delta I / I = \mu \alpha$$

$(\Delta I / I)$ – investitsiyalarning yillik o‘shish sur‘ati bo‘lib, ishlab chiqarish quvvatlarini oshirish yordamida to‘liq bandlilikni ta‘minlab turish uchun

$(\mu \alpha)$ miqdorga teng bo‘lishi kerak. Bundan xulosa shuki investitsiyalarning mutanosib o‘shish sur‘ati jamg‘arishga chegaralangan moyillik va investitsiyalarning unumdorligi (kapital qaytimi) darajalarining hosilasi ekan.

Agar $\mu = 0,2$ $\alpha = 0,4$ bo‘lsa $\Delta I / I = 0,2 * 0,4 = 0,08$ yoki 8 % Demakin investitsiyalarning o‘shish sur‘ati 8% bo‘lishi talab etiladi.

E. Domar modelidan kelib chiqadigan umumiy xulosa shuki iqtisodiy o‘shishni ta‘minlash uchun investitsiyalar hajmini oshirish, bu uchun esa jamg‘arish normasi hamda fan texnika taraqqiyoti orqali kapitalning samaradorligini oshirish zarur.

31.4. Iqtisodiy o‘shishning R.Xarrod modeli

Agar E. Domar o‘z modelida investitsiyalarni ekzogen tarzda berilgan miqdordan olgan bo‘lsa R.F. Xarrodning 1939-yilda ishlab chiqilgan iqtisodiy o‘shish modeliga akselerator prinsipi va tadbirkorlarning kutishiga asoslangan endogen funksiyasi ham kiritildi. Akselerator prinsipiga ko‘ra nafaqat investitsiyalar ishlab chiqarishning o‘shishini keltirib chiqaradi, balki ishlab chiqarish va daromadlarningning o‘sgan hajmi ham investitsiya jarayonlarining jadallashishiga olib keladi.

R.Xarrod o‘z modeliga uch tenglamani kiritadi: 1) kafolatlangan o‘shish surti tenglamasi;

2) haqiqiy o‘shish sur‘ati tenglamasi; 3) tabiiy o‘shish sur‘ati tenglamasi.

R Xarrod modelida haqiqiy o‘shish sur‘ati ishchi kuchining o‘shish sur‘ati va kapital unumdorligining o‘shish sur‘ati bilan belgilanadi.

$$Gr * c = s, \text{ bu yerda}$$

Gr - YalMning haqiqiy qo‘shimcha o‘shish sur‘ati; $\Delta Y / Y$;

c- ishlab chiqarishning kapital talabchanligi koeffitsienti, $I / \Delta Y$;

s– Milliy daromaddagi jamg‘arish hajmi yoki jamg‘arishga o‘rtacha moyillik, S / Y ;

Tadbirkorlar dinamik muvozanat ta‘minlangan o‘shish sur‘ati bo‘lgan kafolatlangan (prognoz qilingan) o‘shish sur‘atiga asoslanib o‘z investitsiya rejalarini tuzadilar. Kafolatlangan o‘shish sur‘ati jamg‘arishga o‘rtacha moyillik darajasini akseleratorga nisbati sifatida aniqlanadi:

$Gw = s / cr$, bu yerda:

Gw – kafolatlangan o‘shish sur‘ati

cr – talab etiladigan kapitaltalabchanlik koeffitsenti (qtgan yillardagi shakllangan darajasi);

Bu ko‘rsatkichlar doimiy bo‘lganligi sababli kafolatlangan o‘shish sur‘atlari ham doimiy bo‘ladi.

Agar haqiqiy o‘shish sur‘ati kafolatlangan o‘shish sur‘atiga mos kelsa iqtisodiyotda barqaror uzluksiz o‘shish ta‘minlanadi. Amaliyotda bunga doimo erishib bo‘lmasligi tufayli qisqa muddatli davriy tebranishlar ro‘y beradi.

Xarrod modelida resurslardan to‘liq foydalangan sharoitda ta‘minlanishi mumkin bo‘lgan maksimal o‘shish sur‘ati tabiiy o‘shish sur‘ati deb nomlandi.

$$Gn * cr = yoki \neq s$$

Iqtisodiyotning barqaror dinamik muvozanati to‘liq bandlilik sharoitida kafolatlangan va tabiiy o‘shish sur‘atlari o‘zaro teng bo‘lganda ta‘minlanadi. Ammo bunday tenglikka davlatning faol aralashuvi orqaligina erishiladi.

Qisqa xulosalar

Iqtisodiy o‘shish to‘liq bandlilik sharoitiga mos keluvchi potensial ishlab chiqarish potensial YaIM hajmining uzoq muddatli ko‘payishi tendensiyasini anglatadi. U o‘shish ishlab chiqarish natijalari va omillarida ro‘y beradigan miqdor va sifat o‘zgarishlarini xarakterlaydi.

Iqtisodiy o‘shish real YaIM ning, yoki aholi jon boshiga to‘g‘ri keladigan real YaIM ni o‘shish sur‘ati bilan o‘lchanadi.

Iqtisodiy o‘shish taklif, talab va taqsimot omillari bilan belgilanadi.

Iqtisodiy o‘shishni belgilovchi talab omillariga tabiiy resurslar soni va sifati, mehnat resurslari soni va sifati, kapital, texnologiya va boshqalar kiradi.

Bulardan foydalanish usuliga ko‘ra iqtisodiy o‘shish ekstensiv va intensiv turlarga bo‘linadi. Ishlab chiqarish resurslar miqdorini o‘zgartirmagan holda o‘ssa, intensiv omillar hisobiga amalga oshgan hisoblanadi.

Iqtisodiy o‘shish modellari deganda iqtisodiy o‘shishni tahlil qilishda foydalaniladigan, ularning manbalarini aniqlash va qonuniyatlarini ochib berishga xizmat qiluvchi modellar tushuniladi.

Keynschilar (Xarrod, Domar) modellarida iqtisodiy o‘shishning asosiy omil investitsiyalar deb qaraladi. Jamg‘arish normasini ko‘tarish orqali investitsiyalarni

ko'paytirish va ularning samaradorligini oshirish iqtisodiy o'sish shartlari deb qaraladi.

Klassik modellarda iqtisodiy o'sish ishlab chiqarishning barcha omillariga bog'liq, mehnat va kapital o'zaro almashiniladi deb qaraladi. Shunga ko'ra kapitalning ma'lum darajasida mehnatning kapital bilan qurollanganlik darajasi, o'z navbatida ishlab chiqarish hajmi ham turlicha bo'ladi.

Nazorat va muhokama uchun savollar

1. Iqtisodiy o'sish tushunchasi va uni o'lchash usullarini izohlab bering.
2. Iqtisodiy o'sish omillarini ishlab chiqarish, talab va taklif omillariga qaysi tamoyillarga asoslanib bo'linadi?
3. Ekstensiv va intensiv iqtisodiy o'sishning farqlari nimada, sof intensiv o'sishga erishish mumkinmi?
4. Domar modelida investitsiyalar tahlili Keyns tahliliga nisbatan qanday farq qiladi?
5. Domar modelining asosiy o'zgaruvchilariga tavsif bering va uning mohiyatini tushuntiring?
6. Iqtisodiy o'sishning Xarrod modeli Domar modelidan qaysi jihatlariga ko'ra farq qiladi?

32- bob. IQTISODIY O‘SISHNING NEOKLASSIK MODELLARI

32.1. R.Solouning neoklassik modeli asoslari

Iqtisodiy o‘shning dastlabki neoklassik modellari 1950-1960 yillarda, ya’ni dinamik muvozanat muammosiga e’tibor susaygan va birinchi planga nafaqat foydalanilmagan quvvatlar hisobiga, balki shu bilan birga yangi texnikani joriy qilish, unumdorlikni oshirish va ishlab chiqarishni tashkil qilishni yaxshilash hisobiga potensial mumkin bo‘lgan o‘sh sur’atlariga erishish muammosi chiqqan davrda paydo bo‘ldi.

Shu sababli iqtisodiy o‘sh muammosining nafaqat nazariy asoslari, balki uni tahlil qilishning uslublari ham o‘zgardi. Bu davrda rivojlangan davlatlar iqtisodiyotida yirik firmalarning roli keskin o‘sd. Bu firmalar o‘z investitsiyalarini strategik rejalashtirish uchun, iqtisodiy o‘shning neokeynscha modellariga tayangan holda, mikrodarajada o‘shning dinamik modellarini tuza boshlashdi. Ta’kidlangan modellarni tuzishda firmalar chiziqli dasturlash uslublaridan va V.Leontevning ishlab chiqarish funksiyasidan foydalanishdi.

Yirik firmalarning mustaqil iqtisodiy siyosat yuritishga va iqtisodiy o‘shga erishishga intilishlari neoklassik yo‘nalish vakillarini iqtisodiy o‘shning neokeynscha modellariga muqobil bo‘lgan o‘sh modellarini yaratishga faol kirishishga undadi.

Bu yo‘nalish vakillari (amerikalik iqtisodchi R. Solou va ingliz iqtisodchisi J.Mid hamda boshqalar), bozor raqobati sharoitida yirik firmalarga o‘z resurslaridan potensial o‘shga erishish maqsadi to‘laroq foydalanish imkonini berish uchun, iqtisodiyotga davlat aralashuvini qat’iy cheklash lozim degan fikrni olg‘a surishdi.

Ular yaratgan modellarning metodologik asoslari bo‘lib, shuningdek, mehnat, kapital va erni ijtimoiy mahsulotni yaratishning mustaqil omillari deb qarovchi ishlab chiqarish omillarining klassik nazariyasi xizmat qildi.

Neoklassik modellarning navbatdagi metodologik asosi bo‘lib chekli (chegaralangan) unumdorlik nazariyasi hisoblanadi. Ushbu nazariyaga ko‘ra ishlab chiqarish omillari egalari oladigan daromad, bu omillarning chekli mahsulotlari (omillarning qo‘shimcha birligi hisobiga yaratilgan qo‘shimcha mahsulot) bilan belgilanadi.

Noklassik maktab nazariyotchilari iqtisodiy o‘shning neokeynscha nazariyalarini uch jihat bo‘yicha tanqid qildilar:

- birinchidan, ular e’tiborni faqat iqtisodiy o‘shning bir omiliga-kapital jang‘arishga (investitsiyalarning qo‘shimcha o‘shiga) qaratishdi. Boshqa omillar (ayniqsa texnologik taraqqiyot bilan bog‘liq bo‘lgan holatlar, ya’ni ishchi kuchining ma’lumot darajasi va malakasining o‘shishi, ishlab chiqarishni tashkil etishning yaxshilanishi hamda boshqalar) ular e’tiboridan chetda qoldi. Neoklassiklar bo‘sh turgan ishlab chiqarish quvvatlaridan foydalanish uchun yangi ishchi kuchini jalb qilish hisobiga ham ishlab chiqarishning qo‘shimcha o‘shini ta’minlash

mumkin deb hisobladilar;

- ikkinchidan, neokeynschilar ishlab chiqarishning kapital talabchanligi koeffitsienti- s ($s = I / \Delta Y$)ni o'zgarimas deb qaradilar. Neoklassik modellar esa ikki ishlab chiqarish omilini (kapital va mehnatni) hisobga olgan holda va ularning o'zaro bir-birini almashtirishini (substitut ekanligini) ko'zda tutib bu koeffitsent o'zgarishi mumkinligini nazarda tutadilar. Bundan esa, ishlab chiqarishning berilgan texnik qurollanishi darajasida, belgilangan ishlab chiqarish hajmiga resurslarning turli kombinatsiyalarini qo'llab erishish mumkin degan xulosa chiqadi;

- uchinchidan, neokeynschilar bozor mexanizmining muvozanatni avtomatik tiklash qobiliyatini etarlicha baholamadilar. Neokeynschilardan farqli ravishda, neoklassiklar faqatgina raqobatga asoslangan bozor tizimigina iqtisodiy o'sishning balanslashganligini ta'minlashi mumkin deb hisobladilar. Ular iqtisodiy o'sishning balanslashganligini ta'minlash raqobat mexanizmidan tashqari barqaror pul tizimiga ham bog'liq, raqobat mexanizmi va barqaror pul tizimi bozor muvozanatini avtomatik tiklaydi deb hisoblashdilar. Shu sababli ular, davlatning iqtisodiyotga aralashuviga barqarorlikni buzuvchi omil sifatida qarab, inflatsion davlat xarajatlariga qarshi chiqdilar.

Neoklassik modellar barcha iqtisodiy jarayonlarning aniq holatini qamrash xususiyatiga egadir.

Birinchi neoklassik model R. Solou tomonidan 1956 yilda "Iqtisodiy o'sish nazariyasiga hissa" asarida tasvirlab berildi va so'ngra 1957 yilda "Texnologik taraqqiyot va agregativ ishlab chiqarish funksiyasi" nomli asarida rivojlantirildi.

R.Solou modeli mutanosib iqtisodiy o'sishning zarur sharti yalpi talab va yalpi taklifning tengligi hisoblanadi.

Modelda yalpi taklif Kobb-Duglasning ishlab chiqarish funksiya bilan ifodalangan⁷⁵. Bu funksiya bir tomondan ishlab chiqarish hajmi va ikkinchi tomondan foydalanilayotgan omillar hamda ularning o'zaro kombinatsiyalari o'rtasidagi funksional bog'liqlikni aks ettiradi, ya'ni:

$Y = f(L, K, N)$, modelda yuqori texnik rivojlanish bosqichida erning kichik ahamiyatga egaligi tufayli ishlab chiqarish faqat mehnat resurslari va kapitalga bog'liq deb olingan.

$Y = f(L, K)$, funksiyaning kengaytirilgan ko'rinishi quyidagicha:

$$Y = (\Delta Y / \Delta L) L + (\Delta Y / \Delta K) K,$$

bu yerda: $\Delta Y / \Delta L$ - mehnatning chekli mahsuloti (MPL); $\Delta Y / \Delta K$ - kapitalning chekli mahsuloti (MPK).

Solou modeliga ko'ra yalpi ishlab chiqarish hajmi mehnat unumdorligini -bitta ishchiga to'g'ri keladigan mahsulot ishlab chiqarish hajmini ($y = Y/L$) o'stirish hisobiga ta'minlanishi mumkin.

⁷⁵ N. Gregory Mankiw. Macroeconomics. 8 th edition. Harvard University. (NY.: Worth Publishers, 2013): 207

Ayni paytda mehnat unumdorligi kapital bilan qurollanganlik darajasining ($k = K/L$) funksiyasi, ya'ni $y = f(k)$


Bu yerda $f(k) = F(k, D)$

Kapital (fond) bilan qurollanganlik darajasining o'sishi esa jamg'arish normasiga bog'liq.

Modelda yalpi talab investitsion va iste'mol xarajatlari bilan belgilanadi deb olinadi.

$$y = c + i$$

Davlat xarajatlari va sof eksport ko'rsatkichlari ham iste'mol va investitsiyalar tarkibiga kiritib yuboriladi.



32.1.-rasm. Bitta ishchiga to'g'ri keladigan ishlab chiqarish (y) va talab $(c+i)$ ⁷⁶

Daromad, shakllangan jamg'arish normasiga ko'ra, iste'mol va jamg'arishga bo'linishini hisobga olib iste'mol funksiyasini quyidagi ko'rinishda yozishimiz mumkin:

$$c = (1-s)y$$

Bu yerda s -jamg'arish normasi.

Bundan $y = c + i = (1-s)y + i$, o'z navbatida $i = sy$ kelib chiqadi. Boshqacha aytganda muvozanat holatida investitsiyalar jamg'armalarga teng va daromadga proporsionaldir.

Talab va taklifning tengligi shartini quyidagicha yozish mumkin: $f(k) = c + i$
 $f(k) = i/s$ Ishlab chiqarish funksiyasi tovarlar bozorida

taklifni, kapital jamg'arish esa ishlab chiqarilgan mahsulotga talabni belgilaydi.

Ishlab chiqarish hajmi dinamikasi kapital (kapital bilan qurollanganlik) hajmiga bog'liq. Kapital hajmi esa uning chiqib ketishi va investitsiyalar ta'sirida o'zgaradi.

Investitsiyalar kapital zahirasini orttiradi, chiqib ketish (amortizatsiya) esa uni kamaytiradi.

Investitsiyalar fond bilan qurollanganlik va jamg'arish normasiga bog'liq. Bu iqtisodiyotda talab va taklif tengligi shartidan kelibchiqadi: $i = sf(k)$. Jamg'arish


⁷⁶ N. Gregory Mankiw. Macroeconomics. 8 th edition. Harvard University. (NY.: Worth Publishers, 2013): 209

normasi (s) k ning har qanday miqdorida mahsulotning investitsiya va iste'molga bo'linishini belgilaydi:

$$y = f(k), i = sf(k), c = (1-s)f(k)$$

32.2. R.Solou modelida kapitalning chiqib ketishi aholi soni o'sishining barqaror muvozanat va iqtisodiy o'sishga ta'siri

Amortizatsiya quyidagicha hisobga olinadi: agar yiliga eskirish hisobiga kapitalning qayd etilgan d qismi chiqib ketadi deb hisoblasak (chiqib ketish normasi), chiqib ketish miqdori kapital hajmiga proporsional bo'ladi va dk ga teng bo'ladi. Grafikda bu aloqadorlik koordinata boshidan d burchak koeffitsenti bilan chiquvchi to'g'ri chiziq bilan aks ettiriladi.(32.2-rasm).



32.2.-rasm. Investitsiyalar va kapitalning chiqib ketishining iqtisodiy muvozanatga tasiri⁷⁷

Investitsiyalar va chiqib ketishning kapital zahirasi dinamikasiga ta'sirini $\Delta k = I - d$, yoki investitsiyalar va jamg'armalar tengligidan foydalanib $\Delta k = s \cdot f(k) - dk$ kuzinishida yozish mumkin. Kapital zahirasi (k) investitsiyalar hajmi kapitalning chiqib ketishi hajmiga teng bo'lguniga qadar, ya'ni $s \cdot f(k) = dk$ shart bajarilguniga qadar oshib boraveradi. Shundan so'ng bitta ish bilan band xodimga to'g'ri keladigan kapital zahirasi (fond bilan qurollanganlik) o'zgarmaydi ($\Delta k = 0$).


Investitsiyalar hajmi kapitalning chiqib ketishi hajmiga teng bo'lgan sharoitdagi kapital zahirasi darajasi fond bilan qurollanganlikning muvozanatli (barqaror) darajasi deyiladi va k^* deb belgilanadi. k^* ga erishilganda iqtisodiyot uzoq muddatli muvozanat holatida bo'ladi.

Muvozanat barqaror bo'lishiga sabab k ning dastlabki miqdori qandayligidan qat'iy nazar iqtisodiyot muvozanat holatiga, ya'ni k^* ga intiladi. Agar k ning boshlang'ich miqdori k^* dan kam bo'lsa, yalpi investitsiyalar ($sf(k)$) chiqib ketish miqdori (dk) dan ko'p bo'ladi va kapital zahirasi sof investitsiyalar miqdoriga ko'payib boradi. Aksincha $k_2 > k^*$ bo'lsa, investitsiyalar amortizatsiyadan kamligini

⁷⁷ N. Gregory Mankiw. Macroeconomics. 8 th edition. Harvard University. (NY.: Worth Publishers, 2013): 211

anglatadi. Bu holda kapital zahirasi muvozanatli darajaga qadar kamayib boradi (32.2.-rasm).

Jamg'arish normasi fond bilan qurollanganlikning barqaror darajasiga ta'sir ko'rsatadi. Jamg'arish normasining s_1 holatdan s_2 holatga siljishi investitsiyalar egri chizig'ini yuqoriga $s_1f(k)$ holatdan $s_2f(k)$ holatga qadar siljishini keltirib chiqaradi (32-3. -rasm).



32.3. -rasm. Jamg'arish normasining iqtisodiy muvozanatga ta'siri⁷⁸

Boshlang'ich holatda iqtisodiyot kapitalning barqaror zahirasi k^*1 ga ega bo'lib, investitsiyalar amortizatsiyaga teng edi. Jamg'arish normasi oshganidan so'ng investitsiyalar ($I'1 - I1$) miqdorga o'sdi, kapital zahirasi (k^*1) va amortizatsiya ($dk1$) esa o'zgarmasdan qoldi. Bunday sharoitda investitsiyalar kapitalning chiqib ketishi (amortizatsiya)dan ortiqlik qiladi va kapital zahirasi yangi muvozanat darajasi (k^*2) ga qadar o'sishini keltirib chiqaradi. k^*2 esa fond bilan qurollanganlik va mehnat unumdorligining yuqoriroq darajalari bilan xarakterlanadi.

Solou modeli jamg'arish normasi kapital bilan qurollanganlikning barqaror darajasiga erishishning o'ta muhim omili ekanligini ko'rsatadi.

Jamg'arish normasining o'sishi investitsiyalar hajmining oshishini keltirib chiqaradi. Bu esa asosiy kapital miqdorining ortishiga, o'z navbatida kapital bilan qurollanganlik darajasining (k) ko'tarilishi orqali, pirovard natijaga, ya'ni ishlab chiqarish hajmining (Y) ko'payishiga olib keladi.

Shunday qilib, jamg'arish normasining oshishi barqaror muvozanat sharoitida yuqoriroq ishlab chiqarish va kapital zahirasi darajasiga erishish imkonini beradi. Ammo jamg'arish normasining ortishi qisqa muddatdli davrda, iqtisodiyot yangi barqaror muvozanat nuqtasiga yetgunga qadar, iqtisodiy o'sishni jadallashishiga olib keladi.

Jamg'arish jarayoni ham, jamg'arish normasining oshishi ham barqaror muvozanat holatida aholi jon boshiga ishlab chiqarish hajmining uzluksiz o'sishi

⁷⁸ N. Gregory Mankiw. Macroeconomics. 8 th edition. Harvard University. (NY.: Worth Publishers, 2013): 214


mexanizmini tushuntirish uchun yetarli emas. Ular muvozanatning bir holatidan ikkinchi holatiga o‘tilishini ko‘rsatadi xolos.

Solou modelini keyingi rivojlantirilishida navbat bilan ikki shart olib tashlanadi: aholi soni va uning ish bilan band qismi sonining o‘zgarmasligi hamda texnologik taraqqiyotning mavjud emasligi.

Aholi doimiy (n) sur‘at bilan o‘sadi deb tasavvur qilamiz. Ishchilar sonining ko‘payishi boshqa teng sharoitlarda mehnatning kapital bilan qurollanishi darajasining qisqarishiga olib kelishi mumkin. Natijada, bir ishchiga to‘g‘ri keladigan kapital zahirasi o‘zgarishini ko‘rsatuvchi tenglama quyidagi ko‘rinishga ega bo‘ladi:

$$\Delta k = I - dk - nk \text{ yoki } \Delta k = I - (d+n)k$$

Mehnatning kapital bilan qurolanganligi pasayishi tufayli uni oldingi darajada saqlab turish uchun investitsiyalarning kapital chiqib ketishini qoplaydigan hajmi zarur. Kapital jamg‘arish normasi yuqori bo‘lmasa kapitalning chiqib ketishi, aholi sonining o‘sishi tufayli kapital bilan qurollanganlik darajasi o‘zgarmasdan qolishi yoki pasayib ketishi mumkin.



32.4.-rasm. Aholi soni o‘shining iqtisodiy muvozanatga ta’siri⁷⁹

Matematik jihatdan o‘zgarmas kapital bilan qurolanganlik sharoitidagi iqtisodiyotda barqaror muvozanat sharti quyidagi ko‘rinishga ega bo‘ladi:

$$\Delta k = sf(k) - (d+n)k = 0 \text{ yoki } sf(k) = (d+n)k$$

Tenglamadagi $(d+n)k$ investitsiyalarning kritik kattaligini xarakterlaydi. Ya’ni bir ishchiga to‘g‘ri keladigan kapitalni doimiy o‘zgarmas darajada saqlab turadigan hajmini ifodalaydi.

Aholi o‘shining hisobga olgan holda R . Solou modelini grafik jihatdan ifodalash uchun mehnatning kapital bilan qurollanganligi barqaror darajasini (k^*) deb belgilaymiz. Aniqlaganimizdek, agar bir ishchiga to‘g‘ri keladigan kapital ($k = \text{const}$) bo‘lsa iqtisodiyot muvozanat holatida bo‘ladi. Agar $k_1 < k^*$ bo‘lsa, unda amaldagi

⁷⁹ N. Gregory Mankiw. Macroeconomics. 8 th edition. Harvard University. (NY.: Worth Publishers, 2013): 226

investitsiyalar ularning kritik kattaligidan yuqori va $(k_1) k^*$ ga qadar o'sadi. Agar $k_2 > k^*$, unda investitsiyalar ularning kritik darajasidan past va $(k_2) k^*$ ga qadar pasayadi.

Model iqtisodiyot barqaror holatda bo'lishi uchun investitsiyalar $sf(k)$ kapital chiqib ketishi va aholining o'sishi $(d+n)k$ oqibatlarini qoplashi kerakligini ko'rsatadi. B holda kapital bilan qurollanganlik (k) va mehnat unumdorligi (y) o'zgarish qoladi. Lekin aholi o'sishida kapitalning doimiylikni kapital ham aholiga mos sur'atda o'sishi kerakligini anglatadi: ya'ni:

$$\Delta Y/Y = \Delta L/L = \Delta K/K = n$$

Bundan quyidagi xulosa kelib chiqadi: aholining o'sishi – iqtisodiyotning barqarorlik holati sharoitidagi uzluksiz iqtisodiy o'sishning sabablaridan biri.

Biroq agar aholining o'sishi investitsiyaning oshishi bilan birga bormasa, unda bu bir ishchiga tug'ri keladigan kapital zahirasi kamayishiga olib keladi. Aholining n dan n_1 ga o'sishi $(d+n)k$ chizig'ini yuqoriga $(d+n_1)k$ holatiga siljitadi. Bu esa kapital bilan qurollanganlikni k^* dan k_1^* gacha qisqartiradi.

Shunday qilib, R.Solou modeli aholi o'sishining yuqori sur'atlarga ega bo'lgan davlatlarda kapital bilan qurollanganlik past – demakki, daromadlar ham past bo'lishini tushuntirib beradi.

R.Soluning fikriga ko'ra, barqaror muvozanat sharoitida kapital, mehnat va milliy daromad darajasi bir xil, aholi soni o'sishiga teng sur'atda o'sib boradi. Aholi sonining tez o'sishi iqtisodiyotning o'sish sur'atlari jadallashishiga ta'sir etadi, ammo barqaror muvozanat holatida aholi jon boshiga mahsulot ishlab chiqarish kamayadi.

O'z navbatida, jamg'arish normasining oshirilishi aholi jon boshiga to'g'ri keladigan daromad miqdorini oshiradi va kapital bilan qurollanganlik koeffitsientini ko'tarilishiga olib keladi, lekin barqaror holatdagi o'sish sur'atiga ta'sir ko'rsatmaydi. Shu sababli barqaror holatdagi iqtisodiy o'sishning yagona sharti texnologik taraqqiyotning o'sish sur'ati hisoblanadi.

32.3. Texnologik taraqqiyotning iqtisodiy o'sishga ta'siri. Felpsning «oltin qoidasi»

Iqtisodiy o'sishning investitsiyalar va bandlar sonining oshishidan keyingi uchinchi manbasi bo'lib, texnologik taraqqiyot hisoblanadi. Neoklassik nazariyada texnik (texnologik) taraqqiyot deganda ishlab chiqarishning mashinalashtirilishi emas, balki, ishlab chiqarishdagi sifat o'zgarishlari (ishchilarning ma'lumot darajalari va malakalarining o'sishi, ishlab chiqarishni tashkil qilishning yaxshilanishi, ishlab chiqarish ko'lamining kengayishi) tushuniladi.

Modelga texnologik taraqqiyotning kiritilishi ishlab chiqarish funksiyasini o'zgartirib, u quyidagi ko'rinishga ega bo'ladi:

$$Y = f(K, L \times E)$$

Bu yerda(E)- mehnat birligi samaradorligi (ishchi kuchining salomatligi, ma'lumoti va malakasiga bog'liq):

$(L \times E)$ - doimiy samaradorlik E ga ega shartli mehnat birliklari soni.

E qanchalik katta bo'lsa, mavjud ishchilar soni bilan shuncha ko'p mahsulot ishlab chiqarilishi mumkin.⁸⁰


Texnologik taraqqiyot mehnat samaradorligi(E) ning doimiy surat (g) bilan o'sishga olib keladi. Shuning uchun $g = 2\%$ bo'lganda, mehnatning har bir birligidan qaytim yiliga 2% ga oshadi, bu esa ishlab chiqarish hajmining ishchi kuchi yiliga 2% o'sgandagi kabi o'sishga olib keladi. Texnik taraqqiyotning bunday shakli mehnatni tejaydi deyiladi, (g)– esa mehnatning tejaydigan texnologik taraqqiyotning surati.

Endi texnologik taraqqiyot holatidagi kapital bilan qurollanganlikning barqaror darajasini aniqlash mumkin. Agar bandlarning soni (L) (n) sur'at bilan oshayotgan bo'lsa, samaradorlik (E) esa (g) sur'at bilan o'sayotgan bo'lsa, unda (LE) (n+g) sur'at bilan oshib boradi.

Doimiy samaradorlikka ega bir mehnat birligiga to'g'ri keladigan kapital $k_1 = [K/(LE)]$ ni tashkil etadi. Doimiy samaradorlik bilan mehnat birligiga to'g'ri keladigan ishlab chiqarish hajmi esa $y = Y/(LE)$ ni tashkil etadi. Bunda barqaror muvozanatlik holatiga quyidagi shartda erishiladi:

$$sf(k) = (d+n+g)k$$

Tenglama kapital bilan qurollanganlikning, o'zgarmas samaradorlikka ega bo'lgan mehnat birligiga to'g'ri keladigan kapital va ishlab chiqarishning doimiyligini ta'minlaydigan, faqatgina bitta darajasi (k^*) mavjud ekanligini ko'rsatadi. Bu barqaror holat iqtisodiyotning uzoq muddatli muvozanatini ifodalaydi.(32.5.-rasm).



32.5.-rasm Texnologik taraqqiyotning barqaror muvozanatga ta'siri⁸¹

⁸⁰ N. Gregory Mankiw. Macroeconomics. 8 th edition. Harvard University. (NY.: Worth Publishers, 2013): 236

⁸¹ N. Gregory Mankiw. Macroeconomics. 8 th edition. Harvard University. (NY.: Worth Publishers, 2013): 238

(k_1^*) ning barqaror (qat'iy) holatida texnologik taraqqiyot mavjud bo'lgan sharoitda kapital hajmi (K) va ishlab chiqarish (Y) ($n+g$) sur'at bilan o'sadi. Bir ishchi hisobiga to'g'ri keladigan kapital bilan qurollanganlik (K/L) va ishlab chiqarish (Y/L) (g)- sur'at bilan o'sib boradi. Bu R.Solou modelida texnologik taraqqiyot-turmush darajasi uzluksiz o'sishining yagona sharti ekanligini ko'rsatadi. Shunday qilib, R.Solou modeli iqtisodiy o'sishning 3 manbai-investitsiyalar, ishchi kuchi soni va texnologik taraqqiyot o'rtasidagi o'zaro aloqadorlikni yoritish imkonini beradi.

Davlat iqtisodiy o'sishga jamg'arma me'yori va texnologik taraqqiyotni jadallashtirish orqali ta'sir ko'rsatishi mumkin.

Jamg'arma me'yori qanday bo'lishi kerak? Aniqlaganimizdek muvozanatli iqtisodiy o'sish jamg'armaning turli me'yorlari bilan muvofiqlashadi. Shuning uchun maksimal iste'mol darajasi bilan iqtisodiy o'sishni ta'minlaydigan me'yor optimal bo'ladi. Bunday me'yor "Oltin qoida" ga muvofiq keladi. Jamg'armaning bu me'yoriga mos keladigan kapital bilan qurollanganlik darajasini (k^{**}) bilan iste'molni esa – (C^{**}) bilan belgilaymiz. Oldin biz ishlab chiqariladigan mahsulot iste'mol va investitsiyalarga sarflanadi deb belgilagan edik:

$$Y=C+I$$


bundan $C=Y-I$ kelib chiqadi.

Berilgan parametrlarning o'rniga ular barqaror holatidagi ifodasini qo'ysak, quyidagiga ega bo'lamiz:

$$C^*=f(k^*)-dk^*,$$

bu yerda C^* - barqaror o'sish holatidagi iste'mol.

Iste'mol hajmi maksimal bo'ladigan kapital bilan qurollanganlikning barqaror darajasi "Oltin qoida"ga muvofiq keladi⁸².



32.6.-rasm. Felpsning «oltin qoidasi» bo'yicha iste'molning barqaror darajasi⁸³

⁸² N. Gregory Mankiw. Macroeconomics. 8 th edition. Harvard University. (NY.: Worth Publishers, 2013): 217

⁸³ N. Gregory Mankiw. Macroeconomics. 8 th edition. Harvard University. (NY.: Worth Publishers, 2013): 218

“Oltin qoida” darajasiga mos keladigan kapital bilan qurollanganlik holatida $f(k^*)$ ishlab chiqarish funksiyasi va dk^* chizig‘i bir xil og‘maga ega va ist‘mol maksimal darajaga erishadi.

k^{**} kapital bilan qurollanganlik darajasida kapital zahirasining bir birlikka oshishi ishlab chiqarish o‘shishini keltirib chiqaradi (kapitalning chegaraviy mahsulotiga teng keladigan) va kapitalning d kattalikka chiqib ketishini oshiradi. Shunday qilib, “Oltin qoida”ga mos keladigan k^{**} kapital bilan qurollanganlik darajasida $MPK=d$ shart bajariladi. Aholi o‘shishi va texnologik taraqqiyotni hisobga olgan holda esa $MPK=d+n+g$ shart bajariladi.

Agar iqtisodiyot “Oltin qoida” bo‘yicha ega bo‘lishi mumkin bo‘lgan kapital zahirasidan ortiqcha kapital zahirasi bilan rivojlanayotgan bo‘lsa, unda bu holatda jamg‘arma me‘yorini pasaytirishga yo‘naltilgan siyosatni amalga oshirish zarur. Jamg‘arma me‘yorining kamayishi iste‘molning oshishi va unga muvofiq ravishda investitsiyalarning pasayishiga olib keladi, demak kapital zahirasining barqaror darajasining pasayishiga ham olib keladi.

Agar iqtisodiyot barqarorlik holatida “Oltin qoida” dagidan kam kapital bilan qurollanganlik bilan rivojlanayotgan bo‘lsa, unda jamg‘arma me‘yorini oshirish zarur. Bu investitsiyalarni oshirib iste‘molni pasaytiradi, lekin kapitalning jamg‘arilib borishi bo‘yicha qandaydir vaqtdan boshlab yana o‘sa boshlaydi. Natijada iqtisodiyot yana yangi muvozanat holatiga erishadi ammo oltin qoidaga muvofiq bo‘lgan holda, bunda iste‘mol dastlabkiga nisbatan yuqoriroq darajaga ega bo‘ladi.

R.Solou modeli texnologik taraqqiyotni farovonlikni barqaror oshiruvchi va o‘shishning optimal variantini topishga imkon yaratuvchi yagona asos sifatida ko‘rsatadi. Biroq u texnologik taraqqiyotni tashqi (ekzogen) omil sifatida ko‘rib chiqadi, demakki uni tushuntirmaydi. Ayrim olimlarning fikricha, texnologik taraqqiyotning determinantlari bugungi kunda etarlicha aniq emas. Biroq davlat siyosati turli xil instrumentlardan shu jumladan ilmiy tadqiqot va loyiha – konstruktorlik ishlaridan foydalanib texnologik taraqqiyotni rag‘batlantirishi mumkin. Masalan, patent qonunchiligini mukammallashtirib, ayrim rivojlangan mamlakatlar (AQSh, Yaponiya, Germaniya) uzoq muddat davomida yangi mahsulotni ishlab chiqarish huquqiga monopoliyani berishdi. Soliq to‘g‘risidagi qonunlar ko‘pgina mamlakatlarda ilmiy tadqiqot tashkilotlariga bir qancha imtiyozlar beradi. Maxsus tashkil etilgan milliy ilmiy fondlar fundamental ilmiy tadqiqotlarga subsidiyalar beradi. Hozirgi kunda mablag‘larni inson kapitaliga yo‘naltirish ham muhim masalalardan biri bo‘lib kelmoqda, texnologik taraqqiyotda u asosiy rol ni o‘ynaydi.

32.4. Iqtisodiy o‘shishning J.Mid va A. Lyuis modellari

J.Midning iqtisodiy o‘shish modeli ham neoklassik asoslarga ega. U iqtisodiy o‘shishni chekli unumdorlik qonuni qo‘llaniladigan marjinalistik yondoshuvlar bilan tushuntiradi. O‘z konsepsiyasini J. Mid “Iqtisodiy o‘shishning neoklassik nazariyasi”

(1961 y.) kitobida bayon etdi. Kobb- Duglas funksiyasining zamonaviylashtirilgan variantidan foydalanib, J Mid barqaror dinamik muvozanat imkoniyati tenglamasini keltirib chiqardi.

$$Y=\alpha k+\beta L+r$$

bu yerda: Y-milliy daromadning o'rtacha yillik o'sish surati: k- kapitalning o'rtacha yillik o'sish sur'ati;

L- mehnatning o'rtacha yillik o'sish sur'ati; α - milliy daromadda kapitalning ulushi;

β - milliy daromadda mehnatning ulushi; r- texnologik taraqqiyot sur'ati.

Tenglama, milliy daromadning o'sish sur'ati milliy daromadda ega bo'lgan ulushi bo'yicha mehnat va kapital o'sish sur'atlarining yig'indisiga texnologik taraqqiyot sur'ati qo'shilishidan paydo bo'lgan miqdorga teng bo'lishini ko'rsatadi. Mehnat va texnologik taraqqiyot o'sish sur'atlarini doimiy deb taxmin qilib J. Mid quyidagi xulosaga keldi; iqtisodiy o'sishning barqaror sur'ati kapital o'sishning barqaror sur'atlari va uning milliy daromad o'sish sur'atlari bilan tengligi sharoitida erishiladi. Agar kapitalning o'sish sur'atlari milliy daromadning o'sish sur'atlaridan oshsa, unda bu jamg'arish sur'atlarining o'z-o'zidan pasayishiga olib keladi.

Bunday bog'liqlik J.Midning jamg'arishning milliy daromaddagi ulushi doimiy deb shart kiritganligining natijasidir. Shu sababli kapital jamg'arishning (investitsiyalarning) yuqoriroq sur'atlarini moliyalashtirish uchun zarur bo'lgan jamg'armalarning qo'shimcha o'sishi birichisidan orqada qoladi va unga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Agar kapitalning o'sish sur'ati milliy daromadning o'sish sur'atidan orqada qolsa teskari holat ro'y beradi.

Mehnat unumdorligi o'sish sur'atlarining dinamik muvozanatga ta'sirini ko'rib chiqib J. Mid agar ular kapital jamg'arish sur'atidan oshsa unda chekli mehnat unumdorligining pasayishi natijasida mehnatning kapital bilan almashtirilishi hosil bo'ladi degan xulosaga keldi. Ishlab chiqarish jarayonida

ularning yangi nisbati esa mehnatning ham, kapitalning ham to'liq bandligini ta'minlaydi. Shu bilan birga J. Mid real holatda mehnatning va kapital jamg'arilishining o'sish sur'atlari o'rtasida muvofiqlikka amal qilish zarurligiga e'tibor qaratgan. Aks holda, agar mehnatning o'sishi shunga muvofiq kapital oshishi bilan birga bormasa ishlab chiqarishning o'sishi ro'y bermaydi, chunki ishchi kuchining o'sishi ortiqcha bo'lib ishsizlik vujudga keladi. Agar kapital mehnat unumdoligini o'sish sur'atlaridan tezroq o'ssa, unda ortiqcha ishlab chiqarish quvvatlari hosil bo'ladi. Biroq bu holda ham dinamik muvozanatga erishish usullari mavjud. J. Mid bozorlarning neoklassik nazariyasiga asoslanib ularni ko'rsatadi.

Bunda, mehnat bozorida ishsizlikning vujudga kelishi raqobatni kuchaytiradi, bu esa o'z navbatida ish haqi stavkalarining pasayishiga va kapitalning foydaliligining o'sishiga olib keladi. Natijada jamg'arish sur'atlari oshadi va ishchi kuchining o'sish sur'atlari bilan tenglashadi. J. Mid modelida davlat pul-kredit

siyosatidan foydalangan holda faqatgina bilvosita barqarorlashtiruvchi rolini bajarishi kerak. Faqat shugina daromadlar va jamg'armalarni qayta taqsimlashning, resurslarning zarur bandligi va barqaror iqtisodiy o'sishni ta'minlaydigan, samarali mexanizmini yaratish imkonini beradi.

A. Lyuis o'z modelida ishchi kuchi zahirasi (rezerv) ni iqtisodiy o'sishning asosi sifatida ko'rib chiqadi. Shuning uchun uning fikricha, bu model "aholi zichligi yuqori, kapital taqchil, tabiiy resurslar esa cheklangan" davlatlar uchun qo'l keladi. Bunday mamlakatlarga A. Lyuis Hindiston, Pokiston, Misr va boshqalarni kiritadi.

A. Lyuis o'z konsepsiyasida erkin bozor g'oyasiga asoslanganligi tufayli, tahlil markaziga tadbirkor shaxsini qo'yadi. U bozorda mavjud ishlab chiqarish omillaridan, ya'ni mehnat, yer va kapitaldan foydalanish xususida qarorlar qabul qiladi, Model iqtisodiyotning ikki sektori: agrar va sanoat sektorlarini hisobga olgan holda quriladi. Agrar sektorda mehnat resurslarining taklifi cheklanmagan, mehnat unumdoligi juda past, chekli mahsulot esa nolga teng deb taxmin qilinadi. Bu esa qishloq xo'jaligidan ishchi kuchining "olinishi" ishlab chiqarish qisqarishiga olib kelmasligini anglatadi. Qishloq xo'jaligida ishchilarning ish haqi yashash minimumi darajasida bo'lgani sababli, bu ishchi kuchidan sanoatda foydalanish hech qanday muammo tug'dirmaydi. Bu sektordagi mehnat unumdoligi agrar sektordagidan ancha yuqori.

Shunday qilib, A. Lyuis modelining vazifasi mehnat resurslarining bir qismini qishloq xo'jaligidan sanoatga qayta taqsimlash va bu bilan iqtisodiy o'sish sur'atining tezlanishiga erishish hisoblanadi. Bu jarayonda asosiy mexanizm bo'lib tarmoqlararo bozor xizmat qiladi.

Sanoat ishlab chiqarish mashtablarini kengaytirib, o'z ishchilarining daromadlari o'sishini ta'minlaydi, bu esa ichki talabni oshishiga ko'maklashadi. Bunda tadbirkorlar o'sib borayotgan daromadlarni ishlab chiqarishni kengaytirishga yo'naltiradilar. Bu daromadlar keyinchalik iqtisodiy o'sishga dinamik ta'sir ko'rsatadi.

Iqtisodiy o'sishning o'zini A. Lyuis ikki turga ajratadi: sanoatda uning manbai bo'lib qo'shimcha ishchi kuchidan foydalanish hisoblanadi (ekstensiv tur), qishloq xo'jaligida esa- chekli mehnat unumdorligining oshishi (intensiv tur). Iqtisodiy o'sishning bu ikki turi investitsiyalashning ikki turli xil funksiyalariga muvofiq keladi. Sanoatda gap asosan kapitalni kengaytirish ustida boradi. Shuning uchun investitsiyalarning berilgan funksiyasi yakuniy sanoat mahsulotiga talabga bog'liq bo'ladi. Uning o'sishi daromadlar oshishi va investitsiyalar kengayishini rag'batlantiradi. Qishloq xo'jaligida, aksincha, investsiyalar daromadlarning qisqarishiga bog'liq holda kengayadi: ish haqiga xarajatlarning ko'payishi fermerlarni qo'l mehnatini mashina mehnati bilan almashtirishga majbur qiladi.

O'z modelini rivojlanayotgan mamlakatlar uchun ishlab chiqib A. Lyuis uni industrial bosqichni o'tgan g'arbiy mamlakatlar uchun to'g'ri kelmaydi, deb hisoblagan. Boshqa mualliflar esa, aksincha, uni rivojlangan iqtisodiyot sharoitlari uchun maqbul deb hisoblashadi. Sh. Kindlberger o'z tahlilida ko'rsatganidek

iqtisodiy o‘shning mehnat va kapital bilan bog‘liqligining eng yaxshi namunasi bo‘lib GFR, Italiya, Shveysariya, va Niderlandiya hisoblanadi. Buyuk Britaniya, Belgiya, Shvetsiya, Norvegiya va Daniya kabi mamlakatlar ham A. Lyuis modelini teskari bog‘liqlikda bo‘lsada, tasdiqlashdi: bu mamlakatlarda iqtisodiy o‘shning past sur‘atlari mehnat resurslari va ishlab chiqarish quvvatlaridan cheklangan holda foydalanish bilan bog‘liq edi. Yana bir guruhni sezilarli ishchi kuchi ortiqchaligini boshidan kechirgan mamlakatlar tashkil etadi (Ispaniya, Portugaliya, Gretsiya, Yugoslaviya, Turkiya). Ularning iqtisodiy o‘shini ham Sh. Kindlberger fikricha A. Lyuis modeliga to‘g‘ri keladi. Bu mamlakatlar nafaqat o‘z sanoatini balki boshqa yevropa davlatlari sanoatini ham ishchi kuchi bilan ta‘minlar edi va butun qit‘a uchun o‘ziga xos mehnat zahirasi fondi vazifasini bajargan edi.

Agar barcha modellarni umumlashtirgan holda o‘rganadigan bo‘lsak, bugungi kunda ayni bir modelning iqtisodiyotda to‘liq qo‘llanilayotganligini ko‘rishning iloji yo‘q deb o‘ylaymiz. Keynschilar bu borada iqtisodiy o‘shni modellashtirishda asosiy e‘tiborni investitsiya va davlat boshqaruviga qaratsa, neoklassiklar davlat boshqaruvini inkor etgan holda barcha ishlab chiqarish omillarining samadorlik jihatlarini ustuvor deb hisoblashadi.

Bizning fikrimizcha biror davlat o‘z iqtisodiyotini barqaror rivojlantirish yo‘lida ayni bir iqtisodiy o‘sh modelini tanlamasdan, o‘z mamlakat tabiiy, ijtimoiy hamda iqtisodiy salohiyatidan kelib chiqqan holda, aholining urf- odatlari, an‘analari va mentalitetidan kelib chiqqan holda o‘z iqtisodiy o‘sh modelini ishlab chiqishi lozimdir. Shundan so‘ng bu mamlakat iqtisodiyoti turli xil tashqi ta‘sirlarga sezuvchanlik darajasi kamayadi va jahon iqtisodiyoti bo‘ylab sodir bo‘layotgan inqirozlarga qarshi chidamlilik darajasi yetarlicha yuqori bo‘ladi. Bunga yaqqol misol sifatida mamlakatimiz Birinchi Prezidenti tomonidan ishlab chiqilgan rivojlanishning “O‘zbek modeli” ni keltirishimiz mumkin.

Qisqa xulosalar

Neoklassik nazariyasi vakili Robert Solou (1924 yilda tug‘ilgan) o‘z modelida jamg‘armalar, mehnat resurslari o‘shini va ilmiy-texnik taraqqiyotning aholi turmush darajasi va uning dinamikasiga ta‘sir qilish mexanizmini aniqladi. Ushbu model iqtisodiy o‘shning muvozanatli traektoriyalarini tadqiq qilishga mo‘ljallangan bo‘lib, differensial tenglamalar tizimi shaklida namoyon bo‘ladi. Mazkur model o‘sayotgan asosiy kapitalning jon boshiga mahsulotlar ishlab chiqarish hajmini oshirishga olib kelishi mexanizmini ko‘rsatadi. R. Solouning asosiy xulosasi shuki, uzoq muddatda iqtisodiy o‘sh sur‘atlari kapital qo‘yilmalar oshishiga emas, balki texnologik rivojlanish omiliga bog‘liq bo‘ladi. SHunday ekan, uningcha doimiy texnik rivojlanish va resurslardan samarali foydalanish iqtisodiy o‘shning asosiy omillari hisoblanadi.

Dj. Mid modeli ham neoklassik asoslarga ega bo'lib, iqtisodiy o'sishni marjinalistik yondashuvlar orqali tushuntiradi. O'z konsepsiyasini Dj. Mid "Iqtisodiy o'sishning neoklassik nazariyasi" (1961 y.) nomli kitobida ifodalagan.

Dj. Mid modelida davlat faqatgina pul-kredit siyosatidan foydalanilgan holda barqarorlashtiradigan vazifani bajaradi. Faqatgina shu resurslarning zarur bandligi va barqaror iqtisodiy o'sishning ta'minlaydigan daromad va jamg'armalarning qayta taqsimlash mexanizmini yaratishga imkon beradi.

Nazorat va muhokama uchun savollar

1. Iqtisodiy o'sishning neoklassik modellari neokeynscha modellardan qaysi jihatlariga ko'ra farq qiladi?
2. R. Solouning iqtisodiy o'sish modeli qanday nazariy asoslarga ega?
3. Barqaror dinamik muvozanat deganda iqtisodiyotning qanday holati tushuniladi?
4. Solouning iqtisodiy o'sish modelida jamg'arish normasining iqtisodiy o'sishga ta'siri qanday izohlangan?
5. Kapitalning chiqib ketishini iqtisodiy o'sishga ta'sirini tushuntirib bering?
6. Aholi sonining o'sishi kapital bilan qurollanganlik darajasiga va ishlab chiqarish hajmiga qay yo'sinda ta'sir ko'rsatadi?
7. Solou modelidagi texnologik taraqqiyotning mohiyatini izohlang.
8. Felpsning "oltin qoidasi" mohiyatini tushuntirib bering.
9. J. Mid o'z modelida mehnat unumdorligi va kapital jamg'arishining o'sishi sur'atlari o'rtasidagi bog'liqlik qanday ifodalangan?
10. A. Lyuis modeliga ko'ra iqtisodiy o'sishni ta'minlash shartlari nimalardan iborat?

33-bob . XALQARO SAVDO NAZARIYASI

33.1. Xalqaro savdoning zaruriyati va uning asosiy ko‘rinishlari

Hozirgi zamon iqtisodiyotining ochiqlik darajasi ya'ni mamlakatlarning ixtisoslashuvi va ular o'rtasida kooperatsiya chuqurlashib bormoqda. Mamlakatlar o'z iqtisodiyotini rivojlantirish, iqtisodiy muammolarni hal qilish borasida tadbirlar ishlab chiqish va ularni amalga oshirishda bu holatlarni etiborga olishi shart.

Jahon savdosi tashqi iqtisodiy aloqalarning asosiy shaklidir. Uning kengayishi va chuqurlashuvi natijasida kapitalni chetga chiqarish imkoniyatlari yuzaga keldi va unga bog'liq ravishda xalqaro moliya-valuta, kredit munosabatlari rivojlandi.

Tashqi savdoning vujudga kelishi ikki muhim obyektiv sabab bilan izohlanadi.

Birinchi, bu tabiiy va xom ashyo resurslarining mamlakatlar o'rtasida notekis taqsimlanganligi. Eng katta hududga ega bo'lgan yoki rivojlangan davlatlar ham barcha resurslar bilan o'zini to'liq ta'minlay olmaydi. Ular o'zlarida ortiqcha bo'lgan resurslarni eksport qilishga va mamlakatda taqchil bo'lgan resurslarni import qilishga majburlar.

Xalqaro savdo rivojlanishining zarurligini belgilovchi ikkinchi muhim sabab shundaki hamma mamlakatlar ham barcha turdagi mahsulotni bir xil samaradorlik bilan ishlab chiqara olmaydi. Ya'ni bir tovar Yaponiyada arzon ishlab chiqarilsa, ikkinchi tovar O'zbekistonda arzon ishlab chiqarilishi mumkin. Shu sababli resurslardan samarali foydalanish maqsadida mamlakatlar ixtisoslashadilar va o'zaro savdo-sotiqni yo'lga qo'yadilar.

Bu ikki obyektiv sabab har qanday milliy iqtisodiyotning takror ishlab chiqarishi jarayonida xalqaro savdoning ahamiyatini aniqlaydi. 90-yillarning boshlarida xalqaro savdo hajmi AQShda yalpi milliy mahsulotning 16-18 foizini, Germaniyada 30-39 foizini tashkil etdi. Shu davrda O'zbekiston yalpi milliy mahsulotida tashqi savdoning ulushi 10-12 foiz atrofida bo'ldi.

Tashqi savdo xalqaro ayirboshlashning an'anaviy shakli sifatida quyidagi ko'rinishlarni o'z ichiga oladi:

- mahsulotlarni ayirboshlash: yoqilg'i-xom ashyo mahsulotlari, qishloq xo'jaligi mahsulotlari, sanoat mahsulotlari;
- xizmatlarni ayirboshlash: muhandislik-maslahat xizmatlari;
- transport xizmatlari, sayyohlik va boshqa xizmatlar. Hozirgi vaqtda xizmatlarning jahon eksportidagi hisyasi 30 foizdan oshib ketdi;
- yangi ilmiy-texnik ma'lumotlarni ayirboshlash: litsenziyalar va «nou-xou»lar. Ular hissasiga xalqaro savdo aylanmasining 10 foiziga yaqini to'g'ri keladi.

Xalqaro savdo mahsulotlari, xizmatlar va fan-texnika ma'lumotlarini ayirboshlashning barcha ko'rinishlari tashqi savdo operatsiyalari yordamida amalga oshiriladi. Ular o'z navbatida eksport, import, reeksport va reimport operatsiyalariga bo'linadi.

Eksport operatsiyasi - mahsulotlarni chet mamlakatlarga chiqarish.

Import operatsiyasi - mahsulotni xorijiy sherikdan sotib olish va uni mamlakatga olib kelish.

Reeksport operatsiyasi - avval import qilingan va qayta ishlov berilmagan mahsulotni chet elga olib chiqib sotish.

Reimport operatsiyasi - avval eksport qilingan va u erda qayta ishlov berilmagan mahsulotni chet elda sotib olish va mamlakatga olib kelish.

33.2. A.Smitning mutlaq ustunlik nazariyasi

Shu paytga qadar yuzaga kelgan barcha xalqaro savdo nazariyalari xalqaro savdoni erkinlashtirish barcha mamlakatlar uchun foyda keltiradi degan fikrni ilgari suradi. Erkin tashqi savdoning zarurligi va foydaliligi to'g'risida dastlabki nazariyalardan biri A.Smitning **mutlaq ustunlik** nazariyasidir. Bu nazariyaga ko'ra har bir mamlakat undagi mavjud sharoitlar va resurslar o'ziga xosligiga tayangan holda ma'lum bir tovarni eng kam xarajatlar hisobiga (yoki vaqt birligida bu tovarni eng ko'p) ishlab chiqirish imkoniyatiga ega. Shunday ekan mamlakat mutlaq ustunlikka ega bo'lgan tovar ishlab chiqarishga ixtisoslashadi va ushbu tovarning o'z iste'molidan ortiqcha qismini sotadi hamda boshqa tovarlarni sotib oladi. Chunki bu tovarlar ularni ishlab chiqarishda mutlaq ustunlikka ega bo'lgan davlatlarda ancha arzon ishlab chiqarilgan bo'ladi. Natijada har ikki davlat ham kam resurs sarflab ko'proq mahsulotga ega bo'ladi.

Masalan, O'zbekiston asosan paxta mahsulotlarini etishtirishga ixtisoslashganligi uchun boshqa mahsulotlarga nisbatan ko'proq shunga e'tiborni qaratish lozim. Chunki, O'zbekiston qishloq xo'jaligi, ob-havosi va qolaversa, butun respublika sharoiti paxta etishtirishga moslashgan va unga kam miqdorda mehnat va moliyaviy resurslarni sarf qilib, yuqori hosil olish texnologiyasiga ega. Shuningdek, boshqa mamlakatlar ham o'zi ixtisoslashgan sohaga ko'proq e'tiborni qaratishsagina dunyo bo'yicha ko'proq mahsulot ishlab chiqariladi va xalqaro savdoda ham katta muvaffaqiyatlarga erishish mumkin. Demak, shu yo'l bilan dunyo aholisining talablarini maksimum qondirish imkoniyatiga erishiladi.

Ammo qaysidir mamlakat hech qaysi mahsulot ishlab chiqarish bo'yicha dunyoda mutlaq ustunlikka ega bo'lmasligi mumkin. Bu esa shu mamlakat hamma tovarlarni chetdan keltiradi-mi degan savolni tug'diradi. Agar shunday bo'lsa importni bu mamlakat qaysi mablag'lar hisobiga moliyalashtiradi. Bu savolga javob berish borasida mutlaq ustunlik nazariyasi boshi berk ko'chaga kirib qoladi.

33.3. Rikardoning nisbiy ustunlik nazariyasi

D. Rikardo A. Smitning «Mutlaq ustunlik» nazariyasini yanada mulohaza qilish natijasida ushbu nazariya umumiy qoidaning bir qismi ekanligini isbotlab berdi. D. Rikardo «Siyosiy iqtisodning boshlanishi va soliqlar» nomli asarida klassik nazariyani boshi berk ko'chadan olib chiqadi. Uning fikricha, mamlakatlar ishlab

chiqarish samaradorligini ta'minlashda yoki ko'proq ustunlikka ega bo'lgan yoxud kamroq zaiflikka ega bo'lgan mahsulot ishlab chiqarish va sotishga ixtisoslashsalar maqsadga muvofiq bo'ladi. Bunday vaziyatlarda ikki mamlakat o'rtasidagi savdo ko'proq imkoniyatlar olib keladi. Har bir mamlakat o'zi ixtisoslashgan mahsulotlarni ishlab chiqaradi va shu orqali yutuqlarga erishadi. Uning mulohazalari "Nisbiy ustunlik nazariyasi"da o'z echimiga ega bo'ldi.

Masalan, Portugaliyada ishlab chiqarilgan movut va Angliyada ishlab chiqarilgan vino individual xarajatlarga ega bo'lsin. Shuni hisobga olgan holda D.Rikardoning "Nisbiy ustunlik" nazariyasini qo'llaymiz:

33.1-jadval

Mahsulot ishlab chiqarish uchun zarur bo'lgan mehnat sarfi

	Movut(bir dona)	Vino(barrel)
Portugaliya	90	80
Angliya	100	120

Yuqoridagi misoldan ko'rinib turibdiki Portugaliya barcha turdagi mahsulotlarni ishlab chiqarishda mutlaq ustunlikka ega. Ya'ni bir dona movut ishlab chiqarish uchun 90 mehnat birligi, bir barrel vino ishlab chiqarish uchun esa 80 mehnat birligini sarflaydi. Ammo, D. Rikardo Portugaliyada movut ishlab chiqarishga nisbatan vino ishlab chiqarish savdosini yo'lga qo'yish ko'proq foyda olib kelishini ta'kidlaydi. Chunki, bir dona movutga nisbatan bir barrel vino ishlab chiqarish arzonga tushmoqda. Bunda nisbiy ustunlikdagi farq har bir millat uchun xalqaro savdoda yutuqqa olib keladi. Ya'ni, Portugaliya bir barrel vinoni (80 birlikda) 120 birlikda Angliyaga sotsa va o'z navbatida, Angliyadan (100 birlikda) ushbu birlikda 1,2 dona movut sotib olish imkoniyatiga ega bo'ladi.

O'zida ishlab chiqarilgan mahsulotga solishtirganimizda esa $\frac{8}{9}$ donaga ega bo'lar edi. Boshqacha aytganimizda, Portugaliyaning vino ishlab chiqarish va movutni sotib olish evaziga oladigan foydasi quyidagicha bo'ladi.

$$120 / 100 - 8 / 9 = 1,2 - 0,8 = 0,31 \text{ dona movut.}$$

Angliya esa movut ishlab chiqarishda kamroq zaiflikka ega. Ya'ni movut ishlab chiqarishga qilinadigan mehnat sarflari o'rtasidagi farq vino ishlab chiqarishdagiga nisbatan kamroq. Demak movut ishlab chiqarishga ixtisoslashish hisobiga xalqaro savdodan Angliya ham yutadi. Ya'ni, movut ishlab chiqarib, uni Portugaliyaga sotish hisobiga $\frac{11}{8}$ barrel vino (o'zidagiga nisbatan $\frac{5}{6}$ barrel) sotib olishi mumkin. Ushbu vaziyatda Angliyaning yutug'i:

$$\frac{9}{8} - \frac{5}{6} = \frac{7}{24} = 0,29 \text{ barrel vino.}$$

Bu misolda Portugaliya uchun har bir barrel vinoga $\frac{9}{8}$ dona movut sotib olgandagina xalqaro savda foydali hisoblansa, Angliya uchun esa har bir barrel vinoga $\frac{5}{6}$ dona movut almashganda savdo foydali hisoblanadi.

Shunday qilib, erkin savdo xalqaro ixtisoslashuvni rag‘batlantirib, quyidagi imkoniyatlarni yaratadi: har bir mamlakat biror turdagi mahsulot ishlab chiqarishga ixtisoslashishguncha o‘tgan davriga nisbatan kamroq moddiy va mehnat xarajatlari sarflaydigan bo‘ladi. Ammo, bu borada barcha nazariyalar ham savdoda mamlakatlarning pul birliklari ishtorokida amalga oshishi hisobga olinmagan. Chunki, mamlakatlar o‘zaro hisob-kitoblarni amalga oshirish uchun valutarini almashtirishadi. D. Rikardo ushbu vaziyatni ham tushuntirib bera olgan. U izohlaganidek yuqorida keltirilgan imkoniyat valutarini almashtirish sharoitida ham saqlanib qoladi. Bu vaziyatda eksport-import to‘lovlari o‘zaro balansga ega emas. Bunday vaziyat valuta kurslaridagi o‘zgarishlar hisobiga yoki biror bir mamlakatdagi barcha baholarni o‘zgartirish hisobiga bartaraf etiladi. Yuqoridagi misol mavhum xususiyatga ega. U aniq vaziyatlarga asoslanishi uchun:

- mehnat savdo qilayotgan mamlakatlar o‘rtasida emas, balki mamlakat ichida harakatchan bo‘lishini;
- transport, bojxona xarajatlari, savdo ustamaları va boshqa cheklashlar hisobga olinmasligini;
- mahsulotlarning yangi namunalarni ishlab chiqarishda yangi texnika va texnologiyalarni qo‘llash hamda ularni ko‘p miqdorda seriyali ishlab chiqarishda xarajatlardagi o‘zgarishlar e‘tiborga olinmasligini ta‘minlash imkoniyatlari yaratilishi lozim.

Angliya va Portugaliya misolida keltirilgan vaziyatlarda xalqaro savdo narxlarining keng amal qilayotgan shaklini qo‘llash mumkin. Chunonchi, bir barrel Portugaliya vinosini Angliyada tannarxidan kam narxda (80) va sotib olingan bahodan (120) yuqori narxda sotmaslik kerak. Shuningdek, angliyaliklar movutidan Portugaliyada (90 dan 100 gacha) shunday tartibda sotilishi kerak.

Mahsulotlar bahosi o‘rtasidagi o‘zaro nisbat aniqlab olingandan keyin

«savdo sharoiti» (terms of trade) tushunchasi savdo sharoitini aniqlab olish uchun esa “savdo sharoiti indeks” tushunchasi kiritilgan. Bu indeks quyidagi formula orqali aniqlangan:

$$\text{Savdo sharoiti indeksi} = \frac{\text{Eksport narxlar indeksi}}{\text{Import narxlar indeksi}} \cdot 100 = \frac{E_i}{I_i} \cdot 100$$

Indeksning o‘sishi (masalan, 100 dan 105 gacha) savdo sharoitlarining yaxshilanayotganligini ko‘rsatadi. Ya‘ni, ushbu miqdordagi importga hisob-kitob qilish uchun undan kam miqdorda eksport talab etiladi.

Amaliyotda savdo sharoiti, birinchidan, tovarlar bahosi o‘zgarishi hisobiga, unga bo‘lgan talabning oshishi yoki kamayishiga bog‘liq. Ayrim mahsulot ishlab chiqaruvchilar (masalan, neft va neft mahsulotlari ishlab chiqaruvchilar) narxlarda bo‘layotgan o‘zgarishlarga qaramay, katta yutuqlarga erishadilar.

Ikkinchidan, savdo sharoiti ishlab chiqaruvchilar yoki etkazib beruvchilarning bozorga moslashishiga (egiluvchanligiga) bog‘liq bo‘ladi.

Uchinchidan, savdo sharoiti ishlab chiqarish sharoitlari yoki mahsulotlar iste’molidagi o‘zgarishlarga qarab o‘zgaradi.

Savdo sharoiti indeksi mamlakatning xalqaro savdodagi holati to‘g‘risida ma’lumotlar bersada, ko‘pgina kamchiliklardan xoli emas. Ularning eng asosiylaridan biri mamlakatda umumiy sharoitni yaxshilasada, sotilgan mahsulotlar miqdorini hisobga olmaydi. Boshqacha aytganda, savdo sharoiti yaxshilanishi eksport hajmi qisqarishi va import hajmi oshishiga olib keladi. Bu esa to‘lov balansini yomonlashtiradi.

A. Smit va D. Rikardo nazariyasida ishlab chiqarishga ta’sir qiladigan eng asosiy omil mehnat hisoblangan. Mahsulotlar narxi esa ishlab chiqarish xarajatlariga bog‘liq.

Keyingi tadqiqotlar ishlab chiqarishda asosiy omillar sifatida yer, kapital kabi omillardan foyda olish imkoniyatini hisobga olgan. Agarda, mehnatning bozor bahosi ish haqi sifatida gavalansa, kapitalning bahosi foiz stavkalari ko‘rinishida, erning bahosi renta miqdorida aniqlangan.

33.4. Xeksher – Olinning neoklassik konsepsiyasi

Xalqaro savdodagi zamonaviy qarash tarafdorlari sifatida shved iqtisodchilimlari Eli Xeksher va Bertil Olinlarni (30-yillar) ko‘rsatish mumkin.

E. Xeksher va B. Olinlar «Ishlab chiqarish omillariga bog‘liq holda narxlarni tenglashishi» qoidasini oldinga surgan. Buning ma’nosi shundan iboratki, milliy ishlab chiqarishdagi farqlar ishlab chiqarishning mehnat, yer, kapital va shuningdek, u yoki bu mahsulotga ichki iste’moldagi o‘zgarishlar kabi omillarga bog‘liq.

Ularning qoidalaridagi asosiy vaziyatlar quyidagicha keltirilgan:

1. Mamlakatlar o‘zlarida ortiqcha bo‘lgan ishlab chiqarish omilini ko‘p talab qiladigan mahsulotlarni eksport qilishadi va aksincha, o‘zlarida taqchil bo‘lgan ishlab chiqarish omillarini ko‘p talab qiladigan mahsulotlarni import qiladilar.

2. Xalqaro savdo yo‘lidagi cheklashlar bekor qilinsa tovarlarning turli mamlakatlardagi «omil narxi» (tannarxi) ning tenglashishi kabi o‘zgarishlar kuzatiladi.

3. Mahsulotlar eksporti o‘rnini asta sekin ishlab chiqarish omillari eksporti egallaydi.

Agar mamlakatdagi bir ishlab chiqarish omili miqdori bilan boshqa omillar miqdori o‘rtasidagi nisbat boshqa mamlakatdagiga nisbatan yuqori bo‘lsa shu omil bu mamlakatda nisbatan ortiqcha deb hisoblanadi.

Xeksher-Olin konsepsiyasiga asosan tashqi savdo quyidagi ko‘rinishlarga ega: Faraz qilaylik, bir vaqtda ikki mamlakat, ya’ni,

«sanoatlashgan» va «agrar» mamlakat faoliyat ko'rsatmoqda.

Sanoatlashgan mamlakatda ortiqcha kapital va ma'lum miqdorda ortiqcha ishchi kuchi mavjud bo'ladi. Agrar mamlakatda esa ortiqcha yer mavjud, ammo kapital etishmaydi.

Ayrim turdagi mahsulotlarni ishlab chiqarishda kapital asosiy omil hisoblanadi. Masalan, neftni qayta ishlash, elektron mashinasozlik va mashina ishlab chiqarish sohalari kam ishchi kuchidan foydalangan holda kapital talabchan ishlab chiqarish hisoblanadi. Kapital ortiqchaligiga ega bo'lgan mamlakatlar aynan ushbu yo'nalishlarga ixtisoslashadilar. Shu bilan birga, don etishtirish va chorvachilik bilan shug'ullanadigan mamlakatlarda ko'proq yer resurslari kerak bo'ladi va ular shu yo'nalishga ixtisoslashgan bo'ladilar.

Xeksher–Olin konsepsiyasini tadqiq qilish borasidagi izlanishlar 50 yillarda «Leontev taajjubi» yuzaga kelishiga sabab bo'ldi. V.Leontev AQSh kapital ortiqcha bo'lgan mamlakat bo'lishiga qaramasdan 1947 yilda kapital talabchan emas, balki mehnat talabchan mahsulot eksport qilganligini ko'rsatib berdi. Ya'ni Xeksher-Olin konsepsiyasiga zid keladigan vaziyat yuzaga keldi. Keyingi tadqiqotlar esa AQSh da kapitaldan ko'ra yer va ilmiy texnik mutaxassislar nisbiy ortiqcha ekanligi tasdiqlandi. AQSh ishlab chiqarilishida aynan shu omillar ko'proq foydalaniladigan tovarlarning sof eksportyori bo'lib chiqdi.

33.5. Xalqaro savdoning zamonaviy nazariyalari

1948 yil amerikalik iqtisodchilar P. Samuelson va V.Stolperlar Xeksher-Olin konsepsiyasini takomillashtirishdi. Ularning nazariyasi bo'yicha xalqaro savdo – ishlab chiqarish omillari bilan ta'minlanganlik darajasidan notekislik, texnologiyalarining bir-biriga mosligi, raqobatning rivojlanishi va mahsulotlarning harakatchanligi kabi sharoitlarda mamlakatlar o'rtasidagi ishlab chiqarish omillari narxlari tenglashadi.

D. Rikardo modelida ishlab chiqilgan va E. Xeksher, B. Olin, P.Samuelson hamda V.Stolperlar tomonidan to'ldirilgan savdo konsepsiyasiga nafaqat mamlakatlar o'rtasidagi o'zaro foydali savdoni yo'lga qo'yish, balki mamlakatlar rivojlanishi o'rtasidagi farqlarni kamaytirish vositasi sifatida ham qaraladi

Shuningdek M.Pozner, GXufbauer va R.Vernon tadqiqotlari ham nisbiy ustunlik nazariyasini yana bir bor tasdiqladi. Ular ishchi kuchi nisbatan kimmat turadigan mamlakatlarda ilg'or texnologiyaga asoslangan mehnattalab mahsulot ishlab chiqarish baribir daromadli bo'ladi, degan xulosaga kelishdi. Masalan, mehnattalab sintetik gazlamalarni dastlab fakat ilmiy-gexnikaviy salohiyati yuqori bo'lgan mamlakatlardagina ishlab chiqarish mumkin edi. So'ngra, bu texnologiyani o'zlashtirilishi va keng yoyilishi tufayli sintetik gazlamalarni ishlab chiqarish ishchi kuchi arzon bo'lgan rivojlanayotgan mamlakatlarga xam ko'cha boshladi. Buning natijasida G'arb ilmiy-texnikaviy omil tufayli o'zi ega bo'lgan nisbiy ustunlikni qullay boshladi.

M. Porter ga o'z tadqiqotlari natijasida mamlakat tarmoqlari va firmalarining raqobat ustunligini belgilovchi omillarni ikki guruhga bo'ladi:

1. Asosiy omillar:

-zarur sifatga ega va etarlicha miqdordagi ishlab chiqarish omillarining mavjud bo'lishi;

-mamlakat ichida mazkur tarmoq mahsulotiga bo'lgan talabning xususiyatlari, uning sifat va miqdor xarakteristikalarini;

-mamlakatda ushbu tarmoqqa yo'ldosh va uni ta'minlab turuvchi, jahon bozorida raqobatbardosh bo'lgan tarmoqlarning mavjudligi;

-firmaning strategiyasi, shuningdek ichki bozordagi raqobat xarakteri

2. Qo'shimcha omillar:

-tasodifiy hodisalar;

-tashqi iqtisodiy faoliyat yurituvchi korxonalarini qo'llab-quvvatlash bo'yicha hukumat faoliyati.

Mahsulot eksport qiluvchi korxonalarini qo'llab-quvvatlash, mamlakat ichida qulay biznes muhitini yaratish, ishlab chiqarish va bozor infratuzilmasini rivojlantirish, bojxona bojlarining pasaytirilishi, subsidiyalar va imtiyozli kreditlar berish, boshqa xalqaro shartnomalar tuzish orqali milliy korxonalarining chet mamlakatlardagi faoliyati uchun qulay sharoitlar yaratish kabi tadbirlar ularning raqobat ustunliklarini oshirishga xizmat qiladi.

Qisqa xulosalar

Xalqaro savdo ikki muhim obyektiv sabab - tabiiy va xom ashyo resurslarining mamlakatlar o'rtasida bir tekis taqsimlanmaganligi hamda mamlakatlarda ishlab chiqarish kuchlarining bir xil rivojlanmaganligiga ko'ra paydo bo'lgan.

Xalqaro savdoga mahsulotlarni ayirboshlash, xizmatlarni ayirboshlash va yangi ilmiy-texnik ma'lumotlarni ayirboshlash kiritiladi. Bu ayirboshlashlarning barcha ko'rinishi tashqi savdo operatsiyalari - eksport va import operatsiyalari yordamida amalga oshiriladi.

Xalqaro savdo nazariyasining klassik ko'rinishlari A. Smitning «Mutloq ustunlik» va D. Rikardoning «Nisbiy ustunlik» nazariyalaridir.

D. Rikardoning nisbiy ustunlik nazariyasi mutlaq ustunlikka ega bo'lmagan mamlakatlar ham tashqi savdodan foyda ko'rishi mumkinligini asoslab beradi.

Xeksher-Olinning neoklassik konsepsiyasi «Nisbiy ustunlik» nazariyasini omillar bilan ta'minlanganlik nuqtai nazaridan izohlab berdi.

Erkin savdo yo'lidagi to'siqlarni bartaraf qilish resurslarni samarali taqsimlanishga yo'l ochib, provardida barcha mamlakatlar uchun iqtisodiy yutuq olib kelishi savdo nazariyalarida isbotlab berilgan.

Nazorat va muhokama uchun savollar

1. Xalqaro savdoni rivojlantirishning obyektiv va sub'ektiv sabablari nimalardan iborat?
2. Xalqaro savdoning shakllari va ular hajmini belgilovchi omillarni tushuntirib bering.
 2. A. Smitning «Mutlaq ustunlik» nazariyasi kamchiligi nimada ko'rinadi?
 3. «Nisbiy ustunlik» nazariyasining mohiyatini tushuntirib bering.
 4. Savdo sharoitlari tushunchasini izohlab bering. Savdo sharoitining yaxshilanishi qanday oqibatlarga olib keladi?
 5. Xeksher-Olinning neoklassik konsepsiyasini izohlab bering.
 6. "Leontev taajubi" qaysi sababli yuzaga keldi va qanday echim topti?

34- bob. TASHQI SAVDO SIYOSATI

34.1. Tashqi savdo siyosatining mohiyati va vositalari

Biror mamlakatning tashqi iqtisodiy faoliyatga bevosita va bilvosita aralashuvi jarayoni eksport va import hajmi va tarkibiga ta'sir ko'rsatish orqali ichki bandlilikni ta'minlash, iqtisodiy o'sishga erishish, makroiqtisodiy barqarorlikni ta'minlash, to'lov balansini yaxshilash hamda valuta kursini tartibga solish maqsadlarini ko'zda tutadi. Davlat tomonidan amalga oshiriladigan bunday tadbirlar savdo siyosati deb yuritiladi. **Savdo siyosati – budjet-soliq siyosatining tashqi savdo hajmlarini soliqlar, subsidiyalar, valuta nazorati va import yoki eksportni to'g'ridan-to'g'ri cheklashlar orqali tartibga solishni o'z ichiga olgan nisbatan mustaqil yo'nalishidir.**

Tashqi savdoni cheklash borasida olib borilayotgan har qanday chora- tadbirlar qisqa muddatli samara beradi. Uzoq davrda esa, faqat erkin savdogina iqtisodiy resurslarni samarali joylashtirish imkonini beradi. Shuning uchun ham ko'pgina mutaxassis-iqtisodchilar mamlakat iqtisodiyoti va aholisi turmush darajani yaxshilash uchun erkin tashqi savdo siyosati foydaliroq, chunki, tashqi savdoni cheklashga nisbatan uni erkinlashtirish iqtisodiy resurslardan samarali foydalanishga ko'proq imkoniyat yaratadi, deb hisoblashadi.

Garchand, erkin savdo jahon iqtisodiyoti nuqtai nazaridan foydali bo'lishi mumkin bo'lsada, ammo alohida olingan mamlakat iqtisodiyoti manfaati nuqtai nazaridan erkin savdo hamma vaqt ham foydali bo'lavermaydi.

Tashqi savdoni cheklash usullarining 50 dan oshiqroq turi mavjud. Ularning ayrimlari davlat g'aznasini to'ldirishga yo'naltirilgan bo'lsa, ba'zilar umuman importni cheklashga va yana boshqasi esa eksportni cheklashga yoki rag'batlantirishga yo'naltirilgan. Amaliyotda tashqi savdoni tartibga solishning ta'rif va nota'rif usullaridan foydalaniladi.

Ta'rif usullariga import va eksport bojlarini joriy qilish kirsada, nota'rif usullariga eksporterlar va ishlab chiqaruvchilarga subsidiyalar berish, kvotalash, litsenziyalash kabilar kiradi.

Bojxona bojlari avvalo import bojlari va eksport bojlariga ajraladi.

Import bojlari davlat budjetini to'ldirish maqsadida va ichki bozorlarga tushadigan chet el tovarlari oqimini tartibga solish uchun belgilanadi. Eksport bojlari mamlakat ichida talab ko'p bo'lgan mahsulotlar taqchilligining oldini olish maqsadida belgilanadi.

Boj olinadigan mahsulotlar, boj olinmaydigan mahsulotlar, olib kelish va olib ketish taqiqlangan mahsulotlar, shuningdek, bojxona bojlari stavkasi, ya'ni, ularning tartibga solingan ro'yxati bojxona tariflari deb ataladi.

Bojxona tariflarini ishlab chiqarish, tabiiy farqlar (hayvonot va o'simlik dunyosi), qayta ishlash darajasiga (xom ashyo, yarim tayyor mahsulotlar, tayyor buyumlar) ko'ra, taqsimlangan mahsulotlar ro'yxatini o'z ichiga olgan mahsulot sarxillovchilar (klassifikatorlari) asosida qurilgan.

34.2. Importga ta'riflar va ularning ishlab chiqaruvchilarga hamda iste'molchilarga ta'siri

Xalqaro savdoni tartibga solishda eng ko'p qo'llaniladigan usul bo'lib tarif, ya'ni importga solinadigan bojxona boji hisoblanadi.


Importga tariflarning maxsus va advalar turlari o'zaro farqlanadi. Maxsus bojar import qilinayotgan tovarlar birligiga nisbatan o'rnatiladi. Masalan, 1 barel neftga nisbatan 2 yevro.

Advalar bojar import qilinayotgan tovar qiymatiga nisbatan ma'lum foiz tariqasida belgilanadi. Masalan avtomobil xarid narxining 40%.

Har ikkala turdagi import tariflarning oqibatlarini deyarli bir xil bo'lib, buni biz quyidagi grafik vositasida ko'rib chiqamiz.

Aytaylik, import tariflari joriy qilingunga qadar ichki ishlab chiqarish hajmi S_1 , ichki talab hajmi esa D_1 teng bo'lgan. Talab va taklif o'rtasidagi farq ($D_1 - S_1$) import hisobiga qoplangan. Mamlakat iqtisodiyoti yopiq bo'lganida baholar darajasi R_e ga teng, talab va taklif muvozanati esa E nuqtada o'rnatilgan bo'lar edi. Mamlakat iqtisodiyoti ochiq bo'lgani va importga cheklovlar yo'qligi tufayli milliy bozordagi narxlar jahon bozori narxlarini R_w bilan bir xil. Importga tarif joriy qilinishi natijasida ichki baholar R_w dan R_d ga qadar ko'tariladi. Natijada:

Import qilinadigan tovarning ichki bahosi = Jahon bozoridagi bahosi



34.1-rasm. Import tariflari kiritilishi natijalari

Oqibatda iste'molchilar ma'lum bir yo'qotishlarga duch keladilar. Bu yo'qotishlar grafikda a,b,c,d sohalar bilan ko'rsatilgan.

Baholarning ko'tarilishi ilgari raqobatbardosh bo'lmagan ayrim ichki ishlab chiqaruvchilar uchun ham foyda ko'rib ishlashga imkon beradi. Umuman shu sohada

band milliy ishlab chiqaruvchilar ishlab chiqarish hajmini S1 dan S2 ga qadar oshiradi va S2-S1 hajmdagi mahsulot Pd bahoda sotiladi. Shu hajmdagi mahsulotni iste'molchilar oshirilgan narxda sotib oladilar va **a** sohaga teng yo'qotishga duch keladilar. Ammo, bu yo'qotish ichki ishlab chiqaruvchilarning o'sgan foydasiga aylanadi.

Baholarning o'sishi oqibatida iste'molchilar ko'rilayotgan tovar iste'moli hajmini D1 dan D2 qadar qisqartiradi. Bu yo'qotish grafikda **d** soha bilan ko'rsatiladi va u hech kimning foydasi bilan qoplanmaydi.

S2- D2 oraliq tarif joriy qilingandan so'ngi import hajmi bo'lib, shu hajmda tovarni iste'molchilar ilgarigidan yuqori bahoda sotib oladilar. Buning natijasida ular turmush darajasidagi yo'qotish ro'y beradi. Bu yo'qotish grafikda **c** soha bilan belgilangan bo'lib, u davlat budjetiga borib tushadi. Ya'ni, bu sohadagi iste'molchilarning yo'qotishi davlatning foyda ko'rishi bilan qoplanadi.

Tarif kiritilishi oqibatida iste'molchilar talabi arzon import tovaridan qimmat ichki tovarga yo'naltiriladi. Iste'molchilarning o'sgan to'lovlari yuqori chegaraviy xarajatga ega, raqobatbardosh bo'lmagan samarasiz ichki ishlab chiqarishni kengayishiga olib keladi. Iste'molchilarning bu yo'qotish **b** sohasi bilan belgilangan bo'lib tarifning «**ishlab chiqarish samarasi**» deyiladi va hech kimning foydasi bilan qoplanmaydi.

34.1-jadval

Iste'molchilarning yo'qotishlari	Ishlab chiqaruvchilar foydasi	Davlat daromadi	Jamiyatning sof yo'qotishi
a + b + c + d -	a -	c =	b + a

Demak, iste'molchilarning **a** sohadagi yo'qotishlari ishlab chiqaruvchilar foydasining o'sishi hisobiga qoplanadi. Ayni damda iste'molchilar shu tarmoq korxonalari aksiyadorlari bo'lishsa, ular yo'qotishlarining bir qismi o'sgan dividendlar sifatida qaytadi.

«c» sohada davlat olgan daromadini transfert to'lovlarini oshirish, soliqlarni pasaytirish, budjet tashkilotlarida ishlovchilar ish haqini oshirishi ko'rinishida iste'molchilarga qaytarishi mumkin.

Ammo **b** va **d** sohalarda jamiyat sof yo'qotishga duch keladi. Valuta kursi o'zgarishi bu yo'qotishlarni bir oz qoplashi mumkin. Masalan, 20% li tarif kiritilishi natijasida milliy valuta 4% ga qimmatlashsa import qilinayotgan tovarlarning milliy valutada ifodalangan ichki bahosi 20 % ga emas, 16 % ga oshadi. Bu esa tarif kiritilishi oqibatida jamiyatning sof yo'qotish **b** va **d** sohalarning 80 foizini($(16 / 20) \times 100 = 80$) tashkil etishini anglatadi.

Umuman olganda tariflarni kiritilishiga nisbatan bir-biriga zid fikrlar mavjud bo'lib, bu tadbir mamlakat iqtisodiyoti holati, xususiyati va qo'yilgan maqsadlar bilan asoslanadi.

Bojxona tariflarini kiritishni yoqlovchi mutaxassislar fikriga ko'ra import tariflari:

- mamlakat mudofaa sanoatini himoya qilish imkonini beradi;
- mamlakatda bandlilik darajasi o'sishini ta'minlaydi va yalpi talabni rag'batlantiradi, importning nisbatan cheklanishi natijasida sof eksport o'sadi va joriy operatsiyalar bo'yicha to'lov balansi xolati yaxshilanadi;
- milliy iqtisodiyotdagi yangi tarmoqlarni himoya qilish uchun zarur;
- davlat budjeti daromadlarini to'ldirish manbai bo'lib xizmat qiladi;
- milliy ishlab chiqaruvchilarni demping ko'rinishidagi chet el raqobatidan himoya qiladi;
- iqtisodiyot tuzilishini qayta qurishni boshqarish vositasi hisoblanadi va ular yordamida mamlakat iqtisodiyotidagi ilg'or siljishlar rag'batlantiriladi va h.k.

Milliy iqtisodiyotning tiklanishi sharoitida ko'pgina davlatlar o'z ishlab chiqaruvchilarini chet el raqobatidan himoya qilish maqsadida proteksionizm siyosatini qo'llaydilar. Aks holda, mahalliy korxonalar «sinishi» jamiyatda ishsizlik xavfini tug'diradi.

Mamlakatlarda ta'rif mexanizmi orqali tashqi savdo siyosatini yuritish, birinchi navbatda ushbu mamlakatning asosiy tarmoqlari va yangi ishlab chiqarish sohaslarining himoyalanganligiga ta'sir qiladi. O'zbekistonda avtomobilsozlik yangi va istiqbolli soha (tarmoq) hisoblanadi va tabiiyki, tarifli himoyaga muhtoj. Tarmoqni tarifli himoyalashining haqiqiy darajasini quyidagi misolda ko'rib chiqamiz. Masalan, O'zbekistonda yangi mashinalar uchun import boji 40 foizni tashkil qilsin. Ushbu mashinani ishlab chiqarish uchun zarur bo'ladigan ehtiyot qismlar asosan chetdan keltirilsin va unga import boji 25 foiz miqdorida o'rnatilsin. Bir dona mashinaning narxi 10000 AQSh dollariga teng bo'lsa, ya'ni bitta avtomobil uchun zarur bo'lgan ehtiyot qismlarining narxi 7000 dollar, qo'shilgan qiymat esa 3000 dollarni tashkil etsin.

Avtomobil importiga 40 foiz tarif belgilanganligi uchun har bir avtomobil narxi 4000 dollarga o'sib, tarif bilan birga 14000 dollarni tashkil etadi. Ehtiyot qismlar importiga 25 foizli tarif kiritilishi ularga qilinadigan xarajatlarni 1750 dollarga oshirib 8750 dollarga etkazadi. Oqibatda mahsulot birligiga ehtiyot qismlar xarajati 1750 dollarga oshdi. Qo'shilgan qiymat esa 2250 dollarga ($4000 - 1750 = 2250$) o'sdi. Shunday qilib, tarif kiritilgandan so'ng mahsulot birligiga to'g'ri keladigan qo'shilgan qiymat 5250 dollarni ($3000 + 2250 = 5250$) tashkil etdi.

Endi esa soha (tarmoq)ning samarali himoyasi formulasidan foydalanamiz.

$$E_p = (Y_a - V_A) / Y_a.$$

Bu yerda: E_p - sohaning tarif bilan haqiqiy himoyalanganlik darajasi; Y_a - bojxona tarifi kiritilgandan keyingi qo'shilgan qiymat;

V_A - bojxona tarifi kiritilishidan oldingi qo'shilgan qiymat.

$$E_R = ((3000 + 2250) - 3000) / 3000 = 2250 / 3000 = 0,75 \text{ yoki } 75\%$$

Bu shuni bildiradiki, tayyor avtomobillarga 40% tarif va ehtiyot qismlarga 25% tarifni joriy qilib, davlat milliy avtomobilsizlikni haqiqatda 75% tarifli himoyalanganligini ta'minlaydi.

Proteksianizm siyosatining muhim tamoyili ham shundaki, davlat tayyor mahsulotlarga bojni ko'tarish va yarim tayyor mahsulotlarga esa uning miqdorini pasaytirish orqali tarmoqning haqiqiy himoyalanganligini yanada oshiradi.

Agar mamlakatlar bojxona ittifoqiga birlashsalar, unda bojxona tarifi, barcha ishtirokchi mamlakatlar uchun ularning savdo munosabatlarida yagona bo'lib qoladi. Bojxona tariflari miqdori alohida mamlakatlar iqtisodiyotida va jahon xo'jaligida yuz berayotgan jarayonlar ta'sirida yuzaga keladi. Jahonda importga bojxona bojlarining pasayish tendensiyasi kuzatilmoqda va u ikki tomonlama hamda ko'p tomonlama muzokaralar asosida mamlakatlar tomonidan rag'batlantiriladi va nazorat qilinadi.

Bojxona bojlarini joriy qilishni qo'llovchi fikrlarga aksincha bo'lgan mulohazalar ham mavjud. Chunki sanab o'tilgan natijalarga boshqa usullar bilan kamroq yo'qotishlar hisobiga ham erishsa bo'ladi degan fikrlar ham qaysidir darajada asoslidir.

Birinchi, import tariflari iste'molchilar turmush darajasining pasayishiga olib keladi.

Ikkinchi, import tariflari kiritilishi oqibatida ular vositasida himoya qilinayotgan tarmoqlarda resurslar samarasiz sarflanadi.

Uchinchi, tariflarni kiritish va ular stavkasini belgilash masalasida mamlakat imkoniyatlari xalqaro bitimlar bilan cheklangan.


34.3. Ishlab chiqaruvchilarga subsidiyalar va importni kvotalar orqali tartibga solish

Miliy ishlab chiqaruvchilarni xorijiy firmalar raqobatidan himoya qilishning muqobil usuli ularga bevosita subsidiya berish hisoblanadi.

Ishlab chiqarish subsidiyasining tariflardan afzalligi shundan iboratki, u bir tomondan, milliy ishlab chiqarishni S_0 dan S_1 gacha o'sishini ta'minlasa

(34.2 - rasm), ikkinchi tomondan, iste'molning mutlaq kamayishiga olib kelmaydi. Chunki, ichki narxlar jahon narxlaridan qimmatlashmaydi. Subsidiya sharoitida ishlab chiqaruvchilar uchun ichki narxlar darajasi P_d , jahon narxlari P_w darajasiga teng. Shuning uchun, haqiqiy iste'mol hajmi D_0 ga teng. Tarif kiritilgan sharoitda esa u D_1 gacha kamaygan bo'lur edi. Mamlakat farovonligidagi mutlaq yo'qotish esa b sohasidagina iborat bo'ladi. Ayni paytda ishlab chiqarishga berilgan bevosita subsidiyalar ishlab chiqarish xarajatlarining samarali taqsimlanishini kafolatlamaydi, chunki aynan qaysi tarmoqni xalqaro raqobatdan himoya qilishni bilish qiyin bo'ladi.

Subsidiyalarni joriy qilgandan so'ng ularni bekor qilish qiyin bo'ladi, raqobat muhiti yo'qoladi hamda bu xarajatlarni moliyalashtirish muammosi kuchayib boraveradi. Shuning uchun iqtisodiyotni tartibga solish, bandlik darajasini oshirish va yalpi talabni qondirish maqsadida fiskal va pul-kredit siyosatlari qo'llaniladi. Ushbu siyosatlarni qo'llashdan asosiy maqsad mamlakat ishlab chiqarishini xalqaro raqobatdan himoya qilish, ishsizlik darajasini eng past holatga keltirish va xalq farovonligini oshirishdan iborat.



34.2-rasm. Ishlab chiqaruvchilar subsidiya berilishining iqtisodiy oqibatlari

Jahon amaliyotida tashqi iqtisodiy faoliyatni tartibga solishning bilvosita usullariga qaraganda bevosita usullaridan kengroq foydalaniladi. Bevosita usullar mazmuniga ko‘ra, iqtisodiy, ma‘muriy, me‘yoriy - huquqiy ko‘rinishga ega bo‘lishi mumkin.

Litsenziyalash va kvotalash iqtisodiy xarakterdagi bevosita usullar ichida keng tarqalgani hisoblanadi.

Litsenziyalash – bu, tashqi iqtisodiy operatsiyalarni amalga oshirishga davlat tashkilotlaridan ruxsat olishning ma‘lum tartibidir. Tashqi iqtisodiy operatsiyalarga mahsulotlar, ishchi va xizmatchilar eksporti hamda moliya operatsiyalarini o‘tkazish, xorijga ishchi kuchini ishga joylashtirish va boshqalar kiradi. O‘zbekistonda litsenziyalar faqat davlat ro‘yxatida qayd etilgan tashqi iqtisodiy faoliyat qatnashchilariga beriladi. Ularni boshqa yuridik shaxslarga berish taqiqlangan.

Mahsulotlar eksporti va importini litsenziyalash davlatga ular oqimini qattiq tartibga solish, ba‘zi hollarda ularni vaqtincha chegaralash va shu asosda tashqi iqtisodiy taqchilik o‘shishining to‘xtash hamda savdo balansining tenglashtirish imkonini beradi.

Umuman, import mahsulotlarga beriladigan litsenziyalar quyidagi usullar yordamida joylashtiriladi.

1. Ochiq auksion – davlat litsenziyalarni yuqori baholarni taklif qilgan ishlab chiqaruvchilarga berishi.

2. Afzal ko‘rish tizimi – davlat birinchi navbatda litsenziyalarni ishlab chiqarish hajmi jihatdan yirik bo‘lgan firma va kompaniyalarga hech qanday shart va talablarsiz beradi.

3. Xarajat usuli – davlat litsenziyalarni yirik ishlab chiqarish quvvatlariga va resurslarga ega bo‘lgan firma va kompaniyalarga beradi.

Mahsulotlar, shuningdek, ishchi va xizmatchilar eksporti va imortiga litsenziyalar berish huquqiga O‘zbekiston Respublikasining quyidagi boshqaruv tashkilotlari ega: Vazirlar Mahkamasi, Moliya, Adliya, Ichki ishlar, Sog‘liqni saqlash, Xalq ta’limi vazirliklari, shuningdek, Markaziy bank.

Moliya operatsiyalarini o‘tkazishga litsenziyalar asosan Respublika Moliya vazirligi va Markaziy bank tomonidan o‘z va xorijiy banklarga, moliya muassasalariga beriladi. Ular moliya-kredit muassasalariga mamlakat ichida va uning tashqarisida chet el valutasini bilan o‘preatsiyalarni amalga oshirish, xorijiy moliya-kredit muassasalariga esa ichki bozorda yuridik va jismoniy shaxslarga xizmat ko‘rsatish huquqini beradi.

Litsenziyalash bilan bir qatorda jahon amaliyotida mahsulotlarni, shuningdek, ishchi kuchi eksport va importini chegaralash maqsadida kvotalash keng qo‘llaniladi.

Bu usulning mohiyati shundan iboratki, unda vakolatli davlat yoki xalqaro tashkilot alohida mahsulotlar, xizmatlar, mamlakatlar va mamlakatlar guruhi bo‘yicha ma’lum davrga eksport va importga miqdoriy yoki qiymat chegaralarini belgilaydi. Davlat tomonidan tartibga solish tadbiri sifatida kvotalash to‘lov balanslarini ichki bozorda talab va taklifni balanslashtirish uchun muzokaralarda o‘zaro kelishuvga erishish uchun qo‘llaniladi. O‘zbekistonda kvotalash xalq iste’moli mollarini va strategik xom ashyoning muhim turlarini olib chiqishni chegaralash usuli sifatida qo‘llanilmoqda.

Kvotalash faqat mahsulot oqimlarinigina emas, balki ishchi kuchi oqimlarini tartibga solishda ham qo‘llaniladi. Ko‘pgina rivojlangan mamlakatlar ichki mehnat bozorini himoyalash maqsadida xorijdan ishchi kuchi importiga kvotalar o‘rnatadi.

Hozirgi vaqtda kvotalash bojlarga nisbatan ko‘proq qo‘llanilishiga ikkita sabab bor:

1. Tarif stavkalari xalqaro savdo kelishuvlariga asosan belgilanadi. Ayrim hollardan tashqari vaziyatlarda, mamlakatlar tarif stavkasini oshira olmaydilar va shuning uchun iqtisodiyotni raqobatdan himoya qilish maqsadida kvotalarga e’tiborni qaratishga majbur bo‘ladi.

2. Himoyaga muhtoj tarmoqlar ham importga kvotalar joriy qilishni qo‘llaydi. Chunki, tarifni joriy qilishga nisbatan imtiyozli litsenziyalar olish osonroqdir.

Import kvotalari erkin raqobat sharoitiga ko‘proq mos keladi. Tariflarga nisbatan kvotalarni joriy qilishdan ko‘riladigan farovonlikdagi yo‘qotishlar ikki holatda katta bo‘ladi. Birinchidan, kvotalar mahsulotlar import qilayotgan milliy ishlab chiqaruvchilar yoki xorijiy firmalar monopol hukumronligi darajasini oshirsa. Ikkinchidan, importga litsenziyalar samarasiz joylashtirilsa.

34.4. Eksport subsidiyalari. Eksport bojlari va eksportni ixtiyoriy cheklash

Ko'pchilik hollarda eksportni davlat tomonidan rag'batlantirish tadbiri sifatida ko'pgina mamlakatlarda eksport subsidiyalari qo'llaniladi. Bunda tajriba - konstruktorlik ishlari va eksportga mo'ljallangan ishlab chiqarishni

bevosita moliyalashtirish yoki bu maqsadlarga davlat budjetidan imtiyozli kreditlar berish ko'zda tutiladi.

Eksport subsidiyalari turli shakllarda qo'llaniladi. Bularga:

- eksportyor firmalarga yoki xorijiy sheriklarga past foizli kreditlar berish;
- reklama xarajatlarini davlat hisobidan qoplash, bozor konyukturasi haqida tekin axborot etkazib berish;
- firmalarga ishlab chiqarish hajmidagi eksport ulushiga muvofiq soliq imtiyozlarini berish;
- bevosita subsidiyalash kiradi.

Eksport subsidiyalarining berilishi milliy ishlab chiqaruvchilarining tashqi bozorda raqobatbardoshligini oshiradi. Ammo importyor davlatlar tomonidan kiritiladigan kompensatsion import bojlari bu yutuqni yo'qqa chiqarishi mumkin. Oqibatda eksportyor davlat budjeti yo'qotishga uchraydi, importyor davlat budjeti esa qo'shimcha daromad ko'radi. Bu tadbir dempingga qarshi kurash ko'rinishlaridan biridir.

Dempingga qarshi qaratilgan bojlar jahon amaliyotida keng qo'llanilib, o'zida qo'shimcha import bojlarini aks ettiradi. Ular odatda, jahon narxlaridan yoki import qilayotgan mamlakat ichki narxlaridan past narxlar bo'yicha, eksport qilayotgan mahsulotlarga o'rnatiladi. Bu bojlarni belgilash haqidagi qarorni xalqaro sud mahalliy ishlab chiqaruvchilar va sotuvchilar murojaatidan so'ng chiqaradi hamda uning miqdorini va to'lash tartibini belgilaydi. Masalan, dempingga qarshi bojlar o'z valuta resurslarini to'ldirish maqsadida jahon bozoriga xom ashyo resurslarini eksport qilishni ko'paytirgan sobiq ittifoqdosh respublikalarga nisbatan faol qo'llanilmoqda.

Eksportga tariflar yoki eksport bojlari kiritilishining oqibati import bojlari kiritilishi oqibatining aynan aksidir. Eksport bojlari kiritilishi sharoitida mahsulotlar ichki bahosi ularning tashqi bahosidan pasayadi. Bunday vaziyatlarda ichki iste'mol o'sadi, ishlab chiqarish va eksport kamayadi. Eksportga bojlarni joriy qilish natijasida milliy ishlab chiqaruvchilarda yo'qotishga duch bo'ladilar. Tanqi bozordagi baholarga nisbatan ichki bahoning kamayishidan iste'molchilar yutuqqa erishsa, davlat esa daromadga ega bo'ladi.

Ixtiyoriy ravishda eksportni cheklash eksport kvotalarining bir turi bo'lib, xorij mamlakatlarining ayrim mamlakatlarga "ixtiyoriy" eksport miqdorlarini cheklashdan iborat.

Bu yerda «ixtiyoriy so'zi» shartli xarakterga ega. Chunki, eksport qilayotgan mamlakat savdo siyosatida o'z hamkorlari tomonidan birorta noxushlikka duch kelmasligi uchun eksport miqdorini cheklaydi.

Ixtiyoriy ravishda eksportni cheklash ikki xil xususiyatga ega:

1. Ixtiyoriy ravishda eksportni cheklash milliy iste'molchilar uchun tarif va kvotalarni belgilashga nisbatan ancha sezilarsiz. Shuning uchun iste'molchilar ularni e'tiborsiz qabul qiladilar va hukumatga norozilik bildirmaydilar.

2. Ixtiyoriy ravishda eksportni cheklash sharoitida xorij iste'molchilari ular sotib olayotgan eksport mahsulotiga yuqoriroq narx belgilashlari mumkin.

Shunday qilib, xorijliklar ixtiyoriy ravishda eksportni cheklash sharoitida eksportyor ko'rgan yo'qotishlarni narxlarni oshirish hisobiga qoplashadi.

Savdo siyosatini amalga oshirishning ko'rib o'tilgan usullarining har biri ijobiy jihatlari bilan birga salbiy oqibatlariga ham ega. Mamlakat iqtisodiyotining raqobatbardoshligi darajasi kuchayib borgani sari tashqi savdo liberallashtirib boriladi. Mamlakatning xalqaro savdo tashkilotlariga a'zo bo'lishi bu jarayonining qonuniy natijalaridan biridir. Tashqi savdoni erkinlashtirilishi iqtisodiyotda bozor munosabatlarini yanada rivojlantirishga olib keladi.

Qisqa xulosalar

Savdo siyosati – budjet soliq siyosatining, tashqi savdo hajmlarini soliqlar, subsidiyalar, valuta nazorati va import yoki eksportni to'g'ridan- to'g'ri cheklashlar orqali tartibga solishni o'z ichiga olgan, nisbatan mustaqil yo'nalishdir.

Tashqi savdoni tartibga solishda eng ko'p qo'llaniladigan usul importga tarif belgilash bo'lib, buning natijasida ichki baholarning o'sishi kuzatiladi. Importga tariflarni joriy qilishdan iste'molchilar ko'rgan zarar ishlab chiqaruvchilar va davlat ko'rgan foydadan katta bo'ladi. Importga tariflarni joriy qilishdan ko'riladigan foyda va zararlar nisbati munozarali masaladir.

Ammo import tariflari ichki ishlab chiqaruvchilarni himoya qilish, to'lov balansini tartibga solish maqsadlarida keng qo'llaniladi.

Ichki ishlab chiqaruvchilarni himoya qilish maqsadida ishlab chiqaruvchilarga subsidiyalar berish usuli ham qo'llaniladi.

Eksportga subsidiyalar valuta tushumini ko'paytirish, ortiqcha mahsulotdan qutulish, tashqi bozorni egallash uchun qo'llaniladi. Eksport subsidiyalarini qo'llash dempingga olib kelmasligi kerak, chunki demping xalqaro savdo qoidalariga ko'ra ta'qiqlangan.

Tashqi iqtisodiy faoliyatni litsenziyalash va kvotalar o'rnatish xalqaro savdoni tartibga solishning bevosita usullaridir. Xalqaro savdo siyosati vositalari va tadbirlari mamlakat iqtisodiyoti holatidan kelib chiqib echilayotgan vazifalarga muvofiq tanlanadi.

Nazorat va muhokama uchun savollar

1. Savdo siyosatining mohiyati va maqsadlarini tushuntirib bering.
2. Importga tariflarning kiritilishidan iqtisodiy natijalariga izoh bering.
3. Importni yoqlovchi va unga qarshi bo'lgan fikrlarni taqqoslab bering.

fikrlarga izoh bering.

4. Ishlab chiqaruvchilarga subsidiyalarning importga tariflardan afzalligi va kamchiliklari nimada ?

5. Import kvotalarini kiritilishining iqtisodiy oqibatlari nimalarda ko‘rinadi?

6. Litsenziyalarni taqsimlash usullariga qiyosiy tavsif bering.

7. Eksportni subsidiyalash usullari mohiyatini tushuntirib bering. tushuntirib bering.

8. Eksportni ixtiyoriy cheklash qachon qo‘llaniladi, va uning oqibatlari qanday?

9. Savdoni cheklash tadbirlarining makroiqtisodiy ko‘rsatkichlarga ta‘siriga izoh bering.

35- bob. TO'LOV BALANSI

35.1. To'lov balansi tushunchasi va uning tuzilishi

To'lov balansi - ma'lum davr mobaynida mamlakat rezidentlari va tashqi dunyo o'rtasida bo'ladigan bitimlar statistik qayd qilingan xujjatdir. U mamlakatning iqtisodiy aloqalarini aniq-lo'nda ifodalab pul-kredit, valuta, budjet-soliq, xalqaro savdo siyosatining hamda davlat qarzini boshqarish yo'nalishlarini tanlash uchun indikator vazifasini bajaradi. Mamlakatning ma'lum vaqtdagi barcha xalqaro iqtisodiy faoliyati, shu jumladan, tashqi savdo, kapital va ishchi kuchi migratsiyasi ham to'lov balansida o'z aksini topadi. Har qanday tashqi iqtisodiy bitim valuta ayirboshlash va valuta operatsiyalari orqali amalga oshiriladi. Demak, mamlakatning jahon bozoridagi faoliyati natijalari pirovardida xorijiy valuta tushumlari va xarajatlarida ifodalanadi. Shuning uchun ham to'lov balansini bir tomondan, chetdan keladigan barcha tushumlar, ikkinchi tomondan esa, chetga chiqariladigan barcha to'lovlar ko'rsatilgan hujjatdir deb qarash mumkin. Tushum faqat eksport yordamida ta'minlanishi mumkin. Aksincha, xorijiy tovarlarni va xizmatlarni sotib olish (import) uchun to'lovlar va xorijiy valuta xarajatlari bilan bog'liq bo'ladi. Bunda tovar deganda ayirboshlanadigan har qanday narsa tushuniladi, ya'ni, u moddiy ne'mat, xizmat, ishchi kuchi, kapital va valuta bo'lishi mumkin.

To'lov balansida barcha iqtisodiy bitimlar ikkita katta guruhga bo'linadi: joriy operatsiyalar va kapital harakati bilan bog'liq operatsiyalar (35.1- jadval).

35.1-jadval

Mamlakat to'lov balansining taxminiy ko'rinishi (raqamlar shartli)

Moddalar nomi	Kredit (+) yoki eksportdan tushumlar	Debet (-) yoki import uchun xarajatlar	Sof kredit yoki sof debit
Joriy operatsiyalar hisobi			
Tovarlar	+185	-260	-75
Tashqi savdo balansining koldig'i			-75
Xizmatlar	+85	-97	-12
Investitsiyalardan daromadlar (foizlar va dividendlar)	+28	-20	+8
Transfert kurinishidagi pul o'tkazmalari	+10	-18	-8
Joriy operatsiyalar buyicha balansning qoldig'i			-87
Kapital xarakatning hisobi			
Investitsiyalar va boshqa o'rta va uzoq muddatli kapital	+150	-87	+63
Kapital harakati balansining qoldig'i			+63
Joriy operatsiyalar va kapital harakati buyicha balansning qoldig'i			-24
Rasmiy zahiralar (oltin, XFVdagi zahiralar)	+24		+24

Shunga ko‘ra to‘lov balansi strukturasi ham ikki qismdan iborat:

1. Joriy operatsiyalar hisobi;
2. Kapital harakati hisobi.

Joriy operatsiyalar hisobida mahsulotlar va xizmatlar eksporti «plyus», import esa «minus» ishoralari bilan belgilanadi. Ya’ni, joriy operatsiyalar hisobida ichki mahsulotlar eksporti kredit, aksincha mamlakatga mahsulotlar olib kelish - import esa debet sifatida ko‘rsatiladi. Chunki, mahsulotlar eksporti xorijiy valuta ishlab topib, mamlakat valuta zahirasini boyitsa, import esa mamlakatdan valuta chiqib ketishiga olib keladi. Bu esa o‘z navbatida mamlakat valuta zahirasini kamaytiradi.

35.2. Joriy operatsiyalar hisobi balansi

Joriy operatsiyalarning asosiy moddasi tovarlar eksporti va importi hisoblanadi, ularning farqi tashqi savdo balansining qoldig‘i deb yuritiladi. Misolimizda bu balans salbiydir, ya’ni, mamlakat tovarlarni chetga olib chiqishdan ko‘ra ko‘proq olib keladi (-75).

Joriy operatsiyalarning keyingi moddasi – bu, xizmatlar (transport, sug‘urta, sayyohlik xizmatlari va boshqalar) eksporti va importidir. Misolimizda tovarlar bilan bo‘lgan operatsiyalardagi kabi xizmatlar bilan bo‘lgan operatsiyalarda ham mamlakat xorijiy xizmatlarni ko‘proq oladi ya’ni, masalan, mamlakatda yashovchilar xorijga chetdan mamlakatga keladigan sayyohlarga nisbatan ko‘proq boradilar, shuningdek, mamlakatdagi tadbirkorlarga xorijiy transport va sug‘urta xizmatlarini ko‘rsatish hajmi xorijiy tadbirkorlarga mamlakatda transport va sug‘urta kompaniyalari ko‘rsatadigan xizmatlar hajmiga qaraganda yuqoriroq va h.k. Bu operatsiyalar bo‘yicha ham balans salbiy qoldiqqa ega (-12).

Investitsiyalardan daromadlar, foizlar va dividendlar bo‘yicha to‘lovlarni o‘z ichiga oladi. Agar xorijga qo‘yilgan milliy kapital uchun chet to‘lovlari bo‘yicha tushumlar mamlakat iqtisodiyotiga jalb etilgan xorijiy kapital uchun to‘lanadigan to‘lovlar miqdoridan ko‘p bo‘lsa, unda sof daromad musbat bo‘ladi (+8).

Transfert ko‘rinishida pul o‘tkazishlar shu mamlakatlarning xorijda yashayotgan fuqarolariga to‘lanidigan nafaqalarni, muhojirlarning xorijdagi o‘z qarindoshlariga pul o‘tkazmalari, turli ko‘rinishdagi hukumat yordamlarini o‘z ichiga oladi. Jadvaldan ko‘rinib turibdiki, xorijga jo‘natilayotgan pul o‘tkazishlar miqdori olinayotganiga nisbatan yuqori, ya’ni, operatsiyalar mamlakatdagi xorijiy valuta zahiralarini kamaytiradi (-8).

Joriy hisoblar bo‘yicha barcha operatsiyalar yig‘indisi joriy operatsiyalar balansini tashkil etadi. Bizning misolda u salbiy (-87). Bu esa mamlakatda import operatsiyalari natijasida xorijiy valutaga bo‘lgan talab uning eksport operatsiyalari ta’minlaydigan taklifdan ortiq bo‘lishini anglatadi. Boshqacha aytganda, ushbu holda mamlakat to‘lov balansi joriy operatsiyalar bo‘yicha kamomadga ega.

Makroiqtisodiy modellarda joriy operatsiyalar balansi qoldig'i quyidagicha beriladi:

$X - M = X_n = Y - (C + I + G)$; bu yerda: X - eksport; M - import; X_n - sof eksport;

$C + I + G - Y$ - Mning bir qismi (absorbsiya)

Joriy operatsiyalar balansida kamomad bo'lgan sharoitda, mamlakatning eksportdan olgan daromadlari importga qilgan xarajatlaridan kam bo'ladi va uni tashqaridan qarz olish hisobiga yoki mavjud aktivlarning bir qismini xorijiy investorlarga sotish orqali qoplashi mumkin. Bu operatsiyalar sof xorijiy aktivlarning kamayishiga olib keladi⁸⁴.¹⁰¹

Sof xorijiy aktivlar (NFA) – bu, milliy rezidentlar tomonidan egallab turilgan xorij aktivlari va xorijliklar egalik qilgan mamlakat aktivlari o'rtasidagi farqni bildiradi.

Joriy operatsiyalar balansida taqchilik bo'lmagan sharoitda esa mamlakat xorijiy valutilarni sarf qilishga nisbatan ko'proq olib keladi.

Misolimizga aksincha mamlakat joriy operatsiyalar bo'yicha balansi ijobiy qoldiqqa ega bo'ladi. Bunda mamlakatda chet elda ko'chmas mulkni sotib olish yoki boshqa mamlakatlarga qarzga berishga yo'naltirilishi mumkin bo'lgan ortiqcha xorijiy valuta yuzaga keladi.

35.3. Kapital harakati hisobi balansi

Investitsiyalash va kreditlash bilan bog'liq operatsiyalar to'lov balansining keyingi bo'limida, ya'ni, kapitallar harakati hisobida aks ettiriladi.

Mamlakatda ma'lum bir vaqtda moddiy va moliyaviy aktivlarini sotib olish va sotish bilan bog'liq operatsiyalariga kapital harakati hisobi deyiladi. Kapital harakati hisobi balansida korxonalar, yer, uy-joylar, qimmatbaho qog'ozlar, aksiyalar, xazina majburiyatlari va boshqa aktivlarni olish-sotish bilan bog'liq kapitallar oqimi aks ettiriladi. Bu aktivlar sotilsa yoki eksport qilinsa, xorijiy valuta mamlakatga kiritiladi, ya'ni valuta tushumi ko'payadi (+150). Biroq kapitalni olib kelish bilan bir vaqtda uni olib chiqish bilan bog'liq operatsiyalar ham amalga oshiriladi. Bunda mamlakatning tadbirkorlari xorijdan aksiyalar sotib oladi, xorijliklarga kreditlar beradi va shu asosda ular xorijiy valuta zahiralarini sarflaydi. Bu operatsiyalar debet ko'rinishida aks ettiriladi (-87). Kapital harakati balansining qoldig'i – bu, uni olib kelish va olib chiqish o'rtasidagi farqdir (+63).

Kapital xarajatlari hisobida aktivlar bo'yicha barcha xalqaro operatsiyalar ko'rsatiladi.

⁸⁴ N. Gregory Mankiw. Macroeconomics. 8 th edition. Harvard University. (NY.: Worth Publishers, 2013): 136

Kapital xarakati balansi =Aktivlarni sotishdan tushadigan barcha tushumlar – Xorijiy aktivlarni sotib olishga kilingan xarajatlar.

Xorijga aktivlarni sotish valuta zahirasi ko'paytirsa, sotib olish esa uni kamaytiradi. Shuning uchun kapital harakati balansi barcha operatsiyalardan keladigan sof valuta tushumlarini ko'rsatadi. Kapital harakati hisobining ijobiy qoldig'i mamlakatda kapital ko'payishini bildirsa, uning salbiy qoldig'i mamlakatda kapital kamayishini bildiradi.

Avval aytib o'tilganidek, joriy operatsiyalar bo'yicha balans va kapital harakati balansi o'zaro chambarchas bog'liq. Bizning misolda birinchisining taqchilligi (-87) katta qismi (+63) kapitalning sof oqib kelishi hisobiga moliyalashtiriladi va aksincha, agar to'lov balansi joriy operatsiyalar bo'yicha musbat qoldiqqa ega bo'lsa, kapital harakati hisobi balans bo'yicha manfiy qoldiqqa yo'l qo'yilgan bo'ladi.

Shunday qilib, balansning bu ikki bo'limi bir-biri bilan tenglashib boradi.

To'lov balansi qoldig'i= Joriy operatsiyalar + Kapital harakati balansi

Biroq, amalda to'lov balansining bu qismida ham ko'pincha kamomad yoki ortiqchalik yuzaga keladi. Barcha mamlakatlarning Markaziy banklari rasmiy zahiralar deb ataluvchi xorijiy valuta zahiralariga ega bo'lib, bu zahiralar joriy operatsiyalar bo'yicha balans va kapital harakati bo'yicha balans nomutanosibligini bartaraf etishda qo'llaniladi. Bizning misolda bu nomutanosiblik yoki qoldiq (-24)ni tashkil etadi va rasmiy zahiralaridan tushumlar hisobiga tartibga solinadi.

Rasmiy zahiralarining qisqarishi (+) kamomad miqdorini ifodalaydi, rasmiy zahiralarining o'sishi (-) esa to'lov balansining musbat qoldig'i miqdorini ko'rsatadi. Natijada uning barcha uch bo'limi summasi «0»ni tashkil etishi lozim. Bu esa xorijiy valuta taklifini va unga mamlakatda bo'lgan talab tengligini bildiradi.

35.4. To'lov balansining tarkibiy qismlari o'rtasidagi bog'liqliklar

Joriy operatsiyalar hisobi bilan kapital harakati hisobining o'zaro aloqalarini umumlashtirsak, uning makroiqtisodiy ko'rinishi quyidagicha bo'ladi:

$$Y=C+I+G+X_n;$$

$$\downarrow$$
$$Y-C-G = C+I+G+X_n-(C+G);$$

$$\downarrow$$
$$S_n = I+X_n$$



$(I-S)+X_n=0$ (egiluvchan valuta kursi rejimida markaziy bank aralashmagan sharoitda), bu yerda: S_n – milliy jamg'arish;

$(I-S)$ – miqdori ichki investitsiyalarning ichki jamg'armalardan ortiqchaligini ko'rsatadi va kapital harakati hisobi qoldig'ini bildiradi.

Asosiy makroiqtisodiy ayniyatga ko'ra joriy operatsiyalar va kapital harakati hisoblari bir-biriga tenglashadi:

$X-M = X_n = -(I-S) = S-I$ ichki balans

Bu shuni bildiradiki, to'lov balansining joriy operatsiyalar bo'yicha kamomadi kapitalning sof oqib kelishi hisobiga moliyalashtiriladi.

$X_n < 0 \square X-M < 0 \square X < M$;

$I-S > 0 \square I > S \square$ **xorijdan kapital kiritilishi.**

Agarda investitsiyalar (I) milliy jamg'armalardan ko'p bo'lsa ($I > S$), ortiqcha investitsiyalar xorijdan olinadigan qarz hisobiga moliyalashtirilishi lozim. Bu qarzlar mamlakatga tovar va xizmatlarni eksport qilishga nisbatan ko'proq import qilinishini taminlaydi ($M > X$). Ya'ni, sof eksport manfiy qoldiqqa ($X_n < 0$) ega bo'ladi. Mamlakat xalqaro jarayonga qarzdor bo'lib qatnashadi.

Joriy operatsiyalar musbat qoldiqqa ega bo'lganda, ortiqcha mablag'lardan xorijga investitsiya qilishda yoki xorijdan ko'chmas mulk sotib olishda foydalaniladi.

$X_n > 0 \square X-M > 0 \square X > M$;

$I-S < 0 \square I < S \square$ **xorijga kapital chikarilishi**

Davlatlar rasmiy zahiralari va qarzlar hisobiga qoplash qobiliyatiga ega bo'lmagan to'lov balansining katta davriy taqchilligi bo'lgan hollarda o'z valutalari devalvatsiyasini amalga oshirishlari mumkin. Bu importning fizik hajmi ko'payishiga va oqibatda mamlakatda xorijiy valuta tushumining o'sishi hamda to'lov balansi kamomadi tugatiladi.

To'lov balansini tuzish tamoyillariga ko'ra u doimio bazoanlashgan bo'ladi. Manfiy yoki musbat qoldiq tushunchasi faqatgina to'lov balansining alohida qismlariga ta'luqli. Shu bilan birga to'lov balansi qoldig'ining milliy iqtisodiyotga ta'siri amaliyotda bir xil tavsiflanmaydi. Iqtisodiy siyosat maqsadlaridan kelib chiqib to'lov balansining musbat qoldig'i ham, manfiy qoldig'i ham ijobiy yoki salbiy deb baholanishi mumkin.

To'lov balansi holatiga baho berishda savdo balansi qoldig'i, joriy operatsiyalar balansi qoldig'i, kapital harakati va moliya balansi qoldig'i hamda rasmiy hisob kitoblar balansi qoldig'i alohida tahlil etiladi.

Savdo balansi qoldig'i o'zgarishiga baho berishda bu o'zgarishlar qaysi omillar ta'sirida ro'y berganligi e'tiborga olinadi. Masalan, manfiy qoldiq eksportning qisqarishi hisobiga ro'y bergan bo'lsa, bu holat milliy iqtisodiyotning raqobatbardoshligi pasayganligidan dalolat berishi va negativ hodisa deb qaralishi mumkin. Lekin bu holat mamlakatga to'g'ridan- to'g'ri investitsiyalar oqimi ko'payishi hisobiga importning o'sishi natijasida ro'y bergan bo'lsa milliy iqtisodiyotning zaiflashidan dalolat deb qaralmaydi. Joriy operatsiyalar hisobi balansi, odatda, to'lov balansining ma'lumot beruvchi qoldig'i deb qaraladi. Chunki bu qoldiq bilan birga ichki iqtisodiy siyosatni cheklovchi tashqi iqtisodiy omil hisoblanishi bilan birga mamlakatning moliyalashtirishga ehtiyojini belgilaydi. Joriy operatsiyalar hisobi balansining musbat qoldig'i mamlakat boshqa davlatlarga nisbatan netto kreditor ekanligidan dalolat beradi, va aksincha manfiy qoldig'i (ya'ni joriy operatsiyalar hisobi balansining taqchilligi) mamlakat tovarlar va xizmatlarning

netto-importi uchun to'lovlarni amalga oshirishga va transfert to'lovlarini moliyalashtirishga majbur bo'lgan sof qarzdorga aylanganligini anglatadi. Amalda joriy to'lov balansining musbat qoldig'iga ega mamlakat milliy jamg'armalarning bir qismini kapitalni ichki jamg'arishga yo'naltirish o'rniga mamlakat tashqarisiga investitsiyalaydi.

Kapital harakati va moliya balansi qoldig'i joriy operatsiyalar balansi holatining oynadagi aksi hisoblanadi, chunki real resurslar oqimini ko'rsatadi. Shuningdek joriy operatsiyalar balansi holati qisman «Sof xatolar va chetda qoldirishlar» moddasiga to'g'ri keladi.

Rasmiy hisob kitoblar balansi qoldig'i to'lov balansi umumiy (yakuniy) qoldig'ining kengroq tarqalgan nomlanishi bo'lib norezidentlarning mamlakatga nisbatan likvidli talablarning ko'payishi (kamayishi) yoki xorijiy likvidli aktivlardagi mamlakat rasmiy zahiralarining ko'payishidan (kamayishidan) dalolat beradi. Bu qoldiq «Zahira aktivlari» moddasidan boshqa barcha moddalarni qamrab oladi.

Qayd qilngan valuta kurslari sharoitida (1979 yilga qadar) rasmiy hisob kitoblar holatiga katta ahamiyat berilar edi, chunki uning taqchilligi mamlakatning boshqa davlatlar oldidagi majburiyatlarining ortganligini (yoki zahiralarining kamayganligini) anglatgani holda valuta kursining barqarorligiga tahdid solar edi. Suzib yuruvchi valuta kursining kiritilishi bilan umumiy to'lov balansi tushunchasini yo'qqa chiqardi, rasmiy zahiralar dinamikasi esa nafaqat rasmiy hisob kitoblar qoldig'ining oqibati, balki to'lov balansining boshqa bo'limlarida hisobga olingan oqimlaridagi o'zgarishlarning sababchisi ham bo'lib qoldi.

35.5. To'lov balansini makroiqtisodiy tartibga solish vositalari va usullari

To'lov balansi muvozanatini ta'minlash uchun joriy hisoblar va kapital harakati qoldiqlari bir-birini aynan qoplashi zarur bo'ladi. Markaziy Bank valuta intervensiyasini amalga oshirish chorasini ko'rmasa, va rasmiy valuta zahiralari miqdorini o'zgartirmasa to'lov balansi hisoblarini valuta kursining erkin tebranishi hisobiga o'zaro tartibga solish amalga oshiriladi.

Bunday sharoitda kapital oqib kelishi sababli milliy valutaning qimmatlashuvi, kapital chiqib ketishi sababli esa uning arzonlashuvi ro'y beradi. Valuta kursining erkin tebranishi to'lov balansining joriy va kapital hisoblarini avtomatik ravishda mutanosiblashtirish mexanizmi hisoblanadi.

Erkin tebranuvchi valuta kursi tarafdorlari ta'kidlashicha, to'lov balansining ortiqchaligi yoki taqchilligi bunday vaziyatlarda tez orada barham topadi. Valuta kurslarining erkin harakati to'lov balansining ortiqchaligi yoki kamomadini yo'qotadi.

Erkin tebranuvchi valuta kurslari to'lov balansini tenglashtirishda katta imkoniyatlarga ega bo'lsada, kamchilikliklardan xoli emas. Chunonchi, bunday valuta birinchidan, savdoning noaniqligi va qisqarishiga, ikkinchidan, savdo sharoitining yomonlashishiga, uchinchidan, beqarorlikka va boshqalarga olib keladi.

Agar Markaziy Bank rasmiy valuta zahiralarini vositasida chet el valutasini sotib yoki sotib olib valuta kursini erkin tebranishiga barham bersa valuta kursining erkin tebranishi vositasida to'lov balansini tartibga solish zarurati yo'qoladi.

Bunda to'lov balansini taqchilligi Markaziy Bank rasmiy zahiralarini qisqartirish hisobiga moliyalashtirilishi mumkin. Bunday vaziyatda ichki bozorda chet el valutasini taklifi oshadi. Qayd etilgan operatsiya eksportga xos bo'lib kreditda plyus belgisi bilan (Markaziy Bankda xorijiy valuta zahirasi kamayishiga qaramasdan) hisobga olinadi. Ushbu tadbir natijasida ichki bozorda milliy valuta taklifi kamayadi, uning almashinuv kursi nisbatan ko'tariladi va bu investitsiyalar hajmiga hamda iqtisodiy o'sishga salbiy ta'sir ko'rsatadi.

To'lov balansining aktiv-(musbat) qoldig'i esa Markaziy bankning rasmiy valuta zahiralarini miqdorining ortishiga olib keladi. Bunda Markaziy bank valuta zahiralarini to'ldirish uchun chet el valutasini sotib olishi natijasida ichki bozorda milliy valuta taklifi nisbatan oshadi, uning almashinuv kursi kamayadi, bu hol esa iqtisodiyotga (investitsiyalar hajmi va iqtisodiy o'sishga) rag'batlantiruvchi ta'sir ko'rsatadi.

Markaziy bank tomonidan o'tkaziladigan bunday operatsiyalar rasmiy rezervlar bilan bo'ladigan operatsiyalar deyiladi. Bu operatsiyalar natijasida to'lov balansini qoldig'i nolga tenglashishi kerak.

To'lov balansining aktiv qoldig'i yoki taqchilligi mamlakat iqtisodiyoti xususiyatlariga qarab turlicha baholanishi mumkin.

Valutasi xalqaro hisob-kitoblarda, hamda boshqa mamlakatlar zahira valutasini sifatida foydalaniladigan mamlakatlar uchun to'lov balansini taqchil bo'lishi tabiiy hol hisoblanadi. Bunday mamlakatlar to'lov balansini uzoq muddat makroiqtisodiy tartibga solmasligi mumkin.

Milliy valutasini jahon iqtisodiyotida zahira valutasini hisoblanmaydigan mamlakatlar Markaziy Banklaridan rasmiy valuta zahirasi cheklanganligi tufayli to'lov balansining uzoq muddatli taqchilligi bu rezervlarning sarflab bo'linishiga olib keladi. Bunday hollarda to'lov balansini makroiqtisodiy tartibga solinadi. Mamlakat savdo siyosati va valuta almashinuv kursini o'zgartirishi choralari qo'llab chet ellardagi o'z xarajatlarini kamaytiradi, yoki eksportdan o'z daromadlarini oshiradi.

Bunday tartibga solish natijasida baholar umumiy darajasining oshishi oqibatida aholi turmush darajasining pasayishi, milliy valutaning qadrsizlanishi, iqtisodiyotning ayrim tarmoqlarida bandlilikning pasayishi ro'y berishi mumkin.

Valuta rezervlari sarflab bo'lganligi, ilgari olingan chet el kreditlarini qaytarilish grafiklari buzilganligi tufayli bunday kreditlarni yana olish imkoniyatlari yo'qqa chiqqanligi sababli mamlakat to'lov balansini taqchilligining uzoq vaqt davom etishi to'lov balansini inqirozi deyiladi.

To'lov balansini inqirozini hal etishning yagona yo'li makroiqtisodiy tartibga solish hisoblanadi.

O'tish davri iqtisodiyotida xorijiy valutaga spekulyativ talab oshishi Markaziy Bankni qiyin ahvolga solib qo'yadi. Chunki rasmiy valuta zahiralarini bir vaqtning

o'zida ham to'lov balansi taqchilligini ham ichki spekulyativ talabni qondirish uchun etarli bo'lmasligi mumkin.

Valuta almashinuv kursini tartibga solish bu vaziyatdan chiqishning yagona yo'lidir.

Qisqa istiqbolda to'lov balansi qoldig'i jamg'arish va investitsiyalar hajmlarini belgilovchi omillar (masalan budjet soliq siyosati, foiz stavkalari) ta'sirida o'zgarishi mumkin.

Agar mamlakatda rag'batlantiruvchi fiskal siyosat yurgizilsa bu hol milliy jamg'armalarning pasayishiga olib keladi. Bu o'z navbatida joriy operatsiyalar hisobi bo'yicha taqchillikka, kapital harakat hisobi bo'yicha musbat qoldiqqa olib keladi.

Cheklovchi fiskal siyosat milliy jamg'armalar hajmlarini oshiradi, bu o'z navbatida kapital harakati hisobi bo'yicha taqchillikka, joriy operatsiyalar hisobi bo'yicha musbat qoldiqqa olib keladi.

Jahon foiz stavkalarining oshishi kapital harakati hisobi bo'yicha taqchillikka, joriy operatsiyalar hisobi bo'yicha musbat qoldiqqa erishishga olib keladi. Jahon foiz stavkalarining pasayishi esa aks natijalarga olib keladi. To'lov balansi barqarorligiga va yuqori o'sish sur'atlariga, asosan, sanoat korxonalarini tarkibiy yangilash va moliyaviy qo'llab-quvvatlash, eksport hajmini ko'paytirish, ishlab chiqarish quvvatlari ish hajmini oshirish va tayyor mahsulot ishlab chiqarishni rag'batlantirish bo'yicha qabul qilingan

chora-tadbirlar natijasida erishildi.

Mamlakatimiz iqtisodiyoti salohiyatidan imkon qadar to'laroq foydalanish, uning raqobatdoshligini oshirish, sifat jihatidan takomillashtirishda ishlab chiqarishni mahalliyashtirish jarayonlari muhim o'rin tutadi. Ishlab chiqarishni mahalliyashtirish – sanoat ishlab chiqarishining turli bosqichlarida import shaklida xarid qilish orqali qo'llaniluvchi detallar, butlovchi qismlar, yarim tayyor mahsulotlar va tayyor mahsulotlarni mahalliy xomashyo va materiallar asosida ishlab chiqarishga o'tkazish jarayonidir. Ayni paytda sanoat kooperatsiyasi asosida tayyor mahsulotlar, butlovchi buyumlar va materiallar ishlab chiqarishni mahalliyashtirish iqtisodiyotning real sektorini qo'llab-quvvatlash borasidagi muhim yo'nalishlardan biri hisoblanadi.

Ma'lumki, mahalliyashtirish jarayoni iqtisodiyotning jadal va barqaror rivojlanishini ta'minlash, uning tashqi omillarga bog'liqligini kamaytirish, ishlab chiqarish jarayonlariga yangi, samarali texnologiyalarni tatbiq qilishni jadallashtirish, mahalliy xomashyo va ishlab chiqarish resurslaridan keng foydalanish, shuning asosida zamonaviy raqobatbardosh mahsulot ishlab chiqarishni ko'paytirish, valyuta mablag'laridan tejimli va oqilona foydalanish, shuningdek, yangi ish joylarini yaratish imkonini beradi.

Qisqa xulosalar

To'lov balansi – mamlakatning dunyoning boshqa davlatlari bilan bo'lgan savdo va moliyaviy operatsiyalari aks ettirilgan hujjat. U ikki qismdan, joriy operatsiyalar va kapital harakati balansidan tashkil topgan.

Savdo balansi mamlakatning joriy tashqi savdo operatsiyalari bo'yicha tushumlar va xarajatlarni aks ettiradi. Mamlakat eksporti uning importidan ko'p bo'lsa joriy operatsiyalar balansi musbat qoldiqli bo'ladi.

Joriy operatsiyalar balansidagi o'zgarishlar ichki ishlab chiqarish va o'z navbatida ichki bandlilik bilan bog'liq.

Kapital harakati balansi aktivlarni sotish va sotib olish bo'yicha barcha xalqaro bitimlarni xarakterlaydi. Aktivlarni sotib olish xorijiy valutaning chiqib ketishini, sotish esa kirib kelishini anglatadi.

Har qanday xalqaro bitimlar to'lov balansida ikki bir-birini muvozanatlovchi yozuv ko'rinishida qayd etilgani uchun hamjoriy operatsiyalar balansi va kapital harakati balansi qoldiqlari 0ga teng bo'ladi.

To'lov balansi taqchilligi rasmiy zahiralarning qisqarishi hisobiga qoplansa uning aktiv saldosi rasmiy zahiralarning o'sishiga olib keladi.

Qayd etilmagan valuta kursi sharoitida tqldov balansi valuta kursining o'zgarishi hisobiga muvozanatlashadi.

Milliy valutasida jahon iqtisodiyotida zahira valutasida hisoblanmaydigan mamlakatlar Markaziy banklaridan rasmiy valuta zahirasi cheklanganligi tufayli to'lov balansining uzoq muddatli taqchilligi bu rezervlarning sarflab bo'linishiga olib keladi. Bunday hollarda to'lov balansini makroiqtisodiy tartibga solinadi.

Qayd etilgan valuta kursi tizimida to'lov balansini tartibga solish uchun tashqi savdo siyosati, pul kredit va fiskal siyosat vositalaridan foydalaniladi.

Nazorat va muhokama uchun savollar

1. Mamlakat to'lov balansi necha qismdan iborat va ularda nimalar qayd etiladi?

2. To'lov balansini tuzishda ikki bor yozuv prinsipi nimani anglatadi?

3. Joriy operatsiyalar balansida aks ettiriladigan operatsiyalarni sanab bering.

4. Kapital harakati balansining mohiyatini tushuntirib bering.

5. To'lov balansi tarkibiy qismlari o'rtasidagi bog'liqlikni tushuntirib bering.

6. To'lov balansi taqchilligi va inqirozi bir xil tushunchalarmi?

7. Erkin tebranuvchi valuta kursi tizimida to'lov balansi qay yo'sinda barqarorlashadi?

8. To'lov balansini makroiqtisodiy tartibga solish deganda nimani tushunasiz? Bunda qanday vositalardan foydalaniladi?

9. To'lov balansi tahlili makroiqtisodiy jarayonlar to'g'risida qanday ma'lumotlar olish imkonini beradi?

36- bob. VALUTA KURSI

36.1. Valuta va jahon valuta tizimi tushunchasi

Xalqaro valuta munosabatlari pulning xalqaro to'lov jarayoniga xizmat qilishi jarayonida vujudga keladi. U tashqi savdo bilan birga paydo bo'ldi va rivojlanishning uzoq yo'lini bosib o'tdi. Tarix davomida jahon puli va xalqaro hisob-kitob shakllari o'zgardi. Bir vaqtda valuta munosabatlari ahamiyati o'sdi va ularning nisbatan mustaqil darajasi oshdi. Tovarlar, xizmatlar, kapitallar va ishchi kuchi harakati mamlakatdan mamlakatga ko'chadigan pul massasalari oqimi yordamida amalga oshadi. Bu harakatni tartibga solish zarurligi xalqaro valuta tizimi va jahon valuta tizimlarining shakllanishiga olib keldi. **Valuta – keng ma'noda mamlakat pul birligini (masalan, so'm, dollar, marka, funt-sterling va hokazo) anglatadi. Qisqa ma'noda valuta atamasi chet davlatlarning pul belgisi ma'nosida qo'llaniladi. Har bir milliy bozor xususiy milliy valuta tizimiga ega.**

Milliy valuta tizimi bazasida jahon bozori rivojlanishi natijasida tarkib topadigan va davlatlararo kelishuvlar bilan mustahkamlangan xalqaro valuta munosabatlarini tashkil qilish shakli bo'lgan jahon valuta tizimi amal qiladi.

Mamlakatlar o'rtasida tovar va xizmatlar oqimi ko'paygani sari pul vositalarini ayirboshlashi ham tobora oshib boradi, o'zaro hisob-kitoblardagi nomutanosiblik muammolari yuzaga keladi. Bularning barchasi jahon valuta tizimining barpo etilishiga obyektiv shart-sharoitlar yaratadi. Uning maqsadi - mamlakatlar o'rtasidagi barcha turdagi bitimlarni amalga oshirishni tartibga solishdan va shuningdek, bu ishlarni tezlashtirishdan iborat. Shunday qilib, **jahon valuta tizimi - bu, xalqaro ayirboshlashning barcha shakllariga xizmat qilishga va ularning samarali rivojlanishini ta'minlashga qaratilgan mamlakatlar o'rtasidagi valuta munosabatlarining yig'indisidir.** Xalqaro iqtisodiy munosabatlarning tarkibiy qismi sifatida u quyidagilarni o'z ichiga oladi:

1. Xalqaro bitimlarda foydalaniladigan to'lov va kredit vositalarini (oltin, eng rivojlangan mamlakatlarning milliy valutalari, xalqaro pul birliklari);
2. Valuta kurslarini o'rnatish va saqlab turish mexanizmini;
3. Valuta bozorining ishlash tartibini;
4. Xalqaro hisob-kitoblarni amalga oshirish tartib va qoidalarini;
5. Valuta yordamida tartibga solish va nazorat qilish tizimini;
6. Valuta munosabatlarini tartibga solib turuvchi va jahon valuta tizimining barqaror faoliyatini ta'minlovchi xalqaro tashkilotlar tizimi (Xalqaro valuta fondi, Umumjahon banki, Yevropa tiklanish va taraqqiyot banki).

Hozirgi zamonda xalqaro hisob-kitoblarda va kreditlashda asosan uch xil ko'rinishdagi pul vositalari ishlatiladi:

- oltin, hozirda o'zining asosiy to'lov va hisob-kitob vositasi xususiyatini yo'qotgan bo'lsada, ammo ko'pchilik valuta zahiralarning sezilarli qismini tashkil etadi va muhim tashqi savdo operatsiyalariga xizmat qilish va kreditlashni kafolatlash

uchun ishlatiladi;

- jahonda asosiy o‘rin tutuvchi rivojlangan mamlakatlarning milliy valutalari (AQSh dollari, YEVRO, Ingliz funt-sterlengi, Yaponiya ienasi va boshqalar);
- xalqaro pul birliklari.

Bunday pul birliklariga shu paytga qadar foydalanilgan EKYu, SDR misol bo‘la oladi. Ular barcha mamlakatlar tomonidan tashqi savdo operatsiyalarini amalga oshirishda ishlatiladi. Xorijda kreditlash va investitsiyalashda, chet ellik ishchi kuchi mehnatiga, shuningdek, mamlakat valuta zahiralari yaratishda qo‘llaniladi.

Xalqaro valuta yoki xalqaro to‘lov-hisob va kreditlash vositalariga javob berishi kerak bo‘lgan talab ularning konvertirlashuvi hisoblanadi. **Valuta konvertirlashuvi** deganda uni boshqa xorijiy valutilarga almashish qobiliyati tushiniladi. Hozirgi paytda ular erkin konvertirlanadigan, qisman konvertirlanadigan va konvertirlanmaydigan valutilarga ajratiladi.

Erkin konvertirlanadigan valuta – bu, amaldagi kurs bo‘yicha har qanday boshqa xorijiy valuta erkin va cheklanmagan miqdorda ayirboshlanadigan valutadir. Bunga misol qilib AQSh, Yevropa hamjamiyatiga a‘zo mamlakatlar, Yaponiyalar valutarini kiritish mumkin.

Qisman konvertirlanadigan valuta – bu, faqat ba‘zi xorijiy valutilarga almashtiriladigan va xalqaro to‘lov oborotini qisman qamrab oladigan milliy valutadir.

Konvertirlanmaydigan valuta – bu, faqatgina ichki to‘lovlarga xizmat qiladigan va xorijiy valutaga ayirboshlanmaydigan milliy valutadir.

Konvertirlashni **ichki va tashqi** konvertirlashga ham ajratish mumkin. Ichki konvertirlash rezidentlarining mamlakat ichkarisida xorijiy valutani sotib olishi, uni saqlab turishi va u bilan ayrim operatsiyalarni olib borishini imkoniyatini aks ettiradi. Tashqi konvertirlashda xorijda to‘lovlarni amalga oshirishga va moliyaviy aktivlarni ushlab turishga ruxsat etiladi. Valutalarni konvertirlash ko‘pgina mamlakatlar olib borayotgan iqtisodiy siyosatlarining muhim maqsadi hisoblanadi.

O‘zbekiston Respublikasida valyuta siyosati uning asosiy tamoyillari, ya‘ni milliy valyutamiz so‘mning almashuv kursi barqarorligini hamda ichki valyuta bozorida talab va taklifning mutanosibligini ta‘minlash maqsadlaridan kelib chiqib amalga oshirilmoqda.

So‘nggi yillarda valyuta siyosati uning asosiy tamoyillari, ya‘ni milliy valyutamiz so‘mning almashuv kursi barqarorligini hamda ichki valyuta bozorida talab va taklifning mutanosibligini ta‘minlash maqsadlaridan kelib chiqib amalga oshirilmoqda.

Bunda asosiy e‘tibor inflyasion jarayonlarni jilovlashga, milliy valyuta almashuv kursi keskin tebranishlarining oldini olishga hamda eksportni qo‘llab-quvvatlashga qaratilayapti. Eksportni rag‘batlantirish maqsadida so‘mning AQSH dollariga nisbatan kursini bosqichma-bosqich pasaytirish choralari ko‘rilayapti (2.2-jadval).

Jadval ma‘lumotlari tahlilidan ko‘rishimiz mumkinki, milliy valyutamiz so‘m muomalaga kiritilgan vaqtdan hozirgacha bo‘lgan davrda milliy valyutaning AQSH

dollariga nisbatan devalvatsiyasi 440,1 barobarni tashkil etgan. Eksportni rag‘batlantirish maqsadida so‘mning AQSH dollariga nisbatan kursini bosqichma-bosqich pasaytirish choralari ko‘rilishi natijasida, 2017 yil davomida so‘mning AQSH dollariga nisbatan ayirboshlash kursi 251 foizga pasayib, 2019 yilning 1 yanvar holatiga ko‘ra, bir AQSH dollari 8120,07 so‘mni tashkil qildi.

19.1-jadval

1994 - 2017 yillarda O‘zbekiston milliy valyutasi so‘mning AQSH dollariga nisbatan almashuv kursi dinamikasi⁸⁵

Yillar	Almashuv kursi, so‘m/\$	O‘sishi (kamayish) sur‘ati, %	
		oldingi yilga nisbatan	1994 yilga nisbatan
1994	18,45	-	100
1995	31,41	170,2	170,2
1996	42,43	135,1	229,9
1997	69,80	164,5	378,3
1998	99,40	142,4	538,6
1999	131,01	131,8	709,9
2000	249,58	190,5	1352,4
2001	445,99	178,7	2416,7
2002	808,59	181,3	4381,5
2003	1022,05	126,4	5538,2
2004	1072,13	104,9	5809,6
2005	1170,77	109,2	6344,1
2006	1281,99	109,5	6946,8
2007	1329,43	103,7	7203,8
2008	1387,92	104,4	7520,8
2009	1541,98	111,1	8355,6
2010	1668,42	108,2	9040,7
2011	1803,57	108,1	9773,0
2012	1987,53	110,2	10769,9
2013	2202,18	110,8	11933,0
2014	2422,40	110	13126,3
2015	2810,0	116	15226,5
2016	3231,48	115	17510,5
2017	8120,07	251,3	44011,2

36.2. Valuta bozorini davlat tomonidan tartibga solish usullari

Bozordagi talab va taklif ta’siri natijasida vaqti-vaqti bilan valuta kurslari o‘zgarib turadi. Davlat valuta kurslarini barqororlashtirish uchun valuta bozorining

⁸⁵ O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki ma’lumotlari

amal qilishiga bevosita yoki bilvosita aralashishi zarur. Buning bir qator usullari mavjud:

1. **Zahiralardan foydalanish.** Valuta kursini mustahkamlashning ko‘proq qo‘llaniladigan usuli - rasmiy zahiralar bilan bozorda manipulyasiya qilish hisoblanadi. O‘z-o‘zidan aniqki, valuta zahirolari alohida mamlakatlar ixtiyoridagi chet mamlakatlar valutalarining zahirasi (Masalan, AQSh dollari, YEVRO va h.k.).

2. **Savdo siyosati.** Valuta bozoriga ta‘sir ko‘rsatishning boshqa tadbirlariga savdo va moliyaviy oqimlar ustidan to‘g‘ridan-to‘g‘ri nazorat qilishni kiritish mumkin. Masalan, AQSh dollarining etishmasligi sharoitida valuta kursini tegishli darajada importni cheklash hisobiga ushlab turish mumkin. Xususan import hajmi boj yoki import kvotalarini kiritish bilan qisqarishi mumkin. Boshqa tomondan mamlakat hukumati eksport uchun milliy ishlab chiqaruvchilarga subsidiya berib, shu orqali xorijiy valuta taklifini ko‘paytirishi mumkin. Bu tadbirlardan foydalanishda vujudga keladigan asosiy muammo shundan iboratki, u jahon savdosi hajmini qisqartiradi, uning tarkibini va savdo aloqalarini o‘zgartirib yuboradi, iqtisodiy maqsadga muvofiqlikning buzilishiga hissasini qo‘shadi. Buning oqibatlarini hisobga olmaslik mumkin emas.

3. **Valuta nazorati.** Boshqa muqobil variant valuta nazorati hisoblanadi. Valuta nazorati sharoitida hukumat milliy eksportyorlar olgan barcha tegishli chet el valutalarini davlatga sotish talabi bilan ularning etishmasligi muammosini hal qilishi mumkin. Keyin, hukumat o‘z navbatida chet el valutasining bu zahirasini turli milliy importyorlar o‘rtasida taqsimlaydi. Shu yo‘l bilan hukumat milliy importni, milliy eksport hisobidan olingan chet el valutasini miqdoriga cheklaydi.

Valuta nazorati tizimi bir qator kamchiliklarga ega. Birinchidan, savdo cheklashlari (boj, kvota, eksportga subsidiya) kabi valuta nazorati nisbiy ustunlik tamoiliga asoslangan xalqaro savdoning tarkib topgan aloqalarini buzadi. Ikkinchidan, etarli bo‘lmagan valuta resurslari ustidan valuta nazorati jarayoni, so‘zsiz, alohida importyorlarni kamsitilishi bilan bog‘liq. Uchinchidan, nazorat tadbirlari iste‘molchining tanlash erkinligiga tajovuz qilish hisoblanadi.

4. **Ichki makroiqtisodiy tartibga solish.** Valuta kursi barqarorligini ushlab turishning oxirgi vositasi ichki soliq yoki pul siyosatidan shunday foydalanish hisoblanadiki, bunda tegishli chet el valutasining etishmasligi bartaraf qilinadi. Masalan, cheklovchi soliq va pul kredit siyosati tadbirlari mamlakat milliy daromadini boshqa bir davlat milliy daromadiga nisbatan pasaytiradi. Chunki, import miqyosi milliy daromad darajasiga to‘g‘ridan- to‘g‘ri bog‘liq bo‘lib, bu o‘sha boshqa davlat buyumlariga va demak, xorijiy valutaga talabning cheklanishiga olib keladi.


36.3. Valuta kursi va uni belgilovchi omillar

Barcha xalqaro bitimlar valutilarni ayirboshlash orqali olib borilishi tufayli har qanday ayirboshlashda bo'lgani kabi valuta bahosini yoki valuta kursini aniqlash zaruriyati paydo bo'ladi. Shunday qilib, **valuta kursi – bu, bir mamlakat pul birligining boshqa mamlakatlar pul birligida ifodalangan bahosidir.** Valuta kursini o'rnatish **kotirovkalash** deb ataladi. U to'g'ri va teskari kotirovkalashga ajratiladi. Agar xorijiy valuta birligining bahosi milliy valutada ko'rsatilsa, bunga to'g'ri kotirovkalash deb ataladi. Masalan, 1 AQSh dollari 975 so'mga, 1 Rossiya rubli 32 so'mga teng va hakozi. Teskari kotirovkalashda milliy valutaning bir birligiga to'g'ri keladigan xorijiy valutaning miqdori o'rnatiladi. Masalan, 1 o'zbek so'mi 0,001025 AQSh dollariga to'g'ri keladi. Dunyoning ko'p mamlakatlarida, shu jumladan, O'zbekistonda ham to'g'ri kotirovkalash qabul qilingan. Valuta bozoridagi talab va taklifni solishtirish natijasida valutaning bahosi yoki kursi aniqlanadi. O'zbek so'mining kursi O'zbekiston valuta birjasida o'rnatiladi, uning ishtirokchilari valuta operatsiyalarini olib borish huquqiga ega bo'lgan banklar hisoblanadi. Shu bilan birga, turli pul birliklari uchun valuta kurslarini o'rnatish jarayonida bozor kuchlarining ta'sir etish darajasi bir xil emas. Bu ta'sir kuchiga bog'liq holda valuta kurslarini qabul qilishning bir- biridan farq qiluvchi ikki varianti mavjud.

1. Talab va taklifga asosan aniqlanadigan egiluvchan yoki erkin suzib yuruvchi valuta kursi tizimi.

2. Davlat aralashuvi asosida aniqlanadigan qat'iy belgilangan valuta kursi tizimi.

Erkin suzib yuruvchi valuta kurslari talab va taklif asosida aniqlanadi. Masalan, bir o'zbek so'mining AQSh dollariga almashishini qarab chiqamiz. Milliy valuta kursining pasayishi natijasida dollarga talab kamayadi va taklif esa oshadi (36.1-rasm).



36.1-rasm. Xorijiy valuta bozori

Dollarga bo'lgan talabning kamayishi D to'g'ri chizig'ida berilgan. Bu shuni ko'rsatadiki, agarda dollar o'zbekistonliklar uchun arzon bo'lsa, amerika tovarlari ham ular uchun arzon bo'ladi va bu, o'z navbatida, ularning amerika tovarlariga bo'lgan talabini oshiradi.

Dollarning taklifi (S) kamaysa, soʻmda belgilangan dollarning qiymati oshadi (yaʼni, dollarda belgilangan soʻmning qiymati pasayadi). Bunday vaziyatlarda amerikaliklar koʻproq oʻzbek tovarlarini sotib olish imkoniyatiga ega boʻladi. Chunki, soʻmning dollarga nisbatan qiymati pasaysa, u oʻz navbatida oʻzbek tovarlarining narxi ham pasayganini bildiradi va oqibatda koʻproq oʻzbek tovarlarini sotib olish imkoni paydo boʻladi.

Oʻzbek tovarlarini sotib olish jarayonida ular AQSh dollarini valuta bozoriga olib chiqadi, chunki, oʻzbek tovarlarini sotib olish uchun dollarni soʻmga almashtirishadi. Dollarga boʻlgan talab va taklifning kesishgan nuqtasi dollarning soʻmdagi qiymatini bildiradi.

Agarda, dollarning soʻmdagi qiymati oshsa, soʻm qiymatining pasayganligini yoki qadrsizlanganligini koʻrsatadi. Aksincha, agarda dollarning soʻmdagi qiymati pasaysa, soʻm qiymatining oshganligini yoki soʻmning qimmatlashganligini koʻrsatadi. Bir birlik xorijiy valutani sotib olish uchun kam miqdorda milliy valuta sarf qilish milliy valutaning qimmatlashuvini bildiradi. Agarda, dollarga nisbatan soʻm qadrsizlansa, dollar soʻmga nisbatan qimmatlashadi.

Qayd etilgan valuta kursi – bu, xorijiy valutada ifodalangan, davlat tomonidan rasmiy oʻrnatilgan milliy pul birligining bahosi boʻlib, unga valuta bozorida talab va taklifning oʻzgarishi bevosita taʼsir qilmaydi.

Qayd qilingan valuta kursi tizimi tarafdorlari taʼkidlaydilarki, undan foydalanish xalqaro savdo va moliya bilan bogʻliq boʻlgan tahlika va noaniqlikni kamaytiradi. Qayd qilingan valuta kurslarini qoʻllash oʻzaro foydali savdo va moliyaviy operatsiyalar hajmini kengaytirishga olib keladi. Ammo, qayd qilingan valuta kurslari tizimining hayotga layoqatligi oʻzaro aloqalar jarayondagi ikki sharoitga bogʻliq:

- zahiralarining mavjudligi;
- oʻz hajmi boʻyicha sezilsiz kamyoblik yoki toʻlov balansi aktivlarining tasodifiy vujudga kelishi. Katta va doimiy kamyobliklar mamlakat zahiralarini yoʻqqa chiqarishi mumkin.

Xulosa qilib aytganda, valuta kurslarining talab va taklif taʼsiri ostida shakllanish darajasi, oʻz-oʻzicha kurslar oʻrtasidagi nisbatlarga taʼsir etuvchi real jarayonlarni aniqlab bera olmaydi. Chet el valutariga talab va taklifga, demak, valuta kurslariga mamlakatdagi ham ichki va ham tashqi iqtisodiy munosabatlar majmui bevosita yoki bilvosita taʼsir koʻrsatadi.

Valuta kurslarining oʻzgarishiga bir qator omillar taʼsir koʻrsatadi. Ularni qisqacha qarab chiqamiz:

1. Isteʼmolchilar didining boshqa mamlakat buyumlariga nisbatan oʻzgarishi.
2. Turli mamlakatlarda daromadlardagi nisbiy oʻzgarishlar.
3. Bahodagi nisbiy oʻzgarishlar.
4. Nisbiy real foiz stavkalari. Faraz qilamiz, AQSh inflatsiyani quvib oʻtish maqsadida « qimmat pul» siyosatini amalga oshira boshlaydi. Natijada, real foiz stavkalari (inflatsiya surʼatini hisobga olib oʻzgartirilgan (korrektirovka qilingan) foiz stavkalari) AQShda boshqa mamlakatlar, masalan, Buyuk Britaniyaga qaraganda

ko'tariladi. Britaniyalik jismoniy shaxs va firmalar ishonch hosil qiladiki, AQSh moliyaviy vositalarni qo'yish uchun juda jozibador va qulay joyga aylanadi. Amerika moliyaviy aktivlariga talabning bu ko'payishi Angliya funti taklifining kengayganligi va shu sababli dollar qiymati o'sganligini bildiradi.

5. Spekulyasiya.

Dollar kursi pasayishi, funt kursi esa, aksincha ko'tarilishi to'g'risidagi prognozlar natijasida dollarni ushlab turuvchilar ularni funtga aylantirishga harakat qiladi va shu bilan funtga bo'lgan talabni oshiradi. Bu almashish, dollar kursining pasayishini va funt kursining oshishini keltirib chiqaradi.

O'tish davri iqtisodiyotida xorijiy valutaga spekulyativ talab oshishi Markaziy Banklarni qiyin ahvolga solib qo'yadi. Chunki rasmiy valuta zahiralari bir vaqtning o'zida ham to'lov balansi taqchilligini ham ichki spekulyativ talabni qondirish uchun etarli bo'lmasligi mumkin.

Valuta almashinuv kursini tartibga solish bu vaziyatdan chiqishning yagona yo'lidir.

Nominal va real valuta kurslari o'zaro farqlanadi. Nominal valuta kursi valutilarning almashinuv kursi deyiladi. Yuqorida biz aynan nominal valuta kursi haqida fikr yuritdik.

Real valuta kursi ikki mamlakatda ishlab chiqarilgan tovarlarning nisbiy bahosidir⁸⁶.

Real valuta kursi bir mamlakat tovarlari boshqa mamlakat tovarlariga almashishi mumkin bo'lgan nisbatni ko'rsatadi, shu tufayli u **savdo sharoiti** ham deb yuritiladi.

Nominal va real valuta kurslari o'rtasidagi nisbat quyidagi ko'rinishga ega.

$$E_r = E_n \frac{P_d}{P_t}$$

Bu yerda : E_r – real valuta kursi; E_n - nominal valuta kursi ;

P_d – milliy valutada ko'rsatilgan ichki baholar darajasi (indeksi);

P_t – xorijiy valutada ko'rsatilgan chet eldagi baholar darajasi (indeksi).

Har ikkala mamlakatdagi baholar darajasi (indeksi) bir xil bazis yilga nisbatan berilgan. Real valuta kursining ko'tarilishi (pasayishi) bu mamlakat tovarlari raqobatbardoshligining pasayganligi (oshganligi) to'g'risida guvohlik beradi.

Pul nafaqat muomala yoki to'lov vositasi, balki jamg'arish vositasi ham hisoblanadi. Iflyasiya sharoitida jamg'arish vositasi sifatida milliy valutadan emas, balki xorijiy valutadan foydalaniladi.

Valuta bozori, depozitlar (qo'yilmalar) va qimmatbaho qog'ozlar bozori bilan bevosita aloqaga ega. Bunda asosan foiz me'yorlari asosiy ahamiyatga ega. Agarda, foiz me'yorlari baholar o'sishini qoplasa, mijozlar esa moliya institutlariga ishonch hosil qilishsa, jamg'arma bozori valuta bozoriga asosiy raqobatchi bo'lishi mumkin.

⁸⁶ N. Gregory Mankiw. Macroeconomics. 8 th edition. Harvard University. (NY.: Worth Publishers, 2013): 150

Ko'pgina mamlakatlarning statistik kuzatishlaridan shu ma'lum bo'lganki, depozitlar va qimmatbaho qog'ozlar bozoridagi operatsiyalar o'sishi bilan, valuta bozorlariga iste'molchilar tomonidan bo'ladigan ta'sir o'z-o'zidan kamayadi.

Sarmoyachilar qanday qilib bo'lsa ham o'zlarining vaqtincha bo'sh turgan resurslaridan unumli foydalanish va shuningdek, nafaqat o'z resurslaridan, balki xorij aktivlaridan ham foydalanish yo'llarini izlashadi. Chunki, jahon moliya bozorining asosiy qismini kapital aktivlar tashkil etadi.

Agarda, depozit stavkalari oshsa, pul oqimi valuta kursining oshishiga olib keladi. Xorijiy sarmoyadorlar uchun, ya'ni, ushbu mamlakat depozitiga o'z sarmoyalarini qo'yishni xohlovchilar uchun ularning valutalari foiz stavkalaridan keladigan foydadan ko'ra qimmatliroq bo'ladi.

36.4. Xarid qobiliyati pariteti

Bu savolda nominal kurslarga xarid qobiliyati pariteti qanday ta'sir ko'rsatishi mumkinligini ko'rib chiqamiz.

Xarid qobiliyati pariteti konsepsiyasi narxlarning tenglashuvi nazariyasiga asoslanadi. Ya'ni, bir xil tovar turli joylarda har xil narxlarda sotilishi uzoq davom etmaydi. Agarda, AQSh dollariga mamlakat ichida chet mamlakatlarga nisbatan ko'proq mahsulot sotib olish mumkin bo'lsa, u holda mamlakat ichkarisida sotib olingan mahsulotni chetga sotish orqali foyda olish mumkin. Oqibatda foyda olish maqsadida xorijga tovar olib chiqish ko'payadi va baholar tenlashishiga sabab bo'ladi.

Xarid qobiliyati pariteti konsepsiyasiga ko'ra valuta kursi doimo turli mamlakatlarda baholar darajasining o'zgarishi natijasida kelib chiqadigan farqni qoplash uchun zarur bo'lgan darajada o'zgaradi. Ya'ni:

Pd

$$r = \frac{Pd}{Pt}$$

Pt

Bu yerda: r — xorijiy valutaning milliy valutadagi bahosi;

Pd — ichki baholar darajasi; Pt — chet eldagi baholar darajasi.

Valuta kurslarining oshishi mamlakatlar eksport imkoniyatlarini yomonlashtiradi. Valuta kurslarining beqarorligi tashqi iqtisodiy aloqalarga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Uning tebranishi xalqaro bitimlarda noaniqlik va tahlika darajasini ko'paytiradi. Shu sababli valuta kursi ham mamlakat ichida va xalqaro munosabatlarda tartibga solishning muhim obyekti hisoblanadi.

Davlat bevosita tartibga solish vositasi sifatida valuta intervensiyasi va diskont siyosatidan foydalanish mumkin.


Diskont siyosatida bank hisob stavkasini oshirib yoki tushirib chet el kapitallari kirishi yoki chiqib ketishiga ta'sir ko'rsatishi mumkin. Tartibga solishning ko'proq universal usuli valuta intervensiyasi hisoblanadi. Bunda Markaziy banklar taklifi etarli bo'lmagan, kursi esa yuqori bo'lgan chet el valutarini sotadi, ularni taklif

ortiqcha va kursi past bo'lganda sotib oladi. Bu bilan talab va taklifni tenglashtirib, milliy valuta kursi tebranish chegarasini cheklaydi.

Valuta intervensiyasini qo'llash zahira valuta fondining miqdori bilan cheklanadi, shu sababli valutalarni sotish, albatta, ularni sotib olish bilan almashtirib turilishi lozim.

36.5. Makroiqtisodiy siyosatning nominal va real valuta kurslariga ta'siri

Real valuta kurslari jamg'arma va sarmoyalar o'rtasidagi farqni ko'rsatuvchi vertikal to'g'ri chiziq va sof eksport miqdorini ko'rsatuvchi, o'ngdan pastga egilgan egri chiziq kesishgan nuqtada tenglikka erishadi (19.2-rasm). Ushbu nuqtada xorijga kredit berish sifatida ko'rsatilgan milliy valuta taklifi, xorijliklarning ushbu mamlakatdan sof eksportni sotib olishi uchun zarur bo'ladigan milliy valuta talabi bilan kesishadi. Bu shuni bildiradiki, real valuta kursi kapital bilan bo'ladigan operatsiyalar bo'yicha milliy valuta taklifini joriy operatsiyalar uchun unga bo'lgan talabni tenglashtiradi.




36.2 - rasm. Real almashinuv kursidagi muvozanat

Davlat xarajatlarining oshishi (yoki soliqlarning kamayishi) milliy jamg'armalarni kamaytiradi va (S-I) egri chiziq chapga suriladi (36.3-rasm).

Bu siljishlar xorijiy investitsiyalar uchun milliy valuta taklifining kamayishini ko'rsatadi.


Valuta taklifining qisqarishi uning real almashtirish kursini oshiradi. Natijada, milliy mahsulotlar xorijliklarnikiga nisbatan qimmatlashadi. Bu esa, o'z navbatida, eksportning qisqarishiga va importning oshishiga olib keladi. Oqibatda joriy operatsiyalar hisobida taqchillik paydo bo'ladi. Agarda, soliqlarning kamayishi investitsiyalarning oshishiga olib kelsa, milliy jamg'armalar hajmi o'zgarmasa ham (S-I) egri chizig'i yana chapga siljiydi.




36.3-rasm. Valuta taklifidagi o'zgarishlarning real almashtirish kursiga ta'siri

Investitsion soliq kreditlari ushbu mamlakatga investitsiyalar kiritishni xorijiy sarmoyadorlar uchun foydali bo'lishiga olib keladi. Bu esa muvozanatli real valuta kursini oshiradi va to'lov balansida taqchillikni keltirib chiqaradi.

Chet mamlakatlardagi rag'batlantiruvchi budjet-soliq siyosati bu mamlakatlardagi jamg'armalar darajasini kamayishiga olib keladi. Bu esa xalqaro foiz stavkasini oshiradi va kichik ochiq iqtisodiyotdagi investitsiyalar darajasini kamaytiradi.



36.4-rasm. Budjet - soliq siyosatining real almashtirish kurslariga ta'siri



36.5-rasm. Importdagi o'zgarishlarning eksportga ta'siri

Bunday vaziyatlarda xorijga sarmoya qo'yish uchun taklif qilinayotgan milliy valuta ko'payadi va (S-I) egri chizig'i o'ngga suriladi (36.4-rasm). Natijada muvozanatli real almashtirish kursi pasayadi, milliy mahsulotlar arzonlashadi va sof eksport ko'payadi.

Importga tarif yoki kvotalar joriy qilish siyosati sof eksportning oshishiga olib keladi va bu hol grafikda $X_n(E)1$ egri chizig'ini $X_n(E)2$ holatiga siljishi sifatida namoyon bo'ladi (36.5-rasm).

Natijada muvozanatli real valuta kursi oshadi, milliy mahsulotlar qimmatlashadi va sof eksport kamayadi.

Shunday qilib, mamlakat ichki bozorini chet el raqobatchilaridan himoya qilish maqsadida olib boriladigan proteksionistik savdo siyosati joriy operatsiyalar hisobi va kapital harakati hisobiga ta'sir qilmaydi. Ammo, u muvozanatli real valuta kursini oshiradi va tashqi savdo miqdorini kamaytiradi. Sof eksport o'zgarmagan bo'lsa ham B nuqtadagi eksport va import hajmi A nuqtadagi eksport va import hajmidan kam bo'ladi. Importga cheklashlarni joriy qilish ichki narxlar darajasi (P_d)ning oshishiga olib keladi. Shuning uchun ham uzoq davrda nominal valuta kursi (E_n) narxlar oshishiga teng tarzda kamayadi. Natijada, o'sgan muvozanatli real valuta kursi E_2 nuqtada barqarorlashadi, ya'ni sof eksport kamayishi ortidan E_1 nuqtaga qadar pasaymaydi. Baholar darajasining ko'tarilishiga javoban nominal valuta kursining pasayishi sotib olish qobiliyati paritetini tiklaydi.

Qisqa xulosalar

Jahon valuta tizimi - xalqaro ayirboshlashning barcha shakllariga xizmat qilishga va ularning samarali rivojlanishini ta'minlashga qaratilgan mamlakatlar o'rtasidagi valuta munosabatlarining yig'indisidir.

Valuta konvertirlashuvi deganda uni boshqa xorijiy valutalariga almashish qobiliyati tushuniladi. Erkin konvertirlanadigan valuta – bu, amaldagi kurs bo'yicha har qanday boshqa xorijiy valuta erkin va cheklanmagan miqdorda ayirboshlanadigan valutadir. Bunga misol qilib AQSh, Yevropa hamjamiyatiga a'zo mamlakatlar, Yaponiyalar valutalarini kiritish mumkin.

Davlat valuta kurslarini barqarorlashtirish uchun valuta bozoriga ta'sir qilishning rasmiy zahiralarni tartibga solish, savdo siyosati, valuta nazorati va ichki makroiqtisodiy tartiga solish kabi usullaridan foydalanadi.

Valuta kursi mamlakat pul birligining boshqa mamlakatlar pul birligida ifodalangan bahosidir.

Erkin tebranuvchi valuta kursi talab va taklif asosida aniqlanadi.

Qayd etilgan valuta kursi – xorijiy valutada ifodalangan, davlat tomonidan rasmiy o'rnatilgan milliy pul birligining bahosi bo'lib, unga valuta bozorida talab va taklifning o'zgarishi ta'sir qilmaydi.

Xarid qobiliyati pariteti konsepsiyasiga ko'ra valuta kursi doimo turli mamlakatlarda baholar darajasining o'zgarishi natijasida kelib chiqadigan farqni qoplash uchun zarur bo'lgan darajada o'zgaradi

Valuta taklifining qisqarishi uning real almashtirish kursini oshiradi.

Importga tarif yoki kvotalar joriy qilish siyosati sof eksportning oshishiga olib keladi. Natijada muvozanatli real valuta kursi oshadi, milliy mahsulotlar qimmatlashadi va sof eksport kamayadi.

Mamlakat ichki bozorini chet el raqobatchilaridan himoya qilish maqsadida olib boriladigan proteksionistik u muvozanatli real valuta kursini oshiradi va tashqi savdo miqdorini kamaytiradi. Valuta kurslarining o'zgarishiga, shuningdek bir qator tashqi va ichki omillar va ular o'rtasidagi nisbat ta'sir ko'rsatadi.

Nazorat va muhokama uchun savollar

1. Valuta tizimining mohiyatini va uning tarkibiy qismlarini aytib bering
2. Valuta bozori davlat tomonidan qaysi usullar bilan tartibga solib turiladi?
3. Ichki va tashqi konvertirlash tushunchalariga izoh bering.
4. Valuta kursi nima va uni qanday omillar belgilaydi?
5. Foiz stavkasi va valuta kursi o'rtasida qanday bog'lig'lik bor?
6. Nominal va real valuta kurslariga izoh bering.
7. Xarid qobilyati pariteti atamasining mohiyati nimadan iborat?
8. Real valuta kursi makroiqtisodiy siyosat ta'sirida qay tarzda o'zgartiriladi va uning milliy iqtisodiyotga ta'siri qanday?
9. Proteksionizm siyosatining valuta kursiga ta'sirini qanday baholaysiz?
10. Valuta kursi o'zgarishining yalpi talab va yalpi taklif hajmiga ta'siri mexanizmini tushuntirib bering.

IZOHLI LUG'AT

Almashtirish samarasi - ish haqini ortishi natijasida bo'sh vaqtning qisqarishi.

Alternativ xarajatlar (opportunity cost) - tanlashda voz kechilgan eng yaxshi alternativ variantdan olinadigan natija (qiymat, foyda, naflik).

Alternativ qiymat (foydalanilmagan imkoniyat deb ham qaraladi) - biror ne'mat qiymatini voz kechilgan boshqa bir nechta ne'mat qiymati bilan ifodalanishi.

Amortizasiya - bosqichma-bosqich asosiy kapital qiymatining ma'lum bir qismini ishlab chiqariladigan mahsulot qiymatiga o'tkazish yo'li bilan uni qoplash.

Asimmetrik axborot - bu shunday holatki, bunda bozorda bo'ladigan savdo-sotiqda bozor qatnashchilaridan bir qismi kerakli, muhim axborotga ega bo'lgan qism ega emas.

Auksion - tovarni oldi-sotdisini tashkil qilish usullaridan biri bo'lib unda transaksiya xarajatlari real vaqt rejimida o'tadi.

Bertran muvozanati (Bertrand equilibrium) - bozor duopolik bo'lganda firmalar tovar narxini tushirish va mahsulot ishlab chiqarish hajmini oshirish orqali bir biri bilan raqobatlashadi. Tovar narxi chekli xarajatga teng bo'lganda muvozanat holat barqarorlashadi.

Befarqlik chizig'i (indifference curve) - shaxs uchun bir xil naf beradigan bo'sh vaqt, ish vaqti va ish haqi (daromad) kombinatsiyalarini ifodalovchi egri chiziq (bu yerda bo'sh vaqt va ish vaqti 0 dan 24 soatgacha qiymat qabul qiladi va har bir ish vaqti ma'lum daromadni, ish haqini ifodalaydi).

Bozor muvozanati - bozorda taklif miqdorini talab miqdoriga teng bo'lgan hol, taklif chizig'i bilan talab chizig'i kesishgan nuqtaga muvozanat nuqta deyiladi.

Byudjet - iste'molchining ma'lum vaqt oralig'ida oladigan barcha daromadlari yig'indisi.

Byudjet chegarasi (budget constraint) - "umumiy vaqt – daromad" koordinatalariga ega bo'lgan to'g'ri chiziq bo'lib, uning yotqlik burchagi ish haqini ifodalaydi. (daromad 0 bo'lganda vaqt 24 soatga teng, ya'ni (24,0)).

Byudjet chizig'i (budget line) - byudjetni to'liq sarflash sharti bilan iste'molchi sotib oladigan tovarlar kombinatsiyalarini ifodalovchi chiziq.

Daromad (revenue, yalpi daromad, TR) - sotilgan tovar miqdorini narxga ko'paytirilganiga teng, mahsulotlarni sotishdan tushgan tushum.

Daromad samarasi (income effect) - iste'mol majmuasiga kiruvchi ne'matlardan birining narxi o'zgarishi natijasida hosil bo'lgan real daromad hisobidan iste'mol tarkibini o'zgarishi.

Diversifikasiya - tavakkalchilikni pasaytirish usuli bo'lib bunda tavakkalchilik (yo'q otishlar) bir qator tovarlarga shunday taqsimlanadiki, tovarlardan bittasini sotib olishdan tavakkalchilikning ortishi boshqa tovarni sotib olishdagi tavakkalchilikning pasayishini bildiradi.

Diskontlash - qiymatlarni (daromadni, xarajatni, kapitalni) boshlang'ich yilga yoki oxirgi yilga keltirish.

Dispersiya - kutiladigan natijadan haqiqiy natijaning o'rtacha kvadratik chetlanishi.

Differensial renta - boshqa resurslarga nisbatan yuqori unumdorlikka ega bo'lgan resurs egasi tomonidan olinadigan renta.

Elastiklik (elasticity) - talab va taklifga ta'sir qiluvchi omillarning o'zgarishi natijasida ularni qanchaga o'zgarishi tushuniladi (narxni, daromadi, iste'molchilar soni va xokazo).

Ehtiyoj (needs) - insonni, korxonani faoliyat ko'rsatishi va rivojlanishi uchun zarur bo'lgan barcha narsalar. Ehtiyoj — bu insonlarni iqtisodiy faoliyat bilan shug'ullanishiga undaydigan ichki kuch.

Engel chiziq - iste'mol qilingan tovarlar miqdorini iste'molchi daromadining o'zgarishidan bog'liqligini ko'rsatuvchi chiziq.

Ehtimol (probability) - ma'lum natijaga erishish imkoniyati.

Gollandcha auksion - bu auksionda stavka yuqoridan pastga tovar sotilgunga qadar pasayib boradi.

Yopiq auksion - bunda tovara uchun auksion hatnashchilari bir-biriga bog'liq bo'lmagan holda stavkalarini qo'yadi va tovar kim ko'p stavka qo'ygan bo'lsa shunga beriladi.

Yer narxi - cheklanmagan vaqt davomida yerdan olingan barcha daromadlar yig'indisining keltirilgan (boshlang'ich yilga) qiymati.

Ijara haqi (to'lovi) - yerdan foydalanuvchi tomonidan bir yilda yer egasiga to'lanadigan pul miqdori.

Izokvanta - bir xil hajmda mahsulot ishlab chiqarishni ta'minlovchi omillar sarflari kombinasiyalarini ifodalovchi egri chiziq.

Izokosta - yig'indisi bir xil yalpi xarajatga teng bo'lgan resurslar sarflari kombinasiyalarini ifodalovchi chiziq.

Iqtisodiy ne'mat - ehtiyojni qondirish vositasi.

Iqtisodiy renta - resursni sotilishi mumkin bo'lgan narx bilan muvozanat narx ayirmasiga teng. Noyob, cheklangan resur va ishchining yuqori malakasi uchun to'lanadigan qo'shimcha to'lov.

Iqtisodiy resurslar - ishlab chiqarishda foydalaniladigan omillar yoki ishlab chiqarish omillari.

Iqtisodiy o'sish - ishlab chiqarishda foydalaniladigan resurslar miqdorini oshirish yoki texnologiyani takomillashtirish orqali jamiyatning ishlab chiqarish imkoniyatlarini kengaytirish.

Investision loyiha oqlash muddati - joriy foydalar yig'indisini investisiya qiymatiga teng bo'lishini ta'minlovchi minimal vaqt oralig'i.

Investisiyalash - asosiy kapitalni to'ldirish va o'stirish uchun vapital qo'yish jarayoni.

Investisiyani ichki oqlash normasi - investision loyiha samaradorligi ko'rsatkichi. Investisiyani qiymati bilan kelajakda olinadigan sof foydaning diskontirlangan qiymati yig'indisini nolga aylantiruvchi ichki qaytim normasi.

Inglizcha auksion - bunda stavka pastdan yuqoriga tovar sotilgunga qadar oshib boradi, tovar taklif qilingan maksimal narxda sotiladi.

Inson kapitali nazariyasi - inson kapitaliga investisiya qo'yish natijasida ish haqining har xil darajada bo'lishi sabablarini tushuntirib beruvchi nazariya.

Inson kapitaliga investisiya (human capital investment) - insonning qobiliyatini, malakasini, ishchining mehnat unumdorligini oshirishga olib keladigan har qanday harakat (shu bilan birga bilim olishiga, sog'liqini tiklashga sarflar).

Institutlar - iqtisodiy sub`ektlar harakatini cheklovchi, ularning o'zaro munosabatlarini tartibga soluvchi me`yorlar, qoidalar hamda ushbu me`yor va qoidalarni bajarilishini nazorat qilish mexanizmlari.

Iste`molchi ortiqchaligi (yutug'i) - iste`molchi tovarlar uchun to'lashi mumkin bo'lgan narxlar bilan tovarlarga bozorda haqiqiy to'langan narxlar ayirmalarining yig'indisi.

Ish haqi (wage rate) - foydalanilgan mehnat uchun berilgan pul miqdori yoki narx.

Ishlab chiqarish (production) - ishlab chiqarish omillaridan foydalangan holda mahsulot yaratish jarayonini yoki ishlab chiqarish omillarini tayyor mahsulotga aylantirish jarayoni.

Ishlab chiqarish imkoniyatlari chizig'i - mavjud bo'lgan ishlab chiqarish resurslaridan to'liq va samarali foydalanish orqali ishlab chiqariladigan tovarlar kombinasiyasini ifodalovchi chiziq.

Ishlab chiqarish imkoniyatlari chizig'i - mavjud texnologiyada kapital va mehnatdan to'liq foydalangan holda ikkita tovar kombinasiyalarini maksimal darajada ishlab chiqarishni ifodalaydigan chiziq.

Ishlab chiqarish omillari - cheklangan bo'lib, ularga mehnat (labour), kapital (kapital), materiallar (xomashyo, butlovchi qismlar, elektr energiyasi, gaz, suv va boshq.), yer (land) kiradi.

Ishlab chiqarish funksiyasi - ishlab chiqarilgan mahsulot miqdori bilan shu mahsulotni ishlab chiqarishdagi sarflangan ishlab chiqarish omillari miqdori o'rtasidagi bog'liqlikni ifodalovchi funksiya.

Ishlab chiqarish shartnomalari chizig'i - resurslarni Pareto samarali joylashtirish chizig'i bo'lib, bunda quyidagi shart bajariladi: ishlab chiqaruvchi muvozanati yoki maksimal mahsulot ishlab chiqarish uchun optimal sarflanadigan mehnat va kapital miqdorini aniqlash sharti - ishlab chiqarishning shunday holatiki bunda har qanday omil uchun sarflangan bir birlik pul miqdori bir xil miqdordagi mahsulot ishlab chiqarishni ta'minlaydi.

Ishlab chiqaruvchi ortiqchaligi (yutug'i) - tovarlarnig haqiqiy narxlaridan chekli (bir birlik qo'shimcha tovar ishlab chiqarishga ketgan) xarajatlarni ayirmalari yig'indisiga teng.

Ishchining nafliligini maksimallashtirish sharti (utility maximization rule) - bo'sh vaqtni daromad bilan chekli almashtirish normasini ish haqiga tengligi.

Kapital - uzoq muddatli oraliqda mahsulot ishlab chiqarish uchun foydalaniladigan resurs. Kapitalni mehnat bilan chekli texnologik almashtirish

normasi ikkala ishlab chiqariladigan *A* va *B* tovarlar uchun bir xil bo'lib, ular mehnat narxini kapital narxi nisbatiga teng.

Kasaba uyushmasi - bu ishchilar uyushmasi bo'lib, u o'zining a'zolari nomidan va ko'rsatmasiga ko'ra tadbirkorlar bilan muzokara olib borish huquqiga ega tashkilot.

Kvazioptimum - Pareto-samarali hajmida tovar ishlab chiqarish mumkin bo'lmaganda ishlab chiqarish mumkin bo'lgan variantlardan eng yaxshisini tanlash (optimalga yaqin).

Koldora-Xiks mezoni - turmush farovonligi mezoni bo'lib, unga ko'ra yutganlar o'z yutug'ini boy berganlarning yo'qotishidan yuqori deb narxlasa.

Kooperativ o'yin - o'yinda bir neta o'yinchilar o'zaro kelishib, birgalikda o'ynaydi (iqtisodiyotda kooperativ o'yinga misol sifatida karterni harash mumkin).

Kurno muvozanati - duopolik bozorda har bir firma mustaqil ravishda shunday optimal ishlab chiqarish hajmini tanlaydiki ushbu mahsulot hajmi ikkinchi firmani qanoatlantiradi. Kurno muvozanati firmalarning aks ta'sir qiluvchi funksiyalari grafiklarining kesishish nuqtasida vujudga keladi.

Lorens chizig'i - biror bir ko'rsatkichni taqsimlanish darajasini ifodalovchi egri chiziq. Bu amerikalik olim Maks Otto Lorens (1876-1944) tomonidan aholi daromadlarining taqsimlanishini narxlash uchun ishlab chiqilgan. Aholidan daromad solig'i olinib, ularga transfert berilgandan keyin Lorens chizig'ining botiqligi kamayadi.

Masshtab samarasi - bu ishlab chiqarish masshtabining kengayishi surati bilan mahsulot ishlab chiqarishni o'sish surati o'rtasidagi bog'liqlikni ifodalaydi. Ishlab chiqarishda foydalaniladigan omillar miqdoriga ishlab chiqarish masshtabi deyiladi.

Ma'naviy tavakkalchilik - yo'qotishlar sug'urta kompaniyasi tomonidan to'liq qoplanishiga ishonch hosil qilgan holda vujudga kelishi mumkin bo'lgan yo'qotishlar ehtimolini ongli ravishda oshirib ko'rsatishga intiluvchi shaxsning hatti-harakati.

Mehnat bozorida monopsoniya - bu mukammallashgan raqobatdagi mehnat bozorining alohida bir chetki ko'rinishi bo'lib, bunda biror kichik shahardagi yagona firma mahalliy aholining ko'p qismini ish bilan ta'minlaydi.

Mehnatni chekli mahsuloti - boshqa ishlab omillari sarfi o'zgarmaganda bir birlik qo'shimcha mehnat sarfi hisobidan ishlab chiqarilgan qo'shimcha mahsulot.

Monopolianing o'lik yuki yoki jamiyatning sof yo'qotishi - monopolist bo'lmagandagi mahsulot ishlab chiqarish hajmidan monopolist ishlab chiqargan mahsulotni ayirmasiga teng.

Monopoliya - bu shunday bozorki, unda faqat bitta mahsulot ishlab chiqaruvchi firma faoliyat olib boradi va mahsulot ishlab chiqarishni, sotishni to'liq nazorat qiladi.

Muvozanat narx - talab bilan taklifni tenglashtiruvchi narx. Muvozanat narxga to'g'ri keladigan tovar miqdoriga muvozanat mahsulot miqdori deyiladi.

Mukammal raqobatlashgan bozor - agar bozor quyidagi xususiyatlarga ega bo'lsa: bozor sub`ektlar tovar narxiga tasir qila olmaydi; firmalarni bozorga kirish va chiqishi erkinligi; sotuvchilar birgalikda xarakat qilmaydi; bozor tugrisidagi barcha axborotlar bilan bozor sub`ektlari tanish.

Narx - bir birlik tovarni sotib olish uchun to'lanadigan pul miqdori.

Narx diskreminatsiyasi (price discremination) - bunda firma bir xil tovarni xar xil narxda sotib olish imkoniyati xar xil bo'lgan xaridorlarga sotadi.

Naflik - iqtisodiy ne`matlarni, shaxs ehtiyojini qondirish darajasi. Ne`mat inson ehtiyojini qancha to'laroq qondirsa, uning nafli shuncha yuqori bo'ladi.

Naflik funktsiyasi - iste`mol qilingan ne`matlar miqdoriniig o'zgarishi natijasida olinadigan naf.

Noaniqlik - axborotlar yetarli, to'liq bo'lmaganda qabul qilingan harorlarda noaniqlik vujudga keladi. Noaniqlik sharoitida qabul qilingan harorlar natijasida tavakkalchilik vujudga keladi.

Nokooperativ o'yin - bu o'yinda hatnashchilar mustaqil ravishda haror qabul qiladi (iqtisodiyotda misol sifatida oligopolik bozorda harakat qiluvchi firmalar o'rtasidagi "narxlar jangini" keltirish mumkin).

Nol sum yutuqqa ega bo'lgan o'yin (zego sum game) - o'yinda bir kishining yutuqi boshqa o'yinchilarning yutqazgan summalari yiqindisiga teng.

Nolga teng bo'lmagan sumga ega bo'lgan o'yin (non zer sum game) - bu uyinda bir guruq o'yinchilar yo yutadi yoki boy beradi.

Nominal ish xaqi (nominal wage rate) - yollanma ishchi tomonidan olingan pul miqdori.

Noratsional talab - bu rejalashtirilmagai talab bo'lib, shaxsning xozirgi qoqishini, kayfiyatini, injiqligini uchratishi bilan vujudga keladigan vaqtinchalik talab.

Nofunksional talab - tovarni sifati bilan bog'liq bo'lmagan omillarga asoslangan talab.

Ob`ektiv (matematik) ehtimol - voqea va hodisalar jarayonida takrorlanishlarni hisob-kitob qilishga asoslangan.

Oliy kategoriyali tovar - daromad oshganda talab oshib ketadigan tovarlar.

Pareto optimum (Pareto samaradorlik) - ne`matlarni shunday ta?simlanishiki, bunda biror kishining turmush farovonligini pasaytirmasdan boshqa kishining turmush farovonligini oshirib bo'lmaydi.

Real ish haqi (real wage rate) - olingan pul mablag'i hisobidan sotib olinishi mumkin bo'lgan tovarlar va xizmatlar miqdorini ifodalovchi ish haqining sotib olish imkoniyati.

Real foiz stavkasi - inflyasiyadan tozalangan foiz stavkasi.

Renta - taklifi qat`iy cheklangan resurs egasi tomonidan olinadigan daromad.

Resurslarga chekli xarajat - qo'shimchabir birlik resurs sotib olish uchun sarflangan qo'shimcha xarajat.

Resursning chekli daromadliliği yoki resursning pulda ifodalangan chekli mahsuloti - resursdan qo'shimcha bir birlik foydalanish natijasida olingan qo'shimcha mahsulotni sotishdan tushgan qo'shimcha daromad.

Sof diskontirlangan (keltirilgan) qiymat (NPV) - bu kelajakda olinadigan sof daromadning diskontirlangan qiymatidan diskontirlangan investisiya ayirmasi.

Sof iqtisodiy renta (pure economic rent) - narx bo'yicha absolyut elastik bo'lmagan taklifga ega bo'lgan resurs egasi tomonidan olinadigan daromad.

Ssuda foizi - kapital egasiga uni kapitalidan foydalangani uchun iqtisodiy sub`ekt tomonidan to'lanadigan narx.

Standart (o'rta kvadratik) chetlanish - dispersiyadan olingan kvadrat ildiz/

Tavakkalchilik (risk) - qo'yilgan maqsadga erishidagi yo'qotishlar.

Tavakkalchilikka befarq harovchi shaxs - kutiladigan daromadda u kafolatlangan daromad bilan tavakkal daromaddan qaysi birini tanlashga befarq haraydigan shaxs.

Tavakkalchilikka harshi inson (zist orvezse person) - kutilgan daromadga nisbatan kafolatlangan daromadni ustun ko'radigan inson.

Tavakkalchilikka moyillik (zist prefeped) - kutiladigan daromadda kafolatlangan natijaga ko'ra ko'proq tavakkalchilik bilan bog'liq bo'lgan natijani ustun ko'radigan shaxs.

Tavakkalchiliklarni qo'shish - ushbu usul tasodifiy yo'qotishlarni o'zgarmas xarajatlarga aylantirish orqali tavakkalchilikni kamaytirishga haratilgan (mulkni sug'urtalash).

Tavakkalchilikni taqsimlash - ushbu usulga ko'ra zarar ko'rish ehtimoli bilan bog'liq bo'lgan tavakkalchilik qatnashuvchi sub`ektlar o'rtasida shunday taqsimlanadiki, oqibatda har bir sub`ektning kutiladigan zarari nisbatan kichik bo'ladi. Yirik moliya kompaniyalari katta masshtabdagi loyihalarni tavakkalchilikdan qo'rqmasdan moliyalashtiradi.

Boshharuv axboroti - biror ob`ekt to'g'risida va unda bo'layotgan jarayonlar to'g'risidagi ma'lumotlar.

Taklif - bu ishlab chiqaruvchilar va sotuvchilar tomonidan berilgan narxlarda sotilishi mumkin bo'lgan tovarlar miqdori.

Taklif qonuni - to'g'ridan-to'g'ri narx o'zgarishi bilan bog'liq holda taklifning o'zgarishi.

Taklif funktsiyasi (supply function) — taklifga ta'sir qiluvchi omillar miqdori bilan taklif miqdori urtasidagi bog'liqlikni ifodalaydi.

Taklif chizig'i (supply curve) - tovar narxi bilan taklif qilinadigan ushbu tovar, miqdori o'rtasidagi bog'liqlikni ifodalovchi egri chiziq.

Talab (demand) - berilgan narxlarda xaridorlar tomonidan sotib olinishi mumkin bo'lgan tovarlar miqdori.

Talab qonuni - narxdan boshqa omillar o'zgarimaganida talab miqdori bilan narx o'rtasidagi bog'liqlik.

Talab funktsiyasi (demand function) - talabga ta'sir diluvchi omillar miqdori bilan talab miqdori o'rtasidagi bog'liqlikni ifodalaydi.

Talab chiziqi (demand curve) - tovar narxi bilan sotib olinadigan ushbu tovar miqdori o'rtasida bog'liqlikni ifodalovchi egri chiziq.

Transaksion xarajatlari (transaction costs) - bozorda tovarlarni sotishda egalik xuquqini aniqlash va uni berish bilan bog'liq xarajatlari.

To'ldiruvchi tovarlar (complementary goods) - birgalikda, komplektlarda iste'mol qilinadigan tovarlar.

To'lov funksiyasi - o'yin natijasi bo'lib o'yinchining yutug'ini yoki yo'qotishini bildiradi.

Umumiy mahsulot (total product, TR) ishlab chiqarish omili sarfiga tug'ri keladigan mahsulot miqdori.

Umumiy muvozanatlik - barcha bozorlarning o'zaro bir-biriga ta'siri natijasida o'rnatiladigan muvozanatlik. Barcha bozorlarni muvozanat holatda bo'lishi. Bunda biror bozorda muvozanatlik buzilsa boshqa bozorlarda ham muvozanatlik buziladi.

Umumiy naflik (total utility) - iste'mol qilingan ne'matlardan olingan jami naflik.

O'yin - oldindan belgilangan qoidalar asosida iqtisodiy sub'ektlar o'rtasidagi o'zaro munosabatlar (harorlar qabul qilish).

O'yinlar nazariyasi - fan yo'nalishi bo'lib u o'yin qatnashuvchilarining vaziyat bo'yicha harakat qilish va haror qabul qilishni matematik usullar yordamida o'rganadi.

O'rindosh tovarlar (substitution goods) - iste'mol qilishda bir-birini o'rnini bosuvchi tovarlar yoki bir xil ehtiyojni qondiruvchi tovarlar.

O'rindosh tovarlarni almashtirish samarasi - iste'molchining iste'mol majmuasiga kiruvchi ne'matlardan birining narxi o'zgarishi natijasida iste'mol tarkibining o'zgarishi.

O'rtacha daromad - bir birlik tovarni sotishdan tushgan daromad.

Firma (firm) - jismoniy yoki yuridik shaxs sifatida mahsulot ishlab chiqarish va sotish bilan shug'ullanuvchi iqtisodiy sub'ekt.

Firmaning bozordagi strategik harakati - bunda firma o'zining harakatini raqobatlashuvchi firmaning harakatiga ko'ra ishlab chiqadi.

Foiz stavkasi - nominal foiz stavkasi inflyasiyani hisobga olmagandagi joriy kursdagi foiz stavkasi.

Foyda (buxgalteriya) - mahsulotni sotishdan tushgan tushumdan ushbu mahsulotlarini ishlab chiqarish uchun ketgan yalpi xarajatni (tashqi xarajatni) ayrilganiga teng.

Maksimal foyda olish sharti $MR=MC$ - raqobatlashgan bozorda maksimal foyda olish sharti $MC=P$, raqobatlashuvchi firmaning zararsiz ishlash nuqtasini ifodalovchi shart.

Fyuchersh - hozirgi narxlarda ma'lum miqdordagi tovarni kelajakda ma'lum kunda yetkazib berish uchun tuzilgan muddatli shartnoma. Tavakkalchilik bilan bog'liq bo'lmagan aktivlar - aktiv tomonidan tushadigan pullar miqdori oldindan belgilangan miqdorda bo'lishi.

Xarajatlar - mahsulot ishlab chiqarish uchun qilingan sarflar.

Chekli mahsulot (marginal product, MR) - boshqa omillar sarfi o'zgarmaganda bir birlik biror omildan qo'shimcha foydalanish hisobidan ishlab chiqarilgan qo'shimcha mahsulot.

Chekli naflik (marginal utility) - oxirgi yoki navbatdagi birlik ne'matni iste'mol qilishdan olinadigan naflik.

Chekli texnologik almashtirish normasi (marginal rate of technological substitution, $MRTS_{xy}$) - ishlab chiqarish xajmi o'zgarmaganda bir birlik X omilini necha birlik Y omil bilan almashtirish mumkinligini ko'rsatadi.

Chekli transformatsiya normasi (MRT) - birinchi tovardan qo'shimcha bir birlik ishlab chiqarish uchun ikkinchi tovardan qancha voz kechish kerakligini ko'rsatadi. Bu birinchi tovarning alternativ qiymatini ifodalaydi va ikkinchi tovarni chekli ishlab chiqarish xarajatlarini birinchi tovarni chekli ishlab chiqarish xarajati nisbatiga teng.

Chetlanish - kutiladigan natija bilan haqiqiy natija o'rtasidagi farq.

Shartnomalar chizig'i - ikki iste'molchi o'rtasida ikkita ne'matning samarali taqsimlanish variantlarini ifodalovchi chiziq.

Shaxs talabi (individual demand) - bitta iste'molchining tovarga talabi.

Shtakelberg muvozanati - bu duopolik sharoitda lider firma bilan ergashuvchi firma faoliyat ko'rsatganda lider tovar narxini va ishlab chiqarish hajmini mustaqil belgilaydi, ergashuvchi firma lider firmaga moslashgan holda narx va mahsulot hajmini belgilaydi.

Vaqt bo'yicha ustun ko'rish - joriy iste'molga sarflash bilan kelajakda iste'mol qilish uchun sarflashdan qaysi birini befarqlik chizig'i asosida tanlash.

Vaqt bo'yicha ustun ko'rishni cheklash normasi - umumiy turmush darajasi o'zgarmaganda joriy iste'moldan bir birlik kechishni to'liq qoplaydigan kelajakdagi qo'shimcha iste'mol qiymati.

Vaqlararo byudjet chegarasi - shaxsning daromadi va ssuda foizi stavkasi bilan aniqlanadigan vaqlararo ustun ko'rish kartasidagi chiziqning holati.

Vaqlararo muvozanatlik - joriy va kelajakda iste'mol qilish o'rtasida tanlayotgan shaxs uchun maksimal naflik keltiruvchi holat.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

Asosiy adabiyotlar

1. Campbell R. McConnel, Stanley L. Brue, Sean M. Flynn. Microeconomics: Principles, Problems and Policies. -19th ed. – New York. The McGraw-Hill Companies, Inc., 2012. P. 604.
2. Pindyck, Robert S. Microeconomics. – Copyright 2013, Macmillan Publishing Company, a division of Macmillan, Inc.
3. N. Gregory Mankiw. Macroeconomics. 8 th edition. Harvard University. (NY.: Worth Publishers, 2013). 605 p.
4. Абель Э., Бернаке Б. Макроэкономика. 5-е изд.-СПб.:Питер, 2009- 544 с.
5. Агапова Т.А., Серегина С.Ф. Макроэкономика. Учебник. М.: «Дело и Сервис», 2005. -464 с.
6. Аддреу Мас-Колелл и др. Микроэкономическая теория. Учебник. – М.: Дело и Сервис, 2016. - 630 с.
7. Axmedov D.Q., Ishmuhamedov A.E., Jumaev Q.X., Djumaev Z.A. Makroiqtisodiyot. T.: «O‘zbekiston yozuvchilar uyushmasining Adabiyot jamg‘armasi nashriyoti», 2004. -240 b.
8. Вечканов Г.С., Вечканова Г.Р. Макроэкономика; Учебник для вузов. СПб.: Питер, 2009. -350 с.
9. Djumaev Z.A. “Makroiqtisodiyot” fanidan O‘quv-uslubiy majmua.- Toshkent: Iqtisodiyot.-2010 y. – 598 b.
10. Ishmuhamedov A.E., Djumayev Z.A, Jumayev Q. X. Makroiqtisodiyot: O‘quv qo‘llanma. T.: O‘zbekiston Yozuvchilar uyushmasi Adabiyot jamg'armasi nashriyoti, 2005. -192 b.
11. Камаев В.Д. Микроэкономика. Макроэкономика. Учебник. –М.: КНОРУС.-2016.-384 с.
12. Мэнкью Н.Г. Принципы макроэкономики. СПб.: Питер, 2009. -544 с.
13. Носова С.С. Микроэкономика. Макроэкономика. Учебник. - М. : КНОРУС, 2013. - 472 с.
14. Самуэльсон, Пол Э., Нордхаус, Вильям Д. Макроэкономика. М.: ООО «И.Д. Вильямс», 2009. -592 с.
15. Тарануха Ю.В. Микроэкономика. Учебник. – М.: Дело и Сервис, 2011. - 580 с.
16. Salimov V.T., Muxitdinova U.S., Mustafakulov Sh.I., Salimov V.B. Mikroiqtisodiyot. Darslik. –T.: TDIU, 2005. - 230 b.
17. Salimov V.T., Mustafakulov Sh.I., Yuldashev G‘.T., Sultanov V.T. Mikroiqtisodiyot. Masalalar to‘plami. –T.: TDIU, 2018. - 210 b.
18. Фуломов С.С., Алимов Р.Х., Салимов Б.Т., Ходиев Б.Ю., Ишназаров.А.И. Микроиктисодиёт. Дарслик – Т.: “ШАРҚ” нашриёти, 2001. - 320 б.

Qo‘shimcha adabiyotlar

1. O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. – T.: O‘zbekiston, 2017. – 76 b.
2. O‘zbekiston Respublikasining Budget kodeksi, 2014 y. / www.lex.uz
3. O‘zbekiston Respublikasining 2003 yil 11 dekabrda “Banklar va bank faoliyati to‘g‘risida”gi Qonuni. / www.lex.uz
4. O‘zbekiston Respublikasining 2003 yil 11 dekabrda “Valyutani tartibga solish to‘g‘risida”gi Qonuni. / www.lex.uz
5. O‘zbekiston Respublikasining “Chet ellik investorlar huquqlarining kafolatlari va himoya qilish choralari to‘g‘risida”gi qonuni. / www.lex.uz
6. O‘zbekiston Respublikasining “Investitsiya faoliyati to‘g‘risida”gi
7. Qonuni (yangi tahriri)., 09.12.2014 y. //NORMA tizimi
8. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevralda “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida”gi Farmoni.// NORMA tizimi
9. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 2 fevralda "Ish haqi, pensiya, nafaqa va stipendiyalarni to‘lash mexanizmini takomillashtirishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida"gi Qarori.// NORMA tizimi
10. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha harakatlar strategiyasi to‘g‘risida"gi PF-4947-sonli Farmoni. // Xalq so‘zi. 8 fevral 2017 yil.
11. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 17 yanvarda “2017–2021 yillarda O‘zbekistonni rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha Harakatlar strategiyasini “Faol investitsiyalar va ijtimoiy rivojlanish yili”da amalga oshirishga oid Davlat dasturi to‘g‘risida”gi Farmoni.
12. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M. Mirziyoevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi. //Xalq so‘zi, 28 dekabr 2018 yil.
13. Mirziyoev Sh.M. Erkin va farovon, demokratik O‘zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. - Toshkent : O‘zbekiston, 2016. - 56 b.
14. Mirziyoev Sh.M. Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta'minlash - yurt taraqqiyoti va xalq farovonligining garovi. - Toshkent: “O‘zbekiston”, 2017. - 48 b.
15. Mirziyoev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz. - Toshkent: : “O‘zbekiston”, 2017. - 488 b.
16. Mirziyoev Sh.M. Tanqidiy tahlil, qat'iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik - har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo‘lishi kerak.
17. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2016 yil yakunlari va 2017 yil istiqbollarga bag‘ishlangan majlisidagi O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining nutqi. // Xalq so‘zi gazetasi. 2017 yil 16 yanvar, №11.
18. Агапова Т.А., Серегина С.Ф. Макроэкономика. Тесты: Учебное пособие.-2-е изд.- М.: Издательство “Дело и сервис”, 2005., 96 с.
19. Вечканов С.В., Вечканова Г.Р. Макроэкономика. Краткий курс.: учебное пособие. СПб.: Питер, 2010. -288 с.

20. Киселёва Е.А. Макроэкономика. /Экспресс курс:учебное пособие- М.:КНОРУС, 2008- 384 с.
21. Кисельёва Е.А. Макроэкономика: Курс лекций. М: Изд-во Эксмо, 2007. -352 с.
22. Кушлин В.И., Ивлева Г.Ю., Клюкин П.И. Макроэкономика: Государственное регулирование в условиях глобализации; УМК для подготовки магистров.-М. :Изд-во РАГС, 2007.-320 с.
23. Макроэкономика. Теория и российская практика: учебник / под ред. А.Г.Грязневой и Н.Н. Думной.-5-е изд., перераб. И доп.-М.: КНОРУС, 2008.- 688 с.
24. Марыганова Е.А., Шапиро С.А. Макроэкономика. Экспресс
25. Матвеева Т.Ю. Введение в макроэкономику: учебное пособие. Гос.ун-т-Высшая школа экономики.-3-е изд.-М: Изд.дом ГУ ВШЭ, 2005.-510 с.
26. Salimov B., Mustafakulov Sh., Salimov D.. Mikroiqtisodiyot: masalalar, namunalar, topshiriqlar, testlar. (O'quv qo'llanma) – T.:TDIU, 2010. -196 b.
27. Тарсевиц Л.С., Гребников П.И., Лусский А.И. Макроэкономика: Учебник. М.: Высшее образование», 2006. -654 с.
28. Гальперин В.М., Игнатъев С.М., Моргунов В.И. Микроэкономика. Учебник, том 1,2. – С. Пб.: Экономическая школа, 2010. - с. 350.
29. Гребенников П.И. и др. Микроэкономика. Учебник. – СПб.: Изд-во СПб УЭФ, 1996. - с. 352.
30. Нуреев Р.М. Сборник задач по Микроэкономике. –М.: Норма, 2008.
31. Пиндайк Р., Д. Рубинфельд. Микроэкономика. 5-е международное изд.- СПб.: Питер, 2007. – 350 с.
32. Просветов Г.И. Стратегия предприятия. Учеб. практическое пособ. – М.: “Альфа-Пресс”, 2010. – 184 с.
33. Eshov M.P., Bo'stonov M.M., Maxmudov M.F. “Makroiqtisodiyot” fanidan masalalar yechish bo'yicha uslubiy ko'rsatma.-T: «Fan va texnologiya», 2010.-186 b.
34. Z.Berdinazarov. O'zbekiston amaliyotida makroiqtisodiy muvozanat tahlili. Iqtisodiyot va ta'lim/ 2016, №5, 124 b.
35. U.A. Madrahimov. Iqtisodiy o'sishga yalpi talab va uning tarkibi ta'siri. “Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar” ilmiy elektron jurnali. № 4, iyul-avgust, 2016 yil
36. Valiev “Iqtisodiy o'sish nazariyasining konseptual yondashuvlari”. Biznes-Ekspert, 2014 yil № 1-son, 17-18-betlar.
37. Gulyamov S. Makroiqtisodiy barqarorlik va ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish. //Iqtisodiyot va ta'lim, 2012, №2, 4-5 b.b
38. O'zbekiston iqtisodiyoti. 2016 yil uchun axborot tahliliy byulleten, Toshket- 2016., 80 b.
39. Матвеева Т.Ю. Введение в макроэкономику: учебное пособие. Гос.ун-т-Высшая школа экономики.-3-е изд.-М: Изд.дом ГУ ВШЭ, 2005.-510 с.
40. Тарсевиц Л.С., Гребников П.И., Лусский А.И. Макроэкономика: Учебник. М.: Высшее образование», 2006. -654 с.

41. Eshov M.P., Bo'stonov M.M., Maxmudov M.F. "Makroiqtisodiyot" fanidan masalalar yechish bo'yicha uslubiy ko'rsatma.-T: «Fan va texnologiya», 2010.-186 b.

42. Z.Berdinazarov. O'zbekiston amaliyotida makroiqtisodiy muvozanat tahlili. Iqtisodiyot va ta'lim/ 2016, №5, 124 b.

43. U.A. Madrahimov. Iqtisodiy o'sishga yalpi talab va uning tarkibi ta'siri. "Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar" ilmiy elektron jurnali. № 4, iyul-avgust, 2016 yil

44. B. Valiev "Iqtisodiy o'sish nazariyasining konseptual yondashuvlari". Biznes-Ekspert, 2014 yil № 1-son, 17-18-betlar.

45. Gulyamov S. Makroiqtisodiy barqarorlik va ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish. //Iqtisodiyot va ta'lim, 2012, №2, 4-5 b.b

46. O'zbekiston iqtisodiyoti. 2017 yil uchun axborot tahliliy byulleten, Toshket- 2016., 80 b.

Internet saytlari

1. www.gov.uz – O'zbekiston Respublikasi Davlat hokimiyati portali.
2. www.press-service.uz – O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Matbuot xizmati rasmiy sayti.
3. www.lex.uz – O'zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi.
4. www.stat.uz - O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi rasmiy sayti.